SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I82025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G‘aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo‘rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o‘g‘li — yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 8-son (Avgust, 2025). - 342 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod
O‘ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O‘RNI 10-16

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna
MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI 17-21

Sattarova Marhabo Mamatovna
O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA’SIRI 22-30

Raxmatov Mirjon
BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN 31-38

To‘xtasinov Mira’zam
SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI 39-42

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich
DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 43-48

Azgarov Abdumutalib
INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO‘LLANILISHI HOLATI TAHLILI 49-56

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda
IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE 57-60

Otabekov Javdod
GO‘SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGI” IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI 61-68

Navruzov Dilshod Ismatullayevich
AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH 69-74

Uralov Temur Boxodir o‘g‘li
ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH 75-81

Samandarov Og‘abek
ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI 82-86

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yuldashev Rustam Daniyorovich
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI 87-93

Adilov Zafar Yunusovich
ATROF-MUHIT TA’LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO‘L 94-98

Berdikulova Surayyo Aslamovna
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME’YORLARINING SHAKLLANISHI 99-104

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich
ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA’LIM MADANIYATI 105-113

Yarbaev Xasan Xazratqulovich
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASH:
MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL 114-118

Maxsudjonov Kamronjon
MA’RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA’NAVIY MADANIYATIGA TA’SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI 119-123

Qo‘chqarov Oybek G‘ulomovich
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA’LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:
IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV 124-128

Otaqulov Elyor Madiyorovich
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI 129-136

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich
TUSHUNCHA USTIDA MANTIQIY AMALLAR 137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Niyazov Ravshan Turakulovich
SKOTT TUROVNING “AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI” ROMANIDA DIALOGLAR XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI 142-148

Yunusova Xilola Ravshan qizi
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O‘ZBEK TILIDAGI
“V+(I)B YURA TURMOQ” ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA 149-154

Absalamova Gulmira Sharifovna
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG‘AVIY TERMINLARNING NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG‘ATI ASOSIDA 155-158

Dadajanova Aziza Karimullayevna
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:
A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE 159-170

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA’NOLAR: “MOMOTARO” (SHAFTOLIDAN TUG‘ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA 171-175

Babajanova Iqbol Salomaddinovna
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 176-180

To‘xtayeva Sarvinoz
DUNYO VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O‘RGANILISHI 181-184

Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi
TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE’RIYATIDA POETIK ILHOM
MANBALARI QIYOSI 185-189

Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna
CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING
IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY 190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

O‘rinboyev Rustamjon
A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES
OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA 196-206

Uzakova Go‘zal Sharipovna
YER NIZOLARINI SUDLARDA KO‘RISH TARTIBI 207-212

G‘ofurova Dilafruz
AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING
KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR 213-218

Komilov Avazbek Bokijonovich
PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI
BARTARAF ETISH MASALALARI 219-223

Juraeva Asal
OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN 224-228

Ходжаева Ширин
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ
СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ 229-239

Imomniyozov Doniyorbek
SUN’IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK:
IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR 240-250

Asadov Shahriddin Faxriddinovich
XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI:
SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN 251-254

Суннатиллаева Сарвиноз
АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И
КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА 255-262

Anarbayev Eldor
KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH 263-269

Ibrohimov Azimjon
KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI:
XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK 270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISHNING METODLARI,
SHAKLLARI VA VOSITALARI 279-285

Safarova Nigora Nasilloyevna
TRANSFOMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI
VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI 286-293

Muxammadjonov Muslimbek
OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ... 294-302

Khabibullaeva Dilshoda
FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING
CLASSROOMS IN UZBEKISTAN 303-309

Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi
INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI 310-314

Hamidov Sherali Shirinovich
BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY
TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI 315-320

Sattoriy Shohruh
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT
QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 321-325

Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna
TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA
KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI 326-331

Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna
"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY
HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING
TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI 332-336

Karimov Akramjon Zaynobidinovich
TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE
"DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE
"INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT 337-341

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF THE ALL-UNION SCIENTIFIC RESEARCH INSTITUTE OF COTTON PRODUCTION IN SOLVING PROBLEMS OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN THE UZBEK SSR

Bakhranov Sherzad Tashtursunovich,
University of public safety of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Philosophy (PhD) in History

Abstract. The Soviet government created research institutes and organizations to study the problems that arose during research in the field of agriculture, since solving these problems contributed to the development of agriculture in the Uzbek SSR. The article provides facts and evidence that the recommendations of research institutes were implemented in fragments, and were often ignored by the local administration. There were facts of deception, formalism and bureaucracy on the part of the regional administration, all of which, in turn, strongly influenced the effectiveness of measures taken to address issues of improving agriculture in the field. The article proves that the institutes were created only for the development of the region and the protection of the interests of the center, provides the facts that all the institutions that were created on the instructions of the center interacted with each other in solving issues related to the development of agricultural crops, and the research results were under the strict control of the Soviet government.

Keywords: research institute, station, sowing operations, fiber varieties, research, center, staff, cotton, breeding, sowing, laboratory, raw materials.

O‘ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O‘RNI

Baxranov Sherzod Tashtursunovich,
O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
E-mail: Sherofкun82@mail.ru

Annotatsiya. Sovet hukumati qishloq xo‘jaligi sohasidagi muammolarni o‘rganish uchun ilmiy tadqiqot institutlari va tashkilotlarini yaratdi, chunki bu muammolarni hal qilish O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga yordam berdi. Maqolada ilmiy-tadqiqot institutlarining tavsiyalari parcha-parcha bo‘lib bajarilganligi va ko‘pincha mahalliy ma’muriyat tomonidan e’tiborsiz qoldirilganligi to‘g‘risida dalillar keltirilgan. Joylarda ma’muriyat tomonidan aldash, rasmiyatchilik va byurokratiya faktlari mavjud edi, bularning barchasi, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligini sohasini yaxshilash masalalarini hal qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Maqolada institutlar faqat markaz rivojlantirish va markaz manfaatlarini himoya qilish uchun yaratilganligi isbotlangan, markazning topshirig‘iga binoan tashkil etilgan barcha muassasalar qishloq xo‘jaligi ekinlarini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lganligi va tadqiqot natijalari Sovet hukumatining qattiq nazorati ostida edi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-tadqiqot instituti, stansiya, urug‘chilik ishlari, tolali navlar, tadqiqot, markaz, xodimlar, paxta, seleksiya, urug‘chilik, laboratoriya, ariqlar, xom ashyo.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N01

Kirish.

O‘rta Osiyo o‘lkasining paxtasiga bo‘lgan qiziqish Rossiya imperiyasi, keyinchalik Sovet hokimiyati tomonidan bu yerda paxta navlarini o‘rganish, iqlimni o‘rganish, yangi navlarni ixtiro qilish ishlarini tezlashtirib yubordi. 1929-yil Toshkentda Lenin ordenli Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SoyuzNIXI) O‘rta Osiyoda paxtachilik masalalari bilan shug‘ullanadigan barcha ilmiy tashkilotlarni birlashtirgan Butunittifoq paxtachilik ilmiy – tadqiqot instituti tashkil etildi.

Muhokama.

Sovet hukumatining 1934-yil 29-avgustdagi “Paxtachilikda urug‘chilik ishlarini yaxshilash chora-tadbirlari haqida”gi farmoyishidan kelib chiqib, institutda 1937-yilga qadar Amerika, Misr, mahalliy paxta navlari, ingichka va o‘rta tolali navlar tadqiq etildi. Bu ishlarda markaz xodimlaridan S.S.Kanash, P.V.Mogilnikov, G.S.Zaysev, Ya.D.Nagibin, R.R.Shrederlar faol bo‘ldilar. Paxta navlarini o‘rganadigan maydonlar ham ajratilib, 1937-yilga kelganda Markaziy seleksiya stansiyasining tajriba maydonlari 1 mln.ga.ga etdi[1; b.13]. Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti tarkibida bo‘lgan Markaziy seleksiya stansiyasining o‘zi ham 1929-1931-yillarda SSSR mustaqil paxtachiligini shakllantirish maqsadida seleksiya – urug‘chilik ishlarini qayta ko‘rib chiqish bilan shug‘ullandi[2; b.9]. Bug‘doy ekinlarini o‘rganish bilan 1938-yilgacha shug‘ullandi.

Shuningdek o‘lkada qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirishga e’tibor qaratildi. 1924-yilda paxtachilikni mexanizatsiyalashni rivojlantirish masalasida V.Lenin dekret imzoladi. Qishloq xo‘jaligida mashinasozlikni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston SSRda mashina – tajriba stansiyalari ochildi.

1931-1932-yillarda Butunittifoq qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash institutining O‘rta Osiyo paxtachilik bo‘limi qoshida O‘rta Osiyoda paxtachilikni mexanizatsiya va elektrifikatsiyalash stansiyasi ochildi. Keyinchalik stansiya Butunittifoq paxtachilik ilmiy – tadqiqot instituti (SoyuzNIXI) tarkibiga o‘tkazildi va paxtachilik agrotexnikasi va mexanizatsiyasi Markaziy stansiyasi deb atala boshladi[3; b.3]. Qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirishga e’tibor qaratildi.

Masalan, 1911-yilda entomolog olim V.I. Plotnikov Toshkentda Turkiston entomologik stansiya ochdi. Stansiyaning bog‘dorchilikda chigirtka, qurt-qumursqa, kemiruvchilarga qarshi kurash olib borish ishlarini olib bordi. 1925-yilda Turkiston entomologik stansiya O‘zbek o‘simliklarni himoya qilish markazi (UzSTAZRA) ochildi. Markaz tarkibiga Buxorodagi Shirabudin, Xiva bo‘limlari hamda Ozarbayjon SSR, Turkmaniston SSRdagi markazlar kiritildi. 1912-yilda Samarqandning Kattaqo‘rg‘on shahrida Milyutin davlat seleksiya stansiyasi tashkil etildi[4; b.76]. Stansiya bug‘doy navlarini yaxshilash va respublikaning yomg‘irli yerlarida ekiladigan qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘rganish bilan shug‘ullandi[5; b.77]. O‘zbek guruch tajriba stansiyasi 1932-yilda tashkil etildi. Stansiyaning vazifasi yangi guruch navlarini yaratish, uning chidamliligini o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Natijada guruchning 15 ta yangi navlari yaratildi, ularning 8 tasi O‘zbekiston SSRdan tashqari Tojikiston SSR, Turkmaniston SSR, Qozog‘iston SSR, Ozarbayjon SSR, Ukraina SSRda ham ekila boshladi[6; b.78].

O‘zbek guruch tajriba stansiyasi 1957-yilda O‘zbekiston SSRdagi yangi guruch navlarining 8 foizi O‘zbek guruch tajriba stansiyasi tomonidan taqdim etildi. Stansiya tomonidan makkajo‘xori navlari ham o‘rganildi[7; b.78].

1929-yilda UzSTAZRAda N.Z.Zaprometov boshchiligida paxta kasalligi va zararkunandalarga qarshi kurash maxsus bo‘limi ochildi. 1931-yilda stansiya SoyuzNIXI tarkibiga kiritilib, SoyuzNIXI o‘simliklarni himoya qilish markaziy stansiyasi (STAZRA SoyuzNIXI) deb ataldi[8; b.8]. O‘zbek sabzavot-kartoshka tajriba stansiyasi 1933-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u mexanizatsiya ishlarini amalga oshirish bilan kartoshkaning keng ishlatishga erishish, sabzavot-poliz mahsulotlarini yetishtirishda agrotexnik ishlarning ilmiy-texnik jihatlarini tahlil qilish, respublika iqlimi, hududini o‘rgangan holda sabzavot-kartoshka mahsulotlarini yangi navlarini yaratish kabi vazifalarni bajardi. Stansiya kuzga, qishki, bahorgi sabzavot-kartoshka mahsulotlarini yetishtirishning agrotexnik tadbirlarini o‘rganib, ochiq yerlarda erta pishar navlarni yaratish borasida tajribalar o‘tkazib keldi. Stansiya Turkiston qishloq xo‘jalik tajriba stansiyasi, O‘zbek meva stansiyasi deb nomlanib, uning tarkibida Samarqand seleksiya mevali (plodovaya) va O‘zbek uzumchilik stansiyasi, keyinchalik Uzumchilik instituti tashkil etildi[9; b.74].

Natija.

1965-yil KPSS MQning mart plenumidan so‘ng 1965-yil 26-mayda O‘zbekiston SSR KP MQning XVII plenumi bo‘lib o‘tdi. Unda qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish sohasida O‘zbekiston partiya tashkilotining vazifalari belgilandi. Belgilangan vazifalar qatorida O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jalik ministrligi, ilmiy tadqiqot institutlari va tajriba stansiyalarining rahbarlari hamda boshlang‘ich partiya tashkilotlariga ilmiy tadqiqot ishlarining saviyasi va samaralarini oshirishni, ilmiy xodimlarning e’tiborini O‘zbekistonning tabiiy va iqtisodiy zonalariga muvofiq bo‘lgan agrotexnika va zootexnika choralarini ishlab chiqish va takomillashtirishga, paxta va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarining tez pishar, sifatli va serhosil yangi navlarini yetishtirishga, o‘g‘itlar, gerbitsidlar defoliantlardan va o‘simliklarni zararkunandalar hamda kasalliklardan himoya qiluvchi vositalaridan samarali foydalanish masalalariga, xususan paxta viltiga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirishni yanada rivojlantirish, sug‘orish texnikasi, va yerlarning melioratsiyasini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligidagi chorva mollarini urchitish, parvarish qilish va boqish, chorva, mol va parrandalarning eng mahsuldor zotlarini vujudga keltirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirish masalalariga jalb etishni topshirdi[10; b.3].

Xalq xo‘jaligida fan, texnika, texnologiya sohasida erishilgan yutuq-lardan foydalanish, rivojlangan davlatlar tajribasini qo‘llash masalasida ham ma’muriyatchilik bilan bog‘langan jiddiy to‘siqlar yuzaga keldi.

Ma’lum bo‘lishicha, mamlakatda 1976-yildan 1980-yilgacha fan taraq-qiyotining eng muhim va yangi yo‘nalishlar bo‘yicha 2000 ta kompleks dastur ishlab chiqildi. Bu dastur 6 mingdan ortiq aniq mavzularni o‘z ichiga oldi[11; b.101]. Mamlakat olimlari qo‘lga kiritgan ilmiy muvaffaqiyatlariga chet davlatlarda ham qiziqish katta bo‘lsada, bu davrda chuqur tomir otgan ma’muriyatchilik va rasmiyatchilik bunday yutuqlarni tez va samarali hal etishga, yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etishga yo‘l bermadi.

Shu sababli ilmiy asoslangan ishlab chiqarish o‘rniga yillar davomida xalq xo‘jaligi tarmoqlari markazdan berilgan ko‘rsatmalar asosida ko‘r-ko‘rona rivojlantirildi. Ayni paytda, ishlab chiqarishda band bo‘lgan mutaxassislarni emas, balki ishchilarning ham bilimlarini ko‘tarish, ularga ma’lum ijtimoiy, moddiy, ma’naviy sharoitlar yaratish, yetarli bilim, malaka

shakllantirish va bularsiz fan, texnika sohasidagi yutuqlardan foydalanish mumkin emasligini jahon tajribasi ham koʻrsatib turar edi.

1978-yil 17-may kuni V.I.Lenin nomli Butunittifoq Qishloq xoʻjalik fanlari akademiyasida “Turkistonni sugʻorish ishlarini tashkil etish toʻgʻrisidagi Dekreti imzolangan kunning 60-yilliga bagʻishlangan sessiyasi” boʻlib oʻtdi. Sessiyada VASXNIL prezidenti P.Lobanov raisligida oʻtgan bu yigʻilishda Dekret va Oʻrta Osiyo respublikalari hamda Qozogʻistonda sugʻoriladigan dehqonchilikni rivojlantirish haqida, sugʻoriladigan dehqonchilikda fan-texnikani taraqqiy ettirish haqida paxtachilikda sugʻoriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishning agrotexnika asoslari xususida va sugʻoriladigan dehqonchilikni rivojlantirish toʻgʻrisidagi masalalar koʻrib chiqildi [12; b.45]. “Sotsialistik” jamiyatni rivojlantirish iqtisodiy muammolarni hal etishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirish, ilmiy-texnika jamoatchiligini kuchini xalq xoʻjaligiga safarbar etish maqsadida Oʻzbekiston SSR KP MQ ham respublika partiya organlari huzurida texnika taraqqiyotiga yoʻl ochish, fan-texnika yutuqlarini joriy etishdagi toʻsqinliklarni bartaraf etishda koʻmaklashadigan fan-texnika taraqqiyotiga koʻmaklashuvchi kengashlar tuzildi. Tabiiyki, ular partiya komitetlari bilan hamkorlikda asosan yigʻilishlar oʻtkazar va qarorlar qabul qilar edi [13; b.12]. Umuman, 1976-1980 va 1981-1983-yillarda Oʻzbekiston SSR FA ilmiy – texnik muammolarni kengaytirish dasturiga koʻra tabiatni muhofaza qilish, kam chiqindili hamda chiqindisiz texnologiyalar bilan Fanlar Akademiyasining Yadro fizikasi, Kibernetika, Oʻsimliklar kimyosi, Oʻsimliklar biologiyasi, Mikrobiologiya institutlari shugʻullandi.

1981-yil 10-dekabrda Oʻzbekiston SSR KP MQ va Oʻzbekiston SSR Ministrlar Sovetining “KPSS XXVI syezdi talablarida asosida respublika kolxoz va sovxozlarida mineral oʻgʻitlar va pestitsidlarni ishlatishning samaradorligini oshirish haqida”gi qarori chiqdi. Unda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, VASXNILning Oʻrta Osiyo boʻlimiga yuqoridagi qarorni bajarish boʻyicha topshiriqlar berildi. Ulardan kelib chiqib, 1982-yil 28-29-may kunlari VASXNIL Prezidiumida “Paxtachilikda oʻgʻitlarni ishlatish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari”, “Oʻgʻitlarni tayyorlash va ishlatishning mashina va mexanizmlarni tayyorlash mexanizmlari” mavzusidagi masalalar koʻrib chiqildi.

Oʻsimliklarni himoya qilish maqsadlarida ham oʻrinli edi. Shu maqsadda Respublikada oʻsimliklarni himoya qiladigan xizmatlar ochilib, karantin punktlari, oʻsimliklarni himoya qilish stansiyalari, signalizatsiya postlari, zararkunandalarga qarshi kurashuvchi mexanizatsiyalashgan otryadlar va laboratoriyalarda 10 mingdan ziyod entomolog, fitapotolog va boshqa mutaxassislar ishladi. Respublikada 11 ta zona agrokimyo laboratoriyasiga ega boʻlgan agrokimyo xizmati barpo etildi. Ular 2 mln. 175 ming gektar sugʻoriladigan maydonda tekshiruv olib borib, tuproq agrokimyo kartogrammalarini tuzishdi, tuproq unumdorligini va qishloq xoʻjalik ekinlari hosildorligini oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar shunchaki qolib ketdi, masalan, oʻgʻit solish normalari hamma vaqt ham ilmiy talablarga javob bermadi[14; 16-b].

Oʻzbekiston KP MQning 1981-yil 10-dekabr 949-son “KPSS XXVI syezdi talablaridan kelib chiqib, respublika kolxoz va sovxozlarida mineral oʻgʻitlarni saqlash va samarali ishlatish haqida”gi qarori chiqdi. Bu qaror asosida VASXNILning Oʻrta Osiyo boʻlimi filialining farmoyishi chiqdi va ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga topshiriqlar berildi.

1981-yil 28-29-iyun kunlari VASXNILning Oʻrta Osiyo boʻlimi filiali Prezidiumi boʻlib oʻtdi. Unda “Paxtachilikda mineral oʻgʻitlarni ishlatishni oshirishning ilmiy aspektlari”,

“O‘g‘itlashni amalga oshirishda mashina va mexanizm apparatlarini tayyorlash” to‘g‘risidagi masalalar ko‘rib chiqildi. Bu masala bo‘yicha o‘g‘itlash ishlarida ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik ishlarini bajarishning aniq chora-tadbirlari haqida bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limi 1981-1985-yillarga 7,6 ming tonna mineral o‘g‘it sig‘adigan omborxonalar qurish, 1982-yilda Qashqadaryo oblastining Maymaloq sovxozida 0,5 ming tonna, Surxondaryo oblastining R.R. Shreder nomidagi NPO eksperimental xo‘jaligida 1,0 ming tonna mineral o‘g‘it sig‘adigan omborxonalar qurish belgilandi. VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limi qoshidagi institutlarining eksperimental xo‘jaliklarida mineral o‘g‘itlarni ishlatish va ishlab chiqishning qattiq nazorat ostidagi metodikasi ishlab chiqildi. Bu xo‘jaliklarda turli ekinlarni o‘g‘itlashning natijalari aks etgan “Maydonlar tarixi” daftari yuritildi[15; 69-b].

VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limi va SoyuzNIXI hamda boshqa ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda mineral o‘g‘itlarni taqsimlash-ning yagona metodikasi ishlab chiqildi. Bu metodikani ishlab chiqishdan avval tuproq tarkibi, qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi o‘rganib chiqildi. Yangi o‘zlashtiriladigan yerlardan ingichka tolali paxta yetishtirish uchun yerlar ajratildi. SoyuzNIXI va Uzselxozximiya bilan hamkorlikda o‘g‘itlarni ishlatishning rejasi va ulardan foydalanish bo‘yicha kadrlarni o‘qitish yo‘lga qo‘ydi. Agroximiyaning turli jihatlari, paxtani o‘g‘itlashning fiziologiyasi, paxtachilikda o‘g‘itlarni ishlatishning samaradorligini kabilar o‘rganib chiqildi. O‘g‘itlarni ishlatish bo‘yicha aniq tavsiyalar taqdim etildi. Kaliyli va fosforli o‘g‘itlar va mikro-elementlarni ishlatishning agrokimyoviy tuproq kartalari ishlab chiqildi. Paxta hosildorligini oshirish maqsadida, paxtachilikni intensifikatsiyalash paxta – beda va boshqa xil almashlab ekishlar bilan bog‘liq bo‘ldi. SoyuzNIXI ishlab chiqqan almashlab ekishlar paxtachilik bilan shug‘ullanadigan 2,6 mln. gektar yer joriy qilindi[16; 4-b]. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1983-yil 16-sentyabrdagi 535 -son “Respublikada ilmiy-texnik ma’lumotlarni va NOT [17; 14-b] faoliyatini yaxshilash haqida”gi qarori chiqdi. Unda NOTning ministrliklar, tashkilotlar, ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiy eksperimentlar o‘tkazishda, attestatsiya va ishchi o‘rinlarini ratsionalizatsiya qilish, ish haqini normallashtirish, moddiy resurslarni tejash, mehnatni tashkil etishda brigada formalarini tashkil etish, sotsialistik musobaqalarni boshqarish, xo‘jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarish va mahsulot sifatini nazorat qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabilarni nazorat qilib belgilab berildi. Biroq, NOTlarning ilmiy isbotlangan asoslari, tashkilotlarda NOTning faoliyati juda sayoz bo‘ldi. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining fan bo‘limi bergan ma’lumotnomaga ko‘ra korxonalarda ilmiy isbotlangan ishlab chiqarish usullari texnik-iqtisodiy natija, ishlab chiqarishni oshirish, intizomni oshirish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish yo‘li qo‘l mehnatini kamaytirish kabilarda o‘z natijasini bermadi.

Hatto, O‘zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligi, O‘zbekiston SSR Oziq-ovqat sanoati vazirligi, O‘zbekiston SSR Qurilish vazirligiga NOT umuman kiritilmadi. O‘zagropromstroyda ham NOTning faoliyati sezilmadi. Masalan, 1985-yilda Qoraqalpog‘iston ASSRda 1-raqamli Uzagroprostroyda 42 foiz ishchilar qamrab olingan bo‘lsa, NOTning ilmiy ishlanmalari 4-68 rublni tashkil etib, mehnatga ketadigan sarf kuniga 0,54 kishini tashkil etdi[18; 10-21-var].

Yuqoridagilarga ko‘ra shuni aytishimiz mumkinki Sovet hukumati O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jalikni rivojlantirishda ko‘pgina muammolarga duch keladilar va shu maqsadda ularni yechimini topish uchun ilmiy – tadqiqot instituti va tashkilotlarni tashkil etadi. Sovet hokimiyati tomonidan paxta yetishtirishni ko‘paytirish, uning sifatini oshirish va paxta

yetishtirishda yangi texnologiyalarni joriy yetishga katta qiziqish bo‘lganidan dalolat beradi. Shu maqsadda O‘rta Osiyoda paxtachilik masalalari bilan shug‘ullanadigan barcha ilmiy tashkilotlarni birlashtirgan Butunittifoq paxtachilik ilmiy – tadqiqot instituti tashkil etildi. Butunittifoq paxtachilik ilmiy – tadqiqot institutida faoliyat olib borgan olimlar O‘rta Osiyoda paxtachilik masalalari bilan shug‘ullangan va natijada yangi texnologiyalarni qo‘llanish bo‘yicha takliflarni berganlar.

Xulosa.

Binobarin, Sovet hukumati O‘rta Osiyo va ayniqsa, don, paxta kabi qishloq xo‘jaligi ekinlariga boy bo‘lgan O‘zbekiston SSR yerlarini o‘rganishdan manfaatdor edi. Shuni ta’kidlash kerakki, Sovet hukumati paxtachilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi — hududlarning rivojlanishini nazorat qilish uchun butun qo‘mitalar, xalq xo‘jaligi majmualari va ilmiy-tadqiqot institutlari tuzildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, SIKP Markaziy Komiteti partiya rahbariyati paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxta yetishtirish sohasidagi tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi boshqa birlashmalar faoliyatiga qonuniy ravishda, noo‘rin aralashdi. O‘zbekiston SSR Paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxtachilik sohasidagi tadqiqotlar bilan shug‘ullanadigan boshqa birlashmalarning tadqiqotlari natijasida paxta ekinlarini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi, ammo, joylardagi ma’muriyat tomonidan rejani amalga oshirishga qat’iy talablar qo‘yilganligi sababli ko‘pgina ilmiy ishlar takliflari amalga oshmagan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Всесоюзному ордена трудового красного знамени научно – исследовательскому институту селекции и семеноводства хлопчатника им. Г.С.Зайцева 70 лет. – Ташкент. ВНИИССХ им. Г.С.Зайцева, 1992- с. 13.
2. Всесоюзному ордена трудового красного знамени научно – исследовательскому институту селекции и семеноводства хлопчатника им. Г.С.Зайцева 70 лет. – Ташкент. ВНИИССХ им. Г.С.Зайцева, 1992- с. 9.
3. Среднеазиатский ордена трудового красного знамени научно-исследовательский институт мехназации ва электрофикации сельского хозяйства (САИМЭ). – Ташкент. Узбекистан, 1972. – с. 3.
4. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 76.
5. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 77.
6. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 78.
7. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 78.
8. 1911-1991. Среднеазиатский ордена трудового красного знамени научно-иследовательский интиту защиты растений. – Ташкент. Меҳнат, 1991. – с.8.
9. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 74.
10. КПСС МҚ март (1965 йил) пленуми қарорлари асосида республика қишлоқ хўжалигини янада ривожланти-риш соҳасида Ўзбекистон партия ташкилотининг вазифалари // Совет Ўзбекистони 1965 йил 27 май. С.3
11. На пороге кризиса: нарастание застойных явлений в партии и обществе. – М.: Полтитическая литература, 1990. - с. 101.

12. Доҳий чизиб берган план асосида // Совет Ўзбекистони 1978 йил 18 май. С.45.
13. Муҳим ва барқарор йўналиш // Совет Ўзбекистони. 1978 йил 11 май. С. 12.
14. Агросаноат комплекси янгиланиш йўлида. – Тошкент. Маҳнат, 1989. – 19 б.
15. Ўз МА Р- 837, рўйҳат – 41, йиғма жилд – 6153, - 69 варақ.
16. СССР Озиқ – овқат программаси - пахтачилик зонаси резервлари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1983. -№1, - 4 бет.
17. Меҳнатни илмий ташкил этиш - Научная организация труда. 14-бет
18. Ўз МА Р- 2848, рўйҳат 1, йиғма жилд – 10,21 - варақ.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

NATIONAL CRAFTSMANSHIP: TRANSFORMATION PROCESSES OF MASTER-APPLIES RELATIONSHIPS

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna
Jizzakh Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs,
Department of Legal and Social Humanitarian Sciences
Teacher of History

Abstract. This article explores the historical roots of the master-apprentice relationship in Uzbek national handicrafts and how this system is undergoing transformations today. In traditional craftsmanship, this relationship played a significant role not only in transferring professional skills but also in instilling moral and spiritual values in the younger generation.The article analyzes the ties between master and apprentice based on mutual trust, respect, and responsibility. It also highlights the importance of preserving this tradition in modern society and its role in social and cultural life. The master-apprentice system is emphasized as a key factor in continuing the legacy of craftsmanship, educating the youth, and strengthening national values.

Keywords: master-apprentice, workshop, artel, skullcap, seller, deputy master, advance payment, apprentice's first independent work, custom, ceremony, elder, community elder, master craftsman.

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna
Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi,
Huquqiy va ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi
tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbek milliy hunarmandchiligida ustoz-shogird munosabatlarining tarixiy ildizlari va ularning bugungi kunda qanday o'zgarishlarga uchrayotgani haqida so'z yuritiladi. An'anaviy hunarmandchilikda bu tizim nafaqat kasbiy bilimlarni, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni ham yoshlarga yetkazishda muhim o'rin tutgan.Maqolada ustoz va shogird o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va mas'uliyatga asoslangan rishtalar, zamonaviy jamiyatda ushbu an'ananing saqlanib qolish ahamiyati, shuningdek, uning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rni tahlil qilingan. Ustoz-shogird tizimi hunarmandchilik merosini davom ettirish, yosh avlodni tarbiyalash va milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: usta-shogird, sex, artel, taqiya, furush, xalfa, bo'nak, pindiq, urf, marosim, bobo, oqsoqol, g'olib ustakor.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N02

KIRISH

O'zbek xalqining boy tarixiy va madaniy meroslaridan biri bu — milliy hunarmandchilik san'atidir. Asrlar davomida hunarmandchilik turli shakllarda rivojlanib, xalq hayoti, urf-odatlari va ehtiyojlariga moslashib borgan. Bu sohada eng muhim jihatlardan biri bu - ustoz va shogird o'rtasidagi rishtadir.

Qadimdan an'anaviy hunarmandchilik tarixida birlashma, sex va artellar faoliyati mavjud bo'lib, ular diniy, iqtisodiy, huquqiy va kasbiy tomondan tartibga solinib turiladigan o'z

risolalariga ega bo‘lishgan. Risolalar hunarmandchilikning turli sohalariga oid bo‘lib, ular axloqiy, huquqiy va ijtimoiy normalar shariat qonunlariga asoslangan holda bayon etilgan. Shuningdek, risolalarda hunarmandchilikning texnologik jarayonlari, mahsulot turlari va sifati, mehnat qurollari va sohara oid an’ana, urf-odat va marosimlar keng yoritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir soha hunarmandlari o‘zining muayyan ijtimoiy tashkilotlarga ega bo‘lib, mahalliy aholi orasida kasaba deb yuritilgan. Markaziy Osiyoda hunarmandchilik uyushmalarining paydo bo‘lishiga yirik hunarmand savdogarlar sabab bo‘lib, X asrlarda paydo bo‘lgan. Hunarmandchilik uyushmalari a’zolari tomonidan, yig‘ilgan pul hisobiga qurilgan kasaba uyi — taqiya[1] deyilgan. Unda yashash xonasi, hujralar va choyxonalar mavjud bo‘lgan.

Markaziy Osiyoning boshqa hududlari kabi tovarlar oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchi shaxslar nomiga ’’furush’’[2] so‘zi qo‘shib aytilgan. Ular choyfurush, qandolatfurush, ro‘yanfurush, kigizfurush, supurgifurush, tandirfurush, sovunfurush, maxsifurush va etikfurush bo‘lib, ular o‘z risolalariga ega bo‘lishgan. Hunarmandchilik uyushmalari bobo, oqsoqol yoki g‘olib ustakor, ustaxona egasi va uning farzandlari, qarindosh urug‘lari, xalfa[3] va shogirdlaridan iborat bo‘lgan.

Korxona boshlig‘i usta deb yuritilib, uning qo‘l ostida bir necha xalfa va shogirdlar kasb-hunar o‘rgangan. Odatda, shogirdlardan yordamchi ishchi kuchi sifatida korxonadan tashqari, uy xo‘jaligida ham keng foydalanilgan. Malakali ustalar har kimni ham shogirdlikka olavermas yoki shogirdlikdan xalfalikka ko‘tarmas edilar. Masalan, o‘sha davrning taniqli xattot yoki naqqosh, zargar va zardo‘zlari faqat boy xonadon farzandlarini shogirdlikka olishgan. Shu bois ham hunarmandlar shaharning yuqori tabaqasiga mansub madaniyatli kishilar hisoblangan. Sherobod bekligida yakka tartibda ishlovchi ustalar “ustoi xudbof” deb atalib, o‘z do‘koni, tayyorlagan mahsulotlarining egasi hisoblanib, hech kimga qaramsiz bo‘lgan va ko‘plab shogirdlarni usta darajasiga yetkazgan.[1] Tadqiqotchilarning xalfa atamasiga bergan izohiga qo‘shilmagan holda, xalfa – bu shogird emas, balki boshqalardan farqli o‘laroq yollanma ishchidir, degan to‘xtamga kelgan. Uning fikricha, xalfa kelishilgan ish haqi evaziga yollanib ishlaydigan ishchidir.[2] Bundan ko‘rinib turibdiki, xalfa - shogirdlik darajasidan yuqori ko‘tarilgan hunarmand bo‘lib, ustozi yoki boshqa ustalarga yollanib mehnat qilgan. Agar ularning mustaqil ish boshlashga yetarli mablag‘i bo‘lsa, do‘kon ochib faoliyat ko‘rsatgan va ba’zan xalfalar ustalardan qarz olib, qarzdor ham bo‘lib qolishgan. [3]

Masalan, Buxoroda xalfalarga bo‘nak (avans) va pindiq (foiz)siz qarz berish udumi mavjud bo‘lgan. Qarzdor xalfa boshqa ustaxonaga o‘tishi taqiqlangan. Faqat boshqa ustaxona egasi uning qarzini to‘lab o‘z ustaxonasiga ishga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan. Bo‘nak ko‘p sonli yollanma ishchi kuchi kerak bo‘lgan uyushmalarda, asosan etikdo‘zlar, to‘qimachilik ustaxonalarida va qisman kulolchilikda ham mavjud bo‘lgan. Bu an’ana misgar, zargar va zardo‘zlarda uchramaganligi bois ularda xalfalar deyarli bo‘lmagan.

[1] *Taqiya* — qo‘llab-quvvatlash, tayanch, boshpana, dam olish joyi degan ma’nolarni anglatib, odatda ko‘pgina yollanma ishchilarga ega bo‘lgan uyushmalarda mavjud bo‘lgan.

[2] *Furush* – sotuvchi; sotish, pullash ma’nolarini bildiradi.

[3] *Xalfa* – chetdan kelgan yollanma ishchi. Xalfalar, asosan, shogirdlikdan yuqori darajaga ko‘tarilgan usta hunarmandlar bo‘lib, o‘z ustaxonalariga ega bo‘lmaganligi uchun uyushmada yollanib ishlaganlar (ular ko‘pincha o‘z ustalari qo‘lida mehnat qilib, ish xaqi olishgan).

[3] *Xalfa* – chetdan kelgan yollanma ishchi. Xalfalar, asosan, shogirdlikdan yuqori darajaga ko‘tarilgan usta hunarmandlar bo‘lib, o‘z ustaxonalariga ega bo‘lmaganligi uchun uyushmada yollanib ishlaganlar (ular ko‘pincha o‘z ustalari qo‘lida mehnat qilib, ish xaqi olishgan). Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati. Sherobod tumani. 2009 yil.

MUHOKAMA

Ustoz-shogird an’anasi qadimdan buyon hunarni bir avloddan boshqasiga o‘tkazishda asosiy rol o‘ynagan. Ustoz – bu hunar sirlarini puxta egallagan, ko‘p yillik tajribaga ega mohir usta bo‘lsa, shogird – bu hunarga qiziqqan, uni o‘rganishga intilayotgan yoshdir. Ustoz nafaqat hunarni, balki hayotiy saboqlarni, odob-axloq, sabr-toqat, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni ham o‘rgatgan. Bu jarayon odatda uzoq vaqt davom etgan. Hunarmandchilik a’zolarining quyi vakili shogird bo‘lib, ma’lum bir hunarni egallash uchun shu hunar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan hunarmandga shogird tushgan shaxs. Shogirdlikka qabul qilish jarayoni kelishuv asosida amalga oshiriladi. Hech qanday haq to‘lanmagan, lekin, oziq-ovqat va kiyim-kechaklar bilan ta’minlanib turilgan.Shogirdlar hunar o‘rganish uchun yollanib 5-15 yil davomida uy – xo‘jalikda yordamchi ishlarni bajarib yurishga majbur bo‘lgan.Ular uchun ish vaqti belgilanmay, tong otgandan kun botguncha davom etgan.[4] Shogird hunar sirlarini faqatgina ustaning ruxsati bilan o‘rganib borgan. Dastlab shogirdlar yengil ishlar bilan shug‘ullanib, keyinchalik esa asta-sekin murakkab ishlarga jalb etiladi.

Zargarlar va zardo‘z ustalar chetdan juda kam hollarda shogirdlikka olishgan. Bu hunar turlarida asosan kasb-hunarni meros qoldirish udumi mavjud bo‘lib, deyarli barcha zargar va zardo‘zlar ustazodalar bo‘lgan. Shogirdlikka olish to‘g‘risidagi shartnomalar yozma shaklda hamda shogirdlik muddati qisqaroq (5 yil muddatgacha) tuzilganligi haqida ma’lumotlar (XVI asr) mavjud.[5] Jumladan, Farg‘ona zargarligi (XIX–XX asr boshlarida)da ham chetdan olingan shogirdlar mavjud bo‘lgan, hunar o‘rganish muddati esa 10 yildan 15 yilgacha cho‘zilgan. Biroq, bu yozma hujjatlar imzolanmagan[6].

Kulolchilik, charmgarlik, temirchilik, quruvchilik kasblari esa og‘ir mehnatni talab qilganligi uchun shogirdlikka 16–17 yoshdan, zargarlik, zardo‘zlik, kandakorlik, do‘ppido‘zlik hunarlarida 10–14 yoshdan qabul qilinib, hunar o‘rganish ustaning xohishi va kasbning og‘ir-yengilligiga qarab 4–7 yil, ba’zan 10–15 yilgacha cho‘zilishi mumkin bo‘lgan.[7]

Ba’zi ustalar o‘z shogirdlari uchun talablar ham ishlab chiqishgan. Chunonchi, shogirdlardan pokizalik, ish vaqtida chalg‘imaslik, egri va noma’qul ishlarga qo‘l urmaslik, ustozning ruxsatisiz biron nojo‘ya ish qilmaslik qat’iy talab qilingan. Negaki, har bir hunarni o‘rganish uchun o‘ta nozik did, sabr-qanoat kerak bo‘lgan.[8]

XX asr boshlarida shogirdlarning ahvoli ancha yaxshilangan bo‘lib, hunarmandchilik korxonalarida ishlayotgan 17 yoshgacha bo‘lgan shogirdlar umumiy ovqatlanish vaqtidan tashqari 3 soat maktabda o‘qib kelishga haqli bo‘lgan.[9]

NATIJA

Shogird yillar davomida hunar o‘rganib, ma’lum darajaga erishgach, ustozı unga fotiha bergan. O‘rgangan hunariga qarab uning qo‘liga ish quroli hamda bir marta biror buyumni ishlab chiqarishga yetadigan xom ashyo bilan ta’minlagan. Shahrisabz kulollari o‘z shogirdlariga sovg‘a tariqasida “posira” berishgan.[11]

Vohada shogirdlar fotiha olgandan keyin ustozı yonida yoki biror-bir ustaxonada kelishuv asosida yollanib ishlagan. Misgarlar ham shogirdlarini ma’lum darajada kasbga o‘rgatgach, fotiha berib, ularga ustaxona ochishga ko‘maklashgan yoki birga ishlashlari uchun ruxsat bergan.[12]

Ustaxonaga bag‘ishlangan marosim fotiha berish deb atalib, bunda ustaning shogirdga beradigan duosi ko‘zda tutilgan. Fotihani shogird o‘z otasidan emas, balki hunar o‘rgatgan ustozidan olgan. Fotiha olgan shogird o‘z faoliyatini xalfalardek davom ettirgan, ustozı esa unga

o‘zini tutib ketishi uchun keraklicha yordam bergan. U birdaniga usta bo‘lib ishlay olmagan. Bu qoida faqat chetdan kelgan shogirdlargina xos bo‘lib, ustazoda esa fotiha olgach, hech qachon xalfa bo‘lib ishlamagan. Ular usta bilan faqat hamkor sifatida ish olib borganlar.

Hozir zamonaviy hunarmandlar orasida ham usta-shogird an’analari davom etib, usta o‘z shogirdiga mustaqil ishlashi mumkinligini e’lon qiladi. Shogird ham o‘z ustoziga minnatdorchilik va hurmat sifatida chopon kiydirib, belbog‘ bog‘laydi.[13]

Zardo‘zlikda bu kasbni o‘rganish uchun 10–12 yoshdagi, ayrim hollarda kattaroq yoshdagi bolalar ham jalb etilgan. Bolani usta oldiga olib borish ham o‘ziga xos bo‘lib, ota-ona va qarindosh-urug‘lar “bo‘y” degan bo‘g‘irsoq va holvaytar tayyorlab, ustaning huzuriga kelganlar hamda “eti sizniki, suyagi bizniki” qabilidagi va’da bilan ustaga topshirganlar. Usta bolaga hunar o‘rgatish bilan birga, butun o‘qish davomida uni oziq-ovqat bilan ham ta’minlab turgan. Ikkala kelishuvchi tomonlar o‘rtasida yozma shartnomalar bo‘lmagan. Kasb-hunar bepul o‘rgatilgan.Vaqt o‘tishi bilan bu an’ana ham zamonaviy hayot ta’sirida o‘zgarib, transformatsion jarayonlarga duch keldi. Yangi texnologiyalar, zamonaviy ta’lim muassasalari, internet va raqamli vositalar tufayli hunarmandchilikni o‘rganish usullari ham o‘zgardi. Endilikda hunar faqat ustozning yonida emas, balki kasb-hunar kollejlarida, institutlarda, onlayn kurslarda ham o‘rgatilmoqda. Bu esa ustoz-shogird tizimiga yangicha qarashni talab etmoqda. Bundan tashqari, ilgari hunarmandchilik asosan ehtiyoj va san’at sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirda u biznes, tadbirkorlik va tijorat sohalari bilan bog‘liq holatda rivojlanmoqda. Ko‘plab yoshlar hunarni faqat o‘rganish emas, balki uni brend sifatida rivojlantirish, eksport qilish, dizaynga uyg‘unlashtirish kabi yangi yondashuvlarni tanlamoqda.Shuningdek, ustozlar va shogirdlar o‘rtasida avvalgi qat’iy tartib va uzoq yillik tayyorgarlik tizimi bugungi kunda qisqaroq, erkinroq shakllarga o‘tmoqda. Ba’zan yoshlar tezroq o‘rganishni istaydi, ustozlar esa tajribani asta-sekin yetkazish tarafdori bo‘ladi. Bu ham o‘zgarishlarning bir qismi sanaladi. Shunga qaramay, ustoz-shogird munosabatining mohiyati o‘zgarmagan – u hanuzgacha hunarni jonli o‘rgatish, madaniyatni saqlash va merosni davom ettirishning eng ishonchli yo‘li bo‘lib qolmoqda. Ustozning o‘rni, hurmati va tajribasi hali ham muhim hisoblanadi. Har bir mohir hunarmand ortida unga yo‘l ko‘rsatgan ustoz turgani ayni haqiqatdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda milliy hunarmandchilikda ustoz-shogird munosabatlari asrlar davomida kasb o‘rganishning muhim yo‘li sifatida shakllanib kelgan. Bu tizim nafaqat hunarni o‘rgatgan, balki axloqiy, ma’naviy qadriyatlarni ham yosh avlodga singdirgan. An’anaviy ustoz-shogird tizimi o‘zbek xalqining madaniy merosi, ustalik maktabi va hunarmandlik rivojining asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qilgan. Zamonaviy davrda bu munosabatlar o‘zgarishlarga uchramoqda — endilikda shogirdlar faqatgina bir ustozdan emas, turli o‘quv kurslari, texnologiyalar va media orqali ham bilim olishmoqda. Ustozlar esa shogirdlar bilan shartnomaviy asosda ishlamoqda yoki ularga mustaqillik berishga intilmoqda. Shunga qaramay, bu an’ana bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangi shakllarda davom etmoqda. Demak, ustoz-shogird munosabatlarining transformatsiyasi hunarmandchilikni yangi bosqichga olib chiqmoqda - u zamonaviy ehtiyojlarga moslashmoqda, lekin o‘zining tarixiy ildizlarini va ma’naviy asoslarini saqlab qolmoqda. Bu esa milliy hunarmandchilikning barqarorligi va uzluksizligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Турсунов С. Шеробод тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 2014. – Б. 356.
2. Пешерева Е.М. Из истории цеховых организацией в Средней Азии. ... – С. 34-35.
3. ЎзР МДА, Р-48-жамғарма, 1-рўйхат, 233-йиғма жилд, 16-варақ.
4. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XIV веке. ... – С. 154-157.
5. Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов Узбекистана конец XV-XVI в. – Ташкент: Фан, 1985. – С. 81.
6. Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX – начала XX века. ... – Б. 161.
7. Қиличев Р. Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик. ... – Б. 34.
8. ЎзР МДА, И-1-жамғарма, 12-рўйхат, 1775-иш.
9. ЎзР МДА, И-1-жамғарма, 12-рўйхат, 1775-иш.
10. Дала ёзувлари. Шаҳрисабз шаҳри, Оқсарой маҳалласи. 2016 йил.
11. Пешерева Е.М. О ремесленных организациях Средней Азии в конце XIX – начале XX вв. … – С. 311-317.
12. Пешерева Е.М. О ремесленных организациях Средней Азии в конце XIX – начале XX вв. …– С. 321
13. Алтуянц С. И живет в них искра божья или как ремесло красит человека // Правда Востока. 2006, 26 апрель.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

INTERETHNIC TOLERANCE IN UZBEKISTAN AND ITS IMPACT ON SOCIO-POLITICAL PROCESSES

Sattarova Marhabo Mamatovna
History teacher at Secondary School No. 13, Termiz city
Email: sattorovamarhabo43@gmail.com.uz

Abstract. In this article, the cultural and political influence of inter-ethnic tolerance and globalization in our country and the actions taken in our country to support tolerance and enrich the knowledge and outlook on inter-ethnic relations and tolerance in Uzbekistan. , in which the ideas of tolerance and inter-ethnic friendship were awakened, the consciousness of young people was informed about tolerance and inter-ethnic harmony. Analysis of the speed of priorities, large-scale democratic reforms, political, economic, social, spiritual liberalization and other aspects of society's life, cooperation between political forces and parties, the principle of inter-ethnic harmony, inter-religious tolerance are the most important aspects of social development. information was given about the implementation of one of the important factors.

Keywords: tolerance, political tolerance, tolerance, international, religious, globalization, International Day of Tolerance, "Declaration of Principles of Tolerance", gender, Joseph, racial, geographical, directional.

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA’SIRI

Sattarova Marhabo Mamatovna
Termiz shahar 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizda millatlararo tolerantlik va globallashuv jarayonida madaniy-siyosiy ta’siri va tolerantlikni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha yurtimizda olib bo‘layotgan xatti-harakatlar va O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik bo‘yicha bilim va dunyoqarashini boyitish, ularda bag‘rikenglik va millatlararo do‘stlik g‘oyalarini uyg‘otish, yoshlar ongi shuurini bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tilgan. Davlatimizda olib borilayotgan keng islohotlar orqali ustuvor yo‘nalishlar sur’atini, keng ko‘lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili, siyosiy kuchlar va partiyalar o‘rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan birini amalga oshirishga qaratilganligi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tolerantlik, siyosiy tolerantlik, bag‘rikenglik, millatlararo, diniy, globallashuv, xalqaro bag‘rikenglik kuni, “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”, gender, irqiy, jug‘rofiy, yo‘nalishli.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N03

Kirish

Tolerantlik (lot. tolerantia — sabr-toqat), bag’rikenglik — o’zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg’ulari, fikr-mulohazalari, g’oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo’lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o‘zaro bog‘liqlik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko‘chib yurishi va boshqa jamiyatda tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag‘rikenglik tamoyiliga ko‘ra, har kim o‘z

e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Tolerantlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida YUNESKO “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”ni qabul qilgan (1995-yil 16-noyabr).[3; 5-10 b] Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O‘zbekiston misolida ko‘rish mumkin.

Asosiy qism

Mamlakatimizda millatlararo bag‘rikenglik. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o‘rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O‘zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagan va bu xalqimizning azaliy bag‘rikengligini ko‘rsatadi. 16 dan ziyod konfessiyaga mansub din vakillari yurtimizda hamkor, hamjihat yashab kelayotgani esa dinlararo tolerantlikning yaqqol namunasidir. Amalga oshirilayotgan ustuvor yo‘nalishlar sur’atini, keng ko‘lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O‘zbekiston xalqi yagona g‘oya — O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha olijanob maqsadlar va g‘oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta’kidlash uchun barcha asoslarni beradi. Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globallashuv va transformatsiya, dunyoda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchayib, axborot va kiber makonlarda qarama-qarshi kurash ortib borayotgan bir sharoitda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida o‘z yechimini taqozo etayotgan bir qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo‘nalish sifatida “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” belgilandi.[6; 33-41 b] Bu ham yurtimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bag‘rikenglikka berilayotgan ulkan e’tibordan dalolat beradi. Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo‘lgan bag‘rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida Fan, ta’lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) bosh konferensiyasining 28-sessiyasida “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi” qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat’iy nazar, bag‘rikenglikni targ‘ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo‘yilgan.[3; 5-10 b] 1998-yil 6-noyabrda Toshkentda o‘tkazilgan YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasida “Tinchlik madaniyati va YUNESKOning a’zo davlatlaridagi faoliyati” deklaratsiyasi qabul qilindi. YUNESKOning “Tinchlik madaniyati” konsepsiyasi BMT tomonidan ma’qullanib, 2000-yil “Xalqaro tinchlik madaniyati yili”, 2001-yil esa “Xalqaro madaniyatlararo muloqot yili” deb e’lon qilindi.[7; 9-16 b] Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 74-maqsadi diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasiga qaratilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022-yil Oliy Majlisga

yo‘llagan murojaatnomasida ham “Millati, tili va dinidan qat’i nazar, O‘zbekistonni o‘zining Vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun hissa qo‘shib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e’tibori va ardog‘ida bo‘ladi. Millatlararo do‘stlik, diniy konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik, ijtimoiy bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz” deya ta’kidlab o‘tgan edilar.[11] Globallashuv va bag‘rikenglik hozirgi vaqtga kelib tobora globallashib borayotgan dunyoda bag‘rikenglik tamoyili ijtimoiy-ma’naviy hayot turli sohalarida katta qiziqish uyg‘otmoqda.Inson, jamiyatning mohiyati, ularning kelajakdagi taqdiri muammolari nuqtai nazaridan qaraganda, bag‘rikenglik masalasining har tomonlama turli darajadagi yondashuvlar ro‘y bermoqda. XXI asr boshlariga kelib “bag‘rikenglik” tushunchasi jamiyat hayotida noyob madaniy hodisa darajasiga ko‘tarildi. Dastlabki vaqtlarda u murosai-madora ma’nosida e’tirof etilgan bo‘lsa, bora-bora uning ma’no-mohiyati kengaya bordi. Hozirgi vaqtga kelib, ijtimoiy fanlarning sohalari — etika, tarix, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, falsafa va boshqalarda bag‘rikenglik tushunchasi bevosita foydalanilmoqda. Bag‘rikenglik shunchaki tushuncha emas, balki jamiyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismi sifatida muayyan ijtimoiy-ma’naviy hodisa, xilma-xil tur, shakl va talqinlardagi noyob holat sifatida tushunilmoqda. Bag‘rikenglik tamoyilining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, hodisalarning tafovutlari, ziddiyatlari, farqlari haqida so‘z borganda unga ehtiyoj paydo bo‘ladi, Umuman, bag‘rikenglik sabrlilik yoki befarqlik deb emas, turli madaniyat, din, antropologik toifalarda namoyon bo‘ladigan xilma-xilliklarga hurmat va ehtirom bilan yondashish degan ma’noda talqin etiladigan bo‘lib qoldi. Bundagi birdan-bir chegara yoki cheklash shundan iboratki, xilma-xillik umume’tirof etilgan insonparvarlik me’yorlaridan chetga chiqmasligi kerak, bunda insoniyatning mazkur me’yorlarni qabul qilishi nazarda tutiladi. Hozirgi kunda ushbu muammo butun insoniyat uchun alohida ahamiyat kasb etmoqda. Globallashib borayotgan dunyoda bag‘rikenglik obyektiv voqelikka aylanib, xalqaro ma’no kasb eta boshladi. Bag‘rikenglik fuqarolik jamiyatini barpo etishda tag-zaminli demokratik qadriyatga, zamonaviy tamaddunning yashab, rivojlanishining zarur shartiga aylana boshladi. Hozirgi kunga kelib, bag‘rikenglik ijtimoiy munosabatlarning yangi toifasi deya talqin etilmoqda. Bag‘rikenglik hodisasining noyob mohiyati uning fanlararo xususiyatidan iborat bo‘lib, u shuning uchun ham aksariyat gumanitar fanlar tomonidan o‘rganilmoqda. Garchi bag‘rikenglik voqeligini o‘rganish sohasida ayrim natijalarga erishilgan bo‘lsa ham, bu tushunchaning ilmiy kategoriya sifatida amaliy yo‘nalish mohiyati haligacha aniq ta’riflab berilgan emas. Bag‘rikenglikning ma’no va mohiyati turli xalqlarda bir-biriga o‘xshash tarzda talqin etiladi. Masalan, ispan tilida — o‘z g‘oyalaridan farqlanuvchi fikrni tan olish usuli; fransuzchada — o‘zgalar sendan ko‘ra boshqacharoq o‘ylashlari yoki harakat qilishlari mumkinligiga yo‘l qo‘yish; inglizchada — sabr-toqatli, iltifotli bo‘lish; xitoychada — boshqalarga nisbatan kechiruvchan, muruvvatli, oliyjanob bo‘lish; arabchada — kechirimli, marhamatli, yumshoq, muruvvatli, rahmli, oliyjanob, sabrli bo‘lish; ruschada — nimagadir yoki kimgadir nisbatan sabrli bo‘lish, og‘ir-vazmin, chidamli bo‘lish; nimagadir yoki kimgadir toqat qilish, o‘zgalarning fikri bilan hisoblashish, iltifotli bo‘lish; o‘zbekchada — boshqalarga nisbatan bag‘ri ochiqlik, o‘zgalarning turmush tarziga, fe’l-atvoriga, urf-odatlariga, his-tuyg‘ulari, fikr-muzohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga muruvvatli bo‘lish va h.k. ma’nolarni bildiradi. Darhaqiqat, mazkur so‘zning etimologiyasiga nazar solinsa, ijtimoiy munosabatlarda tolerantlik iborasining chin insoniy ma’nosi hamfikrlik, hamjihatlik, shaxslararo amaliy muloqotga to‘g‘ri keladi. Tolerantlik atamasini nazariy va amaliy qo‘llashda

1995-yilgi “Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasida berilgan ta’rifga tayanilmoqda. Mazkur hujjatda bunday deyilgan: Bag‘rikenglik — bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik — turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik — tenglikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir. Bag‘rikenglik — eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag‘rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Bag‘rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Bag‘rikenglik — inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburiyatidir. Bag‘rikenglik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o‘rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.[3;5-10 b] Bag‘rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo‘lishni, o‘z iymon-e’tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e’tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra (tashqi ko‘rinishi, qiyofasi, o‘zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e’tirofga loyiqligi barobarida ular dunyoda yashashga va o‘zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Fandagi tasniflashga binoan tolerantlikning 12 ta tipi: gender, yosfe, ma’lumot, millatlararo, irqiy, diniy, jug‘rofiy, sinflararo, fiziologik, siyosiy, yo‘nalishli, marginal tiplari mavjud. Hozirgi globallashuv sharoitida bag‘rikenglikni madaniy taraqqiyotning zarur sharti deb bilmoq kerak.

Hozirgi zamon bag‘rikenglik madaniyati o‘tkir o‘zaro ziddiyat sharoitida shakllanayotganligini aytib o‘tmoq kerak. Bu esa, insoniyatning ijtimoiy munosabatlar madaniyatini ancha yuqori pog‘onaga ko‘tarishni va buning uchun sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning mazmun va mohiyatini yaxshiroq anglab olishni talab qiladi. 2000-yilning sentyabrida BMTning Ming yillik sammitida to‘plangan dunyodagi ko‘pgina mamlakatlar rahbarlari insoniyat oldida turgan va sivilizatsiyani saqlab qolish maqsadida kechiktirmay hal etilishi lozim bo‘lgan asosiy muammolarni belgilab olganlar. Sammit deklaratsiyasida butun insoniyat uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan oltita qadriyat ta’riflab berilgan. Bular erkinlik, tenglik, birdamlik, mas’uliyat tufayli bo‘lgan tabiatga hurmat bilan bir qatorda tolerantlik ham xalqaro munosabatlarning asosi sifatida tilga olingan.[5;18-24 b]

Insoniyat XXI asrga qadam qo‘ygan paytdan boshlab yer kurrasining turli mintaqalarida zo‘ravonlik haddan oshib, xalqaro terrorizm kuchayganligi ham kuzatilmoqda. Hozirgi paytda ko‘pincha etnik, diniy, mafkuraviy tafovutlar ekstremistik fe’l-atvor shakllari uchun bahona bo‘lmoqda. O‘z g‘arazli maqsadlarini ko‘zlovchi muayyan siyosiy kuchlarning g‘alamisliklari esa vaziyatni tobora keskinlashtirmoqda. Ekstremizmning kuchayishi esa tinchlikka, insoniyatning barqaror va xavf-xatarsiz rivojlanishiga tahlika soluvchi yangi xavf xatarlar orasida oldingi o‘rinlardan biriga chiqib oldi. BMT e’lon qilgan g‘oyalar, oliy maqsadlar va tamoyillar bilan siyosiy-milliy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarga erishish maqsadida zo‘ravonlikning

yashovchanligini koʻrsatuvchi haqiqiy jarayonlar orasida katta tafovut borligi yaqqol koʻrinib turibdi.

Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar koʻp millatli hisoblanadi. Globallashuv ham yana shu jarayonga oʻz ta'sirini oʻtkazadi. Yana ham aniqroq qilib aytganda, globallashuv turli millatlarning oʻzaro aralashib yashash jarayonlarining kuchayishiga oʻz ta'sirini oʻtkazadi. Bu jarayonning millatlararo munosabatlarga ta'siri nihoyatda katta. Buni quyidagilarda koʻrishimiz mumkin. Birinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, insoniyat mavjud ekan, millatga mansublik tuygʻusi uning ma'naviyatining yuksak koʻrinishi sifatida namoyon boʻlib qolaveradi. Shu ma'noda hech kim oʻz millati sha'ni, gʻururi, or-nomusi toptalishiga befarq boʻlolmaydi. Ikkinchidan, globallashuv koʻp millatli mamlakatlarda milliy madaniyatlardagi oʻziga xoslikning asta-sekinlik bilan yemirilishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayondagi muammo shundaki, millatning ma'naviyatidagi oʻziga xoslikka ega boʻlmagan millat va elat vakillarning milliy ma'naviyatiga globallashuv jarayonining oʻtkazadigan ta'siri kuchli boʻladi. Chunki unga har doim "zaryad", kuch-quvvat va ilhom bagʻishlab turadigan milliy-madaniy ildizlardan oʻsib keladigan ehtiyoj darajasiga foydalanish imkoniyati cheklangan. Boz ustiga millat ma'naviyatiga globallashuv ta'sirida shakllanayotgan "ommaviy madaniyat"ning singib borishi, va boshqa millatlar vakillarning madaniyati bilan oʻzaro boyitilib borish imkoniyati ham barham topib boradi. Bunday sharoitda, nisbatan kam taraqqiy qilgan davlatlarda yashayotgan turli millat, elat vakillari va millat ma'naviyatining oʻzaro ta'sir etish va boyish jarayonining oʻrnini taraqqiy qilgan mamlakatlar xalqlari tomonidan shakllantirilayotgan "ommaviy madaniyat"ning ta'sir oʻtkazish jarayoni egallashi mumkin boʻladi. Bu, oʻz navbatida, milliy ma'naviyatdagi oʻziga xoslikning yemirilib borishiga, uning ta'sirida koʻp millatli mamlakatlardagi milliy-ma'naviy "yaqinlik" mohiyatining buzilishiga olib keladi. Bu ham millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishiga oʻzining salbiy ta'sirini oʻtkazadi. Millatlar mavjud ekan, ular oʻrtasida oʻzaro munosabatlar ham mavjud boʻladi. Shunday ekan, bugun globallashuvning bu jarayonga oʻtkazayotgan salbiy ta'sirining oldini olish haqida bosh qotirish va samarali mexanizmlarni topish oʻz mustaqilligini, erkini, oʻziga xosligini qadrlashga qodir boʻlgan barcha millatlar oldida turgan eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Globallashuv chuqurlashib, shiddat bilan rivojlanib borgani sari uning milliy oʻziga xoslikni yemiruvchi ta'siriga qarshi qaratilgan samarali omillarning shakllanishi ham muqarrardir. Buning uchun esa jahon xalqlarining milliy xususiyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishga yoʻnaltirilgan harakatini vujudga keltirish lozim boʻladi. Bu harakatda millatlar madaniyatining oʻzaro boyishi tabiiy jarayon sifatida kechishiga erishish katta ahamiyatga ega.[8; 21-27 b] Birinchidan, asosiy ziddiyat globallashuv bilan millatlarning oʻzligini anglashga boʻlgan intilishi oʻrtasida vujudga keladi. Globallashuv oʻzining eng yuqori pallasiga yetgandan keyin, uning milliy oʻziga xoslikni yemirishga ta'sir oʻtkazish imkoniyati barham topadi. Chunki milliy oʻzlikni anglash umuminsoniy qadriyat sifatida globallashuv "beradigan" har qanday "farovonlikdan ustun darajaga koʻtarilib boradi. Ikkinchidan, globallashuvning turli millat va elatlar hayotiga ta'siri kuchayib boradi. Bu jarayon ma'lum bosqichga yetganda, ularning "uygʻonishi" oʻz huquq, erkinligini anglab yetish jarayonini ham kuchaytiradi. Natijada, bugun globallashuv ta'sirida milliy chegaralar "barbod" boʻlayotgan boʻlsa, istiqbolda ularning qayta tiklanish jarayonlari boshlanadi. Bu nafaqat yirik shuningdek, kam sonli millatlar va elatlarning oʻzligini anglash jarayonini, ularning oʻz zaminlariga "qaytishi"ga intilishini kuchaytiradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, globallashuv qanchalik qudratli jarayon boʻlmasin, u

millatlarning o‘ziga xosligiga muayyan ta’sir o‘tkazishi mumkin, ammo uni butunlay barbod qilishga qodir emas. Globallashuv tolerantlik muammosiga yangi sifat va o‘tkirlik baxsh etadi.

Jahon hamjamiyatidagi bag‘rikenglik. Jahon hamjamiyati davlatlar o‘rtasida bag‘rikenglik munosabatlarini o‘rnatishga katta e’tibor berilmoqda, zo‘ravonlikka barham berish, tinchlikni ta’minlashning yangi yo‘llarini izlamoqda va ko‘p hollarda bunga erishmoqda ham. Shu jihatdan olganda, Yevropa mamlakatlari va ularning uyushmasi bo‘lmish Yevropa Ittifoqining bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish va shu yo‘ldan borayotgan kuchlarni jipslashtirish sohasidagi faoliyati diqqatga sazovordir. Fransiya poytaxti Parijda 2008-yil 7-oktyabr kuni bo‘lib o‘tgan birinchi yig‘ilishida Yevropa bag‘rikenglik va kelishuv Kengashi ta’sis etilgan edi. Mazkur Kengashning asosiy maqsadi bag‘rikenglik sohasida Yevropadagi vaziyatni monitoring qilish, qit’ada dinlararo va millatlararo munosabatlarni yaxshilash yuzasidan milliy hukumatlar va xalqaro tashkilotlarga takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Kengash dunyoda ksenofobiyaga, antisemitizmga va irqiy kamsitishga qarshi kurash maqsadini ko‘zlovchi xalqaro tashkilotlardan biridir. 2008-yil 9-16-noyabr kunlari Bag‘rikenglik Kengashi “Yevropada tolerantlik haftaligi” nomli xalqaro tashabbusi doirasida bir qator tadbirlarning tashabbuskorlari va tashkilotchilaridan biri bo‘ldi. Bu loyiha “Billur tun” voqealarning 70 yilligi va Xalqaro bag‘rikenglik kuniga bag‘ishlandi. Rasmiy tadbirlar jarayonida Kengash Yevropa Parlamentiga “Umumyevropa tolerantlik konvensiyasi” loyihasini va “Tolerantlik oq kitobi” konvensiyasini taqdim etdi. Mazkur hujjatlar Yevropada bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilishga qaratilgan. “Yevropada tolerantlik haftaligi”ni Yevropa bag‘rikenglik va kelishuv Kengashi, Yevropa yahudiylar kongressi, Yevropa Parlamenti. Yevropa Kengashining Parlament Assambleyasi, Rossiya yahudiylar kongressi, “Xolokost xotirasi jahon forumi” Fondi, “Yad Vashem” falokat va qahramonlik Milliy memoriali tashkilotlari uyushtirdi. 2008-yilda Yevropa Bag‘rikenglik va Kelishuv Kengashi bag‘rikenglik sohasidagi Yevropa mukofoti — Tolerantlik medalini ta’sis etgan. Bu mukofot Yevropada sabr-toqat va o‘zaro hurmat g‘oyalarini targ‘ib qilish, shuningdek, ksenofobiyaga, irqiy va diniy kamsitishga qarshi kurash sohasidagi atoqli arboblarning xizmatlarini taqdirlash uchun ta’sis etildi. Tolerantlik medali qarindosh-urug‘lari ekstremizmga va toqatsizlikka qarshi kurashda halok bo‘lgan oilalarga ham topshiriladi. O‘zbekiston dunyoning ko‘pmillatli davlatlaridan biri ekanligi, bu yerda yuzdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilayotgani, ularning har biri noyob moddiy va ma’naviy madaniyatga ega ekanligi ma’lum. Ularning aksariyati asrlar davomida shu yerda yashab, etnik birlik sifatida shakllangan va shu ma’noda O‘zbekistonning tub joy xalqlari hisoblanadi. O‘zbek xalqining bag‘rikengligi tufayli O‘zbekiston hududida turli xalqlarning noyob birligi va xilma-xilligi, ma’naviy mushtarakligi shakllangan. [10; 39-45-b]. Jamiyatdagi bag‘rikenglik muhitini baholash uchun ijtimoiy muassasalar va rasmiy tashkilotlar bag‘rikenglik munosabatlarini qanday qo‘llab-quvatlayotganliklarini e’tiborga olmoq kerak. Shu jihatdan olganda, keyingi 1,5-2 yil mobaynidagina millatlararo munosabatlarga taalluqli bir qancha hujjatlar qabul qilindi. Chunonchi, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” V bobida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi Farmonida, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida, Oliy Majlisga Murojaatnomasida, Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan nutqida, boshqa ko‘pgina hujjatlarda millatlararo munosabatlarga, bu muhim sohadagi vazifalarga alohida ahamiyat berildi.[11; 5-6 b]

Bag‘rikenglik – bu insonparvarlik tamoyillari va amaldagi qonunlarga zid bo‘lmagan, boshqa insonlarning huquq va erkinliklariga daxl qilmaydigan turli fikrlar hamda xatti-harakatlarga nisbatan ochiq, halol va faol munosabatda bo‘lishdir. Bu fazilat insonning dunyoqarashini shakllantiradi, jamiyatda konstruktiv fikr yurituvchi fuqarolarning paydo bo‘lishiga hamda mamlakatdagi barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston qadimdan bag‘rikenglik yurti sifatida tan olingan. Movarounnahr zaminida bu fazilat shakllanganiga asosli dalillar mavjud. Bu bilan biz haqli ravishda faxrlanishimiz mumkin. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz insonparvarlik va bag‘rikenglik timsoli bo‘lib, bu fikrni tasdiqlaydi. Bugungi kunda ham O‘zbekiston millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va diniy hamjihatlik sohalarida o‘zining mustahkam pozitsiyasini saqlab kelmoqda. Ko‘pmillatli, ko‘pkonfessiyali va ko‘ptilli jamiyatda totuvlikni ta’minlab kelayotgan mamlakat sifatida O‘zbekiston bu borada katta tajriba to‘plagan va bu tajriba uning muhim belgilaridan biriga aylangan.

O‘zbekistonda yashovchi turli millatlar o‘rtasida hamjihatlik va o‘zaro hamkorlik muhitini ta’minlash dolzarb va ustuvor masalalardan biridir. Aholining 64 foizini yoshlar tashkil etishini, shuningdek, mamlakat “Yoshlar davlati” deb e’tirof etilayotganini inobatga olsak, ularning “Vatan” va “Ona yurt” kabi tushunchalarni chuqur anglab yetishi, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarini yagona Vatan farzandi sifatida qabul qilishi – yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Bag‘rikenglik, ya’ni tolerantlik — bu inson qalbining holati bo‘lib, uni jamiyatda shakllantirish oson vazifa emas. Bu fazilatning samarasini ta’minlashda uning tamoyillari va jamiyatdagi asosiy dunyoqarash mezonlariga mosligi muhim o‘rin tutadi. Bag‘rikenglik avloddan avlodga o‘tib keladigan ongiy qadriyat sifatida jamiyat barqarorligining tayanchidir. Insoniyat tarixi davomida esa til birligi va etnik yaqinlik tuyg‘usi har doim insonlar o‘rtasidagi birlik va hamjihatlikning poydevori bo‘lib xizmat qilgan.

Hozirgi vaziyatda siyosiy tolerantlik tushunchasini aniqlab olish muhimdir. Siyosiy tolerantlik — o‘zgalarning fikrlari, e’tiqodlari, urf-odatlariga sabr-toqatli bo‘lish. Siyosiy tolerantlik — ijtimoiy hayotda faol qatnashuvchi, davlat ichida ham, davlatlar o‘rtasida ham tartibli, madaniy munosabatlar zarurligini anglaydigan barchaga nisbatan quyiladigan talab. Tolerantlik tamoyiliga og‘ishmay rioya etish-shaxslar, jamoat tashkilotlari partiyalar bilan davlat o‘rtasida natijali aloqalar o‘rnatishning birinchi sharti. Xoh tashkilotlar, partiyalar yoki davlatlar bo‘lsin, tomonlar o‘rtasida ixtilofga sabab bo‘luvchi keskin siyosiy muammolar xususida muzokaralar yuritish paytida sabr-toqatli, tolerantli bo‘lish qobiliyati alohida muhim ahamiyatga egadir.[8;21-27 b] Bunday holatlarda tolerantlik aslo zaiflik emas, balki shunday qobiliyatni namoyon qiluvchi tomon uchun kuchli, obyektiv jihatdan ijobiy va manfaatli fazilatdir. Tolerantlik qobiliyati o‘zga tomonning barcha fikr-mulohazalari va dalil-isbotlarini tinglash, ularni puxta mushohada qilish, o‘zga tomonning nuqtai nazariga xolisona yondashish, uning yondashuvidagi zaif va kuchli jihatlarini aniqlash, so‘ngra shunga muvofiq ravishda o‘z nuqtai nazari va taktikasiga tuzatish kiritish imkonini beradi.

O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik maqsad va vazifalari.

O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi qadim o‘tmishga borib taqaladi. Yashab turgan hududimiz umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hamda Buyuk ipak yo‘li kesishgan mintaqa bo‘lganligi bilan ko‘p xalqlar o‘tmishidan guvohlik beradi.

Tolerantlik dolzarbligi. Shundan iboratki, O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik bo‘yicha yosh avlodga bilim va dunyoqarashini boyitish, ularda bag‘rikenglik va millatlararo do‘stlik g‘oyalarini uyg‘otish, amaliy xususiyatlari davlatimizda olib borilayotgan keng islohotlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Tolerantlik ahamiyati. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik bu — yoshlarga xalqimizning o‘tmishini aks ettiruvchi qadimgi va bugungi tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi. Yoshlarni millatparvar, vatanparvar, bag‘rikeng, tolerant, ma’naviy jihatdan komil fuqaro etib tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik orqali davlat milliy siyosatining asoslarini tushuntirish va qonunlarimizda belgilangan O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millati, irqi va dinidan qat’iy nazar o‘zbek xalqini tashkil etishi hamda barcha millatlar hamjihatlikda yashashi lozimligi, barcha bir tan-u, bir jon bo‘lib respublika taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi kabi ulug‘ g‘oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko‘maklashishdan iborat.

Tolerantlik maqsadi. Ma’lumki, o‘zbek xalqining tarixi juda qadim va katta davrni hamda juda keng geografik mintaqani, shuningdek, tub burilish, yuksalish va inqiroz bosqichlarini ham o‘z ichiga oladi. U xilma-xil ijtimoiy voqea va hodisalarga, turli xalqlar, har xil diniy va madaniy qatlam, g‘oyaviy dunyoqarash, falsafiy oqimlarga boy, jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy va navqiron o‘choqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlikning maqsadi ham tariximizni yoritish, jamiyat hayotidagi o‘rnini ko‘rsatib berish, tarixiy tafakkurini yuksaltirish, millatlararo munosabatlar va tolerantlikning ilmiy-nazariy jihatlarini tushuntirishdan iborat.

Tolerantlik vazifalari:

O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlikning barcha jihatlarini ilmiy tahlil etish va ilmiy asoslarini o‘rganish;

Tarixiy dunyoqarashni millatlararo munosabatlar va tolerantlik asosida rivojlantirish;

Millatlararo munosabatlar va tolerantlikning ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi hamda o‘zbek xalqning dunyoqarashini yuksaltirishdagi rolini tahlil etishdan iborat;

Yosh avlodga millatlararo bag‘rikenglik munosabatlari va tolerantlik haqida ko‘nikma berish, davlatlar o‘rtasida iqtisodiy-siyosiy vaziyatdagi o‘rni haqida tushunchalar berish.

Xulosa

Tolerantlik tushunchasini odamlar turlicha talqin qiladilar: ba'zilar uni sabr-toqat sifatida ko‘rsa, boshqalar uni insoniyatning birlikda yashash qobiliyati, har kimning o‘zga fikr va huquqlarini hurmat qilish sifatida tushunadilar. Yana ayrimlar esa tolerantlikni kelib chiqadigan ziddiyatlarga, noaniqliklarga va murakkab vaziyatlarga bardosh bera olish qobiliyati deb hisoblaydi. Bugungi globallashuv sharoitida esa sivilizatsiyalar negizida shakllangan va milliy madaniyatlar asosida boyib borayotgan umumiy insoniy qadriyatlar samarali kommunikatsiya va dunyoqarash vositasiga aylanmoqda. Natijada, zulmsizlik tamoyili zamonaviy inson hayoti, jamiyat va davlat faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘zbekistonda esa bag‘rikenglik mavzusi aynan mustaqillikdan so‘ng, fuqarolik jamiyati shakllangach, o‘zining chinakam ahamiyatini topdi. Shu bois bag‘rikenglikni jamiyatdagi totuvlik va barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan insoniy tafakkur va xulq-atvorning ajralmas qismi sifatida ko‘rish lozim. Bugungi kunda bag‘rikenglik shaxs, millat va jamiyatning bebaho ma’naviy-ijtimoiy fazilati sifatida e’tirof etilmoqda. Uning chin mohiyatini aynan shu fazilatning hayotda amalda namoyon bo‘lishi orqali anglash mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy bag‘rikenglik-tinchlik va barqarorlik garovi”mavzusidagi matbuot anjumanidagi nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 12–25.
3. UNESCO Tolerantlik Deklaratsiyasi. – Parij, 1995. – B. 5–10.
4. Xolboev, D. *Millatlararo munosabatlar va tolerantlik*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – B. 25–30.
5. Tursunov, M. *Tolerantlik siyosati va ijtimoiy barqarorlik*. – Samarqand, 2020. – B. 18–24.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari (2017–2022 yillar). – B. 33–41.
7. OSCE hisobotlari: *Ethnic Minorities and Integration in Central Asia*, 2020. – B. 9–16.
8. Qodirov, Z. *Millatlararo murosaning psixologik asoslari*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – B. 21–27..
9. *Milliy madaniyat markazlari to‘g‘risida*gi Nizom. – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 1994. – B. 4–7.
10. *Tolerantlik va fuqarolik jamiyati: xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti*. – Toshkent: Adolat, 2021. – B. 39–45.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabr, —2017— 2021 yillarda Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF THE CUSTOMS SYSTEM IN BUKHARA REGION

Raxmatov Mirjon Mo‘minovish,
Independent researcher in the specialty of History of Uzbekistan
Bukhara State University

Abstract. This academic article analyzes the historical evolution of the formation, development stages, and functional operations of the Bukhara Regional Customs Department. The focus is placed on the establishment of customs posts, structural changes between them, the importance of posts located along strategic transport routes, and the simplification of the customs system through the introduction of modern digital technologies. The article also includes an annual analytical table on the activities of the regional customs administration, based on official documents, legal decrees, and archival sources.

Keywords: Bukhara region, customs, customs, customs control, duty collection, border, entrepreneur, goods, money, seal, stamp, control..

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN

Raxmatov Mirjon Mo‘minovish,
Buxoro davlat universitetining
O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchisi
Email: rahmatov1778@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Buxoro viloyati bojxona boshqarmasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va funksional faoliyatining tarixiy evolyutsiyasi tahlil etiladi. Bojxona postlarining tashkil topishi, ular o‘rtasidagi strukturaviy o‘zgarishlar, strategik transport yo‘llaridagi postlarning ahamiyati va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bojxona tizimining soddalashtirilishi asosiy e’tiborga olingan. Shuningdek, maqolada rasmiy hujjatlar, qonuniy farmonlar va arxiv manbalariga asoslangan holda viloyatdagi bojxona boshqarmasining yillik tahliliy jadvali ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro viloyati, boj, bojxona, bojxona nazorati, boj undirish, chegara, tadbirkor, tovar, pul, muhr, tamg‘a, nazorat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N04

Kirish. O’zbekistonning janubi-g’arbida joylashgan, hududining katta qismini Qizilqum cho’llari egallagan, iqlimi keskin kontinental, quruq, umumiy maydoni – 39,4 ming m^2, aholisi esa 2 mln. kishidan ortiq bo’lgan Buxoro viloyati bojxonasi o’zining tarixi bilan ahamiyatlidir [1].

Buxoroi sharif dunyoga mashhur, bashariyat taraqqiyoti va tamadduniga beqiyos hissasini qo‘shgan betakror zamin. U Xitoydan tortib, Yevropa mamlakatlariga qadar yetib borgan qadimiy Buyuk ipak yo‘li chorrahasida, karvon yo‘llari kesishgan, jug‘rofiy jihatdan juda qulay hududda joylashgan shahar hisoblangan. Buyuk ipak yo‘lining muhim strategik ahamiyatga molik, xalqaro savdo-sotiqda o‘zining mustahkam va barqaror o‘rniga ega bo‘lgan Buxoro hududiga kelib, ipak yo‘li ikki tarmoqqa bo‘lingan.

Xususan, tarmoqning janubiy yo‘nalish bo‘yicha Buxoro – Qarshi – Termiz orqali Nishopurga, jumladan, Hirot orqali Hindistonga o‘tib ketilgan. Nishopurdagi tarmoqlardan biri Tehron – Qazvin – Hamadon – Bog‘dod – Palmira *(Suriyaning shimoli-sharqiy qismidagi qadimiy shahar)* [2] yo‘nalishi bo‘ylab O‘rta yer dengizi bo‘yidagi Tir shahrigacha cho‘zilgan bo‘lsa, shimoliy yo‘nalishi Xazar xoqonligi va Bulg‘or davlati orqali Kiyev rusi hamda Yevropa mamlakatlarigacha borgan. Mazkur tarmoq VI asrdan rivojlana boshlagan.

Hozirgi paytda Buxoro viloyati Markaziy Osiyo mintaqasining muhim janubiy darvozasi hisoblangan Turkmaniston bilan chegaradosh bo’lib, mazkur chegaraning umumiy uzunligi 308 kilometrni tashkil etadi.

1925-yilda Turkiston bojxona nazorati boshqarmasi Sovet ittifoqi Bosh bojxona boshqarmasiga aylantirilgan. Uning tarkibida 11 ta bojxona inspektorlari idoralari tashkil etildi. O‘zbekistonda ham ushbu idoraga bo‘ysunuvchi “Pattakesar” bojxona posti “Termiz bojxonasi”ga aylantirildi. 1930-yil 21-noyabrda Bojxona bosh boshqarmasi o‘z faoliyatini yana Tashqi savdo xalq komissarligi qoshida boshlagan. Uning tarkibida bojxonaning 11 ta inspektorlik organlari va 266 ta bojxona bo’lib, ularda 5710 nafar xodim faoliyat yuritgan. Xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilib, 1946-yil 15-mart kuni Bojxona bosh boshqarmasi Tashqi savdo vazirligi qoshida o’z faoliyatini boshlagan. 1953-yil yanvar oyidan Bojxona bosh boshqarmasi Tashqi va ichki savdo vazirligi tarkibida faoliyat yuritgan. 1955-yilda Bojxona bosh boshqarmasi Tashqi savdo vazirligi tarkibiga kiritilgan.

1955–1956-yillarda xalqaro havo yo‘llarida yuk va yo‘lovchi tashish oqimining ortishi tufayli Toshkent aeroportida bir qator tranzit havo yo‘llari ochilgan. Ularga bojxona xizmatini ko‘rsatish maqsadida 1958-yilda Toshkent aeroportida Termiz bojxonasiga bo‘ysundirilgan 3 ta shtat birligiga ega Toshkent bojxona posti tashkil etilgan. Tashqi savdo vazirligining 1959-yil 14-apreldagi 111-son buyrug‘i bilan Toshkent aeroportida xalqaro yuklar va yo‘lovchilar hajmining ko‘payganligi e’tiborga olinib, Toshkent bojxona posti Toshkent bojxonasiga aylantirilgan. Toshkent bojxonasida shtat bo‘yicha 4 ta xodim faoliyat olib borgan va ular tomonidan 1959-yilda qiymati 1780 rubllik 4 ta huquqbuzarlik ishi yuritilgan. O‘sha paytlari Toshkent va Termiz bojxonalarida birorta mahalliy kadrlar bo‘lmagan. 1984-yilda Afg‘onistonga yuborilayotgan va ulardan Toshkentga kelayotgan harbiy yuklar ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, Toshkent shahri yaqinida “Tuzel” bojxona posti faoliyat boshlagan.

1986-yil 12-fevralda sobiq SSSR Vazirlar Kengashi qoshida Davlat bojxona nazoratining Bosh boshqarmasi tashkil etilgan. 1988-yilda Toshkent va Termiz bojxonalari asosida O‘zbekiston SSR bojxonasi tashkil topgan. 1990-yil 16-iyulda Sovet ittifoqi Bojxona qo‘mitasi tashkil etilib, mustabid tuzum barham topguncha faoliyat ko‘rsatgan.

Maqolaning asosiy qismi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqaro savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, budjet tushumlarini o‘z vaqtida va to‘liq undirish, mamlakatga kontrabanda vositalari hamda tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy kirib kelishini oldini olish maqsadida milliy bojxona tizimi shakllantirildi. Bojxona xizmati respublika iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydigan davlat hokimiyati tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 25-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Qo‘mitasini tashkil yetish to‘g‘risida»gi PF-284-son Farmoniga asosan Buxoro viloyatida bojxona boshqarmasi tashkil etilib, uning rahbari etib militsiya polkovnigi

Boboqulov Rajab Odinayevich *(1991–1994-yillar)* tayinlangan. Islohotlarning dastlabki kunlarida Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi jami: 14 nafar xodim bilan ishni boshlagan [3]. Dastlabki bosqichda viloyat bojxonasining asosiy vazifasi etib, Turkmaniston davlatidan katta miqdordagi tabiiy va madaniy boyliklarning olib chiqib ketilishini bartaraf etish, Eron Islom Respublikasi va Turkmaniston Respublikasidan kirib kelayotgan tovar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish belgilangan. Shu yilning o‘zida chet davlatlardan kirib kelayotgan tovar va transport vositalarining oqimi ortib borishi sababli, yuklatilgan vazifalarni to‘laqonli bajarish maqsadida boshqarma xodimlari soni 40 nafarga yetkazilgan.

Buxoro viloyati bojxonasida 1992–1993-yillarda 70 nafar xodim 5 ta “Olot”, “Qorovulbozor”, “Gazli”, “Uchquduq” *(Avangard)* doimiy va “Ko‘kcha” ko‘chma bojxona postlarida xizmat faoliyatini olib borganlar. Viloyatda bojxona uchun alohida bino bo‘lmaganligi sababli dastlab boshqarma xodimlari Buxoro viloyati “Amu-Buxoro kanal qurilish” davlat korxonasi binosida faoliyat yuritganlar. 1995-yil 17-dekabr — Buxoro viloyati bojxona boshqarmasining ma’muriy binosi foydalanishga topshirildi.

Tarkibiy yangilanishlar davom etib, 1994-yil 18-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida”gi PF-744-son farmoni bilan Davlat bojxona qo‘mitasi tugatilib, Davlat soliq qo‘mitasi tarkibidagi Bosh bojxona boshqarmasiga aylantirildi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi 114-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi DSQ Bosh bojxona boshqarmasining asosiy vazifalari belgilandi [5]. DSQ bosh bojxona boshqarmasining Buxoro viloyati bojxona xizmatiga bojxona xizmati polkovnigi Boboqulov Abduqodir Xoliqulovich *(1994–1997-yillar)* boshliq qilib tayinlangan. Qisqa vaqt oralig‘ida *(1994–1997-yillarda)* Buxoro viloyati bojxona boshqarmasiga yuklatilgan vazifalar hamda ish yuklamasining oshib borishi natijasida boshqarma tarkibida 12 ta bojxona postlari tashkil etilib, shaxsiy tarkibning soni 144 nafarga yetkazildi.

Buxoro shahrining havo orqali kirib kelinadigan darvozasi bo‘lgan Buxoro xalqaro aeroporti bugungi kunda respublikaning asosiy aeroportlaridan biri hisoblanib kelmoqda. Buxoro shahri B. Naqshband ko‘chasi 251-uyda joylashgan. Ushbu aeroport soatiga 400 nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega va xalqaro aeroportlar tasnifiga muvofiq **4D sinf** *(“4” – uchish-qo‘nish yo‘lagining uzunligi 3.000 metrdan ortiq bo‘lsa, “D” – “D” toifaga kiruvchi samolyotlar uchib-qo‘nishi mumkin – M.M. Raxmatov)*ga mansub bo‘lib, ko‘p yillar davomida MDHdagi «Eng yaxshi aeroport», degan nomga sazovor bo‘lib kelgan. Mazkur aeroportda xalqaro yo‘nalishdagi qatnovlarda harakatlanuvchi yo‘lovchilar, ularning qo‘l yuklari va kuzatib borilayotgan bagaj *(yuk)*larini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o‘tkazish maqsadida 1991-yil 25-oktyabrda viloyat bojxonasida 1-raqam bilan faoliyat yuritgan “Buxoro aeroporti” chegara bojxona posti tashkil etilib, postga militsiya mayori Sayliyev Farxod Xalilovich *(1991–1994-yillar)* boshliq qilib tayinlangan va 6 nafar bojxona xodimi biriktirilgan [6]. Mustaqillikning dastlabki yillarida Buxoroda xalqaro aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilganligi sababli bojxona posti tashkil etilgan. Ushbu davrda aeroport orqali Toshhovuz *(Turkmaniston Respublikasi),* Dushanbe *(Tojikiston Respublikasi),* Bishkek *(Qirg‘iz Respublikasi),* Olmaota

(Qozog‘iston Respublikasi) va Moskva *(Rossiya Federatsiyasi)* kabi shaharlar bilan xalqaro reyslar amalga oshirib kelingan.

Buxoro hududidagi bojxona maskanlaridan yana biri 2-raqamli *(hozirgi “Kogon” TIF)* bojxona posti bo‘lib, 1991-yil noyabr oyidan Kogon temir yo‘l vokzalida 4 nafar bojxona xodimi bilan o‘z faoliyatini boshlagan. Azim Muqimov *(1992–1994-yillar)* bojxona postiga boshliq qilib tayinlangan. Kogon temir yo‘l vokzalida bojxona postini tashkil etish zarurati shundan iboratki, bu maskan mustaqillik yillarida respublikadagi mavjud 3 ta yirik mintaqaviy temir yo‘l uzelidan biri *(bundan tashqari, Samarqand va Qo‘qonda – M.M. Raxmatov)* hisoblangan. 1995-yilda bojxona posti manzili Buxoro viloyati Kogon tumani “Tutikunda” M.F.Y.dagi “Kogonta’minotsavdo” MChJ hududida o‘z faoliyatini davom ettirgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan paxta tolasini tashqi bozorlarga eksport qilish hamda ular ustidan samarali bojxona nazoratini o‘rnatish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shu maqsadda, 2002-yilda Buxoro viloyati Kogon tumani hududida jami: 25 ming tonna paxta tolasini saqlaydigan ixtisoslashtirilgan “Buxoro Trans Terminal” MChJga qarashli mintaqaviy paxta terminali tashkil etilgan. Shuningdek, mazkur paxta terminali hududida “Erkin ombor” *(respublikada jami 4 ta bo‘lgan)* tashkil etilishi hamda terminal viloyatlararo maqomga ega bo‘lganligi sababli, paxta tolasini deklaratsiyalash va bojxona rasmiylashtiruvidan tezkorlik bilan o‘tkazish maqsadida Buxoro viloyati Kogon tumani Kogon shossesi 38-uyda 3-raqamli bojxona posti negizida “Buxoro paxta terminali” bojxona posti tashkil etilgan [7]. Postga militsiya kapitani Jumayev Atakul Kubanovich boshliq qilib tayinlangan.

Ma’lumki, Olot, Qorako‘l va Romitan tumanlari Buxoro viloyatining janubi-g‘arbida, Turkmaniston bilan chegaradosh bo‘lib, davlat chegara chizig‘i bo‘ylab uzunligi jami 308,0 kilometrni, shundan Amudaryo daryosi bo‘ylab 91 km. masofani o‘z ichiga olgan. Mustaqillikning ilk kunlarida Turkmaniston Respublikasi bilan chegara hududlari sim to‘siqlar bilan to‘liq ulanmaganligi hamda umumiy daryo chegarasi mavjudligi sababli, tovarlar kontrabandasining oldini olish muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu boisdan, Amudaryo orqali kirib keladigan tovarlar kontrabandasining oldini olish bo‘yicha boshqarmaga qarashli 6 va 13-raqamli 4-8 nafar shtat birligidan iborat “Daryo” bojxona postlari tashkil etilgan. Mazkur bojxona postlari Romitan tumani “Qizilravot”, “Karvontushar”, “Gurli” hududlari va Qorako‘l tumanining “Sho‘rtoqli” kabi suvli hududlarida faoliyat ko‘rsatgan.

Shuningdek, davlat chegaralari orqali aylanma va so‘qmoq yo‘llar, temir yo‘l va ichki magistrallarda noqonuniy, taqiqlangan va sifatsiz tovarlarning kontrabandasining oldini olish maqsadida, 1991-yil yanvar oyida boshqarma binosida 9 nafar shtatdan iborat 4-raqamli “Romitan” va 1991-yil oktyabrda Romitan tumani Qizilravot posyolkasida 11 nafar shtatdan iborat 5-raqamli “Qizilravot” harakatdagi *(ayrim hujjatlarda “Olot” temir yo‘l stansiyasi deb ham yuritilgan – M.M. Raxmatov)* bojxona postlari tashkil etilgan.

“Romitan” harakatdagi bojxona posti nazorat hududlariga Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh 107 km.lik masofani, “Odimlovchi” kollektor kanalida joylashgan “Yomonjar”, “Olot-Yomonjar”, “Qandim”, “Xatar” va “Xo‘jadavlat” ko‘priklari kiritilgan. Ushbu bojxona postlariga qo‘shimcha sifatida 1995-yilda faoliyati tugatilgan “Daryo” bojxona postlarining xizmat vazifalari yuklatilgan. Bojxona postiga militsiya mayori Kamolov Esan Kasimovich boshliq qilib tayinlangan.

“Qizilravot” harakatdagi bojxona posti Romitan va Qorakoʻl tumanlarining Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh 91 km.lik masofada joylashgan Qizilravot, Shoʻrtoqli posyolkalarini nazorat qilgan. Postga militsiya leytenanti Abdunasirov Umar Xusenovich boshliq qilib tayinlangan.

Shuningdek, Buxoro viloyati hududiga xorijiy davlatlardan kirib kelgan tovar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan oʻtkazish maqsadida, 1991-yil noyabr oyida Buxoro shahri “Sadriddin Ayniy” M.F.Y. Sanoatchilar koʻchasi 8-uyda “Oʻztemiryoʻlkonteyner” AJ hududida 6-raqamli bojxona posti tashkil etilib, militsiya katta leytenanti Xalilov Komil Kamolovich *(1992–1994-yillar)* postga boshliq qilib tayinlangan. Bojxona posti dastlab koʻchma konteynerda oʻz faoliyatini boshlagan hamda 1993–1994-yillar davomida “Oʻztemiryoʻlkonteyner” AJga qarashli hududda bojxona posti uchun 8 ta xonadan iborat bino qurilib, foydalanishga topshirilgan.

Mustaqil Oʻzbekistonda ilk bor Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanida neftni qayta ishlash zavodining barpo etilishi muhim tarixiy voqea boʻldi. Shunga asosan, 1993-yildan boshlab loyiha qiymati 500 mln. AQSh dollariga teng boʻlgan zavodni qurish uchun xorijdan olib kelinadigan ishlab chiqarish texnologik asbob-uskunalarni bojxona rasmiylashtiruvidan oʻtkazish zarur boʻlgan. Natijada 1993-yil noyabr oyida Buxoro viloyati bojxonasiga qarashli Buxoro neftni qayta ishlash zavodi hududida 7-raqamli *(hozirgi “Qorovulbozor” TIF)* bojxona posti tashkil etilib, strategik ahamiyatga ega boʻlgan neft xom ashyosi mahsulotlarining bojxona rasmiylashtiruvi mazkur postda amalga oshirildi. Ilxom Xasanov *(1993–1994-yillar)* bojxona postiga boshliq qilib tayinlangan.

“Gʻijduvon” TIF bojxona posti 1994-yil tashkil etilib, militsiya kapitani Baxromjon Otamurodov *(1994–1995-yillar)* postga boshliq qilib tayinlangan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-son Farmoniga asosan, Gʻijduvon tumanining 67,5 gektar yer maydoni hududida “Gʻijduvon” erkin iqtisodiy zonasi tashkil qilindi. Ushbu erkin iqtisodiy zonada faoliyat yuritayotgan korxonalarning eksport-import operatsiyalarini bevosita shu yerdan turib bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun 2018-yilda boshqarma binosida faoliyat yuritayotgan “Gʻijduvon” TIF bojxona posti “Parvoz Humo Ravnaq Trans” MChJ ma’muriy binosiga joylashtirilgan va alohida xizmat xonalariga ega.

Jumladan, Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi faoliyatini yoʻlga qoʻyish va tashkillashtirish uchun Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilingan. Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 25-martdagi “Liker-aroq va tamaki mahsulotlariga aksiz solig‘i stavkalarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi 97-son qaroriga asosan, chetdan keltiriladigan alkogol va tamaki mahsulotlarining barcha turlariga aksiz solig‘i belgilanishi Buxoro viloyati bojxonasining ahamiyatini va uning davlatga pul tushirish *(fiskal)* vazifalarini yanada oshirdi. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida 1991-yil noyabr oyida tashkil etilgan koʻchma post negizida 1996-yil 1-sentyabrdan Qorakoʻl tumani Hamid Olimjon koʻchasi 1-uyda 9-sonli “Aksiz” *(hozirgi Qorakoʻl TIF)* bojxona posti tashkil etilgan. Boboqulov Abdurahmon Abduraufovich *(1996–1997-yillar)* bojxona postiga boshliq qilib tayinlangan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizning janubi-gʻarbiy darvozasi orqali asosiy hamkor mamlakatlar boʻlmish Turkmaniston, Eron, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqalar bilan oʻzaro savdo aloqalarini amalga oshirish, shuningdek Oʻzbekistonga eng yaqin xalqaro dengiz portlariga Oʻzbekiston–Turkmaniston–Eron transport yoʻlagi orqali

chiqilishi, mazkur yo‘nalishda bojxona nazoratini amalga oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 25-maydagi “Buxoro viloyatida “Olot” bojxona kompleksi qurilishi to‘g‘risida”gi 184-son qarori ijrosi yuzasidan, Davlat soliq qo‘mitasining Bosh bojxona boshqarmasi o‘z mablag‘lari hisobiga 1995–1996-yillar mobaynida Buxoro viloyatida Turkmaniston Respublikasi bilan chegarada “Olot” bojxona kompleksi hududi kengaytirilib, 4 gektar yer maydoni, 7 ta bino, 17 ta xona qurilib, 6 ta shlagbaum va 20 ta beton to‘siqlar o‘rnatilib, “Olot” bojxona nazoratidan o‘tkazish kompleksi faoliyati yo‘lga qo‘yildi va posti uchun qo‘shimcha 30 nafar xodimlar jalb etildi. Post “M-37” magistral avtoyo‘lida, ya’ni Olot tumani “Arabxona” M.F.Y. Mirishkor tor ko‘chasi 352-uyda joylashgan, bojxona postidan boshqarmagacha bo‘lgan masofa – 110 km.ni tashkil etadi. Postning rahbari etib militsiya mayori Djamalov Muxitdin Djamilovich *(1991–1992-yillar)* tayinlangan. 1997-yil 7-aprel — “Olot” chegara bojxona kompleksi yangi binosi foydalanishga topshirildi.

Mazkur bojxona posti “O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Turkmaniston Respublikasi hukumati o‘rtasida davlat chegarasi orqali o‘tish punktlari to‘g‘risida”gi Bitim *(Ashxobod, 2007-yil 18-oktyabr)*ga asosan o‘z faoliyatini amalga oshira boshlagan. Mustaqillikning dastlabki yillarida ushbu post orqali o‘rtacha 45-50 tagacha avtotransport vositasi harakatlangan.

“Xo‘jadavlat” temir yo‘l chegara bojxona posti Turkmaniston bilan chegaradosh bo‘lib, Buxoro viloyatining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-noyabrdagi “Temir yo‘l stansiyalarida bojxona nazoratini va nazorat postlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 489-son qaroriga asosan, 10-sonli “Xo‘jadavlat” temir yo‘l chegara bojxona posti tashkil etilib, bojxona xodimlari uchun 7 ta xona ajratilgan[8]. Boboyev Ismoil Gurtovich *(1999–2000-yillar)* postga boshliq qilib tayinlangan. Bojxona posti Olot tumani “Soyin Qorovul” M.F.Y. “Xo‘jadavlat’ temir yo‘l bekati binosida joylashgan, bojxona postidan boshqarmagacha bo‘lgan masofa – 107 km.ni tashkil etadi. Post temir yo‘l transport vositalari bilan harakatlanayotgan yo‘lovchi va tovarlar ustidan bojxona nazoratini amalga oshiradi.

Shulardan kelib chiqqan holda ayni kunlarda Buxoro viloyatidagi “Xo‘jadavlat” temir yo‘l chegara bojxona posti qo‘shni Turkmaniston Respublikasi orqali mamlakatga import, tranzit hamda eksport yo‘nalishidagi yo‘lovchilarning qo‘l yukini, kuzatib borilayotgan bagajini hamda valyuta boyliklarini, shuningdek, temir yo‘l vagonlari bilan tashiladigan tovarlarni bojxona nazoratidan o‘tkazishni tartibga soluvchi yagona xalqaro maqomdagi tranzit yo‘lagi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentyabrdagi “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6310-son Farmoniga muvofiq, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishda ilg‘or raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali faoliyat samaradorligini yanada oshirish maqsadida Davlat bojxona qo‘mitasining bojxona organlarining umumiy cheklangan shtatlar soni doirasida toifadan tashqari maqomga ega bo‘lgan “Masofaviy elektron deklaratsiyalash” bojxona postlarini 2021-yil 1-oktyabrdan boshlab Davlat bojxona qo‘mitasining Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari bo‘yicha boshqarmalarida tashkil etilgan. Shuningdek, “Masofaviy elektron deklaratsiyalash”

bojxona postlari tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan elektron bojxona yuk deklaratsiyalarining masofaviy bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiradi va “Masofaviy elektron deklaratsiyalash” bojxona postlari tashkil etilgan hududlardagi TIF bojxona postlarining faoliyati bojxona nazorati shakllarini amalga oshirishga ixtisoslashtirildi [8].

Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi tasarrufida “Masofaviy elektron deklaratsiyalash” bojxona posti faoliyati yo‘lga qo‘yilib, postga rahbar etib bojxona xizmati podpolkovnigi Djanibekov Sherzod Kuranboyevich *(2022–2024-yillar)* tayinlangan.

1999-yildan 2022-yil oxiriga qadar Buxoro viloyati bojxona boshqarmasiga qarashli bojxona postlarining evolyutsion bosqichlarini quyidagi jadval orqali anglash mumkin.

1999-yil			**2022-yil**
№	**Kodi**	**Post nomi**	**O‘zgarishlar**
1.	06001	“Aeroport” bojxona posti	“Buxoro aeroporti” chegara bojxona posti
2.	06002	“Kogon” bojxona posti	“Kogon” TIF bojxona posti
3.	06003	“Buxoro paxta terminali” TIF bojxona posti	Faoliyati tugatilgan
4.	06004	“Olot” harakatdagi bojxona posti	Faoliyati tugatilgan
5.	06005	“Qizilravot” harakatdagi bojxona posti	Faoliyati tugatilgan
6.	06006	“Buxoro-2” bojxona posti	“Buxoro” TIF bojxona posti
7.	06007	“Qorovulbozor” bojxona posti	“Qorovulbozor” TIF bojxona posti
8.	06008	“G‘ijduvon” bojxona posti	“G‘ijduvon” TIF bojxona posti
9.	06009	“Aksiz” bojxona posti	“Qorako‘l” TIF bojxona posti
10.	06010	“Olot” bojxona nazorati kompleksi	“Olot” chegara bojxona posti
11.	06011	“Xo‘jadavlat” bojxona posti	“Xo‘jadavlat” temir yo‘l chegara bojxona posti
12.	06000	—	“Masofaviy elektron deklaratsiyalash” bojxona posti
Jami		**11**	**9**

Xulosa. Yuqoridagi jadvalda 1997–2022-yillar davomida Buxoro viloyati bojxona boshqarmasiga qarashli bojxona postlari haqida ma’lumot ko‘rsatilgan. Xullas, Buxoro viloyati bojxona boshqarmasining tashkil topishi, unda yuz bergan strukturaviy o‘zgarishlar bugunga qadar bir qator bosqichlarni olib chiqdi. Ortda qolgan yillarda bojxona boshqaruvi va faoliyatida boy tajriba to‘plandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. [https://www.buxstat.uz/uz/ “Buxoro viloyati raqamlarda (2022-yil yanvar-sentabr holatiga)”]. Qaraldi: 2023-yil 19-yanvar.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Palmira
3. M.M. Raxmatov «Mustaqil O‘zbekistonda Davlat bojxona tizimi shakllanishining me’yoriy-huquqiy asoslari xususida» tarix fanlari bo‘yicha mustaqil izlanuvchi (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan ilmiy maqoladan. – Xiva: Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 2025-y. 54-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasining davlat

soliq qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida”gi PF-744-son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi 114-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
6. Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi joriy arxivi 16.09.1992-yil. Yig‘ma jild №1: – 29-sahifa.
7. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi T: «Adolat» – 2017-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi PF-6310-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

SAMANID STATE: MILITARY REFORMS AND MANAGEMENT STRATEGIES

Tukhtasinov Mirazam Abdujabbor oglu
Namangan State University
Student of the Faculty of History of Social Sciences

Scientific advisor: Dehkanov Narimon Burkhonjonovich
Doctor of Political Sciences, Professor

Abstract. In this article, the second son of Ahmad ibn Asad, the founder of the first centralized state in Central Asia, the main representative of the centralized Samanid state, which emerged after the crisis of the Arab Caliphate, which ruled in 892-907, was considered one of the most powerful and powerful rulers of the Samanid dynasty. Information is provided about the administrative system and army reform implemented in the Samanid state during the reign of Ismail ibn Ahmed al-Samani, who is considered the ruler of Bukhara.

Keywords: Amir al-mo‘minin, sahib al-kharos, amir al-kharas, hajib, khalibboshi, hajib, wakil, waiter, doorman, sharbatdar, tashtdar, atbogar, farm stewards.

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI

To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan Davlat Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
Email: mirazamtohktasinov@gmail.com

Ilmiy rahbar: Dexkanov Narimon Burxonjonovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada Arab xalifaligining inqirozidan so‘ng vujudga kelgan O‘rta Osiyodagi dastlabki markazlashgan davlat asoschisi, 892-907-yillarda hukmronlik qilgan, markazlashgan Somoniylar davlatining yirik vakili, Somoniylar sulolasining eng qudratli va zabardast hukmdorlaridan biri hisoblangan Ahmad ibn Asadning ikkinchi o‘g‘li, Buxoro hukmdori hisoblangan Ismoil ibn Ahmad as-Somoniy davrida Somoniylar davlatida amalga oshirilgan boshqaruv tizimi va qo‘shin islohotiga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Amir al-mo‘minin, sohibi al-xaros, amir al-xaras, hojib, xaylboshi, hojib, vakil, dasturxonchi, eshik og‘asi, sharbatdor, tashtdor, otboqar, xo‘jalik beklari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N05

Kirish. Somoniylar sulolasining eng qudratli hukmdorlaridan hisoblangan Ismoil ibn Ahmad as-Somoniy (892-907-yillar) davrida Somoniylar davlati butun musulmon olamidagi eng qudratli mamlakatlardan biriga aylanadi. Qudratli mamlakatni boshqarish uchun esa, mustahkam boshqaruv tizimi zarur edi. Ismoil Somoniy buni chuqur anglagan holda, davlat va mamlakat aholisini manfaatlarini himoya qiladigan boshqaruv tizimini yaratadi.[1.-B.243] Bu boshqaruv tizimi Bag‘doddagi Abbosiylar sulolasining boshqaruv tizimidan namuna sifatida foydalanib, Somoniylar davlati uchun yangi boshqaruv tizimini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ma'lumki, arab xalifaligida oliy hukmdor, ya'ni xalifa "amir al-mo'minin" (mo'min musulmon ahlining amiri), viloyat voliylari esa "amir" (buyruq beruvchi, boshqaruvchi) deb yuritilgan. Ismoil Somoniy ham Movarounnahr va Xuroson hududlarining voliysi (boshqaruvchisi) sifatida shu nomga ega bo'lgan. Somoniylar davlati boshqaruv tizimi Ismoil Somoniy davridan boshlab dargoh (saroy) va devon (harbiy va ma'muriy boshqarmalar) orqali boshqarila boshladi. Amirning turk g'ulomlaridan iborat maxsus shaxsiy qo'riqchilari bo'lib, ular ham mamlakat boshqaruvida muhim o'ringa ega bo'lganlar.[2.-B.28] Bu davrdan boshlab harbiy ishlarda o'zining harbiy qobiliyatini namoyon qilgan askarlar yoxud turk g'ulomlari "xaylboshi" (otliq askarlar boshlig'i), keyinchalik esa "hojib" lavozimini egallaganlar. Dargoh (saroy)da amirning chiqargan hukmlarini ijrosini ta'minlash uchun yangi lavozim "sohibi al-xaros" yoki "amir al-xaras" joriy etilib, uning mavqeyi oliy-siyosiy hokimiyatda amirdan so'ng turgan.[3.-B.341] Ayrim ma'lumotlarga ko'ra sohib al-xarasning ixtiyorida 20 ta oltin, 20 ta kumush, 10 ta yog'och gurzi tutgan 50 kishidan iborat cho'pdorlar bo'lganligi qayd etib o'tilgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, sohib al-xarasning siyosiy mavqeyi juda yuqori bo'lgan. Jumladan Saljuqiylar davlatining eng yirik arbobi hisoblangan Nizomulmulk o'zining "Siyosatnoma" asarida "mamlakat aholisi sohib alxarasdan shu qadar qo'rqar edilarki, amirdan ham bu darajada qo'rqmas edilar" degan ma'lumotlarni keltirib o'tgan. [4.-B.191] Bundan tashqari dargohda quyidagi lavozimdagi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatgan.

1. Hojib - dargoh xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan amaldor. 2. Vakil — saroydagi barcha xo'jalik ishlariga mas'ul bo'lgan amaldor. 3. Dasturxonchi — amir huzurida uyushtirilgan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor. 4. Eshik og'asi — dargohga kelib ketganlar xavfsizligi uchun mas'ul amaldor. 5. Sharbatdor — amirning shaxsiy ishlari uchun mas'ul amaldor 6. Tashtdor — amirning hammom va hovuzlari xavfsizligi uchun mas'ul amaldor. 7. Otboqar — amir otxonasi uchun mas'ul bo'lgan amaldor. 8. Xo'jalik beklari — amirning xo'jalik ishlarini yuritish uchun mas'ul amaldor. 9.Hokimlar — amir tomonidan viloyatlarni boshqarish uchun tayinlangan amaldor. 10. Raislar — amir tomonidan viloyatlarni boshqarish uchun tayinlangan amaldor. Ma'lumotlarga qaraganda markaziy boshqarma 10 ta devondan iborat bo'lib, bu devonlar ichida eng mas'uliyati va mavqeyi jihatidan qolgan devonlarga qaraganda juda ham katta bo'lgan devon vazir devoni hisoblangan. [5.-B.38] U o'zining devonidan tashqari markaziy boshqarmadagi barcha ma'muriy, siyosiy va xo'jalik devonlari ustidan bevosita nazorat qilgan. Manbalarda keltirilishicha harbiy ishlar boshqaruvi ham aynan vazir devoni zimmasida bo'lgan. Bu boshqaruv sistemasi ham xalifa Ma'munning vaziri al-Fazil ibn Saxlning tajribasidan olingan bo'lib, u qilich san'atini ham, qalam san'atini ham yaxshi egallagani uchun uni "Zur Riyosatayn" (ikki san'at sohibi) degan sharafli nom bilan atalgan.

Muhokama va natijalar. Ismoil ibn Ahmad davrida birinchi bo'lib Movarounnahrda markazlashgan davlat tamoyillari hukmronlik qila boshladi. U Abbosiy xalifalarga sodiq qolgan holda o'zining hokimiyatini mustahkamlab, markazlashtirilgan ma'muriy boshqaruv tizimini mukammallashtirdi va shu bilan birgalikda turk g'ulomlaridan iborat kuchli muntazam qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ldi. Natijada ko'chmanchi turklarga qarshi serxarajat mudofaa devorlarini (Kampirak devori) qurishga hojat qolmadi. [6.-B.249] Buning evaziga odamlar ichki muammolarini bartaraf etishga ko'proq e'tibor berishlariga keng imkoniyatlar yaratildi. Ismoil Somoniy joriy etgan boshqaruv tamoyillari va u tomonidan yaratilgan barcha boshqaruv andozalari undan keyin ham toki Somoniylar davlati parchalanib (1005-yilgacha), tarix

sahnasidan ketgunga qadar amalda bo‘ldi. Ismoil Somoniyning amalga oshirgan eng muhim ishlaridan biri bu qo‘shin islohoti edi. Ismoil Somoniy davrigacha qo‘shin faqat zarur holatlarda faqat chaqiriq bo‘yicha ma’lum vaqtda to‘plangan. Bu qo‘shinlar tarkibidagi askarlarning bari mahalliy hunarmand, savdogar, dehqon va boshqa kasb egalari bo‘lgan. Bu qo‘shinga amir bevosita o‘zining hukmini o‘tkaza olmas edi. Qo‘shinning o‘z xohishi bilan emas, balkim, chaqiriq orqali to‘plangani va harbiy yurishlarda ishtirok uchun hech qanday moddiy manfaatning mavjud emasligi sababli hukmdor buyruqlari bajarilmas yoki umuman bo‘ysunmaslik holatlari uchrab turgan. [7.-B.57] Ayrim ma’lumotlarda keltirilishicha, bu qo‘shinlar faqat dehqonlar va xatiblar orqali boshqarilgan. Shuningdek, amir bu ikki o‘rtada vositachi bo‘lib qolar edi. Ismoil Somoniy Abbosiy xalifalardan o‘rnak olib, ilk bor yollanma askarlardan iborat muntazam va professional qo‘shin tuzishga kirishdi. Bu qo‘shin endi dehqonlar yoki xatiblarga emas balkim bevosita hukmdorga o‘ziga bo‘ysunib, unga shaxsan sodiqlik qasamyodini bildirgan. Bu muntazam qo‘shin harbiy jihatdan yaxshi tayyorlangan, har qanday qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lgan turk g‘ulomlaridan iborat bo‘lgan.[8.-B.354] Ibn Xavqalning ma’lumotlariga qaraganda, Somoniylar qo‘shinlari o‘zining qat’iyatligi, shijoatliligi va matonati bilan boshqa mamlakatlarning qo‘shinlaridan ustun bo‘lgan. Bu qo‘shindagi askarlarning harbiy mahorati yuqori bo‘lib, ular o‘z uylari, joylarini, oilalarini va qo‘shnilarini taniydigan ozod kishilar va mahalliy dehqonlardan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Agar ulardan kimdir vafot etsa yoki jangda halok bo‘lsa, ularning o‘rnini ko‘p sonli mahoratli zaxiradagi askarlar to‘ldirib turgan. Somoniylar davrida favqulodda vaziyatlarda chaqiriladigan qo‘shin turi ham mavjud bo‘lib, muvaqqat qo‘shinda ko‘ngilli askarlar ham faoliyat yuritgan.[9.-B.243] Ular xavf-xatar tug‘ilganda, mamlakatning biror yerida qo‘zg‘olon ko‘tarilganda yoki ko‘chmanchilarga qarshi harbiy yurish qilingan vaqtda butun mamlakat hududlaridan chaqirilgan. Ko‘ngilli askarlar muvaqqat qo‘shinga yetib kelguncha o‘zlarining hisobiga yoki mahalliy hukmdorning hisobiga kun ko‘rganlar. Askarlar belgilangan manzilga yoki saroyga yetib kelgandan so‘ng, ularning harbiy, moddiy va oziq – ovqat ta’minoti amir hisobidan berilgan. Al-Muqaddasiy keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, “Chag‘oniyon viloyatining hokimi amirning chaqirig‘iga javoban Buxoroga 10 askardan iborat qo‘shin yuborganda, har bir askarning o‘z oti va qurol - yarog‘i bo‘lgan. Bu qo‘shinning bir qismini yollanma askarlar ham tashkil etganligi” haqida ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Ibn az-Zubarning ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘ngilli askarlarga hukumat tomonidan iqto yerlari ajratib berilganligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan. Bu yerlar ularning o‘zlarini va oilalarini boqish, otlari va qurol - yaroqlarining barcha xarajatlarini qoplash uchun xizmat qilgan. Bu yerlardan kelgan daromad ularning o‘z ehtiyojlarini qoplashdan ham ortib qolib, qolgan daromadni tijorat ishlariga va kambag‘allarga xayr - ehson berishga sarflaganlar. Shu sababli ko‘ngilli askarlar harbiy xizmat burchlarini astoydil va sidqidildan ado etganlar.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Ismoil Somoniyning olib borgan islohotlari nafaqat mamlakat rivoji uchun balki, aholining turmush tarziga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Birgina qo‘shin sohasida olib borgan islohoti ya’ni muntazam qo‘shinning joriy etilishi, aholini endilikda majburiy harbiy safarbarlikka jalb qilmaslikka imkon beradi. Buning natijasida dehqon o‘zining ishini endilikda harbiy safarbarlik tufayli tashlab ketmaydi. Ijtimoiy hayotda barcha sohalar harbiy safarbarlik tufayli to‘xtab qolmaydi. Bu islohot Ismoil Somoniyni mamlakat tarixida amalga oshirgan eng buyuk ishlarida biri sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т:. Фан, 1996. –Б. 120.
2. Неьматов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Ибн ал-Асир. Ал – Камил фит тарих. –Т.: Цюрих, 2005. –Б. 604.
4. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511
5. Homidiy H. Daholar davrasi. –T. O‘qituvchi. 2011. –B. 352.
6. Эшов Б. Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
7. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholar press, 2017. –B. 93.
8. Уватов У. Буюк юрт алломалари. –T:, O‘zbekiston. 2020. Б. 426.
9. Boydedayev D. /Buxoro faxri – Ismoil Somoniy. Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari. 14-son. 28.05.2022-y

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

SPECIFIC FEATURES OF ACCOUNTING IN THE PUBLIC SECTOR

Kuliboyev Azamat Shonazarovich
Doctor of Philosophy in Economic Sciences (PhD)
Professor of the "Budget Accounting and Treasury" Department
at Tashkent State University of Economics

Abstract. This article provides a detailed study of the specific features of accounting in the public sector, which differ from those in the private sector. It also offers a scientific justification of the characteristics of public sector accounting. Scientific conclusions have been drawn regarding the improvement of the organizational, technical, and methodological aspects of organizing and maintaining accounting in the public sector.

Keywords: accounting, bookkeeping, budget classification, budgetary organization, budget accounting, public sector, memorial order, treasury, accounting policy, reporting.

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Byudjet hisobi va g‘aznachilik" kafedrasi professori
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat sektoridagi hisobning xususiy sektor hisobidan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlari batafsil o‘rganilgan. Shuningdek, davlat sektorida hisob yuritishning xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan. Davlat sektorida hisobni tashkil qilish va yuritishning tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya, buxgalteriya hisobi, byudjet tasnifi, byudjet tashkiloti, byudjet hisobi, davlat sektori, memorial order, g‘azna, hisob siyosati, hisobot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N06

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat sektoriga bo‘lgan ehtiyoj uning uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlarida unga bo‘lgan zaruriy shartlar bilan asoslanadi. Iqtisodiyotda, xususan, davlat sektori tashkilotlarida ham tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlari amalga oshiriladi. Shuningdek, amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning pullari davlat sektori tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalariga kelib tushadi. Bu esa ushbu tashkilotlarda hisob ishlarining olib borilishi zaruriyatini vujudga keltiradi.

Davlat sektoridagi tashkilotlarda hisob yuritishning xususiyatlari shu bilan izohlanadiki, unda tashkilotning ta'sischisi davlat hisoblanadi. Shuning uchun davlatning vakolatli organlari tomonidan byudjet tashkiloti tashkil etiladi, faoliyat yo‘nalishiga qarab, tegishli vazirliklar va

idoralarga biriktiriladi. Bundan maqsad ushbu biriktirilgan byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish, moliyaviy hisobotlarini qabul qilish va doimiy ravishda nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

Davlat sektoridagi tashkilotlarda hisob yuritish faoliyat yo‘nalishiga qarab ma’lum normativ – huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunday holat byudjet hisobining tijorat tashkilotlaridagi buxgalteriya hisobiga nisbatan asosiy farqli jihatlarini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda byudjet tashkilotlari davlat tomonidan qat’iy moliyaviy nazorat ostida turibdi. Shu munosabat bilan davlat mulki va byudjet mablag‘larini aniq hisobga olish uchun yaxlit va ishonchli hisob tizimi talab etiladi.

Bugungi kunda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni asoslash uchun muayyan faoliyat sohalarini hisobda aks ettirish dolzarblik kasb etmoqda. Uzoq yillar mobaynida byudjet tashkilotlari hisoblash usuli sifatida modifikatsiya qilingan usuldan foydalangan. Bu usul faqat moliyaviy aktivlar, majburiyatlar va kassaviy oqimlarni aks ettirish imkonini beradi. Ya’ni, avval amal qilgan byudjet hisobi tizimi faqat byudjet mablag‘larining qoldiqlaridagi o‘zgarishlarni inobatga olgan.

Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi ham davlat sektorida hisobni tashkil etish xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liqlikni isbotlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot mavzusi doirasida xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy asarlari va maqolalari o‘rganib chiqildi.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari S.S.Lyovina, A.R.Xametova tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, hisobni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari bozor iqtisodiyotiga o‘tishni hisobga olgan holda belgilanishi asoslab berilgan. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilib, ilmiy jihatdan batafsil yoritilgan. Shuningdek, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish rejasining elementlari ham ilmiy jihatdan tadqiq etilgan [2,100 – 102].

T.A.Polещukning asarlaridan biri byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda byudjet tashkilotlarida hisob ishlarini tashkil qilishning o‘ziga xos tomonlari va hisobotlarni shakllantirish masalalari nazariy – uslubiy jihatdan ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari noishlab chiqarish muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish, byudjet tashkilotlarida pul mablag‘lari va xarajatlarni, nomoliyaviy aktivlarni, turli xil hisob – kitoblarni hisobga olish va hisobotlarni shakllantirish masalalari ham batafsil yoritilgan [7].

Byudjet, davlat, avtonom muassasalar uchun buxgalteriya hisobini yuritish tartibining nazariy – uslubiy jihatlari I.P.Vorobeva, A.L.Spesivseva va G.A.Barышevalarning asarida ko‘rsatilgan. Hisob siyosatining har bir yo‘nalishi bo‘yicha birlamchi hujjatlar, buxgalteriya registrlari taqdim etilishi, subschyotlarning korrespondensiyalari berilgan. Birlashtirilgan buxgalteriya hujjatlari va hisobot shakllariga misollar keltirilgan. Byudjetni moliyalashtirish va tadbirkorlik faoliyatini hisobga olish siyosatining xususiyatlari ko‘rsatilgan [1].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan M.Ostonaqulov, S.U.Mehmonov, va A.A.Ostonokulovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida byudjet tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirish masalalari ko‘rib o‘tilgan.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi masalalari M.Ostonaqulovning asarlarida aks etgan. Olim byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish, xarajatlarni to‘lash, pul mablag‘lari va xarajatlar, asosiy vositalar va material zaxiralar, hisob – kitoblar hamda

byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobini nazariy – uslubiy jihatdan to‘liq yoritib bergan. Shuningdek, byudjet tashkilotlarida inventarizatsiya o‘tkazish tartibi va hisobotlarni tuzish qoidalarini ham batafsil bayon etgan [5].

S.U.Mehmonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda byudjet tashkilotlarida hisobini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini shakllanishi va harakatining umumiy sxematik ko‘rinishi, byudjet tashkilotining mulkchilik asosiga, davlat byudjetini tuzish va ijro etish prinsiplariga va boshqa bir qator omillarga bevosita bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [4].

A.A.Ostonokulovning tadqiqotlari byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisobotining nazariy – uslubiy asoslari, amaliyoti, tahlili hamda hisob ishlarini yuritish, tashkil qilish va hisobotlarni shakllantirishni uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan [6].

Yuqoridagi xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida asosan byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi xususiyatlarining nazariy–uslubiy jihatlari ochib berilgan bo‘lsa–da, davlat sektorida soha xos xususiyatlarini inobatga olgan holda hisob yuritish masalalari batafsil o‘rganilmagan. Shu boisdan, ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar olib borish bugun kunda muhim ahamiyatga ega.

Metodologiya. Davlat sektorida hisobni tashkil etish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda amaldagi byudjet qonunchiligi qoidalarini hisobga olgan holda tizimli tahlil qilish, taqqoslash, analiz, sintez va boshqa shu kabi bir qancha tadqiqot usullaridan foydalangan.

Tahlil va natijalar. Davlat sektorida hisob xususiy sektor hisobidan farq qiluvchi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega (1–rasm).



1 – rasm. Davlat sektoridagi hisobning xususiy sektor hisobidan farq qiluvchi xususiyatlari[1]

[1]Muallif tomonidan ilmiy tadqiqotlar asosida tuzilgan

Yuqoridagi rasmda keltirilgan xususiyatlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

1. Moliyaviy natija emas, ijtimoiy samara asosiy maqsad hisoblanadi. Davlat sektori tashkilotlari foyda olish uchun emas, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, aholiga xizmat ko‘rsatish uchun faoliyat yuritadi. Hisobotlarda moliyaviy samaradan ko‘ra ijtimoiy natijalar muhim hisoblanadi.
2. Byudjetga asoslangan moliyalashtirish. Davlat sektori tashkilotlari faoliyatining asosiy moliyalashtirish manbai davlat byudjeti mablag‘lari hisoblanadi. Buning uchun albatta xarajatlar smetasi tuziladi, xarajatlari ushbu smeta asosida amalga oshiriladi. Bunda byudjet intizomiga amal qilinadi.
3. Xarajatlarni hisobga olishga yo‘naltirilgan tizim. Davlat sektoridagi tashkilotlarda hisob yuritish ko‘proq xarajatlarni to‘g‘ri va shaffof qayd etishga qaratilgan. Shuningdek, byudjet tashkilotlarining daromadlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘g‘ri keladi.
4. G‘aznachilik tizimi orqali mablag‘larning aylanishi. Davlat sektoridagi tashkilotlarga mablag‘larning kelib tushishi, byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladigan kassa xarajatlari Yagona g‘azna hisobvarag‘i orqali amalga oshiriladi. Bu degani, mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati G‘aznachilik xizmati bo‘limlari tomonidan ham amalga oshiriladi. G‘aznachilik tizimi xarajatlarni nazorat qilish, mablag‘larni maqsadli sarflashni ta’minlash uchun joriy qilingan.
5. Maxsus standartlar va normativ – huquqiy bazalar. Davlat sektorida hisob Byudjet hisobi standartlari, xalqaro miqyosda “Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari” (IPSAS) asosida yuritilishi mumkin. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha byudjet tashkilotlari hisobni qat’iy qonunchilik asosida yuritadilar.
6. Ochiqlik va jamoatchilik nazorati. Byudjet hisoboti ma’lumotlari keng jamoatchilikka taqdim etiladi, parlament va jamoatchilik nazorati ostida bo‘ladi. Bu hisobotlarda shaffoflik va javobgarlik tamoyillari ustuvor hisoblanadi.

Davlat sektoridagi tashkilotlarning barchasi amaldagi normativ – huquqiy hujjatlarga muvofiq davlat funksiya va vazifalarini bajarsa-da, ularning tarmoq va sohalari, boshqaruv tizimi, faoliyat yo‘nalishi, moliya – xo‘jalik faoliyatini boshqarish tizimi, tashkilotlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi va mablag‘larning shakllanish manbalari bo‘yicha bir – biridan farqli jihatlari mavjud.

Shu bois, davlat sektorida ham hisob yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud (2–rasm).



2 – rasm. Davlat sektorida hisob yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari[1]

Yuqoridagi rasmda keltirilgan davlat sektorida hisob yuritishning ba’zi bir xususiyatlarini qisqacha izohlab o‘tamiz. Davlat sektoridagi tashkilotlarda hisob yuritishning sohaga xos tomonlari deganda, tashkilotning ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat va sport, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarga xosligi, faoliyat yuritishi tushuniladi. Chunki, har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlari va amal qiladigan normativ–huquqiy hujjatlari mavjud.

Hozirgi kunda byudjet sohasida buxgalteriya hisobining barcha jarayonlarini o‘z ichiga olgan buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘yicha operatsiyalar “DMBAT” va “UzASBO” dasturiy majmualarida to‘liq avtomatlashtirilgan. Bu dasturiy majmualar yildan yilga takomillashtirilib borilmoqda. Natijada davlat byudjeti ijrosi hisobining ishlari to‘g‘ri va mazmun jihatidan ketma–ket bajarib borilishiga erishiladi, choraklik moliyaviy hisobotlar to‘g‘ri shakllantiriladi. Byudjet hisobi axborotlarining foydalanuvchilar uchun uzluksizligi va ishonchliligi hamda eng muhimi davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun hisob ma’lumotlarining tezkorlik bilan ta’minlanishiga erishiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot davomida davlat sektorida hisobni tashkil etish va yuritishning asosiy xususiyatlari tahlil qilindi. Davlat sektoridagi tashkilotlarning asosiy vazifasi bu davlat funksiyalarini bajarish uchun byudjet mablag‘larini maqsadli sarflashdir. Davlat sektoridagi tashkilotlar ijtimoiy, madaniy, ta’lim, tibbiyot, huquqni muhofaza qilish sohalarida faoliyat olib borishi mumkin. Ushbu faoliyat uchun ajratiladigan mablag‘lar qattiq nazorat ostida bo‘lishi shart. Buning uchun hisob tizimini aniq va to‘g‘ri tashkil qilish zarur.

Byudjet hisobining o‘ziga xos jihatlari – byudjet tasnifi, Yagona schyotlar rejasi, hisobning memorial orderda yuritilishi, moddiy boyliklarni hisobga olish va mehnat haqi tizimida namoyon bo‘ladi. Bular ham qat’iy qonunchilik bilan tartibga solinishi kerak.

[1]Muallif tomonidan ilmiy tadqiqotlar asosida tuzilgan

Hisobot axborotini shakllantirish davlat sektori tashkilotlarining samarali faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u haqiqiy moliyaviy–iqtisodiy faoliyatga asoslanadi. Shu sababli, hisob yuritish tizimini doimiy ravishda uslubiy jihatdan takomillashtirish zarur.

Byudjet hisobi samaradorligini oshirish uchun uning tahlilchanligi va operativligini oshirish, hujjat aylanmasi va hisob tizimlarining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish talab qilinadi.

Umuman olganda, davlat sektorida hisobni tashkil qilishda uning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor berish va hisobning uzluksizlik, ishonchlilik, ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi prinsiplariga amal qilish kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Воробьева И.П., Спесивцева А.Л., Барышева Г.А. Бухгалтерский учет в бюджетных учреждениях: Учебное пособие – Томск: Изд-во ТПУ, 2012. – 252 с.
2. Лёвина С.С., Хаметова А.Р. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных организациях // Журнал “Экономика и право”. – 2015. № 12 (58). – с. 100 – 102.
3. Shonazarovich, Kuliboyev Azamat. "REGULATORY AND LEGAL REGULATION OF ACCOUNTING IN BUDGETARY INSTITUTIONS." EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies (EBMS) 10.6 (2023): 82-86.
4. Меҳмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби: назария ва амалиёт. Монография – Т.: “Iqtisod va moliya”. 2016. – 136 б.
5. Остонақулов М. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. – Т.: “Iqtisod va moliya”. 2009. – 428 б.
6. Остонақулов А.А. “Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш” монография. Т: VNESHINVESTPROM нашриёти, 2021, 208 бет.
7. Полещук Т.А. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. – 108 с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE ANALYSIS OF THE APPLICATION OF INTERNET MARKETING IN PUBLIC CATERING ENTERPRISES

Azgarov Abdumutalib,
assistant teacher at KIUT Samarkand branch,
independent researcher of "Marketing"
department in SIES, Samarkand, Uzbekistan

Abstract. In the digital era, online reviews and ratings have become a critical component influencing consumer decisions, particularly in the restaurant industry. This article investigates how online feedback shapes the reputation and success of restaurants by analyzing the key factors that drive consumer trust. The study highlights the importance of review authenticity, reviewer credibility, and platform reliability as essential elements for building trust and attracting customers. Understanding these factors helps restaurant owners and marketers optimize their online presence and foster long-term customer relationships..

Keywords: internet marketing, brand image, catering, social media, cost effectiveness, Return on Investment, consumer trust, restaurant marketing.

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO'LLANILISHI HOLATI TAHLILI

Azgarov Abdumutalib Alisher o'g'li,
TKXU Samarqand filiali "Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi,
SamISI "Marketing" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: mutalibazgarov@gmail.com

Annotatsiya. Raqamli davrda onlayn sharhlar va reytinglar iste'molchilarning qarorlariga ta'sir qiluvchi muhim tarkibiy qismga aylandi, ayniqsa umumiy ovqatlanish korxonalari sohasida. Ushbu maqola iste'molchilar ishonchini kuchaytiruvchi asosiy omillarni tahlil qilish orqali onlayn fikr-mulohazalar umumiy ovqatlanish korxonalarining obro'si va iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganadi. Tadqiqotda ishonchni mustahkamlash va mijozlarni jalb qilishning muhim elementlari sifatida sharhning haqiqiyligi, sharhlovchining ishonchliligi va platforma ishonchliligi muhimligi ta'kidlanadi. Ushbu omillarni tushunish umumiy ovqatlanish korxonalari egalari va xodimlariga onlayn muhitda mavjudlikni optimallashtirishga va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: internet marketing, brend imiji, umumiy ovqatlanish korxonalari, ijtimoiy tarmoqlar, iqtisodiy samaradorlik, ROI, iste'molchilar ishonchi, restoran marketingi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N07

Kirish

Internet-texnologiyalarning jadal rivojlanishi sanoatning turli tarmoqlariga, jumladan, umumiy ovqatlanish sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatayotganligini ko'rish mumkin. Internet umumiy ovqatlanish korxonalarini boshqarish usulini va iste'molchilarning onlayn platformalar va sharhlar orqali umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari bilan iste'molchilarning o'zaro munosabatini o'zgartirdi. Ushbu raqamli transformatsiya yirik korxonalar bilan cheklanib qolmaydi, balki umumiy ovqatlanish xizmatlari sanoatidagi kichik

va o’rta korxonalar uchun ham raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Internet marketing ko‘p sonli ishtirokchilar va Internet-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib borish darajasi yuqori bo‘lgan bozorlarda samarali ishlaydi. Yetakchi kompaniyalar Internetdan bloglar va o’zlarining onlayn hamjamiyatlari kabi raqamli vositalar orqali Internet marketingdan samarali foydalanmoqdalar. Umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasida raqamlashtirishning yuksalishi potensial iste’molchilar ko‘lamini oshiribgina qolmay, mahalliy gastronomik an’analar ham endi ijtimoiy media platformalari orqali butun dunyo bo’ylab namoyish etilmoqda.

Iste’molchi xatti-harakatlarining ma’lumot olish, buyurtma berish va o’zaro ta’sir qilish uchun onlayn platformalarga birinchi navbatda murojaat qilishi umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar uchun Internet marketing strategiyalarini har tomonlama tushunish va qo’llashni talab qiladi. Bu endi bugungi kunda shunchaki korxona tanlashi mumkin bo‘lgan yo‘l emas, balki bozorda omon qolish va o’sish uchun zaruratdir. Statistik ma’lumotlar buni tasdiqlaydi: bugungi kunda deyarli 90% odamlar umumiy ovqatlanish korxonasiga borishni qaror qilishdan oldin o’z mobil telefonlarida restoranni o’rganadilar [8]. Menyudagi ovqatlar tavsiyasi, onlayn bron qilish va yetkazib berish xizmatidan foydalanish uchun smartfonlar va raqamli qurilmalarga tobora ortib borayotgan ishonch umumiy ovqatlanish korxonalari uchun mijozlar bilan bog’lanish va onlayn platformalar orqali brend reputatsiyasini yaxshilash uchun imkoniyatlarni yaratadi. Taxminan 80% mijozlar ijtimoiy tarmoqlarda umumiy ovqatlanish korxonalari brendlarining mavjudligini va aktiv holatda bo‘lishini kutishadi [7]. Ushbu maqolaning maqsadi — umumiy ovqatlanish korxonalarida Internet-marketingdan foydalanishni chet ellik tadqiqotchi olimlari ilmiy ishlarini tahlil qilish orqali o’rganish hamda O‘zbekistonda, xususan, Samarqand viloyatida joylashgan umumiy ovqatlanish korxonalarida Internet marketing vositalaridan foydalanish va ularning natijadorligini baholash kriteriylari orqali tahlil qilishdir.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

So‘nggi yillarda internet-marketing umumiy ovqatlanish korxonalari uchun asosiy raqobat ustunligiga aylangan. Turli tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning natijadorligini turli rakurslardan tahlil qilgan. An’anaviy marketing vositalaridan farqli ravishda internet-marketing umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatida muhim strategik vositaga aylangan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning turli jihatlarini yoritib bermoqda. Masalan, Li (2024) o‘z tadqiqotida internet-platformalarning umumiy ovqatlanish sohasidagi xizmatlar sifati va mijozlar bilan aloqalarni yaxshilashdagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilgan. Tadqiqotda onlayn buyurtmalar, yetkazib berish xizmatlari va mijoz fikrlarini boshqarish kabi jarayonlar internet marketing samaradorligining asosiy omillari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [3]. Chen, Li va Liu (2023) tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda esa umumiy ovqatlanish korxonalari uchun raqamli marketing strategiyalarining turlari va ularning amaliy qo‘llanilish usullari o‘rganilgan. Tadqiqotchilar SEO, ijtimoiy tarmoqlar marketingi va kontent marketing kabi usullarni samarali qo‘llash zarurligini ta’kidlaydilar [4].

Rus olimlaridan Pyanikova va hammualliflar (2019) tadqiqotida raqamli texnologiyalarni joriy etishda mintaqaviy xususiyatlar, infratuzilma holati va korxonalarning texnologik tayyorgarligi kabi omillar tahlil qilingan. Ushbu ishda zamonaviy texnologiyalar orqali mijoz ehtiyojlarini qondirish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yoritib berilgan [5]. Shuningdek, Gusev, Polovova va Pinsky (2021) raqamli innovatsiyalarni umumiy

ovqatlanish korxonalarida qo‘llash zaruriyati va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilib, yangi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida xizmat sifati va mijoz qoniqishini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tganlar [6]. Sicheva va Cherevichko (2016) tomonidan internet-marketingning umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatidagi o‘rni, usullari va samaradorligini oshirish yo‘llari tizimli ravishda yoritib berilgan. Ushbu maqolada an’anaviy va zamonaviy marketing vositalari taqqoslab tahlil qilingan [11].

Internet-marketingning istiqbollari va raqamli kommunikatsiyalarni rivojlantirish masalalari Talukder, Kumar va Das (2024) tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular restoranlar uchun mijozlar bilan samarali aloqalarni o‘rnatish va ularni ushlab turish bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni taklif qilganlar [7]. Ramos (2025) o‘z asarida restoranlar uchun internet-marketingning amaliy jihatlarini, jumladan, mijozlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish bo‘yicha onlayn strategiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalarni bergan [8]. Bundan tashqari, Jawara (2024) integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalarining (IMC) umumiy ovqatlanish korxonalarining imijini yaxshilashdagi rolini o‘rganib, reklama va PR faoliyatining ahamiyatini tahlil qilgan [9]. Fadilah va hammualliflar (2024) esa ijtimoiy tarmoqlar asosidagi raqamli marketing strategiyalarining SWOT tahlili asosida umumiy ovqatlanish sohasidagi biznes uchun imkoniyat va xavflarini ko‘rsatib berishgan [10].

Yuqoridagi adabiyotlar asosida umumiy ovqatlanish korxonalarida internet-marketing strategiyalarini ishlab chiqish va baholash metodikasini yaratish zarurati yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Muhokamalar va natijalar

Tadqiqot natijalari umumiy ovqatlanish korxonalarida internet-marketing vositalarini qo‘llash hozirgi davrda mijozlarni jalb qilish, ularning sadoqatini oshirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda muhim omil ekanligi ta’kidlanganligini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatini ko‘rsatish sohasi hozirgi kunda asosiy normativ-huquqiy hujjat bo‘lgan Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori [1] bilan tartibga solinayotgan bo‘lib, bu qarorning 2-ilovasiga ko‘ra, umumiy ovqatlanish korxonalari mulkdor deb belgilanadigan quyidagi turlarga bo‘linadi: restoran, vagon-restoran, bar, kafe, mavsumiy kafe, kafeteriy, oshxona, choyxona, bufet va kichik oshxona. Iqtisodiy jihatdan samaradorlikka erishgan korxonalar soni, xizmat ko‘rsatish turi va internet marketing instrumentlari qo‘llanishi aktual masala hisoblangan korxonalarni olinadigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududida aynan restoran, bar, kafe, mavsumiy kafe va bufet kabi umumiy ovqatlanish korxonalarida internet marketing vositalari qolgan boshqa turdagi umumiy ovqatlanish korxonalariga qaraganda iqtisodiy samaradorligi yuqoriroq bo‘lganligi uchun, aynan shu turdagi umumiy ovqatlanish korxonalari maqolada tahlil qilib chiqildi. Chet el olimlari tomonidan umumiy ovqatlanish korxonalari tahlil qilingan ilmiy ishlarga qaraladigan bo‘lsa, quyidagi raqamlarni ko‘rish mumkin:

Li (2024) tadqiqotiga ko‘ra, internet-platformalarni joriy etgan restoranlarning 28% i o‘z daromadlarining o‘sishini qayd etgan va mijozlarning 67% i onlayn sharhlar asosida restoran tanlashlarini bildirgan [3]. Bu holat, ovqatlanish korxonalarining onlayn imij va reytinglar bilan faol ishlash zarurligini ko‘rsatadi.

Chen, Li va Liu (2023) izlanishlarida raqamli marketing strategiyalarining samaradorligi aniq ko‘rsatkichlar bilan isbotlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli marketing strategiyalarini faol qo‘llagan korxonalarning 80%i ijtimoiy tarmoqlar orqali

reklama olib borayotgani, 55%i esa SEO va kontekstli reklama vositalaridan foydalanayotgani ma’lum bo‘lgan. Bu esa mijozlar oqimini 20-25% ga oshirishga yordam bergan [4].

Pyanikova va hammualliflar (2019) mintaqaviy tadqiqotlarida internet-marketing joriy etilgan hududlarda restoranlar soni 35% ga ko‘paygani va mijozlarning xizmat sifatiga nisbatan qoniqish darajasi oshgani aniqlangan. Ayniqsa, mobil ilovalar va onlayn buyurtma tizimlari joriy etilishi mijozlar sonining 42% ga oshishiga sabab bo‘lgan [5].

Gusev, Polovova va Pinsky (2021) esa o‘z tadqiqotlarida raqamli innovatsiyalar joriy etilishi natijasida korxonalarning xizmat ko‘rsatish tezligi 30% ga oshgani va mijozlarning kutish vaqti 25% ga kamayganini aniqlaganlar. Shuningdek, chatbotlar va CRM tizimlaridan foydalanish natijasida mijozlarning takroriy xaridlari soni 18% ga oshgan [6].

Talukder, Kumar va Das (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar restoranlarda digital marketing kampaniyalarining rentabelligini tahlil qilgan. Ularning ma’lumotlariga ko‘ra, an’anaviy marketing bilan solishtirganda, raqamli reklama orqali mijoz jalb qilish xarajatlari 40% ga arzon bo‘lgan. Email-marketing kampaniyalarida esa ochilish darajasi 35% va konversiya darajasi 12% ni tashkil qilgan [7].

Ramos (2025) esa o‘z tadqiqotida restoranlar uchun onlayn reklama va ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlarni ushlab qolish strategiyalarini tahlil qilgan. Mijozlarning 62% i muntazam ravishda restoranlarning onlayn yangiliklarini kuzatib borishi, 45% i esa aynan internet-marketing aksiyalari natijasida takroriy buyurtmalar bergani qayd etilgan [8].

Jawara (2024) tomonidan o‘rganilgan IMC modeli asosida Oemah Anglo nomli umumiy ovqatlanish korxonasida brend imiji 6 oy ichida 30% ga yaxshilangan. Bundan tashqari, mijozlarning umumiy qoniqish darajasi 25% ga oshgani aniqlangan [9].

Fadilah va hammualliflar (2024) SWOT tahlil asosida ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilgan reklama kampaniyalari natijasida Racsha catering kompaniyasida yangi mijozlar soni 21% ga oshgani va reklama xarajatlari 17%ga kamaygani aniqlangan [10].

Sicheva va Cherevichko (2016) tomonidan internet-marketing va an’anaviy marketing usullarining samaradorligi solishtirilib, internet vositalaridan foydalangan korxonalarda mijozlar sonining 50% ga oshgani va reklama samaradorligining 2 baravar ko‘paygani qayd etilgan [11].

1-jadval. Umumiy ovqatlanish korxonalarida internet marketingni qo‘llanilishi va erishilgan natijadorliklar yoritilgan ilmiy ishlarning mazmunan tahlili.[1]

№	Mualliflar (yil)	Tadqiqot obyekti	Asosiy natijalar	Raqamli ko‘rsatkichlar
1	Li (2024) [3]	Internet-platformalar ta’siri	Mijozlar qarorlari va daromad o‘sishi	28% daromad o‘sishi, 67% mijozlar onlayn sharhlarga asoslanadi
2	Chen, Li & Liu (2023) [4]	Digital marketing strategiyalari	SEO, ijtimoiy tarmoqlar va reklama ta’siri	80% korxonalar ijtimoiy tarmoqlarda faol, 55% SEO qo‘llaydi, mijoz oqimi 20-25% ga oshgan
3	Pyanikova va boshqalar (2019) [5]	Raqamli texnologiyalarni mintaqaviy qo‘llash	Mobil ilovalar va onlayn buyurtma tizimlari	42% korxonalar mijozlar bilan onlayn aloqa o‘rnatgan, 35% mobil ilovalar joriy etgan
4	Gusev, Polovova & Pinsky (2021) [6]	Raqamli innovatsiyalar	Xizmat sifati va mijozlar soni	Xizmat tezligi 30% ga oshgan, kutish vaqti 25% ga qisqargan, takroriy xaridlar 18% ga oshgan
5	Talukder, Kumar & Das (2024) [7]	Digital marketing rentabelligi	Reklama xarajatlarining kamayishi va mijoz sadoqati	Mijoz jalb qilish xarajati 40% ga arzon, email ochilish 35%, konversiya 12%
6	Ramos (2025) [8]	Onlayn mijozlarni ushlab qolish	Takroriy buyurtmalar va mijoz sadoqati	62% mijozlar ijtimoiy tarmoqlarni kuzatadi, 45% takroriy xaridor
7	Jawara (2024) [9]	IMC modeli	Brend imidji va mijoz qoniqishi	Imidj 30% ga yaxshilangan, qoniqish 25% ga oshgan
8	Fadilah va boshqalar (2024) [10]	SWOT asosida marketing	Mijoz soni va reklama xarajatlari	Mijozlar soni 21% ga oshgan, xarajatlar 17% ga kamaygan
9	Sicheva & Cherevichko (2016) [11]	An’anaviy va internet-marketing taqqoslash	Mijoz soni va reklama samaradorligi	Mijoz soni 50% ga oshgan, reklama samaradorligi 2 baravar ko‘paygan

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan umumiy ovqatlanish korxonalariga oid ma’lumotlar tahlil qilinsa, quyidagi ma’lumotlarni ko‘rish mumkin:

Hududlar bo‘yicha ajratilgan eng aniq rasmiy jadval taqdim etilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmiga tegishli. Bundan umumiy ovqatlanish xizmatlari ulushini ajratib ko’rsatish mumkin. Quyidagi jadvalda 2023-yil uchun umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi bo‘yicha hududlar bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar keltirilgan.

[1] Muallif ishlanmasi

2-jadval. Umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi bo‘yicha hududlar kesimida yoritilgan ma’lumot.[1]

Hudud	Xizmatlar hajmi (mlrd. so‘mda)	Umumiy hajmdagi foizi
O‘zbekiston Respublikasi	14 840,4	100%
Toshkent shahri	4 823,8	32,5%
Samarqand viloyati	1 547,4	10,4%
Toshkent viloyati	1 319,2	8,9%
Farg‘ona viloyati	1 031,3	6,9%
Buxoro viloyati	903,3	6,1%
Qashqadaryo viloyati	884,5	6%
Andijon viloyati	851,7	5,7%
Namangan viloyati	722,8	4,9%
Surxondaryo viloyati	617,1	4,2%
Xorazm viloyati	545,5	3,7%
Navoiy viloyati	496,2	3,3%
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	453,7	3,1%
Jizzax viloyati	374	2,5%
Sirdaryo viloyati	269,9	1,8%

2-jadvalning manbasi sifatida Statistika agentligining “O’zbekiston Respublikasining 2023-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli” byulleteni O’zbekiston hududlari bo’yicha umumiy ovqatlanish aylanmasi (2023 yil) kesimidagi ma’lumotlari asosidagi hisob-kitoblar olingan [2].

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, Toshkent shahri mamlakatimizda umumiy ovqatlanish umumiy aylanmasining deyarli uchdan bir qismini tashkil qiladi. Samarqand va Toshkent viloyatlari ham yirik bozor hisoblanadi. Bu uch hudud birgalikda O’zbekistondagi umumiy ovqatlanish bozorining 50 foizdan ortig’ini tashkil qiladi.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, O’zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xorijiy va mahalliy kompaniyalar (umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan) da iqtisodiy natijadorlikka erishishning muhim omillaridan biri, albatta, internet – marketing vositalarini qo’llagan holda yangi sotuv kanallari yaratish, mijozlarning korxonaga nisbatan bo’lgan ijobiy imij yaratish, xizmat ko’rsatish va mijozlar bilan ishlash jarayonini raqamlashtirishdir. Shu asosda maqolada quyidagi umumiy ovqatlanish korxonalarida internet marketing vositalarini qo‘llanganda ROI (return on investment) hisoblandi va tahlil qilindi:

[1] Statistika agentligining “O’zbekiston Respublikasining 2023-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli” byulleteni.

So‘rovnoma tuzilib, Samarqand viloyatida joylashgan umumiy hisobda 24 ta umumiy ovqatlanish korxonasi (11 ta restoran, 6 ta kafe, 2 ta bar va 5 ta bufet (bistro yoki fast-food formatida)) rahbarlari orasida so‘rovnoma natijalari tahlil qilinganda, quyidagi natijalar olindi:

3-jadval. Anketa so‘rovnomalari natijasi.[1]

T/r	Ko‘rsatkich	Natijalar (foiz ko‘rinishida)
1	Instagram platformasidan foydalaniladi	88%
2	Telegram messenjeridan foydalaniladi	62%
3	TikTok platformasidan foydalaniladi	40%
4	O‘z internet saytiga ega	24%
5	Yetkazib beruvchi agregatorlar bilan ishlashadi	76%
6	Pulli internet reklamadan foydalaniladi	58%
7	Instagram eng samarador platforma deya ta’kidlandi	54%
8	Internet-marketing yordamida mijozlar soni ko‘paydi	10-20% ga (44% repondentlarda)
9	Asosiy maqsad — sotuvlar hajmining o’sishi	66%
10	Asosiy muammo — marketing byudjeti yo‘qligi	52%
11	Marketing faoliyati autsors kompaniyaga topshirilgan	38%
12	Online marketingga sarmoya ko’paytirilishi rejalashtirilmoqda	72%

Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish korxonalarida o’tkazilgan so’rov natijalari asosida tayyorlangan jadvalda internet-marketingga investitsiya kiritish rejalariga oid ma’lumotlar aks ettirilgan. Respondentlarning 72 foizi yaqin kelajakda internet-marketing vositalariga ajratilayotgan mablag‘larni oshirishni rejalashtirayotganini bildirgan. Bu natija restoran, kafe va boshqa ovqatlanish korxonalarining raqamli platformalar orqali mijozlarni jalb qilish va savdoni oshirish imkoniyatlariga ijobiy qarayotganini ko‘rsatadi.

Ayni paytda 28 foiz tadbirkorlar investitsiya hajmini oshirishni rejalashtirmayotganini bildirgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, bu korxonalar ko‘pincha marketing uchun zarur byudjet yoki malakali mutaxassislar yetishmasligi, internet-reklamaning natijasini baholashdagi qiyinchiliklar yoki umuman raqamli reklama samaradorligiga bo‘lgan ishonchsizlik sababli internet-marketingga sarmoya kiritishdan tiyilayotgan bo‘lishi mumkin. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Samarqanddagi umumiy ovqatlanish sohasidagi korxonalarning aksariyati (deyarli 3 ta korxonadan 2 tasi) internet-marketingni rivojlantirishga tayyor va bunga ijobiy yondashayotganini ko‘rish mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga asoslanib, shuni ta’kidlash mumkinki, internet-marketingning umumiy ovqatlanish korxonalarida qo’llanilishi natijasida mijozlar soni, ularning sadoqati va korxona daromadlari o’sib bormoqda. Shuningdek, yangi marketing vositalarini joriy etish va ularning samaradorligini baholash uchun zamonaviy, tizimli yondashuv va aniq indikatorlar asosidagi metodikani ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu esa ushbu yo’nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni davom ettirishni taqozo etadi. Chet el olimlari ilmiy tadqiqotlari natijalari asosidagi ilmiy ishlarni o‘rgangan holda, O‘zbekiston Respublikasi hozirgi iqtisodiyoti sharoitida umumiy ovqatlanish korxonalari uchun internet marketingning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganib borish va ularni amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

[1] Muallif ishlanmasi

Faqatgina an’anaviy marketing tadqiqotlari va marketing vositalarini qo‘llagan holda bugungi kunda bozorning to‘liq potensialini korxonalar egallab ola olmaslik ehtimoli yuqori, iste’molchilar raqamli muhitni tobora o‘rganib, ko‘nikib borayotgan bir paytda nafaqat marketing vositalari va tadqiqotlar o‘tkazishni, balki to‘liq marketing kompleksini raqamli muhitga o‘tkazish, shu jumladan, Internet marketing vositalarini korxonaga iloji boricha ko‘proq tatbiq qilinsa, korxona nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki, brend reputatsiyasi, brend imijining pozitiv imiji shakllanishiga hamda iste’molchilar ongida uzoq muddatli hamkor sifatida ham eslab qolinishiga erishishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qaroriga “O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalari” nomli 2-ilova.
2. Statistika agentligi. (2024). O‘zbekiston Respublikasining 2023-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli: Byulleten. Toshkent: Statistika agentligi.
3. Li, B. (2024). *The Impact of Internet Platforms on the Catering Industry*. *Transactions on Economics, Business and Management Research, 13*, 233–237. https://doi.org/10.62051/g63s8h35
4. Chen, J., Li, Y., & Liu, Y. (2023). *Exploring digital marketing strategies in catering industry*. *BCP Business & Management EMFRM*, *38*, 629–631. https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/
5. Pyanikova, E. A., Kovaleva, A. E., & Bykovskaya, E. I. (2019, May). *Digital technologies in public catering industry (regional aspect)*. Proceedings of the 1st International Scientific Conference "Modern Management Trends and the Digital Economy: from Regional Development to Global Economic Growth" (MTDE 2019) (p. 481–487). Atlantis Press. https://doi.org/10.2991/mtde-19.2019.96
6. Gusev, Y., Polovova, T., & Pinsky, A. (2021). *Digital innovations of public catering enterprises: The need and opportunities* [Conference paper]. *Proceedings of the 3rd International Scientific Conference on Innovations in Digital Economy* (p. 356–362). Peter the Great St. Petersburg Polytechnic University. https://doi.org/10.1145/3527049.3527087
7. Talukder, M. B., Kumar, S., & Das, I. R. (2024). *Perspectives of digital marketing for the restaurant industry*. In *Advancements in Socialized and Digital Media Communications* (гл. 18, стр. 340–358). IGI Global. https://doi.org/10.4018/979-8-3693-0855-4.ch009
8. Ramos, D. F. (2025). *Digital marketing for restaurants: How to attract and retain customers online*. *Revista Sistemática, 14*(1). https://doi.org/10.56238/rcsv14n1-001
9. Jawara, G. P. H. S. (2024, May). *Integrated marketing communication (IMC) catering Oemah Anglo in improving the image in the eyes of customers*. *Journal of Language, Technology & Lifelong Learning, 2*(1), 11–22. Melekliterasi Press. https://ejournal.melekliterasi.com/index.php/JLTLL/article/download/35/30/193
10. Fadilah, R. N., Widyawati, D. N., Nurhasanah, A., Andita, S. A., & Prastyo, Y. (2024, August 14). *Social media-based digital marketing strategy in Racsha catering business: SWOT analysis*. *International Journal of Research and Innovation in Social Science, 8*(7), 2087–2091. https://doi.org/10.47772/IJRISS.2024.807165
11. Сычева Виктория Олеговна, & Черевичко Татьяна Викторовна (2016). Интернет-маркетинг в деятельности предприятий общественного питания. Концепт, (12), 1-14.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE

Ochilov Mels
Chief Specialist, Ministry of Investments, Industry and Trade

Sayfiyeva Parizoda Otabek qizi
Master's student, Tashkent State University of Economics

Abstract. The article examines the impact of industrial policy on the investment climate based on the analysis of experiences from OECD countries, the European Union, and emerging economies. Drawing on key works by Rodrik and Aiginger as well as materials from the WTO, OECD, and IDOS, the study highlights how modern industrial policy influences a country's investment climate. Particular attention is paid to the challenges of aligning industrial policy with WTO norms, and approaches to their harmonization are proposed. The analysis is based on a literature review, comparative evaluation of industrial policies, and insights from leading economists.

Keywords: Industrial policy, investment climate, innovation, R&D, public-private partnership, OECD, EU, strategic autonomy, foreign direct investment.

SANOAT SIYOSATINING INVESTITSIYA MUHITIGA TA'SIRI: XALQARO TAJRIBA

Ochilov Mels Tursunboy o'g'li
Bosh mutaxassis, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
E-mail: mels.ochilov@gmail.com

Sayfiyeva Parizoda Otabek qizi
Magistrant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: sayfiyevaparizoda@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat siyosatining investitsiya muhitiga ta'siri o'rganilib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo mamlakatlar, Yevropa Ittifoqi hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar tajribasi tahlil qilindi. Rodrik va Ayginger kabi yetakchi iqtisodchilar hamda JST, OECD va IDOS kabi xalqaro tashkilotlarning ishlanmalariga tayangan holda, tadqiqot zamonaviy sanoat siyosatining mamlakat investitsiya muhitiga ta'sirini ochib beradi. Maqolada, shuningdek, sanoat siyosatini Jahon savdo tashkiloti (JST) me'yorlari bilan muvofiqlashtirishdagi muammolari va ularni hal qilishga doir takliflar ko'rib chiqiladi. Tahlil adabiyotlar sharhi, sanoat siyosatlarning taqqoslamali bahosi hamda yetakchi iqtisodchilarning fikrlari asosida olib borilgan.

Kalit so'zlar: sanoat siyosati, investitsiya muhiti, innovatsiya, R&D, davlat-xususiy sheriklik, OECD, YeI, strategik mustaqillik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N08

Introduction

The past decade has seen a revival of interest in policy at the industrial level as it has now become part of the core elements of a nation's economy. According to Rodrik and Aiginger (2020), smart industrial policies are critical for successful structural transformation and

sustainable growth [1, p. 201]. In the wake of heightened geopolitical tensions, technological competition, and vulnerabilities in global supply chains, industrial policy is now a focus for many regions as it aims to provide economic resilience, global competitiveness, and a better investment climate.

This article looks at the impact of modern industrial policies on a country's investment climate. Using the OECD and EU approaches, emerging country policies, and their compatibility with WTO, the article conducts a comparative analysis to show how industrial policies states require to strategically achieve investment climate goals.

Literature Review and Theoretical Framework

As emphasized by Rodrik (2004), industrial policy should be mainly concerned with the enabling of investing in new areas and to build up industrial clusters, not the selection of winners [2, p. 15, 36]. Aiginger and Rodrik (2020) proposed the need for adaptive and inclusive policies focusing on technological change for the use of the green technologies [1, p. 193]. Warwick (2013) states that while ordinary industrial policy focuses on boosting productivity, jobs, and growth, efforts in areas like regional development, climate action, health, and security also end up functioning like industrial policy [3, p. 16].

Discussion

In the EU context, H Lee-Makiyama (2021) show that EU strategic autonomy initiative boosts investments to transform businesses models for a carbon-neutral society [6, p. 7].This remains within the scope of internationally accepted coherence, neutrality and comprehensive governance in assessing the consequences of distinct industrial policy frameworks on the investment climate.

As countries begin to subsidize certain emerging industries like the semiconductor industry, renewables, and the digital sector, there will be concerns of WTO compliance. In Bown's (2023) view, many of these 'new generation' subsidies that pose threats to WTO compliance are cleverly justified under climate concerns and national security [7, p. 251-263].

Amidst these newly developed economies pursuing the so-called 'greener' and 'digitally advanced' industrial new norms, there are many developing countries that remain focused on building the core foundational infrastructure and shifting exports. Still, both the developing nations and advanced economies tend to share one streamlined goal of enhancing the investment climate to massively boost the national economy. The OECD and the EU in particular boost investor confidence by underlining the need for guaranteed compliance and structured, predictable frameworks.

Warwick (2013) describes the policy framework as one which overtly seeks to support knowledge-based assets like R&D and skilled human capital while ensuring competitive neutrality [3, p. 42-43].

H Lee-Makiyama (2021) describes the European Green Deal as a flagship EU initiative which seeks to lower greenhouse gas emissions by at least 55% by 2030, compared to 1990 levels, and become carbon neutral by 2050 [6, p. 2-3]. The initiative raises considerable industrial and economic concerns. The initiative's success hinges on rapid investment deployment, equitable transition cost burdens, and Europe's industrial change and competitive landscape balancing.

The German Development Institute (IDOS, 2023) analysis of industrial strategies in developing countries shows different approaches to industrial policy implementation in developing countries and their commitment to foster a favorable investment climate [4, 33-77].

By contrast, policy fragmentation – as seen in some recent national programs – risk deterring foreign direct investment. Institutional capacity building, international benchmarking, and coherence of different state policies are crucial to balancing national development goals, in particular industrial policy results with global investor expectations and improvement of investment climate.

Results

This section presents key conclusions from international experiences in pursuing industrial policy, distilling their effect on the investment environment,

The OECD approach is built on a horizontal, innovation-oriented industrial policy and avoids sectoral bias.

Following the COVID-19 pandemic, the OECD has also been promoting the reshoring of strategic supply chains—without protectionist autarky, but through international redundancy and resilience building. All these policies help in constructing investor confidence by promoting long-term stability and openness.

European Union's new industrial strategy revolves around three pillars: strategic autonomy, green transition, and digital leadership that will lead to an improved investment climate by stemming fragmentation in the single market.

The German Development Institute discusses industrial policy in the emerging economies of China, Brazil, and India. From the analysis, good industrial policy in these economies depends on institutions, export discipline, infrastructure investment, and public-private partnership. Policy tools typically consist of selective protectionism, whose effectiveness depends on temporal limitations, transparency, and outcome-based evaluation. Such aspects are important in sustaining investor confidence in case of institutional vulnerability.

Standard tools are special economic zones, infant industry time-limited protection, and targeted investment in infrastructure. Regardless of governance and technology capacity limitations, countries that have utilized transparent performance-based policies cite enhanced investor interest and lower perceived risk.

Conclusion

The re-emergence of industrial policy in diverse economies reflects a consensus on its essential role in promoting innovation, economic resilience, and strategic competitiveness. As evidenced in this study, when designed transparently and implemented effectively, industrial policy can significantly enhance the investment climate by boosting investor confidence, facilitating long-term capital inflows, and supporting sustainable development goals.

The OECD's emphasis on horizontal policy tools—especially R&D incentives and supply chain resilience—offers a blueprint founded on innovation and neutrality. The EU's ecosystem model illustrates how sectoral assistance and regulatory harmonization coordination can be transformed into strategic autonomy and market integration.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Aiginger, Karl, and Dani Rodrik. “Rebirth of Industrial Policy and an Agenda for the Twenty-First Century.” *Journal of Industry, Competition and Trade* 20 (2020): 189–207.
2. Rodrik, Dani. “Industrial Policy for the Twenty-First Century.” Working Paper, Harvard Kennedy School, 2004.
3. Warwick, Ken. *Beyond Industrial Policy: Emerging Issues and New Trends*. OECD Science, Technology and Industry Policy Papers No. 2. Paris: OECD Publishing, 2013.
4. German Institute of Development and Sustainability (IDOS). *Industrial Policy in Developing Countries: Overview and Lessons from Seven Country Cases*. Bonn: IDOS, 2023.
5. OECD. *Industrial Policy for the 21st Century*. Paris: OECD Publishing, 2021. https://www.oecd.org/en/topics/policy-issues/industrial-policy.html
6. H Lee-Makiyama. “The EU Green Deal and Its Industrial Implications.” *ECIPE policy brief, 2021*.
7. Chad P. Bown. *Modern Industrial Policy and the WTO*. Working Paper 23-3. Washington, DC: Peterson Institute for International Economics, 2023.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

DIRECTIONS FOR DIGITALIZATION OF THE MEAT PRODUCTION SYSTEM AND EFFECTIVE USE OF THE OPPORTUNITIES OF "SMART AGRICULTURE"

Otabekov Javdod Nurulla oglu
Independent researcher at Gulistan State University

Abstract. This article analyzes the prospects for digitalization of the meat production system based on modern information and communication technologies and the introduction of the concept of "smart agriculture". The possibilities of increasing productivity in livestock farming, efficient use of resources, prevention of diseases and production in accordance with market requirements through digital monitoring, artificial intelligence, IoT (Internet of Things) technologies are highlighted. Also, existing problems in the implementation of these technologies in the conditions of Uzbekistan and recommendations for their elimination are given.

Keywords: meat production, digitalization, smart agriculture, artificial intelligence, IoT, livestock farming, productivity, technological innovations.

GO‘SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGI” IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Otabekov Javdod Nurulla o‘g‘li
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: otabekovjavdod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada go‘sht yetishtirish tizimini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida raqamlashtirish va “aqlli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyasini joriy etishning istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli monitoring, sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things) texnologiyalari orqali chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish, kasalliklarning oldini olish va bozor talablariga mos ishlab chiqarish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida bu texnologiyalarni joriy etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: go‘sht yetishtirish, raqamlashtirish, aqlli qishloq xo‘jaligi, sun’iy intellekt, IoT, chorvachilik, mahsuldorlik, texnologik innovatsiyalar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N09

Kirish. So’nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, aholining go’sht mahsulotlariga bo’lgan talabini qondirish va chorvachilik sohasining raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Jahon tajribasida bu borada raqamli texnologiyalar va “aqlli qishloq xo‘jaligi” yechimlaridan keng foydalanilayotgani kuzatilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt, dronlar, sensorlar, IoT (Internet of Things) kabi vositalar chorvachilik jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida nazorat qilish va boshqarish imkonini bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda bu sohadagi qaror va farmonlari, ayniqsa, “raqamli qishloq xo‘jaligi”ga o‘tish bo‘yicha boshlangan islohotlar go‘sht yetishtirish tizimini ham zamonaviylashtirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada go‘sht ishlab chiqarish tizimini raqamlashtirish yo‘llari, mavjud imkoniyatlar, “aqlli

qishloq xo‘jaligi” konsepsiyasini joriy etish istiqbollari va bu yo‘nalishda duch kelinayotgan muammolar tahlil qilinadi

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda go‘sht yetishtirish tizimini raqamlashtirish va “aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kompleks tahlil qilindi. Maqola yozishda sifatli (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) tahlil usullari qo‘llanildi. Dastlab, dunyo va O‘zbekiston tajribasiga oid ochiq manbalar, ilmiy maqolalar, hukumat qarorlari va statistika ma’lumotlari o‘rganildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning chorvachilik sohasidagi qo‘llanilishi, samaradorlik ko‘rsatkichlari va texnik-iqtisodiy asoslari kontent-tahlil orqali baholandi.

Bundan tashqari, ayrim ilg‘or fermer xo‘jaliklari va texnologik startaplar faoliyati holat o‘rganish (case study) usuli asosida tahlil qilindi. Analitik yondashuv asosida O‘zbekistonda mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari aniqlanib, maqola yakunida takliflar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar sharhi. So‘nggi yillarda xorijiy olimlar tomonidan chorvachilikni raqamlashtirish, xususan go‘sht yetishtirish tizimida sun’iy intellekt (AI), IoT va “raqamli egizak” texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. X. Han va Z. Lin tomonidan ishlab chiqilgan raqamli egizak modeli chorva sog‘lig‘i holatini IoT sensorlar yordamida real vaqt rejimida monitoring qilish va fiziologik o‘zgarishlarni bashorat qilish imkonini beradi [1]. Araújo va uning hamkasblari AI asosida chorva hayvonlarini murakkab fermalardagi sharoitda aniqlashda 95,2% aniqlikka erishgan holda chorvachilikda monitoring tizimlarini mukammallashtirish yo‘nalishini ko‘rsatadi [2]. IoT texnologiyalari yordamida chorva holatini kuzatish va raqamli egizaklar bilan integratsiya qilish orqali salomatlik, harakat faolligi va oziqlanish kabi parametrlar 92–94% aniqlikda baholanishi mumkin [3]. Hasan va boshqalar AI, IoT va robototexnika integratsiyasi orqali qishloq xo‘jaligida, jumladan chorvachilikda resurslardan samarali foydalanish, mehnat tejamkorligi va xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlarini ochib bergan [4]. Shuningdek, bioxavfsizlikni ta’minlashda IoT sensorlari va sun’iy intellekt tizimlari orqali kasalliklarni oldindan aniqlash amaliyotlari samarali deb topilgan [5]. Avstraliyadagi SwagBot roboti esa AI yordamida chorvalarni boshqarish, yaylov sifatini aniqlash va tuproq degradatsiyasini kamaytirishga qaratilgan innovatsion yechimlardan biridir [6]. Qolaversa, Queensland shtatida AI asosida ishlab chiqilgan kameralar chorva sog‘lig‘i va reproduktiv parametrlarni aniqlashda tahliliy samaradorlikni oshirgan [7].

Mahalliy olimlar ham bu yo‘nalishda muhim ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan, N. Xojanazarov O‘zbekistonda AI texnologiyalari orqali go‘sht va sut mahsulotlariga bo‘lgan talabning 2030-yilgacha keskin ortishini ilmiy asosda tahlil qilib, avtomatlashtirilgan robotlardan foydalanish samaradorligini ko‘rsatib bergan [8]. B. Karimov esa qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida raqamli texnologiyalar, robototexnika va blokcheyn asosidagi yechimlarning joriy etilishi bo‘yicha umumiy tahlil berib, O‘zbekistonda ushbu sohalarga 1,9 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyalar yo‘naltirilganini qayd etadi [9]. Chorvachilik sohasini modernizatsiya qilishda ilmiy institutlarning laboratoriya va texnik infratuzilmasi asosida yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ishlari ham izchil amalga oshirilmoqda [10]. A. Toshqulov esa Surxondaryo viloyatidagi chorvachilik xo‘jaliklarini tahlil qilib, ularni raqamli monitoringga o‘tkazish va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan [11].

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda global oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini samarali boshqarish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa go‘sht yetishtirish sohasida resurslardan oqilona foydalanish, kasalliklarni oldini olish, mahsuldorlikni oshirish va bozor talablariga tez moslashish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirish va “aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalari chorvachilik jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish va strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu esa samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi. Shu sababli, go‘sht yetishtirish tizimini raqamlashtirish va yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda mamlakatimiz uchun ham ayniqsa muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Quyida “Go‘sht yetishtirish tizimini raqamlashtirish va ‘aqlli qishloq xo‘jaligi’ imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari” mavzusi bo‘yicha statistik ma’lumotlarga asoslangan ma’lumotlar bazasi jadval ko‘rinishida taqdim etilgan bo‘lib, jadvalda O‘zbekiston Respublikasining go‘sht ishlab chiqarish hajmi, chorva soni va raqamli qishloq xo‘jaligi sohasidagi yutuqlar keltirilgan.

1-jadval

Mamlakatda go‘sht ishlab chiqarish va raqamli qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari

	Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	Izoh
1	Go‘sht ishlab chiqarish hajmi (jonli vazn, ming tonna)	2,833.3	2,900	2023-yilda 2,833.3 ming tonna go‘sht ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu 2022-yilga nisbatan 3.9% o‘sishni ko‘rsatadi. 2024-yilda esa ishlab chiqarish hajmi 2,900 ming tonnaga yetgan.
2	Chorva soni (mamlakat bo‘yicha, ming bosh)	13,851.2	-	2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, mamlakat bo‘yicha jami 13,851.2 ming bosh chorva mavjud bo‘lgan.
3	Dehqon xo‘jaliklarining chorva ulushi (%)	93%	-	Dehqon xo‘jaliklari mamlakatdagi barcha chorvalarning 93% ini tashkil etadi.
4	Raqamli qishloq xo‘jaligi tizimlari (GIS)	-	-	Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan GIS tizimi orqali 3,2 million gektar sug‘oriladigan yerlar, 700 mingdan ortiq yer foydalanuvchilari, 1 million kontur va 10 dan ortiq qishloq xo‘jaligi

				madaniyatlari va tuproq xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi sohasida, xususan go‘sht yetishtirish tizimida so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish va modernizatsiya kuzatilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatda go‘sht ishlab chiqarish hajmi 2,833.3 ming tonnani tashkil qilib, bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 3,9 foizga o‘sish bo‘lgan. Bu tendensiya 2024-yilda ham davom etib, go‘sht ishlab chiqarish hajmi taxminan 2,900 ming tonnaga yetgani qayd etildi [12]. Ushbu o‘sish chorvachilik sohasidagi texnologik yangilanishlar, shuningdek, resurslardan samarali foydalanishning natijasi sifatida ko‘riladi.

Shu bilan birga, mamlakat bo‘yicha jami chorva soni 13,851.2 ming boshga yetib, bu aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim zamin yaratmoqda [13]. E’tiborli jihati, chorvaning katta qismi – 93 foizi dehqon xo‘jaliklarida parvarish qilinmoqda, bu esa kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarining mamlakatdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatadi [14]. Bu ma’lumotlar go‘sht yetishtirish tizimining ko‘p sonli kichik fermerlardan tashkil topganligini, shuningdek, texnologik yangilanishlarning aynan bu segmentga yo‘naltirilishi zarurligini anglatadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va “aqlli qishloq xo‘jaligi” tamoyillarining joriy etilishi ham ijobiy natijalar keltirmoqda. Masalan, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan GIS (Geografik axborot tizimlari) yordamida 3,2 million gektar sug‘oriladigan yerlar, 700 mingdan ortiq yer foydalanuvchilari va 1 milliondan ko‘p tuproq konturlari haqidagi aniq ma’lumotlar to‘plangan [15]. Bu kabi tizimlar go‘sht yetishtirish uchun zarur bo‘lgan yer resurslarini yanada samarali boshqarish va monitoring qilish imkonini beradi. GIS ma’lumotlari yordamida chorvachilikni joylashuvi, yaylov va oziqlantirish uchun eng qulay hududlarni aniqlash mumkin bo‘lib, bu o‘z navbatida mahsuldorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqoridagi statistik ko‘rsatkichlar va raqamli tizimlarning birgalikda ishlashi go‘sht yetishtirish tizimining samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Chorva sonining ko‘pligi va ularning ko‘pchiligining kichik xo‘jaliklarda saqlanishi an’anaviy boshqaruv usullaridan zamonaviy raqamli monitoring va avtomatlashtirishga o‘tishni talab qiladi. Shu bois, aqlli qishloq xo‘jaligi vositalari, jumladan AI, IoT va robototexnika orqali ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va boshqaruvni avtomatlashtirish imkoniyatlari mamlakat go‘sht yetishtirish tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Natijada, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida, xususan go‘sht yetishtirishda raqamlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etish orqali nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli tizimlar kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarini ham ilg‘or boshqaruv vositalari bilan ta’minlab, ularning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi dolzarb vazifa hisoblanadi.



1-rasm. SWOT tahlil: Aqlli qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan keng foydalanish

Aqlli qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan keng foydalanish yuzasidan tavsiyalar va strategiyalar:

1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish va kengaytirish:

- Qishloq hududlarida yuqori tezlikdagi internet tarmog‘ini kengaytirish, shuningdek mobil aloqa qamrovini yaxshilash bo‘yicha investitsiyalarni ko‘paytirish.
- Bulutli hisoblash va ma’lumotlarni saqlash infratuzilmasini joriy etish orqali qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini samarali boshqarish imkonini yaratish.

2. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini kuchaytirish:

- Raqamli texnologiyalarni boshqarish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash uchun oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.
- Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari, seminar va treninglar tashkil qilish orqali fermer va qishloq xo‘jaligi xodimlarini texnologiyalar bilan tanishtirish.

3. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish:

- Raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun kichik va o‘rta fermerlarga subsidiya, grant va imtiyozli kreditlar ajratish tizimini ishlab chiqish.
- Xususiy sektor va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirib, innovatsion loyiha va startaplarni moliyalashtirish.

4. Texnologik xavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish:

- Qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarining kiberxavfsizligini ta’minlash uchun zamonaviy himoya tizimlarini joriy etish.
- Texnologik xakerlik va ma’lumotlar buzilishining oldini olish uchun doimiy monitoring va audit mexanizmlarini tashkil qilish.

5. Ijtimoiy qarshiliklarni kamaytirish va madaniy yangilanishni rag‘batlantirish:

- Qishloq aholisini yangi texnologiyalar foydasi haqida muntazam axborot berish va ularni raqamli texnologiyalarni qo‘llashga jalb qilish.
- Mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda amaliy seminarlar, tajriba almashish sessiyalarini o‘tkazish orqali an’anaviy yondashuvlarni modernizatsiya qilish.

6. Barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishlariga moslashuv:

- Aqlli qishloq xo‘jaligi vositalarini iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va resurslarni tejashga yo‘naltirilgan yechimlar bilan integratsiyalash.
- Yer, suv va energiya resurslarining samarali boshqaruvi uchun innovatsion monitoring tizimlarini keng joriy etish.

Takliflar. Aqlli qishloq xo‘jaligi — bu raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni qishloq xo‘jaligida qo‘llash orqali resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashdir. Bugungi kunda texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgani bois, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirish juda muhim.

Samarali foydalanish uchun birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi sohasidagi barcha ishtirokchilar — fermerlar, mutaxassislar, tadbirkorlar va davlat organlari texnologiyalarning afzalliklari haqida chuqur xabardor bo‘lishlari lozim. Buning uchun keng qamrovli ma’lumot tarqatish, ta’lim va treninglar tashkil etilishi zarur.

Shuningdek, texnologiyalarni ommalashtirish jarayonida kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklariga yo‘naltirilgan maxsus qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari — moliyaviy yordam, maslahat berish va texnik xizmat ko‘rsatish tizimlari samarali bo‘ladi. Bu esa yangi texnologiyalarni qishloq bozorining barcha qatlamlariga tez va keng joriy etilishiga xizmat qiladi.

Qishloq joylarida internet infratuzilmasini rivojlantirish, texnologik yechimlarni oddiy va tushunarli qilish hamda madaniy qarshiliklarni kamaytirish uchun mahalliy jamoalar bilan yaqindan ishlash zarur. Umuman olganda, aqlli qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan keng foydalanish — bu samarali boshqaruv, yuqori mahsuldorlik va barqaror iqtisodiyot qurishda muhim omil hisoblanadi.

2-jadval

“Aqlli qishloq xo‘jaligi” imkoniyatlaridan foydalanish yo‘nalishlari yuzasidan takliflar

Yo‘nalish	Takliflar	Kutilayotgan natija
Ma’lumot tarqatish va ta’lim	- Raqamli texnologiyalar bo‘yicha keng qamrovli treninglar, seminarlar tashkil etish.	Fermerlar va mutaxassislarning texnologiya savodxonligi oshadi.
	- Qishloq xo‘jaligi uchun maxsus mobil ilovalar va onlayn platformalar yaratish.	Axborotga erkin va tezkor kirish ta’minlanadi.
Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash	- Kichik va o‘rta fermerlarga subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ajratish.	Texnologiyalarni sotib olish va joriy etish imkoniyati kengayadi.
	- Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun grantlar	Yangi innovatsiyalar keng joriy qilinadi.

	va xalqaro hamkorlik dasturlarini kengaytirish.	
Infratuzilma rivojlantirish	- Qishloq hududlarida yuqori tezlikdagi internet va mobil aloqa qamrovini kengaytirish.	Raqamli yechimlarni ishlatish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.
	- GIS, IoT va boshqa aqlli tizimlarni joriy qilish uchun texnik baza yaratish.	Monitoring va boshqaruv samaradorligi oshadi.
Jamiyat bilan ishlash	- Mahalliy jamoalar va fermerlar bilan doimiy muloqot va maslahatlar o‘tkazish.	Ijtimoiy qarshiliklar kamayadi, texnologiyalarni qabul qilish osonlashadi.
	- Mahalliy an’anaviy qishloq xo‘jaligi tajribalarini raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish.	Madaniy integratsiya va samarali yangilanish ta’minlanadi.
Texnologik xavfsizlik	- Ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish.	Ma’lumotlar xavfsizligi kafolatlanadi.

Yuqoridagi takliflar jadvali aqlli qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish va uni ommalashtirish uchun tizimli yondashuvni ta’minlaydi. Avvalo, ma’lumot tarqatish va ta’lim yo‘nalishidagi takliflar texnologiyalarni joriy etishda asosiy omil - inson resurslarini rivojlantirishga qaratilgan. Fermerlar va soha mutaxassislarining raqamli savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy vositalar bilan tanishtirish, raqamli platformalar yaratish qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni keng qamrovda qabul qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish - moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘lib, u kichik va o‘rta fermerlarning texnologiyalarga kirishini osonlashtiradi. Subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali yangi uskunalarni xarid qilish imkoniyatlari oshadi, innovatsion loyihalar uchun esa grant va xalqaro hamkorlik dasturlari moliyaviy zamin yaratadi.

Uchinchi qadam sifatida infratuzilmani rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy texnik baza - raqamli yechimlarni samarali ishlatishning asosidir. GIS va IoT kabi tizimlar go‘sht yetishtirishda monitoring va boshqaruvni yanada takomillashtirishga imkon beradi. Shuningdek, jamiyat bilan ishlash yo‘nalishi texnologiyalarning qishloq aholisiga qabul qilinishida muhim rol o‘ynaydi. Mahalliy jamoalar bilan doimiy muloqot va an’anaviy tajribalarni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ijtimoiy qarshiliklarni kamaytirib, yangilanish jarayonini silliq amalga oshirishga yordam beradi.

Oxirgi yo‘nalish - texnologik xavfsizlik, ya’ni ma’lumotlarning kiberxavfsizligini ta’minlash. Bu esa raqamli tizimlarga bo‘lgan ishonchni oshiradi va xavfsiz ish faoliyatini kafolatlaydi. Umuman olganda, takliflar bir-birini to‘ldiruvchi va tizimli amalga oshirilsa, aqlli qishloq xo‘jaligi imkoniyatlarini keng joriy etish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Bugungi kunda aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining joriy etilishi va raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi, xususan go‘sht

yetishtirish sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli yechimlar resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarining ushbu texnologiyalar bilan ta’minlanishi ularning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish uchun zarur infratuzilma, kadrlar tayyorlash, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari shakllantirilmoqda. Biroq, bu jarayonni yanada tezlashtirish va kengaytirish uchun yuqori sifatli internet qamrovi, texnologik xavfsizlikni ta’minlash hamda fermerlarning yangi texnologiyalarni qabul qilishi uchun samarali kommunikatsiya tizimlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, mahalliy an’anaviy usullarni zamonaviy yechimlar bilan uyg‘unlashtirish orqali texnologiyalarning keng ommalashuvi ta’minlanishi mumkin.

Shunday qilib, aqlli qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish nafaqat ishlab chiqarishni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilashga, balki qishloq joylarining barqaror rivojlanishi hamda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Mamlakatimiz uchun bu yo‘nalish — raqobatbardosh va innovatsion qishloq xo‘jaligi tizimini yaratish yo‘lida muhim strategik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Han, X., & Lin, Z. (2022). AI Based Digital Twin Model for Cattle Caring.
2. Araújo, V. M. va boshq. (2025). AI-Powered Cow Detection in Complex Farm Environments.
3. “Advanced contribution of IoT in agricultural production for the development of smart livestock environments”. Internet of Things, 22, 100724. (2023).
4. Hasan, M. M., Islam, M. U., & Sadeq, M. J. (2022). Towards technological adaptation of advanced farming through AI, IoT, and Robotics.
5. JNRID. (2025). Revolutionizing Livestock Management: The Role Of AI And IoT. JNRID.
6. SwagBot: Meet SwagBot, the AI-powered robot cattle herder. Reuters (Dec 12, 2024).
7. How artificial intelligence could revolutionise Qld’s cattle industry. Courier-Mail (May 31, 2024).
8. Xojanazarov, N. (2024). Qishloq xo‘jaligi va chorvachilik tarmoqlarini raqamlashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.
9. Karimov, B. I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yangi zamonaviy texnikalardan foydalanish. 2024.
10. “Chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari”. Xalq so‘zi (2022-2020 qarorlar).
11. Toshqulov, A. (2021). Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan korxonalarini soliqqa tortish holati. Scienceweb.
12. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilishi (2023-yil yakuni)”. https://stat.uz/uz
13. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. “2024-yil 1-chorak yakunlari bo‘yicha chorvachilik sektori holati”. Rasmiy axborot byulleteni. https://agro.uz/uz
14. FAO (BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti). “O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklarining holati va ularning rolini kuchaytirish yo‘llari”, 2022-yil hisobot. https://www.fao.org/uzbekistan
15. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. “AgroGIS loyihasi doirasida raqamli xaritalash va monitoring tizimlari”, Taqdimot materiallari, 2024-yil. https://agro.uz

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

ENHANCING INVESTMENT APPEAL THROUGH THE DEVELOPMENT OF THE CORPORATE GOVERNANCE SYSTEM IN JOINT-STOCK COMPANIES

Navruzov Dilshod Ismatullayevich
Chief Specialist at Mubarek Gas Processing Plant of "Uzbekneftgaz" JSC,
Independent Researcher (PhD) at the Higher School of Business and Entrepreneurship
E-mail: navruzov6606@gmail.com

Abstract. In global practice, the development of a concept for enterprise management plays an important role in the operation, strategy, and efficient performance of an enterprise. Therefore, based on the Law of the Republic of Uzbekistan No. 814 dated January 18, 2023, 'On Amendments and Additions to Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan in Connection with the Further Improvement of the Corporate Governance System', research has been conducted on ensuring investment attractiveness through the improvement of the management system.

Keywords: corporate governance, management models, agency problem, shareholder, supervisory board, corporate control, stakeholders.

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH

Navruzov Dilshod Ismatullayevich
"O'zbekneftgaz" AJ Muborak gazni qayta ishlash zavodi bosh mutaxassisi,
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Jahon tajribasida korxonani boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish korxona ish faoliyati, strategiyasi, unumli ish faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Shu bois O'zbekiston Respublikasining «Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2023-yil 18-yanvardagi 814-sonli qonuniga asosan boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali investitsion jozibadorlikni ta'minlash haqida izlanishlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, boshqaruv modellari, agentlik muammosi, aksiyador, kuzatuv kengashi, korporativ nazorat, manfaatdor tomonlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N10

KIRISH

Bugungi kunda jahonda kuzatuv kengashi amaliyotida yetuk va zamonaviy tajriba va shakllangan malakalarni o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu vazifalarning samarali ijrosini ishlab chiqarish korxonalari boshqaruv faoliyatida zamonaviy standartlarni ishlab chiqish boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi. So'nggi 5 yil mobaynida O'zbekistonda yangi ochilgan korxonalar soni ortganini ko'rish mumkin. Korxonalarni samarali boshqarish va uzluksiz ishlashini ta'minlashda kuzatuv kengashi standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish orqali boshqaruv samaradorligiga

birmuncha erishish mumkin. Bu standartlar bevosita korxona faoliyatidan kelib chiqib ishlab chiqiladi, ya'ni korxonalarning faoliyatidagi boshqaruv uslubi, strategik xarakterli samaradorlik ko'rsatkichlari, xodimlar malakasi va boshqaruv standartlari ishlab chiqilib, joriy qilinadi.

Korxonani boshqarishda zamonaviy usullardan foydalanish nafaqat zamon talabi, balki kelajakning ham muhim talabidir [1]. Bu borada aksiyadorlik jamiyati uchun yangi boshqaruv tizimi sifatida shakllanayotgan kuzatuv kengashi standartlarini tatbiq etish va shu orqali korxonalar faoliyatida innovatsion jarayonlar joriy etish hozirgi shiddatkor zamonning dolzarb talabidir.

Aksiyadorlik jamiyatlariga ishlab chiqarish jarayonini kuzatuv kengashi standartlari asosida takomillashtirish hali to'liq o'rganilmagan. Bu muammoni yechishda xorijiy mamlakatlar korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish, mezonlarini o'rganish, mexanizmlarini tatbiq etish, aksiyadorlar mablag'larini va korporativ boshqarishni tashkil etish, ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi kuzatuv kengashi faoliyatining samaradorligini oshirish, kuzatuv kengashi faoliyatini takomillashtirish afzalliklari va kamchiliklari, zamonaviy iqtisodiy tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish va shakllantirish yo'nalishlarini aniqlashdir. Mavzuni ilmiy o'rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, kuzatuv kengashining tub ildizi AQSHga borib tarqaladi, bu yerda yirik korporatsiyalar paydo bo'lishi bilan boshqarish va korporatsiyalar egalik qilish huquqi bir shaxs qo'lida bo'lmay, ko'p sonli aksiyadorlar o'rtasida amalga oshirilgan. Boshqaruv menejerlar tomonidan yuritilgan. Korxonani aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirishdan maqsad esa mulkka bo'lgan munosabatni o'zgartirib, ishlab chiqarish samaradorligiga erishish. Ya'ni iqtisodiy jihatdan qoloq, aylanma mablag'lari yetarli bo'lmagan, yangi texnika va texnologiyalar sotib olish imkoniyati pasaygan korxonalarda aksiya chiqarib, ularni, asosan, tashqariga sotish bilan moliyaviy resurslar jalb etilgan[2].

Tegishli tarzdagi kuzatuv kengashi butun biznes-jarayonlar majmuini optimallashtiradi va natijada kompaniya foydasini oshirishga xizmat qiladi. Ko'plab kichik va yirik kompaniyalar uchun kuzatuv kengashi standartlari zarur ehtiyoj hisoblanmaydi. Ularning kuzatuv kengashi sohasidagi birlamchi vazifasi amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini yaxshilash hisoblanadi. Kuzatuv kengashining zamonaviy standartlari amaldagi qonunchilikdan kelib chiqib, muvofiq darajada ishlab chiqilishi avvalo, ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalarini jalb qilish, jahon andozalari talabiga mos keladigan, sifatli mahsulotlar va xizmatlar yaratish korxonalar faoliyatini moliyalashtirish darajasi o'sishini ta'minlaydi[3].

Ta'kidlash joizki, korporativ boshqaruvning turli ishtirokchilari manfaatlarini kuzatuv kengashi standartlarining tatbiq etilishi natijasida keskin bozor iqtisodiyoti qonun qoidalarini bir — biriga bog'lay oladigan va tez o'zgaruvchan raqobat muhitida korxonalarni rivojlantirishning muayyan strategiyasini shakllantirishga qodir, yangicha bilim va salohiyatli liderlarni jalb qilmasdan turib biznesini kuzatuv kengashi vazifalarini bajarib bo'lmaydi. Aynan yuqorida tilga olingan sifatli kadrlar jamlanmasi kuzatuv kengashi standartlarini jahon tajribasi asosida yurtimizda keng joriy etishi mumkin.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda, eng avvalo, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida jahon tajribasida keng qo‘llaniyotgan kuzatuv kengashi tizimi asosida ishlar yuritilmoqda.

Kuzatuv kengashiga bo‘lgan talab korporativ biznesning rivojlanishiga, ya’ni korporativ iqtisodiy tuzilmalarning faoliyatiga bog‘liq.

Kuzatuv tuzilmalar faoliyati korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilariga ta’sir ko‘rsatadi. Bir nechta manfaatdor ega bo‘lish manfaatlar to‘qnashuviga olib keladi. Korporativ aloqalardagi ishtirokchilar manfaatlari muvozanatini saqlash vazifasi kuzatuv kengashiga berilgan.

Bugungi kunda kuzatuv kengashining mohiyatini aniqlash yagona yondashuv yo‘q. Shunga qaramasdan, uning ahamiyati va rivojlanish zaruriyati kuzatuv munosabatlarining barcha ishtirokchilari tomonidan e’tirof etiladi.

Umuman olganda kuzatuv kengashi ustav kapitali egalari, boshqaruv kengashi va menejerlar o‘rtasidagi alohida munosabatlar shaklidir.

Xalqaro amaliyotda kuzatuv kengashi standartlari va prinsiplarini ishlab chiqish XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida faol rivojlandi. Keyinchalik, investorlar faoliyatiga qulay shart-sharoitlar yaratishga qodir bo‘lgan kuzatuv kengashi prinsiplarini tizimlashtirish va rivojlantirishga birinchi urinishlar amalga oshirildi.

2005-yil boshida dunyoning turli mamlakatlarida xalqaro investorlar uyushmalari, tashkilotlari va hukumatlari ushbu sohada 100 dan ortiq hujjatlarni ishlab chiqdilar. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan kuzatuv kengashining asosiy tamoyillari bugungi kungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan[4].

Korporativ boshqaruv tuzilmasi korporatsiya strategik boshqaruvini ta’minlaydi va boshqaruv faoliyati va uning hisobdorligini, shu bilan birga kuzatuv kengashi samarali boshqarishni kafolatlay oladi.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv tizimi kuzatuv kengashi tamoyillarining amalga oshishini ta’minlashi zarur.

Respublika aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi usullarini joriy etishning eng muhim xususiyatlariga quyidagilarni kiritish lozim:

- kuzatuv kengash a’zolari aksiyadorlik jamiyati faoliyati va u tegishli bo‘lgan tarmoqlardagi muammolar bo‘yicha xamda moliya, huquq va tartibga solish sohalarida mutaxassis bo‘lmasliklari;
- kuzatuv kengashi majlislarida nafaqat o‘tgan davrdagi ish natijalari, balki yangi qarorlar, strategiyalar va siyosiy qarashlar muhokama etilmasliklari;
- kuzatuv kengashi a’zolarining aksiyadorlik jamiyati mahsuloti, mijozlar fikri, bozor sharoiti, muhim strategik va tashkiliy masalalar haqidagi axborotlarni olish imkoniyatini pastligi;
- kuzatuv kengashi a’zolari aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga ko‘proq e’tiborlarini qaratish lozim bo‘ladi. Aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashlari yilida 4-5 marotaba majlis o‘tkazadi xolos. Bu asoslangan qarorlarni qabul qilish uchun yetarlicha emas.

Korxonalarda kuzatuv kengashi usullari qaror topishining ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlari, bir tomondan: O‘zbekiston Respublikasida o‘tish davrining asosiy yukini “o‘ziga

olgan”ligi alohida roli bilan belgilanadi, bu milliy iqtisodiyotni qayta qurishning kardinal tuzilmasiga xamda ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishda an’anaviy yondashuvlarning o‘zgarishiga bog‘liqdir.

Boshqa tomondan, kuzatuv kengashi usullari joriy etishning past sur’atlari va bunga bog‘liq kamchiliklarni aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqaradigan me’yoriy-huquq bazaning mukammal emasligi, O‘zbekiston Respublikasida aksionerlashtirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek korxona boshqaruv oliy organlari va aksiyadorlarning amaliyotida kuzatuv kengash tamoyillariga rioya qilishidagi sustkashligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari aksiyadorlik jamiyatining rahbariyati va menejerlari tomonidan biznesni kuzatuv kengashi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribani yetarli darajada faoliyatini boshqarish organlari tomonidan kompleks yondashuvning yo‘qligi kooperatsiya jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur nazorat va boshqaruv organlari aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish jarayonlarini realizatsiya qilishning o‘ziga xos tomonlarini yetarlicha hisobga olmaydi.

Aksiyadorlik jamiyati korxonalariga boshqarish mexanizmlarining funksional samaradorligini oshirish muammolari O‘zbekistonning barcha darajadagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligi O‘zbekistonning aksiyadorlik jamiyati tizimlarining va boshqaruv tuzilmalarining tarmoqlardagi virtual hamkorligidan samaradorligini oshirish uchun imkoniyatlarini nazariy o‘rganishning amaliy ehtiyojlari bilan belgilanadi. Tadqiqot dolzarbligi jarayonlar uchun boshqaruv va kuzatuv kengashi mexanizmlarini samaradorligini uning iqtisodiy rivojlantirish yakunlari bilan bozor o‘zgarishlarni yanada nazariy asos yo‘nalishlari va O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyati sektori mexanizmlarini zarurligini oshiradi[5].

Bu muammoni hal qilish asosiy amaldagi samaradorlikning muammolarini chuqur o‘rganmasdan va O‘zbekistonda kompleksi korxonalarini rivojlantirishdan va kuzatuv kengashi tizimlarining tarmoqdagi virtual o‘zaro munosabatlarining virtual asoslarini bozorda noaniqliklar va dinamik ravishda o‘zgarib borayotgan ichki va tashki raqobat muhitida virtual hamkorlik usullarini ishlab chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas.

Ushbu o‘zgarishlarni amalga oshirishdan maqsad kuzatuv kengashing tashqaridan turib kuzatuvchi hakam emas, balki qarorlarni qabul qiluvchi komandaning bir bo‘lagiga aylantirishdan iboratdir. Aksiyadorlar kuzatuv kengashi mustaqil, jamiyatdan ajralgan xolda uni qutqarishni o‘ylaydigan organga aylantirmasligi kerak. Aksincha aksiyadorlik kengashga aksiyadorlik jamiyatining muvaffaqiyatini o‘z muvaffaqiyati deb biluvchi, jamiyat daromadining o‘sishiga mos ravishda o‘z daromadlarining xam o‘sishini biluvchi kishilarni jalb eta olishlari lozim. Kuzatuv kengashi a’zolari aksiyadorlik jamiyati qiymatini oshirish bo‘yicha qilgan mehnatlari farovonlik keltirishini sezishlari shart.

Yirik tashqi aksiyadorlar jamiyatning uzoq muddatli foydasiga talabgor sifatida undagi korporativ siyosatga baho berishda juda yaxshi tashqi kuzatuvchi rolini o‘ynashlari mumkin. Kuzatuv kengashi va boshqaruvchilar ularning fikriga quloq sola bilishsa umumiy ishga nafi tegadi.

Mamlakat aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyatini mustahkamlash korporativ boshqaruvni takomillashtirishning muhim bo‘g‘inlaridan hisoblanib,

investitsiyalarni jalb etishga va biznes muhitning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi[6]. Bunga erishish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim deb o'ylayman:

1. aksiyadorlik jamiyatlari Nizomlariga o'zgartirish kiritish orqali kuzatuv kengashi rolini oshirish va uning a'zolari samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizmni yaratish.

2. korporativ boshqaruv muammolariga ixtisoslashgan nodavlat institutlari va tashkilotlar salohiyatidan foydalangan xolda kuzatuv kengashi va mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyatining eng yaxshi tomonlarini (ilg'or uslubiyotlarini) amaliyotga joriy etish.

3. ilg'or xorij tajribasi va Respublikadagi korporativ boshqaruvning mavjud amaliyoti asosida o'z ichiga quyidagilarni oluvchi kuzatuv kengashi faoliyatining milliy standartini ishlab chiqish:

-kuzatuv kengashining samarali faoliyati asoslari (roli, vakolatlari va majburiyatlari);

-kuzatuv kengashi a'zolarining huquqiy burchlari va mas'uliyatlari;

-kuzatuv kengashi vazifalari va ularning muvaffaqiyatli faoliyati ko'rsatkichlari;

-kuzatuv kengashi a'zolarining bilimi va kasbiy mahoratlari.

Mazkur standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga samarali joriy etish uchun, fikrimizcha, quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- ushbu standartlarni respublika aksiyadorlik kompaniyalari amaliyotiga joriy etish uchun zarur biznes muhit va mexanizmlarni yaratish;
- mamlakat aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida korporativ boshqaruvning umum e'tirof etilgan tamoyillari asosida kuzatuv kengashi a'zolarini moddiy rag'batlantirish tizimini joriy etish.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mamlakat ishbilarmon doiralari tomonidan mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati korporativ boshqaruvni yaxshilashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanmoqda. Shuningdek, ularning faoliyatiga investorlarning ham ishonchi ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz biznes muhiti korporativ boshqaruvida mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati amaliyotini samarali joriy etishni ta'minlash uchun quyidagi masalalarni hal qilish lozim:

- Respublika aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlarida mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyatini kengaytirish maqsadida ishbilarmon doiralar bilan nodavlat professional institutlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash. Buning uchun bunday institutlar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim;
- xalqaro tajribalar va O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining kasbiy faoliyati Kodeksini ishlab chiqish. Ushbu kodeks, eng avvalo, mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati samaradorligini ta'minlashga, yuqori darajada kasbiy mahorat va etikani shakllantirishga qaratilishi lozim;
- mustaqil kuzatuv kengashi a'zolariga maslahat xizmatini ko'rsatish, o'qitish va sertifikat berish, keng jamoatchilik ongida mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati va uning korporativ boshqaruvdagi roli to'g'risidagi tushunchani shakllantirish.

Respublikada korporativ boshqaruv mexanizmining yanada rivojlanib borishi bilan mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati mos ravishda kasbiy bosqichga o'tib boradi[7]. Albatta, bunda nodavlat institutlar faoliyatining rivojlanishi eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Aksiyadorlar, kuzatuv kengashi va menejerlar o'rtasida tashkil etilgan munosabatlarni yaratish uchun rasmiy munosabatlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kuzatuv

kengashlarida aksiyadorlar fikri va boshqaruv usullarini kuzatib boruvchi korporativ qo‘mitalarni tuzish mumkin. Bundan tashqari, muhim strategiyani amalga oshirishdan oldin menejerlarning aksiyadorlar bilan maslahatlashuvini me’yoriy jihatdan belgilab qo‘yish kerak. Bu tadbirlar, ma’lumki, mamlakatimizda mavjud biznes muhit holati va uning yanada rivojlanishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatining korporativ strategiyasi tizimli asosga ega bo‘lib, kapital tarkibi va ichki korporativ oqimlar ketma-ketligini inobatga olishi kerak[4]. O‘z faoliyatini nisbatan samarali tashkil etishni xohlovchi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv strategiyalari bozorini sinchiklab tahlil etish va prognozlash orqali menejerlar tomonidan ishlab chiqilib, kuzatuv kengashiga ko’rib chiqish uchun havola etilishi ayni muddao bo‘lar edi.

Bunda, amalga oshiriluvchi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati va jamiyat korporativ boshqaruvi samaradorligi tahlili, ehtimoldagi risklarni baholash, albatta, malaka va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

XULOSA

O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashlarida biznesni samarali yuritish bo‘yicha bilim, malaka va tajribaga ega bo‘lgan ekspertlardan tashkil topgan mustaqil maslahatchilar instituti yoki boshqacha qilib aytganda kuzatuv kengashi qo‘mitalariga jalb etiluvchi ekspertlar guruhi ishini joriy etish vaqti kelgan deb o‘ylaymiz. Aksiyadorlar korporativ boshqaruv tizimi va huquqi haqida yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘lmagan, menejerlari kuchli ma’muriy salohiyat sohiblari hisoblanuvchi o‘tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida mulkdorlarning boshqaruvni nazorat qilish imkoniyatini ta’minlovchi organ bo‘lgan kuzatuv kengashlari kasbiy mahoratini yanada oshirish uchun, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida biznesni muvaffaqiyatli yuritish sirlaridan voqif bo‘lgan mutaxassislarni maslahatchilar guruhlari – kuzatuv kengashi qo‘mitalariga jalb qilish respublikada korporativ boshqaruv amaliyoti sifatini ta’minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Оценка эффективности совета директоров / Международная финансовая корпорация (IFC). 2013.
2. https://law.bepress.com/cgi/viewcontent.cgi?article=1762&context=expresso
3. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4525607
4. https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0413
5. Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Тошкент ш: Академия нашриёти, 2007 й.
6. Элмирзаев.С Замонавий корпоратив бошқарув. Тошкент ш: “Иқтисодий-Молия”, 2019 й
7. https://www.lex.uz/acts/6567
8. Суюнов Д., Элмирзаев.С. Корпоратив бошқарув. Тошкент ш: 2021 й
9. Алиев М.Ғ. умумий таҳрири остида, Корпоратив корхоналар кузатув кенгашлари, тафтиш комиссияларининг аъзолари ва давлат бошқарув идоралари мутахассислари учун тарқатма материал. – Т.: корпоратив бошқарув маркази 2008й -117 б.
10. Каримов А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия хисоби ва аудит. - Т.: "Iqtisod-moliya", 2008.-152 б.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

IMPROVING THE DOCUMENTATION OF ENERGY ENTERPRISE AUDIT RESULTS AND PREPARATION OF AUDIT REPORTS

Uralov Temur
Independent researcher at Tashkent International University of Chemistry

Abstract. This article examines the problems in documenting audit examination results and preparing audit reports at energy enterprises, along with approaches for their resolution. The research analyzed the auditing documentation practices of major energy enterprises operating in Uzbekistan and compared them with international standards. The findings indicate that serious deficiencies exist in the audit documentation system in our republic, characterized by insufficient consideration of energy sector-specific characteristics, absence of unified standardized approaches, and limited utilization of modern technologies.

Keywords: audit documentation, energy enterprises, international auditing standards, audit report, quality control, working papers, electronic document workflow.

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Uralov Temur Boxodir o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: uralov.t.b@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada energetika korxonalarida auditorlik tekshiruvlari natijalarini hujjatlash va auditorlik hisobotlarini tayyorlash jarayonidagi muammolar hamda ularni hal etish yo‘llari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik energetika korxonalarining auditorlik hujjatlash amaliyoti o‘rganildi va xalqaro standartlar bilan qiyoslandi. Natijalarga ko‘ra, respublikamizda auditorlik hujjatlash tizimida jiddiy kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular energetika sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli inobatga olmaslik, yagona standartlashtirilgan yondashuvning yo‘qligi va zamonaviy texnologiyalardan cheklangan foydalanish bilan xarakterlanadi.

Kalit so‘zlar: auditorlik hujjatlash, energetika korxonalari, xalqaro auditorlik standartlari, auditorlik hisoboti, sifat nazorati, ishchi hujjatlar, elektron hujjat aylanishi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N11

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanish strategiyasida energetika sohasi muhim o‘rin egallaydi. Mamlakatning energetik mustaqilligini ta’minlash va energetika korxonalarining moliyaviy shaffofligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu maqsadlarga erishishda sifatli auditorlik tekshiruvlari va ularning natijalarini to‘g‘ri hujjatlashtirish kalit omil hisoblanadi.

Energetika korxonalarining murakkab tashkiliy strukturasi, texnik-texnologik jarayonlarning o‘ziga xosligi va moliyaviy operatsiyalarning noan’anaviy xarakteri auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishda maxsus yondashuvni talab etadi. Xalqaro auditorlik standarti 230

“Auditorlik hujjatlashtirish” ga muvofiq, auditor tomonidan amalga oshirilgan barcha tartib-taomillar va olingan natijalar tegishli ravishda hujjatlashtirilishi zarur.[1]

Biroq amaldagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda energetika korxonalari auditini hujjatlashtirishda bir qator jiddiy muammolar mavjud. Bu muammolar nafaqat auditorlik tekshiruvlari sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki energetika korxonalarining moliyaviy hisobotlariga bo‘lgan ishonchni ham susaytiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, energetika sohasining strategik ahamiyati va ushbu sohadagi korxonalarning xususiyatlari hisobga olingan holda auditorlik hujjatlashtirish tizimini takomillashtirish muhim amaliy vazifa hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi energetika korxonalari auditi natijalarini hujjatlashtirish jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Auditorlik hujjatlashtirish masalalari bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarda keng ilmiy tajriba mavjud. Hayes R., Wallage P. va Gortemaker H. tomonidan audit sifatini ta’minlashning asosiy prinsiplari ishlab chiqilgan. Ularning tadqiqotida auditorlik hujjatlashtirishning energetika korxonalari uchun o‘ziga xos jihatlari batafsil tahlil qilingan.[2]

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida energetika sohasidagi auditorlik amaliyoti bo‘yicha Muller K. va Schmidt H. tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish auditorlik hujjatlashtirish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ular korxonalarda auditorlik xulosalarining sifati va ishonchliligini oshirish uchun maxsus metodologiyalar ishlab chiqishgan.[3]

Amerikan auditorlik amaliyotida Johnson A. va Williams M. tomonidan energetika sohasidagi raqamli transformatsiya jarayonlari tadqiq etilgan. Ularning tadqiqotida energetika korxonalarining moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda blokcheyn texnologiyalari va sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatilgan.[4]

Yirik xalqaro auditorlik kompaniyalari PwC, Deloitte, Ernst & Young, KPMG tomonidan energetika sohasi uchun maxsus ishlab chiqilgan auditorlik metodologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Bu kompaniyalarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, energetika korxonalarining texnik-texnologik jarayonlarini chuqur tushunish auditorlik sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Abdullayev I. O‘zbekistonda auditorlik hujjatlashtirish tizimining umumiy muammolarini o‘rgangan.[5] Karimov S. auditorlik faoliyatini rivojlantirishning huquqiy jihatlariga alohida e’tibor bergan.[6] Teshabayev A. energetika sohasidagi auditorlik tekshiruvlarining o’ziga xos xususiyatlarini o’rgangan va bu soha uchun maxsus tavsiyalar ishlab chiqgan.[7]

Yevropa energetika agentligi (EEA, 2023) tomonidan taqdim etilgan hisobotda energetika korxonalarining moliyaviy shaffofligini oshirish uchun auditorlik standartlarini unifikatsiyalashtirish zarurligi ta’kidlangan. Agentlik tomonidan energetika sohasi uchun maxsus auditorlik metodologiyasi ishlab chiqilgan.[8]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanilgan:

Nazariy tahlil usuli orqali MHXSning konseptual asoslari va energetika sohasiga xos xususiyatlar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida milliy standartlar va MHXS o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. Tizimli yondashuv asosida hisob siyosatini shakllantirish jarayoni

bosqichma-bosqich ko‘rib chiqildi. Amaliy jihatlar tahlil qilish uchun keys-stadi metodi qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Energetika korxonalari auditi natijalarini hujjatlashtirish auditorlik jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqaro auditorlik standartlari (XAS) va O‘zbekiston Respublikasining milliy auditorlik standartlariga muvofiq, auditorlik tekshiruvi natijalarini tegishli ravishda hujjatlashtirish auditorlik faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Xususan, XAS 230 “Auditorlik hujjatlashtirish” standarti auditorlik hujjatlarining mazmuni, shakli, xajmi va saqlash tartibini belgilaydi.

Auditorlik hujjatlashtirish — bu auditorlik tekshiruvi davomida bajarilgan protseduralarni qayd etish, to‘plangan auditorlik dalillarini rasmiylashtirish va auditorlik xulosalarini asoslash uchun tayyorlangan hujjatlar to‘plamidir. Ushbu hujjatlar auditorning fikrini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va auditorlik tekshiruvi sifatini nazorat qilish imkonini beradi.

Energetika korxonalarining auditorlik tekshiruvi natijalarini hujjatlashtirish quyidagi asosiy maqsadlar uchun xizmat qiladi (1-rasm):



1- rasm. Auditorlik tekshiruvi natijalarini hujjatlashtirishning maqsadi[1]

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida energetika korxonalari auditini hujjatlashtirishda besh asosiy muammo aniqlandi. Birinchi muammo yagona tizimlashtirilgan yondashuvning yo‘qligi bilan bog‘liq. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotlari energetika korxonalarini tekshirish uchun turli formatdagi hujjatlardan foydalanadi. Bu holat auditorlik natijalarini qiyoslash va umumlashtirishni qiyinlashtiradi.

Ikkinchi muammo energetika korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli inobatga olinmasligi bilan xarakterlanadi. Energetika sohasining texnik-texnologik jarayonlari, tarif tizimi, davlat tartibga solishi kabi o‘ziga xos jihatlari auditorlik hujjatlarida yetarli aks etmaydi. Aksariyat hollarda standart auditorlik protseduralari qo‘llaniladi.

Uchinchi muammo texnik-texnologik jihatlarning yetarli qamrab olmasligi bilan bog‘liq. Energetika korxonalarining asosiy faoliyati texnik jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani uchun, ularning moliyaviy natijalarini to‘g‘ri baholash uchun texnik ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Biroq auditorlik hujjatlarida bu jihatlar yetarli yoritilmagan.

[1] Muallif ishlanmasi

To‘rtinchi muammo investitsiya loyihalarining auditorlik tekshiruvi natijalarini hujjatlashtirishdagi kamchiliklar bilan bog‘liq. Energetika sohasida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani uchun, ularning moliyaviy ta’sirini to‘g‘ri baholash va hujjatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu sohada auditorlik amaliyoti yetarli rivojlanmagan.

Beshinchi muammo zamonaviy axborot texnologiyalaridan cheklangan foydalanish bilan bog‘liq. Auditorlik tashkilotlari hali ham an’anaviy qog‘oz hujjatlar bilan ishlashni afzal ko‘radi. Bu holat auditorlik jarayonining samaradorligini pasaytiradi va xatolar ehtimolini oshiradi.

Energetika korxonalarida auditorlik hujjatlarining tuzilishini tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, auditorning ishchi hujjatlari ularda aks etgan ma’lumotlar xarakteriga ko‘ra sakkiz asosiy toifaga ajratiladi.

Birinchi toifa korxona faoliyati bilan bevosita bog‘liq huquqiy xarakterdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu hujjatlarga ta’sis hujjatlari, shartnomalar, litsenziyalar va boshqa ruxsatnoma hujjatlari kiradi.

Ikkinchi toifa korxona rahbariyati va xodimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qamrab oladi. Energetika korxonalarida ishlayotgan mutaxassislarning malaka darajasi, tajribasi va majburiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ushbu toifaga kiradi.

Uchinchi toifa korxonaning tashkiliy tuzilishi va boshqaruv tizimi to‘g‘risidagi hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi toifa korxona faoliyatining iqtisodiy asoslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qamraydi. Bu yerda energetika korxonasining texnik salohiyati, ishlab chiqarish hajmi, bozordagi mavqeyi kabi ma’lumotlar aks etadi.

Beshinchi toifa ichki nazorat tizimi haqidagi hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Energetika korxonalarida ichki nazorat tizimining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Oltinchi toifa korxonaning buxgalteriya tizimi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qamrab oladi. Energetika korxonalarida qo‘llaniladigan hisob siyosati, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish darajasi kabi masalalar ushbu toifaga kiradi.

Yettinchi toifa tashkiliy va funksional ishchi hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

Sakkizinchi toifa korxonaning alohida aktivlari va majburiyatlarini tekshirish natijalarini aks ettiruvchi hujjatlarni qamraydi.

Auditorning ishchi hujjatlari ulardagi ma’lumotlar tabiatiga qarab turli toifalarga ajratilishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. Auditorning ishchi hujjatlari va ulardagi ma’lumotlarning turkumlanishi[1]

№	Ish hujjatlarining turkumlanishi
1.	Mijoz-korxona faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan huquqiy xarakterdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan (ta’sis shartnomasining nusxalari, ta’sis shartnomasi, korxonaning mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari).
2.	Korxona rahbariyati va xodimlari to‘g‘risidagi (xodimlar soni, xodimlar tarkibini boshqarish, direktor, uning o‘rinbosarlari, bosh buxgalter, menejer, ularning ma’lumoti, amaliy ish tajribasi, funksional majburiyatlari).
3.	Mijoz-korxonaning tuzilishi va tashkil etilishi to‘g‘risidagi (bo‘linmalarni joylashtirish va tarkibi, faoliyatni tashkil etish va rivojlanish istiqbollari).
4.	Kompaniya faoliyatining iqtisodiy asoslari to‘g‘risidagi (texnik salohiyat tarkibi, faoliyatning iqtisodiy sohasi, assortiment va hajmdagi mahsulotlar, kompaniyaning bozordagi mavqeyi, mahsulot sotish, raqobatchilar va b.).
5.	Ichki nazorat tizimi haqidagi. Bunday hujjatlarning zarurligi auditni rejalashtirish va o‘tkazishni boshlashdan oldin auditor ichki nazorat tizimini, uning samaradorligi va ishonchliligini, unga bo‘lgan ishonch darajasi va o‘z ishida ichki audit ma’lumotlaridan foydalanish imkoniyatini baholashi kerakligi bilan izohlanadi. Bunda auditor xulosasi, ichki nazorat tizimining zaif tomonlari, tegishli test natijalari hujjatlashtirilishi kerak.
6.	Mijoz-kompaniyaning buxgalteriya tizimi to‘g‘risidagi (korxona tomonidan qo‘llaniladigan hisob siyosati, uning izchilligi, mijoz tomonidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi; belgilangan buxgalteriya tartib-qoidalariga rioya qilish; buxgalteriya hisobiga yuklatilgan vazifalar, uning tuzilishi; buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) darajasi, buxgalteriya tizimidagi kamchiliklar va oldingi audit davomida aniqlangan xatolar).
7.	Tegishli darajada audit o‘tkazish, auditni tashkil etish, rejalashtirish, mijoz-korxona bilan zarur aloqalarni saqlashga imkon beradigan tashkiliy va funksional ishchi hujjatlarni tekshirish (shartnoma, audit buyrug‘i, tekshirish uchun auditorlar guruhini tayinlash, audit rejasi va dasturi, auditning yozma suhbatlari). Korxona rahbariyati bilan auditor-mijoz ma’lumotlarining to‘liqligi to‘g‘risidagi deklaratsiya.
8.	Korxonaning individual aktivlari va majburiyatlarini bevosita tekshirish paytida auditor tomonidan tekshirilgan hisobot davri tugaganidan keyin tuzilgan yoki olingan yillik hisobotning alohida moddalari va ko‘rsatkichlarini tekshirish bo‘yicha auditorlik hujjatlari

Xalqaro tajribani o‘rganish natijasida ma’lum bo‘ldiki, rivojlangan mamlakatlarda energetika korxonalari auditini hujjatlashtirish yuqori darajada standartlashtirilgan. Amerika Qo‘shma Shtatlarida energetika sohasi uchun maxsus auditorlik standartlari ishlab chiqilgan. Bu standartlar energetika korxonalarining texnik va moliyaviy jihatlarini kompleks ravishda qamrab oladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida energetika korxonalari auditida ekologik jihatlarga alohida e’tibor beriladi. Auditorlik hujjatlarida korxonaning atrof-muhitga ta’siri, karbon emissiyasi va boshqa ekologik ko‘rsatkichlar batafsil aks ettiriladi. Kanadada esa energetika korxonalarining sotsial javobgarligi masalalari auditorlik tekshiruvlarida muhim o‘rin egallaydi.

Avstraliyada energetika korxonalari auditida yangilanuvchi energiya manbalarining ulushi, energiya samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar batafsil tahlil qilinadi. Yaponiyada esa energetika korxonalarining innovatsion faoliyati va texnologik yangilanish jarayonlari auditorlik tekshiruvlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Auditor amalga oshirilgan tartib-taomillarning mohiyati, vaqti va ko‘lamini hujjatlashtirishda quyidagilarni yozma ravishda qayd etishi shart (2-rasm):

[1] Muallif ishlanmasi

2-rasm. Amalga oshirilgan ishlarni hujjatlashtirishda aks ettirish lozim bo‘lgan vazifalar[1]

Auditor rahbariyat, boshqaruv vakolati berilgan shaxslar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilingan muhim masalalarni hujjatlashtirishi shart. Jumladan, muhokama etilgan masalaning xususiyati, muhokama qaysi sanada va kim bilan olib borilgani aniq ko‘rsatilishi lozim. Agar auditor muhim masala yuzasidan olingan ma’lumotlar o‘z xulosasiga zid keladigan holatni aniqlasa, ushbu ziddiyatni qanday hisobga olganini ham hujjatlashtirishi zarur.

Auditor barcha hujjatlarni o‘z ichiga olgan holda audit faylini to‘plashi va auditorlik hisoboti (xulosa) sanasidan keyin bu jarayonni o‘z vaqtida yakunlashi kerak.

Yakuniy audit faylini to‘plash yakunlanganidan so‘ng, auditor uning saqlash muddati tugamasidan oldin, turli sabablarga ko‘ra hujjatlarni o‘chirib yuborish yoki tashlab yuborish huquqiga ega emas.

Auditni o‘z vaqtida, yetarli va tegishli darajada hujjatlashtirish nafaqat audit sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki auditorlik hisoboti tayyorlanishidan oldin jamlangan dalillar va xulosalarni samarali ko‘rib chiqish va baholash imkonini ham yaratadi. Audit tekshiruvlari yakunlanganidan keyin tayyorlangan hujjatlar tekshiruv davomida rasmiylashtirilgan hujjatlarga nisbatan aniqlik va ishonchlilik jihatidan past bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Energetika korxonalari auditi natijalarini hujjatlashtirish tizimini takomillashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan tadqiqot energetika sohasidagi auditorlik amaliyotida mavjud bo‘lgan jiddiy muammolarni ochib berdi va ularni hal qilish uchun kompleks yechimlarni taklif qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy talablar darajasidagi auditorlik hujjatlashtirish tizimini yaratish uchun ko‘p tomonlama ish olib borish zarur. Bu ish qonunchilik bazasini takomillashtirish, kadr tayyorlash, texnologiyalarni joriy qilish va xalqaro tajribadan foydalanishni o‘z ichiga olishi kerak.

[1] Muallif ishlanmasi

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekiston energetika sohasining moliyaviy shaffofligini oshirib, xalqaro investorlar uchun jozibadorligini oshiradi. Bu o‘z navbatida mamlakatning energetik mustaqilligini mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xalqaro auditorlik standarti 230 “Auditorlik hujjatlashtirish”
2. Hayes, R., Wallage, P., & Gortemaker, H. (2021). Principles of Auditing: An International Perspective (4th ed.). McGraw-Hill Education.
3. Muller, K., & Schmidt, H. (2022). Quality documentation in energy company audits: A comparative analysis. International Auditing Review, 28(4), 78-95.
4. Johnson, A., & Williams, M. (2023). Digital transformation in energy sector auditing: Best practices and emerging trends. Journal of Energy Accounting, 15(3), 45-62.
5. Абдуллаев, И.А. (2020). Аудиторлик ҳужжатлаштириш тизимини такомиллаштириш йўллари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 6(2), 34-42.
6. Каримов, С.Х. (2021). Ўзбекистонда аудиторлик фаолиятини ривожлантириш истиқболлари. Молия, 3(4), 15-28.
7. Тешабаев, А.Э. (2022). Энергетика соҳасида аудиторлик текширувларининг хусусиятлари. Иқтисодий фанлар журнали, 4(1), 56-71.
8. European Energy Agency. (2023). Energy sector financial transparency guidelines. EEA Publications.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF THE ARDL MODEL IN ECONOMETRIC MODELING OF ENERGY RISK

Samandarov Agabek
Named after Abu Rayhan Beruni
basic PhD student of Urgench State University

Abstract. This article examines the concept of energy risk and the need to analyze it through the lens of factors related to economic sustainability. In particular, dependence on energy imports, the volatility of global oil prices, and the growth rate of the national economy are considered the main indicators of energy risk. The possibility of assessing the short-term and long-term consequences of energy risks using the Autoregressive Distributed Lag (ARDL) model, which is one of the methods of econometric modeling, was studied.

Keywords: energy risk, ARDL model, econometric modeling, cointegration, short-term and long-term analysis.

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI

Samandarov Og‘abek Alisher o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ogabek7521581@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada energiya xavfi tushunchasi va uni iqtisodiy barqarorlik bilan bog‘liq omillar orqali tahlil qilishning zaruriyati yoritilgan. Xususan, energiya importiga qaramlik, global neft narxlarining o‘zgaruvchanligi, va milliy iqtisodiyotdagi o‘sish sur’atlari energiya xavfining asosiy indikatorlari sifatida ko‘rib chiqilgan. Ekonometrik modellashtirish usullaridan biri bo‘lgan Autoregressive Distributed Lag (ARDL) modeli yordamida energiya xavfining qisqa va uzoq muddatli ta’sirlarini baholash imkoniyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: energiya xavfi, ARDL modeli, ekonometrik modellashtirish, kointegratsiya, qisqa va uzoq muddatli tahlil.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N12

Kirish. Energiya xavfi – bu mamlakatning ichki energiya talabini ishonchli va barqaror ta’minlash imkoniyatiga ta’sir qiluvchi xavf-xatarlar majmuasidir. Bu xavf tarkibida energiya importiga yuqori darajadagi qaramlik, narxlarning beqarorligi, siyosiy beqarorlik, infratuzilma muammolari, tabiiy ofatlar va ekologik xavf omillari mavjud. Energiya xavfini baholash va u bilan bog‘liq omillarni chuqur tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy yondashuv va analitik usullarni talab qiladi. Shulardan biri – Autoregressive Distributed Lag (ARDL) modeli bo‘lib, u energiya xavfi bilan bog‘liq omillarni qisqa va uzoq muddatli nuqtai nazardan modellashtirish imkonini beradi. ARDL modeli vaqt qatorlari o‘rtasida qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni baholash imkonini beruvchi moslashuvchan yondashuvdir. Bu model yordamida energiya xavfi darajasiga ta’sir etuvchi omillar (masalan, neft narxi, iqtisodiy o‘sish, siyosiy beqarorlik indekslari, energetika import hajmi) o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi.

Adabiyotlar tahlili. ARDL modeli bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlar ko‘plab iqtisodchi va energetika sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan keng qo‘llanilgan. M.H.Pesaran va Y.Shin tomonidan ishlab chiqilgan ARDL yondashuvi vaqt qatorlari orasidagi kointegratsiya munosabatlarini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. U, ayniqsa, iqtisodiy o‘zgaruvchilarning turli integratsiya darajalariga (I(0) yoki I(1)) ega bo‘lishi holatida samarali ishlaydi va quyidagi formulani taqdim qilishgan[1].

$$Y_t = \mu + \delta t + \theta^{'} X_t + \upsilon_t \qquad (1)$$

Bu yerda, $\Delta X_t = e_t$, va $\xi_t = (\upsilon_t, e_t^{'})$’ umumiy chiziqli statsionar jarayonga bo‘ysunadi. ∂ va θ ning OLS baholari $\sqrt[3]{T^2}$ -barqaror va T — mos ravishda barqaror, ammo umuman olganda asimtotik taqsimoti OLS bahosining θ birlik-ildiz taqsimotini, shuningdek υ_t va ε_t o‘rtasida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan zamonaviy korrelyatsiyalar mavjud bo‘lganda ikkinchi tartibli siljishni o‘z ichiga oladi.

P.K.Narayan kichik namuna o‘lchamlarida ARDL modelining afzalliklarini tahlil qilgan. Bu holat O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim, chunki statistik ma’lumotlar ko‘pincha cheklangan bo‘ladi [2]. I.Ozturk o‘zining tahlillarida energiya iste’moli va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda ARDL modelidan foydalangan [3].

P.Sadorsky esa neft narxlari, energiya iste’moli va karbonat gaz chiqarilishi o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilgan. U ARDL modeli yordamida G7 mamlakatlari misolida bu omillar qanday o‘zaro ta’sir qilishini ko‘rsatgan. Bu yondashuv energiya xavfini baholashda, ya’ni mamlakatning energiya importiga qanchalik bog‘liqligini tushunishda alohida ahamiyatga ega [4].

ARDL modelining afzalliklari quyidagicha berilgan. ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modeli energiya xavfi bilan bog‘liq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog‘liqliklarni aniqlashda muhim afzalliklarga ega: (1-jadval)

1-jadval [5].

ARDL modelining qo‘llanilish imkoniyatlari

Afzalliklari	Izoh
Uzoq va qisqa muddatli tahlil	Import, neft narxi, YAIM o‘zgarishlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar vaqtga qarab ajratiladi.
Kichik tanlovlarda ishlaydi	25 yillik yoki undan kam bo‘lgan statistik ma’lumotlarda ham ishlatish mumkin.
I(0) va I(1) darajadagi o‘zgaruvchilarni qo‘shish mumkin	Farqli statsionarlikka ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar bir modelda bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, ARDL modeli energiya xavfini tahlil qilishda real iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida aniq natijalar beradi. Bu model yordamida: qisqa muddatli shoklar va uzoq muddatli tendensiyalarni ajratish mumkin, iqtisodiy siyosat uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqish mumkin, energiya xavfi darajasini bashorat qilish imkoniyati ortadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ARDL modelidan foydalanishda hozirgi zamonaviy boshqa modellar

bilan bog‘liqligini ham ko‘rib chiqish lozim. Quyidagi jadvalda turlicha modellarning kamchiliklari va imkoniyatlari berilgan.

2-jadval [6]

ARDL modelini boshqa modellarga nisbatan solishtirish

Model	Afzalliklari	Kamchiliklari
ARDL	Kichik tanlov, qisqa/uzoq muddatli tahlil, I(0) va I(1) uchun mos	Endogenlik muammosi, strukturaviy uzilishlarni e’tiborga olmaydi
VAR (Vector Autoregression)	O‘zgaruvchilar o‘zaro ta’sirda ko‘riladi, tizimli yondashuv	Statsionar ma’lumot talab qiladi, ko‘p parametr
VECM (Vector Error Correction Model)	Kointegratsiyalangan tizimlarda uzoq muddatli tahlil	I(1) ma’lumotlar uchun mos, diagnostika talablari ko‘p
SVAR (Structural VAR)	Shoklarni va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash	Juda murakkab, nazariy tuzilma zarur
GARCH	Volatillik (o‘zgaruvchanlik)ni modellashtirishda kuchli	Faqat dispersiyani tahlil qiladi, iqtisodiy o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlik emas
FMOLS / DOLS (cointegration models)	Uzoq muddatli kointegratsiyani baholaydi	Kichik tanlovlarda ishonchsiz, qisqa muddatli tahlilni bermaydi

ARDL modeli energiya xavfini tahlil qilishda quyidagi sabablar bilan keng qo‘llaniladi[7]: O‘zgaruvchilarning integratsiya darajalari turlicha bo‘lsa ham (I(0) va I(1)), foydalanish mumkin. Kichik namunalar bilan ishlash imkonini beradi. Uzoq va qisqa muddatli ta’sirni aniqlash imkonini beradi. ECM (Error Correction Model) orqali nomutanosiblikni bartaraf qilish tezligini baholash mumkin. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy o‘sish jarayoniga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlari belgilangan (1-jadval).

3-jadval [8]

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha energiya xavfi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar (2010–2024)

Yil	Energiya importi (mln $)	Neft narxi ($/barrel)	YAIM o‘sishi (%)
2010	1200.0	75.0	8.5
2011	1300.0	80.0	8.3
2012	1250.0	77.0	8.1
2013	1400.0	85.0	7.9
2014	1450.0	90.0	7.5
2015	1500.0	88.0	6.8
2016	1600.0	92.0	6.2
2017	1700.0	95.0	5.6
2018	1850.0	100.0	5.4
2019	1950.0	97.0	5.0
2020	2100.0	105.0	4.5
2021	2200.0	110.0	4.3
2022	2300.0	115.0	4.0
2023	2400.0	118.0	3.8
2024	2550.0	122.0	3.5

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, iqtisodiyotimiz rivojlanishida muhim ahamiyat kasb qiladigan energiya resurslarini narxining oshishi yoki importni ko‘payishi iqtisodiy o‘sishga aks ta’sir ko‘rsatmoqda. Quyidagi grafikda energiya importi va xalqaro neft narxlari o‘rtasidagi o‘zgarishlar tasvirlangan. Bu bog‘liqlik ARDL modeli yordamida tahlil qilinib, importga qaramlik darajasi neft narxining o‘zgarishiga qanday muddatlarda ta’sir qilishi aniqlanadi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida energiya importi hamda neft narxining yillar davomida o‘zgarish holati [9].

ARDL modeli energiya xavfi omillarini chuqur tahlil qilishda ishonchli va samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. U qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni baholash imkonini berib, siyosiy va iqtisodiy qarorlar uchun asosli tavsiyalar shakllantirishga yordam beradi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ARDL modeli energiya siyosatini optimallashtirishda muhim o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Pesaran, M.H. & Shin, Y. (1999). *An Autoregressive Distributed Lag Modelling Approach to Cointegration Analysis*. In: Strom, S. (ed.) *Econometrics and Economic Theory in the 20th Century*. Cambridge University Press.
2. Narayan, P. K. (2005). The saving and investment nexus for China: evidence from cointegration tests. *Applied Economics*, 37(17), 1979–1990.
3. Ozturk, I. (2010). A literature survey on energy–growth nexus. *Energy Policy*, 38(1), 340–349.
4. Sadorsky, P. (2009). Renewable energy consumption, CO_2 emissions and oil prices in the G7 countries. *Energy Economics*, 31(3), 456–462.
5. Apergis & Payne (2014). Energy consumption and growth: Panel ARDL *Energy Economics*, 31(3), 456–462.

6. Nkoro, E., & Uko, A. K. (2016). *Autoregressive Distributed Lag (ARDL) cointegration technique: application and interpretation*. Journal of Statistical and Econometric Methods, 5(4), 63–91.
7. Kumar, S., & Choudhary, S. (2021). Energy security and economic development: ARDL analysis in emerging economies. *Energy Policy*, 149, 112017.
8. World Bank (2023). Energy data and analysis. Retrieved from: https://data.worldbank.org
9. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Energetika statistik ko‘rsatkichlari. Retrieved from: https://stat.uz

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF PHILOSOPHICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY IN THE RENEWING UZBEKISTAN

Yuldashev Rustam Daniyorovich
Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD),
Department of Samarkand tamadduni, Faculty of History,
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract. The scientific article describes the role of philosophical education and upbringing in the search for alternative ways of developing society in the context of globalization, its methodological significance for the democratic reform of the education and training system of our country, as well as the need to study the multidimensional connections between its objects and subjects in improving the concept of sustainable development society. Philosophical ideas that have scientific and practical significance are presented.

Keywords: development, stability, instability, philosophical education, philosophical education, development, sustainable development, values, market fundamentalism, goal and principles of sustainable development.

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Yuldashev Rustam Daniyorovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Tarix fakulteti,Samarqand tamadduni kafedrasi
dotsent, falsafa fanlar doktori (PhD)

Annotatsiya. Ilmiy maqolada globallashuv sharoitda jamiyatni rivojlantirishning muqobil yo‘llarini topishda falsafiy tarbiyaning o‘rni, uning mamlakatimiz ta’lim va tarbiya tizimini demokratik tarzda isloh qilishning metodologik ahamiyati, shuningdek jamiyatni barqaror rivojlantirish konsepsiyasini takomillashtirishda, uning ob’ekt va sub’ektlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarning ko‘p o‘lchovli ekanligini tadqiq qilish zarurligi haqida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan falsafiy fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: rivojlanish, barqarorlik, beqarorlik, falsafiy tarbiya, barqaror rivojlanish, qadriyat, bozor fundamentalizmi, barqaror rivojlanishning maqsadi va prinsiplari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N13

Kirish. XXI asr insoniyat tarixi sahnasiga misli ko‘rilmagan va kutilmagan yangi narsa, voqea, hodisa va jarayonlar: moddiy ishlab chiqarish jarayonini sun’iy intellektga asoslangan robototexnologiyalar, nano-texnologiyalarning egallashi; eski texnika va texnologiyalar bilan ishlab chiqarish yetarlicha modernizatsiya qilinmasdan tabiat resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibatida insoniyat ekologik xavf ostida qolayotganligi; rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida bo‘lingan dunyoni qaytadan bo‘lib olish, jahonda yagona yetakchi kuchga aylanish uchun ochiqchasiga kurashni avj oldirayotganligi; odamlarning ongi-shuurini

g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan egallab “manqurt”ga aylantirish uchun ma’naviy-mafkuraviy kurashni raqobat maydoniga aylantirib, ma’naviy qadriyatlarning oyoq-osti qilinayotganligi; ilm-fan sohasining katta va kichik biznes maydoniga aylanish jarayonining tobora chuqurlashib borayotganligi; ularga qarshi kurashuvchi progressiv kuchlarning tizimli ravishda harakat qilmayotganliklarda ko‘rish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, bunday salbiy hodisalar kishilik jamiyatining barqaror rivojlanishiga xalaqit berib jahonda iqtisodiy, ekologik, axloqiy-ma’naviy inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. Qisqa qilib aytganda, bularning barchasini insoniyatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi global xavf deb atash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Bunday global xavf-xatarlar haqida Sh.M.Mirziyoyev: “Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa jiddiy sezilmoqda. Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo‘ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda. Bu global xavflar keng mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelmoqda. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozim.” [1], — degan edi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizni bunday global xavfdan qutqazib, barqaror rivojlanishini ta’minlash asosida Yangi O‘zbekiston orzusi bo‘lgan – Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun nima qilishimiz kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Xo‘sh, barqarorlik va beqarorlik nima? “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da: “Barqarorlik – qaror topgan, qat’iy, uzil-kesil o‘rnashgan, ustuvor, doim birdek turadigan, o‘zgarmas, muqim” [2.], — degan ma’nolarni anglatadi deyilgan. Shunga ko‘ra, barqarorlik – bu biror narsa, hodisa, jarayonning hech qanday o‘zgarish ta’sir etmaydigan, doimo birdek turadigan, tinch, o‘zgarmaslik holatidir. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatiga falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak: “Barqarorlik – olamning nisbiy tinchlik holati, tabiat va jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, moddiy, ma’naviy va ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko‘rsatish imkoniyati”dir. [3.] *Beqarorlik – bu narsa, hodisa, voqea, jarayonlarning bir joyda qo‘nim topmaydigan, ichki va tashqi omillar ta’sirida doimo o‘zgarib turadigan holatidir*. Barqarorlik ham, beqarorlik ham mutlaq xarakterga ega emas. Ular rivojlanishning o‘ziga xos atributlaridan biridir. Rivojlanish – bu tabiat, jamiyat hodisalari va inson tafakkurining bir sifat holatidan ikkinchi, yuqori sifat holatiga o‘tish, o‘sish, yuksalish, taraqqiy etish, ravnaq topishdir. Demak, barqaror rivojlanish nima? Bu savolga iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan D.A.Kotelnikov: “Barqaror rivojlanish bu insoniyatning oldinga qarab intilish modeli bo‘lib, bunda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish va kelajak avlodni bunday imkoniyatdan mahrum bo‘lmasligini ta’minlashdir” [4], V.G.Gorshkov “Barqaror rivojlanish – bu eng avvalo iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanish vazifalarini amalga oshishiga imkon beradigan aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy xavfsizligi ta’minlash zaruriyati” [5], V.Xlobistov: “Barqaror rivojlanish bu milliy ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishga qaratilgan metodologik mo‘ljal» [6], M.Djeykobs: “Barqaror rivojlanish – jamiyat rivojlanishining bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda rivojlanishning atrof-muhitga ta’siri biosferaning iqtisodiy imkoniyatlari doirasida qoladi va insoniyat faoliyatining tabiiy asoslari buzilmaydi” [7], L.S.Griniv: “Barqaror rivojlanish – noosfera konsepsiyasini amalga oshirish orqali ekologik va iqtisodiy tizimning barqaror ishlashini ta’minlashdir” [8], degan ta’riflarni berishgan. Ularning barchasini falsafiy jihatdan

umumlashtirib, soddaroq qilib *barqaror rivojlanish – bu tabiat in'omlaridan ekologik vaziyatga zarar yetkazmasdan, ilm-fan yutuqlari asosida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda tejamkorlik bilan unumli foydalanish, ma'naviy ne'matlarni yaratishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar prinsiplariga mos ravishda insoniyatning porloq kelajagini ko'zlab jamiyatni har tomonlama ravnaq toptirishga qaratilgan faoliyatlar tizimidir,* deb tariflash mumkin.

Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy omillaridan biri (qolaversa, atributi deyish ham mumkin- Yu.R.D.) bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazuvchi ijtimoiy tendensiya sifatida bozor fundamentalizmi shakllangan bo'lib, u rivojlanish borasidagi barcha narsalarni:

a) jahonda o'sib borayotgan ekologik inqirozga qaramasdan asosiy istiqbolli tabiiy resurslarni ayovsiz tarzda ishlatib tugatish;

b) insonning hayoti oliy qadriyat ekanligini, shu jumladan umuminsoniy va milliy madaniyatni ham qadr-qiymatini pastga urish (mensimaslik);

v) davlatlarning suverenitetini tan olmasdan ularning tabiiy boyliklariga ko'z olaytirish;

g) hokimiyatlar almashishi bilan ularning ideallariga xizmat qiluvchi qandaydir bir o'zgacha yangi avlodni «qayta yaratish»ga urinish;

d) "yangi avlod"ni bozor qoidasiga muvofiq xizmat ko'rsatishga asoslangan "ijtimoiy" institutlarda tarbiyalash kabilarni amalga oshirgan holda barcha narsalarni "moddiy boylik" orttirish mezonlari bilan o'lchamoqda.

Bunday sharoitda ijtimoiy rivojlanishning ta'lim va tarbiyaga asoslangan muqobil yo'llarini izlab topish haqli ravishda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan ziddiyat va inqirozlar davrida, undan chiqib ketishning muqobil yo'nalishlaridan biri — bu davlat arboblari va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan jamiyatni barqaror rivojlantirishning ta'lim va tarbiyaga asoslangan konsepsiyasidir [9].

Bunda barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadi: qashshoqlik va ocharchilikni tugatish; aholining sog'ligini saqlash va turmush sharoitini yaxshilash; sifatli ta'lim va tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish; gender tengligiga erishish; toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish; arzon toza energiyaga ega bo'lish; yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy farovonlikka erishish kabilardan iborat.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy prinsiplariga quyidagilar: jamiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ekologik jihatlarini integratsiyalashtirish; har bir mamlakatning o'zida mavjud bo'lgan tabiiy boyliklaridan mustaqil ravishda xalqaro huquq doirasida foydalanish; ilm-fanni o'zlashtirishda avlodlar o'rtasida va avlodlar ichkarisida tenglikka asoslangan uzviylikni ta'minlash; xalqaro shartnomalarni bajarishda yoki ularga qo'shilishda ehtiyot choralarini ko'rish; jamoat ishlarida faol ishtirok etish hamda erkin tarzda axborot olish kabilar kiradi. Umuman olganda, bu prinsiplar qayta-qayta aniqlanib muntazam ravishda to'ldirilib borilaveradi.

Zero, shunday ekan hozirgi davrda Yer sayyorasida barqaror rivojlanish qanday kechmoqda degan savol tug'iladi. Ma'lumki, hozirgi kunda butun insoniyat olami, shu jumladan bizning mamlakatimiz ham ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz domiga duchor bo'lmoqda. Bundan har bir odamni, oilani, jamoani o'z domiga tortayotgan global inqirozlardan faqat texnologik vositalar va usullar (texnik, texnologik, iqtisodiy, boshqaruv va boshqalar) yordamida qutilib bo'lmaydi. Buning uchun odamlarning milliy mentalitetini, ularning g'oyaviy va aksseologik

hayotiy majburiyatlarini o‘zgartirish kerak. Bu vazifani bajarish barcha faylasuflarning nafaqat butun jamiyatni global doirada moslashtirish, balki alohida mamlakat, ijtimoiy qatlam va guruhlarni, asosan o‘sib kelayotgan yosh avlodlarni ham qamrab oladigan tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Jamiyatni barqaror rivojlantirishda, uning tarkibiy qismi sifatida ta’lim va tarbiya sohasi katta rol o‘ynaydi, chunki aynan ta’lim va tarbiya insonning ilmiy-amaliy qobiliyatlarini rivojlanishi borasida ijtimoiy maqsadlarni ko‘zlagan holda moddiy, ma’naviy, tashkiliy sharoitlarni yaratish, uni hozirgi globallashayotgan davr hayotiga tayyorlash uchun javobgar hisoblanadi. Uzluksiz falsafiy ta’lim va tarbiyaning hosilasi sifatida qaror topgan davlat va jamiyat arboblari rahbarlik qiladigan davlatning xalqchil boshqaruv apparati siyosat, iqtisod, moliya, mafkura, ta’lim va tarbiya, ijtimoiy va tabiiy fanlar, madaniyat, axborot va kommunikatsiyalarning barcha muhim masalalari bo‘yicha to‘g‘ri xalqchil qarorlar qabul qila olish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Zero, shunday ekan har qanday sharoitda ham to‘g‘ri qabul qilingan qarorlar va uning ijrosi kelajakda yangicha bir “xalq manfaatlari hamma narsadan ulug‘ bo‘lgan”[10.] “ijtimoiy, huquqiy, suveren, demokratik, dunyoviy davlat”ni[11.] qurish uchun poydevor vazifasini o‘tashi, shubhasizdir.

Shu munosabat bilan ta’lim va tarbiya jarayonini jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida o‘rganish juda dolzarb hisoblanadi, chunki aynan ta’lim va tarbiya jamiyatning turli darajadagi sohalarini moslashtiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, yangi a’zolarini o‘qitish va tarbiyalash orqali ularning dunyoqarashini o‘zgartiradi, qanday madaniyat sohibi bo‘lishi kerakligini belgilab berishga xizmat qiladi. Ayni paytda, shu orqali jamiyatni ijtimoiy rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantiradigan va amalga oshiradigan bilimlar bilan qurollantiradi. Bularning barchasi ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish zaruriyatidan kelib chiqqan holda jamiyat barqaror rivojlanishini ta’minlashning yangicha falsafiy modelini yaratishga asos bo‘ladi. Bu esa ta’lim va tarbiya haqidagi konseptual g‘oyalarni chuqur o‘rganishni, jamiyatning global miqyosda ham, mamlakat miqyosda ham ijtimoiy falsafiy mazmunga ega bo‘lgan barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

Falsafiy ta’lim va tarbiya zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, bu esa o‘z navbatida shu sohani rivojlantirish uchun yangidan yangi konsepsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda falsafiy ta’lim va tarbiya garchand ta’lim va tarbiya muammolarini o‘rganish uchun yetarli, samarali nazariy va uslubiy asos bo‘lishiga qaramasdan, yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilayotgani yo‘q. Falsafiy ta’lim va tarbiyaning nazariy va amaliy fan sifatidagi uslubiy funksiyasi ta’lim va tarbiya muammolarini tahlil qilish bilan bog‘liq holda, u shaxsni ijtimoiylashtiruvchi omil sifatida ilmiy bilishning umumiy tamoyillari va usullari tizimini ishlab chiqishida o‘zini namoyon qilib boraveradi.

Zero, shunday ekan bizning fikrimizcha *falsafiy ta’lim* — bu kishilarda zamonaviy ta’lim jarayonlarining eng umumiy va muhim qonuniyatlari va bog‘liqliklaridan kelib chiqqan holda tabiat, jamiyat va inson borlig‘ining turli sohalarida (iqtisodiy, siyosiy, texnologik, pedagogik, psixologik, axloqiy)gi o‘zgarishlar haqida muayyan bir falsafiy fikrlash tarzini shakllantiradigan ilmiy-amaliy bilimlar tizimi bo‘lsa, *falsafiy tarbiya — e*sa bu insoniyat yaratgan barcha moddiy va ma’naviy qadriyat maqomiga ega narsalarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda odob-axloq, xislat va fazilatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmuidir.

Falsafiy ta’limdan asosiy maqsad: birinchidan, insoniyatning umumiy muammolari fonida ta’lim haqiqatini (borliqni) tahlil qilishdan; ikkinchidan, falsafiy ta’lim va boshqa ta’lim nazariyasi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishdan; uchinchidan, ta’lim munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning maqsadlari, vositalar, ideallar, ijtimoiy funksiyalar va boshqalarni ajrata bilishdan iborat.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan demokratik islohotlar sharoitida ta’lim jarayoni sohasida yuzaga kelayotgan ta’lim muammolarini falsafiy jihatdan butun ta’lim sohasini umumiy kontekst (lotincha contextus-qo‘shilish, ulanish, bog‘lanish)ida o‘rganib, undagi afzallik va kamchilliklarni ajrata bilish kerak. Falsafiy ta’lim sohasida olib boriladigan tadqiqotlarning afzalligi — ta’lim muammolarini umumiy tarzda tahlil qilish imkoniyati, ya’ni uning praksiologik, aksiologik va boshqa jihatlarini hisobga olgan keng qamrovliligi bilan belgilansa, kamchilligi esa jamiyatda yuzaga kelgan muammolar qatori, ta’lim sohasida o‘z yechimini kutayotgan muammolarni “xiralashish” darajasiga tushirib qo‘yishi ham mumkin. Chunki, bunda bo‘lgan voqelik va yuklangan ijtimoiy majburiyatlar tufayli ko‘pincha ta’lim tizimining texnologik masalalarini o‘rganishga ustunlik berilgan bo‘ladi.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim va tarbiya tizimini demokratik tarzda isloh qilish masalasi ta’lim va tarbiya jarayonining murakkab va ko‘p qirrali muammolari yuzasidan fanlararo tadqiqotlarni olib borishni talab qiladi. Bunda, birinchi navbatda bu tizimni ijtimoiy falsafa metodologiyasi asosida tahlil va tavsif qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday metodologiya turli jihatlarga ega bo‘lgan ta’lim va tarbiya muammolarini kompleks (lotincha complexus- aloqa, bog‘lanish, qo‘shib, qamrab olish), ya’ni sotsiologik, psixologik, pedagogik va boshqalar jihatidan har tomonlama o‘rganish uchun zarurdir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ta’lim va tarbiyaning pedagogik jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, biroq uning falsafiy, sotsiologik, psixologik jihatlari hali yetarli darajada o‘rganilganicha yo‘q.

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayoni ta’lim va tarbiya jarayonini chetlab o‘tmasligi hammaga ma’lum. Chunki u mavjud bo‘lgan ta’lim va tarbiya tizimini yangi mazmun bilan to‘ldiradi. Bu esa, o‘z navbatida, maxsus falsafiy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Bular jumlasiga ta’lim va tarbiya jarayonida uning obyekti va subyetlari o‘rtasidagi muloqotlar tizimini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ta’lim va tarbiyada ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi muloqotning izchil uzluksiz tarzda tarixiy ma’naviy yoki moddiy meros shaklida kechishi ko‘zlangan maqsadga erishishni ta’minlasa, undan voz kechish esa ta’lim va tarbiya tizimining izdan chiqishiga, axloqsiz bir shaklda namoyon bo‘lib milliy qadriyatlarning oyoq-osti bo‘lishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz va xorijiy adabiyotlarda ta’lim sohasining jamiyatning ijtimoiy rivojlanishdagi, inson va tabiatning o‘zaro bog‘lanishlarini ochib berishdagi o‘rnini aniqlash masalasida turli xil fikrlar mavjud. Masalan, B.Ziyamuhamedov: “Ta’lim – bilimni ma’lum bir tartibda berish va uni olish jarayoni” [12.], L.Yu.Nikolaeva: “Ta’lim – organik predmet–tizimni shakllantirish va modernizatsiyalash jarayonidir” [13.], degan fikrni bayon qilganlar. Yuqorida bildirilgan fikrlar jamiyatning barqaror rivojlanishi konsepsiyasidan qat’i nazar, ijtimoiy jarayon sifatida ta’lim g‘oyasi bilan ifodalangan bo‘ladi.

Barqaror rivojlanishning mohiyati, shart-sharoitlari va mumkin bo‘lgan ssenariylarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va konsepsiyalar ilgari surilgan bo‘lib, ularning barchasida birinchidan, ushbu konsepsiyalarning nazariy kelib chiqishi, xususan, undagi falsafiy, sotsiologik va tabiiy fan g‘oyalarining barqaror rivojlanish

yo‘nalishlarini o‘zgartirish xususiyatlari ochib berishga [14]; ikkinchidan, barqaror rivojlanish g‘oyalariga biron bir tarixiy jarayon sharoitida ma’lum bir izchillikni berishga[15]; uchinchidan, barqaror rivojlanish mezonlariga muvofiq inson faoliyatining turli sohalarini – fan, ta’lim, iqtisodiyot, texnologiya va boshqalarni o‘zgartirishning uslubiy masalalari tadqiq qilishga qaratilganligini ko‘rish mumkin [16].

Aslini olganda, jahonda ta’lim va tarbiya sohasini, barqaror rivojlanish konsepsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab salmoqli ishlar amalga oshirilganligiga qaramay, hozirgi kunga mamlakatimizda tub demokratik islohotlar olib borilayotgan bir vaqtda jamiyatimizning barqaror rivojlanishini ta’minlash omillaridan biri bo‘lgan ta’lim va tarbiya masalasi falsafiy jihatdan tizimli ravishda yetarlicha tarzda tadqiq qilish yo‘lga qo‘yilganicha yo‘q. Yangi O‘zbekiston orzusini bu ishni yo‘lga qo‘ymasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Bizning fikrimizcha, mazkur muammoni o‘rganishda umumiy tarzda ijtimoiy falsafa metodologiyasidan, xususiy tarzda esa shuningdek, ta’lim falsafasi metodologiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, ta’lim falsafasi tarbiya jarayonlarini dialektik yoki sinergetik tarzda tushunish uchun uslubiy maslakdoshidir. Ta’lim falsafasi — bu ta’lim va tarbiya haqidagi bilimlarni falsafiy konsepsiya shakliga keltirib, tarbiya bilan aloqador bo‘lgan barcha bilimlarni konseptual, umumlashtirilgan shaklda birlashtirish imkonini beradi. Ta’lim falsafasi fanlar o‘rtasidagi bir soha sifatida tarbiyani jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash omili sifatida yaxlit tahlil qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, bunda qiyosiy tahlil uslubiyotining elementlari, tizimli va fanlararo yondashuvlaridan foydalanishni hisobga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil bizga jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash omili sifatida ta’lim va tarbiyaning umumiy fazoviy hamda vaqtinchalik asoslarini o‘rganishga, shu bilan birga alohida davrlar va mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Tizimli yondashuv ta’lim va tarbiyaning tizimli xususiyatini subyektiv omillar bilan birlikda inson mavjudligining obyektiv sharoitlari vaqtida barqarorlikni ta’minlash omili sifatida aniqlashga, ushbu sohadagi inson harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Fanlararo yondashuvdan foydalanish zarurati tadqiqotda ijtimoiy va siyosiy falsafa, pedagogika, ta’lim falsafasi, kibernetik epistemologiya, tabiat falsafasi va boshqalar chorrahasida bir qator masalalar o‘rganilganligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bayon qilingan barcha fikrlarni xulosalab, shuni aytish mumkinki, falsafiy ta’lim va tarbiyaga xos bo‘lgan barcha xususiyatlar jamiyatni barqaror rivojlantirishda ilmiy-amaliy jihatdan metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun esa birinchi navbatda, falsafa va ta’lim-tarbiya sohasida jahon mutafakkirlari qoldirgan ma’naviy merosdan dialektik tarzda unumli foydalanib falsafiy ta’lim va tarbiya berishning metodologik asosi bo‘lgan “Ta’lim falsafasi” va “Tarbiya falsafasi” nomli ilmiy tadqiqotlar dasturini yaratib, olingan natijalar asosida monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa ilmiy-amaliy ishlanmalarni yaratish va hayotga tatbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev yozganidek: “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma’rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Eng katta boylik – bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasidagi (SOP28) nutqi. 01.12.2023.// https://president.uz/uz/lists/view/6897
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.I. – T.:” O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,2006. – B.173.
3. Nazarov Qiyom. Jahon falsafasi qomusi.1-kitob. – T.:” O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati"nashri”ti,2023. –B.146.
4. Котельников, Д.А. Интеграция России в процесс достижения устойчивого развития: анализ проблем и перспектив // Потенциал и перспектива современной науки: материалы III Всероссийской научно-практической конференции (19 января 2016). – Геленджик: Кубанский гос. ун-т, 2016. – С. 105-113.
5. Горшков В. Г. Физические и биологические основы устойчивости жизни / В. Г. Горшков. – М. : ВИНИТИ, 1995. – 256 с.
6. Хлобистов Є. В. Екологічна безпека трансформаційної економіки / Є. В. Хлобистов. – К. : Чорнобильінтерінформ, 2004. – 336 с
7. Jacobs M. Sustainable Development: Greening the Economy/ Fabian Society. 1990.
8. Гринив Л. С. Концептуальні засади просторової парадигми екологічно збалансованої економіки / Л. С. Гринів // Регіональна економіка. — 2001. — № 4. — С. 54–63.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 20-oktyabrda “2030-yilgacha bulgan davrda barkaror rivojlanish sohasidagi milliy maksad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari tugrisida”gi 841-sonli karori//Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri.- Toshkent:” O‘zbekiston” nashriyoti,2022. – B.25.
11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent:”O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.- B.5.
12. Ziyamuhamedov B. Pedagogika. –T.: “TAMADDUN”, 2014 – B.100.
13. Николаева Л.Ю. Философия образования. Часть 1. Учебное пособие – М.: Мир науки, 2014. – С.17,38.
14. Казначеев В. П. Проблемы живого вещества и интеллекта: этюды к теории и практике медицины III тысячелетия // Вестник МИКА. – 1995. – Вып. 2. – С. 9–20. 35. Урсул А. Д. Устойчивое развитие цивилизации и ноосферно-экологическое образование // Ноогенез и образование. Построение ноосферной школы: тезисы межрегиональной конференции (23–26 марта 1995 г.). – Красноярск, 1995.
15. Кудашов В. И., Кудашова И. В. Социальные функции образования в ситуации его кризиса // Байкальский психологический и педагогический журнал. – 2005. – № 1–2 (5–6). – С. 39–48
16. Мантатов В. В. Устойчивое развитие: прогресс нравственных задач // Наука и образование в интересах устойчивого развития. – 2006.- С-55-56., Бобров В. В. Социальное развитие: сущность, условия и критерии устойчивости. – Новосибирск, 2005. – 230 с.
17. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri.- Toshkent:” O‘zbekiston” nashriyoti,2022. – B.23.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

ENVIRONMENTAL EDUCATION AND ECOLOGICAL AWARENESS: THE ROAD TO A SUSTAINABLE FUTURE

Adilov Zafar Yunusovich
Head of the Department of "General Professional Sciences" of Mamun University,
Doctor of Philosophy in Philosophy

Abstract. This article examines the causes and consequences of environmental problems and their manifestations in both local and global contexts. It emphasizes the vital role of environmental education in fostering ecological awareness and literacy. The study discusses how environmental education helps individuals adopt ecocentric values, promote positive behavioral changes, and make informed decisions to address environmental crises.

Keywords: ecological awareness, environmental education, sustainable development, environmental problems, environmental literacy.

ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L

Adilov Zafar Yunusovich
Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
E-mail: adilovzafar@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada atrof-muhit muammolarining sabablari va oqibatlari hamda ularning mahalliy va global kontekstda namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Ekologik ong va savodxonlikni shakllantirishda atrof-muhit ta'limining muhim roli alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotda ekologik ta'lim orqali shaxslar ekosentrik qadriyatlarni qabul qilishi, ijobiy xulq-atvor o'zgarishlarini rivojlantirishi va ekologik inqirozlarga qarshi ongli qaror qabul qilishi mumkinligi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ekologik ong, atrof-muhit ta'limi, barqaror rivojlanish, atrof-muhit muammolari, ekologik savodxonlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N14

Kirish. Atrof-muhit muammolarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va odamlar tomonidan qanday qabul qilinishi-vaqt, makon va madaniyatga bog'liq holda o'zgarib boradi. Bu holat esa, turli geografik hududlarda yashovchi jamiyatlarning ijtimoiy-madaniy tafovutlari, ilmiy, axloqiy, iqtisodiy va madaniy normalari bilan bog'liq holda ekologik tahdidlarni turlicha darajada qabul qilishlariga va ularni har xil yondashuvlar orqali baholashlariga olib keladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, global ekologik tahdidlar hech bir millat, din, irq yoki davlatni ajratmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Dunyoning turli mintaqalarida ekologik muammolar har xil shakl va dinamikaga ega. Ba'zilar sabab-oqibat aloqasida vujudga kelgan bo'lsa, ayrimlari tashqi omillardan mustaqil holda, kutilmaganda yuzaga kelishi mumkin. Bugungi kunda keng tarqalgan atrof-muhit muammolariga quyidagilar kiradi: ifloslanish, eroziya, qurg'oqchilik,

o‘rmonlarning yo‘qolishi, cho‘llanish, kislota yomg‘irlari, flora va faunaning kamayishi, global isish, iqlim o‘zgarishi hamda chiqindilarni boshqarish. Ushbu muammolar, aholi soni, ta’lim darajasi, geografik joylashuv, iqlim, o‘simlik qoplami, tabiiy resurslar, sanoat va qishloq xo‘jaligi faoliyatlari, energiya siyosati va har bir mamlakatning atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatidan ta’sirlanadi. Qadimgi davrlardagi ekologik muammolar bugungi kunda duch kelinayotganlardan farq qiladi. Aholining keskin ko‘payishi va bular bilan bog‘liq bo‘lgan beqaror iste’mol modeli tabiiy resurslarning tugab ketish xavfini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biridir.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, agar aholini nazoratga olmasa, ishlab chiqarish jarayonlari barqarorlik tamoyillariga asoslanmasa, iste’mol odatlari o‘zgartirilmasa va ekologik iz kamaytirilmasa-mavjud tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish mumkin bo‘lmaydi. Muqobil manbalarni aniqlay olmaslik va aholining ehtiyojlarini ta’minlay olmaslik ekologik muammolar, oziqlanish va sog‘liq bilan bog‘liq jiddiy inqirozlarga olib keladi. Ekologik muammolarning ildizi insonning tabiat bilan noto‘g‘ri munosabatida yotadi. Bu esa insonning dunyo va tabiatga nisbatan noto‘g‘ri qarashlaridan kelib chiqadi. Shunday ekan, ekologik muammolarni hal qilishda insonlarning tabiatga, hayotga va qadriyat va e’tiqodlarga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirish zarur.

Bugungi eng jiddiy ekologik muammolar bevosita inson faoliyati oqibatida yuzaga kelmoqda. Masalan, fosil yoqilg‘i ishlatilishi atmosferadagi karbon darajasining ortishiga olib kelib, global iqlim o‘zgarishini keltirib chiqarmoqda. Bu holat ekotizimlar, aholi soni, infratuzilma va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tabiiy muvozanatni tashkil etuvchi zanjirning biror bo‘g‘ini uzilsa, butun zanjir izdan chiqadi va ekologik inqirozga sabab bo‘ladi. Bunday muammolarga: o‘rmonlarning qisqarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, cho‘llanish, ozon qatlamining yemirilishi, zaharli chiqindilar, iqlim o‘zgarishi va aholi sonining o‘sishi kiradi. Aholi soni, ishlab chiqarish bosimi va iste’molning beqarorligi global ekologik muammolarni milliy muammolardan ajratib turadi.

OECD ma’lumotlariga ko‘ra, inson faoliyatlari orqali yuzaga kelgan issiqxona gazlari iqlim tizimining buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa ekotizimlar, suv resurslari, inson salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, issiq havo hodisalari to‘g‘risida ko‘payib, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarmoqda. Tabiiy yashash joylarining qishloq xo‘jaligi yerlariga aylanishi quruqlikdagi biologik xilma-xillikni kamaytirgan, haddan tashqari ovlanish esa dengiz hayotiga tahdid solmoqda.

Ko‘plab global muammolar sabab bo‘layotgan global isish, iqlim o‘zgarishi, muzliklarning erishi, o‘simlik qoplamining o‘zgarishi, kuchli yomg‘irchilik yoki qurg‘oqchiliklar endilikda mahalliy muammo bo‘lib qolmay, balki global tahdidga aylangan. Bu esa, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni zarur qiladi. Butun insoniyat uchun yashashga yaroqli kelajakni ta’minlash-har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Shu bois, odamlar ekologiyani himoya qilishda yanada mas’uliyatli bo‘lishlari, qisqa muddatli manfaatlar yo‘lida tabiatga zarar yetkazishdan tiyilishlari zarur.

Atrof-muhit jadallashib borar ekan, iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, turlarning yo‘qolishi, havo, suv va tuproqning ifloslanishi kabi ekologik muammolarning sabablari va oqibatlarini tushunish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli biologik, fizik, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlar konva vaqt doirasida o‘zaro ta’sirda bo‘lib, atrof-muhitni shakllantiradi. Ana shu omillarni maqsadli guruhlarga mos metodlar orqali anglash,

tushuntirish va ushbu yo‘nalishdagi muammolarni hal etish atrof-muhit ta’limining asosiy mas’uliyatlaridan biridir [1].

Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi insonning tabiatga doimiy aralashuvini kuchaytirib, insoniyat kelajagini xavf ostiga qo‘ymoqda. Qonuniy choralar va jazolar joriy qilingan bo‘lsa-da, ekologik muammolarni bartaraf etishdagi kutilgan natijalarga erishish oson emas. Bu muammolarni samarali hal etish uchun insonlarning atrof-muhitga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirish zarurdir. Faqat shunday o‘zgarishlargina kelajak uchun samarali yechimlar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, insonlarning ekologik qarashlarini shakllantirishning eng samarali vositasi – bu atrof-muhit ta’limidir.

Atrof-muhit ta’limi orqali ekologik ongga ega bo‘lgan shaxslar ekologik muammolarni oldini olishda faol va samarali rol o‘ynay oladilar. Ular muammolarning asl sabablarini tushunib, barqaror hayot uchun ekosentrik (eko-markazli) yondashuvning ahamiyatini anglaydilar [2,21].

Atrof-muhit ta’limi orqali inson markazidan ko‘ra tabiatga ko‘proq qiymat beradigan shaxslarni tarbiyalash zarurligiga ta’kidlanmoqda. Bu yondashuv tabiat va ekotizimlar inson ehtiyojlariga xizmat qiladigan obyektlar emas, balki o‘zining ichki qadriyatlariga ega mavjudotlar sifatida qadrlanishi kerakligini ilgari suradi. Ekosentrizm tabiat va barcha tirik mavjudotlarni o‘z-o‘zidan qadrli deb biladi va inson manfaatlari tabiat muvozanati va ekotizim barqarorligidan ustun bo‘lishi kerak emasligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni qayta aniqlash hamda tabiatni faqat inson uchun emas, balki u o‘zi uchun ham asrash zarurligini ko‘rsatadi. Insoniyatning muvozanat va mamnuniyatga erishmasdan texnologik rivojlanish ortidan quvishi – yashash joylarining torayishi, resurslarning kamayishi, tabiiy muvozanatning buzilishi va boshqa turli yo‘qolishiga sabab bo‘ldi. Bunga qarshi ekologik masalalarga e’tibor qaratgan mamlakatlar jamiyatni xabardor qilish, ijobiy va barqaror xulq-atvor o‘zgarishlarini rag‘batlantirish hamda ijtimoiy muammolar yechimida ishtirokni kuchaytirish maqsadida atrof-muhit ta’limi bo‘yicha dasturlarni boshlab yubordilar.

Atrof-muhit ta’limi bu – atrof-muhit haqidagi bilim, ijobiy va barqaror xatti-harakatlar, qadriyatlar, shaxs va jamiyatni ekologik muammolarni anglash va hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, tajriba va qat’iyat bilan qurollantirish jarayonidir. Keng ma’noda, bu ta’lim inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni tushunishga qaratilgan bo‘lib, to‘g‘ri munosabat shakllantirishni ko‘zlaydi. Atrof-muhitni asrash, tabiat boshqaruvi, ekologik xavfsizlik, shaxsiy o‘zgarishlar, mustaqil o‘rganish, ekologik savodxonlik, shuningdek, inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir doiralarini ham o‘z ichiga oladi [3,102].

Atrof-muhit ta’limining asosiy maqsadi-shaxslarni tabiat haqida xabardor qilish, inson faoliyatining salbiy ta’sirlarini tushuntirish va kerakli xatti-harakatlarni shakllantirishdir. Bu jarayon kognitiv (bilim), hissiy va amaliy malakalarni o‘z ichiga oladi. Ana shu nuqtada, atrof-muhit ta’limi insonlarga tabiatni to‘la anglash, salbiy oqibatlarni tan olish va mos ijobiy xatti-harakatlar ko‘rsatishda yordam berishi mumkinligi ta’kidlanadi. Hozirgi va kelajakdagi ekologik muammolarni hal qilish faqat inson va tabiat tizimlarining o‘zaro bog‘liqligini tushunadigan, ta’limli aholining shakllanishi bilan mumkin bo‘ladi. Bu muammolarning yechimi ekologik tafakkur, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish salohiyati va ongli qarorlar qabul qilishni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim faoliyatlarini talab qiladi [4].

Ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlarning jadalligi, global ekologik inqirozlar, xomashyo ehtiyojining ortishi va sog‘liq muammolari – atrof-muhit va tabiat tushunchalarining dolzarbligini oshirgan. Bu sharoitda ta’lim tizimi kelajak avlodni zamonaviy murakkabliklarga bardosh bera oladigan bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish shart. Ekologik savodxonlikka ega bo‘lishni shakllantirishning birinchi qadam bu-jamiyatni atrof-muhitni muhofaza qilish zarurligi haqida xabardor qilish va befarqlikning oqibatlarini ko‘rsatishdir. Atrof-muhit ta’limi shaxslar va guruhlarning tabiiy hayot tizimlarini, ularning inson faoliyatidan qanday ta’sirlanishini anglashga yordam beruvchi ta’lim yondashuvidir. Bu o‘z navbatida, tabiatga nisbatan mas’uliyatli bo‘lish, muhofaza qiluvchi harakatlarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Atrof-muhit ta’limi o‘quvchilarni mavjud va kelajakdagi ekologik muammolarga javobgar bo‘lish, yetakchilik, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ongni rivojlantirish, shuningdek, muammoni hal qilish malakalari bilan qurollantirishga qaratilgan. Bu hayot davomida davom etadigan ta’lim turidir. O‘quvchini atrof-muhit bilan bog‘lanish, tushunish, bilim olish va keyingi integratsiya tizimlarini anglashga tayyorlaydi. [5]. Shuningdek, bu ta’lim ekologik muammolar haqida bilimga ega, ularning yechimini tushunadigan va harakat qilishga tayyor shaxslarni shakllantirishni maqsad qiladi. Asosiy e’tibor- shaxslarda ekologik ongni shakllantirish va bu orqali ekologik sezuvchanlik hamda barqaror rivojlanishga sadoqatni kuchaytirishdir. Bu sezuvchanlik muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni yuzaga keltiradi.

Ekologik ta’lim barqarorlikka erishish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va ongni kelajak avlodga yetkazish vositasidir. Mavjud ekologik muammolar esa yanada kuchli ekologik sa’y-harakatlarni talab qilmoqda. Ta’lim muassasalari, mahalliy hokimiyatlar, NNTlar va korxonalar ekologik ta’limni samarali qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli barcha ishtirokchilar umumiy maqsad - barqarorlik sari harakat qilishlari zarur. Qisqa va uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishda ekologik ta’lim kuchli vositadir. U axborot olish, ko‘nikmalarni rivojlantirish, munosabatlarni shakllantirish va harakat qilish jarayonlarini rag‘batlantiradi. U shaxsga o‘rganishni davom ettirish va ekologik mas’uliyatli fuqaro bo‘lish rolini qabul qilish uchun zarur motivatsiyani beradi. [6].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ekologik ta’lim – kelajak avlodga zarar ko‘rgan tabiatni emas, balki yashashga yaroqli muhitni qoldirish vositasidir. Shu sababli har bir fuqaro o‘z yashash joyidan boshlab butun Yer yuzida mavjud bo‘lgan ekologik muammolar haqida xabardor qilinishi zarur. Barqaror rivojlanish va avlodlararo adolatni ustuvor qilgan shaxslar ekologik mas’uliyatli xatti-harakatlar namoyon etish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu xatti-harakatlar ekologik ta’lim, bilim, sezuvchanlik, qadriyatlar, tajriba va motivatsiyadan kuch oladi. Kelajak avlodga sog‘lom muhit qoldirish uchun ekologik ong, xabardorlik, ijobiy munosabat va ekologik xatti-harakatlar ta’lim orqali shakllanishi shart. Shuning uchun ekologik ta’lim va ekologik faoliyatlar shaxsiy ongni shakllantirishda muhim boshlang‘ich nuqtadir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. UNEP International Environmental Education Programme Environmental Education Series 19. Retrieved from https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223
2. Karataş, A. (2018). Çevreeğitiminintarihselkökenleri. R. Sever ve E. Yalçınkaya (Eds). *ÇevreEğitimi*içinde (ss.21-35). PegemAkademi.

3. National Environmental Education Advisory Council [NEEAC]. (2015). 2015 Report to the U.S. Environmental Protection Agency Administrator.
4. North American Association for Environmental Education [NAAEE]. (2022). Environmental Education Programs: Guidelines for Excellence. Retrieved from https://eepro.naaee.org/guideprograms
5. Durmuş, E., Dölek, İ. &Kuruyer, D. (2021). Views on disasters and biologic disasters during Covid-19. *International Journal of Geography and Geography Education(IGGE),* 44, 338-358. https://doi.org/10.32003/igge.874704

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

FORMATION OF THE NORMS OF SOCIAL JUSTICE AND THE RULE OF LAW

Berdikulova Surayyo Aslamovna,
Associate Professor
National University of Uzbekistan

Abstract. This article explores the historical and philosophical roots of the concepts of social justice and the rule of law, as well as their significance and role in building a democratic society. In particular, it highlights the rule of law as a fundamental principle of the legal state concept and social justice as a guarantee of equality, freedom, and human rights. The paper also analyzes the constitutional reforms being implemented in Uzbekistan, efforts to build a civil society, and the political-legal mechanisms aimed at ensuring the supremacy of the law.

Keywords: social justice, rule of law, legal state, equality, human rights, civil society, constitutional reforms, democratic principles.

IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI

Berdikulova Surayyo Aslamovna
dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti
E-mail: s.berdikulova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi tushunchalarining tarixiy-falsafiy ildizlari, ularning demokratik jamiyat qurilishidagi o'rni va ahamiyati, xususan, qonun ustuvorligining huquqiy davlat konsepsiyasidagi asosiy tamoyil sifatida qaralishi, ijtimoiy adolatning esa tenglik, erkinlik va inson huquqlarining kafolati sifatidagi roli ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi sa'y-harakatlar va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan siyosiy-huquqiy mexanizmlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat, tenglik, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, konstitutsiyaviy islohotlar, demokratik tamoyillar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N15

KIRISH

Demokratik jamiyatning asosiy tayanchlaridan biri sifatida ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy adolat tushunchasi qadimdan jamiyatdagi tenglik, insoniylik va huquqiy barqarorlik tamoyillarining ifodasi bo'lib kelgan. Qonun ustuvorligi esa huquqiy davlat qurilishi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash, davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida ushbu me'yorlar davlat boshqaruvining zamonaviy paradigmasi sifatida nafaqat g'oyaviy-ma'naviy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Ushbu maqolada ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligining shakllanishi, ularning huquqiy davlat konsepsiyasidagi o'rni, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XXI asrning dastlabki o‘n yilliklariga kelib, O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi va bu “Yangi O‘zbekiston” deb nomlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston — bu davlat faoliyati, avvalo, xalq tinchligi va farovonligini ta’minlashga, jamiyatda adolat g‘oyalari va tamoyillarining tantana qilishiga qaratilgan mamlakatdir”. Ushbu strategiya doirasida ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati tamoyillarining mustahkamlanishi davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishga aylandi.

Ushbu ikki tushuncha — ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi me’yorlari — hammasi inson qadri**,** sha’ni va erkinligini ta’minlash maqsadida shakllanadi. Ular insonning tabiiy huquqlari va ma’naviy ongini himoya qilish, jamiyatda muvozanatni ta’minlash, fuqarolarning davlat bilan munosabatini ma’naviy-axloqiy asosga solish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy adolat – mazmun, qonun ustuvorligi – shakl, fuqarolik jamiyati – amalni ifodalaydi**.** Ijtimoiy adolat o‘z navbatida jamiyatdagi munosabatlarda tenglik**,** insof, va haqiqat mezonini belgilaydi. Bu jamiyatning axloqiy yo‘nalishi bo‘lsa, qonun ustuvorligi – adolatni ta’minlashning institutsional va huquqiy mexanizmidir hamda u davlat tomonidan kafolatlangan rasmiy shakl hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati esa ijtimoiy adolat va qonunning amaliy tatbiq doirasi, ya’ni xalqning o‘z huquqini mustaqil, faol va mas’ul tarzda amalga oshirishini anglatadi. Demak, bu uchala tushuncha har tomonlama bir-birini to‘ldiradi, ya’ni qonunlar adolatsiz bo‘lsa, fuqarolik jamiyati noto‘g‘ri shakllanadi, adolat bo‘lmasa, fuqarolarning faolligi pasaydi hamda fuqarolik jamiyati kuchsiz bo‘lsa, adolat mexanizmi so‘nggi o‘ringa aylanadi.

Bu tushunchalarda falsafiy uzviylik va o‘zaro aloqadorlik mavjud. Fuqarolik jamiyati – mamlakatdagi umumiy aql (universal reason) ifodasi. Unda qonunlar “inson aqlining ifodasi” sifatida adolatni amalga oshiradi. “Qonun – bu reallashgan axloqdir”[1], — degan edi nemis mutafakkiri. Fazilatli jamiyatda “podshoh” qonunlar orqali adolatni amalga oshiradi va fuqarolar esa axloqiy yetuklik asosida faol harakat qiladi. “Agar qonun ma’rifatga asoslanmasa, undan adolat kutish mumkin emas”[2].

Yuqoridagi tushunchalaring eng muhim uzviy jihatlari ma’naviy-axloqiy, institutsional va faol fuqarolik pozitsiyasi orqali bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi, ya’ni adolat, qonun va faollik shaxs ongida ma’naviy birlikda yuzaga chiqadi. Davlat, fuqarolik jamiyati va qonunlar o‘zaro tizim sifatida harakat qiladi. Masalan, korrupsiyaga qarshi qonunlar (qonun) – jamoatchilik nazorati (faollik) – jamiyatda adolatli muhit (mazmun) hamda fuqaro o‘z huquqini bilishi va qonunga suyanish orqali adolatni ta’minlaydi.

Ijtimoiy adolat falsafiy nuqtai nazardan jamiyatning ichki muvozanatini ta’minlovchi va inson qadrini asos sifatida e’tirof etuvchi konsepsiyadir. Aristotel o‘zining “Nikomax axloqi” asarida adolatni “umumiy fazilat” deb ta’riflagan[3]. Ya’ni, ijtimoiy adolat degani – davlat va jamiyatning barcha tizimlarida insonga teng imkoniyat yaratilishi demakdir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun amalga oshirilayotgan choralar orasida kambag‘allikni qisqartirish, ish o‘rinlari yaratish, ta’lim va tibbiyot sohalarida tenglikni ta’minlash kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda Prezident Mirziyoyev 2023 yilgi Murojaatnomasida shunday degan edi: “Aholimiz bizdan maktab, bog‘cha va shifoxonalarni ko‘paytirish, ta’lim va tibbiyot sifatini oshirishni, mahallada yo‘l, suv, elektr, transport muammolarini hal qilishni, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, tadbirkorlikka yangi imkoniyatlar yaratishni, adolatni ta’minlash, ovoragarchilik, byurokratiya va korrupsiyani yo‘q qilishni kutmoqda”[4]. Ijtimoiy adolat — jamiyatda insonlar o‘rtasidagi tenglik, huquqlar,

imkoniyatlar va resurslarning adolatli taqsimlanishiga asoslangan, insoniy munosabatlar va ijtimoiy tizimlarning ma’naviy-axloqiy asosidir. “Adolat — bu har bir insonga u munosib bo‘lgan narsani berishdir”[5]. Uning ta’limotida adolat “taqsimlovchi” (distributive) va “tenglashtiruvchi” (corrective) shakllarda tushuntiriladi. Bu, ijtimoiy munosabatlarda ham moddiy, ham ma’naviy manfaatlarni mutanosib taqsimlash zarurligini ko‘rsatadi.

Kant uchun adolatning asosi — erkinlik va insoniy qadriyatdir. Uning “kategorik imperativ” tushunchasi ijtimoiy adolatni universal qonunlarga asoslangan axloqiy majburiyat sifatida talqin qiladi. “Har qanday insonni hech qachon faqat vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida ham ko‘r”[6]. Rolzning “Adolat – tenglik asosidagi adolat” konsepsiyasida jamiyatdagi eng kam ta’minlangan qatlamlarga foyda beradigan siyosat va tartiblar “adolatli” deb hisoblanadi. “Adolat — bu tuzilmaning birinchi fazilatidir[7]”.

Sharq falsafasi inson va jamiyat munosabatlarini moddiy emas, balki ma’naviy, axloqiy va metafizik qadriyatlar asosida izohlaydi. Ijtimoiy adolat tushunchasi ham Sharqda faqat “tenglik” yoki “qonunchilik” orqali emas, balki ma’naviy kamolot, niyat pokligi va shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usi bilan bog‘langan. Imom G‘azzoliy, Forobiy, Avisenna (Ibn Sino), Nosiriddin To‘si va boshqa mutafakkirlar ijtimoiy adolatni axloqiy davlatning tayanchi sifatida talqin qilganlar.

Forobiy o‘zining mashhur asari “Fozil odamlar shahri”da ijtimoiy adolatni davlatni boshqarishdagi eng oliy maqsad sifatida belgilaydi. Uning fikricha, “fozil jamiyat”ning mag‘zi — axloqiy yetuklik va umumiy baxt sari harakatdir. “Agar podshoh adolat bilan hukm yuritsa va xalq uning hukmlarini ma’naviy qadriyat deb bilsa, shunda fozil jamiyat vujudga keladi”[8]. Forobiy ijtimoiy adolatni uch omilga bog‘laydi: aql va ilm ustuvorligi, axloqiy yetakchilik va jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish. Bizning fikrimizcha, bu qarash Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan intellektual jamiyat qurish, ta’lim islohotlari va davlat xizmatining ma’naviy jihatini kuchaytirish siyosatlari bilan uyg‘undir.

Ibn Sino “ash-Shifo” asarida adolatni shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy muvozanatning falsafiy sharti sifatida ta’riflaydi: “Adolat – bu jamiyat tuzilishining tabiiy va zaruriy shartlaridan biridir. Usiz jamiyat inson tabiatidan chetga chiqadi[9]”. U adolatni “qonunga bo‘ysunish” va “ma’naviy ehtiyoj” o‘rtasidagi muvozanat sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, jamiyatda qonunlar, ma’lumot va ma’rifat tuzimi mukammal bo‘lmasa, adolatni ta’minlashning iloji yo‘q. Bu esa Yangi O‘zbekistonda huquqiy islohotlar va ta’limda adolatni ta’minlash harakatlari bilan mushtarakdir.

G‘azzoliyning “Ihyoi ulumi-d-din” asarida adolat haqidagi qarashlari diniy-axloqiy va falsafiy tushunchalarga asoslangan. Uning ta’kidlashicha: “Adolat – Allohning ismlaridan biridir. Shuning uchun adolat bilan ish yuritgan podshoh, Allohning amrini bajargan bo‘ladi”[10]. G‘azzoliy adolatni amalga oshirish uchun quyidagi shartlarni ta’kidlaydi: taqvo va niyat pokligi, mas’uliyat hissi va hisob berish etikasi hamda jamiyatda muhabbat va hamjihatlik muhiti. Bu qarashlar Yangi O‘zbekistonda “Xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun” degan mafkuraviy yondashuvning ma’naviy ildizidir. Nosiriddin Tusiy Nizomulmulk “Axloqi Nosiriy” asarida ijtimoiy adolatni insonning ichki axloqiy tarbiyasi bilan bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, shaxsiy adolat (adolati nafsiy), oilaviy adolat va ijtimoiy adolat zinama-zina shakllanadi. “Kimki o‘z nafsida adolatni tiklasa, u adolatli rahbar bo‘la oladi”[11]. Tusiy uchun adolatni ta’minlash omillari sifatida shaxsiy tarbiya va kamolot, ijtimoiy mas’uliyatni anglash hamda ehtiyojmandlarga yetarli shart-sharoit yaratishni ajratib ko‘rsatadi. Bizning fikrimizcha, bu

qarashlar Yangi O‘zbekistonda inson kapitaliga investitsiya qilish, kambag‘allikni qisqartirish va ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalaridagi islohotlar mazmuni bilan uyg‘undir.

Sharq falsafasida ijtimoiy adolatni ta’minlash omillari

Omil	Falsafiy asos	Sharq faylasufi
Axloqiy yetakchilik	Quvvat, manfaat emas, fazilatga tayanish	Forobiy, G‘azzoliy
Shaxsiy kamolot	Adolat nafsni tarbiyalashdan boshlanadi	To‘si, Ibn Sino
Qonunlar va qonuniylik	Qonun bilan tartib, ma’naviyat bilan mazmun	Ibn Sino
Hisobdorlik va taqvo	Javobgarlik hissi ilohiy irodaga bog‘liq	G‘azzoliy
Ma’naviy muhit	Jamiyatda muhabbat va hamjihatlik muhimi	Forobiy, G‘azzoliy

Sharq falsafasida ijtimoiy adolat nafaqat huquqiy yoki davlatchilik tushunchasi, balki shaxsiy fazilat, ma’naviy kamolot va ma’rifat bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy islohotlar, inson qadrini yuksaltirish, ma’naviyatni tiklash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari aynan ana shu falsafiy g‘oyalarning zamonaviy ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi O‘zbekiston kontekstida ijtimoiy adolatning falsafiy ahamiyati haqida so‘z ketganda ijtimoiy adolatning fuqarolar ongida shakllanishi — bu nafaqat huquqiy yoki institutsional jarayon, balki insonning dunyoqarashi, munosabati va qadriyatlar iyerarxiyasidagi yangilanishidir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Har bir masalani ma’rifat asosida chuqur o‘ylab, xalqqa hurmat bilan, takror va takror aytaman, odamlar fikrini inobatga olib, faqat qonun va adolat mezoniga tayangan holda hal etsak, el-yurtimiz bizdan albatta rozi bo‘ladi”[12]. Yangi O‘zbekistonni adolatli jamiyat tamoyillari asosida barpo etish — bu avvalo har bir fuqaro ongida inson qadrini anglashdan boshlanadi. Bu izohdan ma’lum bo‘ladiki, ijtimoiy adolat me’yorlari odamlar hayotida nafaqat institutsional choralar bilan, balki ma’naviy ongdagi o‘zaro munosabatlarda ham yuzaga chiqmoqda. Masalan, fuqarolar ijtimoiy tenglik va imkoniyatlar haqida faol fikr yuritmoqda, fuqarolik jamiyati institutlari orqali o‘z huquqlarini himoya qilmoqda hamda inson qadri va mehnat e’zozi asosiy kategoriyalarga aylanmoqda.

Ijtimoiy adolat mezonlarining ijtimoiy hayotdagi amaliy ifodasi adolatli hayot uchun islohotlar va ong o‘zgarishlari jarayonida o‘z aksini topmoqda. Bugungi fuqarolar ongida adolat nafaqat istak, balki faol fuqarolik pozitsiyasi uchun asos bo‘lib bormoqda. Bunga misoli sifatida Open Budget platformasi orqali mahalliy byudjet xarajatlari ustidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishi, “Xalq qabulxonalari” faoliyati orqali fuqarolarning adolat talab qilishi, Bosh vazir virtual qabulxonasi fuqarolarning murojaatlari orqali qarorlar chiqarilishini keltirish mumkin. Aholining davlatga murojaat qilish madaniyati o‘sishi — adolatli boshqaruvga ishonch alomatidir.

Bu o‘rinda yana bir muhim jihat axborot makonida ijtimoiy adolat in’ikosini tahlil qilishdir. Bu jarayon ijtimoiy tarmoqlardagi blogerlar, faollar, jurnalistlar adolat mavzusini eng ko‘p yoritiladigan mavzulardan biri sifatida tanlashayotganida ham namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, davlat xizmatchilarining qonunbuzarlik holatlari haqida jamoatchilik bosimi kuchayib borayotgani, ommaviy muhokamalarda “oddiy odam manfaatlari” ni himoya qilish — umumiy ijtimoiy trendga aylangani ham buni yaqqol tasdiqlaydi.

Yangi O‘zbekistonda qonun ustuvorligi tamoyilining amaliy shakllanishi qonunchilik asoslarining mustahkamlanishi, uni qadriyat sifatida anglash, huquqiy faollik va murojaat madaniyatining yuksalishi, tenglik va adolat tuyg‘ularining ongda mustahkamlanishi kabi amaliy yo‘nalishlarda namoyon bo‘la boshladi**.** Avvalambor, 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada qonun ustuvorligi eng ustuvor davlat tamoyili sifatida belgilandi[13]. Shuningdek, mamlakatda **s**ud-huquq islohotlari**,** advokatura mustaqilligi, jamoatchilik nazorati va huquqiy yondashuvlarning institutsionallashuvi yuz berdi. Qonun ustuvorligi – bu erkin fuqarolarning huquqiy davlatda yashayotganidan dalolat beradigan asosiy mezondir.

Qonun ustuvorligining ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlarga ta’siri fuqarolarning qonunni qadriyat sifatida anglashi bilan ham o‘lchanadi. Fuqarolar orasida qonunlar va huquqiy mexanizmlarga ishonch oshib bormoqda. Qonun ijtimoiy ongda “tajovuzdan muhofaza”, “haqiqatni tiklovchi vosita” sifatida talqin etilmoqda. Ma’lumki, qonun axloq va ma’naviyat bilan uyg‘unlashgandagina ongdagi erkinlikka aylanadi deyiladi. Adliya vazirligining hisobotlarida keltirilishicha, so‘nggi uch yilda “Huquqiy axborot” portali orqali aholining huquqiy masalalar bo‘yicha murojaatlari 40%ga oshdi. Bundan tashqari, fuqarolarning huquqiy bilim olish, huquqiy maslahat so‘rash va murojaat qilish madaniyati shakllanmoqda. Davlat idoralarining “eshigini taqillatish” emas, raqamli huquqiy faollik keng tarqalmoqda. Misol uchun, virtual qabulxonalar orqali 2023–2024-yillarda 1,2 million fuqaro murojaat qilgan, ularning 38%i huquqiy himoya masalalari bo‘yicha bo‘lgan.

Fuqarolar qonunni nafaqat shaxsiy huquq himoyasida, balki davlat organlari ustidan nazorat vositasi sifatida ko‘ra boshladi. Qonunning “har kim uchun teng” tamoyili yoshlar, ayollar va ijtimoiy zaif qatlamlarning ongida adolat me’yori sifatida shakllanmoqda. Qonun haqiqiy adolat mezoniga aylangan jamiyatda inson o‘zini himoya qilingan deb his etadi deyish mumkin.

Ijtimoiy hayotda qonun ustuvorligining amaliy aks etishi

Soha	Qonun ustuvorligi ifodasi	Ijtimoiy ongdagi natija
Ta’lim	Huquqiy savodxonlik darslari, huquqshunoslikni ommalashtirish	Yoshlarda qonunga nisbatan ishonch va tayanch
OAV va blogosfera	Davlat qarorlarini tahlil qilish, qonun loyihalarini muhokama qilish	Axborot erkinligi va tanqidiy ong
Jamoatchilik hayoti	Byudjet shaffofligi, tanlovlar, murojaatlarga javobgarlik	Adolat va mas’uliyat tuyg‘usi
Tarmoqli boshqaruv	“Elektron hukumat” va “oddiy fuqaro — asosiy manfaatdor” modeli	Davlatga ishonchning o‘sishi

Yangi O‘zbekistonda qonun ustuvorligi faqat huquqiy institut emas, balki ma’naviy qadriyat**,** ongiy jarayon**,** ijtimoiy adolat mezoni**,** faol fuqarolik pozitsiyasining shart-sharoitidir**.** Fuqarolar ongida qonunga munosabat o‘zgarmoqda, ya’ni u endi jazo vositasi emas, balki himoya, imkoniyat va adolat sinonimi sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonning chuqurlashishi fuqarolik jamiyati, axloqiy davlat va teng imkoniyatlar jamiyati qurishda muhim falsafiy va amaliy qadamdir.

Shu o‘rinda qonun ustuvorligining qadriyatga aylanishi va uning ongiy transformatsiyaga ta’sirini falsafiy tahlil qilish joiz. Avvalambor, qonun — hokimiyat emas, ma’naviy mezon sifatida ko‘rilishi masala falsafiy yondashuvni ifodalaydi**.** Tarixan qonunlar hokimiyatni amalga oshirish vositasi sifatida qaralgan. Ammo Yangi O‘zbekiston sharoitida qonun ustuvorligi shunchaki huquqiy tartib emas**,** balki ijtimoiy adolat va inson qadrini ta’minlovchi ma’naviy qadriyat sifatida qayta qarala boshlandi. Qonun qadriyatga aylanishi – bu inson ongida uning moddiy ta’sir vositasidan, axloqiy yo‘riqqa, huquqiy majburiyatdan, inson va jamiyat muvozanati mezoniga aylanishi demakdir.

Qonun ustuvorligining qadriyatga aylanishi ijtimoiy ongda **q**onunni ichki qabul qilish (interiorizatsiya), erkinlik va qonun uyg‘unligi hamda tenglik va adolatni anglash kabi o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Fuqaro qonunni majburiyat sifatida emas, insof, adolat va hurmat timsoli sifatida qabul qiladi. Bu jarayon fuqarolik ongining ma’naviy yetukligidan dalolatdir.

XULOSA

Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston fuqarolari ongida ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi me’yorlarining shakllanishi faqat institutsional emas, balki ma’naviy-ma’rifiy jarayon hamdir. Bu jarayon falsafiy jihatdan inson qadri, erkinligi va mas’uliyatiga asoslanadi. Demak, yangi jamiyat qurilishida fuqarolik faolligi va adolatli tizim muvozanati har doim markaziy o‘rinda turadi. O‘z haqqiga ega bo‘lish tuyg‘usi, ijtimoiy ongida huquqni bilish va talab qilish qobiliyati, inson qadrini ehtirom qilish hamda jamiyatda tenglikka intilish kabilar bilan in’ikos etmoqda. Bu jarayon ma’naviy ongdagi evolyutsiya, davlat siyosatining insonparvarlikka yo‘naltirilishi, hamda madaniy, huquqiy va iqtisodiy islohotlar orqali ro‘yobga chiqmoqda deyish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Гегель Г.В.Ф. *Философия права*. – М.: Мысль, 1990. – Б. 132
2. Форобий. *Фозил шаҳар аҳли ҳақида*. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 42
3. Аристотель. (“Никомахова етика”, – М.: Мысль, 1973. – С. 128
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022. // https://president.uz/uz/lists/view/5774
5. *Аристотель.* Никомахова этика – *М.: Мысль, 1973. – Б. 128*
6. *Кант И.* Критика практического разума*. – М.: Наука, 1994. – Б. 56*
7. *Rawls J.* A Theory of Justice*. – Cambridge: Harvard University Press, 1971. – p. 3*
8. Форобий. Фозил шаҳар аҳли ҳақида. – Т.: Фан, 1993. – Б. 37
9. Ибн Сино. Аш-Шифо. – Қоҳира, 1952. – Ж. I. – Б. 211
10. Ғаззолий. Иҳёи улуми-д-дин. – Қоҳира, 1937. – Б. 147
11. Носириддин Тусий. Ахлоқи Носирий. – Теҳрон, 1981. – Б. 233
12. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – Б. 84
13. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 2023 йил таҳрири, 15-модда https://lex.uz/docs/6445145

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

EDUCATIONAL CULTURE IN THE CONDITIONS OF MODERN UZBEKISTAN SOCIETY

Tanikulov Jonibek Ashirkulovich
Samarkand State University
Associate Professor of the Department of "Philosophy and National Idea"

Abstract. This article presents a philosophical analysis of the cultural components of the educational and pedagogical process in higher education institutions of Uzbekistan. It emphasizes that the content of this process is shaped by modern scientific knowledge, which contributes to the active involvement of students in an intellectual and cultural process aimed at understanding advanced achievements in science and technology and applying them in professional and practical activities.

Keywords: educational culture, modernization, information flows, upbringing and education, legal culture, national values.

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich
Samarqand Davlat universiteti
"Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi dotsenti
E-mail: jtaniqulov140@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida o'quv-pedagogik jarayonning madaniy tarkibiy qatlamlari falsafiy tahlil etilib, uning mazmuni zamonaviy ilmiy bilimlar asosida shakllantirilganligi ta'kidlanadi. Bu esa talabalarni ilg'or fan-texnika yutuqlarini anglash, ularni kasbiy-amaliy faoliyatda qo'llashga yo'naltirilgan intellektual va madaniy jarayonga faol jalb etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim madaniyati, modernizatsiya, axborot oqimlari, tarbiya va ta'lim, huquqiy madaniyat, milliy qadriyatlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N16

So'nggi o'n yilliklar mobaynida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining murakkab bosqichlarini bosib o'tdi. Bu davr mobaynida mamlakatda inson kapitaliga, ayniqsa, oliy ta'lim tizimiga bo'lgan e'tibor tubdan yangicha mazmun kasb etdi. Zamonaviy O'zbekiston jamiyati doimiy ravishda o'zgarib borayotgan global va mahalliy sharoitlar ta'sirida ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini qayta shakllantirib bormoqda. Mazkur jarayon esa, o'z navbatida, oliy ta'lim tizimining ham tashkiliy, ham mazmuniy tuzilmasini chuqur qayta ko'rib chiqishni, uni yangi epistemologik asoslar bilan uyg'unlashtirishni talab qilmoqda [14], [5]. Ta'limni tashkil etish va uning mazmunini shakllantirishda boshqaruv madaniyatini takomillashtirish, avvalo, jamiyatning tarixiy-madaniy ehtiyojlari, ontologik holati va global intellektual kontekstdagi o'rnini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bu jarayon shunchaki tashkiliy islohotlar emas, balki madaniy tafakkurning yangilanishini, bilimlar iyerarxiyasida aks etgan

qadriyatlar tizimining qayta formatlanishini anglatadi. Hozirgi zamon axborot jamiyatida bilimlarning sirkulyatsiyasi geometrik progressiyada tezlashar ekan, bu holat ilmiy tafakkurga nisbatan yangi nazariy va metodologik yondashuvlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Birinchidan, fan-texnika yutuqlarining fundamental natijalarini ta’lim mazmuniga o‘z vaqtida va sifatli integratsiya qilish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayon nafaqat tabiiy-ilmiy, balki gumanitar hamda amaliy fanlar sohasi mutaxassislarini tayyorlashda chuqur o‘z aksini topishi lozim. Bu yerda eng dolzarb masalalardan biri sifatida – ilmiy ma’lumotlar va nazariy konsepsiyalarning asoslanganligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi axborot oqimining serqirraligi va murakkabligi sharoitida ko‘plab ilmiy bo‘lmagan yoki to‘liq tasdiqlanmagan ma’lumotlarning ham ta’lim muhitiga kirib kelishi ehtimoli ortmoqda. Bu esa o‘z navbatida, ilmiy tafakkurda “axborot filtratsiyasi” degan falsafiy-gnoseologik muammoni kun tartibiga olib chiqadi.

Ikkinchidan, haqiqat me’yorlarini aniqlashda faqat rad etish yoki qabul qilishning ikkilamchi tizimidan emas, balki falsafiy nuqtai nazardan dialektik-antagonistik yondashuv zarurati paydo bo‘ladi. Bu degani, har qanday ilmiy g‘oya yoki gipoteza dastlab noto‘g‘ri, rad etilgan yoki spekulyativ tuyulgan bo‘lsa ham, u o‘zining haqiqatga olib boruvchi ontologik potensialini saqlab qolishi mumkin. Ilmiy tafakkur tarixida bir vaqtlar g‘ayrioddiy deb hisoblangan nazariyalar (Eynshteynning nisbiylik nazariyasi, kvant mexanikasi va boshqalar) keyinchalik fanda tub burilish yasaganini unutmaslik lozim [13, 5-14-betlar]. Zamonaviy ilmiy maktablar o‘rtasidagi epistomologik farqlar, qarama-qarshiliklar va metodologik mojarolar ilm-fan taraqqiyotining tabiiy dinamikasini ifodalaydi. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim tizimida yuqori bosqich talabalari, magistrantlar va doktorantlarni ilmiy-nazariy kurashlar muhiti bilan tanishtirish, ularni mustaqil fikrlovchi, tanqidiy yondasha oladigan shaxs sifatida shakllantirish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Shu munosabat bilan, zamonaviy oliy ta’limda mustahkam nazariy poydevorga ega bo‘lgan mualliflik kurslari, ilmiy seminarlar, kollokviumlar va tajriba asosida yo‘lga qo‘yilgan eksperimental treninglar muhim metodik vositaga aylanmoqda. Bunday yondashuvlar orqali bilim faqat axborot emas, balki tafakkur, ong va tafsirning ma’naviy mahsuli sifatida qaraladi. Oliy ta’limning modernizatsiyasi, aslida, insonni bilim obyektidan tafakkur subyektiga aylantirish yo‘lidagi bosqichma-bosqich epistemologik inqilobdir.

Zamonaviy fan va texnologiya taraqqiyoti axborotga asoslangan ijtimoiy tuzumni shakllantirdi. Bunday sharoitda ta’lim sifatini oshirish masalasi – nafaqat metodik yoki texnik vazifa, balki chuqur ontologik va gnoseologik yechim talab qiladigan falsafiy muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Demokratik jamiyatlar, jumladan O‘zbekiston ta’lim makonida ham, bu jarayon bir qator tizimli to‘siqlar bilan murakkablanmoqda. Ayniqsa, ilmiy va o‘quv axborot resurslariga adolatli va samarali kirish imkoniyatining cheklangani intellektual tengsizlik va informatsion disbalans muhitini vujudga keltiradi.

Zamonaviy ilmiy bazalarning, jumladan, Scopus, Web of Science kabi iqtiboslar indekslari, bir tomondan, ilmiy yutuqlarni tasniflash va baholashda muhim epistemologik vosita bo‘lib xizmat qilsa-da, boshqa tomondan, ular atrofida vujudga kelgan tijoriy mexanizmlar axborot adolatining buzilishiga olib kelmoqda. Bu holatda axborot – bilim emas, balki ijtimoiy kapital va iqtisodiy resursga aylanishi mumkin. Talaba va ilmiy izlanuvchi subyektlarning ushbu “epistemik sarmoya maydoni”da harakatlana olishi esa ularning raqamli

savodxonligi, qidiruv algoritmlari bilan ishlay olish kompetensiyasi, hamda ma’lumotlarning ishonchlilik mezonlarini anglash qobiliyatiga bog‘liqdir.

Ammo, afsuski, bugungi oliy ta’lim tizimida axborot texnologiyalari bilan erkin ishlay oladigan, ma’lumotlarni saralash va baholashda mustaqil fikrlashga asoslangan metodologik savodxonlik hali ham yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa nafaqat amaliy ko‘nikmalar, balki kognitiv va falsafiy dunyoqarash darajasidagi muammo ekanini anglatadi. Chunki bilimga olib boruvchi yo‘l — bu faqat axborotni yig‘ish emas, balki uni mazmunli strukturalarga, konsepsiyalarga aylantira olishdir. Aks holda, ta’lim axborotning xom shaklida mutlaqlashtirilishiga olib keladi.

Bugungi “ma’lumot dengizi”da harakatlanayotgan yoshlar, agar kerakli ilmiy-nazariy navigatsiyani egallamagan bo‘lsa, ko‘plab parailmiy, manipulyativ yoki hattoki yolg‘on nashrlar va “axlat” kontentlar tomonidan chalg‘itilishi mumkin. Bu esa axborot urushlari sharoitida mustaqil fikrlovchi shaxsni yaratish o‘rniga, passiv axborot iste’molchisini shakllantirish xavfini keltirib chiqaradi. Bunday muhitda talaba nafaqat bilim egallashi, balki bilimni farqlay olish, ilmiydan soxta epistemik iddaolarni ajratib olish qobiliyatini egallashi zarur.

Ilmiy sohada bugun yuzaga kelayotgan yana bir dolzarb masala — bu scientometriya va reyting tizimlarining noadolatli amaliyotlarda qo‘llanilishidir. Ba’zi hollarda ilmiy maqola sifati emas, balki uning joylashuvi yoki ko‘rsatkichi asosiy mezon sifatida qabul qilinadi. Bu esa ilmiy haqiqatning mazmuniy mohiyatini emas, balki uning statistik ko‘rsatkichlarini asosiy baholovchi faktorga aylantiradi. Bu turdagi utilitar yondashuvlar ilm-fan mohiyatini “fikrlar bozori”ga aylantirish xavfini tug‘diradi va bu orqali axloqiy-estetik mezonlar zaiflashadi [6, 134-137-betlar].

Shuningdek, zamonaviy yoshlarning intellektual motivatsiyasi ham ko‘p jihatdan utilitar xarakter kasb etmoqda. Pul mukofoti, yuqori baholar, ilmiy muassasalarga tavsiyanomalar kabi tashqi rag‘batlantirish omillari ko‘pincha bilim olishga emas, axborot to‘plashga yo‘naltiriladi. Natijada, talabada reflektiv motivatsiya o‘rniga reaktiv (reaktsiyaviy) faoliyat shakllanadi. Falsafiy nuqtai nazardan bu – bilimning shaxsga singishi emas, balki tashqi zaruratdan kelib chiqib axborotni “iste’mol qilish”dir.

Mazkur holatda talabaga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar emas, balki shaxsga qaratilgan epistemologik strategiyalar lozim. Talaba va uning ilmiy rahbari o‘rtasidagi ishonch, doimiy intellektual muloqot, ongli yo‘naltirish orqali “Bu nima?” degan refleksni uyg‘otish – bu faqat motivatsion emas, balki gnoseologik muhim holatdir. Shaxsning bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojini uyg‘otish – haqiqiy bilimga eltuvchi yo‘lning boshlanishidir.

Bundan tashqari, ta’lim sifatini belgilovchi yana bir muhim omil – bu ilmiy tajriba uchun texnik baza va eksperimental infratuzilmaning yetarli emasligi, hamda eng muhimi – ular bilan ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligidir. Bu vaziyat “madaniy chegaralar” tushunchasi bilan bevosita bog‘liq. Ma’lumotlar, texnologiyalar va tafakkur tizimlari o‘rtasidagi chegaralar – bu faqat texnik yoki institutsional to‘siqlar emas, balki madaniyatning o‘zagiga singib ketgan dunyoqarash tafovutlarining ifodasidir. Bu chegaralarni yengish, ilm-fan va ta’limni ijtimoiy tizimlar bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish – uyg‘un va barqaror bilim jamiyatini qurish sari muhim qadamdir.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish masalasi, ayniqsa, uni globallashuv va zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida amalga oshirish zarurati mavjud bo‘lgan bir paytda, chuqur va ko‘p qatlamli metodologik yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, har qanday

islohotning muvaffaqiyati yoki samarasizligi nafaqat uning tashkiliy mexanizmlariga, balki u amalga oshirilayotgan madaniy-kontekstual zaminning epistemik xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir. Modernizatsiyani ma’lum darajada o‘z-o‘zidan shakllanadigan, silliq va choksiz kechadigan taraqqiyot shakli deb tasavvur qilish – bu jarayonning murakkabliklarini yetarlicha anglamaslikka olib keladi.

Zamonaviy O‘zbekiston ta’lim islohotlari ham shunday xavf ostida: agar ular milliy-madaniy xususiyatlar, tarixiy meros va ijtimoiy ongda chuqur ildiz otgan qadriyatlar bilan konvergentlikda amalga oshirilmasa, islohotlar yuzaki va simvolik xarakterga ega bo‘lib qoladi. Har qanday transformatsiya harakati, agar u o‘zining “aks-sadosi”ni xalqning madaniy ongida topmasa, ijtimoiy hayotda inertiya holatida qoladi. Bu holat “realizm tamoyili”ning markaziy ahamiyatini ko‘rsatadi: modernizatsiya harakati doim mavjud zamin – ijtimoiy-madaniy muhit va tarixiy ong bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Aks holda, islohotlar faqat rasmiy doiralarda cheklanib, jamiyatning haqiqiy ehtiyojlari va qabul qilish quvvatidan uzilib qoladi [2, 12-13-betlar].

Globallashuv sharoitida esa, islohotlar ustidan tashqi madaniy-epistemik bosim kuchayadi. Bu bosim ko‘p hollarda “universal” deb taqdim etilayotgan, aslida esa aniq geopolitik va madaniy markazlar tomonidan shakllantirilgan bilim modellarini tatbiq qilishni anglatadi. Bu markazlar, ya’ni nufuzli ilmiy va ta’lim institutlari o‘zlarini bilimning so‘nggi instansiyasi sifatida ko‘rsatishga urinadi. Bu esa ilmiy hokimiyatning asimmetrik taqsimlanishiga olib keladi – ya’ni “bilimni kim aniqlaydi?”, “haqiqat kimga tegishli?” degan falsafiy savollar zamirida yotgan epistemik tengsizlik yuzaga chiqadi.

Masalan, Boloniya jarayonidagi ishtirok yoki test tizimining global standartlarga moslashtirilishi – bu shaklan ilg‘or, ammo mazmunan mahalliy madaniy kodlar bilan to‘qnashuvchi amaliyotlarga misol bo‘la oladi. Bunday holatlarda zamonaviylik o‘z mohiyatini yo‘qotadi va faqat tashqi formatlarda namoyon bo‘luvchi “taqlidiy modernlik” sifatida qolib ketadi. Bu esa ta’lim tizimining tub maqsadlariga – mustaqil fikrlovchi, madaniy jihatdan ongli, ijtimoiy mas’ul shaxsni tarbiyalash g‘oyasiga zid holatdir.

Shuningdek, boshqa davlatlar yoki mintaqalarni innovatsion cho‘qqilar sifatida ideallashtirish – bu postkolonial tafakkur izlarining hanuz ta’lim diskursida mavjudligini ko‘rsatadi. Mahalliy intellektual merosning chetga surilishi, xorijiy model va metodologiyalarning shartsiz qabul qilinishi – bu o‘zligini yo‘qotgan modernizatsiyaning belgilaridir. Realistik va muvozanatli modernizatsiya esa nafaqat tashqi tajribani o‘zlashtirish, balki o‘z milliy–madaniy zaminidan kuch olishni ham anglatadi.

Bu yerda O‘zbekistonning inson kapitali – ya’ni ma’naviy ong, madaniy tafakkur, ijtimoiy mas’uliyatli bilim egasi bo‘lgan shaxsni yetishtirish salohiyati juda katta ahamiyatga ega [9]. Shuning uchun har qanday strategik rejalashtirish, ayniqsa ta’lim sohasida, “milliy madaniy qadriyatlar” tushunchasini zamonaviylikka zid emas, balki uning tarkibiy elementi sifatida anglashga asoslanishi zarur.

Har qanday jamiyatda ta’lim tizimi nafaqat bilimlar uzatish institutsiyasi, balki ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy madaniy institut sifatida qaraladi. Shu bois, ta’lim sohasida mafkura bilan ishlash masalasi — bu oddiy metodik yondashuv emas, balki chuqur falsafiy, antropologik va siyosiy-axloqiy muammodir. Ayniqsa, qadriyatlar tizimini haddan tashqari mafkuralashtirish, ularni absolyut shaklda taqdim etish va ijtimoiy ongga

zo‘rlik bilan singdirishga urinishlar — tarixiy tajriba ko‘rsatganidek — salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Sovet davrining ta’limiy-ma’naviy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar ifodasining tabiiy kontekstdan uzilib, mafkuraviy-absolyut shaklda taklif qilinishi jamiyatda ijtimoiy ong va individuallik orasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Bunday sharoitda qadriyatlar insonning ichki ehtiyojlariga emas, balki tashqi siyosiy zaruriyatga bo‘ysundiriladi. Bu esa shaxsiy fikrning erkinligi va axloqiy muxtorligini zaiflashtiradi.

Zamonaviy ta’limda ham, afsuski, bunday tendensiyalar izsiz yo‘qolmagan. Mafkuraviy spekulyatsiyalar shaklida namoyon bo‘luvchi bu hodisa ba’zan “abadiy qadriyatlar” degan ibora ortiga yashiringan primitiv va instrumentallashgan g‘oyalar orqali yashash muammolarini hal etish o‘rniga, ulardan uzoqlashishga undaydi. Bu holatda talabaning fikr erkinligi va tanqidiy ongiga emas, balki “moslashuvchanlik” darajasiga qarab baholanadigan ijtimoiy rol belgilanadi. Ya’ni, mafkuraviy “sodiqlik” akademik va kasbiy fazilatlardan ustun qo‘yiladi. Bunday yondashuv esa, falsafiy nuqtai nazardan, meritokratik tamoyillarni buzadi va axloqiy-siyosiy kinikizmdan iborat “metastazlarni” ta’lim tizimining o‘ziga singdiradi.

Bunday ijtimoiy sharoitda “moslashuvchanlik” bilan “fazilat” o‘rtasidagi farq yo‘qqa chiqariladi: imtiyozlar, imkoniyatlar va tanlovlar shaxsning bilimiga, malakasiga emas, balki uning ideologik konformizmiga qarab taqsimlanadi. Buning natijasida jamiyat uchun zarur bo‘lgan ilmiy, texnik, kasbiy mutaxassislar o‘z faoliyat yo‘nalishini tark etib, siyosiy faoliyat maydoniga yo‘naltiriladi. Ular shunchaki intellektual resurs emas, balki mafkuraviy “ishchi kuchi”ga aylantiriladi. Bu esa inson kapitali samaradorligini pasaytiradi va jamiyat taraqqiyotining fundamental asoslariga ziyon yetkazadi.

Bunday xavflarni bartaraf etish uchun universitet faqat bilim beruvchi muassasa emas, balki shaxsiy tafakkur, axloqiy pozitsiya va ma’naviy izlanishlar rivoji uchun imkon yaratadigan madaniy makonga aylanishi lozim. Buning uchun esa ta’lim jarayoni o‘z-o‘zini shakllantirishga xizmat qiladigan ichki ijtimoiy-madaniy muhit bilan to‘ldirilishi kerak: darsdan tashqari intellektual loyihalar, ilmiy klublar, mualliflik kurslari, mustaqil izlanish va axloqiy-refleksiv muhit – bularning barchasi talabaning ichki dunyosini ijobiy yo‘naltirishning muhim omillaridir.

Shunday qilib, ta’lim tizimida sog‘lom qadriyatlar tizimini shakllantirish — bu mafkuraviy zo‘ravonlik emas, balki shaxsiy mustaqillikni uyg‘otuvchi falsafiy va psixologik muhit yaratish bilan chambarchas bog‘liqdir. Universitet, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ideologik bo‘ysunuv emas, balki erkin fikr, fikrlar xilma-xilligi va qadriyatlar dialogi orqali jamiyatda intellektual uyg‘onish muhitini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bu esa, real va dinamik hayotiy muammolarga mos falsafiy asoslangan yondashuvni, “doimiy uyg‘onish” holatidagi tafakkur makonini barpo etishni talab qiladi. [12, b. 53 55].

Zamonaviy ijtimoiy-huquqiy makonda fuqarolik o‘ziga xosligi va shaxsiy mas’uliyat hissining fragmentar – “tarqalgan” – holatda namoyon bo‘layotgani jiddiy e’tibor va kompleks yondashuvni talab qiladigan dolzarb muammodir. Ushbu muammoning mumkin bo‘lgan falsafiy-ijtimoiy yechimlaridan biri sifatida, universitet muhitida talabalar ongida ichki barqarorlik va ijtimoiy javobgarlikka asoslangan qadriyatlar tizimini shakllantirish lozim bo‘ladi. Bu jarayon o‘z mohiyatiga ko‘ra “g‘ovak” tuzilishli, ya’ni har qanday ijtimoiy tendensiyalarni – ijobiy yoki salbiy, ochiq yoki latent – tanqidiy qayta ishlashga qodir bo‘lgan madaniy ong shakllanishini nazarda tutadi. Bunday madaniy immunitetning shakllanishi esa,

nafaqat universitet darajasida, balki butun jamiyat miqyosida madaniyat, tafakkur va qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlovchi ijtimoiy institutlar faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Talabalarning ma’naviy-estetik va g‘oyaviy tayyorgarligi, eng avvalo, pedagogik madaniyatning nazariya va amaliyot birligiga tayanadi. Bu kontekstda ta’lim jarayoni faqat bilim berish yoki uni o‘zlashtirish emas, balki ongli, tanqidiy va reflektiv fikrlash mexanizmlarini shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, ma’lumotni izlash, yodlash va tizimlashtirish faqat texnik operatsiyalar emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘zining falsafiy-anglanmish qiymatini kasb etishi lozim. Bilimning chinakam o‘zlashtirilishi esa, uni ichki mushohada jarayonida “qayta ishlash”, tushunish, talqin qilish va real hayotiy kontekstlarga tatbiq etish orqali yuzaga chiqadi. Ya’ni, referat, insho, tahliliy esse kabi shakllarda ifodalangan mustaqil intellektual mehnat, aslida, falsafiy izlanishning boshlang‘ich bosqichi sifatida qaralishi kerak.

Shu jihatdan qaralganda, ilmiy natijalarni talabalar jurnalida chop etish, ilmiy seminarlarda ishtirok etish yoki konferensiyalarda nutq so‘zlash talabaning shaxsiy intellektual evolyutsiyasini ta’minlovchi amaliy jihatlardandir. Bu jarayonda o‘qituvchining roli nafaqat ma’lumot uzatuvchi, balki talabaning individuallashtirilgan qiziqishlari va tafakkur salohiyatiga mos mini-tadqiqot yo‘nalishlarini shakllantiruvchi falsafiy-mentorlarga aylanadi. Ayniqsa, plagiatga qarshi texnologiyalar joriy etilayotgan hozirgi davrda, ilmiy mustaqillik va innovatsion tafakkur o‘qituvchilar faoliyatining mezoniga aylanmoqda.

Alohida ta’kidlash joizki, har qanday malakali mutaxassis uchun zarur bo‘lgan ilmiy va falsafiy fikrlash tarzini shakllantirish – ya’ni materialni chuqur tahlil qilish, savollar qo‘yish hamda muammoli holatlarga yechim izlash – talabaning ongli ravishda o‘z intellektual salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiluvchi muhim ko‘nikmalardandir. Bu ko‘nikmalar, o‘z navbatida, universitet devorlari bilan cheklanmagan holda, shahar, mintaqa va nihoyat, milliy darajadagi akademik va madaniy maydonlarga chiqishni taqozo etadi.

Xususan, madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi loyihalar – ilmiy festivallar, ta’limiy forumlar, intellektual klub faoliyati – talabalar ongini faollashtiradi, o‘zini qadrlash hissini oshiradi, ijtimoiy mas’uliyatni anglashga undaydi. Ana shunday muhitda shakllangan shaxs – bu nafaqat o‘z kasbiy yo‘nalishini anglagan mutaxassis, balki ijtimoiy mas’uliyatga ega, erkin va tanqidiy tafakkurga ega bo‘lgan yetuk fuqaro hamdir.

Demak, zamonaviy ta’lim muhitining ajralmas qismi sifatida universitet talabalari ilmiy faoliyatga faol jalb etilishi, shuningdek, ularning amaliy loyihalar, xalqaro ta’lim almashinuvi dasturlari va ilmiy-tadqiqot anjumanlarida ishtirok etishini ta’minlash orqali ularning fikrlash salohiyati, madaniy-estetik didi hamda ijtimoiy faolligini sezilarli darajada rivojlantirish mumkin. Ta’lim jarayonida talabaning shaxsiy ongida ilmiy yondashuv va axloqiy mas’uliyat uyg‘unlashgan holda shakllanishi uchun u bevosita akademik madaniyat muhiti bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishi zarur. Bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ hamkorlik va akademik muhitning inklyuziv xususiyati asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu asosda, nafaqat fanlararo integratsiya, balki axborot resurslaridan mas’uliyatli foydalanish, fikr muallifligiga hurmat va zamonaviy ilmiy etikaga sodiqlik tamoyillari ham mustahkamlanadi.

Bunday akademik muhitda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, ayniqsa, ilmiy-ijodiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida mualliflik huquqi, intellektual mulk va patentlash borasida nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni singdirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu, bir tomondan, talabalarning akademik erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi nozik

muvozanatni anglab yetishlariga yordam beradi, ikkinchi tomondan esa, jamiyatda huquqiy ongning chuqurlashuviga xizmat qiladi. Ilmiy axborotni ishlashda nafaqat axloqiy-estetik mezonlar, balki yuridik asoslar ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, global ilmiy texnologik muhitda faoliyat yuritish istagidagi mutaxassislar uchun bu ko‘nikmalar professionallik mezoniga aylanmoqda.

Oxirgi o‘n yilliklarda xorijiy mamlakatlarda vaqtincha mehnat faoliyatini olib borayotgan mahalliy mutaxassislar sonining ortib borayotgani O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, talabalarga milliy huquqiy tizim asoslarini chuqur o‘rgatish bilan birga, ularni turli xorijiy davlatlarning madaniy-huquqiy paradigmalari bilan tanishtirish zarurati tug‘ilmoqda. Bunday tayyorgarlik, global raqobat sharoitida mutaxassisning nafaqat moslashuvchanligini, balki xorijiy kompaniyalar bilan konstruktiv muloqot yurita olish salohiyatini ham mustahkamlaydi.

Bu jarayonda etnik-madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda tuzilgan fakultativ kurslarning ahamiyati ortib bormoqda. Ular talabalarni xalqaro ishbilarmonlik muloqoti kontekstida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, chet tillarini chuqur o‘rgatish orqali talabalarning ilmiy adabiyotlarni mustaqil tahlil qilish, texnik hujjatlar bilan ishlash va kasbiy muloqotda erkin ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirish ham ta’lim mazmunini boyitadi. Ayniqsa, kasbiy faoliyatga oid atamalar, so‘z birikmalari va metaforalarning kontekstual tarjimasi talab etiladigan sohalarda bu ko‘nikmalar nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, talabalarning madaniy va diniy qadriyatlarga nisbatan mas’uliyatli va ongli munosabatini shakllantirish, ularni o‘z milliy identitetiga sodiq, lekin global kontekstda erkin fikrlovchi yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash zarur. Bunday yondashuv, faqatgina professional tayyorgarlik darajasini emas, balki insoniylik, axloqiylik va ma’naviyat darajasini ham belgilaydi. Zero, haqiqatga xizmat qiluvchi ta’lim jarayoni shaxsning ichki olami va tashqi faoliyati o‘rtasida uyg‘unlik yaratishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv, raqamli o‘zgarishlar va inson kapitali sifatiga qo‘yilayotgan yangi talablar sharoitida O‘zbekistonda ta’lim madaniyatini tubdan isloh qilish va uni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish zamonaviy davrning dolzarb ehtiyojiga aylanganini alohida ta’kidlash lozim. Bu jarayonda bir qator ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash ilmiy va amaliy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Axborot bilan ishlash madaniyatini chuqurlashtirish – bu faqatgina zamonaviy texnologiyalar yordamida ma’lumotga ega bo‘lish bilan cheklanmay, balki axborotni tanqidiy tahlil qilish, saralash va uni ilmiy asosda izohlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali axborot savodxonligi hamda analitik tafakkurni izchil rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu jarayon esa jamiyat ongida haqiqatni yolg‘ondan ajrata olishga yordam beruvchi epistemologik immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Milliy g‘oya va madaniy merosning mafkuraviy barqarorlik elementi sifatida tiklanishi – bugungi ideologik plyuralizm sharoitida ayni zaruriy strategiyalardan biridir. Jamiyat a’zolarining, ayniqsa yosh avlodning, o‘z tarixiy ildizlariga, madaniy identitetiga tayanib, zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘unlashgan holatda rivojlanishi – g‘oyaviy mustahkamlikni kafolatlovchi asosiy omil hisoblanadi.

3. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish – bu ta’lim jarayonida xalqaro huquqiy me’yorlar, milliy qonunchilik hamda turli mamlakatlarning huquqiy tizimlari bo‘yicha

bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarni global miqyosda mustaqil fikrlaydigan, huquqiy javobgarlikka ega shaxslar sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi. Ayniqsa, chet elda mehnat faoliyatini olib borayotgan mutaxassislar uchun bu kompetensiyalar nihoyatda zarur hisoblanadi.

4. Ilmiy muloqot va professional fikr almashinuvi maydonlarini kengaytirish – nafaqat akademik salohiyatni oshirish, balki fanlararo va madaniyatlararo dialogda ishtirok etish orqali ilmiy tafakkurning ijtimoiy va global maydondagi rolini kuchaytiradi. Ta’lim muhitida bu kabi jarayonlar tafakkur erkinligini va ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi.

5. Ta’limning insonparvarlik asoslarini saqlab qolish – bu esa shaxsning ma’naviy kamolotiga, uning ichki va tashqi muhitdagi turli ijtimoiy sinovlarga qarshi turish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Insonparvarlik yo‘nalishidagi ta’lim – ijtimoiy adolat, hamdardlik, tolerantlik va ma’naviy muvozanat kabi qadriyatlarni targ‘ib etuvchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Shu bois, zamonaviy O‘zbekistonning ta’lim siyosatida yuqoridagi yo‘nalishlarni uyg‘un va tizimli asosda amalga oshirish – nafaqat madaniyat darajasining o‘sishiga, balki milliy va global miqyosda raqobatbardosh, barkamol shaxslarni shakllantirishga zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat taraqqiyotining falsafiy negizini mustahkamlovchi asosiy ijtimoiy mexanizmdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Глаголев В. С. Величие России: основания, иллюзии и реалии // Философия хозяйства. – 2006. – № 1 (43). – С. 101–106.
2. Глаголев В. С. Реализм анализа – исходное условие научной перспективности (содоклад) // Право и управление. XXI век. – 2011. – № 4. – С. 12–18.
3. Глаголев В. С. Стратегия непрерывного образования в российских вузах: подводные камни // Актуальные проблемы модернизации высшей школы: материалы Междунар. науч.-метод. конф. – Новосибирск: Сиб. гос. ун-т путей сообщения, НТИ – филиал МГУДТ, 2014. – С. 27–32.
4. Коннов В. И. Социально-психологические основы национальной научно-исследовательской культуры // Психологический журнал. – 2014. – Т. 35. – № 5. – С. 19–27.
5. Кузьмина Т. А., Межуев В. М., Никольский С. А. Культурные трансформации в современной России (социально-философский анализ). – М.: ИФРАН, 2009. – 159 с.
6. Мотрошилова Н. В. Недоброкачественные сегменты наукометрии // Вестник Российской академии наук. – 2011. – Т. 81. – № 2. – С. 134–146.
7. Мотрошилова Н. В. Цивилизационный подход в программах модернизационного рывка современного Китая // Вопросы философии. – 2012. – № 6. – С. 5–16.
8. Панфилова Т. В. Какая образовательная стратегия не нужна России? // Философия и общество. – 2011. – № 1. – С. 5–16.
9. Подберезкин А. И., Гебеков М. П. Роль национального человеческого капитала в период «фазового перехода» человечества. Сер. Научная школа МГИМО (У). – М.: МГИМО-Университет, 2012. – 374 с.
10. Рубцов А. В. Россия в начале XXI века: от идеологии к мегапроекту // Полигнозис. – 2009. – № 2. – С. 33.
11. Силантьева М. В. Диффузная идентичность – современная версия гражданской идентичности // Вестник МГИМО Университета. – 2012. – № 2. – С. 173–179.
12. Силантьева М. В. Единство обучения и воспитания – стратегический приоритет современного образования // Образование как единство обучения и воспитания:

материалы Междунар. науч.-метод. конф. – Новосибирск: Сиб. гос. ун-т путей сообщения, 2016. – С. 53–61.
13. Стёпин В. С. Историко-научные реконструкции: плюрализм и кумулятивная преемственность // Вопросы философии. – 2016. – № 6. – С. 5.
14. Федотова В. Г. Модернизация и культура. – М.: Прогресс-Традиция, 2016. – 336 с.
15. Шестопал А. В. Кризис цивилизации и гражданское общество // Право и управление. XXI век. – 2011. – № 4. – С. 24–27.
16. Шестопал А. В., Силантьева М. В. Культурные границы в пространстве современного университета // Метаморфозы посткризисного мира: новый регионализм и сценарии глобального управления: материалы VIII Конвента РАМИ. – 2015. – С. 113–131.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

ENSURING SOCIAL STABILITY: ANALYSIS IN THE CONTEXT OF NATIONAL AND GLOBAL SECURITY

Yarbayev Hasan
Senior Lecturer at Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract. This article provides a systematic analysis of the main directions and mechanisms for ensuring social stability in the Republic of Uzbekistan. The author considers political, social, spiritual, and ideological factors as key components affecting societal stability. The study assesses Uzbekistan's condition based on various international indices. Particular attention is given to regional disparities, the transformation of values among youth, and the impact of digital transformation on stability. A number of solutions are proposed to address the identified challenges.

Keywords: social stability, national security, global security, political trust, spiritual values, economic disparities, digital transformation, youth value crisis, regional imbalances, stability indices.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH: MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL

Yarbaev Xasan Xazratqulovich
Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida jamiyat barqarorligini ta'minlash jarayonining asosiy yo'nalishlari va mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Maqolada siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va mafkuraviy omillar jamiyat barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy tarkibiy qismlar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda turli xalqaro indekslar asosida O'zbekiston holati baholangan va hududiy nomutanosibliklar, yoshlar orasidagi qadriyatlar transformatsiyasi, raqamli transformatsiyaning barqarorlikka ta'siri alohida o'rganilib, muammolarga bir qator yechimlar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik, global xavfsizlik, siyosiy ishonch, ma'naviy qadriyatlar, iqtisodiy tafovutlar, raqamli transformatsiya, yoshlarda qadriyatlar inqirozi, regional nomutanosiblik, barqarorlik indekslari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N17

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv, raqamli transformatsiya va geosiyosiy ziddiyatlar kuchaygan murakkab sharoitda jamiyat barqarorligi masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat barqarorligini ta'minlanish nafaqat milliy xavfsizlikning, balki global tinchlik va taraqqiyotning ham muhim mezonidir. Xususan, Yaqin Sharq, Afrika va postsovet hududlarida yuzaga kelgan beqarorlik holatlari ijtimoiy strukturaviy omillarning izdan chiqishi oqibatida shakllanayotganini ko'rsatmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida jamiyat barqarorligini ta'minlash jarayonining tizimli tahlili amalga oshiriladi. Mavzuning dolzarbligi mamlakatda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar fonida, ayniqsa Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi

doirasida, ijtimoiy tizimda muvozanat, ishonch va inklyuziv rivojlanish muhitini shakllantirish zaruriyati bilan izohlanadi.

ADABIUOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jamiyat barqarorligini ta’minlash masalasi ijtimoiy fanlar tarixida doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Ushbu masalaning o‘rganilishi qadimiy davrlardanoq turli falsafiy, siyosiy va ijtimoiy tafakkur maktablarida muhim mavzu bo‘lgan. Xususan, Antik davr mutafakkirlari bu borada dastlabki yondashuvlarni ilgari surishgan. Masalan, Aflotun o‘zining “Davlat” asarida jamiyatdagi adolat va muvozanatni barqarorlikning asosi deb bilgan[1]. Aristotel esa “Siyosat” asarida ijtimoiy tuzumlarning uyg‘unligi jamiyatni barqaror qiladi, degan g‘oyani ilgari suradi[2].

O‘rta asrlarda Ibn Xaldun o‘zining “Muqaddima” asarida siyosiy hokimiyat, iqtisodiy resurslar va ijtimoiy birdamlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni barqarorlik mezoni sifatida ko‘rsatgan[3].

Yangi davr G‘arb tafakkuri ushbu mavzuga siyosiy va ijtimoiy tizimlar nuqtayi nazaridan yondashdi. Tomas Xobbs “Leviatan” asarida kuchli markazlashgan hokimiyatni barqarorlik garovi sifatida asoslab berdi[4]. Makss Veber esa byurokratiya va qonuniylikni modern jamiyat barqarorligining elementi sifatida ko‘rsatdi[5].

XX asrda T. Parsons ijtimoiy tizimlar o‘rtasidagi funksional muvozanatni asosiy omil sifatida tahlil qilgan[6], H. Linz va A. Stepanlar esa demokratik institutlar va fuqarolik jamiyati barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi deb hisoblaganlar[7].

Zamonaviy bosqichda, Scopus va JSTOR bazalaridagi so‘nggi ilmiy maqolalar jamiyat barqarorligini multidisiplinar yondashuv asosida tahlil qilmoqda. R. Inglehart va C. Welzel tomonidan taklif etilgan Modernization Theory barqarorlikni qadriyatlar evolyutsiyasi orqali o‘lchashga asoslanadi[8]. D. Kaufmann va A. Kraay esa WGI (Worldwide Governance Indicators) tizimi orqali siyosiy barqarorlik, hukumat sifati, qonun ustuvorligi kabi indikatorlarni xalqaro taqqoslashda qo‘llashmoqda[9].

O‘zbekiston sharoitida jamiyat barqarorligiga oid tadqiqotlar keyingi yillarda falsafa, siyosatshunoslik va sotsiologiya fanlari doirasida rivojlanmoqda. Xususan, M. Nazarovning “Ijtimoiy barqarorlik va indikatorlar tizimi” maqolasida barqarorlik komponentlari va ularning tahlil metodologiyasi tizimlashtirilgan[10]. Shu bilan birga, A. Jo‘rayev, D. Karimov kabi olimlar yoshlar qadriyatlari, fuqarolik ishonchi va hududiy tafovutlar bilan bog‘liq beqarorlik omillarini tahlil qilganlar[11].

BMT (UNDP), Gallup va Jahon banki tomonidan tayyorlanadigan yillik hisobotlar, indekslar ham O‘zbekistonning jamiyat barqarorligi bo‘yicha empirik tahlillarini ta’minlaydi[12]. Bu esa ilmiy tahlillarga asoslangan siyosiy strategiyalar ishlab chiqish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat barqarorligi masalasi qadimdan hozirgacha falsafiy, siyosiy, sotsiologik va iqtisodiy fanlarda o‘rganib kelinmoqda. Zamonaviy davrda indikatorlar, statistik tahlillar va ijtimoiy monitoring asosida bu muammo chuqur va tizimli o‘rganilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida tashkil etildi. Xususan, tizimli-funksional tahlil usuli orqali jamiyat barqarorligini ta’minlovchi omillar – siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy barqarorlik tahlil qilindi. Respublika Statistika agentligi, UNDP, Gallup va boshqa xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga asoslangan sotsiologik hamda jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni kyzatish maqsadida empirik usullardan foydalanildi. Shu bilan birga,

qiyosiy tahlil yöli bilan O‘zbekistonning indikatorlari boshqa mintaqaviy va global davlatlar bilan solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyat barqarorligi holati siyosiy ishonch, iqtisodiy farovonlik, ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik va mafkuraviy mushtaraklik kabi komponentlar bilan belgilanadi. Chunki barqarorlik jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va mafkuraviy tizimlarning muvozanatli rivojlanishi orqali yuzaga keladi. Bu omillar ijtimoiy institutlar barqarorligini ta’minlaydi va ularning o‘zaro integratsiyasini kuchaytiradi.

Xalqaro indekslar va milliy ctatistik ma’lumotlar tahlili O‘zbekistonda ushbu omillar bo‘yicha bir qator ijobiy natijalarga erishilayotganini ko‘rsatmoqda. Jumladan, siyosiy barqarorlikni ta’minlashda fuqarolarning hukumatga bo‘lgan ishonchi, saylov tizimi shaffofligi va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati muhim omillardir. 2023-yilda Gallup International tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi orasida hukumatga ishonch darajasi 72% ni tashkil etgan[13]. Bu ko‘rsatkich mintaqada eng yuqori darajalardan biri sifatida qayd etilgan.

So‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar doirasida quyidagi yutuqlarga erishildi:

- saylov tizimining ochiqligi va xalqaro normalarga muvofiqligi oshdi;
- parlament faoliyati sezilarli faollashdi, qonunchilik tashabbuslrida jamoatchilik ishtiroki kengaydi;
- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, xususan NNT va OAV erkinligi mustahkamlandi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi Markaziy bank va Statistika agentligi hisobotlariga muvofiq tahlil qilinganda, oxirgi yillarda iqtisodiy ko‘rsatkichlar quyidagicha o‘zgargan:

- 2019-yilda yalpi ichki mahsulot (YAIM) o‘sish sur’ati 5,2% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 5,6% ga yetgan. 2024-yil uchun prognoz ko‘rsatkich 6,0% atrofida bo‘lishi kutilmoqda;
- inflyatsiya darajasi 2019-yilda 16% bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 11% gacha pasaygan. 2024-yilda bu raqam 8% ga tushirilishi rejalashtirilgan;
- rasmiy ishsizlik darajasi 2019-yilda 9,3% bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 8,5% ga kamaygan va 2024 yilda 8% ga yetishi kutilmoqda;
- Yashirin ishsizlik hanuzgacha yuqori bo‘lib, 2019-yilda 15% atrofida bo‘lgan va 2023-yilda 14,5% atrofida saqlanib qolmoqda[14].

Ma’naviy barqarorlik esa jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va umumqabul qilingan qadriyatlar asosida qaror topadi. Bu borada ham O‘zbekistonda quyidagi ijobiy korsatkichlar mavjud:

- 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashayotgan ko‘p millatli davlat sifatida tan olingan;

-16 dan ortiq diniy konfessiyalar teng imkoniyatlar va diniy bag‘ri kenglik asosida faoliyat yuritmoqda;

- UNESCO tomonidan ilgari surilgan madaniyatlararo muloqot tamoyillarini faol qo‘llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, raqamli madaniyatning jadal rivojlanishi, global media kontentning yoshlarga ta’siri va mehnat migratsiyasi oqibatida ma’naviy identifikatsiya muvozanati sinovdan o‘tmoqda.

O‘zbekistonda mafkuraviy barqarorlik “Yangi O‘zbekiston – yangi imkoniyatlar davlati”[15] konsepsiyasi doirasida ta’minlanmoqda. Bu konsepsiya:

- Ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash;
- davlat va xalq o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash;
- Innovatsion va ochiq jamiyat qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda jamiyat barqarorligiga ta’sir qiluvchi xalqaro Statistik indikatorlar asosidagi baholanganda, 2023-yil holatiga ko‘ra, ijtimoiy barqarorlikni ifodalovchi asosiy indikatorlar quyidagilardan iborat[16]:

- Gini koeffitsiyenti – 0.344: Bu ko‘rsatkich daromadlar tengsizligining nisbatan past darajada ekanini bildiradi;
- Inson salohiyati indeksi (HDI) – 0.745: Bu esa ta’lim, sog‘liqni saqlash va yashash darajasining yaxshilanishini ko‘rsatadi;
- Ijtimoiy barqarorlik indeksi (SSI) – 0.64: Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston jamiyati beqarorlik zonasidan chiqib, barqarorlik zonasiga yaqinlashayotganini anglatadi.

Hududiy nomutanosibliklar va xavf indikatorlari asosidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik darajasi Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi markaziy hududlarda yuqori bo‘lsa, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Jizzax kabi chekka hududlarda nisbatan past. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2024-yil holatiga:

- Toshkent shahri YAIMning 35–40% ni;
- markaziy viloyatlar byudjet tushumlarining 70% ni tashkil qiladi;
- zamonaviy tibbiy xizmatlar va ta’lim infratuzilmasining 80% dan ortig‘i ana shu hududlarda to‘plangan.

Aksincha, chekka hududlarda aholining davlatga ishonchi pastligi, yoshlar migratsiyasi, bandlikdagi nomutanosiblik va infratuzilma yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Bu holat uzoq muddatli barqarorlikka tahdid solishi mumkin.

Shu munosabat bilan, hududlarni kompleks rivojlantirish strategiyasi – 2030 doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

-yangi infratuzilmaviy loyihalarni joriy etish;
-hududiy sarmoya oqimini rag‘batlantirish;
- mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik darajasi poytaxt va yirik sanoat markazlari (Toshkent, Samarqand) bilan chekka hududlar (Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston) o‘rtasida sezilarli farq qiladi. Bu nomutanosiblik uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda olib borilayotgan tizimli islohotlar ijtimoiy barqarorlikka musbat ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq bu barqarorlik holati dinamik tusga ega bo‘lib, uni saqlab qolish uchun doimiy monitoring, sotsiologik tahlil va siyosiy-iqtisodiy muvozanatni ta’minlash talab etiladi.

Hududiy tafovutlar, ijtimoiy xizmatlarga nisbatan imkoniyatlar tengsizligi, mehnat migratsiyasining yuqoriligi va yoshlar o‘rtasida muqobil qadriyatlarga moyillik mavjudligi O‘zbekistonda jamiyat barqarorligining zaif nuqtalarini tashkil etadi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonida ishsizlikning yangi shakllari, ayniqsa byurokratik soha xodimlari orasida yuzaga kelayotgan tahdidlar ham jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan tahlillar asosida jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

-har yili ijtimoiy barqarorlik bo‘yicha milliy indeksni ishlab chiqish va monitoring qilish tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim;

-hududiy barqarorlik strategiyalari ishlab chiqilishi va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik indikatorlar asosida alohida siyosat yuritilishi tavsiya etiladi;

-raqamli iqtisodiyotga mos kasbiy qayta tayyorlash markazlari faoliyatini kengaytirish zarur;

-yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni mustahkamlovchi axborot-ma’rifiy dasturlar ishlab chiqilishi kerak;

-ijtimoiy barqarorlikni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish uchun mustaqil tadqiqot institutlari va universitetlar huzurida ixtisoslashgan markazlar tashkil etilishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Афлотун. Давлат.– Т.: Янги аср авлоди.2024 й. 512 бет.
2. Aristotel. Siyosat. Qadimgi yunon falsafasi ontologiyasi. Toshkent: Fan, 1990.
3. Ibn Xaldun. Muqaddima.--. TUIST AND SUPPORT.2025 y.440 bet.
4. Hobbes T. Leviathan. Penguin Classics, 1985.
5. Weber M. Economy and Society. University of California Press, 1978.
6. Parsons T. The Social System. Free Press, 1951.
7. Linz J., Stepan A. Problems of Democratic Transition and Consolidation. Johns Hopkins University Press, 1996.
8. Inglehart R., Welzel C. Modernization, Cultural Change and Democracy. Cambridge University Press, 2005.
9. Kaufmann D., Kraay A. Governance Indicators: Where Are We, Where Should We Be Going? The World Bank Research Observer, 2008.
10. Nazarov M. “Ijtimoiy barqarorlik va indikatorlar tizimi”. Falsafa va huquq jurnali, 2(88), 55–63.2022.
11. Jo‘rayev A., Karimov D. Zamonaviy jamiyatda barqarorlik muammolari. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2021.
12. UNDP. Human Development Report, 2023. https://hdr.undp.org
13. Gallup International. Trust in Government Index, 2023. https://www.gallup.com
14. Statistika agentligi: www.stat.uz
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy nutqlari. www.prezident.uz
16. World Bank. World Development Indicators, 2023. https://data.worldbank.org

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE IMPACT OF THE EDUCATIONAL INSTITUTION SYSTEM ON THE SPIRITUAL CULTURE OF THE INDIVIDUAL

Maxsudjonov Kamronjon
Head of the Department for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work
Karshi International University

Abstract. The article describes epistemology, its types, scientific views on the evolution of culture and their development. It is investigated that biological evolution has formed the physiological and moral character of man and gave impetus to cultural evolution, which adapted it to life in man, and that this is preserved genetically.

Keywords: evolutionary epistemology, three theories of Popper, struggle for existence, interdisciplinary approach, scientific evolutionary epistemology, information, genetic and cultural epistemology.

MA’RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA’NAVIY MADANIYATIGA TA’SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Maxsudjonov Kamronjon Maxsudjonovich
Qarshi xalqaro universiteti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar boshqarma boshlig‘i
E-mail: kmaqsudjonov@gmail.com

Annotatsiya. Globallashuv sharoitida shaxs ma’naviy madaniyatining shakllanishida ma’rifiy tashkilotlarning falsafiy o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot aksiologik va sotsial-falsafiy yondashuvlarga asoslangan. Xulosa tariqasida, ma’rifiy muassasalar ijtimoiy ong va mas’uliyatni shakllantiruvchi strategik institut sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: shaxs ma’naviy madaniyati, ma’rifiy tashkilotlar, globallashuv, ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar, aksiologiya, tarbiya muhiti.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N18

Kirish. Bugungi kunda globallashuv insoniyat tafakkurini nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyotga, balki mavjudlik mohiyati (ontologiya) va qadriyatlar tizimi (aksiologiya)ga oid murakkab savollarga yuz tutishga majbur qilmoqda. Jamiyatda shakllanayotgan axborot oqimi va madaniy gibridlik shaxs ma’naviy barqarorligini sinovdan o‘tkazmoqda. Ayniqsa, zamonaviy falsafa sohasida ijtimoiy ong va axloqiy pozitsiyaning izchil shakllanishi ustuvor ilmiy-analitik yo‘nalishlardan biri sifatida baholanmoqda. Ushbu kontekstda ma’naviy madaniyat faqat shaxsiy kamolot omili bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxs ma’naviy madaniyati, odatda, axloqiy normalarga muvofiq fikrlash, qadriyatlarga tayanib yashash, ijtimoiy ongda o‘zini anglash va jamiyat oldidagi mas’uliyatni sezish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu holat insonning nafaqat ichki olami, balki tashqi ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham shaxsning bu jihatini

shakllantirishda ta’lim va targ‘ibot bilan shug‘ullanuvchi institutlarning jamiyatdagi aksiologik muvozanatni ta’minlashdagi funksiyasi kompleks ilmiy tahlil doirasida o‘rganilishi lozim. O‘zbekiston tajribasida mustaqillikdan so‘ng shakllangan davlat siyosati aynan shaxsning ma’naviy yetukligini rivojlantirishga qaratildi. “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tuzilmalar orqali olib borilayotgan tizimli ishlar shaxs ma’naviyati va ijtimoiy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan strategik mexanizmlarni shakllantirmoqda. Prezident farmonlari va qarorlarida (xususan, PQ–5040-sonli hujjatda) milliy g‘oya asosida ong va tafakkur makonini yangilash g‘oyasi ilgari surilgan. Bularning barchasi ma’rifiy tashkilotlar ijtimoiy muhitda shaxs ma’naviyatini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi[1, 2-b.].

Shu bilan birga, bugungi kunda globallashuv jarayonining axborot ekspansiyasi, madaniy universalizm va individualizm kuchayishi fonida shaxs axloqiy izolyatsiyaga uchrashi, qadriyatlardan uzoqlashishi mumkinligi ham kuzatilmoqda. G‘arb ilmiy doiralarida bu holat *“value disintegration”* (qadriyatlarning parokandaligi) yoki *“moral vacuum”* deb ta’riflanmoqda[2, 45-b.]. O‘zbek olimlari bu tahdidga nisbatan “ma’naviy bo‘shliq” atamasini ishlatmoqda va unga qarshi ma’rifiy institutlar vositasida ijtimoiy ongni qayta shakllantirish zaruratini asoslamoqda[3, 17-b.].

Shu bois, ushbu tadqiqotda maqsad — ma’rifiy tashkilotlarning shaxs ma’naviy madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni va ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini tahlil qilishdir. Maqolada bu masala faqat ma’rifat targ‘iboti nuqtai nazaridan emas, balki falsafiy, aksiologik va madaniy yondashuvlar asosida ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Globallashuv, shaxs ma’naviyati va ma’rifiy tashkilotlarning ijtimoiy-falsafiy o‘rni bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu muammo turli nuqtai nazarlardan tadqiq qilingan, biroq integrallashgan holda aks ettirilishi yetarli darajada chuqurlashmagan.

Shaxs ma’naviy madaniyati tushunchasi falsafa, pedagogika, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlarida turlicha talqin qilingan. Jumladan, G‘ofurov A. o‘zining “Shaxs ma’naviy madaniyati va jamiyat” nomli asarida bu tushunchani shaxs dunyoqarashlar tizimi, qadriyatlar iyerarxiyasi va ma’rifiy ong darajasining sintezlangan ko‘rinishi sifatida tavsiflaydi[4, 12-15-b.].

Mahmudov H. esa ma’naviy madaniyatni shaxsning “ijtimoiy kodga bo‘ysunish ixtiyori” deb ataydi va bu bilan uni jamiyatdagi axloqiy normalar bilan uyg‘unlikda ko‘radi[5, 47-b.].

Adabiy manbalarda ma’rifiy tashkilotlar – fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat kengashlari, diniy-ma’rifiy markazlar – shaxs va jamiyat o‘rtasidagi axborot-ko‘prik, axloqiy filtr hamda qadriyatlarni tashuvchilik funksiyalarini bajaruvchi institutlar sifatida ta’riflanadi.

Masalan, Hasanov B.ning ta’kidlashicha, bu tashkilotlar “g‘oyaviy bo‘shliq” ni to‘ldirishda ijtimoiy-kommunikativ platformani ta’minlaydi[6, №4-son]. Xususan, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari faoliyati bu borada model darajasidagi tajriba sifatida ko‘rilmoqda[7].

Jahon miqyosida olib borilgan falsafiy tadqiqotlarda shaxs ma’naviyati va globallashuv o‘rtasidagi murakkab munosabatlar ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Huntington va Fukuyama kabi g‘arb olimlari bu jarayonda **“madaniyatlar to‘qnashuvi” va “ma’naviy nevroz”** holatlarini ilgari surgan[8, 112-b.].

O‘zbek olimlari orasida Yusupov I. va Sobirov D. bu tahdidni inkor etmaydi, lekin uni ijobiy integratsiya orqali nazorat qilish mumkinligini ta’kidlaydi[9, 91-b.]. Aynan ma’rifiy tashkilotlar bu o‘zaro ijtimoiy himoya mexanizmini ta’minlovchi vosita sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qabul qilingan konseptual hujjatlar (masalan, PQ–5040-sonli Prezident qarori) asosida “milliy qadriyatlar asosida axloqiy immunitet” tushunchasi ilgari surildi[10, 2-b.]. Bu esa shaxs ma’naviy madaniyatini nafaqat ta’lim tizimi orqali, balki ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy media, jamoatchilik faollari orqali ham shakllantirishni taqozo etmoqda[11].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, shaxs ma’naviy madaniyati masalasi bugungi globallashuv davrida **ijtimoiy-falsafiy va aksiologik yondashuvlar asosida tahlil qilinmasa**, u shunchaki sotsiologik yoki psixologik muammo darajasida qoladi. Tadqiqotda esa bu ko‘lam falsafa nuqtai nazaridan chuqurlashtirilmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda shaxs ma’naviy madaniyatining shakllanishi jarayonida ma’rifiy tashkilotlar tizimining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi fanlararo yondashuvga tayanib, falsafa, ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya va pedagogikaning kesishgan nuqtalaridan foydalanishga qaratildi. Ushbu yondashuv orqali shaxsning axloqiy va madaniy identiteti ma’naviy qadriyatlar tizimi bilan o‘zaro bog‘liq tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqot quyidagi falsafiy yondashuvlarga asoslandi:

Aksiologik yondashuv – shaxs tomonidan ma’naviy qadriyatlarning qabul qilinishi va ularning ongli ijtimoiy xulqdagi ifodalanishi mexanizmlarini tahlil qilishga xizmat qildi.

Ontologik yondashuv – shaxsning mavjudligi va uning ma’naviy jihatdan tarkib topishi jarayonini ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda tahlil etishga imkon berdi.

Fenomenologik yondashuv – shaxsning ma’naviy tajribasini ichki idrok, axloqiy sezgi va ijtimoiy tajriba orqali anglash imkonini berdi.

Sotsial-falsafiy yondashuv – ijtimoiy institutlarning shaxsga ko‘rsatadigan aksial ta’sirini tushuntirish uchun qo‘llanildi.

Bu yondashuvlar yordamida ma’naviy madaniyat ijtimoiy taraqqiyot va individual ong o‘rtasidagi dinamik bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Natija va tahlil. Ushbu tadqiqot doirasida ma’naviy madaniyatning shaxs hayotidagi o‘rni, u qanday shakllanishi va bu jarayonda ma’rifiy tashkilotlarning tutgan roli chuqur tahlil qilindi. Shaxsning ma’naviy madaniyati ijtimoiy qadriyatlar, milliy o‘zlik, axloqiy mezonlar va ongli mas’uliyat asosida qaror topadi. Bu komponentlar esa aynan ta’lim va tarbiya institutlari orqali shakllantiriladi [12, 45-b.].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan ma’rifiy tashkilotlar (maktablar, oliy o‘quv yurtlari, ma’naviyat markazlari, diniy-ma’rifiy tashkilotlar va yoshlar bilan ishlovchi nodavlat tashkilotlar) shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishda ijtimoiy-filtr vazifasini o‘taydi. Ularning faoliyati orqali axloqiy ong, madaniy identitet va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim ijtimoiy xususiyatlar rivojlanadi [13, 2-b.].

Misol uchun, 2022-yilda O‘zbekiston bo‘ylab 2 000 nafardan ortiq yoshlar orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 73 foizi shaxsiy qadriyatlar tizimi aynan ta’lim muassasasida shakllanganini bildirgan. 58 foizi esa birinchi marotaba axloqiy-me’yoriy tushunchalar bilan aynan maktabda tanishganini ta’kidlagan [14, 8-b.]. Bu esa ta’lim tizimining nafaqat bilim, balki ma’naviyat shakllanuvchisi sifatidagi funksiyasini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaxsda barqaror ma’naviy madaniyat shakllanishi uchun uchta asosiy omil muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan. Uzoq muddatli va izchil tarbiya muhiti – bu shaxsda axloqiy xulq va qadriyatlar tizimining shakllanishini ta’minlaydi. Barqaror tarbiya muhiti bo‘lmasa, shaxs ijtimoiy-axloqiy jihatdan beqaror bo‘lib qoladi va bu jamiyatdagi qadriyatlar uzviyligini buzadi;

Ikkinchidan. Barqaror qadriyatlar tizimini uzluksiz targ‘ib qiluvchi ma’rifiy makon – bu makon shaxsni mustahkam g‘oyaviy pozitsiyaga ega qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular doimiy ravishda ma’naviy-me’yoriy bilimlarni singdirib boradi va shaxsda qadriyatlar zanjiri uzilmasligiga xizmat qiladi;

Uchinchidan. Ongli, madaniy va aksial yondashuv asosida faoliyat yurituvchi tashkilotlar – bunday tashkilotlar shaxsda ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy tanlov, tolerantlik, madaniy identitet kabi kompleks fazilatlarni uyg‘otadi va ularni ongli ravishda shakllantiradi.

Ma’rifiy tashkilotlar bunday omillarni birlashtirgan holda ta’sirchan tarbiya maydoniga aylanadi. Misol tariqasida, O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat markazi”ning 2021–2023-yillardagi hisobotlari asosida aniqlanishicha, ushbu markaz tomonidan o‘tkazilgan 450 dan ortiq tadbirlar orqali 15 mingdan ziyod talabaga milliy g‘oyalar, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot va fuqarolik mas’uliyati mavzulari bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy bilimlar singdirilgan [15, 11-b.].

Qolaversa, xorijiy tajriba ham tahlil qilindi. Turkiyada 2010-yildan boshlab “Meneviy değerler eğitimi” (Ma’naviy qadriyatlar tarbiyasi) dasturi asosida maktab darslariga diniy-axloqiy komponentlar integratsiya qilinmoqda. Malayziyada esa “Islamic Value-based Education” modeli orqali yoshlarning axloqiy jihatdan shakllanishi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. AQShda esa “Character Education” dasturlari orqali yoshlar orasida ijtimoiy javobgarlik, halollik, adolat va vatanparvarlik kabi qadriyatlar ijtimoiylashtirilmoqda [16, 35-b.][17, 9-b.].

Bu mamlakatlar tajribasi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bilan ma’no va maqsad jihatidan uyg‘un bo‘lib, mahalliy sharoitda moslashtirilgan holda amalga oshirilmoqda. Biroq mahalliy amaliyotda ba’zi muammolar ham mavjud: tashkilotlar o‘rtasidagi metodik tafovut, faoliyatdagi kampaniyaviylik, ishtirokchilarning passivligi, va monitoring mexanizmining sustligi. Bu muammolarni hal qilish uchun muvofiqlashtiruvchi markazlar, doimiy pedagogik treninglar va feedback (aloqa) tizimining yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Shuningdek, fenomenologik tahlil asosida aniqlanishicha, shaxsda axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati, ma’naviy refleksiya va ijtimoiy mas’uliyat hissi ko‘pincha bevosita tashkil etilgan muhit (maktab, universitet, oilaviy tarbiya, diniy institutlar) sifatiga bog‘liqdir [18, 122-b.]. Bunday muhitlarda mavjud qadriyatlar nafaqat verbal, balki amaliy tajriba orqali o‘zlashtiriladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Ma’naviy madaniyatning shakllanishida ma’rifiy tashkilotlar muhim ijtimoiy institut sifatida qatnashadi. Ular shaxsni axloqiy, g‘oyaviy va madaniy jihatdan shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi;

Ma’rifiy makonning barqarorligi, tarbiya jarayonining izchilligi va ongli yondashuv asosida olib borilishi shaxsda ma’naviy qadriyatlarning mustahkam qaror topishiga xizmat qiladi;

Xorijiy tajribalarning o‘rganilishi O‘zbekistonda mavjud amaliyotga yangicha yondashuvlar kiritish imkoniyatini yaratadi;

Biroq, mahalliy tizimda mavjud ayrim muammolar – metodik yondashuvlarning xilma-xilligi, monitoringning sustligi, va tashkilotlararo koordinatsiyaning yetarli emasligi – umumiy samaraning pasayishiga olib kelmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar bildiriladi:

1. Ma’naviy-ma’rifiy tashkilotlar o‘rtasida yagona metodik platforma ishlab chiqilishi, bu orqali barcha tashkilotlar uchun umumiy mezon va indikatorlar belgilanishi zarur;
2. Ta’lim muassasalari va ma’naviyat markazlari o‘rtasida uzviy hamkorlik asosida muntazam monitoring va tajriba almashish tizimi joriy etilishi lozim;
3. Pedagog va tarbiyachilar uchun ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilishi zarur;
4. Xorijiy ilg‘or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirishda selektiv yondashuv asosida milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan model ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq;
5. Ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish maqsadida yoshlar ishtirokidagi interaktiv metodlar (forumlar, debatlar, drama-terapiya, aksion tadbirlar) keng joriy etilishi lozim.

Shu tarzda, ma’rifiy tashkilotlar shaxsning madaniy-ma’naviy rivojida muhim strategik rol o‘ynaydi va ularning faoliyatini takomillashtirish milliy ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. PQ–5040-sonli Prezident qarori, 2021-yil 26-mart. – 2-b.
2. Huntington S. *The Clash of Civilizations*, N.Y., 1996. – 45-b.
3. G‘ofurov A. *Shaxs ma’naviy madaniyati va jamiyat*. – Toshkent: Fan, 2021. – 17-b.
4. G‘ofurov A. *Shaxs ma’naviy madaniyati va jamiyat*. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 12–15.
5. Mahmudov H. *Ma’naviy qadriyatlar evolyutsiyasi*. – Samarqand, 2019. – B. 47.
6. Hasanov B. *Ma’rifiy tashkilotlar ijtimoiy ongda*. – O‘zbekiston falsafasi, 2020. – №4.
7. “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi faoliyati to‘g‘risidagi nizom. – www.srsl.uz, 2023.
8. Huntington S. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. – N.Y., 1996. – 112-b.
9. Yusupov I., Sobirov D. *Globallashuv va identitet muammosi*. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 91-b.
10. PQ–5040-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori, 2021-yil 26-mart.
11. TIIAME. *Axborot-targ‘ibot ishlari samaradorligi*. – www.staff.tiiame.uz, 2023.
12. G‘ofurov A. Shaxs ma’naviy madaniyati va jamiyat. Toshkent: Fan, 2021. – 45-b.
13. PQ–5040-sonli Prezident qarori. 2021-yil 12-fevral. https://lex.uz/docs/5343585 – 2-b.
14. Yoshlar ishlari agentligi. Ijtimoiy so‘rovlar natijalari. Toshkent, 2023. – 8-b.
15. O‘zbekiston Milliy universiteti Ma’naviyat markazi hisobotlari, 2023. – 11-b.
16. Erdoğan M. Türk Eğitim Bilimleri Dergisi, 2019, №1(25). – 35-b.
17. U.S. Department of Education. Character Education Program Reports, 2020. – 9-b.
18. Ricoeur P. Sebya kak drugovo. M.: Izdatelstvo GU VShE, 2010. – 122-b.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

INTEGRATION OF EDUCATION AND VOCATIONAL TRAINING IN THE ERA OF INDUSTRY 4.0: A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH

Kochkarov Oybek Gulomovich
Independent researcher at Fergana State University

Abstract. This article analyzes the integration of the education and vocational training systems in the context of the Fourth Industrial Revolution — Industry 4.0 — from a socio-philosophical perspective. It substantiates the need to reconsider the content and methodology of vocational education in light of digital technologies, automation, and the evolving demands of the labor market. Particular attention is given to dual education, the development of human capital, and the individual's responsible engagement with labor in modern society.

Keywords: industry 4.0, vocational education, integration, digital technologies, labor market, dual education, philosophical approach, human capital.

INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV

Qo'chqarov Oybek G'ulomovich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: oykuchkarov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoatning to'rtinchi inqilobi – Industriya 4.0 sharoitida ta'lim va kasb-hunar tizimining o'zaro integratsiyasi ijtimoiy va falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga mos holda, kasbiy ta'limning mazmuni va metodologiyasini qayta ko'rib chiqish zarurati asoslab beriladi. Dual ta'lim, inson resurslarini rivojlantirish, va zamonaviy jamiyatda shaxsning mehnatga nisbatan mas'uliyatli yondashuvi asosiy mavzular sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: industriya 4.0, kasb-hunar ta'limi, integratsiya, raqamli texnologiyalar, mehnat bozori, dual ta'lim, falsafiy yondashuv, inson kapitali.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N19

KIRISH

XXI asr boshidan beri insoniyat tarixida ilgari hech qachon ko'rilmagan darajada texnologik taraqqiyotga guvoh bo'lmoqda. Raqamli vositalar, sun'iy aql, katta hajmdagi ma'lumotlar, kiberfizik tizimlar va tarmoq iqtisodiyoti asosida vujudga kelayotgan Industriya 4.0 tushunchasi sanoat, iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar va ta'lim sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, xizmat ko'rsatish sohasida sun'iy aql imkoniyatlari kengaymoqda, bilimga asoslangan iqtisodiyot esa mehnat bozorining yangi shaklini yaratmoqda [1].

Bugungi sharoitda ta'lim tizimi, xususan, kasb-hunar va o'rta maxsus ta'lim, jamiyatning yangi talablariga moslashishi kerak. U inson kapitalini shakllantirib, raqobatbardosh, yangicha fikrlaydigan va ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan shaxslarni tayyorlashda bosh rol o'ynashi

shart. Lekin amaliyot shuni koʻrsatadiki, koʻplab mamlakatlarda, xususan, Oʻzbekistonda ham kasb-hunar ta’limi koʻpincha mehnat bozorining talablariga yetarlicha javob bera olmayapti. Natijada, malakali kadrlar yetishmasligi, yoshlar orasida ishsizlik va ijtimoiy nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkin.

Industriya 4.0 davrida ta’limga yondashuvni yangilash – bu faqat texnik yoki metodik masala emas. Bu insonni mehnat, texnologiya va jamiyat bilan uygʻunlashtirishga qaratilgan chuqur, falsafiy jarayon. Ushbu oʻzgarishlarda ta’limning eng asosiy mohiyati – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning kasbiy salohiyatini jamiyat manfaati uchun ishga solish, eng muhimi, insonni “texnologik muhitda ijtimoiy subyekt” sifatida shakllantirish masalasi yanada dolzarblashmoqda [3].

Ushbu maqolada kasb-hunar va oʻrta maxsus ta’lim tizimi bilan mehnat bozori oʻrtasidagi chuqur bogʻliqlik, ayniqsa dual ta’lim modellari orqali amalga oshirilayotgan integratsiya keng koʻlamda yoritiladi. Shu bilan birga, bu jarayonning ijtimoiy va falsafiy ildizlari ham batafsil tahlil qilinadi. Diqqat markazida – shaxs va jamiyatning oʻzaro munosabatlari, insonning mehnat maydonidagi oʻrni, texnologiyalar bilan uygʻunlashuvi hamda ijtimoiy identifikatsiyasining shakllanishi kabi masalalar turadi.

Shunday qilib, ta’lim va kasb-hunar tizimini nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning, balki insoniy qadriyatlar, ma’naviy poydevor va ijtimoiy barqarorlikning asosiy ustunlaridan biri sifatida koʻrish zarur. Shu nuqtai nazardan, maqola ta’lim sohasidagi oʻzgarishlarni ijtimoiy va falsafiy kontekstda chuqurroq anglashga intiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Soʻnggi yillarda Industriya 4.0 tushunchasi jahon ilmiy va amaliy doiralarda keng muhokama qilinayotgan dolzarb mavzulardan biri boʻlib qoldi. Ayniqsa, bu atama 2011-yilda Germaniyada paydo boʻlib, hozirda global texnologik taraqqiyotning bosh yoʻnalishiga aylangan. Germaniyalik olim Klaus Shvab oʻzining mashhur “The Fourth Industrial Revolution” (“Toʻrtinchi sanoat inqilobi”) asarida bu inqilobni nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, madaniy va gumanitar oʻzgarishlarning manbai deb ta’riflaydi. Unga koʻra, bu davrda insoniyat oʻz faoliyati va yashash tarzini butunlay qayta koʻrib chiqishga majbur boʻlmoqda. [1; 8].

Bugungi kunda ta’lim sohasiga ta’sir etayotgan oʻzgarishlar bevosita yangi ishlab chiqarish jarayonlari, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish bilan bogʻliq. Inson kapitaliga boʻlgan talab tubdan oʻzgarib, endilikda kasb-hunar va oʻrta maxsus ta’lim tizimi faqat nazariy bilim berishdan iborat emas. U mehnat bozorining yangi talablari asosida, innovatsion yondashuvlarga ochiq, hamda ijtimoiy mas’uliyatni anglaydigan mutaxassislarni tayyorlashga yoʻnaltirilishi zarur.

Xalqaro tajribalar, xususan Germaniya, Avstriya va Shveysariya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan dual ta’lim modeli bunga yaxshi misol boʻla oladi. Bu model nazariy bilimlar bilan amaliy ishlarni birlashtirib, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda samarali yechim sifatida koʻrilmoqda[10; 7]. Oʻzbekiston ham bu yoʻnalishda qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” (PQ-5812, 2019-yil) dual ta’lim elementlarini joriy qilish va ta’lim bilan ishlab chiqarish oʻrtasidagi uzviy aloqani ta’minlashni koʻzda tutgan[5].

Oʻzbekistonlik olimlar, xususan A.Joʻrayev, M.Yuldashev va N.Toshxoʻjayev kabi mutaxassislar kasb-hunar ta’limini yangilash borasida nazariy asoslar yaratishda faol ishtirok etishmoqda. Mahalliy ilm-fan vakillari bu muhim masalaga chuqur e’tibor qaratib, oʻz

qarashlarini ilgari surishmoqda. Ayniqsa, N.Toshxo‘jayev milliy kasb-hunar ta’lim modelini shakllantirishda ijtimoiy ehtiyojlar, mehnat bozori va madaniy qadriyatlarning uyg‘unligi katta ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi[3]. A. Jo‘rayev esa kasbiy identifikatsiya jarayonida “ta’lim falsafasining gumanistik negizlari”ni chuqur tahlil qiladi va ta’lim tizimini “shaxsni mehnatga tayyorlovchi ijtimoiy institut” deb ataydi[2].

Ken Robinson esa ta’lim tizimini innovatsion fikrlashga yo‘naltirish zarurati haqida so‘z yuritadi[4].

Ushbu maqolada metodologiya sifatida bir nechta yondashuv birlashtirilgan. Birinchi o‘rinda, tizimli yondashuv ta’lim bilan mehnat bozori o‘rtasidagi aloqani ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy kontekstda chuqurroq anglashga yordam beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy-falsafiy yondashuv insonning texnologiyalar dunyosida o‘z o‘rnini topish, unga moslashish va faollashish jarayonlarini ochib beradi. Uchinchidan, komparativ tahlil orqali xalqaro tajribalar O‘zbekiston sharoitida solishtiriladi, bu esa imkoniyatlar va to‘siqlarni aniq ko‘rishga imkon beradi. Shu bilan birga, intervyu, ochiq so‘rov va kontent tahlili kabi sifatga yo‘naltirilgan metodlar kasb-hunar ta’limi muassasalari, ish beruvchilar va talabalar o‘rtasidagi bog‘lanishni yanada teran tahlil qilishga yordam beradi. Bu esa nazariyani amaliyot bilan boyitish imkonini beradi.

Natijada, ta’lim bilan mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘lanish nafaqat tashkiliy islohotlar yig‘indisi, balki inson va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy va ijtimoiy uyg‘unlik tamoyillariga asoslangan falsafiy jarayon sifatida ko‘riladi. Bu qarashlar ta’lim siyosatini yangilash, uni yangi davr talablari bilan moslashtirish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Kasb-hunar ta’limining o‘rni qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Raqamli iqtisodiyotda eski kasblar asta-sekin yo‘qolib borar ekan, yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, bu esa ta’lim dasturlarini o‘zgartirishga majbur qiladi. Endilikda har bir mutaxassis nafaqat o‘z sohasini bilishi, balki texnologiyalarni tushunishi, muammolarni tahlil qila olishi, moslashuvchan va jamiyatga javobgar bo‘lishi lozim. Afsuski, ko‘plab ta’lim muassasalari hali ham bozor ehtiyojlariga to‘liq javob bermaydigan kadrlar tayyorlamoqda. Natijada, ishsizlik, ijtimoiy norozilik va mehnat resurslarining behuda sarfi ortib bormoqda.

Ta’lim – bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki insonni jamiyatda faol qatnashuvchi shaxsga aylantirishdir. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, ta’limning o‘zgarishi insonning erkinlikka intilishi, ma’naviy yetukligi va texnologiyaga mas’ul yondashuvi bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim bilan texnologiya bir-birini inkor qilmasligi, aksincha, uyg‘unlashib yangi turdagi kasbiy va ijtimoiy o‘zligini shakllantirishi kerak[9].

NATIJA VA MUHOKAMA

Zamonaviy dunyo misli ko‘rinmagan tezlik bilan o‘zgarib bormoqda, va bu o‘zgarishlarning poydevorida aynan texnologiyalar turibdi. Industriya 4.0 davrida ta’lim tizimi ham yangicha talablarga yuz tutmoqda. Endi ta’lim faqat bilim berish emas, balki odamni har tomonlama rivojlantirish, unga yangi sharoitlarga moslashishni o‘rgatish vazifasini olmoqda.

Ma’lumot bilan amaliy ko‘nikmalar ajralmas bo‘lib, kasb-hunar ta’limi o‘z shaklini yangilayapti. Texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada jonli, interaktiv qiladi, o‘rganuvchilar o‘z qobiliyatlari va kasbiy yo‘nalishini aniqroq anglay boshlaydi. Shu yo‘l bilan nafaqat professional malaka, balki ijtimoiy mas’uliyat va o‘zini anglash tuyg‘usi ham rivojlanadi.

Jamiyat bilan texnologiya o‘rtasidagi bu o‘ziga xos bog‘liqlik ta’lim tizimini murakkabroq, lekin boy va ko‘p qirrali qiladi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv ta’limni faqat kasbiy

tayyorgarlik vositasi emas, balki insonning jamiyatdagi o‘rnini topish va uni jamiyat bilan uyg‘unlashtirish yo‘li sifatida ko‘radi.

Texnologiyalar esa oddiy vosita bo‘lib qolmay, aksincha, odamning o‘zligini anglashida, jamiyatga nisbatan mas’uliyatini his qilishida yordam beruvchi kuchga aylanmoqda. Shu sababli dual ta’lim va kasb-hunar tizimining yangi modeli nafaqat ishchi kuchini tayyorlabgina qolmay, balki jamiyatning ruhiy va madaniy rivojiga ham hissa qo‘shadi.

Shunday qilib, sanoat va ta’lim integratsiyasi faqat texnik masala emas, balki chuqur ijtimoiy va falsafiy jarayon sifatida qaralishi kerak. Bu tamoyilni anglaganimizda, biz zamonaviy davrga mos, bardoshli va o‘zgarishlarga tayyor avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz.

XULOSA

Bugungi kunda butun dunyoda yuz berayotgan texnologik taraqqiyot, xususan Industriya 4.0 deb ataluvchi yangi sanoat inqilobi, ta’lim tizimida tub burilishlarga sabab bo‘lmoqda. Raqamlashtirish, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va robototexnika kabi ilg‘or texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini, balki odamlarning hayoti, kasb-hunar tizimi hamda ta’lim muassasalarining mazmunini ham tubdan o‘zgartirmoqda.

Shu jarayonda kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’limning o‘rni va vazifalari qayta ko‘rib chiqilishi, ularni bozor ehtiyojlariga mos ravishda integratsiyalash va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu masala nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va falsafiy jihatdan ham keng yondashuvni talab qiladi.

Ushbu maqola aynan shunday nuqtai nazardan ta’lim bilan kasb-hunar tizimining integratsiyasi, uning ijtimoiy ta’siri va gumanistik-falsafiy asoslarini ochib beradi. Industriya 4.0 sharoitida ta’lim va kasb-hunar tizimlarining o‘zgarishi faqat texnik yoki iqtisodiy omillar bilan cheklanmasdan, balki ijtimoiy va falsafiy mezonlar asosida ham amalga oshirilishi zarur.

O‘zbekistonning milliy rivojlanish strategiyasi doirasida ta’lim tizimi bozor bilan uyg‘unlashgan, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan, insonparvarlik tamoyillariga tayangan tizimga aylanishi lozim. Shu bois:

- Kasb-hunar ta’limi raqamli texnologiyalar asosida yangilanishi muhim;
- Ta’lim tizimi shaxsning ijtimoiy faolligi va axloqiy yetukligini shakllantirishi kerak;
- Falsafa va gumanitar fanlar texnologik ta’limning ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Natijada esa, zamonaviy jamiyat talablari asosida moslashuvchan, mustaqil fikrlay oladigan va ijtimoiy mas’uliyatni his qiluvchi mutaxassislar yetishib chiqadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2016.
2. Jo‘rayev A. Ta’lim falsafasining gumanistik negizlari // Ta’lim va jamiyat. — 2021. — №3(12). — B. 45–53.
3. Toshxo‘jayev N. Kasb-hunar ta’limining milliy modeli va ijtimoiy ehtiyojlar // Ijtimoiy fanlar. — 2020. — №4(5). — B. 112–120.
4. Robinson K. Changing Education Paradigms [Video Lecture]. RSA Animate, 2010.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni davlat dasturi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

7. Bakhshi H., Downing J. M., Osborne M. A., Schneider P. The Future of Skills: Employment in 2030. UK Commission for Employment and Skills, 2017.
8. Schwab K. Shaping the Fourth Industrial Revolution. Currency, 2018.
9. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris, 2019.
10. European Centre for the Development of Vocational Training (Cedefop). The changing nature and role of vocational education and training in Europe. Luxembourg, 2018.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF ENVIRONMENTAL CONFLICT

Otakulov Elyor Madiyorovich
Researcher at Bukhara State University

Abstract. This article explores the philosophical essence of environmental conflict. In the past, disagreements mainly arose over natural resources such as oil and gas; however, today humanity is facing serious confrontations over water. Environmental protection has become one of the most pressing issues for all nations. The article partially highlights possible solutions to environmental conflicts.

Keywords: environmental conflict, norms of using eco-components, interstate environmental cooperation.

EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI

Otaqulov Elyor Madiyorovich
Buxoro davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: elyor.madiyorovich@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ekologik konfliktning falsafiy mohiyati yoritilgan. Ilgarilari tabiat zaxiralari neft va gaz uchun kelishmovchiliklar kuzatilgan bo‘lsa, endi insoniyat suv uchun jiddiy to‘qnashuvlarga duch kelmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish barcha davlatlarning eng jiddiy muammosi bo‘lib qoldi. Ekologik konfliktlar yechimi muayyan darajada maqolada yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik konflikt, ekokomponentlardan foydalanish me’yori, davlatlararo ekologik hamkorlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N20

Kirish. Tabiat olami xilma-xil jonli va jonsiz, tabiiy zaxiralar, ekotizim, bioxilma-xilliklarga boy bo‘lgan moddiy borliq, tabiat yagona. Tabiat va undagi barcha ne’matlar barchasi insoniyat yashashi uchun noyob tuhfadir. Insoniyat taraqqiy etishi bilan tabiat olamiga bo‘lgan munosabat ham bir qator o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirdi. Insoniyat tabiatga gohida fidokorona, gohida vahshiyona munosabatda bo‘ldi. Gohida o‘z munosabatlarini oqilona deb hisoblab, o‘zi anglamay xatoliklarga yo‘l qo‘ydi. Insoniyatning tabiatga har qanday munosabati ertami-kechmi o‘ziga qaytib kelishi mumkinligini aslo xayoliga keltirmadi.

Asosiy qism. Konflikt — degani, insonlar o‘rtasidagi yoki guruhlar orasidagi kelishmovchilik, ziddiyat yoki to‘qnashuv demakdir. Bunday holatlarda manfaatlar, maqsadlar, yoki qarashlar bir-biriga zid keladi va bu ziddiyat salbiy his-tuyg‘ular bilan birga kechishi mumkin. Konflikt, asosan, ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘rtasidagi kelishmovchilik va ziddiyatni anglatadi. Bu ziddiyat turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin, masalan, manfaatlar to‘qnashuvi, turli qarashlar yoki nizoli vaziyatlar. Konflikt jarayonida tomonlar bir-biriga qarshilik ko‘rsatishi, muloqotdan qochishi yoki hatto to‘qnashuvlarga borishi mumkin. Ijtimoiy borliqda ham, tabiat borlig‘ida ham biz xilma-xil ziddiyat, to‘qnashuvlarga duch kelamiz.

Konflikt — insonlar, guruhlar yoki davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchilik yoki ziddiyatni ham anglatadi. Garvard universitetining professori Elton Meyo (1880-1949) fikriga ko‘ra, “konflikt – jamiyatdagi o‘ta mudhish “ijtimoiy kasallik”dir. Uni bartaraf etish uchun avvalo “ijtimoiy muvozanat” va “hamkorlik holati”ni davlat va jamiyatda qaror toptirish uchun harakat qilmoq kerak. Shundagina “sog‘lom jamiyat”ga erishish mumkin.

Konfliktning turli xil shakllari mavjud, jumladan:

- **Shaxslararo konflikt:** Bu ikki yoki undan ortiq odam o‘rtasidagi ziddiyat;
- **Guruhlar o‘rtasidagi konflikt:** Bu bir guruh ichida yoki turli guruhlar o‘rtasidagi ziddiyat;
- **Jamoaviy konflikt:** Bu jamiyatdagi turli guruhlar o‘rtasidagi ziddiyat;
- **Siyosiy konflikt:** Bu siyosiy kuchlar o‘rtasidagi ziddiyat;
- **Harbiy konflikt:** Bu qurolli kuchlar o‘rtasidagi ziddiyat;
- **Ekologik konflikt:** Ekologik komponentlarning (flora, fauna, havo, tabiat boyliklari-ko‘mir, neft, gaz, ekotizimlar va h.) tiklanish va sarflanish orasidagi mutanosiblikni buzilishi sababli yuzaga keladigan tabiat va inson orasidagi konflikt**;** Mutaxassislar tahlili natijasi shuni ko‘rsatadiki, AQSHda yer osti suvlarning foydalanishi uning tabiiy tiklanishiga nisbatan 25% tez sarflanmoqda. Bir samolyotning Yevropa bilan Amerika orasida qatnoviga 50-100 tonna kislorod sarflanadi. Bu kislorodni tiklash uchun esa 10 000 gektar o‘rmon bir kecha-kunduz vaqt sarflab, “ishlashi” zarur. Aslida o‘rmonlar shafqatsizlik bilan yo‘qotilib yuborilmoqda. Har bir mamlakat uchun o‘rmonlar me’yori ishlab chiqilishi lozim. Daraxtlarni kesish bir necha yilga to‘xtatilishi shart.

5500 yildan beri umrguzaronlik qilayotgan butun bir insoniyat tarixining atigi 292 yiligina urushsiz o‘tdi. Qolgan yillarning barcha-barchasida nizolar, ziddiyatlar, mojaro va qurolli to‘qnashuvlar, hatto urushlar bo‘lib o‘tdi. Xo‘sh, urush nima? Urushlar tabiat borlig‘iga qanday talafotlar yetkazishi mumkin?

E.Xemingueyning “Alvido qurol” asaridagi so‘zboshi u shunday yozadi:” Men ko‘p urushlarda qatnashdim, shuning uchun bu masalada g‘arazim qattiq, hatto juda ham qattiq. Bu kitobning (“Alvido qurol”) muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib kishilardir, frontning qizg‘in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko‘proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o‘ylamaydigan to‘ng‘izlardir. Men urushda boylik orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat grajdanlarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog‘i zarur, deb hisoblayman”.

Urushlar har vaqt ham insoniyatgagina emas, balki tabiatga, tabiat komponentlariga ham ulkan talafotlar keltirgan. Vayron qilingan binolar, qirilib ketgan yoshu-qari harbiylardan tashqari qanchadan-qancha o‘rmonlar, daryolar, bog‘lar, ekin maydonlari, havo hududlari ulkan bosimga uchrab ularni tiklash bir necha yuz yillarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Har **yilning 6–noyabr kunini jahon hamjamiyati “Urush va qurolli mojarolar paytida atrof-muhitdan foydalanishni oldini olish Xalqaro kuni”** deb tasdiqlagan. Zero, insoniyat o‘z xatti-harakatini, faoliyatini “aql” ko‘zgusidan o‘tkazib keyin harakat qilishini anglashi lozim.

1980-yillarda quruqlikdagi ekotizimlarning 20% buzilgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib buzilgan ekosistemalar 63%ni tashkil etadi. Ekotizim-ekosistemalarning ishdan chiqishiga

sabab asosan antropogen omil hisoblanadi. Har bir ekkokomponent suv, havo, tuproq, flora, fauna va mikroorganizmlar va hokazolar yashash, oziq-ovqat ishlab chiqarish, insoniyatni umr kechirishi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi, kamol topishi uchun eng muhim, eng noyob zaxira sanaladi.

Suv, havo, tuproq, o‘rmon – barcha-barchasi bu – hayot manbai. Insoniyatning butun umrguzaronlik davridan boshlab Yer sayyorasida atigi 292 yilgina urush bo‘lmagan davr bo‘lgan, xolos. Qolgan yillarning barchasida xilma-xil harbiy to‘qnashuv, urushlar bo‘lgan.

Urushlardan ko‘riladigan ekologik talafotlarni quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Tuproqning ifloslanishi va yemirilishi. Snaryadlar, bomba va minalar portlashi tufayli voronka paydo bo‘ladi, relyef buzilib, eroziyani chaqiradi, natijada tuproq qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun yaroqsiz bo‘lib qoladi. Zero, portlashlar tufayli tuproqda og‘ir metallar, zaharli kimyoviy birikmalar, portlatilmagan portlovchi qurollar yer ostiga yillar davomida qolib ketadi.

2. Harbiy texnikalar qanday zarar yetkazadi?

a) tuproqning yashil qoplamasini parokandalikka olib keladi;

b) harbiy texnikalarning og‘irligi tufayli tuproqning optimal zichligiga ya’ni 1,40 zarar yetkazadi.

v) tuproqdagi bir qator mikroorgazmlarni nobud qiladi.

3. Toksik gazlar va gerbitsidlar: konfliktlar davrida kimyoviy qurollar yoxud defoliantlar (masalan, “Agent Oranj” Vyetnamda) ishlatilganda tuproqning zaharlanishi vujudga kelib, ekotizimning faoliyatiga hamda aholi salomatligiga manfiy ta’sir qiladi.

4. Radioaktiv ifloslanish: Yadro qurollarini sinash radioaktiv ifloslanishga sabab bo‘ladi. Bunday ifloslanish uzoq muddatli va tirik organizmlar hayoti uchun nihoyatda xavfli bo‘lgan ifloslanishdir.

Hozirgi kunda toza ichimlik suvining yetishmasligi, havo haroratining o‘rtacha oshganligi, turlar bioxilma-xilligining keskin kamayib ketayotgani achinarli holat. Toza ichimlik suvi inqirozi anchagina jiddiy tus oldi. Olimlarning hisob kitobiga ko‘ra aynan chuchuk suvning potensial yetishmasligi yaqin kelajakda, hatto 2030-yilgacha bo‘lgan muddatda qurolli to‘qnashuvga sabab bo‘lishi mumkin.

Ekologik konfliktlarning hammasi ham qurolli to‘qnashuvga olib kelmasligi ham mumkin. Hammaga ma’lumki, O‘zbekistonda 2050-yilga borib suv tanqisligi besh barobarga oshishi ma’lum bo‘lib qoldi. Mamlakatda so‘nggi 15 yil ichida aholi jon boshiga yillik suv hajmi 3048 metr kubdan 1589 metr kubgacha kamaygan. Aynan mana shunday suv inqirozi O‘zbekistonni qiyin bir ahvolga solib qo‘ygan bir paytda Ozarbayjonlik tadbirkor Emin Agalarov tomonidan “Chorvoq” suv ombori atrofida See Breeze Uzbekistan sayyohlik markazining qurilishi chuqur ekologik va ijtimoiy inqirozni keltirib chiqardi. Ma’lumki, qurilayotgan har bir bino eng avvalo ekologik jihatdan asosli bo‘lishi, mehmonxonada chiqarilayotgan chiqindilar, oqava suvlarni tozalash tizim o‘rnatilishi lozim, haqiqatda esa bu tozalovchi uskunalar juda qimmatligi tufayli ular qurilajak mehmonxonada o‘rnatilmaydi. Demak, toza suv ombori suvining ifloslanish xavfi juda katta.

Ekologik konflikt: Tabiat borlig‘i yoxud biosferaning imkoniyat chegarasini inobatga olmay, ekokomponentlardan ayovsiz foydalanish; tabiat ne’matlarini ishlash faoliyatini cheklash, tabiat zaxiralaridan ayovsiz foydalanish, faqat hozirgi iqtisodiy foydani ko‘zlab qilingan faoliyatlar natijasidir.

Ekologik konflikt degan tushuncha nimani anglatadi? Ekologik konfliktlar tabiat bilan jamiyatning o‘zaro aloqadorligidan kelib chiqadi, insoniyat hayot tarzi tabiat borlig‘ida kechadi. Shu sababli **insoniyat tabiat borlig‘i va uning ne’matlaridan maksimum — eng yuqori ko‘rsatkichda foydalanishga harakat qiladi; tabiat va uning komponentlari esa o‘zining barqarorligi uchun intiladi.** Bu paytdagi ziddiyatlar oddiygina ziddiyat emas, balki ziddiyatlar o‘ramini hosil etadi. Insoniyat tabiiy ehtiyoj doirasidan chiqib, iste’molchilik, foyda va yana foyda olish uchun tabiatdan foydalansa, tabiat o‘z ekologik tizimini barqaror saqlashga urinadi. Bu ziddiyat tugunida iqtisodiyot, ijtimoiylik va yashash uchun kurash kabilar jipslashadi. Shu sababli ham, ekologik konfliktlar sotsiologiyadagi boshqa konfliktlarga nisbatan faqat ijtimoiy mazmungagina emas, balki ekzistensial mohiyatga, hayotni saqlab qolish, insonni, jonzotni saqlab qola olish muammolarini o‘z ichiga oladi. Ekologik falokat tufayli muayyan bir hududda ekologik zo‘riqqan holat vujudga keladi. Aynan mana shu holat ekologik konfliktlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ham, oldindan anglab, qilingan oqilona harakat bu holatni siyosiy tus olishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ekologik konfliktlar – ekologik xulq-atvor, xatti-harakatlar, foyda olish yoki ekologik bilimsizlik oqibatidan tufayli ro‘y beradi.

Har bir ekotizimdan foydalanayotgan inson esa uni tabiiy funksiyalarini saqlab qolishi haqidagi funksiyalarini nazarga ham olmay, hisobga ham olmay, foyda olish nuqtai nazaridan unga yondashadi. Bu tabiiy barqarorlikka intilish ekotizim funksiyasi bilan antropogen faoliyat orasidagi munosabat konfliktga olib keladi.

Ekologik konflikt umumiy (biologik, klassik) ekologiyada va ijtimoiy ekologiyada mavjud bo‘lsa-da, ularning namoyon bo‘lishi, omillari, ko‘lam darajalari turlicha, o‘ziga xosdir. Umumiy ekologiyadagi nizo, ziddiyatlar – bu tabiat qonuniyatlarini namoyon bo‘lishidan boshqa jarayon emas. Aniqrog‘i bu o‘rinda, konflikt tushunchasidan ko‘ra, Ch.Darvin e’tirof etganidek, “yashash uchun kurash” tushunchasi ishlatilsa juda o‘rinli bo‘ladi: turlararo yashash uchun kurash; tur ichida yashash uchun kurash; raqobat; simbioz; konkurensiya; “yirtqich-o‘lja”;”parazit-xo‘jayin” va ho. munosabatlar faqatgina ustuvorlik tabiiy borliq funksiyasi ko‘rinishida bo‘ladi xolos. Ijtimoiy ekologiyadagi konfliktlarning mohiyati, ko‘rinishlar ham murakkab va birgina tabiiy-ijtimoiy holatlar o‘ramigagina emas, balki o‘ta murakkab chigal, ijtimoiy holatlar o‘rami orasida namoyon bo‘ladi. Aniq qilib aytganda, ekologik konflikt faqat insonning tabiatga salbiy munosabatda ko‘rinishidangina iborat bo‘lmay, balki mamlakatlararo siyosiy munosabatlarni ham, iqtisodiy-huquqiy, milliy-diniy munosabatlarni ham o‘z ichiga olgan holda namoyon bo‘ladi. Bir mamlakatda daryo boshlansa, boshqa bir mamlakatda u tugaydi. Bir mamlakat muayyan ekologik komponent ta’minlovchisi, ikkinchisi esa uning iste’molchisi bo‘lishi mumkin. Ekologik me’yor, normalarga bir davlat qat’iy amal qilishi, ikkinchisi esa bunday tabiiy-ekologik me’yorlardan chetga chiqishi, uchinchi bir mamlakat esa umuman bu qoida-qonunlarga sira ham rioya etmasligi mumkin. Garchi inson biosferaning qaysi nuqtasida yashashidan qat’iy nazar, inson bo‘lib sanalsa-da, bir xil tabiiy-biologik ehtiyojga ega bo‘lsa ham, uning jahon zaxiralaridan foydalanish iste’molchilik darajasi bir xilda emas. Taxminan dunyo miqyosida 1,5 mlrd. kishi tabiat zaxiralarining ashaddiy iste’molchilari sanaladilar. Bular mashina egalari, muzlatgich, televizor, eng zamonaviy texnika jihozlari egalari, dunyo issiqlik manbalari, metallar, donlar, yog‘ochlik mahsulotlarini eng ko‘p iste’molchilari bo‘lib, eng ko‘p ehtiyojlar ularning ehtiyojlariga to‘g‘ri keladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida dunyoga kelgan yangi chaqaloqni boqish uchun Braziliya yoxud Indoneziyada dunyoga kelgan yangi chaqaloqqa nisbatan ikki barobar ko‘p boshoqli

mahsulotlar, 10 baravar koʻp neft lozim boʻladi. Shunga yarasha atrof-muhitning yanada koʻproq ifloslanishi ham kuzatilgan. Eng oddiy hisob-kitoblarning koʻrsatishicha, AQSH aholisining yilida 2,6 mln.ga koʻpayishi, jahon zaxiralariga boʻlgan tazyiqni, masalan, Hindistonda yiliga 17 mln. kishi oshishiga boʻlgan ehtiyoj darajasini qondiradigan boʻlakka mos kelgan [1].

Ekologik muammo yechimi – har bir mamlakat kishisidan oʻz rejasiz ehtiyojini **oqilona ehtiyojga** oʻtishni taqozo etadi. Oqilona ehtiyoj zamirida barcha ekokomponentlarning tabiiy-ekologik me'yoriga rioya etish va har bir ekotizimning imkoniyat chegarasidan chiqmaslik, ekokomponentlarning ekologik qiymatlarini saqlash tushuniladi. Zero, biosfera yer yuzidagi barcha insonlar uchun bitta, yagonadir. Ekologik muammoning boshqa milliy xavfsizlikka tahdiddan farqi uning "yashirin" tarzda kechishi va milliy-ma'muriy chegaralarga boʻysunmasligidadir.

Keyingi besh ming yil davomida suvning koʻlami, miqdori — asosiy ekologik komponent sifatida oʻzgarmay qolgan boʻlsa-da, shu vaqt mobaynida yer yuzi aholisi bir necha yuz martaga koʻpaydi, texnologiya yangiliklari amaliyotda qoʻllanildi. Bugungi kunda ichimlik suvi, eng noyob va qimmatbaho tabiiy resurs boʻlib qoldi.

Hozirgi kunda 2 milliard kishi toza ichimlik suvi tanqisligiga uchragan va har yili 10 million kishi ifloslangan va zararlangan suvni ichgani tufayli olamdan koʻz yummoqda. BMTdan atrof-muhit boʻyicha dasturi (United Nations Enviroment Programme-YUNEP)da yaqinda aniqrogʻi, 2050-yilga kelib, yer yuzidagi aholidan 30% ichimlik suv tanqisligi muammosiga duch kelishini uqtirdi. Bu jarayon esa aslida tezlashib ketdi.

Dunyo aholisi oldiga suv tanqisligi va suv sifati muammolari koʻndalang boʻlib qoldi. Hozirgi zamonda rivojlanayotgan mamlakatlardagi 80% kasalliklar ildizi suvlarning ifloslanishiga borib taqaladi.

Jahon banki ma'muriyatiga koʻra, hozirgi kunda dunyodagi 80 mamlakatda ichimlik suvining yetishmaslik xavfi kuchayishi mumkin.

BMT koʻrsatgan ma'lumotlariga koʻra, 1 yilda 1 kishiga 1700 litr suv toʻgʻri kelsa, bu suvning yetishmasligini koʻrsatadi, mabodo 1 yilda 1 kishiga 1000 litr suv toʻgʻri kelsa, bu ekologik suv inqirozini bildiradi.

Mutaxassislarning bashorat qilishlaricha , 2025-yilda suv inqirozi yana 17 mamlakatga tarqaladi, bu tanazzuldan Hindiston ham chetga qolmaydi. Mabodo bu xavf Xitoyga ham tahdid solsa, buning oqibatini tasavvur qilish qiyin.

Chorak asrdan soʻng suv xavfi 8 mlrd. kishiga tahdid solish mumkin, shu sababli hozirdanoq suvni tejash haqida amaliy faoliyatni boshlash lozim. Afrika, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Amerika mamlakatlarida daryo zaxiralari va ichki ichimlik suvi koʻllari boʻyicha qat'iy munozaralar olib borilmoqda.

Jahon banki vitse-prezidenti Ismail Serageldin ta'kidlashicha: **"Qishloq xoʻjaligida, sanoatda va uy-joy xoʻjaliklarida ishlatiladigan har bir tomchi suvni sanash zaruriyatdir".**

Aynan, Ismail Serageldinning oʻzi 1998-yilda tuzilgan "Suv boʻyicha jahon komissiyasi"ning sardori boʻlib, mazkur komissiya jahon mamlakatlaridagi suv muammolarini chuqur oʻrganib, suv xavfi-suv inqirozidan qutilish uchun davlatlarga koʻrsatmalar tayyorlab berishni oʻz boʻyniga olgan.

XX asr boshlarida biosferada 1 milliard kishi yashagan bo‘lib, suv iste’moli 360 milliard metr kubga teng kelgan bo‘lsa, XX asr oxiriga kelib aholi 6 milliardga, ichimlik suvi iste’moli 4 000 milliard metr kubni tashkil etdi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda suv iste’moli 11,1 baravarga oshdi. Butun Ittifoq Sog‘liqni saqlash tashkiloti xabariga ko‘ra, 2 milliondan ortiq aholi uchun toza ichimlik suvi tanqisligi mavjud.

Agar 1960-yilda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada 1 yilda 1 kishiga 3300 l suv to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, hozir bu raqam 1250 litrni tashkil etadi, ya’ni bu raqam xavfli chiziqqa (1 inson uchun 1 yilda 1000 litr suvning to‘g‘ri kelishi sanitariya normasining eng pastki xavfli chizig‘ini ekanligini bildiradi) yetgan. Suriya va Livan davlatlari bu xavfli chiziqqa yaqin kelmoqda.

Hamdo‘stlik mamlakatlari orasidagi Qozog‘iston ko‘pincha suv tanqisligini o‘z boshidan kechirmoqda. Suv ta’minoti bo‘yicha Hamdo‘stlik mamlakatlari orasida eng oxirgi o‘rin Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri keladi: bu yerda 1 kv.km ga 37 ming metr kub suv to‘g‘ri keladi, bir kishiga esa bir yilda 6000 metr kub suv to‘g‘ri keladi. Qozog‘iston hududi 56% suv ta’minlanishini o‘z hududidan qondirsa, qolgan 44% suvga qoniqishni boshqa qo‘shni davlatlar hisobidan qoplaydi.

Bu eng katta iqtisodiy-ekologik falokat darakchisidir. Hozirgi kunda suv bozori jahonda shakllanmagan bo‘lsa-da, jahon suv bozorini tashkil etish uchun aktiv faoliyatlar boshlangan.

Jahon mamlakatlarining ko‘pchiligi uchun suv taqchilligi ro‘y berar ekan, suv omilining ahamiyati o‘shancha darajada ortaveradi. Bu borada Suez Lyonnais des Eaux va Vivendi kabi xalqaro suv infrastrukturasi bilan shug‘ullanuvchi yirik kompaniyalar faoliyati kuchaydi.

Xalqni ichimlik suvi bilan ta’minlash, qishloq xo‘jaligi va sanoat uchun suv zaxiralar taqchilligini Xitoy, Hindiston va hatto AQSHlari o‘z boshlaridan kechirishmoqda. Bu muammoni Xitoyda hal qilish uchun ular Shimoliy rayondagi daryolarini janubga tomon yo‘naltirishmoqchi bo‘lishmoqda, bu loyihani amalga oshirish uchun esa 12 mlrd. dollar va 10 yilga yetarli ish talab qilinadi.

Kattagina neft zaxirasiga ega bo‘lgan Persid qo‘ltig‘i mamlakatlari o‘zlarining yer osti suvlari orqali ichimlik suv muammolarini hal etishmoqchi. Bir necha ming yillar davomida yig‘ilgan suvlar ko‘lami tez qisqarib, kamayib bormoqda.

Ichimlik suvi yechimining yana bir yo‘nalishi – aysberglarni ishlatishdir. Birgina Antarktidaning o‘zida yilida to‘plangan aysberg miqdori bilan 1 yil davomida butun yer aholisini suv bilan ta’minlasa bo‘ladi. Olimlar e’tirof etishlaricha, aysberg suvlari nihoyatda tozaligi bilan ajralib turar ekan. Aysberg suvlaridan foydalanish masalasini ilk bor Skripsonovskiy okeanografik instituti tadqiqotchisi Dj. Ayzek XX asrning 50-yillarida o‘rtaga tashladi.

70-yillarda esa Amerika firmalari Saudiya Arabiston buyurtmasiga muvofiq, Shimoliy qutb aysberglari ishlash texnologiyalari – ishlab chiqara boshlashdi. Tajribalar uchun millionlab dollarlar sarflana berdi. Ammo 1978-yilda AQSHning kongressida bu g‘oyaning samarasizligi aniqlanib, ishlar to‘xtatildi, ulkan qattiq suv qoyalarini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish katta mablag‘larni talab etardi.

Ikkinchi tomondan okean ustidagi oqizib borayotgan bu ulkan suv qoyasini sho‘r okeani suvi manzilga yetkazguncha 2 baravarga kamaytirgan ekan. Avstriya bir yilda suv eksporti hisobidan 500 mln dollar foyda olar ekan. Ba’zi mamlakatlar uchun aysbergni qayta ishlash

muammo bo‘lib, turgan paytda, ba’zi mamlakatlar muzliklaridan unumli foydalanib, toza ichimlik muammosini hal etishmoqda.

Yaqinda Grenlandiya muz suvni eksport qilishni oshirish masalasini jiddiylik bilan o‘rtaga tashladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish eksportlarining fikricha, har yili Grenlandiyada hosil bo‘ladigan 5% toza muz parchasidan 500 mln. litr suv olish mumkin ekan.

Bu suv miqdori Kanadadan AQSH ga bir yil davomida eksport qilayotgan suv hajmiga teng. Mazkur loyihani amalga qo‘llash uchun esa 40 mln. dollar pul zarur bo‘ladi. Shunisi ajablanarliki, Amerikalik elita qatlam aholisi, Grenlandiyadagi muzliklar suvidan allaqachonlardan beri foydalanishayotgan ekanlar, bu muzlar – samolyotlar orqali shtatlarga yetkazilar ekan.

Suvni yirik eksportchilardan biri Turkiya bo‘lmoqchi, bu davlat Yaqin Sharqda suv sotib bir yilgi daromadini 300 mln. dollarga yetkazmoqchi.

Yaqinda Qirg‘iziston Tyan-Shan tog‘ muzlarini Germaniyaga eksport qila boshladi. 25 litr hajmdagi kanistra Tyan-Shan suvi bilan to‘ldirilsa, uning narxi Yevropada roppa-rosa 12 dollarga teng bo‘lar ekan. Bu yangi biznes orqali Qirg‘iziston o‘zining daromadlarini tiklab olmoqchi, zero muzliklar bilan qoplangan hudud mamlakatda 6500 km^2 tashkil etadi va o‘z bag‘rida bir necha milliard metr kub suvlarni saqlamoqda.

Hatto Belorussiya xam Arab Amirligiga, Keniya va boshqa Afrika mamlakatlariga suv yetkazib berishni rejalashtirmoqda [2].

Ichki xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozim, bir mohiyatga ega bo‘lgan ekologik xato biosferada ikkinchi marta aslo takrorlanmasligi lozim.(2008-yilda Santuda GESi va suv ombori ishga tushdi, mana shuning oqibatida Amudaryoning quyi oqimida kuchli suv tanqisligi yuzaga keldi.

3. Suv tanqisligi tufayli yuzaga kelgan ekologik nizolar.

Tojikiston dunyoda suv zaxiralari ta’minoti bo‘yicha uchinchi o‘rinda; Hamdo‘stlik mamlakatlari orasida esa Rossiyadan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Markaziy Osiyo suv zaxirasining 60% Tojikiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Sobiq Sovet davrida (quvvati 3 mln.KVt/soatga teng bo‘lgan) Nurek GES qurilgan edi. Bu GES 40% suvni boshqarardi.

Tojikiston qurilishini oxirigacha yetkazmoqchi bo‘lgan Rog‘un gidroinshooti o‘z ko‘lami bo‘yicha oldingi inshootlardan bir necha baravar katta. 1988-yili Germaniyaning Yashillar partiyasi bosimi ostida Rog‘un suv ombori gidrokaskadi balandligini 250 metrdan 150 metrga pasaytirishga qaror qilingan. Bu shuni ko‘rsatadiki loyiha puxta va mukammal ekanligiga o‘sha vaqtda ham ishonch bo‘lmagan, deb ta’kidlaydi O‘.Abdurahmonov [3].

Arab davlatlari hududlari Yer sharining 9%ini tashkil etsa-da, u yerda yashovchi aholi soni dunyo bo‘yicha 5-o‘rinni egallaydi. U yerdagi suv zaxiralarining atigi 0,7%inigina tashkil etadi.

Har bir jon boshiga bir yil davomida suvning teng keladigan tabiiy-ekologik me’yori 13 ming kub metrni tashkil etgan bir paytda Arab davlatlarida istiqomat qiluvchi har bir kishi uchun 1,5 ming kub metrni tashkil etadi. Demak, Yaqin Sharqda yashovchi insonlarning har biri o‘zining tabiiy ehtiyojiga qaraganda 9,5 baravar kam suvga ega bo‘lmoqda. Suvga oid nizolar allaqachon Turkiya va Suriya,Iroq orasida; Isroil va Suriya, Iordaniya o‘rtasida; Misr va Sudan o‘rtasida avj olgan.

4. Suv tanqisligi tufayli vujudga kelgan ekologik nizolar millatlar orasidagi nizolarga aylanib, chatishib jahon urushlariga aslo aylanmasligini oldini o‘z vaqtida olish lozim.

Xulosa

1. Barcha ekologik komponentlar: suv, havo, ko‘llar, dengiz, okeanlar, qush va baliqlar – bari-barchasi insoniyat mulki. Bular orasidagi havo va suvlar ayniqsa bir mamlakat faqatgina bir mamlakatga tegishli bo‘la olmaydi.
2. Ekologik konfliktlar yechimi bir davlat foydasi nuqtai nazaridan hal qilinmay, balki tabiiy muhit hamda muammo ro‘y bergan mamlakat va u bilan bog‘liq bo‘lgan davlatlar foydasini nazarga tutgan holda hal qilinishi lozim.
3. Ekologik konfliktlar yechimi jamiyatning oqilona ehtiyoji hamda ekokomponentlarning limitrik me’yorini inobatga olgan holda faoliyat yuritilayotganda hal bo‘ladi.
4. Ekologik o‘lchovlarga rioya etish, biosfera imkoniyat chegaralaridan o‘tmaslik bular bari ekologik muammolar, nizolar va konfliktlar yechimining kalitidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. С.И.Валянский., Д.В.Калюжный.Третий путь цивилизации или Спасет ли Россия мир?//Москва. ЭКСМО. “Алгоритм”. 2002. С.126.
2. Формирование мирового рынка пресной воды//Экономическое оброзование. 2001, №5-6.С.17.
3. Ўрозбой Абдураҳмонов. Трансчегаравий дарёлар// Ўзбекистон овози 2010 йил 23 феврал.
4. Sobirovich, T. B. (2021). National Principles of Democracy in Uzbekistan. Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS), 5(3), 131-135.
5. Sobirovich, T. (2025). New Uzbekistan and political reform: The role of national strategies in strengthening governance. Indonesian Journal of Public Administration Review, 2(2), 12-12.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

LOGICAL OPERATIONS ON CONCEPTS

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich
Candidate of Philosophical Sciences,
Associate Professor, Department of General Education and Culture,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article examines the place, role, and significance of logical operations on concepts within the process of thinking. It investigates the introduction of new concepts emerging from scientific advancements into practical usage through logical operations such as analysis, synthesis, comparison, and document analysis. A comprehensive methodological approach has been applied to the topic.
The study attempts to highlight the importance of logical operations involving concepts—such as conceptual division, definition, generalization, and delimitation—in professional activities. The mechanisms and tendencies of logical operations on concepts, as well as their impact on the development of logical thinking skills, are analyzed.

Keywords: concept, division, dichotomy, classification, definition, nominal, real, genetic, tautology, generalization, delimitation.

TUSHUNCHA USTIDA MANTIQIY AMALLAR

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich
Falsafa fanlari nomzodi,
TDYU “Umumta’lim fanlar va madaniyat” kafedrasi dotsenti
Email: r.mamatqulov76@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tushuncha ustida mantiqiy amallarning fikrlash jarayonida tutgan o‘rni, roli va ahamiyati o‘rganilgan. Fan yutuqlari asosida kirib kelayotgan yangi tushunchalarning mantiqiy amallar asosida iste’molga kiritish masalasi analiz, sintez, taqqoslash va hujjatlarni tahlil qilish metodlari orqali o‘rganilgan. Ushbu mavzuga kompleks metodologik nuqtai nazardan yondashilgan. Maqolada tushuncha ustida olib boriladigan mantiqiy amallar, tushunchalarni bo‘lish, tushunchalarni ta’riflash, tushunchalarini umumlashtirish va chegaralashning kasb faoliyatidagi o‘rni yoritib berishga harakat qilingan. Tushuncha ustida olib boriladigan mantiqiy amallar mexanizmi va tendensiyalarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ta’sir doirasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tushuncha, bo‘lish, dixotomik, klassifikatsiya, ta’riflash, nominal, real, genetik, tavtologiya, umumlashtirish, chegaralash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N21

Hozirgi kunda jamiyatni demokratlashtirish va huquqiy madaniyatni yanada takomillashtirish sohasidagi o‘zgarishlar yuridik ta’limga bo‘lgan munosabatni sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. [1] Yuridik ta’lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri mantiqiy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Tushuncha ustida mantiqiy amallarni olib borish, yuristlar kasb faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar asnosida kirib kelayotgan yangi tushunchalar o‘z vaqtida mantiqiy tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan huquqiy munosabatlarga ham kirib kelayotgan yangi tushunchalar ustida mantiqiy

amallarni olib borib, o‘z vaqtida amaliyotga joriy qilish masalasi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri hisoblanmoqda. [2]

Tushuncha ustida mantiqiy amallarni olib borish, yuristlar kasb faoliyatida axborot olish va yetkazish, bilimlarni bir tizimga solish, tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash, asosli xulosa chiqarish va o‘z nuqtai nazarini argumentlashga yordam beradi. Shu birga birga huquqiy normalarni analiz va sintez qilish, nizoli holatlarga huquqiy yechim berish yuzasidan ma’lum bir pozitsiyaga ega bo‘lish va qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. [3] Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tushuncha ustida mantiqiy amallar mavzusini tahlil qilib chiqsak.

Tushuncha dastlabki tafakkur shakli hisoblanadi.

Tushuncha – predmetning umumiy , muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Tushuncha ustida mantiqiy amallar asosan to‘rtta yo‘nalishda olib boriladi:

1. Tushunchani ta’riflash.
2. Tushunchani bo‘lish.
3. Tushunchani chegaralash.
4. Tushunchani umumlashtirish.

Tushunchani ta’riflash – tushunchaning mazmun mohiyatini ochib beruvchi mantiqiy amaldir. Ushbu amal qonun loyihasi ishlab chiqishda, qonunlar qabul qilishda har bir tushunchaning o‘z o‘rnida ishlatilishi va qonunlarning yashovchanligini ta’minlab beradi. Shu nuqtai nazardan kelib tushunchani ta’riflash mexanizmini tahlil qilish lozim bo‘ladi. [4]

Ta’riflash (rus tilida, delit), (grekcha, xoros, chegara ustuni) va (lotincha definitio, chegara) degan ma’nolarni anglatadi.

Ta’riflash tuzilishi:

1. Aniqlanuvchi qism (definiyedum).
2. Aniqlovchi qism. (definiyens).

Aniqlanuvchi qism – mazmuni ochib beruvchi tushuncha.

Aniqlovchi qism – aniqlanuvchining mazmunini ochib beruvchi tushuncha hisoblanadi.[5]

Tushunchani ta’riflash quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ta’riflanuvchi predmetning mohiyati, uning muhim belgilarini ochib beradi.
2. Ta’riflanuvchi tushunchaning o‘ziga yaqin tushunchalardan farq qilishini ko‘rsatadi.
3. Tushunchani ifoda qiluvchi so‘zning ma’nosini ochib beradi.

Yuqoridagi vazifalardan qay biri hal qilinishiga qarab:

1. Nominal ta’rif.
2. Real ta’rif.
3. Genetik ta’rifga bo‘linadi.

Nominal ta’rif – tushunchani ifodalagan so‘z, nom va terminning ma’nosini bayon etishdan iborat.

Real ta’rif – predmetning muhim belgilarini aniqlashdir.

Yaqin jinsi va tur belgisini ko‘rsatish orqali ta’rifning eng ko‘p ishlatiladigan turi bo‘lib, u ikkita bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi va shu asnoda uning mazmuni qisman ochib beriladi. Ikkinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning shu jinsga kiruvchi boshqa tur tushunchalardan farqi aniqlanadi. [6] Uning tur belgisi ko‘rsatiladi. Shu tariqa mazkur tushunchaning qolgan qismi ochib beriladi.

Genetik ta’rif. Genetik ta’riflashda tushuncha ifodalangan predmetning kelib chiqishi, uning nimadan tuzilganligi ifodalanadi.

Ta’riflash qoidalari:

1.Ta’riflash teng hajmli bo‘lishi kerak. Ya’ni ta’riflanuvchi tushunchaning hajmi ta’riflovchi tushuncha hajmi bilan teng bo‘lishi kerak.

2. Ta’riflashda eng yaqin jins tushunchasi olinishi zarur.

3. Ta’rif inkor shaklida bo‘lmasligi kerak. Chunki tushunchalarni ta’riflashda ularning muhim belgilari ko‘rsatib beriladi. Predmet nimadan iborat va boshqa predmetlardan nimasi bilan farq qilishi fahmlanadi.

4. Ta’rifda tur belgisi faqat ta’riflanuvchi predmetga tegishli bo‘lishi va uning barcha predmetlardan farqini ko‘rsatib berishi kerak.

5. Ta’rifda qaytarish (aylanma xarakter) bo‘lmasligi kerak, ya’ni ta’riflanuvchi tushuncha o‘zi bilan emas, balki boshqa tushunchalar bilan aniqlanadi va uning mohiyatini ochib beriladi.

Tavtologiya shu qoidaning buzilishi natijasida paydo bo‘ladi. Bunda aniqlanuvchi tushunchadan, uning mazmunini ochib berish uchun foydalanilgan bo‘ladi.

6. Ta’riflash aniq va ravshan bo‘lishi kerak. Tushunchani ikki mazmun mohiyatga ega bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

7. Ta’riflashda obrazli so‘z va iboralar bo‘lmasligi kerak.

Tushunchani mumkin bo‘lmagan hollarda, ta’rifga o‘xshash usullardan foydalaniladi. Bular ko‘rsatish. tasvirlash, tavsiflash, o‘xshatish va tafovutlashlardir.

Tushunchalarni bo‘lish.

Tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlarga ajratish yo‘li bilan aniqlashga bo‘lish deyiladi. Bo‘lish shunday bir mantiqiy amalki tushunchaning hajmiga kiruvchi elementlarni ma’lum bir belgilar asosida birlashtirishdir. [7]

Tushunchani bo‘lish strukturasi (tuzilishi) :

1. Bo‘linuvchi tushuncha. Ma’lum bir tushuncha hajmidan yangi bir tushunchani keltirib chiqarish zaruriyati.

2. Bo‘lish asoslari. Ma’lum bir belgilar asosida bo‘lish amalga oshiriladi.

3. Bo‘lish a’zolari. Bo‘lish natijasida vujudga keladigan tushunchalar.

Tushunchalarni bo‘lishning asosiy xususiyati predmetlar to‘g‘risidagi bilimlarimiz konkretlashadi. Bo‘lish amalida bo‘linuvchi tushuncha (hajmi aniqlanadi), bo‘lish asosi (umumiy belgisi aniqlanadi), va bo‘lish a’zolari (bo‘lish natijasida hosil bo‘ladigan tur tushunchalar) tashkil etadi.

Bo‘lish usuli predmetlarning qismlarga ajratilishidan farqlanishi lozim. Avtomashinani qismlarga ajratish, kitobni boblarga ajratib o‘rganish shular jumlasidandir.

Bo‘lish qoidalari. Bo‘lish to‘g‘ri bo‘lish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim.

1.Bo‘lish teng hajmli bo‘lishi, ya’ni bo‘linuvchi tushunchaning hajmi bo‘linuvchi tushuncha hajmiga teng bo‘lishi kerak.

2. Bo‘lish bir asos bo‘yicha amalga oshirilishi lozim. Asos qilib olingan belgi bo‘lish davomida boshqa belgi bilan almashtirilmasligi lozim.

3. Bo‘lish a’zolari bir – birlarini istisno qilishi kerak.

4. Bo‘lish izchil bo‘lishi va unda sakrash bo‘lmasligi lozim.

Tushunchalarni bo‘lish ikkiga bo‘linadi:

1. Dixotomik bo‘lish (grekcha so‘z bo‘lib. ikkiga bo‘lish degan ma’noni anglatadi).

2. Klassifikatsiya orqali bo‘lish.

Dixotomik bo‘lish. Bo‘linuvchi tushunchani o‘zaro zid bo‘lgan tushunchaga bo‘lishdan iborat. Dixotomik bo‘lish ko‘p hollarda predmetlarning ma’lum tomonini belgilaganda boshqa tomonlari noaniq bo‘lganda, kontras tushunchalar hosil qilishda qo‘llaniladi. [8]

Dixotomik bo‘lishda hosil bo‘lgan ikki zid tushunchaning biri noaniq bo‘lganligi uchun ham u ko‘p hollarda xatodan xoli bo‘ladi.

Klassifikatsiya. Klassifikatsiya — predmetlarni bir-biriga o‘xshashligi va farqiga qarab ma’lum guruhlarga, turlarga, sinflarga bo‘lishdir.

Klassifikatsiya natijalari har xil tablitsalar. Sxemalar. Kodekslar va shu kabilarda o‘z aksini topadi. Ular bilishda va kundalik turmushda uzoq yillar davomida ishlatiladi. Mantiqda sun’iy va tabiiy klassifikatsiyalar farq qiladi.

Sun’iy klassifikatsiyada bo‘lish amali predmetlarning birorta nomuhim belgisiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Tabiiy klassifikatsiyada bo‘lish amali predmetlarning birorta muhim xususiyatiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash. Bu amal tushunchalarni mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari miqdoriy nisbat qonuniga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash shunday bir mantiqiy amalki. unda hajmi keng tushunchadan hajmi tor tushunchaga o‘tiladi. Chegaralash amalini yakka tushuncha hosil bo‘lguncha davom ettirilishi mumkin. [9]

Tushunchani chegaralash tuzilishi (strukturasi):

1. Birlamchi tushuncha (dastlabki).

Bunday tushuncha hajm jihatdan keng bo‘ladi, belgilari umumiy xarakterga ega bo‘ladi.

2. Chegaralash belgisi.

Tushunchani chegaralash amali orqali hosil bo‘lgan yangi tushuncha.

3. Yangi tushuncha.

Chegaralash amali orqali hosil bo‘lgan yangi tushuncha mazmun jihatdan keng bo‘ladi (mazmun ortadi), hajm jihatidan tor bo‘ladi.

Tushunchani chegaralash amali mantiqiy fikrlashda aniqlik va konkretlikni ta’minlab beradi.

Tushunchani umumlashtirish. Tushunchani umumlashtirish shunday mantiqiy amalki unda hajmi tor tushunchadan, hajmi keng tushunchaga fikran o‘tiladi.

Tushunchani umumlashtirish tuzilishi (strukturasi):

1. Tushuncha hajmi.

Tushunchaning hajmini kengaytirish (predmetlar doirasini kengaytirish).

2. Tushuncha mazmuni.

Tushunchaning mazmunini toraytirish orqali, aniq va konkret bilimga ega bo‘lish.

3. Bo‘ysunish munosabati.

Tushunchani umumlashtirish bo‘ysunish munosabatiga asoslanadi.

Tushunchani umumlashtirish obyektiv reallikdagi voqea va hodisalar to‘g‘risida umumiy mulohaza yuritishga yordam beradi.

Umumlashtirish amalining chegarasi kategoriyadir. Kategoriyalar predmet va hodisalarning umumiy xususiyatlarini, aloqa va munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy

tushunchalardir. Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalar asosida bugungi kunda iste'molga kirib kelayotgan yangi tushunchalar yuzasidan quyidagi xulosalar qilish mumkin: [10]

Sun'iy intellekt tizimi orqali huquqiy munosabatlarga kirib kelayotgan tushunchalarni mantiqiy ekspertizadan o'tkazish.

Dasturlash, fizika-matematika va biologiya sohalarida qo'llanilayotgan yangi tushunchalarning huquqiy munosabatlarga ta'siri va ularni qo'llash dialektikasini ishlab chiqish.

Huquqiy munosabatlarda qo'llanilayotgan tushunchalarni mantiqiy ekspertiza o'tkazish bugungi kunda talab darajasiga javob bermaydigan nomlarni iste'moldan chiqarish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sharipov M., Fayzixojayeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma. – T., 2005 (lotin grafikasida). – b. 71-79
2. Rahimov I., Mantiq. O'quv qo'llanma. – b. 49-85
3. Turg'unov, B. T. (2021). Mantiq asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Xudoyberganov, R. (2018). Huquqshunoslar uchun mantiq. Toshkent: Adolat nashriyoti.
5. Ивлев Ю. В. Логико для юристов . – М.: Проспект, 2024. – с. 115-133
6. Крилов В.И., Старченко А.А., . – М.: Юрист, 2012. – с. 30-44
7. Audi, R. (Ed.). (2015). The Cambridge Dictionary of Philosophy (3rd ed.). Cambridge University Press
8. Copi, I. M., Cohen, C., & McMahon, K. (2016). Introduction to Logic (14th ed.). Routledge.
9. Hurley, P. J. (2014). A Concise Introduction to Logic (12th ed.). Cengage Learning.
10. Quine, W. V. O. (1982). Methods of Logic (4th ed.). Harvard University Press.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

CHARACTERISTICS OF DIALOGUES AND CHARACTERISTICS OF CHARACTERISTICS OF CHARACTERISTICS IN SCOTT TUROV'S NOVEL "PREZUMPTION OF INNOCENCE"

Niyazov Ravshan Turakulovich
Professor, Doctor of Philological Sciences,
Uzbekistan State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the interconnectedness of dialogues and character descriptions in Scott Turov's novel "Presumption of Innocence," revealing the psychological depth of the work, the moral dilemma in the legal environment, and the complexity of social roles. Dialogues are considered not as a means of setting the story in motion, but as the main stylistic element that reveals the inner struggles, mental state, and moral position of the characters. In the structure of the novel, the complex nature of human language is shown through the semantic layers of the dialogues, the ambivalence and ambiguity of the characters' speech. This analysis reveals the synthesis of psychological realism and legal drama in modern legal literature.

Keywords: Scott Turov, Presumption of Innocence, dialogue, psychological realism, legal literature, Rusti Sabich, character characterization, moral dilemma, speech portrait, trial, linguistic ambivalence, feminism, social role, language and truth.

SKOTT TUROVNING “AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI” ROMANIDA DIALOGLAR XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI

Niyazov Ravshan Turakulovich
professor., f.f.f.d., O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Skott Turovning “Aybsizlik prezumpsiyasi” romanida dialoglar va personajlar xarakteristikasi o‘zaro aloqada yoritilishi, ular orqali asardagi psixologik chuqurlik, huquqiy muhitdagi axloqiy dilemma va ijtimoiy rollar murakkabligi ochib berilishi tahlil qilinadi. Dialoglar voqeani harakatga keltiruvchi vosita sifatida emas, balki qahramonlarning ichki kurashlarini, ruhiy holatini va axloqiy pozitsiyasini ochib beruvchi asosiy uslubiy element sifatida qaraladi. Roman strukturasida dialoglarning semantik qatlamlari, personajlar nutqining ambivalentligi va noaniqligi orqali inson tilining murakkab tabiati ko‘rsatiladi. Mazkur tahlil zamonaviy yuridik adabiyotdagi psixologik realizm va huquqiy dramatizm sintezini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Skott Turov, Aybsizlik prezumpsiyasi, dialog, psixologik realizm, yuridik adabiyot, Rusti Sabich, personaj xarakteristikasi, axloqiy dilemma, nutqiy portret, sud jarayoni, lingvistik ambivalentlik, feminizm, ijtimoiy rol, til va haqiqat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N22

Kirish. Skott Turovning “Aybsizlik prezumpsiyasi” (Presumed Innocent, 1987) romanida dialoglar xususiyati va personajlar xarakteristikasi asarning psixologik chuqurligi, huquqiy muhitda shakllangan axloqiy dilemma va ijtimoiy rollar murakkabligi bilan bevosita

bog‘liqdir. Turov uchun dialoglar — bu voqeani harakatlantiruvchi qurol emas, balki ongiy holatlarni, ichki tortishuvlarni va mavjud voqelikdagi munosabatlar tizimini tahlil qilish vositasidir. Ayniqsa, asosiy qahramon Rusti Sabich obrazining shakllanishida dialoglar ichki monologdan kam bo‘lmagan semantik yukni o‘z ichiga oladi.

Roman davomida Rustining harakatlaridan ko‘ra uning o‘zini oqlovchi yoki shubhani kuchaytiruvchi so‘zlari ko‘proq rol o‘ynaydi. Dialoglar — sud jarayonlari, politsiya so‘rovlari, prokurorlar bilan muomala, oilaviy munosabatlar doirasida — Rustining ko‘p qirrali shaxsiyatini ochib beradi. Bu haqda J. Carmichayel shunday yozadi: “Turov dialoglar orqali voqea va fikr oralig‘ida bo‘shliq qoldiradi, o‘quvchi esa bu bo‘shliqni qahramonning ichki kurashi bilan to‘ldiradi”. [1.174] Dialoglar ba’zan inkor, ba’zan e’tirof, ba’zan esa, mas’uliyatni boshqa subyektlarga o‘tkazish yo‘li bilan ichki dramatik zo‘riqishni oshiradi.

Turov romanining muhim uslubiy elementi — ambivalentlikdir. Rustining dialoglari bir vaqtning o‘zida haqiqatni yashirish va uni ochib berish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Carolyn Polxyemus bilan bo‘lgan munosabatlarini bayon qilishda Rustining ikkiyuzlamachiligi o‘quvchi uchun muallif tomonidan bevosita aytilmaydigan, ammo sezdiriladigan axloqiy beqarorlikni anglatadi. Bu, Turovga ko‘ra, “inson tilining o‘zaro inkor etuvchi, murakkab va suiiste’mol qilishga ochiq tabiatini” ifodalaydi. [2.163] Sud zalida bo‘layotgan muloqotlar ham Rustining ichki holatini fosh etuvchi ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, boshqa personajlar — prokuror Nico Della Guardia yoki sudya Larren Lyttle — bilan bo‘lgan interaksiyalar uning psixologik evolyutsiyasini aniqlaydi.

Personajlarning xarakteristikasida esa Turov o‘ziga xos konfliktli aniqlik uslubidan foydalanadi. Rusti Sabich — nafaqat ayblanuvchi yoki tergovchi, balki aybsizlik bilan aybdorlik o‘rtasida yurayotgan murakkab shaxsiyatdir. Turov uni klassik “qahramon” modeliga sig‘dirmaydi, balki “hukm ostida bo‘lgan, biroq o‘z hukmini o‘zi ustidan o‘qiyotgan odam” sifatida tasvirlaydi. [3.152] Carolyn obrazi esa “ayol huquqshunosi” arxitipini buzuvchi murakkab va ikki qirrali portret sifatida berilgan bo‘lib, uning vafoti o‘ziga xos axloqiy bo‘shliqni yuzaga keltiradi. Turovning bu yondashuvi, shubhasiz, feminizm, huquq va erkaklik tushunchalari o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni ham yoritib beradi.

Dialoglar, ayniqsa Rustining aybsizlik haqidagi da’volarida, ikki qutb — qonuniy ustuvorlik va axloqiy pozitsiya — o‘rtasidagi bo‘linishni namoyon etadi. Masalan, Rustining so‘zlari ko‘pincha “men bunday qilmagandim” bilan emas, “nima uchun bunday qilishim mumkin emas edi” degan nuqtai nazar bilan asoslanadi. Bu pozitsiya o‘z navbatida Turov romanining fundamental konsepsiyasiga, ya’ni “aybsizlik prezumpsiyasi”ning jamiyatdagi amaldagi huquqiy emas, balki sotsial-falsafiy tushunilishini tanqid qilishga xizmat qiladi. [4.189]

Adabiyotlar tahlili. “Aybsizlik prezumpsiyasi” romanida dialoglar strukturaviy va semantik jihatdan syujetni harakatga keltiruvchi element emas, balki qahramon ongida kechayotgan murakkab falsafiy to‘qnashuvlarning badiiy ifodasidir. Turovning yondashuvida har bir personaj o‘z so‘zlari orqali o‘zini ham, boshqani ham inkor etadi, oqlaydi va gumonsiraydi. Bu esa romanni huquqiy psixodrama janriga yaqinlashtiradi va zamonaviy yuridik adabiyotning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Skott Turovning “Aybsizlik prezumpsiyasi” (Presumed Innocent) romanida dialoglar va personajlar xarakteristikasining o‘zaro aloqasi asarning dramaturgik asosini tashkil etadi. Turov adabiy tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanib, personajlararo munosabatlar

orqali yuridik, axloqiy va psixologik ziddiyatlarni ochib beradi. Bu jihatdan asardagi dialoglar koʻchma maʼnoli strukturalarga ega boʻlib, ular faqat voqeani harakatga keltirish emas, balki qahramonlarning ichki dunyosini ifodalashda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Ayniqsa Rusti Sabichning nutqi, uning oʻzini oqlashga qaratilgan monologlari va ichki tortinchoqligi orqali qahramonning axloqiy beqarorlik holati ochib beriladi.

Dialoglar Turovda realistik, biroq estetik jihatdan yuqori darajadagi ssenariy elementlari sifatida ishlatiladi. Rusti Sabich va sud prokurori Nikko Della Guardia oʻrtasidagi dialoglar “inson soʻzining huquqiy kuchi va psixologik zaiflik orasidagi ziddiyatni yoritadi”. [5.137] Ayniqsa, sud jarayonidagi savol-javoblarda nutqning noaniqligi, pauzalar, ishora va ixtiyoriy eʼtiroflar orqali Turov yuridik jarayonning faqat qonuniy emas, balki aksar hollarda insoniy zaiflikka asoslanishini namoyish etadi.

Asarda personajlar xarakteristikasi aynan ularning nutqiy portreti orqali yuzaga chiqadi. Rustining qarama-qarshi bayonotlari, oʻzini oqlashga urinishlarida ifodalangan sintaktik noaniqliklar uni ichki konfliktga botgan, oʻzini anglashda qiyin ahvolda qolgan subyekt sifatida koʻrsatadi. Bu jihatdan u klassik trillerlardagi “qahramon aybsiz, ammo jazolanmoqda” formulasidan chekinib, “aybsizlik va aybdorlik chegarasida harakat qilayotgan, oʻzining ichki haqiqatini aniqlashga intilayotgan odam”ga aylanadi. R. Kendell bu haqda: “Turovning qahramonlari sud zali va oilaviy munosabatlarda ikki xil maskarad kiyadi — bu dialoglarning ikki qatlamli semantikasini yuzaga keltiradi” deya taʼkidlaydi. [6.155]

Carolyn Polhemus obrazi esa zamonaviy ayol obrazining murakkab konstruksiyasi sifatida talqin qilinadi. U faqat jinoyatning qurboni emas, balki professionallik, jinsiy erkinlik va ijtimoiy nufuz timsolidir. Asarda uning ovozi yoʻq – u doim boshqa personajlar nutqida qayta yaratiladi. Bu esa, J. Haynesning fikricha, “erkaklar muloqoti orqali ayol obrazini qurish — patriarxal yuridik sistemaning lingvistik simptomidir”. [7.143] Turov Carolynning ovozini mutlaq qudrat emas, balki “ogʻir tusli xotira” sifatida tasvirlab, u orqali boshqa personajlarning ichki oʻzgarishlarini koʻrsatadi.

Shuningdek, ikkinchi darajali personajlar, masalan, sudya Larren Lyttle, detektiv Lipranzer yoki Rustining rafiqasi Barbara Sabich kabi obrazlar ham oʻz nutqlari orqali xarakterlanadi. Barbara obrazidagi sukut, qisqa va sovuq dialoglar uning uzoqlashuvini, befarqlik bilan qoplangan dardini bildiradi. Turov har bir personajning soʻz tanlovi, ohang va tanaffus orqali oʻziga xos ruhiy holatini aks ettiradi. C. Ellison fikricha, “dialoglar Turovda dramatik chiziq emas, balki psixologik spektralizm vositasi sifatida ishlaydi”. [8.167]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda adabiy-lingvistik va psixologik-interpretativ metodlar uygʻun holda qoʻllanildi. Dialoglar tahlilida nutqiy strukturalar, modal birliklar, semantik ziddiyatlar va lingvistik noaniqliklar asosida qahramonlarning ichki holati va ijtimoiy pozitsiyasi oʻrganildi. Shuningdek, personajlarning xarakteri ularning nutqiy aktlari, bayonotlari va suhbatlaridagi lingvopragmatik vositalar orqali tahlil qilindi. Qiyosiy yondashuv orqali Skott Turovning boshqa huquqiy romanlari bilan stilistik oʻxshashlik va farqlar koʻrsatildi. Psixologik yondashuv esa Rusti Sabichning nutqiy ikkiyuzlamachiligi va axloqiy pozitsiyasi asosida ichki ziddiyatlarning adabiy ifodasini ochishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Roman oxirida yuzaga kelgan kutilmagan burilish – yaʼni jinoyatni Rustining xotini sodir etgani haqidagi eʼtirof – barcha oldingi dialoglarning yangi semantik bahosini yaratadi. Demak, Turovning hikoya qilish texnikasida dialoglar retrospektiv interpretatsiyaga ochiq, har bir nutq “oxirgi haqiqat”ga borishdagi muhim iz sifatida ishlatilgan.

Bu esa, adabiy struktura nuqtai nazaridan, romanni detektiv hikoya emas, balki moral dilemma sifatida baholashga asos beradi.

Skott Turovning “Aybsizlik prezumpsiyasi” romanidagi dialoglar xususiyati va personajlar xarakteristikasi zamonaviy yuridik adabiyotda psixologik realizm bilan huquqiy dramatizm sintezining yuksak namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Turov sud zalidagi nutqiy jarayonlarni shunchaki protsessual vosita emas, balki inson psixikasining reflektiv oynasi sifatida ko‘rsatadi. Ayniqsa, Rusti Sabich obrazining bayonotlari, so‘roq paytidagi inkor-uslubli dialoglari, va yaqin doiralardagi muloqotlari qahramonning murakkab ichki ziddiyatlarini ochib beradi. Dialoglar yuridik aniqlikdan ko‘ra aksariyat hollarda ontologik noaniqlikni ta’kidlaydi, bu esa hikoya voqealarini obyektiv haqiqatdan subyektiv talqin doirasiga ko‘chiradi.

Rusti Sabich bilan tergovchi Lipranzer o‘rtasidagi suhbatlarda nutqning to‘xtalishi, yuzaki savollarga chuqur javoblar berilishi, yoki savollarga javob bermaslik holatlari Rustining ichki psixologik murakkabligidan dalolat beradi. J. Lindstrom bu jarayonni “dialog orqali o‘zini himoya qilish emas, balki o‘ziga qarshi guvohlik berish strategiyasining bir shakli” deb ataydi. [9.184] Rustining nutqiy pozitsiyasi aybsizlikni isbotlashdan ko‘ra, o‘ziga nisbatan mavjud gumonlarni yumshatish va ularni mantiqiy noaniqlikda saqlab qolishga xizmat qiladi.

Personajlarning xarakteristikasi ham aynan dialoglar orqali yasaladi. Carolyn Polhemus roman davomida nutq bilan emas, balki boshqalar tilidagi eslashlar orqali gavdalanadi. Bu esa uni metaforik ravishda “yo‘qlikdagi ovoz” sifatida talqin qilish imkonini beradi. R. Katzning fikricha, “Carolynning mavjud emasligi uning mavjudlik kuchini oshiradi; har bir personaj uni tilga olganida, ular o‘z ichki munosabatlarini fosh etadi”. [10.166] Shunday qilib, dialoglar voqeani bayon qilishdan ko‘ra, qahramonlarning ijtimoiy roli, jinsiyati va psixologik pozitsiyasi haqida ko‘proq ma’lumot beradi.

Barbara Sabichning dialoglari Rusti bilan bo‘lgan nikohdagi uzoqlashuvni, sovuq munosabatlarni, va eng muhimi, uning ichki qarorini yoritib beradi. Turov bu yerda ayol personaj nutqini “emotsional kuchga emas, balki qasddan tanlangan jimjitlik va silliq sarkazmga” asoslaydi. [11.153] Aynan Barbara obrazidagi sukut va qisqa, ziddiyatli jumlalar roman yakunida uning jinoyatga aloqadorligini in’ikos etuvchi semantik tayanchga aylanadi.

Dialoglardagi lingvistik vositalar, ayniqsa, modallik, shartli gaplar, noaniq zamonlar Turovga “haqiqatning bo‘linuvchan ko‘rinishini” yaratish imkonini beradi. Rustining tez-tez “men o‘ylagandimki...”, “men buni qasddan qilmaganman...” kabi ifodalardan foydalanishi uning ichki shubhalarini, o‘zini oqlashga emas, balki anglashga urinayotganligini anglatadi. B. Montgomery bu jarayonni “nutqiy difraksiya” deb ataydi, ya’ni haqiqatning og‘zaki matnda to‘liq emas, balki singdirilgan holatda berilishi. [12.192]

Romanning boshqa personajlari – prokuror Nico Della Guardia va yordamchisi Tommy Molto – til va nutq orqali tizimning repressiv mexanizmlarini ifodalaydi. Ularning so‘zlash uslubi qat’iy, rasmiy, ba’zan esa shafqatsiz – bu, o‘z navbatida, Turovning yuridik apparatga tanqidiy yondashuvini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Tommy Moltoning so‘zlaridagi ishonchsizlik, xusumat va axloqiy dogmatizm uni tizimning me’moriy elementiga aylantiradi.

Rusti Sabich obrazining xarakteristikasi, avvalo, uning dialoglarida aks etuvchi emotsional repressiya bilan belgilanadi. U rasmiy, qisqa, ko‘p hollarda savolni savol bilan qaytaruvchi, shubhali pauzalarga asoslangan nutq orqali o‘zining ichki noaniqligini yashirishga harakat qiladi. Bu nutqiy xususiyatni tahlil qilgan R. Huxley shunday yozadi: “Turov

personajlarining aytilmagan gaplari aytilganlaridan koʻra kuchliroq ishlaydi. Rustining jimligi bu yerda qochish emas, balki haqiqat bilan toʻqnashuvga tayyorgarlikdir". [13.145]

Turov romanida ayollar personajlari, xususan Carolyn Polhemus va Barbara Sabich orqali gender va hokimiyat masalalari ham nutqiy jihatdan oʻrganiladi. Carolyn, roman davomida bevosita soʻzga ega boʻlmagan boʻlsa-da, uni eslash, tahlil qilish va boshqa personajlar tilidagi "lingvistik qayta qurilishi" orqali uning shaxsi roman markaziga chiqadi. Barbara esa ogʻzaki muloqotdan koʻra "sukut orqali" oʻz pozitsiyasini bildiradi. G. Ellis bu holatni "Turovda ayol ovozi real emas, balki erkaklar ongidagi aks-sado sifatida mavjud" deb izohlaydi. [14.179]

Shuningdek, ikkinchi darajali personajlar — Tommy Molto, Nico Della Guardia, detektiv Lipranzer —ning har biri Turov tomonidan oʻziga xos nutqiy alomatlar bilan individuallashtiriladi. Moltoning muloqoti qatʼiy, keskin, koʻp hollarda gumon qilishga asoslangan boʻlsa, Lipranzer ishonchsiz, lekin empatik muloqot olib boradi. Bu farqlar yuridik sistemaning oʻzida mavjud boʻlgan axloqiy va protsessual nomutanosibliklarni yoritadi.

Turovda dialog — bu soʻzning doimiy muvozanatsizligi, rostlik bilan manipulyatsiya orasidagi ziddiyat, va eng muhimi — haqiqatni yoritish emas, balki uning murakkab tabiatini oʻquvchiga his qildirish vositasidir. Aynan shu jihat romanni zamonaviy yuridik psixodrama janriga yaqinlashtiradi. Nutq vositasida Turov "sud zali"ni faqat yuridik maydon emas, balki ongiy qarama-qarshiliklar makoni sifatida quradi. A. S. Blume bu haqda shunday deydi: "Dialoglar sud jarayonini voqeaviy emas, balki ontologik mezonda aks ettiradi — bu yerda isbot qilinadigan narsa jinoyat emas, balki insonning oʻziga nisbatan ishonchi". [15.192]

Skott Turovning "Aybsizlik prezumpsiyasi" romanidagi dialoglar va personajlar xarakteristikasi zamonaviy huquqiy adabiyotda ruhiy ziddiyat, axloqiy chigallik va yuridik tizimdagi ijtimoiy tanazzul motivlarini ochishda markaziy poetik vosita sifatida qaraladi. Muallif roman strukturasi boʻylab yuzaga keluvchi har bir dialogni faqat syujetni harakatlantirish emas, balki psixologik portretlar, ijtimoiy rollar va ichki identitetlar toʻqnashuvi vositasi sifatida shakllantiradi. Bu, xususan, bosh qahramon Rusti Sabichning dialoglarida ayniqsa yaqqol namoyon boʻladi. Uning nutqi — sintaktik murakkab, baʼzan kinoya, baʼzan sukut bilan aralashgan — ichki haqiqatning boʻshashuvchanligini anglatadi.

Turov romanidagi dialogik ifodalar realistik soddaligi bilan ajralib turadi, biroq ular ortida chuqur psixologik va ijtimoiy kuchlanish yashiringan. Rustining sud jarayonidagi nutqi, tergovdagi javoblari va xotini bilan boʻlgan suhbatlarida ishlatilgan til — bu muhofaza va ishonchsizlik oʻrtasidagi keskin muvozanat mahsulidir. Ushbu uslubiy yondashuv personajni "koʻrinarli emas, balki sezdiriluvchi axloqiy pozitsiya" bilan taʼminlaydi.

Skott Turovning "Aybsizlik prezumpsiyasi" romanida dialoglar va personajlar xarakteristikasi oʻzaro oʻta mustahkam badiiy simbiozda mavjud boʻlib, yuridik triller janrini inson ruhiyati, sotsiokulturni identitet va haqiqat paradigmasi bilan boyitadi. Turov dialoglarni nafaqat dramatik kuchga ega vosita sifatida, balki axloqiy izlanishning lingvistik shakli sifatida ishlatadi. Roman qahramonlari orasidagi har bir suhbat — bu huquqiy pozitsiyalar kurashi emas, balki ongiy haqiqatlar kolliziyasidir. Ayniqsa, Rusti Sabichning soʻzlashuvi orqali ifodalangan notekis sintaksis, pauzalar va sezilarli stilistik dualizm personajning ichki ziddiyatini, oʻziga nisbatan ishonch va gumon holatlarini badiiy tarzda ifodalaydi.

Turov, Rusti obrazini yaratishda, subyektiv nutq vositalarini sinchkovlik bilan tanlaydi: inkorli gaplar, soʻzlarni oʻz-oʻzidan shubha ostiga olish, oʻz fikrini shartli ifodalash kabilar

Rustining ijtimoiy roli va shaxsiy identiteti o‘rtasidagi to‘qnashuvni ochib beradi. A. Feldman bu jarayonni “prokurorning emas, balki inson qalbining guvohlar kursisidagi ifodasi” deb baholaydi. [16.191] Rusti suddagi so‘zlarida emas, balki ikkiyoqlamalikda — bir vaqtning o‘zida o‘zini oqlab, gumonni kuchaytiruvchi nutqiy ifodalarda yashaydi.

Barbara Sabich personaji esa jimlik, qisqa va keskin frazalar orqali xarakterlanadi. Uning turmush o‘rtog‘i bilan bo‘lgan dialoglari orqasida emotsional repressiya va axloqiy sovuqlikni kuzatish mumkin. Turov bu personajni odatiy ayol obrazidan yiroqlashtirib, uni so‘zsiz, ammo kuchli semantik zaminli mavjudotga aylantiradi.

Skott Turovning “Aybsizlik prezumpsiyasi” romanida dialoglar va personajlar xarakteristikasi o‘zaro murakkab semantik uyg‘unlikda shakllanib, adabiy matnning faqat yuridik emas, balki psixologik, aksiologik va lingvistik qirralarini ochib beradi. Turov uchun dialog shunchaki voqeani harakatga keltiruvchi vosita emas, balki har bir qahramonning ichki ziddiyatlarini tashqi kontekstda ifodalovchi ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi. Asar davomida Rusti Sabich, Barbara Sabich, Carolyn Polhemus, Tommy Molto kabi personajlarning so‘zlari ularning ichki pozitsiyasi, shaxsiy murakkabligi va jamiyatdagi rolini badiiy konstruksiyalashda asosiy narrativ vosita sifatida ishlatiladi.

Rusti Sabichning so‘zlashuvi ayniqsa semantik jihatdan qatlamli tuzilgan. Uning nutqida sezilarli darajada lingvistik inkor, ya’ni o‘zini oqlash jarayonida faktni inkor qilish emas, balki uni shubha ostiga olish texnikasi mavjud. U fikrlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilmaydi, balki ularni savol tarzida, shartli gaplarda yoki “ehtimol”, “balki”, “men shunday deb o‘yladim” kabi modallik ifodalovchi vositalar orqali bildiradi. Bu uslub orqali Turov personajning psixologik noaniqligini “dialog orqali psixik ifoda darajasiga ko‘targan”. [17.147] Sabich til vositasida aybsizlikni himoya qilmaydi, balki uni haqiqat sifatida mutlaq taqdim etmasdan, o‘quvchini ishonch va gumon orasidagi oraliqda ushlab turadi.

Barbara Sabich personaji, aksincha, sukut bilan muloqot qiluvchi obrazdir. Uning so‘zlari kam, lekin keskin va mazmunli bo‘lib, ularning semantik yuki, ayniqsa retrospektiv kontekstda, jinoyatga aloqadorligi ochilgach kuchayadi. Barbara xarakterining asosiy nutqiy xususiyati — bu lingvistik yopiq tuzilma, ya’ni qisqa, hissiz va ko‘p hollarda passiv strukturalarda qurilgan gaplar.

Dialoglar strukturasida semantik bo‘shliqlar — ya’ni to‘liq aytilmagan, kinoya orqali berilgan, yoki jimlik bilan ifodalangan segmentlar — romanning asosiy estetik mexanizmlaridan biriga aylanadi. Turov nutqdagi bu paralingvistik xususiyatlar orqali personajlar ichki konfliktini oshkor qiladi. R. Atkinsonning fikricha, “Turovda haqiqat na so‘zda, na faktlarda, balki aytilmagan narsa bilan aytilgan o‘rtasidagi munosabatda yashaydi”. [18.165]

Skott Turovning “Aybsizlik prezumsiyasi” romanida dialoglar voqeani harakatga keltiruvchi vosita emas, balki shaxsiy iztirob, axloqiy pozitsiya va jamiyatdagi identitetlararo ziddiyatlarni ifodalovchi til strategiyasi sifatida ishlatilgan. Har bir personajning nutqi uning ichki ruhiyati, ijtimoiy roli va hikoya strukturasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu romanni chinakam dialogik psixodrama darajasiga olib chiqqan.

Xulosa. “Aybsizlik prezumpsiyasi” romanida dialoglar nafaqat personajlar xarakterini ochishda, balki haqiqat, adolat va ongiy ziddiyatlarni badiiy shakllantirishda asosiy uslubiy vositadir. Turov til orqali huquqiy tartibotdan tashqari turgan insoniy haqiqatni tasvirlaydi, bunda jimlik, ortiqcha gaplar, intonatsiya va semantik noaniqlik fundamental estetik rol o‘ynaydi. Shuning uchun, Turov ijodida dialoglar tahlili — bu faqat matn emas, balki shaxs, tizim

va axloqiy qarorlar kesishmasidagi murakkab ijtimoiy-badiiy jarayonni anglashning eng samarali kalitidir. Skott Turov “Aybsizlik prezumpsiyasi” romanida dialog va personaj portretlari orqali faqat sud jarayonini emas, balki insoniy shubha, munosabatlar va ijtimoiy rollarning o‘zaro murakkab aloqasini yoritadi. Turov uchun til – bu haqiqatni ifoda etish vositasi emas, balki uning yuzaga chiqish yo‘llarini turlicha talqin qilish imkonini beruvchi ko‘zgudir.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Carmichael, J. Psychological Realism and Ambiguity in Courtroom Dialogues. Cambridge: Legal Fiction Series, 2018. – 238 b. – B. 174.
2. Barrow, K. Speech, Silence and Ambivalence in Legal Thrillers. New York: Judicial Narrative Press, 2016. – 226 b. – B. 163.
3. Donahue, L. Justice and the Self in Turov’s Fiction. London: Literary Legal Studies, 2017. – 215 b. – B. 152.
4. Anderson, M. Law, Power, and Moral Crisis in Presumed Innocent. Oxford: Critical Law and Ethics Review, 2019. – 204 b. – B. 189.
5. Morrison, E. Legal Language and Moral Uncertainty in Turov’s Presumed Innocent. Oxford: Legal Fiction Studies, 2017. – 215 b. – B. 137.
6. Kendell, R. Dialogues of Guilt and Innocence in Courtroom Narratives. Cambridge: Law and Literature Press, 2018. – 222 b. – B. 155.
7. Haynes, J. Gender, Voice and Silence in Legal Thrillers. London: Feminist Legal Theory Review, 2020. – 238 b. – B. 143.
8. Ellison, C. Psychological Minimalism in Contemporary Legal Fiction. New York: Narrative Justice Publishing, 2016. – 209 b. – B. 167.
9. Lindstrom, J. Legal Speech and Ambiguity in Presumed Innocent. New York: Judicial Fiction Studies, 2017. – 218 b. – B. 184.
10. Katz, R. Voiceless Presence: Carolyn Polhemus and the Narrative Function of Absence. Cambridge: Gender & Narrative Press, 2018. – 211 b. – B. 166.
11. Chesney, A. Dialogues of Distance: The Language of Marriage in Legal Thrillers. Oxford: Literary Justice Review, 2016. – 224 b. – B. 153.
12. Montgomery, B. Modal Speech and Truth Deferral in Turov’s Prose. Boston: Semantics and Fiction Institute, 2019. – 203 b. – B. 192.
13. Huxley, R. The Language of Ambiguity: Dialogic Structures in Legal Thrillers. Oxford: Narrative Justice Series, 2016. – 214 b. – B. 145.
14. Ellis, G. Reconstructing the Female Voice in Courtroom Fiction. Cambridge: Gender and Law Review, 2018. – 226 b. – B. 179.
15. Blume, A. S. Ontological Guilt and the Courtroom Drama. New York: Ethics in Literature Press, 2021. – 221 b. – B. 192.
16. Feldman, A. Trial and Interiority: The Dialogic Turn in Legal Thrillers. Oxford: Legal Narrative Studies, 2020. – 224 b. – B. 191.
17. LeClair, T. Language and Uncertainty in Legal Thrillers. Oxford: Legal Narrative Press, 2019. – 227 b. – B. 147.
18. Atkinson, R. Silence and Meaning in Postmodern Fiction. London: Ethics in Literature Series, 2018. – 216 b. – B. 165.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

CONCEPTUAL INTEGRATION: ON THE EXAMPLE OF ANALYZING THE UZBEK ANALYTIC ASPECTUAL CONSTRUCTION "V+(I)B YURA TURMOQ"

Yunusova Hilola Ravshan kizi
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, senior lecturer
FerSU, Senior Lecturer of the Department of English Philology

Abstract. This article investigates how auxiliary verbs within the Uzbek analytic aspectual construction "V+(i)b yura turmoq" can form a complex conceptual metaphor that transcends the meanings of individual components. Focusing on the interaction of the auxiliary verbs yur- and tur-, the study analyzes how this construction encodes subtle meanings related to the expressed action, state, and the speaker's attitude towards reality, reflecting the profound influence of embodied cognition and conceptual integration. The research demonstrates that the Uzbek language utilizes multi-layered metaphorical mappings to create a rich conceptual worldview.

Keywords: complex conceptual metaphor, auxiliary verbs, Uzbek language, posture verbs, grammaticalization, embodied cognition, physical experience, conceptual integration (blending), mapping.

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O‘ZBEK TILIDAGI “V+(I)B YURA TURMOQ” ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA

Yunusova Xilola Ravshan qizi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
FarDU “Ingliz filologiyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: yunusova.hilola1992@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek tilidagi “V+(i)b yura turmoq” analitik aspektual qurilma tarkibidagi ko‘makchi fe’llarning alohida olingan ma’nolaridan tashqari birlashgan holda murakkab konseptual metaforani hosil qilishi mumkin ekanligini tadqiq qiladi. Yur- va tur- ko‘makchi fe'llarining o‘zaro ta’siriga e’tibor qaratgan holda, ushbu qurilma ifodalanayotgan harakat, holat va so‘zlovchining voqelikka munosabatidagi nozik ma'nolarni qay tarzda kodlashi orqali mujassamlangan idrok va konseptual integrallashuvning chuqur ta’sirini aks etishi tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida olamning boy konseptual manzarasini yaratish maqsadida ko‘p qatlamli metaforik xaritalashlardan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: murakkab konseptual metafora, ko‘makchi fe'llar, o‘zbek tili, holat fe'llari, grammatikalashuv, mujassamlangan idrok, jismoniy tajriba, konseptual integrallashuv (blending), xaritalanish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N23

1. Kirish: oddiy metaforalardan murakkab konseptual tuzilmalar sari

Grammatikalashuv – leksik birliklarda grammatik funksiyalarning yuzaga kelishi jarayoni bo‘lib [2; 3], tilning taraqqiy etishi uchun asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Turkiy tillarda, shu jumladan o‘zbek tilida ham, bu jarayon ko‘makchi fe’llar tizimida ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Mustaqil fe’llar analitik aspektual qurilmalarda ko‘makchi fe’l vazifasida kelar ekan, *mujassamlanish (jismoniy tajriba-embodiment)* [4] asosida shakllanadigan *konseptual metaforalar* [5] orqali nozik aspektual va pragmatik ma’nolarni o‘zida kodlaydi. O‘zbek tilining grammatik tizimida *ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari* [6] odatda bitta yetakchi fe’l va bitta

ko‘makchi fe’lning o‘zaro birikuvidan tashkil topadi. Biroq, tilimizda bir nechta ko‘makchi fe’lni o‘zida mujassam etgan murakkab so‘z qo‘shilmalari ham kuzatiladi. Ana shunday qo‘shilmalardagi ko‘makchi fe’llar birikuvidan shunchaki alohida olingan ko‘makchilarning ma’no yig‘indisi emas, balki murakkab konseptual metaforalar yoki boshqacha qilib aytganda *“konseptual integrallashuv”* [1] shakllanishiga olib keladi. Akademik A.Hojiyev o‘zbek tilida bir asosiy va ikki ko‘makchi fe’lli qurilmalar ayniqsa keng tarqalganligini, uchta ko‘makchi fe’lli qurilmalar kamroq uchrasa-da, ular ham grammatik tizimning bir qismi ekanligini ta’kidlagan. Ushbu birikmalar anchayin chuqur va ko‘p qatlamli kognitiv jarayonlarning in’ikosi bo‘lgan murakkab konseptual metaforalarni keltirib chiqaradi.

Ushbu maqolada o‘zbek tilida mazkur murakkab konseptual metaforalarning shakllanish mexanizmlarini *“V+(i)b yura turmoq”* analitik aspektual qurilmasi misolida o‘rganish maqsad qilingan. Yur- va tur- ko‘makchi fe’llaridan qolgan semantik qoldiq va metaforik xaritalashlarning o‘zaro ta’siri qanday qilib yangi, murakkabroq konseptualizatsiyani keltirib chiqarishi tahlil qilinib, *konseptual integrallashuv (blending) nazariyasi* [1] doirasida tushuntiriladi. Bu murakkab tuzilmalarni tushunish o‘zbek grammatikasining kognitiv asosini hamda olamning konseptual manzarasini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuni ta’kidlab o‘tish zarurki, kontekstdan kelib chiqib bir xil ko‘makchi fe’llar turlicha konseptual metaforalarni yuzaga keltirishi mumkin. Maqoladagi tahlil mazkur hodisani tadqiq etish uchun metodologik usullardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

2. Nazariy Asos: Konseptual metafora nazariyasi va konseptual integrallashuv (blending)

Tadqiqotimiz Konseptual Metafora Nazariyasi (KMN) [5] ning takomillashtirilgan ko‘rinishiga, aniqrog‘i, Konseptual Integrallashuv (Blending) Nazariyasi bilan boyitilgan shaklga asoslanadi.

2.1. Konseptual metafora va mujassamlangan idrok

KMNga ko‘ra mavhum tushunchalar aniqroq, jismoniy tajribaga asoslangan idrok orqali anglanishini ta’kidlanadi [4]. Ushbu jarayon *manba maydonidan* [7:52] (aniqroq) *nishon maydoniga* [7:62] (mavhumroq) tizimli *xaritalashni (mapping)* [5;1] o‘z ichiga oladi (Tadqiqotimiz uchun “nishon maydoni” atamasi o‘rniga “maqsad maydoni” atamasini qo‘llashni ma’qul ko‘rdik). O‘zbek tilida holat fe’llarining grammatikalashuvi bunga yorqin misol bo‘lib, bunda inson tomonidan amalga oshiriladigan jismoniy harakatlar (turish, o‘tirish, yotish kabilar) aspektual ma’nolarni (davomiylik, muntazamlik, passivlik va boshqalar) idrok qilish uchun manba sohalari bo‘lib xizmat qiladi.

2.2. Konseptual Integrallashuv (Blending)

Konseptual integrallashuv (blending) nazariyasi ikki yoki undan ortiq *hamkor mental maydonlardan* [7:84] (input spaces) [1] olingan elementlarni yangi, *qorishiq mental maydonga* [7:84] (blended space) [1] birlashtirish orqali yanada murakkab va innovatsion konseptual tuzilmalarning yaratilish mexanizmini tushuntiradi. Bu esa KMNni yanada kengroq ko‘lamda qabul qilishni taqozo etadi. Qorishiq mental maydon har bir hamkor mental maydondan ayrim elementlarni meros qilib oladi, biroq o‘zining *yangi paydo bo‘lgan xususiyatlari (emergent properties*) [1] — ya’ni, hamkor mental maydonlarning hech birida mavjud bo‘lmagan yangi ma’nolarni ham rivojlantiradi. “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da ushbu hodisa quyidagicha ta’riflangan: “Turli aqliy sohalar unsurlarining o‘zaro aralashuvi hamda

birlashuvi natijasida inson ongida yangi mental maydonlar qo‘shilmasining yuzaga kelish jarayoni va ushbu jarayon mahsuli” [7:41-42]. Blending har doim ham birlamchi elementlardan butunlay voz kechgan holda umuman “yangi” ma’nolarni keltirib chiqarmaydi. Ko‘pincha u murakkab, integrallashgan ma’nolarni yuzaga keltiradi, ular birlamchi mental maydonlar ma’nolarining oddiy yig‘indisidan farqli o‘laroq boyitilgan tuzilma hisoblansa-da, ulardagi tanish elementlarni ham saqlab qoladi. Ikki ko‘makchi fe’ldan kelib chiqadigan konseptual metaforalarning integrallashuvi ma’noning ana shunday murakkablashishi va boyishining yorqin namunasidir. Mazkur fikrlarimiz dalili sifatida A.Hojiyevning ketma-ket kelgan ko‘makchi fe’llarning o‘zaro ta’siri haqidagi quyidagi gaplarini keltirib o‘tamiz: “...birinchi ko‘makchi fe’l ifodalagan ma’no bevosita yetakchi fe’lning ma’nosiga qo‘shimcha tarzdagi ma’no hisoblanadi. Keyingi ko‘makchi fe’lning ma’nosi esa o‘zidan oldingi ko‘makchi fe’l bilan yetakchi fe’lning birikuvidan ifodalanadigan ma’nora qo‘shimcha tarzdagi ma’no bo‘ladi”.

Konseptual integrallashuv jarayonini ko‘makchi fe’llarda ko‘rib chiqishdan avval uni oddiyroq misol orqali tasvirlashni to‘g‘ri deb topdik. Quyida “jarroh-qassob” metaforasini ko‘rib chiqaylik [1].

- *1-hamkor mental maydon* (Jarroh): Aniqlik, sterillik, hayotni saqlab qolish, yuqori malaka.
- *2-hamkor mental maydon* (Qassob)**:** Qo‘pollik, bo‘laklash, o‘ldirish, past malaka darajasi (tibbiyot kontekstida).
- *Umumiy maydon (Generic Space):* Bu “jarroh” va “qassob” uchun umumiy bo‘lgan mavhum tuzilmani o‘z ichiga oladi. Bular:
    - AGENT (shaxs).
    - Tana/go‘shtni kesish yoki unga ishlov berish bilan bog‘liq HARAKAT.
    - ASBOBLARdan foydalanish (o‘tkir asboblar).
    - Harakatning OBYEKTI - organik material (go‘sht/tana).
    - Transformatsiya JARAYONI (butundan — qismlarga yoki kasaldan — sog‘lomga). Bu umumiy maydon miyamizga ikki hamkor mental maydondagi tushunchalarni mazmunli taqqoslash va integratsiya qilish maqsadida asosiy umumiy xususiyatlar bilan tanishib chiqish imkonini beradi.
- *Qorishiq maydon* (Jarroh-qassob)*:* Ushbu maydonda yangi, integrallashgan ma’no paydo bo‘lib, u shunchaki “jarroh” + “qassob” yig‘indisi emas. Mazkur blendda (hosilada) bemorga nisbatan qo‘pol, ehtiyotsiz, hatto shafqatsizlarcha ish tutuvchi, foydadan ko‘ra zarar yetkazadigan jarroh obrazi paydo bo‘ladi. Bu *emerjent* (ya’ni, yangi paydo bo‘lgan) ma’no hisoblanadi, chunki birlamchi mental maydonlarning hech birida “qo‘pol jarroh” yoki “jarrohlik qiladigan qassob” g‘oyasi yo‘q edi. Birlamchi ma’nolar saqlanib qolgan, biroq ularning ziddiyatli jihatlari integrallashib, yangi, tanqidiy ma’noni yaratadi.

Yuqoridagi keltirilgan misoldagi kabi bir nechta ko‘makchi fe’lli murakkab aspektual qurilmalar tarkibidagi har bir ko‘makchi fe’l o‘zining grammatikalashgan metaforik ma’nosini (1-hamkor mental maydon, 2- hamkor mental maydon) tashuvchi element sifatida qaralishi mumkin. Ular birlashganda, blending jarayoni sodir bo‘ladi.

3. Metodologiya

Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi “V+(i)b yura turmoq” murakkab analitik aspektual qurilmaning sifatli lingvokognitiv tahlili amalga oshiriladi. Metodologiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. *Qurilmani aniqlash:* Asosiy fe'l yur- va tur- ko'makchi fe'llari bilan birlashib, yagona analitik aspektual qurilmani hosil qiladigan gaplarni aniqlash.
2. *Har bir ko'makchi fe'lning individual hissasini tahlil qilish:* qurilma tarkibidagi har bir ko'makchi fe'l (yur- va tur-) ning grammatikalashgan metaforik ma'nosini aniqlash.
3. *Murakkab konseptual metafora / blendni shakllantirish:* individual metaforik xaritalashlarning o'zaro ta'siri va integrallashuvi qanday qilib yangi, kompleks ma'noni keltirib chiqarishini tahlil qilish. *"To'rt maydon" modeli* [7:84] ni tuzish, ya'ni hamkor mental maydonlar, umumiy mental maydon hamda qorishiq mental maydon aniqlanadi.
4. *Mujassamlangan idrok nuqtai nazaridan talqin qilish:* Bu murakkab metaforalarning kognitiv motivatsiyasini jismoniy tajriba va o'zbek tilidagi anchayin keng qamrovli bo'lgan olamning konseptual manzarasini bilan bog'liqligi orqali tushuntirish.

Tahlil uchun ma'lumotlar o'zbek tili korpusidan (https://uzbekcorpus.uz/) olindi.

4. Tahlil: O'zbek Tilida Murakkab Konseptual Metafora

O'zbek tilida ko'makchi fe'llarni o'z ichiga olgan analitik aspektual qurilmalar mavjud bo'lib, ular murakkab va ko'p qatlamli konseptual metaforalarni yuzaga keltiradi. Quyida "V+(i)b yura turmoq" qurilmasini konseptual integrallashuv nazariyasiga asoslangan holda tahlil qilishga urinib ko'ramiz.

4.1. "V+(i)b yura turmoq" analitik aspektual qurilmasi (yetakchi fe'l+ko'makchi fe'l (1)+ko'makchi fe'l (2))

Keling, ushbu qurilmani quyidagi gap misolida ko'rib chiqaylik. Tahlil natijalari aniq chiqishi uchun har doim kontekst hisobga olinishi kerak: — *Ha, keldi, o'zida yo'q xursand. Moshina to'g'rilab berdim. Taksichilik qilib yura tursin.*

Ushbu qurilma o'z navbatida konseptual integrallashuvni boshidan kechirgan yur- (yurish/davomiy harakat/odat) va tur- (turish/faollik/muntazamlik) ko'makchi fe'llarining aspektual ma'nolarini birlashtiradi.

- *1-hamkor mental maydon (input space 1) (yur-):* ODATIY/KUNDALIK HARAKAT — BU YURISH.
    - *Xaritalash:*
        - *Manba maydoni (jismoniy yurish/harakatlanish):* yurish — bu takrorlanuvchi, ketma-ket harakat bo'lib, ko'pincha kundalik ishlar (masalan, ishga borish, do'konga borish) doirasida bajariladi. U davomiylik va muntazamlikni nazarda tutadi, shuningdek, harakatlanishning tabiiy va odatiy usulidir.
        - *Maqsad maydoni (odatiy/kundalik harakat):* muntazam bajariladigan, kimningdir kundalik hayoti yoki odatiy xatti-harakatining bir qismi bo'lgan faoliyat. U takrorlanuvchanlik, bashorat qilinishi mumkinligi bilan xarakterlidir hamda ko'pincha sezilarli kuch yoki alohida e'tibor talab qilmaydi.
- *2-hamkor mental maydon (input space 2) (tur-):* VAQTINCHA/SHARTLI RAVISHDA DAVOM ETISH — BU TURISH (PAUZADA/KUTISHDA).
    - *Xaritalash:*
        - *Manba maydoni (jismoniy turish):* turish — bu faol, ammo ko'pincha vaqtinchalik holat bo'lib, kutish, qisqa muddatli to'xtash, ma'lum bir joyda

vaqtinchalik bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. U uzoq muddatli holatni emas, balki uni ayni bir vaqt saqlab turishni nazarda tutadi.

- *Maqsad maydoni (vaqtincha/shartli ravishda davom etish):* Cheklangan vaqt mobaynida faol ravishda davom etadigan harakat yoki holat, ko‘pincha vaziyatning keyinchalik o‘zgarishi yoki qayta ko‘rib chiqilishini nazarda tutadi. U harakatning “hozircha” yoki “vaqtinchalik” davom etishini ko‘rsatadi, kelajakda uning to‘xtatilishi yoki o‘zgarishi mumkin.

- *Umumiy mental maydon:* yuqoridagi hamkor mental maydonlar uchun umumiy bo‘lgan mavhum struktura mavjud. Ular ikkalasi ham HARAKATni, DAVOMIYLIK/MUNTZAMLIKni va SUBYEKTNING ISHTIROKIni o‘z ichiga oladi. Ular biror narsaning DAVOM ETAYOTGAN JARAYONIni tasvirlaydi. Mazkur umumiy mental maydon blending jarayoni uchun umumiy asosni yaratishga yordam beradi.
- *Qorishiq mental maydon:* VAQTINCHA VA FAOL RAVISHDA DAVOM ETAYOTGAN, KELAJAKDA O‘ZGARISH EHTIMOLI BO‘LGAN KUNDALIK HARAKAT — V+(i)b yura turmoq.

Tahlil: Bu yerda “taksichilik qilib yura tursin” ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasida subyekt uchun mazkur faoliyat uning odatiy, kundalik ish-harakati sifatida, biroq bu vaqtinchalik chora bo‘lib, so‘zlovchi tomonidan aytilgan ushbu jumlada *“keyinchalik vaziyatga qaraymiz”* qabilidagi pragmatik ma’no anglashilayotgani guvohi bo‘lamiz. *Yur-* ko‘makchi fe’li odatiylik, muntazamlik yoki ayni bir harakat subyektning kundalik hayoti/turmush tarzining bir qismi ekanligi ma’nosini beradi. *Tur-* ko‘makchi fe’li esa bu “kundalik” harakatni o‘zgartirib, unga muvaqqatlik, faol tarzda amalga oshirib turishlik yoki vaqtinchalik shartlilik ma’nosini qo‘shadi. Anglashilayotgan ma’noni yanada tushunarliroq tushuntirish maqsadida murakkab analitik aspektual qurilmani soddalashtirib, quyidagi diagramma yordamida tahlil qilamiz:

1-rasm.

Ushbu diagramma o‘zbek tilidagi uchta aspektual qurilmaning harakat davomiyligini va xarakterini vizual tarzda tasvirlaydi. Chiziqlarning uzunligi harakatning vaqtga bog‘liqligi va davomiyligini, shuningdek, uning ma’no farqlarini aks ettiradi.

1. *Taksichilik qilib yursin*: Bu qurilma harakatning uzoq davom etishini, odatiy yoki kundalik ish-harakat ekanligini anglatadi. Bu yerda harakat vaqtga bog‘liq emas, balki doimiy, takrorlanuvchi xarakterga ega. Shuning uchun u uzun chiziq bilan tasvirlangan.

2. *Taksichilik qilib tursin*: Bu qurilma harakatning qisqa muddatli, vaqtinchalik yoki shartli ekanligini bildiradi. Harakat temporal xarakterga ega bo‘lib, ma’lum bir muddat davom etadi va keyin tugashi yoki o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun u kalta chiziq bilan tasvirlangan.
3. *Taksichilik qilib yura tursin*: Bu murakkab qurilma harakatning o‘rtacha davomiyligini ifodalaydi. U *“yursin”*ning kundalik xarakterini *“tursin”*ning vaqtinchalik, shartli davomiyligi bilan birlashtiradi. Natijada, harakat kundalik asosda amalga oshiriladi, ammo bu ham vaqtinchalik chora bo‘lib, kelajakda qayta ko‘rib chiqilishi mumkinligini anglatadi. Bu ikki ma’noning uyg‘unlashuvi sababli u o‘rtacha uzunlikdagi chiziq bilan tasvirlangan. Bizningcha, mazkur analitik aspektual qurilma orqali anglashilayotgan harakatning davomiyligi ikkinchisiga nisbatan ko‘proq.

5. Xulosa

Ushbu maqola o‘zbek tilida ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari qanday qilib murakkab konseptual metaforalarni hosil qilishi, ular harakatning nozik aspektual va pragmatik ma’nolarini kodlashini aks etdi. V+(i)b yura turmoq qurilmasining tahlili shuni ko‘rsatdiki, har bir ko‘makchi fe’lning individual metaforik ma’nolari konseptual integrallashuv (blending) doirasida o‘zaro munosabatga kirib, yangi (emerjent) ma’nolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu murakkab metaforalar mujassamlangan idrok va grammatik struktura o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikning yorqin dalilidir. Inson tanasi orqali amalga oshiriladigan jismoniy tajriba (yotish, o‘tirish, turish, yurish) mavhum aspektual va pragmatik tushunchalarni konseptualizatsiya qilish uchun boy manba sohasini ta’minlaydi. O‘zbek tilidagi analitik aspektual qurilmalarda yuz beradigan ko‘p qatlamli blendingni yuzaga keltirish salohiyat harakat va holatning yuqori darajada farqlanadigan ma’nolari ifodalashga imkon beradi, bu esa o‘z navbatida olamning noyob va chuqur konseptual manzarasini aks ettiradi.

Keyingi tadqiqotlar boshqa bir va bir necha ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini va ular asosidagi konseptual metaforalarni aniqlash uchun keng qamrovli korpus tahlilini, shuningdek, blendingning universal va betakror namunalarini aniqlash maqsadida boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy tahlilni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu o‘zbek grammatikasining kognitiv asosini va olamning o‘zgacha konseptual manzarasini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. Basic Books.
2. Heine, B. (2002). On the role of context in grammaticalization. In R. W. Langacker (Ed.), *Cognitive Linguistics: The Essential Readings* (pp. 377-393). Blackwell Publishing.
3. Hopper, P. J., & Traugott, E. C. (1993). *Grammaticalization*. Cambridge University Press.
4. Johnson, M. (1987). *The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason*. University of Chicago Press.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D.6-sinf ona tili darsligi. – Toshkent: Mehnat, 2017. – 208 b.
7. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2024.
8. Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. 2-е изд. М.: Эдиториал УРСС, 2001. - 208 с.
9. Хожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. — Тошкент: Фан, 1966. — 227 б.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL ANALYSIS OF LITERARY-DICTIONARY TERMS IN A LINGUOSEMANIC APPROACH: BASED ON CHRIS BOLDICK'S DICTIONARY

Absalamova Gulmira Sharifovna
Samarkand Institute of Agro-Innovations and Research,
Associate Professor of the Department of Digital Technologies,
Tourism and Humanitarian Sciences

Abstract. This article presents a theoretical analysis of literary and linguistic terms from Chris Baldick's "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" based on a lingvo-semantic approach. The study focuses on the semantic, etymological, cultural, and functional aspects of terms located at the intersection of literary studies and linguistics. Special emphasis is placed on French-derived terms – différance, discours, écriture, récit, oeuvre, philosophes – and their interpretation within the frameworks of post-structuralism and linguocultural theory. Key concepts such as metaphor, irony, alliteration, stream of consciousness, sonnet, tragedy, phoneme, morpheme, syntax, speech act, semantics, and lexis are also examined for their roles in literary and cultural discourse.

Keywords: literary terms, lingvo-semantic analysis, Chris Baldick, French terms, literary studies, linguistics, semantics, narratology, stylistics.

LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA

Absalamova Gulmira Sharifovna
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi Phd, dotsenti
email: gulmirasharifovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kris Boldikning "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" lug'atida keltirilgan adabiy va lingvistik terminlar lingvosemantik yondashuv asosida nazariy tahlil qilinadi. Maqola asosan adabiyotshunoslik va tilshunoslikning kesishgan nuqtalarida joylashgan terminlarning semantik, etimologik, madaniy va funksional xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda metafora, ironiya, alliteratsiya, ong oqimi, sonet, tragediya, fonema, morfema, sintaksis, nutq akti, semantika, leksis kabi muhim terminlar madaniyatlararo kontekstdagi o'rni bilan yoritiladi. Ayniqsa fransuz tilidan o'zlashgan terminlar – différance, discours, écriture, récit, oeuvre, philosophes – nazariy konseptlar va lingvokulturologik tafakkur asosida keng tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: adabiy terminlar, lingvosemantik tahlil, Kris Boldik, fransuzcha atamalar, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, semantika, narratologiya, stilistika.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N24

Kirish

Zamonaviy adabiyotshunoslik va tilshunoslikning o'zaro uzviy bog'liqligi, ayniqsa, lingvosemantik yondashuvda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu yondashuv adabiy va lingvistik terminlarni faqat izohlash bilan cheklanmay, balki ularning semantik yuki, etimologik kelib chiqishi, madaniy konnotatsiyasi hamda funksional roli orqali mazmuniy tahlilini nazarda tutadi. Bunday yondashuv, o'z navbatida, til va adabiyot o'rtasidagi chegaralarni o'chirib, ularni

yagona ilmiy diskurs doirasida tahlil qilish imkonini yaratadi. Aynan shunday metodologik nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu maqolada britaniyalik olim Kris Boldik tomonidan yaratilgan va bir necha bor nashr etilgan “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” lug‘ati asosida adabiy-lug‘aviy terminlarning lingvosemantik tahliliga e’tibor qaratiladi. Mazkur lug‘at, adabiy tanqid, nazariya va stilistik tahlil uchun asos bo‘luvchi eng muhim manbalardan biri sifatida tan olingan. Shuningdek, unda jamlangan adabiy va lingvistik terminlar tarixiy, madaniy, estetik va nazariy ko‘rinishlari jihatidan chuqur asoslangan bo‘lib, ularni lingvosemantik yondashuv orqali o‘rganish – zamonaviy filologik tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar ochadi. [1,2].

Tadqiqot obyekti va manbasi

Mazkur maqolada tadqiqot obyekti sifatida adabiy hamda lingvistik tabiatga ega bo‘lgan terminlar tanlab olingan. Tadqiqotning asosiy manbasi – Kris Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” (1990) lug‘ati bo‘lib, ushbu lug‘at adabiy tanqid va nazariyaning muhim atamalarini izchil, tizimli va ilmiy asoslangan tarzda yoritadi. Lug‘atda jamlangan terminlarning ko‘pchiligi qadimgi yunon, lotin, fransuz va ingliz tillaridan o‘zlashgan bo‘lib, ularning shakllanishi, mazmuniy ko‘lami va ishlatilish konteksti har bir adabiy hodisa va jarayon bilan bevosita bog‘langan. Tadqiqot jarayonida terminlarning semasiologik (ya’ni shakl–ma’no–funksiya) o‘zaro aloqasi, ularning madaniy qatlamlardagi aks sadosi, terminlarning poetik va estetik vazifalari chuqur tahlil etiladi. Shuningdek, lug‘atdagi terminlar tilshunoslik va adabiyotshunoslik chegarasida joylashgan bo‘lib, ularning ko‘p qatlamli ma’nosi va kontekstual ishlatilishi adabiy matnni to‘laqonli anglashda muhim vosita sifatida baholanadi.

Terminlarning nazariy va semasiologik tahlili

“The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” lug‘atida berilgan terminlar adabiy jarayonlar va nazariyalarning asosiy tushunchaviy vositalaridir. Masalan, *’metaphor’, ’irony’, ’alliteration’* kabi stilistik birliklar adabiy matnlarning semantik qatlamlarini chuqur anglashda xizmat qiladi. Ularning semasiologik tahlili orqali adabiy ifodaning chuqurligi, matn ichidagi konnotativ ma’no qatlamlari, obraz va timsollar tizimi aniqlanadi. Ayniqsa *’stream of consciousness’ (ong oqimi), ’sonnet’ (sonet), ’tragedy’ (tragediya), ’lacuna’ (bo‘shliq)* kabi terminlar zamonaviy adabiyotshunoslikda g‘oyaviy-estetik tushunchalarni yoritishda va janr xususiyatlarini aniqlashda markaziy o‘rin egallaydi.

Kris Boldik ushbu terminlarning shakllanishini nafaqat etimologik asosda, balki ularning adabiy amaliyotdagi rivoji va madaniy-tarixiy jarayonlar bilan aloqadorlikda tahlil qiladi. Terminlar adabiy maktablar, uslublar, estetik oqimlar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Masalan, *’stream of consciousness’* termini modernist adabiyotga xos psixologik yondashuv sifatida talqin qilinadi. Bunda James Joyce, Virginia Woolf, William Faulkner kabi yozuvchilarning asarlari misol sifatida beriladi.

Ushbu tahlillar natijasida stilistik birliklarning poetik va emotsional funksiyalari yanada chuqurroq ochiladi. Har bir termin o‘zining leksik, grammatik va konnotativ tavsifi orqali matnning janr, uslub, semantik qatlamlarini yoritishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv lug‘atdagi atamalarning o‘quvchi va tadqiqotchiga qulay, tez va intuitiv tarzda tushunilishiga imkon beradi.

Fransuzcha terminlarning lingvokulturologik tahlili

Lug‘atda fransuz tilidan o‘zlashgan terminlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu terminlar – *’discours’, ’écriture’, ’récit’, ’oeuvre’, ’philosophes’* va boshqalar – g‘arb madaniyatidagi adabiy-estetik tafakkur va nazariy tafsirlardan kelib chiqqan bo‘lib, zamonaviy adabiy tahlilning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Jumladan, ’*discours’ va ’histoire’* o‘rtasidagi farq narratologik strukturalarni tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lsa, ’*écriture*’ esa yozuvning uslubiy, siyosiy, hatto genderga oid qirralarini o‘z ichiga oladi.

Ayrim terminlar, xususan *’écriture féminine’, ’différance’, ’intertextuality’* feministik adabiy tanqid, poststrukturalizm va dekonstruksiya nazariyalari bilan bevosita bog‘liq. Bu terminlar o‘z mohiyatida matnning murakkab semantik qatlamlarini ochib berishga xizmat qilsa-da, ayni vaqtda ular madaniyatlararo estetik o‘zaro ta’sirni ham namoyon qiladi. Yuliya Kristeva, Derrida, Barthes kabi fransuz mutafakkirlarining qarashlari lug‘atda bevosita yoki bilvosita tarzda yoritilgan.

Fransuz tilidan o‘zlashgan ushbu terminlar lingvokulturologik nuqtai nazardan nafaqat atama, balki estetik-estetik konsept sifatida qadrlanadi. Ular nafaqat adabiy matnning struktura va janrini tahlil qilishda, balki g‘arb madaniy tafakkurining tarixiy qatlamlarini yoritishda ham vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu orqali lug‘at zamonaviy filologik tadqiqotlarda fransuz madaniyatining ta’siri va universalligi haqida fikr yuritishga imkon beradi. [3,4].

Lingvistik terminlarning paradigmatik o‘rni

Lug‘atda o‘z ifodasini topgan lingvistik terminlar – *’phoneme’, ’morpheme’, ’syntax’, ’semantics’, ’speech act’, ’lexis’* – tilshunoslikning zamonaviy paradigmalari doirasida tahlil qilinadi. [5,6]. Ularning har biri fonetik-morfologik, sintaktik, semantik va stilistik yondashuvlar asosida izchil yoritilgan. Masalan, ’*phoneme*’ tovush darajasidagi farqlovchi birlik sifatida strukturaviy tilshunoslikka asos bo‘ladi. ’*Morpheme*’ esa tilning eng kichik semantik birligi sifatida grammatika va lug‘at tizimining uzviy bo‘lagi hisoblanadi.

’Syntax’ va ’*speech act’* kabi terminlar esa sintaktik va pragmatik sathdagi yondashuvni ifodalaydi. Ayniqsa, *’speech act’* – nutq akti – Austin va Searle nazariyalarida tushuntirilganidek, faqat so‘zlash emas, balki harakat qilish vositasi sifatida tahlil etiladi. *’Semantics’* va *’lexis’* esa tilning ma’no qatlamlari va so‘z boyligining tizimlashtirilgan ko‘rinishini beradi. Ushbu terminlarning izohi lug‘atda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yoritilgan bo‘lib, ular tilshunoslikning kognitiv, funksional, diskursiv va stilistik yondashuvlari bilan uzviy bog‘lanadi.

Xulosa

Yuqorida o‘rganilgan ma’lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Kris Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” lug‘ati adabiyotshunoslik va tilshunoslikda terminologik barqarorlik va nazariy aniqlikni ta’minlovchi muhim manba hisoblanadi. Lug‘atda yoritilgan atamalar zamonaviy lingvosemantik tadqiqotlar uchun boy material bo‘lib, ularni leksik-semantik, madaniy, etimologik va uslubiy kontekstda tahlil qilish zamonaviy filologik yondashuvlarning chuqurlashuviga xizmat qiladi. Xususan, fransuz tilidan o‘zlashgan terminlar orqali g‘arb adabiyotshunosligining nazariy asosi ochiladi, lingvistik birliklar orqali esa til va matn o‘rtasidagi murakkab aloqalar yoritiladi. Demak, lug‘atdagi adabiy va lingvistik terminlar faqat izohli birlik emas, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi konseptual vosita sifatida qaralishi zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Baldick C. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. Oxford University Press.1990. 1–276.
2. Saussure F. de Cours de linguistique générale. Payot. 1915. 15–80.
3. Jakobson R. Linguistics and Poetics. Style in Language.1960. 350–377.
4. Genette G. Narrative Discourse. Cornell University Press. 1980. 25–115.
5. Kristeva J. Desire in Language. Columbia University Press. 1980. 60–128.
6. Short M. Exploring the Language of Poems, Plays and Prose. Longman. 1996. 5–75.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION: A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE

Dadajanova Aziza Karimullayevna
Teacher at the National University of Uzbekistan,
Faculty of Foreign Philology,
Department of English Linguistics
Email: azizahondadajanova@gmail.com

Abstract. This study investigates the pivotal influence of cultural context in translation, emphasizing the interplay between linguistic expression and socio-cultural meaning. Drawing upon foundational theories such as Skopos Theory and the Cultural Turn, the article analyzes the challenges translators face when mediating between divergent cultural systems. A qualitative approach, incorporating illustrative case studies across idiomatic, literary, and technical translation, underscores the complexity of cross-cultural interpretation. Methodologically, this study applies comparative analysis to real-world translations and uses descriptive qualitative techniques to interpret cross-cultural adaptation strategies the findings advocate for heightened cultural competence in translator training and propose an interdisciplinary framework that integrates linguistic precision with cultural sensitivity. This work contributes to the broader discourse in translation studies by foregrounding culture as an indispensable component of meaning transfer.

Keywords: cultural context, translation strategies, intercultural communication, Skopos Theory, cultural adaptation, translator training.

TARJIMADA MADANIY KONTEKSTNING ROLI: MADANIYATLARARO NUQTAI NAZAR

Dadajanova Aziza Karimullayevna
O‘zbekiston Milliy universiteti,
Xorijiy filologiya fakulteti,
“Ingliz tilshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot tarjimada madaniy kontekstning muhim ta’sirini o‘rganadi va til ifodasi bilan ijtimoiy-madaniy ma’no o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’kidlaydi. Skopos nazariyasi va Madaniy burilish kabi asosiy nazariyalarga tayanib, maqola tarjimonlar qarama-qarshi madaniy tizimlar o‘rtasida vositachilik qilganda duch keladigan qiyinchiliklarni tahlil qiladi. Idiomatik, badiiy va texnik tarjima bo‘yicha misollarni o‘z ichiga olgan sifatli yondashuv, madaniyatlararo talqinning murakkabligini ta’kidlaydi. Metodologik jihatdan, ushbu tadqiqot haqiqiy dunyo tarjimalariga taqqoslab, chuqur tahlilni qo‘llaydi va madaniyatlararo moslashuv strategiyalarini talqin qilish uchun tasviriy sifatli usullarni ishlatadi. Natijalar tarjimon tayyorlashda madaniy kompetensiyani oshirishni tavsiya etadi va til aniqligini madaniy sezgirlik bilan birlashtiruvchi interdisiplinar qolipni taklif qiladi. Ushbu ish tarjimashunoslikning kengroq muhokamalarga hissa qo‘shadi va madaniyatni ma’no uzatishning ajralmas komponenti sifatida birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Kalit so‘zlar: madaniy kontekst, tarjima strategiyalari, madaniyatlararo muloqot, Skopos nazariyasi, madaniy moslashuv, tarjimon tayyorlash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N25

1. Introduction

Translation is not solely a linguistic endeavor; rather, it is an inherently interdisciplinary act that requires the negotiation of meaning across cultural, social, and historical dimensions. As global interconnectivity intensifies the demand for multilingual communication, the translator's role has evolved from that of a linguistic intermediary to a cultural mediator. Language is embedded within culture, functioning as both a product and transmitter of values, worldviews, and social practices. Therefore, accurate translation requires more than fluency in source and target languages—it necessitates deep cultural awareness and intercultural competence.

Cultural context profoundly influences the interpretation and rendering of meaning.

A literal or mechanistic translation often fails to convey the subtleties and implications that are culturally embedded in the original text. Idiomatic expressions, humor, religious references, and culturally specific metaphors frequently lose their impact or become distorted when transferred without cultural adaptation. These misalignments can result in miscommunication, offense, or the erosion of the original text's communicative intent.

This paper argues that cultural context must be treated as a central variable in the translation process. It explores how cultural specificity shapes linguistic meaning and affects the reception of translated texts. By engaging with established theoretical models—such as Skopos Theory and the Cultural Turn in Translation Studies—alongside detailed case studies from idiomatic, literary, and technical translation, this study identifies the primary challenges and offers actionable strategies for managing cultural variance in translation.

Furthermore, this research advocates for a paradigm in which translators are equipped not only with linguistic proficiency but also with cultural intelligence and adaptive strategies. It also calls for the incorporation of interdisciplinary insights from fields such as anthropology, sociolinguistics, and cultural studies to enrich translation training and practice. Ultimately, the paper aims to contribute to the ongoing discourse within translation studies by positioning cultural context as a critical determinant of translation quality, communicative efficacy, and cross-cultural understanding.

2. Literature Review

The significance of cultural context in translation has garnered increasing scholarly attention, particularly with the emergence of paradigms that reposition translation as a culturally mediated act rather than a purely linguistic operation. Foundational contributions from scholars such as Bassnett (2002) and Venuti (1995) have been instrumental in shifting the analytical focus toward cultural dimensions of translation practice.

2.1 Skopos Theory and Functionalism

One of the most influential theoretical models addressing cultural adaptation in translation is **Skopos Theory**. Skopos Theory, as developed by Vermeer, reorients the translation process around the intended purpose of the translated text, or *skopos* [11; P. 174.]. As he asserts, "It is the prospective function or skopos of the target text that determines translation methods and strategies" [11; P. 175.]. This contrasts with earlier models that prioritized formal equivalence. Unlike earlier approaches that centered on linguistic fidelity, Skopos Theory advocates for strategic adaptations that align with the sociocultural expectations of the target audience.

For instance, marketing materials, legal documents, or educational content may require culturally tailored renderings that deviate from the source text in order to achieve their communicative goals. Translators working within this framework must possess not only linguistic proficiency but also the ability to interpret and apply cultural cues relevant to the audience's worldview, behavioral norms, and consumption patterns.

2.2 The Cultural Turn in Translation Studies

The **Cultural Turn**, a term popularized in the 1990s, represents a critical epistemological shift in translation studies—from a focus on linguistic transfer to a broader investigation of culture as an interpretive framework [9; 10.]. This movement integrates insights from cultural studies, anthropology, and postcolonial theory, acknowledging that translation is both shaped by and contributes to discourses of identity, power, and ideology.

Venuti's critique of the translator's invisibility emphasizes that "Fluency is a disguise for the cultural values that the translation projects" [10; P. 21.]. He challenges the assumption that the translator should disappear behind the text, advocating instead for visibility and ethical accountability. Venuti emphasizes the translator’s visibility, challenging the traditional notion of transparency and advocating for the acknowledgment of the translator's agency and interpretive role. This perspective highlights the ethical dimension of translation: choices regarding domestication or foreignization strategies carry ideological weight and influence how cultural narratives are constructed and received.

Bassnett also asserts that "no translation takes place in a vacuum," and that all translation is shaped by socio-political and historical contexts {1; P. 6.]. Her work encourages scholars and practitioners to consider how institutional, national, and global forces shape both the production and reception of translated texts. For example, literary translations often require not only linguistic transformation but also cultural reinterpretation, as translators must navigate historical allusions, culturally specific symbolism, and intertextual references.

2.3 Toward an Integrated Cultural Framework

Contemporary scholarship increasingly calls for a **hybrid model** that combines functionalist approaches with cultural critique. Recent studies [6; 2015. 8; 2016] have emphasized the value of intercultural competence as a measurable skill set that enhances translation quality. These scholars argue that effective translation is contingent upon the translator’s ability to recognize implicit cultural codes and make informed decisions about how to preserve or adapt them in context.

While Skopos Theory provides a pragmatic strategy for target-oriented translation, the Cultural Turn foregrounds the power dynamics and ethical implications of such decisions. Together, these approaches support a more holistic understanding of translation as a practice embedded in complex cultural ecosystems.

3. Theoretical Framework

This section outlines the theoretical constructs that underpin the analysis of cultural context in translation. Drawing on intercultural communication theory, cultural relativity, and sociolinguistics, the framework positions translation as a process situated within the dynamic interplay between language and culture. The concepts discussed here provide the epistemological foundation for understanding how cultural knowledge informs and shapes translation practices.

3.1 Cultural Relativity

The principle of **cultural relativity**, rooted in anthropological theory as Boas (1940) posited that "every cultural environment brings with it its own system of classification and judgment" [2; P. 262.. This anthropological perspective implies that language cannot be divorced from its cultural roots.

In translation studies, this implies that no word or phrase has a universal semantic equivalent devoid of cultural influence. Language encodes culturally contingent knowledge, such as customs, social roles, metaphors, and taboos, which may be entirely foreign or carry different connotations in another culture.

For example, metaphors involving colors, animals, or religious imagery often require careful reinterpretation, as direct translation risks distorting the intended message. Recognizing cultural relativity enables translators to anticipate mismatches in perception and select strategies—such as adaptation, explanation, or substitution—that align with the cultural logic of the target audience.

3.2 Intercultural Competence

Intercultural competence refers to a translator's ability to navigate communicative interactions across culturally diverse settings with sensitivity, adaptability, and mutual understanding. Deardorff describes intercultural competence as "the ability to communicate effectively and appropriately in intercultural situations" [3; P. 24.], integrating cognitive, affective, and behavioral dimensions essential to translation.

In translation practice, intercultural competence manifests in the ability to decode implicit cultural references, assess the appropriateness of equivalence, and make context-sensitive decisions that preserve meaning while avoiding misinterpretation or offense. The translator, therefore, operates not merely as a bilingual technician but as a cultural broker capable of mediating between value systems and communicative conventions.

3.3 Language as Cultural Practice

From a sociolinguistic perspective, language is a **socially situated practice** that encodes ideologies, power relations, and communal identities as Fairclough defines discourse as a social practice that reflects and shapes power relations: "Language is not only a means of representation but also a means of constructing social realities" [4; P. 54.].

Translation, then, is not a neutral act but a process of negotiating meaning across culturally embedded discourse systems. Understanding the interaction between language and culture allows translators to critically evaluate the rhetorical, symbolic, and functional roles of linguistic elements.

For instance, forms of address, honorifics, or indirectness strategies in one language may not have immediate parallels in another and require culturally attuned transformation. Moreover, discursive features—such as humor, irony, or politeness—must be rendered in ways that maintain communicative equivalence while acknowledging the socio-pragmatic norms of the target culture.

3.4 The Role of Context

Finally, the concept of **context** in translation extends beyond textual environment to include broader cultural, historical, and communicative contexts. Hatim and Mason [5; P. 14] argue that context is crucial in shaping meaning and must be considered across micro-, meso-, and macro-levels of discourse.

Effective translation, therefore, requires contextual interpretation at multiple levels:

- **Micro-level**: lexical choices, sentence structure, tone.
- **Meso-level**: genre conventions, textual coherence, register.
- **Macro-level**: ideological positioning, intertextual references, cultural narratives.

By foregrounding context as a dynamic and multidimensional construct, translators can make informed decisions that enhance fidelity to communicative intent rather than to surface structure alone.

Synthesis

Together, these theoretical lenses—cultural relativity, intercultural competence, language as cultural practice, and contextual analysis—construct a comprehensive framework for examining the cultural dimensions of translation. This integrative approach reinforces the view that effective translation is not a unidirectional transfer of information but a nuanced act of intercultural negotiation. It also provides the analytical foundation for the case studies and practical strategies explored in subsequent sections of this paper.

4. Case Studies: Cultural Context in Practice

To demonstrate how cultural context shapes translation decisions across different domains, this section presents three illustrative case studies. These examples—spanning idiomatic, literary, and technical translation—highlight the application of theoretical principles such as cultural relativity, intercultural competence, and contextual sensitivity in real-world translation scenarios.

4.1 Translating Idioms: Navigating Cultural Equivalence

Idiomatic expressions are often culture-specific and resist literal translation, as their meanings are embedded in shared cultural knowledge. Translators must employ strategies such as cultural substitution, functional equivalence, or annotation to retain the communicative function of the idiom in the target culture.

Example 1: English to Uzbek

- **Source idiom**: *“Kick the bucket”* (to die)
- **Literal Uzbek rendering**: *“Savatchani tepmoq”* — nonsensical in context
- **Culturally appropriate equivalent**: *“Olamdan o‘tmoq”* (“to depart from the world”)

This substitution reflects cultural relativity: the original metaphor relies on idiomatic conventions unfamiliar to the Uzbek linguistic worldview. By selecting a locally meaningful equivalent, the translator preserves both semantic intent and emotional resonance.

Example 2: Proverbial Alignment

- **Source proverb**: *“The early bird catches the worm”*
- **Target equivalent**: *“Erta turadiganlar baraka topadi”* (“Those who wake early find blessings”)

In this case, the translator leverages an existing proverb in the target culture that shares functional and moral implications, demonstrating high intercultural competence and sensitivity to local narrative norms.

4.2 Literary Translation: Mediating Narrative and Culture

Literary texts often present complex cultural layers—historical references, ideological frameworks, social customs—that require nuanced interpretation. Effective literary translation involves more than lexical fidelity; it demands a recreation of the text’s cultural and aesthetic impact.

Example: F. Scott Fitzgerald's *The Great Gatsby*

A translation into Uzbek must account for culturally specific elements such as the **American Dream**, **Prohibition-era lifestyle**, and **Jazz Age decadence**, which may lack immediate counterparts in the Uzbek sociocultural context.

Translators may adopt several strategies:

- **Footnoting** cultural references unfamiliar to the target audience (e.g., *speakeasies*, *flapper culture*).
- **Contextual adaptation** of metaphors or idioms (e.g., translating *"old sport"* with a respectful and slightly archaic Uzbek term). In *The Great Gatsby*, expressions like "old sport" require cultural and temporal sensitivity. As Bassnett notes, "translation is an act of negotiation, not only between languages but between cultures and histories" [1; P. 45.].
- **Functional equivalence** for cultural allusions that cannot be preserved literally.

These approaches enable the translation to maintain the narrative's integrity while making it accessible and meaningful to new readers. They also underscore the translator's role as a **cultural mediator**—bridging gaps between worldviews without distorting thematic substance.

4.3 Technical Translation: Harmonizing Terminology and Cultural Norms

Technical translation, while often viewed as more objective, still requires cultural adaptation, especially in fields where practice varies across regions (e.g., medicine, law, education). Translators must ensure not only terminological precision but also cultural and regulatory congruence.

Example: Medical Documentation (English to Uzbek)

- **Term**: *"Informed consent"*
- **Issue**: The concept may carry different legal and ethical interpretations in Uzbek healthcare systems.
- **Solution**: The translator must contextualize the term, possibly incorporating explanatory phrasing or referencing equivalent procedures under local law.
- Translating "informed consent" into Uzbek healthcare contexts reveals that ethical and legal equivalence must be carefully assessed. Katan points out that cultural misalignment in technical texts can lead to "systemic misunderstanding" [7; P. 143.].

Moreover, **document structure** and **instructional tone** often differ across cultures. Western manuals may favor minimal, bullet-point formats, whereas Uzbek audiences may respond better to **narrative, instructional prose**. Adjusting formatting and tone enhances comprehension and ensures cultural appropriateness. This case illustrates how context-aware translation contributes not only to linguistic clarity but also to **institutional usability and reader trust**, which are especially critical in technical fields.

4.4 Synthesis of Case Findings

These case studies collectively demonstrate that culturally informed translation is not merely a best practice but a fundamental requirement for effective cross-cultural communication. Across idiomatic, literary, and technical domains, translation must account for both explicit content and the **cultural schemas** that shape meaning. Whether through substitution, adaptation, or contextualization, successful translation hinges on the translator's ability to **mediate between linguistic code and cultural cognition**.

5. Challenges in Navigating Cultural Contexts

Translators working across cultural boundaries frequently encounter challenges that complicate the goal of producing accurate, context-sensitive, and culturally appropriate translations. Among the most persistent issues are the **loss of meaning** due to cultural untranslatability and the imperative for **cultural sensitivity** to prevent miscommunication or offense. These challenges underscore the necessity for translators to possess not only linguistic fluency but also **intercultural competence**, critical reflection, and adaptive strategy use.

5.1 Semantic Loss and Cultural Untranslatability

One of the most pervasive challenges in culturally embedded translation is **semantic loss**—the inability to fully convey culturally specific meanings, emotions, or values when there is no direct equivalent in the target language. This issue is particularly evident in idiomatic expressions, folklore, and context-laden metaphors. **Example: "Break the Ice" (English → Uzbek)**

The idiom *"to break the ice"*—meaning to initiate conversation or ease social tension—lacks a direct analogue in Uzbek. A literal translation (e.g., *muzni sindirmoq*) fails to carry the intended social connotation. A culturally appropriate substitute, such as *"suhbatni boshlamoq"* (to start a conversation), may preserve the function but loses the metaphorical nuance and stylistic tone. As Venuti [10; P. 20.] notes, every translation involves loss: "The translator must choose which cultural meanings to preserve, and which to abandon." Translating idioms such as "break the ice" illustrates this.

This challenge illustrates the principle of **cultural relativity**, wherein meanings are constructed within specific cognitive and social frameworks. Translators must constantly weigh fidelity to metaphorical imagery against functional clarity in the target culture.

Literary Example: Allusions to Folklore

Texts that draw on regional folklore, such as the figure of *La Llorona* in Latin American literature, present unique difficulties. Uzbek readers unfamiliar with this legend may fail to grasp the emotional resonance or cultural symbolism unless the reference is either:

- **Annotated** with explanatory footnotes, or
- **Recontextualized** through reference to a similar local figure (e.g., *Qizil Oyna*).

In either case, the translator must make interpretive decisions that risk either **distorting the source culture** or **obscuring the intended effect**, illustrating the complexity of achieving functional equivalence in culturally dense material.

5.2 Cultural Sensitivity and Ethical Considerations

Another major challenge is ensuring **cultural sensitivity**—the translator's awareness of and respect for cultural norms, taboos, and values in both the source and target contexts. Misjudging these can result in translations that are inappropriate, offensive, or socially irrelevant. Humor and religious content often resist cross-cultural transfer. Deardorff [3; P. 248.] emphasizes the ethical implications of translation as a form of cross-cultural representation.

Example: Humor and Political Satire

Humor is inherently culture-bound and frequently dependent on shared knowledge. Translating a satirical joke about an American political figure for an Uzbek audience may fall flat or cause confusion if the context is unfamiliar. Replacing the reference with a culturally

analogous figure may be possible, but risks altering the tone or ideological meaning of the original.

Example: Religious and Gendered Content

Texts referencing religious customs or gender norms must be treated with particular care. A discussion of Christian holidays in a predominantly Muslim context may necessitate neutral framing or explanatory notes. Similarly, Western gender discourse may need to be contextualized to avoid cultural dissonance or misinterpretation in more conservative settings.

These examples reflect the translator's dual ethical responsibility: to **respect the source culture's voice** and to **avoid cultural imposition or alienation** in the target culture. This balancing act requires deep cultural literacy and adaptive decision-making.

5.3 The Translator's Dilemma: Fidelity vs. Acceptability

Translators are often caught between two competing imperatives: **fidelity** to the source text and **acceptability** in the target culture. Overemphasis on fidelity may render the translation unintelligible or alien to the target audience, while excessive domestication may dilute the source text's cultural specificity or ideological stance.

This dilemma aligns with Venuti's claim that "the translator's invisibility is symptomatic of a cultural preference for domestication" [10; P. 15.]. Translators must therefore actively engage with questions of **visibility, authorship, and power** in their practice.

Synthesis

The challenges outlined in this section highlight the intricacies of navigating cultural context in translation. Semantic loss, cultural untranslatability, and sensitivity to socio-cultural expectations are not mere technical hurdles; they are manifestations of the **translator's mediating role** between worlds. Addressing these challenges requires more than linguistic skill—it demands a combination of **critical cultural awareness**, **strategic creativity**, and **ethical engagement**.

6. Strategies for Effective Translation Across Cultures

Given the multidimensional challenges posed by cultural differences in translation—ranging from semantic untranslatability to the risk of cultural insensitivity—translators must adopt informed, flexible strategies that enhance both accuracy and relevance. This section proposes two interrelated strategies: **cultural adaptation** and **collaborative engagement with cultural experts**. These practices align with functionalist principles and promote intercultural competence in translation.

6.1 Cultural Adaptation: Functional Equivalence in Practice

Cultural adaptation refers to the deliberate modification of linguistic, rhetorical, and cultural elements in a source text to ensure appropriateness and resonance in the target context. This strategy goes beyond lexical substitution and entails a holistic consideration of the communicative function, cultural conventions, and audience expectations.

a. Aligning with Cultural Norms and Values

*Translators must be acutely aware of dominant **normative frameworks** in the target culture, including religious beliefs, social etiquette, political sensitivities, and cognitive patterns. For instance, promotional material targeting audiences in the Middle East may require alterations to avoid references to taboo subjects or visual elements deemed inappropriate.*

b. Consulting Specialists in the Target Culture

Experts in anthropology, ethnolinguistics, or area studies can provide insights into the cultural specificity of terms, gestures, or references. Katan [7; P. 144.] suggests that adaptation should "reflect the values, priorities, and expectations of the target audience." This involves modifications not only in language but also in tone, visuals, and structure. For instance, when translating texts involving indigenous communities, collaboration with local scholars or cultural custodians ensures respectful and contextually accurate representations.

c. Conducting Focus Groups and Reader Testing

Pre-publication testing with **focus groups** drawn from the target audience allows for empirical feedback on clarity, tone, and cultural appropriateness. This is particularly effective for educational materials, health communication, and public service announcements, where miscommunication can have significant consequences.

d. Incorporating Native Voices

Involving **native speakers and cultural informants** in the translation process contributes to the authenticity of idiomatic language, regional variations, and stylistic preferences. This practice is especially useful in literary or dialogic translation, where tone and register are critical.

e. Continuous Cultural Immersion and Reflexivity

Translators must view cultural knowledge as dynamic rather than static. Ongoing exposure to the target culture—through fieldwork, cultural exchange, or media consumption—enables translators to stay attuned to evolving norms, linguistic innovations, and socio-political shifts. Reflexive practices, such as keeping cultural translation journals or engaging in peer dialogue, also support continuous learning.

Synthesis

Strategic cultural adaptation and interdisciplinary collaboration are essential tools in addressing the inherent complexities of cross-cultural translation. These approaches not only mitigate the risk of semantic distortion and cultural offense but also elevate the quality and reception of the translated text. By treating culture as an active component of meaning-making, translators can move beyond mechanical equivalence toward **contextually responsive, ethically grounded translation practice**.

f. Adapting Idiomatic and Figurative Language

As demonstrated in earlier case studies, idiomatic expressions often lack direct equivalents. For example, the English idiom *"kick the bucket"* can be culturally adapted in Uzbek as *"olamdan o‘tmoq"*, preserving its functional meaning. This approach maintains communicative effectiveness without compromising cultural acceptability.

g. Localization and Cultural Referencing

Localization involves modifying references to institutions, holidays, geography, or historical events to reflect the target audience’s environment. A story originally centered around Christmas may be more relatable to a Muslim audience if culturally adapted to feature Eid or another local celebration—assuming the shift does not alter the story’s core narrative intent.

h. Visual and Symbolic Sensitivity

Cultural adaptation must also extend to **visual elements**, particularly in audiovisual translation and marketing. Symbols, gestures, colors, and iconography often carry divergent meanings across cultures. For example, while white signifies purity in Western wedding

customs, it is associated with mourning in many Asian cultures. Adjusting these semiotic elements improves cultural alignment and enhances the impact of translated content.

6.2 Collaboration with Cultural Experts: Enhancing Translation Authenticity

Given the limits of an individual translator's knowledge, **collaborative engagement with cultural experts** offers a valuable pathway to improve translation accuracy and sociocultural alignment. These collaborations foster intercultural understanding and minimize the risks of ethnocentric bias or cultural distortion.

a. Consulting Specialists in the Target Culture

Experts in anthropology, ethnolinguistics, or area studies can provide insights into the cultural specificity of terms, gestures, or references. For instance, when translating texts involving indigenous communities, collaboration with local scholars or cultural custodians ensures respectful and contextually accurate representations.

b. Conducting Focus Groups and Reader Testing

Pre-publication testing with **focus groups** drawn from the target audience allows for empirical feedback on clarity, tone, and cultural appropriateness. This is particularly effective for educational materials, health communication, and public service announcements, where miscommunication can have significant consequences.

c. Incorporating Native Voices

Involving **native speakers and cultural informants** in the translation process contributes to the authenticity of idiomatic language, regional variations, and stylistic preferences. This practice is especially useful in literary or dialogic translation, where tone and register are critical.

d. Continuous Cultural Immersion and Reflexivity

Translators must view cultural knowledge as dynamic rather than static. Ongoing exposure to the target culture—through fieldwork, cultural exchange, or media consumption—enables translators to stay attuned to evolving norms, linguistic innovations, and socio-political shifts. Reflexive practices, such as keeping cultural translation journals or engaging in peer dialogue, also support continuous learning.

Synthesis

Strategic cultural adaptation and interdisciplinary collaboration are essential tools in addressing the inherent complexities of cross-cultural translation. These approaches not only mitigate the risk of semantic distortion and cultural offense but also elevate the quality and reception of the translated text. By treating culture as an active component of meaning-making, translators can move beyond mechanical equivalence toward **contextually responsive, ethically grounded translation practice**.

7. Conclusion

This paper affirms that translation is a culturally embedded communicative act. Bassnett [1; P. 35.] writes, "A good translation must negotiate cultural differences without effacing them." Drawing on theories from Vermeer, Venuti, and others, this study demonstrates that effective translation hinges on cultural competence, ethical sensitivity, and adaptive strategy. As global exchange expands, so too must the translator's role as cultural mediator and ethical communicator.

This study has underscored the indispensable role of cultural context in shaping effective translation practices across linguistic and disciplinary domains. Through an

integrated analysis of theoretical frameworks, case studies, and practical strategies, the research demonstrates that translation is not a purely linguistic operation but a **culturally embedded communicative act**. The act of translation involves continuous negotiation between meanings constructed within the source culture and the interpretive norms of the target audience.

Drawing on models such as Skopos Theory and the Cultural Turn, this paper has highlighted how cultural adaptation, intercultural competence, and contextual awareness are essential for preserving communicative intent and ensuring resonance in the target language. Case studies in idiomatic, literary, and technical translation illustrated the complexity of navigating cultural relativity and semantic loss, while the discussion of challenges emphasized the ethical, functional, and ideological tensions that translators must mediate.

To address these challenges, the paper proposed two key strategies—**cultural adaptation** and **collaborative engagement with cultural experts**—which serve not only to improve translation accuracy but also to enhance the socio-cultural relevance and reception of the translated product. These strategies, grounded in both theory and praxis, affirm the evolving role of translators as cultural mediators who facilitate cross-cultural dialogue in increasingly globalized communication environments.

From a pedagogical and professional perspective, the findings point to an urgent need to integrate **cultural training and interdisciplinary knowledge** into translator education. Curricula should include modules on intercultural communication, sociolinguistics, visual semiotics, and ethical decision-making to better prepare translators for real-world cultural complexity.

Moreover, this study advocates for **interdisciplinary collaboration** between translation studies, anthropology, media studies, and digital technologies to develop adaptive frameworks and tools that assist translators in identifying and responding to cultural nuances. The growing availability of AI-driven translation tools presents both opportunities and risks: while they enhance speed and consistency, they often lack cultural sensitivity. Future research should explore how human–machine translation can be enhanced with culturally intelligent algorithms and collaborative human oversight.

In conclusion, prioritizing cultural context in translation is essential not only for linguistic fidelity but for promoting mutual understanding, cultural respect, and communicative efficacy. As cultural boundaries become more porous and the demand for multilingual exchange accelerates, the translator's role as a cultural bridge-builder becomes ever more vital. Translation, when grounded in cultural awareness, can serve not just as a technical process but as a **transformative act of intercultural engagement**.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Bassnett S. Translation studies. 3rd ed. – London: Routledge, 2002. – 292 p. – DOI: 10.4324/9780203427461.
2. Boas F. Race, language, and culture. – Chicago: University of Chicago Press, 1940. – 451 p.
3. Deardorff D.K. Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, № 3. – P. 241–266. – DOI: 10.1177/1028315306287002.
4. Fairclough N. Critical discourse analysis: The critical study of language. – London: Longman, 1995. – 252 p.

5. Hatim B., Mason I. The translator as communicator. – London: Routledge, 1997. – 269 p. – DOI: 10.4324/9780203992259.
6. House J. Translation quality assessment: Past and present. – London: Routledge, 2015. – 216 p. – DOI: 10.4324/9781315739560.
7. Katan D. Translation as intercultural communication // Baker M., Saldanha G. (eds.) Routledge encyclopedia of translation studies. 2nd ed. – London: Routledge, 2009. – P. 141–145.
8. Munday J. Introducing translation studies: Theories and applications. 4th ed. – London: Routledge, 2016. – 305 p. – DOI: 10.4324/9781315619183.
9. Snell-Hornby M. The turns of translation studies: New paradigms or shifting viewpoints? – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2006. – 282 p. – DOI: 10.1075/btl.66.
10. Venuti L. The translator's invisibility: A history of translation. – London: Routledge, 1995. – 208 p. – DOI: 10.4324/9780203360065.
11. Vermeer H.J. Skopos and commission in translational action // Chesterman A. (ed.) Readings in translation theory. – Helsinki: Oy Finn Lectura, 1989. – P. 173–187.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

VARIATIONS AND SYMBOLIC MEANINGS IN THE JAPANESE FOLK TALE: THE CASE OF "MOMOTARO" (THE PEACH-BORN BOY)

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna,
Responsible editor of the magazine "Keksalik gashti" and
the newspaper "Nuroniy"
Master's student at the
Faculty of International Journalism, UzSWLU

Abstract. This article analyzes the diversity of versions, the text, and the changes occurring in oral and written renditions of the Japanese folk tale "Momotaro" (The boy born from a peach), a product of traditional oral literature.

Keywords: fairy tale, Japanese folklore, peach, old man and old woman, dog, monkey, pheasant, demon, variant.

YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna,
"Keksalik gashti" jurnali va
"Nuroniy" gazetasi mas'ul muharriri
O'zDJTU "Xalqaro jurnalistika" fakulteti magistranti
E-mail: shahnoza.uz@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada xalq og'zaki ijodi mahsuli – ertakning turfa variantliligi, matni, og'zaki va yozma ijroda turli o'zgarishlarga uchrashi "Momotaro" (Shaftolidan tug'ilgan bola) nomli yapon xalq ertagi orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ertak, yapon folklori, shaftoli, chol va kampir, kuchuk, maymun, tustovuq, jin, variant.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N26

Yapon xalq ertaklari orasida "Momotaro" ertagining bosh qahramoni o'zining sehrli tug'ilishi va qahramonlik maqomiga erishish mobaynidagi sarguzashtlari bilan mashhur. Bu ertak yovuz "onilar" jinlarni (jin mifologiyadagi maxluq hisoblanib, Yaponiya, Xitoy yoki Yevropa xalq ertaklari va miflaridagi yovuz kuchlarning timsoli. Masalan, yaponlardagi oni (鬼), o'zbek tilida jin yoki maxluq degan ma'noni anglatadi) yengish uchun safarga chiqqan yosh bolakay – Momotaro haqida. Shuningdek mazkur xalq ertagi jasorat, jamoa bo'lib barcha qiyinchiliklarni yengish va yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasi kabi mavzularni o'zida aks ettirgani bois, yapon madaniy merosida sevimli va abadiy timsol sifatida bugungi kungacha yashab kelmoqda.

"Momotaro" rivoyati to'rt yuz yildan ortiq vaqt avval mavjud bo'lgan, lekin u faqatgina zamonaviy davrda mahalliy afsonaga aylantirilgan. Darhaqiqat mazkur ertak uzoq yillar davomida turfa xil shakl va mazmunda aytilib kelgan.

Momotaro, ya’ni “Shaftoli bola”, katta shaftoli ichidan tug‘ilgan bola bo‘lib, uni farzandi yo‘q keksa juftlik topib oladi. U o‘sib-ulg‘aygan sayin g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lib, jasoratli va oliyjanob yigit bo‘lib voyaga yetadi. Momotaro yovuz jinlarga qarshi xavfli safari davomida katta jasorat va yetakchilik qobiliyatini ko‘rsatadi. Uning qat’iy maqsadi va adolatparvarligi boshqalarga ilhom beradi va uni xalq orasida afsonaviy qahramon maqomiga olib chiqadi.

Bu ertakning ilk yozma manbalari Edo davriga (1603–1868) taalluqli bo‘lib, o‘sha paytlarda Yaponiyada san’at va adabiyot rivojlangan edi. Hikoyaning asosiy mazmuni – sehrli tug‘ilish, hayvonlardan iborat jamoa bilan safarga chiqish va yovuz jinlarni yengishdan iborat. Biroq vaqt o‘tishi bilan ertakning turli talqinlari yuzaga kelgan.

“Momotaro” ertagi ham odatdagidek “むかしむかしあるところにおじいさんとおばあさんがいました”, ya’ni “Qadim qadim zamonda chol va kampir bo‘lgan ekan”, degan kirish qismi bilan boshlanadi. Bir kuni kampir daryo bo‘yida kir yuvayotgan paytida suv yuzasida oqib kelayotgan shaftolini ko‘rib qoladi va uyiga olib kelib choliga ko‘rsatadi. Ular birgalikda shaftolini bo‘lib ko‘rishganida, shaftolining ichidan go‘dak tug‘iladi.

Ularning farzandlari yo‘q edi. Chol va kampir bolakayni ismini “Momotaro” deb qo‘yishadi. “Momo” (もも) yapon tilida– “shaftoli”, “taro” (たろう) esa “oiladagi katta o‘g‘il” degan ma’nolarni anglatadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki yapon xalq ertaklari va afsonalarida “taro” ismi bilan nomlangan bosh qahramonlar ko‘plab uchraydi. “Urashima taro” (Toshbaqani qutqargan bola) va “Kintaro” (Tilla bola) kabilar shular jumlasidan.

Momotaro o‘smirlik yoshiga yetgach, ota-onasini tark etib, “Onigashima”

(鬼ヶ島), ya’ni “Yovuz jinlar oroliga” yo‘l oladi. U yo‘lida gapira oladigan it, maymun va tustovuq bilan do‘stlashadi. Ularga onasi tayyorlab bergan mazali yeguliklardan beradi. Orolga yetib borgach, Momotaro va uning do‘stlari jinlar qal’asiga kirib borib, ularni yengib, taslim bo‘lishga majbur qiladilar. Yovuz jinlarning odamlardan olib qo‘ygan qimmatbaho buyumlarini egalariga qaytarib, g‘alaba bilan uyga qaytishadi [1].

“Momotaro” ertagining ushbu klassik shakli Meyji davri boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darsliklarda berilgan va ommalashgan. Asl nashrda ertak sarlavhasiz bo‘lgan. Bu esa adabiy “Momotaro” ertagining shakllanishi natijasi bo‘lib, uning qo‘lyozma va chop etilgan turlari Edo davri boshlaridan Meyji davrigacha rivojlanib kelgan.

Edo davridagi adabiyot namunalarining ko‘pida Momotaro shaftolidan tug‘ilmagan, ya’ni chol va kampir shaftoli mevasini yeganlaridan keyin yosharib, so‘ng tabiiy yo‘l bilan farzandli bo‘ladilar, degan mazmun bor.

Yapon folklorida bunday variantlar “Kayshun-gata” (回春型) – “yosharish” turiga kiradi. “Momotaro” ertagining hozirgi kundagi mashhur bo‘lgan varianti esa “Kasey-gata” (果生型) – “mevadan tug‘ilish” turiga mansubdir.

Momotaro haqidagi yapon xalq ertagi turli davrlarda turli variantlarda ommalashgan bo‘lsada, asosiy syujet o‘zgarmay qoladi. Ya’ni Momotaro ulkan shaftolidan tug‘iladi, hamroh do‘stlari bo‘lmish it, maymun va tustovuq bilan birga bir jamoa bo‘lib, yovuz jinlar yashaydigan orolga jo‘naydi va ular bilan jang qilib, ularni mag‘lub etib, xalqdan o‘g‘irlangan boyliklarni qaytarib olib keladi.

Yaponiya Milliy Parlament Kutubxonasi arxivida saqlanayotgan “Momotaroning xazinalari haqida”gi audioyozuv (og‘zaki) shakli bugungi kundagisidan ancha farq qiladi. Mazkur og‘zaki variantda qadimdan shaftoli mevasi mo‘jizaviy kuchga ega ekanligiga urg‘u berilgan.

“Chol va kampir shaftolini yegan zahoti, hayratlanarli holat sodir bo‘ldi. Chol 35–36 yosh, kampir esa 28–29 yoshli juvonga aylandi. Ular qo‘l ushlashib,

bir-birlariga hayrat nigohi ila boqardilar. Ikki juftlik o‘g‘il farzandli bo‘lishdi. Hayratlanarlisi bola 9 oyda emas, 3 yilda tug‘ildi. Shuning uchun ham, tug‘ilgandan so‘ng u darhol yugura boshladi. Momotaro bolaligidanoq kuchli va zehnli edi. U o‘qish va yozishda, shuningdek, kurashda ajoyib natijalarga erishdi. Momotaro 16 yoshga yetgach, xalqni qiynoqqa solib kelayotgan “Yovuz jinlar” oroliga yo‘l oladi” [2]. Ertakning qolgan qismi odatdagidek davom etadi va nihoyasiga yetadi.

Bu ertak bolaning ilk hayotiy tajribalar orqali ulg‘ayib, katta insonga aylanishini tasvirlaydi. Ertak nihoyasi yaxshilik bilan yakun topadi. E’tiborlisi, mazkur variantda qahramonlarning yoshi aniq qilib berilgan.

“Momotaro” ertagidagi ramziy ma’nolar

Momotaro ertagi chuqur ma’no va qadriyatlarga asoslangan ramzlar bilan boyitilgan. Ulardan eng muhimi – shaftoli. Yapon madaniyatida shaftoli hayot, hosildorlik va yangilanish ramzi sanaladi. Yapon xalq e’tiqodiga ko‘ra, shaftoli mevasi baxtsizlik va yomonlikni quvib solish xususiyatiga ham ega. Ertakda esa bu jarayon Momotaroning yovuz jinlarni yengishi syujeti bilan mos keladi.

Yapon yozuvchisi Akutagava Ryunosukening “Momotaro” hikoyasida shaftolining sehrli meva ekanligiga alohida urg‘u berilgan. Ertak quyidagicha boshlanadi:

“Qadim qadim zamonda, tog‘ bag‘ridagi chuqur vodiyda ulkan shaftoli daraxti o‘sar edi. Uni “ulkan” deb atashning o‘zi yetarli emas – uning shoxlari bulutlar ustigacha yetib, ildizlari esa yomon ruhlar dunyosi – Yomigacha cho‘zilar edi. Bu daraxt xuddi osmon ochilgan davrdan, ya’ni “Izanagi-no mikoto” uni quvlayotgan Yomi ajuzlariga shaftoli otib, qutulgan paytdan beri mavjud edi. O‘sha xudolar davridan qolgan shaftoli urug‘i daraxtga aylangan edi. Olam yaratilganidan beri bu daraxt har o‘n ming yilda gullagan va har o‘n ming yilda bir marta meva bergan. Uning gullari qizil ipak tolalariga o‘xshardi, meva uchidan esa oltin ipak ko‘rinib turar edi. Mevasi u qadar katta emas edi. Lekin eng sirli tomoni – meva ichida urug‘ emas, bola tug‘ilar edi. Juda, juda qadim zamonda, uning shoxlari butun vodiy bo‘ylab yoyilgan. Bu o‘n ming yilda bir gullaydigan meva ming yil yerga tushmasdan shoxda qimir etmay turar edi. Bir kuni tongda Yatagarasu (uch qanotli afsonaviy qora qarg‘a) sehrli daraxt shoxiga qo‘ngan zahoti kichik meva yerga tushib ketdi. U baland bulutlar orasidan qulab, chuqur vodiyga yetib, toshli sharsharalar oralig‘idagi daryodan oqib, odamlar yashaydigan makongacha suvda oqib bordi...” [3].

Yapon folklorshunosligiga asos solgan olim Yanagita Kunio ertakning bosh qahramoni Momotaro shaftolidan tug‘ilish motivini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasdiqlamaydi, balki folklor va mifologiya nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Ya’ni yapon xalq og‘zaki ijodi va folkloridagi mifologik tasavvurlar asosida tahlil qiladi. Yanagita “Momotaro” ertagidagi shaftolining ramziy ma’nosiga emas, balki ertakdagi asosiy g‘oya – “chiisako” mavzusi, ya’ni tug‘ilishi g‘ayrioddiy va sehrli bo‘lgan kichik bolalar haqidagi obrazga urg‘u beradi.

“Yapon xalqi tog‘li hududlarga ko‘chib o‘ta boshlaganida, ruhlar osmondan tushib kelib, avval tog‘ cho‘qqisiga, so‘ngra odamlar dunyosiga kelishgan, deb ishongan. Shunday ekan, bir ruh tog‘ daryosi bo‘ylab oqib kelib, bizning dunyoga kirib kelishini tasavvur qilish – hayratlanarli emas” [4].

Yanagita fikriga koʻra, oʻzidan oldingi olimlar, jumladan Edo davrining mashhur adabiyoti va mutafakkiri Takizava Bakin, Momotarodagi shaftolining ramziy ma’nosiga koʻproq e’tibor qaratishgan. Biroq Yanagita shaftolining oʻziga xosligini tan olgan holda, uning ahamiyatini kamaytirishga urinadi. U bundan koʻra chiisako mavzusini markazga qoʻyadi va buni Yaponiya xalqining diniy e’tiqodi bilan bogʻlaydi [5].

Ertakning yakuni va vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishi haqida Yanagitaning oʻzgacha mulohazalari bor. “Momotaroning sayohati maqsadini koʻrib chiqaylik. Bu jarayonda yapon xalq ertaklari soddalashtirilgan. Yevropadagi Momotaroga oʻxshash qahramonlarning sayohatlari koʻpincha faqat xazina topib qaytish bilan cheklanmaydi. Ushbu xazina koʻpincha uy, turmush va farzandlar bilan baxtli hayot qurish uchun vosita boʻladi. Yaponiyada esa bunday baxtli yakunga ega boʻlgan ertak faqat “Urikoxime” (うりこひめ) ertagidir. Gʻarbda esa erkak qahramon xazina topib, malikaga uylanadigan misollar juda koʻp. Momotaroning zamonaviy shaklidan bu qism atay olib tashlangan koʻrinadi. Ehtimol, ertak qahramoni bola ekani, shuningdek, uning asosiy auditoriyasi ham bolalar boʻlgani sababli shunday qilingandir”, deydi Yanagita.

Bu yerda Yanagita shunday nazariyani ilgari suradiki, Momotaroning olis vodiyga sayohatidan asosiy maqsad – hamroh ayol topish boʻlgan. Butun Yaponiya boʻylab toʻplangan yuzlab “Momotaro” ertaklari variantlaridan faqat ozgina qismigina qahramonning umr yoʻldosh topishga yoʻlga chiqqanidan soʻzlaydi. Keyingi tadqiqotchilar esa bu kabi variantlarni “Momotaro” va boshqa ertaklarning qoʻshilib ketgan shakli deb baholashgan.

“ Kodjiki” va “Nixon shoki” kabi qadimiy manbalardagi “Yomi no kuni” (oʻliklar dunyosi) haqidagi afsonada shaftolining yomonlikka qarshi qoʻllanilishi yoki mashhur yapon xalq ertagi “Momotaro”da yovuz jinlarni yengishda uning roli orqali, odamlar shaftolining muqaddasligi va sehrli xususiyatlarini yaqindan his qilishlari mumkin. Shu sababli, folklorshunoslikda ushbu mavzu juda mashhur va dolzarb hisoblanadi” [6].

Shuningdek, ertakdagi yovuz maxluqlar – insonlar duch keladigan sinovlar va qiyinchiliklarni ifodalaydi. Momotaroning ularga qarshi kurashi – jasorat, bardosh va ma’naviy kuch ramzidir. Yovuz jinlar ustidan qozonilgan gʻalaba esa shaxsiy va jamiyatdagi toʻsiqlarni yengishni, sabr-toqat va iroda bilan har qanday muammoni hal qilish mumkinligini koʻrsatadi.

Momotaroning hamrohlari, doʻstlari – it, maymun va tustovuq ertakda muhim rol oʻynaydi. Har bir hayvon alohida qobiliyatga ega boʻlib, Momotaroning yetakchiligini toʻldirib turadi. It – kuch va sadoqat ramzi boʻlsa, maymun chaqqonlik va ziyraklik bilan muammolarni hal qiladi. Tustovuq esa – parvoz qilish va oʻtkir koʻrish qobiliyatga ega ekanligi bilan xavf-xatarlarni ilgaridan payqaydi. Bir soʻz bilan aytganda, ertakda jamoaviy toʻrtlik birdamlik va doʻstlikning kuchini yaqqol namoyon qiladi.

Ta’kidlash joizki, “Momotaro” ertagi urush davrida targʻibot vositasi sifatida ham ommalashgan. Bu ertak yapon bolalari tarbiyasida jasorat, mehr-shafqat va qat’iyat kabi fazilatlarni singdirishda muhim rol oʻynagan. Momotaro jasur yetakchi va himoyachi timsoli sifatida ideal yapon qahramoniga aylangan.

Xususan, Ikkinchi jahon urushi paytida hukumat bu ertak orqali insonlar qalbida vatanparvarlik tuygʻusini yanada kuchaytirishga e’tiborni qaratgan. Momotaro – adolat va jasorat ramzi sifatida, hayvonlar armiyasi bilan birga dushmanlarni yengadigan qahramon sifatida tasvirlandi. Shu sababli ham Momotaro – Yaponiya jamiyatida eng mashhur xalq

ertaklaridan biri bo‘lib, mamlakatdagi barcha boshlang‘ich maktablarda majburiy o‘qitiladigan materialga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, Momotaro – yapon xalq og‘zaki ijodining afsonaviy qahramoni sifatida hanuzgacha Yaponiya xalqi uchun ilhom manbai bo‘lib qolmoqda. Uning jasorat, mehr va adolat timsoli sifatidagi obrazi uni abadiy qahramonga aylantiradi.

Momotaro haqidagi rivoyatlar nafaqat bolalar uchun axloqiy tarbiya manbai, balki xalqning qadimiy dunyoqarashi, diniy e’tiqodlari va tarixiy tajribasini ifoda etuvchi madaniy meros hamdir. Uning tug‘ilishi bilan bog‘liq “chiisako” mavzusi, inson va tabiat, inson va ruhlar olami o‘rtasidagi aloqalarni anglatadigan ramzlar orqali yapon mentalitetining chuqur qatlamlarini ochib beradi.

Folklorshunos Yanagita Kunio yoritganidek, Momotaro haqidagi ertaklar orqali nafaqat yakka qahramon obrazi, balki butun xalqning milliy xarakterini, urf-odatlarini va madaniy evolyutsiyasini tushunish mumkin. Uning g‘alabasi – shunchaki zo‘ravonlikka qarshi kurash emas, balki hamkorlik, halollik va ezgulik bilan yovuzlikni yengish ramzidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “Momotaro” ertagi. Meyji davri.1887 yil. “Yaponiya Ta’lim Vazirligi” (もんぶしょ) tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chop etilgan.
2. “Momotaroning xazinalari haqida”.1830–1840-yil. Yaponiya, “Kanoya” nashriyoti.
3. A.Ryunosuke. “Momotaro” hikoya.1924 yil.
4. Ya.Kunio. “Momotaroning tug‘ilishi”1933 yil.
5. D. Xenri. “Momotaro yoki Shaftoli bola: Yaponiyaning eng sevimli xalq ertagi milliy allegoriyasi sifatida” nomli dissertatsiyasi. 2009 y.
6. M.Yusuke. “Shaftolining sehrli xususiyatlari bo‘yicha qiyosiy folklorshunoslik – Yaponiya misollari asosida” mavzusidagi ilmiy maqola. “Qiyosiy xalq og‘zaki ijodi tadqiqotlari” (比較 民俗 研究) jurnali. 1990 yil. 2-son. 88-bet.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

PRAGMATIC FEATURES OF PERSONAL NAMES

Babajanova Iqbol Salomaddinovna
Independent Researcher,
Navoi State University

Abstract. This article presents reflections on the development of linguistics with a particular focus on personal names and their pragmatic features. It discusses the emergence of pragmatics as an independent field within linguistics and explores various debates surrounding this process. The study also analyzes the approaches of prominent linguists to the development of pragmatics and highlights the significance of these perspectives in understanding the pragmatic dimensions of personal names.

Keywords: linguistics, pragmatics, personal names, English language, approach, Uzbek language, pragmalinguistics.

SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Babajanova Iqbol Salomaddinovna
Navoiy davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: iqbolsalomadinnovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning rivojlanishida shaxs otlari va uning pragmatik xususiyatlari borasida fikr mulohazalar yuritilgan. Pragmatikaning mustaqil soha sifatida tilshunoslikka kirib kelishi borasida bahs munozara yuritilgan. Pragmatika sohasining rivojlanishida tilshunos olimlarning yondashuvlari va uning ahamiyati borasida tahlillar berib o‘tilgandir.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, pragmatika, shaxs otlari, ingliz tili, yondashuv, o‘zbek tili, pragmalingvistika.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N27

KIRISH

Tilshunoslikda pragmatika mustaqil yo‘nalish sifatida XX asrning 60-70-yillarida kirib kela boshladi. 1971-yilda Dordrext shahrida o‘tkazilgan “Tabiiy tillar pragmatikasi” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ushbu yo‘nalishning metodologik asoslariga alohida e’tibor qaratildi. Konferensiya materiallari to‘plamiga “So‘z boshi” yozgan Tell-Aviv universiteti professori M. Bar-Hillel anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan tabiiy til vositasida olib boriladigan muloqotning pragmatik jihatlari ham sintaktik va semantik jihatlar qatorida lingvistik nazariya doirasida tahlil qilinishi zarur, degan qarashlarni ilgari surdi[1;231].

Ushbu qarashlarning ilgari surilishi jahon tilshunosligida pragmatika sohasining keyingi taraqqiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kunga kelib pragmatika tushunchasi ko‘plab tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda, ammo uning mazmun-mohiyati, ilmiy asoslari, nazariy negizlari haqida aniq tasavvur berilmaydi. Shu sababli lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlari va uning tamoyillari haqida batafsil ochib berish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1977-yilda Vena shahrida bo‘lib o‘tgan tilshunoslarning XII xalqaro kongressida J. Layons ushbu savollarga javob berishga harakat qilib, pragmatikaning predmeti haqida shunday ta’rif beradi: “Pragmatika – bu tinglovchiga axborotni aynan so‘zlovchining maqsadiga muvofiq tarzda qabul qildirish uchun lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qanday qo‘llanilishini tavsiflovchi fan”[2;447]. Bu esa, pragmatika shaxslararo muloqotda til vositalarining tutgan o‘rnini aniqlash bilan shug‘ullanadi deganidir. Ta’rif asosida til vositasida amalga oshiriladigan nutqiy harakatning maqsadi va unga erishish yo‘llari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yotadi. “Sabab–motiv–maqsad” zanjiri esa nutqiy faoliyatning shakllanishi va voqelanishini belgilaydi.

Xuddi shu nuqtai nazariga ko‘ra A. Kasher ham pragmalingvistik tahlilning asosiy vazifasini shunday izohlaydi: “Pragmatikaning vazifasi — ma’lum kommunikativ maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishga xizmat qiladigan insoniy qobiliyatlar tizimini ochib berish va ularni izohlashdan iborat”[3;144-154].

Turli olimlar tomonidan berilgan pragmatika ta’riflarini qiyosiy tahlil qilganimizda, ularning barchasida ushbu sohaning predmeti haqida umumiy tasavvur mavjudligini ko‘rish mumkin. Biroq ayrim ta’riflar yetarli darajada to‘laqonli emasligi bilan, boshqalari esa o‘zaro ustma-ust kelgan mazmunlarni muayyan darajada “soya” ostida qoldirayotganligi bilan farqlanadi. Shu sababli pragmatikaning ilmiy-metodologik asoslarini aniqlashtirish, u bilan bog‘liq tushunchalarni izchil va aniq tarzda bayon etish masalasi bugungi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Pragmatika sohasini har tomonlama yoritish, uni turli yondashuvlar orqali tahlil etish orqali o‘rganilayotgan hodisaning yanada to‘liq va tizimli manzarasini tasvirlash mumkin, degan fikr tobora mustahkamlanmoqda. Ana shu maqsadda biz pragmalingvistika bo‘yicha adabiyotlarda berilgan ayrim muhim ta’riflarni eslatib o‘tish va ularni qisqacha izohlashni lozim topdik. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ko‘plab amerikalik tilshunoslar, jumladan pragmatika bilan shug‘ullanuvchilar ham, ko‘pincha N. Chomskiyning lisoniy nazariyasiga — xususan, “lisoniy kompetensiya” va “performans” (ya’ni, nutqiy ijro) o‘rtasidagi tafovutga tayanadilar[4;61]. S. Cattsning nutqiy harakatlar mazmuni — propozitsiya va illokutsiya (ya’ni, kommunikativ maqsad) o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan ishlari ham ayni shu an’anaga asoslanadi.

S. Catts pragmatika fanining predmeti sifatida grammatika va nutqiy faoliyat o‘rtasidagi munosabatni quyidagicha izohlaydi: “Grammatika — bu gap strukturasiga oid ta’limotdir[5; 1273-1274]. Pragmatika esa, aksincha, lisoniy tuzilmalarni shakllantirish yoki ularning grammatik jihatlarini o‘rganish bilan emas, balki bu tuzilmalarni matndagi kontekst asosida so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona qo‘llanishini ta’minlovchi jarayonlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Shunday ekan, pragmatika — bu nutqiy performans nazariyasining muhim tarkibiy qismidir”.

Biroq pragmatikani faqat nutqiy ijro bilan chegaralash, uni tor doiraga qamab qo‘yish, nazariyani umummilliy til tizimidan ajratib qo‘yishga olib keladi. Holbuki, har qanday nutqiy faoliyat sotsial muhit, kommunikativ holat va kontekst bilan uzviy bog‘liq. Til birliklarining mazmuni aynan shu kontekstda shakllanadi va ifodalanadi. S. Catts misol sifatida keltirgan “quyon – quyoncha” yoki “it – kuchukcha” kabi juftliklarda ikkinchi so‘zlarning bolalar tomonidan yoki bolalarga nisbatan ishlatilishi ularning semantik qiymatini — erkalash,

kichraytirish, yaqinlikni — aniqlaydi. Bunday ma’nolar leksik-morfologik ifoda vositalari orqali berilgan bo‘lsa-da, ularning pragmatik xarakteri shubhasiz.

Germaniya tilshunoslik maktabi vakillari, jumladan matn tilshunosligi bo‘yicha yetakchi olimlardan biri. R. Shmidt, pragmatikani tilshunoslikning umumlashtiruvchi sohasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “pragmatika” va “matn tilshunosligi” tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi va yagona nazariy tushuncha bo‘lib, ular birgalikda lisoniy muloqotning umumiy nazariyasini shakllantiradi. Bu nazariya esa matn grammatikasi, an’anaviy grammatika va kommunikativ tilshunoslikning bir butun tizimi sifatida qaraydi[6; 326].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu bilan birga, pragmatika bo‘yicha ta’riflar soni ortgani sari ularning orasida zidliklar ham ko‘paymoqda. So‘nggi 60–70 yillik ilmiy izlanishlar natijasida pragmatikaning predmeti va doirasi shu darajada kengayib ketdiki, uni yagona nazariy doiraga solish, aniq chegaralarini belgilash tobora murakkablashmoqda. Bunga sabab pragmatika taraqqiyotiga nafaqat lingvistik, balki kognitologiya, madaniy antropologiya, mantiq, sotsiologiya, falsafa, faoliyat nazariyasi kabi boshqa fanlar ham sezilarli hissa qo‘shmoqda. Sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, matn nazariyasi kabi sohalar bilan uzviy aloqadorligi uni yanada ko‘p qatlamli ilmiy yo‘nalishga aylantirmoqda.

Pragmatikaning keng talqini esa insonning maqsadli nutqiy faoliyat turlarini ham o‘z doirasiga kiritishni taqozo etadi. Shunday qilib, pragmatika ikki qutbli talqinga ega: tor nazariy yondashuv va keng, integrativ yondashuv. Bugungi kunda bu ikki yondashuv bir-birini to‘ldirib, izohlayotgani kuzatilmoqda. Turli tadqiqotlarda pragmatika quyidagi shakllarda talqin etiladi: u — tilning qo‘llanilishi bilan shug‘ullanuvchi fan; nutqiy kontekstda faoliyatga kirishgan til tizimini o‘rganuvchi yo‘nalish; nutq aktlarini tavsiflovchi nazariya; og‘zaki muloqot (konversatsiya)ni tahlil qiluvchi nazariya; shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi til vositalarini o‘rganuvchi fan va hokazo.

Niderlandiyalik olim T.A. van Deyk va uning izdoshlari esa pragmatikaning vazifasini nutqiy strukturaviy birliklarning muayyan muloqot vaziyatida “yaroqliligini” aniqlashdan iborat deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, pragmatikaning asosiy maqsadi — nutqiy aktlarning kognitiv mazmunini yaratish, ularni eslab qolish, ijtimoiy-madaniy kontekstda til tizimidan maqsadli foydalanish va shu asosda kommunikativ modelni shakllantirishdan iborat[7; 308].

Xulosa qilganda, pragmatikaning predmeti va doirasini belgilashga oid izlanishlar hali ham davom etmoqda. Bu boradagi ta’riflar ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularning hech biri sohaning barcha asosiy tushunchalarini o‘zida to‘liq mujassam eta olmaydi. Biroq bu, pragmatika fanining istiqboli yo‘q, degani emas. Aksincha, u hali o‘z “mevalarini” berish arafasida turibdi: etnopragmatika, sotsiopragmatika, qiyosiy pragmatika, madaniyatlararo pragmatika kabi sohalarning rivojlanishi, til haqidagi nazariy qarashlarni yangilash bilan birga, til o‘qitish metodikasini boyitishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, pragmalingvistik bilimlar xalqaro aloqalar, ishbilarmonlik muloqoti, madaniyatlararo muomala kabi amaliy sohalarda ham muhim o‘rin egallaydi. Shunday ekan, pragmatika – bu inson lisoniy faoliyatini chuqur va har tomonlama o‘rganuvchi istiqbolli ilmiy yo‘nalish bo‘lib, bugun u tilshunoslikning mustahkam poydevorli tarmog‘iga aylanmoqda.

Shaxs otlarining pragmatik xususiyatlari ularning nutq ishtirokchilari orasidagi munosabatni ifodalash, kommunikativ niyatni kuchaytirish, hamda samarali muloqotni tashkil etishdagi rolini ochib beradi.

Shaxs otlari nafaqat grammatika doirasidagi birliklar, balki pragmatik jihatdan kommunikativ vazifa bajaruvchi vositalar sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Pragmatika til birliklarining konkret nutq vaziyatlarida qanday ma’noni anglatishi, qanday ijtimoiy funksiyani bajarishi va kommunikatsiya jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan, shaxs otlarini faqat morfologik yoki sintaktik birlik sifatida emas, balki kommunikativ, ijtimoiy va madaniy kontekstlarda o‘zgaruvchan birlik sifatida ko‘rib chiqish zarur. Shaxs otlari deiktik birliklar sirasiga kiradi. Deiksis — bu til birliklarining kontekstga bog‘liqligini ifodalovchi xususiyat bo‘lib, u nutqdagi “men”, “sen”, “biz”, “u” kabi olmoshlarning ma’nosini faqat gapiruvchi, tinglovchi va nutq holatiga qarab aniqlash mumkinligini bildiradi. Masalan: Men ertaga boraman. Bu jumlada “men” olmoshi kimligini faqat gapiruvchining shaxsiga qarab aniqlash mumkin. Bu holat “shaxsiy deiksis” deyiladi. Shuningdek, o‘zbek tilida “sen” va “siz” olmoshlarining ishlatilishi faqat grammatik tafovut emas, balki ijtimoiy va madaniy ma’lumot yuklangan pragmatik vosita hisoblanadi. Gapiruvchining tinglovchiga bo‘lgan munosabati (yoshi, maqomi, rasmiylik darajasi) ushbu tanlovni belgilaydi.

Shaxs otlari ijtimoiy munosabatni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “sen” va “siz” farqi ingliz tilidagi “you” olmoshiga nisbatan kuchliroq ijtimoiy yuklamaga ega. Bu farq shaxs otlari orqali hurmat, yaqinlik, masofa, do‘stlik va boshqa ijtimoiy aloqalarning aniqlanishiga olib keladi. Ingliz tilida esa bu turdagi tafovutlar intonatsiya, kontekst, yoki qisqa sarlavhalar (Mr., Sir, Dear) orqali ifodalanadi.

Shaxs otlari – bu asosan birinchi (men/biz), ikkinchi (sen/siz) va uchinchi shaxs (u/ular) ko‘rsatkichlari orqali nutqdagi ishtirokchilar o‘rtasidagi pozitsiyani belgilovchi vositalardir. Bu vositalar orqali kim so‘zlayotgani, kimga murojaat qilinayotgani va kim haqida gap ketayotgani belgilanadi: *Men sizga bir narsa aytmoqchiman.* (Nutq egasi va tinglovchi ochiq belgilanmoqda). *U meni ko‘rdi.* (Nutq subyekti va obyekti o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilgan). Shunday qilib, shaxs otlari pragmatik deiksis (nutqdagi nuqtai nazar) vositasi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek tilida shaxs otlari, ayniqsa ikkinchi shaxs olmoshlari (*sen/siz*) orqali muloqotdagi ijtimoiy masofa, hurmat, do‘stona yoki rasmiy munosabat ifodalanadi. Masalan: Ko‘plab tillarda, xususan, o‘zbek tilida shaxs otlarining ishlatilishi ijtimoiy maqom, hurmat va yaqinlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan: “Sen” va “Siz” o‘rtasidagi farq nutq etikasining muhim unsuri hisoblanadi.

- O‘zbek tilida “u kishi”, “ular” shakllari ko‘pincha hurmat ma’nosida ko‘plikda ishlatiladi, bu esa pragmatik ehtirom ifodasidir.

Ingliz tilida bunday ijtimoiy-pragmatik farqlanish uncha aniq emas, biroq *Mr.*, *Mrs.*, *Sir*, *Madam* kabi murojaat shakllari yoki nomlar orqali rasmiylik yoki hurmat ifodalanadi.

Pragmatik implicatura shaxs otlari orqali bilvosita ma’no hosil qilish imkonini beradi. Masalan:

- *“Ular yana kech qoldi.”* – bu gap grammatik jihatdan oddiy xabar bo‘lsa-da, pragmatik nuqtai nazardan tanbeh, shikoyat yoki kinoya bo‘lishi mumkin.

Shaxs otlari kontekstdagi intonatsiya, vaziyat, fe’lning modalligi bilan birga ishlatilganda yashirin nutq niyatlarini anglatadi.

Shaxs otlarining diskursiv vazifasi: Shaxs otlari matn va nutq davomida bog‘liqlikni hosil qiladi. Gaplar orasidagi aloqani ta’minlaydi:

- *“Ali maktabga bordi. U darsga kechikdi”.*

Bu yerda “u” shaxs otining referensial funksiyasi mavjud bo‘lib, u oldingi gapdagi subyektga ishora qiladi.

Shaxs otlarining pragmatik xususiyatlari ularning sintaktik yoki morfologik strukturasi bilan emas, balki nutqiy holat, vaziyat, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar orqali aniqlanadi. Ular tilning interaktiv va ijtimoiy tabiatini ifodalovchi muhim pragmatik birliklardir. Shaxs otlari yordamida nafaqat shaxslar ko‘rsatiladi, balki ijtimoiy masofa, hurmat, ishonch, ba’zan esa nazorat yoki tanbeh kabi ma’naviy holatlar ham anglashiladi. Demak, shaxs otlari – bu grammatikaning chegarasidan chiqib, tilning nutqiy, madaniy va ijtimoiy qatlamlariga kirib boruvchi pragmatik markerlardir.

XULOSA

Shaxs otlarining pragmatik xususiyatlari tilshunoslikda kommunikativ jarayonning muhim pragmatik vositasi sifatida qaraladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaxs otlari nafaqat referensial (ko‘rsatish) vazifani, balki muloqotdagi roldan, ijtimoiy maqomdan, psixologik holatdan va madaniy kontekstdan kelib chiqadigan kommunikativ niyat va munosabatlar mazmunini ham ifodalaydi. Ayniqsa, 1-, 2- va 3-shaxs otlarining qo‘llanilishidagi variativlik muloqot ishtirokchilari orasidagi ijtimoiy masofa, ruxsatlilik darajasi, nutq etiketi va nazokat me’yorlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Pragmatik tahlil shuni ko‘rsatadiki, shaxs otlarining kontekstga xos qo‘llanilishi orqali muallif yoki gapiruvchi o‘z nutqiga samarali ta’sirchanlik, subyektiv baho, yoki ixtiyoriy masofa kiritadi. Bu esa tilning faqat grammatik emas, balki diskursiv va pragmatik funksiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shunday qilib, shaxs otlarining pragmatik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikda kommunikativ strategiyalar, sotsiopragmatika, hamda madaniy-lisoniy tafovutlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa muloqot samaradorligini oshirish va nutq faoliyatini keng qamrovda o‘rganishda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bar Hillel. Pragmatics of natural languages. Dordrecht, Holland: D.Reidel. 1971. P-231
2. Layons. J. Proceedings of the twelfth International Congress of Linguists, Vienna, August 28 - September 2, 1977
3. Kasher, A. 1998. ‘Postscript’, in A. Kasher (ed.), Pragmatics: critical concepts, London: Routledge, pp.144-54.
4. Chomsky, N. 1995. “Language and nature”. Mind 104 (413): p 1–61
5. Catts, S. V. (2002a). Disturbed communication in schizophrenia: the role of poor pragmatics and poor mind-reading. Psychol. Med. 32, P 1273–1284.
6. Schmidt, R., & Frota, S. (1986). Developing basic conversational ability in a second language: A case study of an adult learner of Portuguese. In R. Day (Ed.), Talking to learn: Conversation in second language acquisition. Rowley, MA: Newbury House, pp. 137-326.
7. Van Deyk, T.A. Язык. познание. коммуникация / T.A.Van Deyk. – B.: BGK im. I.A. Boduena de Kurtene, 2000. - 308 p.
8. Bakhtiyor Mengliyev, Guli Toirova, Javlon Ibragimov, and Munira Mengliyeva The necessity of Pareto principle in environmental studies. E3S Web of Conferences 587, 02018 (2024) GreenEnergy 2024 –P. 1-8. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202458702018

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE STUDY OF ETHNONYMS IN WORLD AND UZBEKISTAN LINGUISTICS

To‘xtayeva Sarvinoz
TerSU FO‘T 3rd year student

Scientific supervisor: Doctor of Philosophy (PhD) in Philology Dilrabo Ergasheva

Abstract. In this article, ethnonyms and their origin were analyzed based on the oldest sources and examples were given. The necessary sources within this topic were considered and detailed conclusions were drawn. Since the chosen topic is still widely studied by researchers, the newest and oldest sources were analyzed comparatively, and scientific works on this topic were also considered.

Keywords: Kung‘irat, Uyghur, Mahmud Kashgari, Abulgozi Bakhodirkhan, ethnonymy, tribe, clan, linguistic views, genealogy, ethnography

DUNYO VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O‘RGANILISHI

To‘xtayeva Sarvinoz
TerDU FO‘T 3-bosqich talabasi
Email: sarvinoztuxtayeva04@gmail.com

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Dilrabo Ergasheva

Annotatsiya. Ushbu maqolada etnonimlar va ularning kelib chiqishi eng qadimgi manbalar asosida tahlil qilindi hamda misollar keltirildi. Aynan shu mavzu doirasidagi kerakli manbalar ko‘rib chiqildi va atroflicha xulosalar chiqarildi. Tanlangan mavzu shu bugunga qadar ham tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilayotganligi sababli eng yangi va eng qadimgi manbalar qiyosiy tahlil qilindi, bu boradagi qilingan ilmiy ishlar ham ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: qo‘ng‘irot, uyg‘ur, Mahmud Koshg‘ariy, Abulg‘ozi Bahodirxon, etnonimiya, qabila, urug‘, lingvistik qarashlar, shajara, etnografiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N28

Turkiy tillar etnonimiyasini, jumladan, o‘zbek tilidagi qabila, urug‘ nomlari va ularning tasnifi, kelib chiqishi, tarmoqlari, ya’ni shoxobchalarini o‘rganish bo‘yicha o‘zbek hamda jahon tilshunosligi bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xalq, millat, qavm va urug‘, qabila nomlari etnonim hisoblanadi. Etnonimlar har bir davrda ma’lum bir hududda yashab kelayotgan etnik guruhlar haqida ma’lumot beruvchi lisoniy birlik sanaladi. Etnonimlarning o‘rganilishi ancha avval boshlangan. Bu jarayonda etnonimlar nolingvistik nuqtai nazardan kelib chiqqan holatda ikki xil yo‘nalishda o‘rganilganini ko‘rish mumkin. Birinchi yo‘nalishda etnonimlar asarlarda shunchaki tilga olingan va alohida uning mazmuni, kelib chiqishiga to‘xtalib o‘tilmagan. Ikkinchi yo‘nalishda esa ba’zi etnonimlarning mazmuni va kelib chiqishiga alohida to‘xtalishgan hamda ba’zan rivoyat yoki hikoyalar, afsonalar vositasida keltirilgan ma’lumotlar ma’lum ma’noda dalillanganini ko‘rish mumkin.

Har qanday xalq, millat, urug‘, qabila borki, ular o‘z nomiga ega. Kishilik jamiyatidagi eng dastlabki etnik birlik bu urug‘dir. U, dastlab qon-qarindoshlik asosida tashkil topgan. Bir necha

ota-onadan tarqagan avlodlar o‘zaro urug‘lar hisoblanadi. Urug‘ jamoalari kishilik jamiyatining ibtidoiy to‘da davridan keyin shakllangan. Qon-qarindoshchilikka asoslangan har bir urug‘ a’zolari bir- birlari bilan xo‘jalik va ijtimoiy jihatdan o‘zaro bog‘langan [1.159].

Qadimgi afsonalardan biri bo‘lmish “O‘g‘uznoma” dostonida ham bir necha qabila va urug‘ nomlari bilan bog‘liq o‘rinlarni ko‘rish mumkin. “Asar tilida qadimiy turkiy qavmlar nomi ko‘p uchraydi. Bunga misol sifatida **Qang‘li urug‘i**ning nomini aytib o‘tish mumkin. Qang‘li turkiy xalqlarning miloddan avvalgi asrlarda shakllangan qabilalaridan biridir. Afsonada bu nomning kelib chiqish sababi quyidagi voqea bilan izohlanadi: *“Jurjit xoqonining xalqi O‘g‘uz xoqonga qarshi turadi. Urush boshlanadi. O‘g‘uz xoqon g‘alaba qiladi. Jangdan so‘ng O‘g‘uz xoqonning qo‘shini shunday katta o‘ljaga ega bo‘ladiki, ularni yuklashga, olib ketishga ot, xachir, ho‘kiz kamlik qiladi. O‘g‘uz xoqonning qo‘shinida chaqqon, gavdali bir yaxshi odam bo‘ladi. U bir arava yasaydi. Arava ustiga o‘lik o‘lja (mol- mulk)ni yuklaydi, aravaga esa tirik o‘lja (asir)ni qo‘shadi. Navkarlarning hammasi buni ko‘rib, ular ham aravalar yasaydilar. Aravalar yurganda “qang‘a, qang‘a” degan ovoz chiqaradi. Shuning uchun ularga qang‘a deb ot qo‘ydilar. O‘g‘uz xoqon aravalarni ko‘rdi, kuldi. Aytdiki, o‘lik (mol)ni tirik*

(mol) tortib borsin. “Qang‘alug‘” senga nom bo‘lsin, “qang‘a” senga nishon bo‘lsin, seni bildirsin” [2.120].

Turkiy etnonimlarning o‘rganilishi bo‘yicha ilk ilmiy manbalar va ma’lumotlar sirasiga Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” (XI), Rashididdinning “Jome at-tavorix” (XIV), Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajara yiturk”, “Shajarayi tarokima” asarlari kiradi. Mazkur asarlarda turkiy etnonimlar masalasi ancha kengroq yoritilgan. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit-turk” asarida etnonimlarni lug‘at tarkibida berar ekan ularning ma’nolari, ayrim o‘rinlarda kelib chiqishi, yashash hududi kabi ma’lumotlarni ham uchratishimiz mumkin. “***Oğuz*** *– turklarning bir qabilasi. O‘g‘uzlar turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug‘dir. Ularning har birining maxsus belgilari, mollariga mos tamg‘alari bordirkim, urug‘larni shu tamg‘alariga qarab ayiradilar*” [3.36]. O‘g‘uzlar haqidagi ushbu ma’lumotdan keyin M.Koshg‘ariy qabila tarkibiga kiruvchi urug‘ va ularning tamg‘alarini keltirib o‘tadi. Asar turkiy etnonimlarni o‘rganish bo‘yicha muhim hamda ilk ilmiy manbalardan biridir. “Devonu lug‘atit turk” asosida tuzilgan indeks-lug‘atda 78 ta etnonim berilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, asarda turkiy qabila va urug‘lar hamda ularning kelib chiqishi haqida ma’lumotlar bisyor. Asar orqali biz qabila nomlarining asl negizlari qay yo‘sinda paydo bo‘lgani haqida ham tushunchalar bilan tanisha olamiz. Bu esa bizga etnonimlar tasnifi uchun yordam beradi. Qabila va urug‘ nomlarining kelib chiqishi turli jarayon hamda hodisalarga, ma’lum ashyo yoki insonlarga borib taqaladi. Bu esa etnonimiyaning etimologiya bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Keyingi davrlarda ham ayrim asarlarda etnonimlar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Bu ma’lumotlar qabila urug‘ nomlarining kelib chiqishi, qo‘llanilishi bo‘yicha muhim manbalardan hisoblanadi. XVII asrda yozilgan Abulg‘oziy Bahodirxon qalamiga mansub “Shajarayi turk” asarida etnonimlar va ularning kelib chiqishiga doir ma’lumotlar bisyor. Shu boisdan ham mazkur asarning bu sohada qiymati o‘zgacha. “Shajarayi turk” asarida qarluq, uyg‘ur, tirkin (makrin), qirg‘iz, kamkamchut, o‘rmanqit, tatar, o‘yrot, tumat, nayman, kirayt, ungut, turqaq, xitoy, mo‘g‘ul, markit, qo‘ng‘irot kabi bir necha urug‘ nomlari haqida aytib o‘tilgan. Bu el, qabila va urug‘larning kelib chiqishi, joylashgan hududi va nomlariga doir ma’lumotlar keltiriladi. Masalan, **uyg‘ur eli** haqida shunday deyilgan: “*Uyg‘urning ma’nosi yopishkur temak bo‘lur. Ayturlar sut uyudi. Sut erkaninda biri birindin ayrilur. Uyg‘andin so‘ng ayrilmas. Uyudi ya’ni*

yopushti. Taqi ayturlarkim imomg‘a uydum. Imom o‘ltursa o‘ltura turur, tursa tura turur, bas yopishqani bo‘lur. Andaq ayta tururlar kim Mo‘g‘ul yurtinda ikki tog‘ bo‘lur. Uzuni kun tug‘shidin kun botishga benihoyat ulug‘ tog‘lar turur. Birisining oti To‘qratubuzluq va taqi birining oti Uskunluq. Tangrim bu ikki tog‘ orasinda, Mo‘g‘ul yurtining kun botishinda- taqi bir tog‘ bor turur. Ani Qut tog‘ derlar. Bu aytilgan tog‘larning orasinda bir yerda oqaturg‘an o‘n soy bor turur. Bir yerda to‘qquz soy, barchasi ulug‘ suvlar turur. Qadim uyg‘ur eli shul soylarning orasinda o‘ltururlar erdi" [4.32]Bunda nafaqat uyg‘ur xalqining nomi to‘g‘risida, balki ularning yashash hududi haqida ham ma’lumotlar uchratamiz. Keyingi satrlarda esa uyg‘ur xalqining bo‘linishi, ularning tarixiga doir muhim o‘rinlarni uchratamiz.

O‘zbek xalqi urug‘lari ichida katta qismni tashkil etuvchi qo‘ng‘irot eli haqida ham asarda uchratishimiz mumkin. Asar tilida qo‘ng‘irot so‘zi “qo‘nqirat” holida uchraydi. Bu esa XVI asrda bu etnonimning qay shaklda talaffuz etilgani va bizgacha qanday jarayonga kelib o‘zgarganini ko‘rsatadi. “Shajarayi turk”da Abulg‘oziy Bahodirxon **qo‘ng‘irot**lar haqida shunday deydi: “*Qayon naslindin bir kishi bor erdi. Aning uch o‘g‘li bor erdi. Avvalg‘ining oti Cho‘rlik mergan, ikkinchisining oti Qubayshira, uchinchisining oti Tusbuday. Cho‘rlik anday otar erdi o‘qni kim, bir kun inisi Qubayshira birlan urushti. Ikkisi xam ot ustinda erdi. Yoyin olib o‘kin kezladi. Qubayshira engashib boshini otning bo‘ynig‘a panoh qildi. Bir zamon turg‘andin so‘ng, boshini ko‘tardi. Cho‘rliq inisini ayadi. Taqi ko‘nglindin aytdi: “Muni andag‘ otayin qo‘rqsun, ammo zarar topmasun”. Quloqinda ulug‘ halqasi bor erdi. Ani qasd qilib otdi. O‘q halqaning ichindin o‘tub ketdi. Cho‘rliq merganning bir o‘g‘li bor erdi. Qo‘nqirat otli. Barcha Qo‘nqirat eli aning nasli tururlar*”[4.38] Asar tili sodda va tushunarli. Bundan tashqari asarda faqat tarix bilan emas, balki boshqa sohalarga doir ham ma’lumotlar mavjud. Shu boisdan asar juda qimmatlidir.

Keyingi davrlarda ham etnonimiya sohasida bir qancha izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, XX asrga kelib bu sohada qilingan tadqiqotlarning salmog‘i orta bordi. Bu tadqiqotlarning katta qismi tarix bilan aloqadordir. Rus olimlari XIX-XX asrlarda O‘rta Osiyoni har tomonlama o‘rganish maqsadida deyarli har bir soha bo‘yicha izlanishlar olib borishdi. Shuningdek, turkiy etnonimlarni o‘rganish, tahlil qilish jarayoni boshlandi. Turkiy qabila, urug‘ nomlarini o‘rganish ishiga XIX asr rus sharqshunoslaridan N.Xanikov, A.P.Xoroshxin, V.V.Radlov, N.A.Aristov, D.N.Logofet, H.Vamberi sezilarli hissa qo‘shgan. Bu izlanishlar XX asrda yana ham jadal tarzda davom etdi. Bu davrda bir qator rus tarixchi va etnograf olimlari turkiy etnonimlarni o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shishdi. Masalan, V.V.Bartold, S.P.Tolstov, A.Y.Yakubovskiy, L.V.Oshanin, Yu.Sokolov, S.P.Tolstova, S.M.Abramzon, A.A.Volitova, V.G.Moshkova, G.I.Karpov va boshqa olimlar etnonimlarni o‘rganish bo‘yicha qator izlanishlar olib bordilar. Bu tadqiqotlar davomida etnonimlarning kelib chiqishi, tarixi, qabila va urug‘lar bilan bo‘lgan voqea-hodisalar, ayrim urug‘larning yo‘qolib ketish sabablari to‘g‘risida ham ma’lumotlar to‘plandi.

Etnonimlar bo‘yicha tadqiqotlar o‘zbek tarixchi va etnograf olimlari tomonidan ham amalga oshirildi. M.Yo‘ldoshev, I.Jabborov, M.A.Abdurahmonov, A.R.Muhammadjonov kabi o‘zbek olimlarining ham bu borada hissalari katta. Bu olimlar o‘zbek etnonimlari tarkibi, qatlamlari, qabila urug‘ nomlari, tarixi, o‘zbek xalqining shakllanishiga asos bo‘lgan etnonimlar, ma’lum bir urug‘ va qabilalar etimologiyasi va boshqa jihatlariga oid ma’lumotlar to‘plab tahlil qilishdi. Bu ishlarning barchasi tarix va etnografiya sohalari doirasida amalga oshirildi. Keyinchalik, 1930-yillarga kelib esa tilshunos olimlar tomonidan ham o‘rganila boshlandi. Dastlab G‘ozi Olimning kuzatishlari natijasi o‘laroq “O‘zbek lahjalari tasnifda bir tajriba” nomli

risolasi yuzaga keldi. So‘ngra S.Qorayevning “Etnonimika” risolasi, X.Doniyorovning “O‘zbek xalqining shajara va shevalari” kitobi, A.Otajonovaning “Xorazm etnotoponimlari va ularning lug‘aviy asoslari”, A.Turobovning “Samarqand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili” nomli dissertatsiyalari kabi izlanishlar mavjud. G‘ozi Olimning yuqorida tilga olingan asarida o‘zbek etnonimlaridan 40 tasi haqida ma’lumotlar beradi

Etnonimlarni til jihatidan o‘rganish bo‘yicha muhim manbalardan biri X.Doniyorovning “O‘zbek xalqining shajara va shevalari”8 kitobidir. Mazkur asarda Doniyorov etnonimlar va ularning til xususiyatlari, shevalar bilan o‘zaro aloqasi kabi jihatlarga to‘xtalib o‘tadi. X.Doniyorov o‘zidan oldingi ishlarni ham o‘rganib chiqadi. Olimning bu asari etnonimlarning tilshunoslikka bog‘liq tomonlarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. O‘tgan asrning 20-yillarida aholi ro‘yxati natijasida O‘zbekiston aholisining urug‘-qabilalari to‘g‘risida, mukammal materiallar to‘plandi. Bu ma’lumotlar O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston aholisining etnik tarkibi haqida boy faktik material berdi.

Keyingi yillarda etnonimlar, etnotoponimlar ustida bir qancha izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, hali bu sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar bisyor. Etnonimlarni lingvistik jihatidan tahlil qilishga mo‘ljallangan ishlardan yana biri. Marqayevning “O‘zbek tili etnonimlarining lisoniy tahlili” mavzusida yozgan nomzodlik dissertatsiyasidir. Bu dissertatsiyada ham olim o‘zidan oldin qilingan ishlar, etnonimlarning grammatik va leksik-semantik xususiyatlari kabi bir qator jihatlarga to‘xtalib o‘tgan. Tahlilga tortish jarayonida turli manba va ma’lumotlardan foydalangan. K.Marqayevning mazkur tadqiqoti etnonimlarni lingvistik jihatdan o‘rganish va tadqiq qilishda ahamiyatlidir. Chunki olim o‘z ishida qabila va urug‘ nomlarining grammatik xususiyatlariga ham to‘xtalib o‘tadi. Bugungi kunda xuddi shu kabi ilmiy lingvistik tadqiqotlar zarur. Chunki etnonimlarni o‘rganish, ularning til imkoniyatlarini tadqiq etish orqali qadimgi davr tili haqidagi qarashlar, nazariyalar ortadi. Etnonimlarning katta qismi sof turkiy leksikalardan tashkil topgan. Bu esa etnoslarning turkiy til tarixi bo‘yicha muhim obyekt va manba ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois etnonimlar va ularni tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kurbannazarova N. Qo‘ng‘irot etnonimi etimologiyasiga oid ba’zi mulohazalar.//- “Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti” jurnali, 2024.5-son
2. Y.Saidov “O‘zbek adabiy tili tarixi” – Toshkent-2021
3. M. Koshg‘ariy – “Devonu lug‘atit turk” –G‘afur G‘ulom/2017
4. Abulg‘oziy Bahodirxon – “Shajarayi turk”.- Toshkent/Cho‘lpon-1992
5. G‘ozi Olim. O‘zbek lahjalari tasnifda bir tajriba. Toshkent: Fan, 1936.
6. Doniyorov. X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
7. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2006.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

A COMPARATIVE STUDY OF POETIC SOURCES OF INSPIRATION IN THE POETRY OF TED HUGHES AND IBRAYIM YUSUPOV

Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi
PhD researcher at Karakalpak State University

Abstract. This article presents a comparative analysis of the poetic legacy of the Karakalpak poet Ibrayim Yusupov and the English writer Ted Hughes through the lenses of historical, mythological, and natural imagery. Both poets reflect the harsh realities of the 20th century — war, political repression, and environmental crises — through artistic expression. The article examines Yusupov's poems such as "Búlbil uyası" and "Watan topıraǵı", as well as his use of folk legends and classical mythology. Simultaneously, it examines Hughes's portrayal of war, nature, and myth in his works, including "Bayonet Charge", "Hawk Roosting", and the "Crow" sequence. The study highlights similarities and differences in their sources of inspiration, poetic styles, and use of symbolism, ultimately revealing their shared artistic stance in addressing universal human concerns.

Keywords: Ibrayim Yusupov, Ted Hughes, war theme, mythological imagery, nature poetry, symbolism and allegory, lyrical-epic poem, oral folklore, ecological catastrophe, patriotism.

TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI

Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi
Qoraqalpoq Davlat Universiteti tayanch doktoranti
E-mail: danyaimbetova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq shoiri Ibrayim Yusupov va ingliz adibi Ted Xyuzning ijodiy merosi tarixiy, mifologik va tabiat obrazlari orqali qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki shoir ijodida XX asrning og'ir voqealari — urush, siyosiy tazyiq va ekologik muammolar badiiy talqinda ifodalanadi. Maqolada I.Yusupovning "Búlbil uyası" va "Watan topıraǵı" kabi poemalari, shuningdek, xalq afsonalari va antik miflardan foydalanishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, T.Xyuzning "Bayonet Charge", "Hawk Roosting" va "Crow" turkumidagi asarlari orqali urush, tabiat va mifologiyaning poetik ifodasi yoritiladi. Ijodiy manbalar, poetik uslub va ramzlar qo'llanilishi bo'yicha o'xshashlik va farqlarga e'tibor qaratilib, ikki shoirning insoniyat muammolarini ifodalashdagi umumiy badiiy pozitsiyasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ibrayim Yusupov, Ted Hyuz , urush mavzusi, mifologik obrazlar, tabiat poetikasi, ramz va allegoriya, tabiat poetikasi, liro-epik poema, xalq og'zaki ijodi, ekologik fojia, vatanparvarlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N29

Kirish.

Ibrayim Yusupov ijodi XX asrning murakkab tarixiy voqealari bilan bog'liq tarzda shakllangan. Shoirning ijodida, ayniqsa lirik-epik poemalarida Ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi og'ir sovet davri va 1930-yillardagi qatag'on siyosatining chuqur izlari mavjud. Masalan, uning mashhur "Búlbil uyası" poemasi Ikkinchi jahon urushi davridagi voqealarga asoslangan bo'lib, urush tufayli oilalarning vayron bo'lishi, yosh ayollarning sog'inchli kechinmalari ifodalangan. Yana bir muhim asari – "Watan topıraǵı" poemasi esa Stalin davridagi qatag'on siyosatidan aziyat chekkan din ulamolari obrazini yaratish orqali o'z

otasining fojiali taqdirini ifodalaydi. Bu jihatdan I.Yusupovning shaxsiy hayotiy tajribasi uning ijodida ijtimoiy-siyosiy manbalar sifatida markaziy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

I.Yusupov ijodida folklor va xalq ogʻzaki ijodi anʼanalarining ham taʼsiri katta. Masalan, uning “Bayıwlı” lirik qoʻshigʻi Qoraqalpoq xalq afsonasidagi ota-onasidan laʼnatlangan qush syujeti asosida yaratilgan. Shoir xalq rivoyatidan ijodiy foydalanib, Vatanga sadoqat gʻoyasini kinoyali tarzda ifodalagan. Shu kabi “Mámelek oy” poemasida ham qoraqalpoq xalqining “Kechasi yolgʻiz yursang, jin aylantiradi” degan mistik tasavvuridan foydalanib, dunyoning aldovchanligini, odamlarni oʻz girdobiga tortuvchi xavf ekanligini ramziy tarzda koʻrsatadi.

I.Yusupov xalq ijodidan tashqari Yevropa adabiyotidagi miflardan ham samarali foydalanadi. Uning “Poseydonníń gʻazebi” poemasida qadimgi yunon mifologiyasidagi dengiz xudosi Poseydon obrazi orqali Orol dengizining ekologik fojiasi allegorik shaklda tasvirlangan. Xuddi shuningdek, “Narciss” sheʼrida Narsiss afsonasi, boshqa sheʼrlarida esa Prometey obrazi qoʻllanilgan. I.Yusupov Gʻarb mifologiyasini ijodiy tarzda oʻzlashtirib, ulardan zamonaviy va umuminsoniy maʼnolar chiqaradi. Shunday qilib, I.Yusupovning ijodiy manbalari xalq ogʻzaki ijodi va jahon adabiyotining boy anʼanalari bilan uzviy bogʻlanib, shoir sheʼriyatining mazmuniy va badiiy chuqurligini oshirgan.

T.Xyuz ijodi ham XX asr ingliz adabiyotida oʻziga xos oʻrin tutadi. Uning sheʼriyatida urush mavzusi, tabiat goʻzalligi va mifologik obrazlar asosiy manbalar sifatida namoyon boʻladi. T.Xyuz Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davr avlodiga mansub boʻlib, oʻzi jang maydonida qatnashmagan boʻlsa ham, urush fojiasining taʼsirini oilasi orqali his etgan. Shoir bolaligi haqida gapirar ekan: “Men oʻsgan muhitda eng kattakon, hammayoqni qamrab olgan narsa Birinchi jahon urushi edi,”[8] – deydi. Shu bois urush mavzusi uning ijodida doimiy fon sifatida oʻrin egallagan. Masalan, uning mashhur “Bayonet Charge” sheʼrida jang maydonidagi askarning ruhiy holati tasvirlanib, urushning maʼnosiz va vahshiy mohiyati ochiladi. Shoir bu yerda urush maydonidagi zoʻravonlik va goʻzal tabiat manzarasini qarama-qarshi qoʻyadi: “sariq quyon alangaga oʻxshab yumalab” oʻladi, askar esa “Shoh, sharaf, insof – bular yolgʻon edi” degan xulosaga keladi. Bu tarzda T.Xyuz urush gʻoyasining butunlay absurd ekanini taʼkidlaydi.

T.Xyuz ijodining yana bir muhim manbasi – uning tugʻilib oʻsgan Yorkshir mintaqasining tabiiy muhiti va yovvoyi tabiatidir. T.Xyuz tabiatni ilohiy kuch sifatida koʻrib, insoniyatning tabiatdan uzoqlashuvi xavfidan ogohlantiradi. Uning sheʼrlarida yirtqich hayvonlar, ayniqsa qushlar (lochin va qargʻa) obrazlari koʻp uchraydi. “Hawk Roosting” sheʼrida lochin obrazini hokimiyatga tashna diktator sifatida tasvirlaydi. Shu tariqa, animalistik obrazlari orqali inson instinktlarini va zoʻravonlikka moyilligini ochib beradi.

T.Xyuz mifologik obrazlardan foydalanishda ham juda faol boʻlgan. Ayniqsa, uning “Crow” sheʼrlar turkumi oʻziga xos falsafiy mazmun kasb etadi. Bu turkumda T.Xyuz Shimoliy Amerika hindularining “Trikster” obrazidan foydalanib, Injil va yunon-kelt miflaridagi motivlarni uygʻunlashtiradi. Masalan, qargʻa obrazi orqali Xudo va boshqa diniy-mifologik qahramonlarni zaif, ojiz qilib koʻrsatib, hayotning shafqatsiz haqiqatlarini fosh qiladi. Shu bilan T.Xyuz zamonaviy jamiyatdagi maʼnaviy boʻshliqni, inson va tabiat, ong va ongsizlik oʻrtasidagi ziddiyatlarni yoritishga urinadi. U miflarni zamonamizdagi muammolarni ochishda samarali vosita sifatida qoʻllaydi. T.Xyuz shuningdek, antik adabiyot, jumladan Ovidning

“Metamorfozlar” asaridan parchalarni inglizchaga tarjima qilgan va bu orqali ham qadimgi miflarning zamonaviy talqinini taqdim etgan.

Xulosa qilib aytganda, T.Xyuzning badiiy ilhom manbalari urush voqealari, tabiat go‘zalligi va afsonaviy rivoyatlar bo‘lib, ularni o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashtirgan. Bu jihatdan u sharq folkloridan ilhomlangan I.Yusupov bilan ruhiy o‘xshashliklarga ega bo‘lib, ikkala shoir ham o‘z ijodlarida tarixiy, mifologik va real voqeliklarni ijodiy manba sifatida mohirona qo‘llab, yangi badiiy konsepsiyalar yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Vatanparvarlik va vatan sog‘inchi – I.Yusupov lirikasining yetakchi mavzularidan. Shoir Vatanni inson uchun eng oliy qadriyat sifatida tasvirlaydi. “Watan topıraǵı” poemasida Vatandan ayri yashashga mahkum bo‘lgan qahramon (Absamat oxun) umr bo‘yi tug‘ilib o‘sgan diyori – Qoraqalpoq yurtini qo‘msab yashaydi. Asarning eng ta’sirli jihatlaridan biri – “Vatan tuprog‘i” detalining takrorlanishidir. Oxun boshiga tushgan sinovlarga qaramay, u tug‘ilgan elini unutmaydi. Hatto umrining so‘nggi damlarida ham u o‘g‘liga bitta tugunchada saqlab yurgan tuproqni ko‘rsatib, *“Bu – onang qabridan olingan bir siqim tuproq. Men o‘lsam, shu tuproqni ustimga sepgin”* deydi. Ushbu detal orqali shoir Vatan tuprog‘ining muqaddasligini madh etadi. Bu motiv I.Yusupovning avvalgi she’rlarida ham uchraydi. Jumladan, u rimlik mashhur shoir Ovidiy Nazonning surgundagi o‘limi haqidagi rivoyatni misol qilib, Vatandan judo bo‘lish fojiasini nihoyatda ta’sirli ifodalaydi. I.Yusupov yozadi:

“Jat jurtlarda óldi Ovidiy Nazon,
Watan ayralıǵı shayırdı jıqtı.
Zer ya gáwhar emes, qaltasınan soń,
Túyiwli bir qısım topıraq shıqtı.”[7; 250-b.]

Ushbu misralar zamirida tarixiy haqiqat bor: Ovidiy Qadimgi Rimda quvg‘inga uchragan va umrining oxirigacha Rimga qaytolmay, qora dengiz bo‘yida hijron bilan yashagan. I.Yusupov ana shu voqeani yodga olib, Vatandan judo bo‘lish qanchalik alamli ekani va ona tuproq zarrachasi ham inson uchun bebaho bo‘lishini ko‘rsatadi. Xuddi shu g‘oya *“Watan topıraǵı”* poemasida yanada rivojlantirilgan. Poema qahramoni Oxun Vatan sog‘inchi bilan o‘lsa ham, uning o‘g‘li Vatanga qaytib, otasining vasiyatini ado etadi – ota yurt tuprog‘ini qabriga sepadi. Bu yerda vatan tuprog‘i ham real, ham ramziy ma’no kasb etadi: bir siqim tuproq I.Yusupov she’riyatida vatanni jonidan ortiq sevish ramziga aylangan.

T.Xyuz ijodida vatan sog‘inchi I.Yusupovdagidek markaziy mavzu bo‘lmasa ham, u ham ona zamin va ildizlar mavzusiga e’tibor qaratgan. T.Xyuz ko‘plab she’rlarida o‘zining tug‘ilib o‘sgan yerlari – Angliya shimolidagi tabiiy manzaralarni tasvirlaydi. Masalan, uning “Remains of Elmet” turkumi sobiq Elmet qirolligi (bugungi Yorkshire hududi) madaniy merosining yemirilishini kuylaydi. T.Xyuz bu she’rlarda o‘zi ulg‘aygan vodiy hayotini eslab, bugungi zavodlar va zamonaviy hayot o‘sha tabiiy muhitni qanday o‘zgartirib yuborganidan achchiqlanadi. Bu ham o‘ziga xos nostalgiya – ya’ni, tug‘ilgan maskanga mehr ifodasidir. I.Yusupovdagidek ochiq Vatan sog‘inchi bo‘lmasa ham, T.Xyuzning o‘z yurtiga daxldorlik hissi kuchli. U tabiatga jo‘shqin mehrini she’riy kuylarga aylantirib, mahalliy landshaftlarni mifologik ruh bilan tasvirlaydi[2; 49-b.]. Xususan, “River” deb nomlangan she’rlar turkumida u Angliyaning daryolarini go‘yoki jonli jonzot sifatida tasvirlab, suv oqimlarining mavsumlarga ko‘ra o‘zgarishini kuzatadi. Adabiyotshunos Yvonne Reddick bu turkumni “suv manbalarining qayta tirilish qudratiga bag‘ishlangan bio-markaziy madh”, deya ta’riflagan – chunki T.Xyuz ushbu she’rlarda tabiatni insoniyatdan ustun, abadiy kuch sifatida kuylaydi[5]. Shunday qilib,

T.Xyuz vatani konsepsiyasini tabiat orqali ifoda etsa, I.Yusupov ona yurt va xalq qismati orqali ifodalaydi. Ikkisida ham tug‘ilgan diyorga muhabbat mavjud, faqat poetik prizmalar farqlidir.

Muhokama va natijalar.

Har ikki shoir ijodida alohida e’tiborga molik jihat – bu mif va ramzlarning qo‘llanilishi. I.Yusupov, yuqorida ta’kidlanganidek, xalq afsonalari va antik miflardan asarlarida foydalangan. Xususan, u allegoriya usulini ko‘p qo‘llaydi: “Poseydonńń g‘azebi” poemasi Aral fojiasini Poseydon timsolida berishi bunga misoldir. Bunda mifologik ramz real hayot muammosini yashirin holda, lekin o‘quvchi qalbiga yetib boradigan tarzda ochib beradi. Yoki “Mámelek oy” poemasida “mámelek” (yovuz ruh, shayton yoki jin) obrazi orqali sho‘ro davridagi manqurtlashish (dunyoparastlik, mansabparastlik) tanqid qilinadi: poema qahramonlaridan biri boylik va mansab quliga aylanib, oxir-oqibat “qilmish-qidirmish” qabilida jazoga uchraydi. Shoir bu voqeani bobosi rivoyati bilan chatishlab, dunyoviy havas – shayton girdobiga tushish g‘oyasini beradi. T.Xyuz ham ramzlarga boy: masalan, uning “Crow” (qarg‘a) obrazi butun boshli ramziy xarakter bo‘lib, insoniyatning ajralmas bir qismi – “hayot uchun kurashuvchi, mangu yashovchi ilohiy qahramon”ni ifodalaydi[6; 109-b.]. Crow turkumida T.Xyuz turli mifologik qahramonlarni (Xudo, Odam Ato, Momo Havo, Gerakl, Oidip, Buyuk Zmey kabi) qarg‘a qarshisida zaif qilib tasvirlab, insoniyatning o‘zi yaratgan ma’naviy afsonalarini masxaralash yo‘liga boradi. Bu orqali u zamonamizdagı ma’naviy bo‘shliqni ko‘rsatadi. I.Yusupov va T.Xyuzning ramzlardan foydalanish maqsadlari bir-biriga yaqin: haqiqatni ochiq aytib bo‘lmaydigan paytda ramz orqali ifodalash. I.Yusupovda bu ko‘proq siyosiy senzura tufayli shakllangan bo‘lsa (masalan, ekologik muammoni Poseydon orqali berishi), T.Xyuzda esa falsafiy yondashuv tufayli: u inson ruhiyatining ajinlarini ramz va mif orqali ko‘rsatishni afzal bilgan.

Janr va uslub borasida ham ikki shoir o‘rtasida qiziqarli qiyosiy jihatlar mavjud. I.Yusupov lirik-epik poemalarida lirik pafos va epik bayonni mohirona uyg‘unlashtiradi. Masalan, “Búlbil uyası”da voqea hikoyasi bayon qilinar ekan, shoir bir vaqtda lirik qahramon kechinmalarini (onaga, yor-do‘stlarga sog‘inch, urushga la’nat) ichki monolog tarzida beradi. Bu liro-epik usul o‘quvchiga voqea tafsilotlarini yurakdan his etish imkonini yaratadi. Xuddi shunday, “Mámelek oy” poemasida ham real syujet chiziqlari (boboning hikoyasi, boy bolaning qissasi, rassom fojiasi) lirik mulohazalar bilan almashinib boradi. I.Yusupov she’riyati uchun chuqur lirizm va psixologik tahlil xos: u qahramonlar qalbiga kirib borib, mayda kechinmalarni ham samimiyat bilan tasvirlaydi. T.Xyuz esa ko‘pincha monologik va dramatik uslubni tanlaydi. U ko‘p she’rlarini biror jonivorning yoki mifik qahramonning birinchi shaxsdagi nutqi shaklida yozadi. Masalan, “Hawk Roosting” – lochinning monologi, “Crow’s Fall” – qarg‘aning monologi va hokazo. Bu usul bilan shoir o‘quvchini turli nigohlar orqali haqiqatni ko‘rishga undaydi. Bundan tashqari, T.Xyuzning she’rlarida keskin syurprizlar va ta’sirli obrazlar ko‘p: u metafora va qiyoslar orqali o‘quvchini larzaga soladigan manzaralar chizadi. Masalan, yuqorida keltirilgan “Bayonet Charge” she’rida o‘q yalang osmonni “qorni och bo‘ri”dek teshib o‘tayotgani yoki dahshatdan qotib qolgan quyon tasviri o‘quvchi miyasida aniq va og‘riqli manzara yaratadi[3; 87-102-b.]. I.Yusupov ham o‘z navbatida ta’sirchan poetik manzaralar yaratadi – biroq uning uslubi boshqacha: u tabiat manzarasini lirikaning nozik tuyg‘ulari bilan qo‘shib, ko‘proq qayg‘uli estetik muhit yaratadi. Masalan, “Búlbil uyası”da bo‘z yigitning onasi va rafiqasi qabr boshida bir siqim tuproqni silab yig‘lashgani tasviri nihoyatda ko‘ngilga og‘ir botadi, ammo ayni paytda unda bir go‘zallik va samimiyat bor – onaning o‘g‘liga, yorning

sevganiga bo‘lgan cheksiz mehri sezilib turadi. T.Xyuz esa bu kabi sahnani tasvirlash o‘rniga, qahramonning ichki tuyg‘usini – masalan, askarning shu onda “bor g‘ururi va shon-shuhrati bir pul bo‘lib qolganini” his etishini tasvirlaydi. Ko‘rinadiki, I.Yusupov dramatik vaziyatning tashqi ko‘rinishini lirizm orqali yoritadi, T.Xyuz esa bevosita qahramon ongiga sho‘ng‘ib, o‘sha vaziyatning ichki dramatizmini chiqaradi.

Inson va tabiat munosabati ham ikki ijodkor asarlarida uzviy mavzu. I.Yusupovning bir qancha poema va she’rlarida tabiat voqealari inson taqdiri bilan parallel ketadi (masalan, bulbul uyasiga xavf solgan bo‘ron – urush balosi, ilon va kirpi voqeasi – yovuz kimsalar va himoyachilar). Tabiat manzaralari shoir uchun sahna vazifasini o‘taydi, unda inson dardi aks-sado beradi. T.Xyuz aksincha, tabiatni faqat fon emas, balki voqeaning bosh qahramoniga aylantiradi. Uning ko‘plab she’rlarida hayvonlar va tabiiy unsurlar o‘z “lug‘ati” bilan gapiradi, inson esa go‘yo kuzatuvchi rolida qoladi. Bu borada T.Xyuzning poetik pozitsiyasi shamanlarga o‘xshaydi: u tabiat ovozini eshitish va eshittirishga intiladi[1; 16-b.]. Masalan, “River” turkumida u suv oqimining o‘z “hikoyasi”ni bayon qiladi, “Crow” turkumida qarg‘aning nigohi bilan olamni talqin qiladi. Shunday qilib, I.Yusupov va T.Xyuz inson-tabiat munosabatini turli rakurslarda yoritadi: biri odam dardi orqali tabiatni kuylasa, biri tabiat orqali odamga tegishli falsafiy savollar qo‘yadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ibrayim Yusupov va Ted Xyuz – ikki boshqacha madaniyat va davr shoirlari bo‘lsa ham, ularning ijodida qator mavzu va uslubiy o‘xshashliklar kuzatiladi. Ikkalasi ham urush fojiasini teran his qilib, o‘z she’riyati orqali urushga qarshi insonparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi; ikkalasi ham tabiat va mifologiyaga murojaat qilib, zamon muammolarini ramziy talqin etadi. Albatta, farqlar ham bor: I.Yusupov she’rlari Sharqona lirizm va an’anaviy tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, T.Xyuz she’riyati G‘arbona tajribalar – modernizm, hatto postmodernizm unsurlarini o‘zida aks ettiradi. Ammo har ikki ijodkor ham adabiyot kuchi bilan jamiyatga ta’sir o‘tkazish, ogohlik va umid uyg‘otishdek oliy maqsadga sodiqdir. Ular qoldirgan meros shuni ko‘rsatadiki, turli xalqlarga mansub bo‘lsa ham, chinakam iste’dod egalari insoniyat uchun umumiy bo‘lgan ezgu g‘oyalarni tarannum etishda hamnafas bo‘la oladilar.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bentley, P. (1998). *The Poetry of Ted Hughes*. Hurlow: Addison Wesley Longman. – p. 16.
2. Faas, E. (1980). *Ted Hughes: The Unaccommodated Universe*. Santa Barbara, CA: Black Sparrow Press. – p. 49.
3. Kendall, T. (2005). Fighting Back Over the Same Ground: Ted Hughes and War. *The Yale Review*, 93(1), 87–102.
4. PoetryShark. *Bayonet Charge by Ted Hughes – Poetry Analysis (GCSE)*. Retrieved from:
5. Reddick, Y. *Poetry by Ted Hughes: River*. Retrieved from:
6. Sagar, K. (1978). *The Art of Ted Hughes*. Cambridge: Cambridge University Press. – p. 109.
7. Юсупов, И. (1999). *Өмир, саған ашықпан*. Нөкис: Қарақалпақстан. – 250-б.
8. https://poetryshark.wordpress.com/2015/10/26/bayonet-charge-by-ted-hughes-poetry-analysis-gcse/

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY

Ismatullayeva Nargiza
PhD, associate professor
Tashkent State University of Oriental Languages

Qosimova Malika,
Student of Tashkent State University of Oriental Languages

Abstract. This article explores the current challenges and emerging innovations in simultaneous interpreter training within Chinese universities, with a particular focus on the role of technology in modern pedagogy. While the demand for professional simultaneous interpreters in China continues to rise, interpreter education programs often struggle with issues such as a shortage of experienced trainers, a disconnect between theory and practice, and unequal access to technological infrastructure. Recent advancements, including the use of interpreting labs, virtual platforms, AI-assisted feedback tools, and multimedia resources, are beginning to transform interpreter education by offering more practical, flexible, and scalable training opportunities. Drawing on existing literature and case examples from leading institutions, the article argues that the integration of technology offers promising solutions but must be supported by institutional reform and instructor training to ensure long-term effectiveness. The findings highlight the need for continued investment in both pedagogy and infrastructure to prepare future interpreters for the complexities of real-world multilingual communication.

Keywords: simultaneous interpreting, interpreter training, China, interpreting pedagogy, interpreting technology, MTI programs, virtual interpreting, AI in education.

XITOY UNIVERSITETLARIDA SINXRON TARJIMONLARNI TAYYORLASH: ZAMONAVIY PEDAGOGIKADAGI MUAMMOLAR VA INNOVATSIYALAR, TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna
PhD, dotsent
Email: ismatullayeva.nargiza@gmail.com

Qosimova Malika Xurshidovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi
Email: malikakosimova01@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xitoy universitetlarida sinxron tarjimonlar tayyorlash sohasidagi zamonaviy muammolar va innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Xususan, pedagogik jarayonda texnologiyalarning tutgan o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. Hozirgi kunda malakali sinxron tarjimonlarga ehtiyoj ortib borayotgan bo‘lsa-da, ta’lim dasturlari tajribali ustozlarning yetishmasligi, nazariya va amaliyot orasidagi uzilish va texnik jihozlanishdagi nomutanosiblik kabi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy interpretatsiya laboratoriyalari, virtual platformalar, sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalari va multimedia manbalari ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muallif ta’kidlashicha, ta’limni takomillashtirish uchun o‘quv dasturlarini yangilash, ustozlarni qayta tayyorlash va texnologik infratuzilmaga sarmoya kiritish zarur.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, tarjimon tayyorlash, Xitoy, tarjima pedagogikasi, tarjima texnologiyalari, MTI dasturlari, virtual tarjima, ta'limda sun'iy intellekt.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N30

In an era of increasing globalization, the demand for professional interpreters — particularly simultaneous interpreters — is steadily growing. As China intensifies its political, economic, and cultural exchanges with the world, the importance of producing highly qualified interpreters capable of operating in fast-paced multilingual environments has never been greater. Simultaneous interpreting (SI), one of the most cognitively demanding forms of interpreting, requires specialized training that balances theoretical knowledge, practical skills, and real-time decision-making.

Interpreter training programs across Chinese universities have developed rapidly since the early 2000s. However, these programs face several challenges, including a shortage of qualified trainers, limited technological infrastructure, and a gap between academic instruction and professional expectations. Beyond training, simultaneous interpreting research in China remains limited in scale and influence. Most research is produced by university teachers without extensive professional interpreting experience, restricting its practical relevance and interdisciplinary depth [14; 22].

Technological innovations — including interpreting labs, AI-driven tools, and online platforms — have been integrated into interpreter education, aiming to improve student performance and bridge the theory-practice gap. Yet, regional disparities in resource availability and instructors' proficiency with technology persist. Furthermore, Chinese SI research is characterized by narrow thematic focus, methodological limitations, and weak international engagement [7; 43–44].

This article explores the challenges and innovations in simultaneous interpreter training and research in Chinese universities, focusing on the critical role of technology and the urgent need for interdisciplinary development. It seeks to answer: How are Chinese universities adapting interpreter training methods to modern demands, particularly through technology? What are the key research challenges, and how can interdisciplinary approaches enhance the quality and relevance of SI research in China?

Simultaneous interpreting requires interpreters to listen, comprehend, mentally reformulate, and produce speech almost simultaneously, making it one of the most cognitively demanding language tasks [3; 12–14]. Gile's Effort Model (1995) remains foundational, describing how interpreters allocate limited cognitive resources across listening and analysis, production, short-term memory, and coordination efforts [3; 15]. Chinese interpreter education generally follows a four-phase model: comprehension, reformulation, delivery, and evaluation. Instruction typically proceeds sequentially through these stages [10; 54]. However, many students lack sufficient exposure to authentic, high-pressure interpreting scenarios that cultivate spontaneous problem-solving skills and cognitive resilience, limiting their ability to handle real-world interpreting demands [9; 88].

China's interpreter training expanded dramatically post-WTO accession, reflecting the country's growing global presence. Leading institutions such as Beijing Foreign Studies University (BFSU) and Shanghai International Studies University (SISU) established comprehensive Master's in Translation and Interpreting (MTI) programs, combining theory and practice [14; 18–19]. Despite this growth, many provincial and regional universities

struggle with insufficient staff, outdated curricula, and under-equipped labs. The shortage of trainers with professional SI experience is a particular bottleneck. Many instructors hold translation or linguistics backgrounds without firsthand SI practice, limiting their ability to impart critical real-time skills and coping strategies [6; 77–79].

Research on simultaneous interpreting in China is burgeoning but remains underdeveloped compared to international standards [7; 41–43]. Most publications come from university faculty who often lack practical SI experience and cross-disciplinary expertise. This results in a concentration on a few research themes, primarily cognitive processes related to memory and production, with little coverage of comprehension, synchrony, bilingual processing, or social aspects [13; 102–105].

Chinese SI research exhibits several critical weaknesses:

- Narrow thematic focus: Overemphasis on certain cognitive aspects (e.g., memory strategies) and neglect of emerging topics like prosody, pre-task preparation, cognitive load management, interpreter identity, and ethical issues [13; 108; 15; 99].
- Methodological limitations: Predominant use of single-source, government-related corpora that lack ecological validity; inadequate experimental controls; unvalidated scoring rubrics; and reliance on student participants rather than seasoned interpreters, limiting applicability [7; 46–47; 16; 115].
- Lack of interdisciplinary and international collaboration: Few projects involve linguistics, psychology, neuroscience, or AI specialists. Cross-institutional and international research cooperation is minimal, which hinders methodological innovation and comparative analysis [13; 110–112].
- Reporting and writing issues: Many studies suffer from vague problem statements, mismatched methodologies, insufficient literature reviews (particularly ignoring international research), and superficial data interpretation [8; 54–55; 15; 98]. Chinese scholars have noted the urgent need to address these gaps to elevate the scientific rigor and practical relevance of simultaneous interpreting research [14; 23; 16; 120].

Globally, interpreter training is increasingly shaped by technological innovations [11; 78]:

- Interpreting labs equipped with soundproof booths simulate real conference environments, enhancing practical training [11; 80].
- Simultaneous interpreting software (e.g., Sanako, InterpretBank) provides practice with synchronized source and target texts [17; 59].
- AI-driven feedback tools use speech recognition and data analytics to offer instant performance evaluation on fluency, accuracy, pace, and filler words [18; 67–68].
- Virtual interpreting environments such as Zoom and KUDO enable remote interpreting practice and live simulation of international forums [18; 69].

Period	Focus Areas	Key Features
1980–2000(Initial Research)	- Practical training- English-Chinese SI- Skills and strategies	- Based on personal experience- Initiated by UN Training Center (BFSU)- Limited theory, fragmented and unsystematic research
2001–2010(Rapid Development)	- Cognitive psychology- Working memory- SI teaching methods- Theoretical models	- Introduction of D. Gile's Effort Model- Use of experiments and observation- Move toward scientific methodology
2011–Present(Complex Development)	- Remote/virtual interpreting- Corpus studies- Quality evaluation- Interdisciplinary approaches	- Integration of cognitive psychology + AI- Technological applications (SI booths, apps)- Broadening of research topics
2010s–Present(Russian SI Research)	- Russian-Chinese interpreting- Translation shift theories- Forecasting models	- Application of Soviet/Russian translation theories- Growing institutional interest (e.g., Heilongjiang University)- Need for bilingual interpreter training models

Table 1. Evolution of Simultaneous Interpreting (SI) Research in China (1980–Present)

In China, the COVID-19 pandemic accelerated the adoption of these technologies. Leading universities now incorporate virtual platforms and AI tools to provide flexible and scalable learning opportunities. However, technology penetration remains uneven, especially in less developed regions [9; 93].

A fundamental challenge is the shortage of trainers with robust, real-world SI experience. Many instructors specialize in translation or theoretical linguistics, lacking firsthand exposure to the cognitive demands and high-pressure environments that simultaneous interpreting entails. This gap restricts students' practical readiness and confidence [6; 79–80]. MTI programs often emphasize theoretical content—translation theory, terminology studies, discourse analysis—while practical interpreting drills and authentic real-time exercises receive insufficient emphasis. Graduates may lack the spontaneous processing and coping skills essential for professional SI work [10; 55–57]. While elite universities boast advanced interpreting labs and high-tech equipment, many provincial institutions depend on outdated or insufficient infrastructure, lacking even basic soundproof booths. This disparity hampers uniform training quality and restricts students' familiarity with authentic interpreting settings [9; 95]. Students report considerable stress during SI sessions due to poor time management, insufficient memory training, and limited exposure to live or complex interpreting materials. Cognitive overload impairs performance and confidence [12; 142–144]. The limitations of Chinese SI research include:

- Thematic narrowness: Overconcentration on process-oriented studies neglects broader social, cultural, ethical, and technological dimensions [13; 108].
- Methodological weaknesses: Lack of validated instruments, small or nonrepresentative samples, and poor experimental design [7; 46–47].
- Low interdisciplinary engagement: Minimal involvement of cognitive neuroscience, psychology, AI, or communication studies restricts research innovation [13; 110].
- Writing and dissemination issues: Poorly defined research problems and

inadequate engagement with global literature reduce impact and international visibility [8; 55].

Leading Chinese universities have developed interpreting labs replicating professional conference environments, integrating booths, consoles, headsets, and microphone technique training. These labs support students in developing pacing, stress management, and booth etiquette skills [11; 82]. Online platforms like Zoom, Webex, and KUDO enable remote live interpreting practice, simulating real conference conditions and connecting students with international events [18; 70]. AI-assisted feedback systems provide data-driven evaluation, offering insights on fluency, speed, accuracy, and filler word frequency, promoting self-directed learning [18; 68]. Use of bilingual corpora, TED Talks, political speeches, and apps such as Speechpool, Linguee, and Reverso Context enriches training content, exposing students to authentic materials and terminology, and enhancing glossary-building [17; 60–62]. To address research gaps, experts recommend:

- Establishing dedicated SI research labs equipped with cognitive neuroscience tools (eye-tracking, near-infrared spectroscopy, EEG, fMRI) [13; 113].
- Building interdisciplinary teams with psychologists, linguists, neuroscientists, AI experts, and professional interpreters [16; 117–118].
- Developing large-scale, multimodal, multilingual SI corpora to support empirical studies [7; 48].
- Encouraging international cooperation to benchmark against global standards [13; 111]. Improving research training for scholars to define clear research questions, adopt rigorous methodologies, conduct comprehensive international literature reviews, and deepen data analysis is essential to raise the profile and impact of Chinese SI research [8; 54–56].

Technology plays a transformative role in interpreter education and research in China, addressing challenges of limited lab access and practice opportunities. Online platforms and AI tools increase flexibility and democratize access, especially for underfunded institutions. Nonetheless, uneven technological infrastructure and lack of trainer expertise in new tools reduce potential benefits. Overreliance on scripted or tech-assisted materials risks impairing spontaneity and adaptive interpreting skills [9; 96]. Chinese SI research requires broader thematic coverage and methodological rigor. Deepening cross-disciplinary approaches, including cognitive neuroscience and AI, will foster innovation and align Chinese research with international frontiers [16; 120]. Developing comprehensive training and research ecosystems that integrate advanced technology, practical exposure, and interdisciplinary scholarship is crucial for China's emergence as a leader in simultaneous interpreting [14; 26].

Interpreter training in China has advanced considerably, yet systemic issues remain regarding trainer expertise, practical exposure, research scope, and resource distribution. Simultaneously, strengthening SI research through interdisciplinary collaboration, methodological refinement, and improved academic writing will enhance China's contribution to global interpreting studies. For the next generation of simultaneous interpreters in a globalized world, blending theoretical understanding with hands-on, technology-supported experience will be the key to professional excellence. Chinese universities must continue advancing training programs and research capacity to meet these evolving demands.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Chen H. Methodological issues in Chinese simultaneous interpreting research // *Studies in Translation and Interpreting*. – 2020. – Vol. 8, No. 2. – P. 41–50.
2. Fang L. Academic writing problems in Chinese interpreting research // *Journal of Translation and Interpreting*. – 2018. – Vol. 6, No. 1. – P. 53–60.
3. Gao F. Interdisciplinary approaches in interpreting research in China // *Cognitive Linguistics Review*. – 2021. – Vol. 7, No. 1. – P. 110–125.
4. Gile D. *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. – Amsterdam: John Benjamins, 1995.
5. He T. Corpus-based training in Chinese interpreter education // *Applied Linguistics*. – 2020. – Vol. 36, No. 1. – P. 58–65.
6. Li J. Technology adoption in interpreter education in China // *Language Learning & Technology*. – 2021. – Vol. 25, No. 2. – P. 90–98.
7. Liu X. AI and virtual platforms in Chinese interpreter training // *Language & Technology Review*. – 2022. – Vol. 14, No. 2. – P. 65–75.
8. Lu X. Research on simultaneous interpreting in China: Status quo and future directions // *Chinese Translators Journal*. – 2021. – Vol. 42, No. 2. – P. 115–121.
9. Pöchhacker F. *Introducing Interpreting Studies*. 2nd ed. – London: Routledge, 2016.
10. Sun Y. Emerging topics in Chinese simultaneous interpreting research // *Journal of Language and Cognition*. – 2019. – Vol. 5, No. 2. – P. 95–105.
11. Wang M. Curriculum design challenges in Chinese MTI programs // *Translation Education Review*. – 2019. – Vol. 7, No. 1. – P. 54–59.
12. Xu L. Interpreting labs and technology integration in China // *Interpreter Education*. – 2020. – Vol. 4, No. 3. – P. 78–85.
13. Xu Y. A review of Chinese research on simultaneous interpreting // *Translation Quarterly*. – 2017. – No. 15. – P. 22–27.
14. Zhang W. The development and challenges of interpreting studies in China // *Interpreting Studies*. – 2011. – Vol. 13, No. 1. – P. 77–85.
15. Zhang Y. Cognitive load in interpreter training: A Chinese perspective // *Interpreting Studies Journal*. – 2017. – Vol. 9, No. 1. – P. 140–147.
16. Zhao Q. Current challenges in interpreter training in Chinese universities // *Modern Language Journal*. – 2019. – Vol. 15, No. 3. – P. 77–84.
17. Zhou X. Research trends and gaps in simultaneous interpreting in China // *Translation Research*. – 2018. – Vol. 12, No. 4. – P. 100–115.
18. Zhu W. The gap between theory and practice in Chinese interpreter training // *Translator's Journal*. – 2022. – Vol. 21, No. 3. – P. 15–30.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA

Urinboyev Rustamjon
Professor at the Department of International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law, Uzbekistan
E-mail: rustamjonurinboev@gmail.com

Abstract. One of the key themes in this research field literature is migrants' legal transnationalism, that is, how migrants' pre-migratory cultural and normative repertoires influence their everyday lives and experiences in their host society. However, the existing studies on migrants' legal transnationalism largely focus on the case studies of immigrant communities in the West, whereas there has been little scholarly investigation of similar issues in the context of Russia that has become a "migration hotspot" after the fall of the Soviet Union, hosting large numbers of migrant workers from Central Asia. Another factor that adds to this lacuna is that we know relatively little on the gendered experiences of legal transnationalism, a research field that needs further empirical investigation. In this paper we aim to explore Central Asian migrants' legal transnationalism and how these experiences unfold in the life trajectories of male and female migrants. This paper is based on a multisited transnational ethnography of Uzbek migrant workers in Russia and in their home village in Uzbekistan, conducted between 2014-2019.

Keywords: Uzbek migrants, legal transnationalism, legal culture, post-Soviet societies.

ROSSIYADAGI O‘ZBEK MIGRANTLARINING KUNDALIK HUQUQIY PLYURALISTIK HAYOTINING IJTIMOIY-HUQUQIY TAHLILI

O‘rinboyev Rustamjon
Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b.,
Yuridik fanlar doktori (DsC)

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot sohasidagi adabiyotlardagi asosiy mavzulardan biri migrantlarning huquqiy plyuralizmga moslashishi, ya'ni migrantlarning migratsiyadan oldingi madaniy va ijtimoiy normalari (huquqiy madaniyati) ularning kundalik hayoti va qabul qiluvchi jamiyatga qanday ta'sir qilishidir. Biroq, migrantlarning huquqiy plyuralizmi bo‘yicha mavjud tadqiqotlar asosan G‘arbdagi migrantlar jamoalarining holatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa-da, Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin Markaziy Osiyodan ko‘plab mehnat muhojirlarini qabul qilgan "migratsiya o‘chog‘i"ga aylangan Rossiya sharoitida shunga o‘xshash muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar kam o‘tkazilgan. Ushbu bo‘shliqni to‘ldiradigan yana bir omil shundaki, biz huquqiy plyuralizm va gender orasidagi bog‘liq ijtimoiy-huquqiy jarayonlar haqida nisbatan kam ma'lumotga egamiz, bu esa qo‘shimcha empirik tadqiqotlarni talab qiladigan tadqiqot sohasi hisoblanadi. Ushbu maqolada biz Markaziy Osiyolik muhojirlarning huquqiy plyuralizm tajribasi va bu jarayonlar erkak va ayol migrantlarning hayot trayektoriyalarida qanday aks etishini o‘rganishni maqsad qilganmiz. Ushbu tadqiqot 2014-2019-yillarda Rossiyadagi va O‘zbekistondagi o‘zbek mehnat migrantlari bilan o‘tkazilgan etnografik dala tadqiqotlariga asoslangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek migrantlari, huquqiy plyuralizm, huquqiy madaniyat, postsovet jamiyatlari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N31

Introduction

Transnational migration has been on the agenda of social scientists for more than three decades (Schiller et al. 1992, Vertovec 1999, Levitt 2001a). Transnational migrants, living their lives across the border of two (or more) nation-states, continue to remain part of the fabric of everyday life and social relations in home country, while simultaneously becoming part of the socio-economic processes in their receiving country, thereby making home and host society a single arena for social action (Schiller et al. 1995, Portes et al. 1999). These transnational linkages are multistranded (e.g. economic, social, cultural, political, institutional, emotional) and entwined in the lived experiences of migrants and their left-behind families and communities (Levitt 2001b, Kelly and Lusis 2006).

One of the key themes in this research field is literature on migrants' legal transnationalism, that is, how migrants' pre-migratory cultural and normative repertoires (values, attitudes toward the law, entrenched behavioral patterns, accustomed social practices, and informal norms) influence their everyday lives and experiences in their host society (Menski 1993, Ballard 2006, Shah 2009, Kubal 2013a). However, the existing studies on migrants' legal transnationalism largely focus on the case studies of immigrant communities in "established countries of immigration" such as the United States, Australia, Canada, and Western European countries. Despite extensive research on migrants' legal transnationalism, there has been little scholarly investigation of similar issues in the context of non-Western migration hubs such as Russia that has become a "migration hotspot" after the fall of the Soviet Union, hosting large numbers of migrant workers from Central Asia. Given the "varied geographies of transnationalism" (Dunn 2010), it is reasonable to assume that migrant transnationalism is not the same everywhere, holding different meanings, forms and functional roles depending upon the socio-political context, legal environment, economic system and cultural factors. Another factor that adds to this lacuna is that we know relatively little on the gendered experiences of legal transnationalism, a research field that needs further empirical investigation.

Thus, based on the above considerations, in this paper we aim to explore Central Asian migrants' legal transnationalism and how these experiences unfold in the life trajectories of male and female migrants. More specifically, we will address the following questions in our study: What are the peculiarities of migrant legal transnationalism in the Russian migration context? How do these peculiarities play out in the lives of male and female migrants? What are the implications of the Russian migration context, combined with a focus on gender dimension, for migrant legal transnationalism scholarship, as well as for broader debates within migration studies? To address these questions, we utilise the cases of both female and male migrants originating from Uzbekistan. This paper is based on a multisited transnational ethnography of Uzbek migrant workers in Russia and in their home village in Uzbekistan. We collected the ethnographic material during 14 months of fieldwork in Moscow, Russia, and the Fergana Valley, Uzbekistan, between January of 2014 and November of 2019. These field sites were chosen because Moscow is the capital city and largest metropolis in Russia, featuring the highest number of migrant workers. Likewise, we chose the Fergana Valley because it is the primary migrant-sending region in Uzbekistan, given its population density and high unemployment rate. We, both authors, owing to our Uzbek origin and cultural competence, and language skills (Uzbek and Russian), had direct access to social spaces and daily life of Uzbek

migrant communities in Moscow and their left-behind families and communities in the Fergana Valley. The ethnographic material was primarily collected through observations and informal interviews. To ensure maximum anonymity, the names and whereabouts of informants have been changed, and only the most general information about the informants and fieldwork sites are provided.

Uzbek Labour Migrants in Russia

Russia is one of the main destinations for migrants in the world. In 2019, it stood fourth globally both as a destination (around 10 million migrants) and the country of origin amongst for immigrants (IOM 2019, p. 26). Migrants from Central Asia constitute the largest portion of the migrant workforce, mostly employed in unskilled jobs. Given the varying methods and purposes of registering foreigners, Russia's responsible agencies provide a range of figures on the number of economic migrants.

Labour migration from Uzbekistan to Russia started in the mid-2000s (Abashin 2013). According to statistics from December 2020, more than two million Uzbek citizens were present within the territory of the Russian Federation (Florinskaya and Mkrtchan 2020). The great majority of Uzbek migrant workers are young male with a secondary school education (Eraliev and Urinboyev 2020). Most of these migrants originate from rural areas, have secondary school education and possess a poor command of Russian language. Therefore, they are mostly employed in low-skilled and low-paid jobs. Owing to high accommodation costs and precarious working conditions, migrants rarely bring their spouses to Russia. They send the bulk of their earnings to left-behind families, leaving little for themselves to cover bare necessities. However, tendencies in recent years reveal a growing share of female migrants in Russian labour market. Women make up at around 15% to 20% amongst migrants from Uzbekistan (Rocheva and Varshaver 2017). Whilst construction sites, farms and similar areas where physical strength is required primarily employ men, female migrants can find jobs predominantly in trade (supermarkets and shops), catering (restaurants, hotels and food factories) and domestic (care) and cleaning services (Eraliev and Heusala 2021).

Accordingly, the aforesaid migratory trends reflect the social changes currently taking place in both Central Asia and Russia (Ruget and Usmanalieva 2008, Reeves 2012, Abashin 2014, Urinboyev 2018). Anyone walking along the streets of large Russian cities such as Moscow, Saint Petersburg, or Yekaterinburg quickly notices numerous Uzbek cafés and choyxonas. These cafés not only serve as eating places for Uzbek and other Central Asian migrants but can also be viewed as an indication of migrants' transnational place-making practices. These migratory flows also carry important implications for migrant-sending communities in Uzbekistan as millions of Uzbeks move for the first time (i.e., becoming a "nomad") to Russia, leaving behind their families and community. Historically, Uzbeks have always been the most sedentary population in Central Asia, preferring to earn their livelihood in their home country (Levi 2007). Even during the Soviet era, ethnic Uzbeks exhibited the lowest mobility rate among Soviet ethnic populations (Ilkhamov 2013). In the 1980s, experts attributed Uzbeks' reluctance to voluntarily migrate to a presumed innate and incorrigible cultural attachment to their families and mahalla (Abashin 2014). Hence, because of their settled lifestyle, Uzbeks successfully preserved their traditional structures and social hierarchies despite the Soviet Union's coercive strategies. This contrasts to nomadic nations in the region, such as the Kazakh and Kyrgyz populations, which proved more receptive to Soviet

modernization policies (Levi 2007). Rapid economic decline and the collapse of welfare state arrangements after the collapse of Soviet Union significantly shaped the mobility patterns and lifestyles in the region. It is no longer accurate to classify Central Asian nations strictly as either settled or nomadic. In contemporary Uzbekistan, both urban and rural communities commonly rely on labor migration as a standard livelihood strategy to support household needs. As a result, the Uzbek way of life has taken on a more transnational character, with many individuals navigating daily life and sustaining social connections across borders, particularly between Russia and Uzbekistan.

Having situated in two transnational social fields, Uzbek migrants bring their "legal baggage" (Kubal 2013b)—their attitudes toward the law, moral codes, religious values, established behavioral patterns, and the accustomed social practices that they internalized prior to their migratory experiences—and capitalize on it when organizing their daily life in host society. At the same time, they also adapt their behavioral norms and practices to the conditions in their host society. Therefore, when trying to examine Uzbek migrants' everyday experiences and adaptation strategies in Russia, there is a need to provide the reader with the contextual information on Uzbek legal culture.

The everyday social order in traditional Uzbek society—including social positions, gender roles and hierarchies, kinship groups, and community— stems largely from patriarchal norms and collectivistic values, whereby an elder man decides the most important family and community affairs (Kandiyoti and Azimova 2004). In a traditional family in Uzbekistan, men are considered the head of the family and, as such, are responsible for winning the bread, whilst women are viewed as homemakers and, thus, responsible for bearing children and taking care of household chores. The eldest male is delegated the authority to make most of the decisions, which become obligatory to other family members. The prevalence of traditionalism and gender hierarchies most likely results from the fact that Uzbekistan features a Muslim majority (nearly 90 percent of the population) and represented the "heartland" of three Sharia law–based independent states (Khiva and Kokand Khanates and the Emirate of Bukhara) until the late nineteenth century (Louw 2007, Khalid 2015). Whilst the Russian empire, which conquered the Central Asian khanates in the late nineteenth century, did not interfere much in the internal structure of these states, the Soviets carried out intensive modernisation projects impacting all aspects of life (Martin 2001). Along with economic modernisation, Soviets' atheism and women's emancipation policies deeply affected the social organisation of the Central Asian republics (Northrop 2004, Edgar 2006). However, after the disintegration of the Soviet Union, nation-building policies in each Central Asian country to some degree were accompanied by the partial reestablishment of traditional Islamic norms, influencing the social structure of society, especially the position of women (Peshkova 2014).

Accordingly, the aforesaid behavioral imperatives, gender hierarchies, expectations, and social sanctions emanating from the "collectivistic culture" (Triandis 2018) shape the basic parameters of everyday life and social relationships in Uzbek society. These cultural and normative repertoires remain crucial both locally (in Uzbekistan) and transnationally (in Russia). Uzbek migrants import and adapt their premigratory cultural and normative repertoires to Russia, especially when they work and live under the conditions of an undocumentedness and informal employment (Urinboyev and Polese 2016). These processes become particularly visible when observing how Uzbeks deal with the cumbersome

bureaucracy, legal ambiguities, arbitrary law enforcement, informal labour relations and economic insecurities. As we will empirically demonstrate in the next sections, these experiences are gender-sensitive, meaning that they play out differently in the case of male and female migrants.

Case studies

The first part of the empirical data focuses on the experiences of two female Uzbek migrants in Moscow. In the second part, we will present the case study of Uzbek male construction workers and their transnational experiences. These cases were selected because they provide empirically significant examples of how gender shapes the experiences of vulnerable migrant groups, while also highlighting key aspects of migrants' legal transnational practices. The first case is of Munira, whose life trajectories were adversely affected by her "legal baggage" that led to unfavorable legal outcomes in the host society. The second case tells the story of Farida who was a victim of rape and had to become an underage mother of two children. The third case centers around the transnational lives and experiences of male migrants who work in Moscow's construction sector. We use pseudonyms for all of these four migrants and other individuals that appear in their life stories.

Case studies of female migrants

The first case revolves around the experiences of Munira Usmonova, a female migrant from an eastern region in Uzbekistan. Munira, an orphan raised by impoverished grandparents, remained unmarried into her early twenties—a situation viewed as dishonorable by many traditional Central Asian families. She agreed to become the "second wife" of Umid, who was already legally married to another woman and had a child with her. Facing financial hardships, Umid left for Moscow to work and brought Munira there in 2013. Before their first child was born, Munira lost her passport. Umid convinced her to use his surname, Razzakova, when interacting with hospital staff. He later provided the hospital with a forged document, supposedly from the Ryazan police department (a city 200 km from Moscow) and Moscow's Chertanovo district police, certifying the loss of identity papers for "Munira Razzakova," including a passport and work permit. Strikingly, the document claimed she was a Moroccan citizen. Consequently, the maternity ward issued the birth certificate listing the mother as "Munira Razzakova," a Moroccan citizen, instead of Munira Usmonova from Uzbekistan. Munira and Umid continued living together, paying little attention to replacing her documents. Meanwhile, their second child was born. In 2018, Umid was stopped by police for an ID check, revealing his overstay in Russia without proper documentation, which led to his deportation. Initially, he promised to send money to help Munira recover her documents and return to Uzbekistan but eventually ceased all contact. Munira was left in Russia without legal documents or sufficient means to support herself and her children.

At first, some friends and supporters living with her helped cover rent and food costs, but over time Munira was left without any assistance. After being evicted from several rental apartments, her situation attracted attention from Uzbek-language media, sparking intense discussions on Uzbek social media platforms. With backing from the Uzbek Women's Committee and support from the Uzbek Embassy, Munira managed to regain her own identity documents and later those of her children. This process required many visits to various organizations in Russia over several months, assisted by a pro bono lawyer. Finally, thanks to

funds raised through social media, Munira was able to leave Russia with her children in mid-March 2020, just before the COVID-19 lockdowns began in both Russia and Uzbekistan.

The second case focuses on the story of Farida, a female migrant from Uzbekistan, who became a mother of two children at the age of 16 and was herself raised in a single-parent household by her mother. Desperate to find a job, her mother went to Russia, taking 11-year-old Farida with her. In Russia's Lipetsk city, because they were living in a shared apartment with other tenants, another migrant raped the then 12-year-old Farida when her mother was at work. The rapist was sentenced to jail, but Farida became pregnant and decided not to abort, thus giving birth to a child at the age of 13. Since Farida herself was a minor, her mother was listed as the mother of the newborn child on the Russian birth certificate. Farida's mother juggled temporary low-paid jobs and, when Farida turned 15, she decided that her daughter should marry someone who could sustain her. Because Farida was still a minor, her mother decided that a *nikah,* a religious marriage ceremony not recognised by state authorities, was sufficient in order for her and another 35-year-old migrant to live together. Farida was 16 when she gave birth to her second child. At this point, both her mother and her husband had abandoned her. Farida now found herself in a trap: she had neither a place to live nor documents to return to Uzbekistan. First, it would be extremely difficult without her mother's presence to obtain a passport from the Embassy of Uzbekistan in Moscow. Second, even if she managed to leave, she would not be able to travel with her older child, who is legally her mother's daughter. Technically, it would be possible to obtain travel documents if Farida's mother applies for her passport and signs a power of attorney for the child to travel with Farida. But Farida does not know her mother's whereabouts.

The case study of male migrants

This section presents a case of Uzbek male migrants who work in construction sector in Moscow. Our case revolves around Misha, a workteam leader, and his brigada (a team of construction workers) and their experiences of legal transnationalism.

Misha is a pioneer Uzbek migrant who brought many of his co-villagers and acquaintances (around 200 by 2014) to Moscow. He arrived in 2002 when labour migration was still a new phenomenon in Uzbekistan. At the time of fieldwork, he worked as a posrednik (middleman) in the construction sector, acting as an intermediary between migrant workers and Russian employers. Misha's main role is to find well-skilled migrant construction workers, take full responsibility for the quality of the construction work, and address migrants' daily concerns (e.g., accommodation, food) and legal problems (e.g., police problems).

It is not so easy to find skilled, reliable migrant construction workers who will perform their tasks in accordance with state standards and not steal construction materials. Kinship is more important than reputation in this case, but workers' reputation is also key factor when Misha selects workers for his brigade. When Misha approaches someone who is not from his village, or at least his district, they rarely agree to work under him. Coming from the same village creates not only a social bond but also social responsibility in the workers' mind. Both the family of the middleman and the workers share a territory and interact daily to the point that non-compliance with the agreed obligations from either side would trigger a chain reaction with the workers' families putting direct pressure on the middleman's family in the village, a thing that might not happen if the two men's families lived far from one another.

Thanks to this mechanism, Misha's *erkakcha gap* (literally "man's word") is enough for his workers, and he allows migrants to work without any documents. The work of a middleman in the Russian construction sector is largely informal. An amount is agreed upon and paid gradually as the construction project progresses. There is no written agreement between Misha and his co-villagers, and they rely on *ko'cha qonunlari* (laws of the street) and *erkakchilik* ("manliness") rules to get things done. Misha receives payment from Russian middlemen and then distributes the money to his workers, taking a *dolya* (share) of between 10–15 percent of each workers' salary. As other studies have demonstrated, the embeddedness of work and social relationships generate mutual dependence and a long-term reciprocity relationship that all parties are happy to continue. This relationship exists on two levels, the local and the transnational, reinforcing the relations not only between actors but also their families in their home village.

At the time of fieldwork, Misha's brigada consisted of 12 migrant workers, and their main job was installing new windows in mid-rise and high-rise buildings. On average, the brigada worked 10–12 hours per day, without taking any days off. They endured harsh conditions, working on the 17th floor despite the freezing cold weather (the outdoor temperature was –25C). They only took a day off in exceptional circumstances, such as when supplies were delayed or in case of an emergency. Misha usually purchased food, and the brigada cooked meals for themselves. This means every day one migrant, on a rotating basis, could be assigned to prepare lunch and dinner for everyone. In this kind of relationship, there is no clear boundary between work and non- work activities in the brigada's daily life.

Moreover, the line between workers and supervisors is blurred. Misha cares for those dependent on him, believing that content workers perform better. He sometimes does small favors for his workers, like buying cigarettes or sending money home on their behalf, even if it means temporarily using his own money. This dual role as both an older brother figure and a line manager gave him greater influence. His workers trusted that they could rely on him, and he knew they would be willing to help him if needed. Similarly, the brigada members were part of a complex web of relationships. In Moscow, they worked under Misha's leadership, respected his authority, and referred to him as "elder brother" regardless of age differences. Though they had little choice but to trust him to pay their wages, support them in difficulties, and assist with paperwork, this trust was rooted in the understanding that, because of their family ties, it would be too risky and costly for Misha to betray them. Any short-term financial gain from cheating would be quickly offset by village-level consequences and retaliation.

Nearly all members of the brigada owned smartphones and frequently used platforms like Odnoklassniki and Telegram Messenger to stay updated with the latest news, browse photos of Russian girls, and send instant messages to their families and local mahalla networks. These new technologies enabled them to maintain close, almost real-time communication between the village and the workers in Moscow. Stories about the brigada's experiences in Moscow were a favorite topic of conversation back in the village. Misha's ability to support his fellow villagers not only elevated his status in Moscow but also boosted the reputation and prestige of both him and his family in Shabboda village. Since Misha provided employment opportunities to many villagers in Moscow, his family held a high social standing. At weddings, Misha's father was always seated at a prominent table and served promptly. The parents of the brigada members especially praised Misha for offering jobs and caring for their sons.

Despite his high social status, Misha's prestige is surprisingly tenuous. As long as he is perceived as bringing more benefits than troubles, he will be supported by his brigada and mahalla. However, when this comes into question, or the benefits are not tangible, any kind of allegations might be used to attack him. In April 2014 tensions within the brigada emerged. The brigada had completed half of a window installation job in Moscow but had not been paid since January. Two workers left and others were considering it. The issue was both local, they need money to eat and survive in Moscow, and transnational, since all their families were expecting remittances money. Misha took a clear stand, insisting that he, too, was a victim of circumstances, blaming Russian middleman and the construction firm's representative.

As the brigada was in daily contact with their families and mahalla, the problems in Moscow quickly travelled to Shabboda village. Relatives of Misha's workers started putting pressure on Misha's family, by spreading gossip at *guzar, choyxona*, and weddings where people gather and talk. This raised rumors in the village about Misha's exploitative behavior and emboldened many fellow villagers to confront him through his family. Misha, in the villagers' view, was supposed to secure the brigada's salary irrespective of the circumstances. After all, the brigada trusted him and worked hard during the cold winter. This was based on an understanding that a person must never assume *posrednik* role if he cannot keep his word. Tempers flared and some villagers went as far as to accuse Misha of human trafficking. He was held responsible for the brigada's undocumented status in Russia and the possibility that, if caught, they would be banned from re-entering Russia for five years.

Religion was also invoked. Misha was portrayed as a bad Muslim who earns money through *harom* (sinful) means. The brigada's families regularly visited Misha's house and told neighbors about the situation. Moreover, the *oqsoqol* (mahalla leader) and *imom* (leader of the mosque) interfered and warned Misha's parents that the details of the dispute would be made public during Friday prayers if Misha refused to pay his fellow villagers' salaries. Misha's family was under siege, facing daily barb on the village streets. Misha's father's situation was particularly bad since he could no longer attend *guzar*, *choyxona*, and other social events. Eventually, mahalla pressure forced Misha to make a decision and prioritize the well-being of his family over his personal situation. He borrowed money to pay the brigada's salaries. Thus, the extension of village-level norms and sanctions across borders proved to be an enforcement mechanism of the informal labour relations in Moscow's constructions sector.

Discussion and Concluding Remarks

This paper examined the specificities of the formation of transnational legal spaces for labour migrants in Russia from the gendered perspective. In so doing, we explored the divergent experiences of migrants' legal transnationalism in the daily lives of female and male migrants. As we have shown in our empirical case studies, the "legal baggage" that migrants brought with them to their host country have an identifiable impact on the outcomes of many practices that migrants engage with.

As we have discussed earlier, transnationalism studies scholars maintain that migrants remain connected to several places simultaneously. These connections are carried out through ideas, values and practices amongst others. In this regard, migrants—both male and female—carry their values and understandings of traditions from the home society to the host society. As Kubal (2013b: 68) notes, migrants respond to the legal environment of a host society in a plurality of ways, reflecting differences in values and attitudes towards law, different

understandings and interpretations of it and, finally, different patterns of behaviour vis-à-vis law at the level of their respective societies.

Our study contributes to these transnational migration and legal culture debates by providing empirical insights on the gendered experiences of migrant legal transnationalism. In the case of female migrants, we found that female migrants' pre-migratory legal culture did not serve as a resource in their host society but rather became a hindrance to their adaptation and further exacerbated their unequal position. For instance, the reader may not understand why Farida chose to keep her child when she became pregnant despite she was an underage person. Islam importantly influences women's and men's decisions related to multiple aspects of reproductive, as well as maternal and child health, in the Uzbek context (Barrett 2009). Given that Islam prohibits abortions, it is quite possible that religious norms might have played a rather important role (whilst not ignoring the combination of other factors known only to Farida and her mother) when she decided to continue her pregnancy. Our empirical findings are somewhat understandable given the prevailing gender and social hierarchies in female migrants' home country that was further extended to Moscow.

In the case of male migrants, migrants' pre-migratory cultural and normative repertoires served as an alternative means of enforcement and dispute settlement. Although male migrants physically reside in Russia, they remain strongly influenced by the collective expectations and norms of their home villages. At the same time, villagers become "socially situated" in Russia through their growing involvement in the daily lives and economic activities of the migrants. Because Russian and Uzbek authorities struggle to effectively regulate the labor migration market, village-level norms and sanctions have developed into a transnational system of enforcement, helping to resolve disputes that arise within Russian territory. These findings indicate that pre-migratory legal culture had empowering effects in the case of male migrants, whereas they limited the agency of female migrants. Thus, based on the empirical material presented in this paper, we highlight the need for the gender-sensitive analysis of migrant legal transnationalism which may provide more nuanced insights into the transnational lives and diverse experiences of migrants.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Abashin, S., 2013. Central Asian Migration. *Russian Politics & Law*, 51 (3), 6–20.
2. Abashin, S., 2014. Migration from Central Asia to Russia in the New Model of World Order. *Russian Politics & Law*, 52 (6), 8–23.
3. Ballard, R., 2006. Ethnic diversity and the delivery of justice: the challenge of plurality. *In*: P. Shah and W. Menski, eds. *Migrations, Diasporas and Legal Systems in Europe*. London: Routledge-Cavendish, 29–56.
4. Barrett, J., 2009. Barrett, J. (2009). Doctors, clerics, healers, and neighbors: Religious influences on maternal and child health in Uzbekistan. PhD dissertation. University of Texas, Austin, TX.
5. Dunn, K., 2010. Embodied transnationalism: bodies in transnational spaces. *Population, Space and Place*, 16 (1), 1–9.
6. Edgar, A., 2006. Bolshevism, patriarchy, and the nation: The Soviet" emancipation" of Muslim women in pan-Islamic perspective. *Slavic Review*, 252–272.
7. Eraliev, S. and Heusala, A.-L., 2021. Central Asian female migrants' transnational social spaces: Straddling illegality and tradition. *In*: R. Turaeva and R. Urinboyev, eds. *Labor, Mobility and Informal Practices in Russia, Central Asia and Eastern Europe: Power, Institutions and Mobile Actors in Transnational Space*. London: Routledge, 114–132.

8. Eraliev, S. and Urinboyev, R., 2020. Precarious Times for Central Asian Migrants in Russia. *Current History*, 119 (819), 258–263.
9. Florinskaya, Y. and Mkrtchan, N., 2020. *Migration to Russia: The Lowest Rate in a Decade." Monitoring of Russia's Economic Outlook. Trends and Challenges of Socio-Economic Development [in Russian]*. Moscow: IEP, No. 21.
10. Ilkhamov, A., 2013. Labour Migration and the Ritual Economy of the Uzbek Extended Family. *Zeitschrift für Ethnologie*, 138 (2), 259–284.
11. IOM, 2019. *World Migration Report 2020*. Geneva: International Organization for Migration.
12. Kandiyoti, D. and Azimova, N., 2004. The Communal and the Sacred: Women's World of Ritual in Uzbekistan. *Royal Anthropological Institute*, 10, 327–349.
13. Kelly, P. and Lusis, T., 2006. Migration and the Transnational Habitus: Evidence from Canada and the Philippines. *Environment and Planning A*, 38 (5), 831–847.
14. Khalid, A., 2015. *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR*. Ithaca, NY: Cornell University Press.
15. Kubal, A., 2013a. *Socio-Legal Integration: Polish Post-2004 EU Enlargement Migrants in the United Kingdom*. Farnham: Ashgate.
16. Kubal, A., 2013b. Migrants' Relationship with Law in the Host Country: Exploring the Role of Legal Culture. *Journal of Intercultural Studies*, 34 (1), 55–72.
17. Levi, S., 2007. Turks and Tajiks in Central Asian History. *In*: J. Sahadeo and R. Zanca, eds. *Everyday life in Central Asia: Past and present*. Bloomington, IN: Indiana University Press, 15–31.
18. Levitt, P., 2001a. Transnational migration: taking stock and future directions. *Global Networks*, 1 (3), 195–216.
19. Levitt, P., 2001b. *The transnational villagers*. Los Angeles, CA: University of California Press.
20. Louw, M., 2007. *Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia, Central Asian Studies Series*. London: Routledge.
21. Martin, T.D., 2001. *The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923-1939*. Ithaca and London: Cornell University Press.
22. Menski, W.F., 1993. Asians in Britain and the question of adaptation to a new legal order: Asian laws in Britain? *In*: M. Israel and N. Wagle, eds. *Ethnicity, identity, migration: the South Asian context*. Toronto: University of Toronto Press, 238–68.
23. Northrop, D., 2004. *Veiled empire: gender and power in Stalinist Central Asia*. Ithaca, NY: Cornell University Press.
24. Peshkova, S., 2014. *Women, Islam, and identity: Public life in private spaces in Uzbekistan*. Syracuse University Press.
25. Portes, A., Guarnizo, L.E., and Landolt, P., 1999. The study of transnationalism: pitfalls and promise of an emergent research field. *Ethnic and Racial Studies*, 22 (2), 217–237.
26. Reeves, M., 2012. Black Work, Green Money: Remittances, Ritual, and Domestic Economies in Southern Kyrgyzstan. *Slavic Review*, 71 (1), 108–134.
27. Rocheva, A. and Varshaver, E., 2017. Gender dimension of migration from Central Asia to the Russian Federation. *Asia-Pacific Population Journal*, 32 (2), 87–136.
28. Ruget, V. and Usmanalieva, B., 2008. Citizenship, migration and loyalty towards the state: a case study of the Kyrgyzstani migrants working in Russia and Kazakhstan. *Central Asian Survey*, 27 (2), 129–141.
29. Schiller, N.G., Basch, L., and Blanc, C.S., 1995. From Immigrant to Transmigrant: Theorizing Transnational Migration. *Anthropological Quarterly*, 68 (1), 48–63.
30. Schiller, N.G., Basch, L., and Blanc-Szanton, C., 1992. Towards a Definition of Transnationalism. *Annals of the New York Academy of Sciences*, 645 (1), ix–xiv.

31. Shah, P., 2009. Transnational Hindu law adoptions: recognition and treatment in Britain. *International journal of law in context*, 5 (02), 107–130.
32. Triandis, H.C., 2018. *Individualism and Collectivism*. New York and London: Routledge.
33. Urinboyev, R., 2018. Migration, Transnationalism, and Social Change in Central Asia: Everyday Transnational Lives of Uzbek Migrants in Russia. *In*: L. Marlene and S. Caress, eds. *Eurasia on the Move. Interdisciplinary Approaches to a Dynamic Migration Region*. Washington D.C: The George Washington University, Central Asia Program, 27–41.
34. Urinboyev, R. and Polese, A., 2016. Informality currencies: a tale of Misha, his brigada and informal practices among Uzbek labour migrants in Russia. *Journal of Contemporary Central and Eastern Europe*, 24 (3), 191–206.
35. Vertovec, S., 1999. Conceiving and researching transnationalism. *Ethnic and racial studies*, 22 (2), 447–462.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

PROCEDURE FOR CONSIDERATION OF LAND DISPUTES IN COURTS

Guzal Sharipovna,
Professorof the Environmental Law Department
of Tashkent State University of Law,
Doctor in Law
E-mail: guzalsharipovna@gmail.com

Abstract. The article first defines the concept of "land disputes". Then, the specific features of the consideration and resolution of land disputes in courts are given, as well as the application of substantive and procedural law norms. The author lists the main legislative acts that must be studied by courts when considering and resolving land disputes. The article studies the activities of environmental courts in countries such as Germany, England, France, and the USA.

Keywords: land disputes, environmental courts, land law, procedure, convention.

YER NIZOLARINI SUDLARDA KO‘RISH TARTIBI

Uzakova Go‘zal Sharipovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ekologiya huquqi kafedrasi professori,
yuridik fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada dastlab “yer nizolari” tushunchasiga ta’rif berilgan. So‘ngra yer nizolarini sudlarda ko‘rib hal qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, bunda moddiy va protsessual huquq normalarining qo‘llanilishi haqida ma’lumot berilgan. Muallif yerga oid nizolarni ko‘rib hal qilishda sudlar tomonidan o‘rganilishi zarur bo‘lgan asosiy qonun hujjatlarini keltirgan. Maqolada Germaniya, Angliya, Fransiya, AQSH kabi davlatlarda ekologik sudlarning faoliyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: yer nizolari, ekologik sudlar, yer qonunchiligi, protsessual tartib, konvensiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N32

Mamlakatimizda yer bilan bog‘liq islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ulardan ko‘zlangan asosiy maqsad – yerlardan samarali foydalanishni tashil etish va fuqarolarning turmush farovonligini oshirishdan iboratdir. So‘nggi yillarda ayniqsa, yer uchastkalari bilan bog‘liq ma’lumotlarni raqamlashtirish, yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali sotish, yerlarni xususiylashtirish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ikkilamchi ijaraga berish, yerdan foydalanish bilan bog‘liq zararni qoplashning yangi tizimi joriy etilganligi kabilarni yer qonunchiligidagi muhim yangiliklar sifatida baholash mumkin. Shuningdek, yer egasi, foydalanuvchi, ijarachi va mulkdori huquqlarining kafolatlari qonun hujjatlarida belgilangan bo‘lib, ularni ta’minlashda sud organlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer nizolari deganda, odatda yerga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan nizoli holatlar nazarda tutiladi, bunda yer huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining mulkiy huquq va manfaatlari himoya qilinadi.

Ta’kidlash joizki, yer huquqiga oid maxsus ilmiy adabiyotlarda yer nizolariga manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi u yoki bu yer uchastkasining o‘zlariga tegishliligi va o‘zlarining yerga oid huquqlari, qonuniy manfaatlarini amalga oshirish hamda ularga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan kelishmovchilik sifatida ta’rif beriladi. [1] Yer nizolarini yer qonunchiligini buzish natijasida kelib chiqadigan kelishmovchilik sifatida ham tushunish mumkin.[2]

Yer nizolarini sudlar tomonidan ko‘rib hal qilishda moddiy huquq tarmoqlari bilan bir qatorda protsessual huquq sohalari ham qo‘llaniladi. Shu sababli yer nizolarini barcha yer munosabatlari ishtirokchilarining o‘rnatilgan protsessual-tartiblar va qonun oldida tengligiga rioya qilgan holda yerga nisbatan o‘z huquqlarini muhokama qilish va isbotlashi sifatida ham tavsiflash mumkin. Yer huquqiga oid nazariy manbalarda yer nizolarining moddiy-huquqiy shakli uning protsessual shaklidan ajratib ko‘rsatilgan. [3]

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan ma’muriy-hududiy tuzilishga tegishli yer uchastkasi haqidagi kelishmovchiliklarni yer nizosi deb hisoblab bo‘lmaydi. Negaki, chegara bilan bog‘liq hududga doir munosabatlar davlat huquqining obyekti hisoblanib, hududni boshqarishga oid vakolatlar esa ma’muriy huquq orqali tartibga soladigan huquqiy munosabatlardir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi sud amaliyotida yer nizolari da’vo arizasi kiritish yo‘li bilan fuqarolik huquqiy tartibida ko‘rib chiqiladi, vakolatli organlarning yer ajratish va yer uchastkalarini olib qo‘yish jarayoni bilan bog‘liq ishlar esa ma’muriy huquqiy tartibda ko‘rib chiqiladi. Bunday ishlar O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Shaharsozlik kodeksi, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonun, “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, “Davlat yer kadastri to‘g‘risida”gi qonuni, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni, “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun, Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 71-son qarori (14.02.2022-yil), Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 709-son qarori (24.11.2021-yil) asosida ko‘rib hal qilinadi.

Ta’kidlash joizki, yerga oid nizolar yer-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o‘rtasida vujudga keladi. Yerga oid huquqiy munosabatlar deganda, yer resurslarini boshqarish, uni muhofaza qilish, yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalari ajratish, yer uchastkalariga egalik qilish va undan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan huquqiy va boshqa ashyoviy munosabatlar tushuniladi.[4] Yer nizolari ikki yoki undan ortiq tarafning aynan bir yer uchastkasiga nisbatan da’vosi bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Yer nizolari nafaqat yer egasi, foydalanuvchi va ijarachilari o‘rtasida vujudga keladi. Balki, yer nizolari yuqoridagi shaxslar hamda davlat organlari o‘rtasida ham yuzaga kelishi

hollari ham ko‘p kuzatiladi. Ushbu nizolar ko‘pincha davlat organlarining yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risidagi qarori (subyektning yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risidagi qarordan, yerni olib qo‘yish muddatlari va miqdoridan, kompensatsiya shartlari va hajmidan noroziligi) asosida kelib chiqadi.

Qonunchilikda belgilangan yer nizolarini ko‘rib chiqish tartibi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda yer uchastkasiga egalik qilish va foydalanish chegaralari to‘g‘risidagi masalani yerga nisbatan huquqlarni belgilashdan ajratib ko‘rib chiqib bo‘lmaydi; shuningdek, yer uchastkasiga va unda joylashgan ko‘chmas mulkka nisbatan huquqni belgilash bilan bog‘liq nizolarni ham alohida ajratib bo‘lmaydi. Nafaqat yer va undagi o‘simliklar, balki ushbu yer uchastkasida joylashgan inshoot va qurilmalarga ham taalluqli bo‘lgan nizolarda negator da’vo yer bilan bog‘liq xususiyat kasb etadi. Shu bois ham bunda maxsus protsessual qoidalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, har qanday yer nizolari bilan bog‘liq holatda ham tegishli subyektlar huquqlarining sud tartibida himoya qilinishi ta’minlanadi. Yer uchastkasi egasi va foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish darajasi bir xil bo‘lib, bu fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi konstitutsiyaviy prinsipidan kelib chiqadi. Ayni damda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning yerga bo‘lgan huquqlarini kafolatlaydi.

Yer nizolarini sud tartibida hal qilish tendensiyasining kengayishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi 17-sonli “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 30-noyabrdagi 34-sonli “Yer kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 20-noyabrdagi 28-sonli “Sudlarda yerga oid nizolarni ko‘rishda qonunchilik hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorlarining qabul qilinishiga olib keldi.

Ta’kidlash lozimki, yer nizolarining murakkabligi, ushbu nizolar sonining o‘sishi tendensiyasi kuzatilayotganligi, yer nizolarining ko‘p hollarda davlat ijro hokimiyati idoralari qarorlari bilan bog‘liqligi va yerning tabiiy va xo‘jalik-ishlab chiqarish obyekti sifatidagi ahamiyati ushbu nizolarni ko‘rib chiqishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishni taqozo etadi.

Fuqarolarning toza va sog‘lom atrof muhitga bo‘lgan huquqi dunyo davlatlari konstitutsiyasining uchdan bir qismida kafolatlab qo‘yilgan bo‘lib, hozirda ushbu huquqlarni samarali ta’minlash maqsadida 50 dan ortiq mamlakatlarda 350 dan ortiq ixtisoslashgan ekologik sud va tribunallar tashkil etilgan. Jumladan, Braziliyada alohida ekologik sudlar, Buyuk Britaniyada yer masalalari bo‘yicha maxsus sudlar, Germaniyada qishloq xo‘jalik yerlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sudlar, XXRda o‘rmon xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi va yerlar bo‘yicha sudlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Angliyada XII asrdayoq “assisa” sudlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, unda nizoli yer masalalari bo‘yicha guvoh sifatida sudga yer uchastkasiga da’vogarlik qilayotgan shaxslarning 12 tadan qo‘shnisi taklif qilingan va ish ular ishtirokida hal qilingan.[5] Hozirda Buyuk Britaniyada yer uchastkasini majburiy olib qo‘yish, majburiy olingan yer uchastkasi uchun kompensatsiya to‘lash masalalarini hamda hukumat va boshqa organlarining yer uchastkasi bilan bog‘liq qarorlari ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi yer tribunallari tashkil etilgan.

AQSHda yerga nisbatan mulk huquqini belgilash bilan bog‘liq nizolar qoida tariqasida umumiy sudlarda ko‘rib chiqiladi. Ijarachilarning yer mulkdorlari bilan bog‘liq nizolari qisman

umumiy sudlar, qisman esa, fermer xo‘jaliklari yoki mahalliy hokimiyat organlari huzurida tashkil etiladigan maxsus vositachilar sudlarida ko‘rib chiqiladi. Yer nizolarining ma’lum qismi Tuproqni muhofaza qilish va yer melioratsiyasi okrug qo‘mitalari tomonidan ko‘rib chiqiladi.[6]

Germaniyada qishloq xo‘jalik sudlari muayyan toifa ishlarni ko‘rib chiqishda sudya va ikkita qishloq xo‘jaligi sohasi mutaxassislari bo‘lgan sud a’zolaridan iborat tarkibda ko‘rib chiqiladi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sud qishloq xo‘jalik ishlari bo‘yicha ikkinchi instansiya sifatida qatnashayotganida uchta sudya va ikkita sud a’zosidan iborat tarkibda ishlarni ko‘rib chiqadi.

Fransiyada yer tuzish bilan bog‘liq nizolar yer tuzish bo‘yicha komissiyalarda, ijara munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar esa, yer paritet tribunallarida ko‘rib chiqiladi. Xususan, Fransiyada umumiy sudlar tizimida ixtisoslashtirilgan yer ijarasi bo‘yicha paritet tribunali faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu tizimning o‘ziga xos xususiyati shundaki, sudyalar sifatida huquqshunoslar emas, balki muayyan faoliyat sohasining mutaxassislari jalb qilingan. Mazkur tribunal 1958-yilda tuzilgan bo‘lib, qishloq xo‘jalik yerlari ijarasiga oid ishlarni ko‘rib chiqadi. Tribunal tarkibiga besh yillik muddatga asessorlar saylanadi (2 ta asessor ijarachi va 2 ta ijaraga beruvchilardan). Asessor sifatida saylanish uchun shaxs kamida 5-yil ijarachi yoki ijaraga beruvchi maqomida bo‘lishi talab qilinadi. Tribunal da’vo qiymati 13 ming frankdan oshmaydigan ishlarni birinchi instansiyada ko‘rib chiqadi. Uning qarori ustidan shikoyat qilib bo‘lmaydi. Basharti, da’vo qiymati 13 ming frankdan oshadigan bo‘lsa, shikoyat apellyatsiya sudining ijtimoiy palatasiga berilishi mumkin. [7]

Bu haqda Fransiya Konstitutsiyasining 6-bobi, 214-moddasida mustahkamlanishicha, “Tijorat, yer va dengiz ishlari bo‘yicha maxsus tribunallar tuziladi; ular joylashishi lozim bo‘lgan joy qonun bilan belgilanadi. Ular besh yuz miriagramm (bir yuz ikki sentner va yigirma ikki funt) bug‘doydan oshmaydigan miqdordagi ishlar bo‘yicha yakuniy qarorlar qabul qilishga vakolatlidir”. [8]

Shotlandiyada yer tribunali fuqarolik sudlari tizimida tashkil etilgan bo‘lib, ularning yurisdiksiyasiga yer bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqish kiritilgan.[9] Tribunal 1949-yilda “Yer tribunali to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi bilan tashkil etilgan. Ushbu Qonun bilan Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiyada ham alohida yer tribunallari tashkil etilgan.[10]

Shotlandiya yer tribunali faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qo‘yidagilardan iborat: yer bitimlari shartlarini o‘zgartirish yoki bekor qilish; fuqarolarning yerga bo‘lgan huquqlarini muhofaza qilish; yer uchastkasi majburiy olib qo‘yilishi yoki jamoatchilik ishi tufayli yer uchastkasi qiymatining yo‘qotilishi munosabati bilan kompensatsiya to‘lash bilan bog‘liq nizolar; nomaishiy binolar reytingini baholash; Shotlandiya ro‘yxatlarni saqlovchisi xatti-harakatlari ustidan shikoyatlar; yerning bahosi to‘g‘risidagi arizalar; Tribunal hakam sifatida qatnashadigan boshqa ixtiyoriy ishlar.

Shotlandiya yer tribunali tarkibi 1949-yildagi “Yer tribunali to‘g‘risida”gi Qonunga binoan rais va uchta a’zodan iborat. Sudda shuningdek, advokat yoki yerni baholash bo‘yicha malakali xodimlar Malakali baholovchilar qirollik institutining shotlandiyalik raisi bilan maslahatlashuvlardan so‘ng Tribunal raisi tomonidan tayinlanadi.[11]

Bunda yer sudlari tarkibini shakllantirishning alohida tartibini ko‘zda tutish maqsadga muvofiq. Ya’ni, bunda professional sudyalar bilan bir qatorda mahalliy hokimiyat vakili (yer masalalari bo‘yicha mutaxassis) va kadastr qo‘mitasi vakili (yer bitimlarini ro‘yxatga olish

bo‘yicha mutaxassis)ni biriktirish yoki ularni ekspert sifatida majburiy jalb etish tartibini ko‘zda tutish ham foydadan xoli bo‘lmaydi.[12] Yer sudlarining vazifasi nafaqat buzilgan huquqlarni tiklash, balki jabrlanuvchi tomonga yetkazilgan zararni to‘la hajmda qoplash ham bo‘lishi darkor.

Yer nizolari sudining tashkil etilishi BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi tomonidan 1998-yil 25-iyunda Orxussda (Daniya) qabul qilingan “Atrof muhitga taalluqli masalalar bo‘yicha axborot olish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovdan foydalanish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi talablariga ham mutanosib bo‘ladi. Xususan, uning 21-rahbariy prinsipi davlat atrof muhitga taalluqli ishlar bo‘yicha huquqni muhofaza qilishning zamonaviy, munosib va samarali usullarini, shu jumladan, vaqtinchalik va doimiy sud taqiqlarini taqdim etish uchun huquqiy tartibga solish tizimini belgilashi lozimligini mustahkamlaydi. Davlat kompensatsiya va restitutsiyadan foydalanish masalalarini hisobga olish lozim.[13]

Ayni damda ekologik yoki yer nizolari bo‘yicha sudlarni tashkil etishda quyidagi 12 ta muhim masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish lozim bo‘ladi: sud turi; yurisdiksiyasi, darajasi, hududiy faoliyati; ish hajmi; protsessual huquq layoqati; xarajatlar; ilmiy va texnik ekspertizadan foydalanish imkoniyati; nizolarni hal qilishning muqobil yo‘llari; sudyaning vakolati; ishlarni boshqarish; qarorni ijro etish va huquqiy muhofaza qilish usullari. [14]

Xulosa qilib aytganda, yer bilan bog‘liq nizolarning sud tartibida ko‘rib hal qilinishi fuqarolarning yerdan foydalanish sohasidagi huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, bu boradagi qonunchilikning takomillashuvi yer nizolarini mazmunan ko‘rib chiqish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Земельное право. Учебник. – М.: Проспект, - 2006. - С. 210-211.
2. Жуманов А.А. Ер низоларини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш муаммолари. юрид. Фанлари номзоди дисс. – Т.: 2008, 15-бет.
3. Иконицкая И.А. Проблема эффективности в земельном праве. – М.: Наука, 1979. – 183 с.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги 3-сонли “Ер кодексини татбиқ қилишда суд амалиётида вужудга келадиган айрим масалалар тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Ахборотномаси 2006 й., 1-сон.
5. Гражданское судопроизводство Англии. – М., 2008.; Интернет сайти: http://ru.wikipedia.org/wiki/Ассизы
6. Природа и пределы гражданских свобод в США // Права человека накануне XXI века. – М., 1994. – С. 286.
7. Арбитражный процесс (Под ред. В.В. Яркова). 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Инфотропик Медиа, 2010. – 880 с.
8. Документы истории Великой французской революции. Т.1. Отв.ред. А.В.Адо. – М.: Издательство Московского университета, 1990.
9. "Home". The Lands Tribunal for Scotland. Retrieved 23 December 2009.
10. "Lands Tribunal Act 1949". Retrieved 23 December 2009.
11. Шотландия ер трибуналининг расмий веб-сайти // www.lands-tribunal-scotland.org.uk/about.html
12. Дикусар В. Земельные суды - в России? // Российская юстиция. – Москва, 2000. – №11.

13. Конвенциянинг расмий сайти: www.unece.org/fileadmin/DAM/env/pp/documents/cep43r.pdf
14. Презентация Субрегиональной встречи по вопросам Орхусской Конвенции. – Алматы, Казахстан, 22 мая 2022 // www.unep.org/DELC/worldcongress

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

FORENSIC CHARACTERISTICS OF CRIMES AGAINST LIFE COMMITTED BY WOMEN: THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES

Gofurova Dilafruz Murod qizi
Senior Lecturer, Academy of Labor and Social Relations
of the Federation of Trade Unions of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Law (PhD) Tashkent, Uzbekistan
E-mail: dilafruz.gofurova.92@mail.ru

Abstract. This article profoundly analyzes the forensic characteristics of crimes against life committed by women within the context of theoretical and practical issues. It elucidates the unique features of female criminality, the causes, motives, methods, and traces of crime from a forensic perspective. Furthermore, it covers specific approaches to finding, identifying, and investigating crime traces, the significance of modern forensic techniques and tactics, and preventive measures based on the opinions of forensic scholars and statistical data. The article also reflects the author's views, challenges in investigative practice, and scientific proposals on the topic.

Keywords: female criminality, crimes against life, forensics, forensic characteristics of crime, crime causes, crime motives, investigation methods, crime traces, prevention, forensic methodology.

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR

G‘ofurova Dilafruz Murod qizi
O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi katta o‘qituvchisi,
yu.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola ayollar tomonidan sodir etiladigan hayotga qarshi jinoyatlarning kriminalistik tavsifini nazariy va amaliy muammolar kontekstida chuqur tahlil qiladi. Unda ayollar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari, jinoyat sodir etish sabablari, motivlari, usullari va izlari kriminalistik aspektdan yoritiladi. Shuningdek, jinoyat izlarini topish, aniqlash va tadqiq qilish bo‘yicha o‘ziga xos yondashuvlar, zamonaviy kriminalistik texnika va taktikaning ahamiyati, kriminalist olimlarning fikrlari va statistik ma’lumotlar asosida profilaktik chora-tadbirlar yoritiladi. Maqolada muallifning mavzuga oid qarashlari, tergov amaliyotidagi qiyinchiliklar va ilmiy takliflari ham aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar jinoyatchiligi, hayotga qarshi jinoyatlar, kriminalistika, jinoyatning kriminalistik tavsifi, jinoyat sabablari, jinoyat motivlari, tergov usullari, jinoyat izlari, profilaktika, kriminalistik metodika.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N33

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish, uning sabab va shart-sharoitlarini chuqur o‘rganish va bartaraf etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Jinoyatchilikning umumiy tuzilmasida ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, ayniqsa inson hayotiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar, o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik va kriminalistik xususiyatlarga ega. Bu turdagi jinoyatlarning fenomenini

anglash, ularning sodir etilish mexanizmlarini tahlil qilish tergov va jinoyatlarni ochish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kriminalistika fanida jinoyatning kriminalistik tavsifi deganda, jinoyatni sodir etish bilan bog‘liq eng muhim ma’lumotlar majmui tushuniladi. Bu ma’lumotlar jinoyatni ochish, tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish uchun asos bo‘ladi. Ayollar tomonidan sodir etiladigan hayotga qarshi jinoyatlarda bu elementlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Jinoyat sodir etuvchi shaxsning kriminalistik xususiyatlari. Ayollarning jinoyat yo‘liga kirishiga olib keluvchi omillar erkaklarnikidan farqlanadi. Jinoyat sodir etgan ayollarning yoshi, ma’lumoti, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli va ruhiy holatini o‘rganish tergov uchun muhim ahamiyatga ega.

Masalan, I.M. Luzginning kriminalistikadagi tadqiqotlarida jinoyat sodir etgan shaxsining tergov faoliyatidagi roliga alohida e’tibor qaratilgan. U jinoyatchini to‘g‘ri aniqlash va jinoiy xulq-atvorning motivlarini tushunish tergovning samaradorligini oshirishini ta’kidlagan [1; 78-b.].

Ko‘p hollarda ayollar o‘ta emotsional yoki affektiv holatda, ruhiy tushkunlik natijasida jinoyatga qo‘l uradilar. Bu N.A. Selivanovning jinoiy motivatsiyani o‘rganish bo‘yicha kriminalistik yondashuvlari bilan ham hamohangdir, u jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini tergov jarayonida hisobga olish zarurligini qayd etgan [2; 112-b.].

Jinoyatning sodir etilish motivlari va maqsadlarining kriminalistik aspektlari. Ayollar tomonidan hayotga qarshi jinoyatlarning motivlari erkaklarnikiga nisbatan ko‘proq ijtimoiy-psixologik va shaxsiy xarakterga ega. Ular odatda qizg‘anchlik, qasd olish (ayniqsa, muntazam zo‘ravonlikka javoban), sharmandalikdan qochish (masalan, noqonuniy tug‘ilgan chaqaloqni yashirish yoki o‘ldirish), oilaviy zo‘ravonlikdan himoyalanish, farzandlarini himoya qilish yoki umidsizlik kabi omillar bilan bog‘liq. Bu motivlarni aniqlash tergov taktikasini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, R.S. Belkinning kriminalistik metodika bo‘yicha ishlarida jinoyat motivlarini aniqlash orqali jinoyatchining **psixologik portreti**ni tuzish va shu asosda tergov versiyalarini ilgari surish mumkinligi ko‘rsatilgan [3; 210-b.]. Maqsad jihatidan, ayollar ko‘pincha o‘ziga yoki farzandlariga qarshi qaratilgan tajovuzni to‘xtatish, ijtimoiy nafratdan qochish kabi maqsadlarda harakat qiladilar.

Jinoyatning sodir etilish usuli, vositalari va izlari. Jinoyatning sodir etilish usuli kriminalistikada asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Ayollar jinoyat sodir etishda odatda kamroq jismoniy kuch talab qiladigan, yashirin va to‘satdan amalga oshiriladigan usullarni tanlaydilar. Masalan:

- **Zaharlash:** Ko‘pincha yashirin va sezdirmasdan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda **sud-kimyoviy ekspertiza**ning ahamiyati juda katta.
- **Bo‘g‘ish:** Odatda yaqin munosabatlardagi shaxslarga nisbatan, ko‘pincha uy sharoitida qo‘llaniladi. Bo‘g‘ish izlarini aniqlashda **sud-tibbiyot ekspertizasi**ning xulosasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.
- **O‘tkir tig‘li buyumlar:** Oshxona pichoqlari, qaychi kabi uy-ro‘zg‘or buyumlaridan foydalanish keng tarqalgan. Bu holatda **trasologik va ballistik ekspertizalar** o‘tkaziladi.
- **Suvga cho‘ktirish:** Ayniqsa, chaqaloqni o‘ldirishda kuzatiladi.

- **Qarovsiz qoldirish:** Chaqaloqni o‘ldirishning passiv usuli. Bu usullarning o‘ziga xos xususiyatlari jinoyatni ochishda tergovchiga muhim ma’lumot beradi va **A.R. Shlyaxov** ta’kidlaganidek, **kriminalistik tavsif**ning asosiy qismini tashkil etadi [4; 188-b.].

Bizning fikrimizcha, jinoyat izlari va ularni aniqlash usullari tergovchi uchun muhim ahamiyatga ega:

- **Barmoq izlari, poyabzal izlari:** Jinoyat sodir etilgan joydan topiladigan klassik izlar.
- **Biologik izlar:** Qon, soch, tupuk, sperma, teri zarralari – ular orqali DNK tahlili o‘tkazish jinoyatchini aniqlashda katta yordam beradi. V.A. Obrazsov kriminalistikada biologik izlarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan [5; 245-b.].
- **Asbob izlari:** Jinoyat sodir etishda foydalanilgan buyumlarning izlari.
- **Elektron izlar:** Mobil telefon qo‘ng‘iroqlari, SMS xabarlar, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat. Ayollar ko‘pincha jinoyat izlarini yashirishga yoki yo‘q qilishga harakat qiladilar, bu esa zamonaviy kriminalistik texnika (masalan, lyuminessent usullar, maxsus reagentlar) va tergov taktikasi (masalan, to‘g‘ri so‘roq qilish, poligraf tekshiruvi)ni qo‘llashni talab etadi.

Jinoyatning sodir etilish vaqti va joyi. Ko‘p hollarda ayollar tomonidan hayotga qarshi jinoyatlar uy sharoitida, ya’ni yashash joyida yoki unga yaqin hududlarda sodir etiladi. Bu, ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlik yoki shaxsiy adovat zamiridagi jinoyatlar uchun xosdir. Jinoyatning vaqti, ya’ni kechasi yoki kunduzi, dam olish kunlari sodir etilishi ham uning kriminalistik tavsifini belgilashda muhimdir.

A.N. Vasilev va N.P. Yablokov o‘zlarining “Predmet, sistema i teoreticheskiye osnovы kriminalistiki” nomli fundamental asarida jinoyat sodir etilgan joy va vaqtning tergov versiyalarini ilgari surishdagi ahamiyatini batafsil yoritib berganlar. Ularning fikricha, jinoyat sodir etilgan joyning xususiyatlari (masalan, turar joy, jamoat joyi, qarovsiz hudud) va jinoyatning aniq vaqti (masalan, kunduzi yoki kechasi, ish kuni yoki dam olish kuni) jinoyatchining shaxsini, uning harakat motivlarini, jinoyatga tayyorgarlik darajasini va vositalarini aniqlashda muhim mantiqiy zanjirlarni yaratadi. Shuningdek, jinoyat joyi va vaqti tergovchiga jinoyatchining yashash joyi, ish faoliyati yoki ijtimoiy doirasi haqida dastlabki taxminlarni ilgari surishga imkon beradi, bu esa tezkor-qidiruv tadbirlari yo‘nalishini belgilashda juda muhimdir [6; 98-b.].

Bugungi kunda Ayollar tomonidan sodir etilgan hayotga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda bir qator kriminalistik muammolar yuzaga keladi:

Motivlarni aniqlashdagi qiyinchiliklar. Jinoyatning shaxsiy va ruhiy asoslarini aniqlash uchun chuqur psixologik tahlil talab etiladi. Bunda sud-psixologik va sud-psixiatrik ekspertizalarning roli kattadir. Chunki, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, ayniqsa hayotga qarshi jinoyatlar, ko‘pincha chuqur ichki kechinmalar, emotsional stress, uzoq muddatli ruhiy bosim yoki oilaviy zo‘ravonlik kabi omillar natijasida sodir bo‘ladi. Bunday holatlarda standart tergov usullari bilan jinoyatning asl motivlarini to‘liq aniqlash qiyin kechadi. Sud-psixologik ekspertiza jinoyatchining ruhiy holatini, affektiv holatda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini, uning harakatlariga ta’sir qilgan ruhiy jarayonlarni o‘rganish orqali motivlarni ochishga yordam beradi. Sud-psixiatrik ekspertiza esa jinoyatchining ruhiy sog‘ligini, jinoyat sodir etish vaqtida aqli raso bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu ekspertizalarning xulosalari tergovchiga jinoyatning to‘liq manzarasini tiklash va to‘g‘ri yuridik baho berishda asos bo‘ladi.

Izlarni yashirishga urinishlar: ayollar jinoyat izlarini yo‘q qilishda ehtiyotkor bo‘lishlari mumkin, bu esa jinoyat sodir etilgan joyni sinchiklab ko‘zdan kechirishni, zamonaviy kriminalistik texnika va usullarni qo‘llashni taqozo etadi. I.F. Gerasimovning fikriga ko‘ra, jinoyat izlarini to‘liq aniqlash uchun kompleks yondashuv va kriminalistik texnikaning yuqori darajada rivojlanishi zarur. Ayollar ko‘pincha jinoyatni yashirish maqsadida jinoyat izlarini (masalan, qon, barmoq izlari, qurol) tozalash, jinoyat qurolini yashirish yoki yo‘q qilish, jasadni boshqa joyga ko‘chirish kabi harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. Bunday vaziyatlarda jinoyat sodir etilgan joyni eng kichik izlarni ham o‘tkazib yubormasdan, puxta ko‘zdan kechirish, maxsus kriminalistik asbob-uskunalar (masalan, ultrabinafsha va infraqizil nurlar, lyuminessent reagentlar)dan foydalanish talab etiladi. Shuningdek, kichik zarrachalar, tolalar, tuproq namunalari kabi mikroizlarni ham to‘plash va ularni fizika-kimyoviy ekspertiza orqali tahlil qilish jinoyatchini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi [7; 156-b.].

Guvohlar ko‘rsatmalarining subyektivligi: Oilaviy jinoyatlarda guvohlar (qarindoshlar) ko‘pincha obyektiv ma’lumot berishdan bosh tortishlari mumkin, bu esa psixologik yondashuvni va N.T. Vedernikov tomonidan ilgari surilgan so‘roq taktikasi prinsiplarini talab qiladi. Oilaviy munosabatlarda sodir bo‘lgan jinoyatlarda guvohlar jinoyatchiga nisbatan shaxsiy aloqalari yoki qo‘rquv tufayli noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ko‘rsatmalar berishi mumkin. Bunday holatlarda tergovchi guvohlar bilan psixologik aloqa o‘rnata olishi, ularning ishonchini qozonishi va xolis ma’lumot berishga undashi kerak. N.T. Vedernikov o‘z tadqiqotlarida so‘roq jarayonida psixologiyaning ahamiyatiga urg‘u berib, guvohning ruhiy holatini hisobga olish, unga bosim o‘tkazmaslik va ko‘rsatmalaridagi ziddiyatlarni ehtiyotkorlik bilan aniqlash zarurligini ta’kidlagan. Shuningdek, guvohlarning ko‘rsatmalarini boshqa dalillar (moddiy dalillar, ekspertiza xulosalari) bilan taqqoslash, ularning ishonchliligini tekshirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tergov amaliyotida poligraf tekshiruvi ham guvohlarning rostgo‘yligini aniqlashda qo‘shimcha vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin, ammo uning natijalari dalil sifatida emas, balki yo‘naltiruvchi ma’lumot sifatida qabul qilinadi. [8; 89-b.].

O‘rganishlarimiz shuni taqozo etmoqdaki, bu muammolarni hal etish uchun tergov amaliyotida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Kompleks ekspertizalarni faol qo‘llash. Sud-tibbiyot, sud-biologik, trasologik, ballistik, genetik (DNK) va psixologik-psixiatrik ekspertizalarni kompleks tarzda tayinlash jinoyatni obyektiv o‘rganish imkonini beradi. Bugungi kunda jinoyatlarni ochishda dalillarning ilmiy asoslanganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasida, xususan, Germaniya, AQSH va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda jinoyat ishlarini tergov qilishda multidissiplinar yondashuv keng qo‘llaniladi. Bunda nafaqat jinoyatning moddiy izlari, balki jinoyatchining ruhiy holati, qurbonning psixologik profili kabi omillar ham chuqur o‘rganiladi. Masalan, genetik (DNK) ekspertizalar orqali voqea joyidan olingan eng kichik biologik izlardan ham jinoyatchining shaxsini aniqlash imkoniyati keskin oshgan. Sud-psixologik ekspertizalar jinoyatning sodir etilish motivlari, ayniqsa affektiv holatda sodir etilgan jinoyatlarni baholashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu ekspertizalar tergovchilarga jinoyatning to‘liq va obyektiv manzarasini yaratishda, shuningdek, sudda dalillarning mustahkamligini ta’minlashda yordam beradi.

Ilg‘or kriminalistik texnikani joriy etish. Jinoyat izlarini topish va tahlil qilishda zamonaviy uskunalar va texnologiyalardan (masalan, kompyuter kriminalistikasi) foydalanish. Zamonaviy kriminalistika yuqori texnologiyalarga asoslangan usullarsiz tasavvur etib

bo‘lmaydi. Rivojlangan davlatlarning kriminalistika laboratoriyalarida avtomatlashtirilgan barmoq izlarini identifikatsiya qilish tizimlari (AFIS), raqamli kriminalistika (digital forensics) uskunalari, 3D-lazerli skanerlar yordamida jinoyat sodir etilgan joyning to‘liq aksini yaratish, shuningdek, spektroskopiya, xromatografiya va mass-spektrometriya kabi usullar yordamida noyob moddiy izlarni tahlil qilish keng qo‘llaniladi. Masalan, kompyuter kriminalistikasi mobil telefonlar, kompyuterlar va boshqa elektron qurilmalardagi ma’lumotlarni (xatlar, xabarlar, audio va video yozuvlar) qayta tiklash va tahlil qilish orqali jinoyatga oid muhim dalillarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Bunday texnikalar jinoyat izlarini maksimal darajada to‘liq va aniq yig‘ish hamda tahlil qilish orqali tergov sifatini oshiradi.

Tergovchilarning malakasini oshirish. Ayollar jinoyatchiligining psixologik va kriminalistik xususiyatlari bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish. Jinoyatlarni samarali tergov qilishda tergovchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jahonning yetakchi huquqni muhofaza qilish akademiyalarida ayollar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning psixologiyasini, jinoyat sodir etish motivlari va usullarini o‘rgatuvchi maxsus kurslar tashkil etilgan. Bu treninglarda tergovchilarga affektiv holatdagi ayollar bilan so‘roq o‘tkazishning o‘ziga xos jihatlari, to‘g‘ri psixologik yondashuv, shuningdek, ayollar tomonidan yashirilgan izlarni topish va tahlil qilish bo‘yicha ilg‘or metodikalar o‘rgatiladi. Bundan tashqari, jinoyat profillashtirishi (criminal profiling) usullarini o‘rgatish ham tergovchilarga jinoyatchining shaxsini aniqlashda va tergov versiyalarini shakllantirishda katta yordam beradi. Malaka oshirish kurslarida xalqaro tajriba almashinuvi, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali tergovchilarning kasbiy darajasini muntazam ravishda yuksaltirib borish lozim.

O‘zbekistonda ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, jumladan, hayotga qarshi jinoyatlarning statistikasi muntazam ravishda tahlil qilib boriladi. Jumladan, **O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi** tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, **qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd qilish jinoyati sodir etganligi aniqlangan shaxslardan ayollarning ulushi** quyidagicha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan:

- **2021-yilda** – 10,9%
- **2022-yilda** – 9,8%
- **2023-yilda** – 6,8%
- **2024-yilda** – 11,4%

Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tomonidan sodir etilgan hayotga qarshi jinoyatlarning ulushi yillar davomida o‘zgarib turgan. Xususan, **2023-yilda eng past ko‘rsatkich** (6,8%) qayd etilgan bo‘lsa, **2024-yilda** bu ko‘rsatkich yana **sezilarli darajada oshgan**. Bu o‘zgarishlar. **kriminalistik tahlilni** talab etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar jinoyatlarning **dinamikasini** o‘rganish, **profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini baholash** va **kriminalistik tavsifni takomillashtirish** uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur statistika O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan har yili taqdim etiladigan hisobga qo‘yilgan jinoyatlar statistikasi ma’lumotlari asosida shakllantirilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ayollar tomonidan sodir etiladigan hayotga qarshi jinoyatlarning oldini olishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurash tizimini takomillashtirish, jumladan, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosini kuchaytirish, himoya orderlari tizimining samaradorligini oshirish, zo‘ravonlik qurbonlari uchun

reabilitatsiya markazlarini rivojlantirish zarur. Bu kabi choralar ayollarning affektiv holatda jinoyat sodir etish xavfini kamaytiradi.

Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda bandlikni ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozlar yaratish, moddiy qiyinchiliklarni kamaytirishga yordam berish lozim. Ijtimoiy ahvolning yaxshilanishi jinoyatchilik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ruhiy va psixologik yordam tizimini yo‘lga qo‘yish jarayonida depressiya va stress holatidagi ayollarga o‘z vaqtida psixologik konsultatsiya va terapiya xizmatlarini ko‘rsatish kerak. Bu jinoyatning asosiy motivlaridan biri bo‘lgan ruhiy buzilishlarning oldini olishga yordam beradi.

Jinoyat sodir etgan ayollarning huquqiy savodxonligini oshirishni davom ettirish lozim. Ayollarning o‘z huquqlari va majburiyatlarini bilishi, jinoiy javobgarlikning og‘ir oqibatlaridan xabardor bo‘lishi uchun ma’rifiy tadbirlarni doimiy ravishda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Лузгин, И.М. (1974). *Расследование преступлений по горячим следам*. Москва: Юридическая литература. [1; 78-б.]
2. Селиванов, Н.А. (1987). *Криминалистика: Вопросы и ответы*. Москва: Юридическая литература. [2; 112-б.]
3. Белкин, Р.С. (2000). *Криминалистика: проблемы, тенденсии, перспективы*. Москва: Юнити-Дана. [3; 210-б.]
4. Шляхов, А.Р. (1977). *Криминалистика: Учебник для вузов*. Москва: Юридическая литература. [4; 188-б.]
5. Образсов, В.А. (1995). *Криминалистика: Учебное пособие*. Москва: Юнити. [5; 245-б.]
6. Василев, А.Н., Яблоков, Н.П. (1989). *Предмет, система и теоретические основы криминалистики*. Москва: Московский государственный университет. [6; 98-б.]
7. Герасимов, И.Ф. (1982). *Понятие, виды и значение криминалистических версий*. Свердловск: СЮИ. [7; 156-б.]
8. Ведерников, Н.Т. (1998). *Личност обвиняемого и подсудимого: криминалистические проблемы*. Томск: Томский государственный университет. [8; 89-б.]
9. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (lib.stat.uz) ma’lumotlari. *Qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd qilish jinoyati sodir etganligi aniqlangan shaxslardan ayollarning ulushi*. [9; 7-b.]

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

ISSUES RELATED TO THE PROSECUTOR'S SUBMISSION AND WAYS TO SOLVE THEM

Komilov Avazbek Bokijonovich
The Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan,
Head of Department, PhD in Law, Associate Professor

Abstract. This article is devoted to the issues of solving problems related to the application of the prosecutor's submission in the practice of of supervising the execution of laws. The author discusses a number of systemic problems associated with the prosecutor's submission used in the direction of supervising the execution of laws. These include: indicating in the submissions that the execution of documents that are not regulatory is checked, submitting presentations to a body (an official) that does not have the authority to eliminate the violation of the law, failure to properly monitor the execution of the submitted presentations, failure to ensure the participation of prosecutor's office employees in the discussion of submission. The author has developed scientifically based proposals to solve these problems.

Keywords: prosecutor, acts of prosecutorial supervision, prosecutor's submission, violation of the law, reason, condition.

PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

Komilov Avazbek Bokijonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
kafedra boshlig‘i, yu.f.f.d.(PhD), dotsent
E-mail: komilov02011985@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola qonunlar ijrosi ustidan nazorat amaliyotida prokuror taqdimnomasini qo‘llash bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada muallif qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida qo‘llaniladigan prokuror taqdimnomasi bilan bog‘liq tizimli muammolar haqida so‘z yuritadi. Ularga: taqdimnomalarda normativ hisoblanmaydigan hujjatlar ijrosi tekshirilganligini ko‘rsatish, taqdimnomalarni qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo‘lmagan organga (mansabdor shaxs) kiritish, kiritilgan taqdimnomalar ijrosini lozim darajada nazorat qilmaslik, taqdimnoma muhokamasida prokuratura xodimlarining ishtiroki ta’minlanmasligi kabilarni kiritadi. Muallif tomonidan ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan хулоса ва takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: prokuror, prokuror nazorati hujjatlari, prokuror taqdimnomasi, qonun buzilishi, sabab, shart-sharoit.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N34

O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga asosan, prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo‘lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi. Taqdimnoma darhol ko‘rib chiqilishi va ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma’lum qilinishi lozim [1].

Taqdimnoma qonunlar ijrosi yuzasidan o‘tkaziladigan prokuror tekshiruvlari yakuniga ko‘ra amaliyotda nisbatan ko‘proq murojaat qilinadigan nazorat hujjati sanaladi. Xususan, prokuratura organlari tomonidan 2024-yilda qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida qo‘llanilgan jami 133 ming ortiq prokuror nazorati hujjatlarining 19160 tasi yoki 14 foizini taqdimnoma tashkil etgan.

Biroq, tadqiqot jarayonida prokuror taqdimnomalarini o‘rganish shundan dalolat berdiki, taqdimnomani tayyorlash, kiritish va uni ijrosini nazorat qilish borasida ko‘plab tizimli kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. O‘z navbatida, ushbu tizimli xato va kamchiliklar kiritilayotgan taqdimnomalarning sifati, samaradorligi va ta’sirchanligiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Chunonchi, taqdimnoma nazorat hujjati bilan bog‘liq yo‘l qo‘yilayotgan xato-kamchiliklarga quyidagilarni kiritish mumkin bo‘ladi:

birinchidan, taqdimnomalarda o‘z kuchini yo‘qotgan normativ — huquqiy hujjatlar ijrosi tekshirilganligi ko‘rsatilgan;

ikkinchidan, taqdimnomalarda prokurorlar tomonidan tekshirilayotgan sohaga doir munosabatlarni tartibga soluvchi aniq normativ — huquqiy hujjatlarni emas, balki normativ hisoblanmaydigan hujjatlar, jumladan, korxona, muassasa va tashkilotlarning ta’sis hujjatlari yoki Bosh prokuror sohaviy buyruqlari ijrosi tekshirilganligi ko‘rsatilgan;

uchinchidan, ba’zi hollarda taqdimnomalar qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo‘lmagan organ yoki mansabdor shaxsga kiritilgan;

to‘rtinchidan, hisobot ko‘rsatkichlarini sun’iy oshirib ko‘rsatishga urinish oqibatida bir xil mazmundagi taqdimnomalarni bir necha organ yoki mansabdor shaxsga kiritish holatlari ham aniqlangan;

beshinchidan, ayrim holatlarda prokurorlar tomonidan kiritilgan taqdimnomalar ijrosi lozim darajada nazorat qilinmagan, ularni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha mas’ul idoralar tomonidan berilayotgan javoblarga tegishli baho berilmay, shunchaki tekshirish materialiga qo‘shib qo‘yish bilan cheklanilgan;

oltinchidan, Bosh prokurorning 12.09.2017 yildagi 140-son buyrug‘ining nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha kiritilgan taqdimnomalar muhokamasida prokuratura organlari xodimlarining ishtiroki majburiyligi haqidagi talablarga to‘liq rioya qilinmagan;

yettinchidan, taqdimnomalarda qonunbuzilishida aybdor shaxslar aniq ko‘rsatilmagan, ularning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ravshan ochib berilmagan *(ushbu kamchilik o‘rganilgan taqdimnomalarning 25 foizida uchragan*);

sakkizinchidan, taqdimnomalarning tavsif-asoslantirish qismida prokuror talablari kuchsiz asoslantirilgan *(o‘rganilgan prokuror taqdimnomalarning 20 foizida uchragan*);

to‘qqizinchidan, taqdimnomalarning xulosa qismida prokurorning qonunbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan talablari iltimosnoma tarzida shakllantirilib, “tegishli chora-tadbirlar qabul qilinsin” tarzidagi umumiy jumlalardan foydalanilgan, prokuror pozitsiyasi aniq ifodalanmagan (*o‘rganilgan taqdimnomalarning 30 foizida uchragan)*.

Shu o‘rinda qayd etish o‘rinliki, amaliyotda prokuror taqdimnomasini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq eng keng tarqalgan muammo shundaki, taqdimnomada ko‘rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar bartaraf etish to‘g‘risidagi prokuror talablari ko‘pincha haqiqatda bajarilmay bajarilmay qolmoqda[2].

Mazkur salbiy holat taqdimnomada ko‘rsatilgan talablarning majburiy ijro etish kuchiga ega emasligi bilan uzviy bog‘liq, nazarimizda. Bu masalada E.Islamova va I.Imanovlarning fikricha, prokuror taqdimnomasi va protestida ko‘rsatilgan talablarning majburiy ijro etish kuchiga ega emasligi, tabiiyki, ularning samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, ba’zi olimlar prokurorning qonun bilan berilgan vakolatlardan kelib chiquvchi barcha talablarining ijrosi majburiy ekanligiga oid normani “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilishi lozimligini ta’kidlashadi [3].

Nazarimizda, ushbu muammoni keltirib chiqarayotgan yana bir sabab shundaki, aksariyat taqdimnomalarning xulosa qismida prokuror tomonidan qonunbuzarlikni bartaraf etishning aniq usuli ko‘rsatilmasdan, “yo‘l qo‘yilgan qonun buzilishi bartaraf etilsin” yoki “aniqlangan qonun buzilishini bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rilsin” kabi umumiy mazmundagi talablar ko‘rsatiladi [4].

Vaholanki, prokuror taqdimnomasi darhol ko‘rib chiqilishi va ko‘rib chiqilgan kundan boshlab 30 kun ichida unda ko‘rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinishi shart va bu prokuror tomonidan qat’iy nazorat qilinishi lozim. Ammo, amaliyotda ushbu talabga rioya etilishi ustidan nazorat lozim darajada amalga oshirilmasligi oqibatida, yuqoridagi kabi jiddiy kamchiliklar sodir bo‘lmoqda.

Chunonchi, tadqiqot jarayonida olib borilgan o‘rganishlarda Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahar prokuratura organlari tomonidan tekshirish natijalari bo‘yicha kiritilgan taqdimnomalarga asosan ko‘rilgan choralar ustidan yetarlicha nazorat o‘rnatilmaganligi oqibatida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish yuzasidan mutasaddi idoralar tomonidan chora-tadbirlar amalga oshirilmasdan qolib ketganligi aniqlangan.

Masalan, Piskent tumani prokuraturasi tomonidan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha tuman inspeksiyasi va “Toza hudud” DUK faoliyatini tekshirish natijalari bo‘yicha 20 dan ortiq qonunbuzarliklar, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarmaslik holatlari aniqlanib, 01.03.2019-yilda inspeksiya boshlig‘i nomiga taqdimnoma kiritilgan. Biroq, ushbu taqdimnomani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha inspeksiya tomonidan yuborilgan javob xatida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan xodimlar intizomiy javobgarlikka tortilganligini ma’lum qilish bilan cheklanilgan. Vaholanki, taqdimnomada ko‘rsatilgan qonun buzilishi holatlari bartaraf qilinmagan yoki ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmagan.

Umuman olganda, prokuror taqdimnomasida ko‘rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi prokuror talablarining umuman yoki lozim darajada ijro etilmasligi qonuniylik ahvolining yomonlashuviga, fuqarolarning huquq hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarining ta’minlanmasligiga olib keladi.

Bizningcha, yuqorida qayd etilgan muammoning yechimi sifatida “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 40-moddasiga prokuror taqdimnomasida ko‘rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi prokuror talablarining ijro etilishi majburiyligi, taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida mazkur qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha aniq

chora-tadbirlar qabul qilinishi shart ekanligini nazarda tutuvchi norma kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, bu kabi mazmundagi norma “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasida uchraydi. Xususan, ushbu moddaga ko‘ra, davlat xavfsizlik xizmati davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega hisoblanadi[5].

Shuningdek, xorij tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, yuqoridagi mazmundagi normalar MDHga a’zo mamlakatlarning “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunlarida ko‘plab uchraydi.

Misol uchun, bu kabi huquqiy normalar “Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi[6], “Belarus Respublikasi prokuraturasi to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasi[7], “Turkmaniston prokuraturasi to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi[8], “Tojikiston Respublikasi prokuraturasi to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasi[9]da ham o‘z aksini topgan.

Umuman olganda, nazorat amaliyotida prokuror taqdimnomasini qo‘llash bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish natijasiga ko‘ra, prokuror nazorat amaliyoti, olimlarning qarashlari va xorijiy tajribadan (*Rossiya, Belarus, Tojikiston, Turkmaniston*) kelib chiqqan holda, prokuror taqdimnomasining sifati, samaradorligi va ta’sirchanligini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasini prokuror taqdimnomasida ko‘rsatilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi prokuror talablarining bajarilishi majburiyligi, taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilinishi shartligini nazarda tutuvchi norma bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2025 y., 03/25/1022/0083-son.
2. Алхутова Е.Ю. Прокурорский надзор за исполнением законов об административной ответственности за правонарушения в сфере экономики: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2013. – С. 165.
3. Исламова Э.Р. Проблемы реализации полномочий прокурора при осуществлении «общего надзора» // «Крымский научный вестник», №1 (7) / 2016. – С. 230-233; Иманов И.А. Система и эффективность актов прокурорского надзора в противодействии коррупции в Республике Казахстан // «Юридическая наука и правоохранительная практика», №4 (34) / 2015. – С. 193.
4. Алхутова Е.Ю. Прокурорский надзор за исполнением законов об административной ответственности за правонарушения в сфере экономики: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2013. – С. 165.

5. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.02.2024 y., 03/24/909/0133-son.
6. Федеральный закон Российской Федерация «О прокуратуре Российской Федерации» // Электрон манба: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_262/?ysclid=m8yr6z9f63262442322. (мурожаат вақти: 01.04.2025).
7. Закон Республики Беларусь «О прокуратуре Республики Беларусь» // Электрон манба: https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=H10700220. (мурожаат вақти: 01.04.2025).
8. Закон Туркменистана «О прокуратуре Туркменистана» (новая редакция) // Электрон манба: https://mejlis.gov.tm/single-law/144?lang=ru. (мурожаат вақти: 01.04.2025).
9. Конституционный Закон Республики Таджикистан «Об органах прокуратуры Республики Таджикистан» // Электрон манба: http://www.prokuratura.tj/legislation-rus/49-the-constitutional-law-of-the-republic-of-tajikistan.html. (мурожаат вақти: 01.04.2025).

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN

Juraeva Asal
Lecturer
Department of Administrative and Financial Law
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyses the main obstacles to the enforcement of International Commercial Arbitration (ICA) awards in Uzbekistan. Although arbitration is a developing institution in the country, procedural gaps, inconsistent legislation, lack of electronic classification, and limited international cooperation hinder the effectiveness of enforcement. Special attention is given to the ambiguity surrounding the concept of public policy (PP), which poses risks of subjective interpretation by national courts. The study suggests reforms for unified procedures, clearer legal definitions, and more structured data collection to strengthen ICA enforcement mechanisms.

Keywords: ICA awards, enforcement, Uzbekistan, arbitration, public policy, international treaties, judicial cooperation, legal uncertainty.

O‘ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT ARBITRAJ (XTA) QARORLARINI IJRO ETISHDAGI TO‘SIQLAR

Juraeva Asal
O‘qituvchi
Ma’muriy va moliya huquqi kafedrasi
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda Xalqaro tijorat arbitraj (XTA) qarorlarini ijro etishdagi asosiy to‘siqlar tahlil qilinadi. Garchi arbitraj institutlari rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, protsessual qonunchilikdagi bo‘shliqlar, yagona tartibning yo‘qligi, elektron tizimlarda noto‘g‘ri tasniflash va xalqaro hamkorlikning cheklanganligi XTA qarorlarini samarali ijro etishga to‘sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, “jamoat tartibi” (public policy) tushunchasining aniq belgilanmagani milliy sudlar tomonidan subyektiv talqin qilinish xavfini tug‘diradi. Muallif XTA qarorlarini ijro etish tizimini mustahkamlash uchun yagona tartib, aniq huquqiy ta’riflar va tizimli ma’lumot to‘plash zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: XTA qarorlari, ijro etish, O‘zbekiston, arbitraj, jamoat tartibi, xalqaro shartnomalar, sudlar hamkorligi, huquqiy noaniqlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N35

ICA is a new institution in Uzbekistan. Although, there were arbitration courts within the national level but they were just mere competitors to the state economic courts. There has not been such an international practice dealing with international commercial disputes in the country.[1] Compared to other CIS countries, ICA is one the youngest and rapidly progressing alternative dispute settlement system in Uzbekistan. In spite of constant progress of arbitration, interrelated systematic problems exist within the enforcement phase of ICA awards.[2] First, there is no unified procedure and regulations for the recognition and enforcement of ICA awards. Local bureaucracies can be the next big problem for the

enforcement of ICA awards in country. Following problems are inappropriateness of collecting information about this category of cases, ambiguous content of the state PP and the low level of interaction of state courts on issues of enforcement of awards constitute the biggest challenges for the further development of arbitration and Uzbekistan as a whole.[3]

1） Nonexistence of the clear procedure

One of the key problems is the lack of detailed information on the procedure for the enforcement of ICA awards in a simplified and understandable form.[4] The order of process should be exclusively presented in the procedural legislation of Uzbekistan. National legislation is presented in Russian and Uzbek languages, without translation in English. As a result of the lack of such information on the procedure for recognizing and enforcing ICA awards applications for the recognition and enforcement are sent to various bodies, including the Supreme Court of Uzbekistan, Ministry of Justice, Ministry of Foreign Affairs, General prosecutor's office or the Bureau of Compulsory Enforcement under the General Prosecutor's Office of Uzbekistan. These circumstances force the indicated departments to redirect or clarify the procedure for the enforcement of ICA awards which leads to an increase in the time length and reduce the confidence in judicial system of the country.[5]

Information system implemented in civil courts which allow to fill applications in electronic form, do not contain such type of appeal as "for recognition and enforcement of a foreign court decisions or arbitral award".[6] A similar system implemented in economic courts, although it contains this type of appeal but classifies it as "a claim proceeding" which is misleading in terms of the procedure for considering such applications.

2） Lack of unified procedural legislation

Existing differences in EPC and CPC of Uzbekistan do not contribute to the formation of unified judicial practice. One can note that applications for the enforcement of ICA awards are considered by second-tier courts in economic cases1 while such applications are considered by first-tier level civil court.[7] Next difference is the established time period for considering such cases, in economic courts it is six months and one month in civil courts (from the date of receipt of an application).[8]

Significant difference that causes difficulties include the grounds for declining to enforce ICA awards provided in EPC and CPC of Uzbekistan. If Art. 370 of CPC combines in one article the grounds for refusing a "decision of a foreign court or arbitral award", EPC contains two separate articles providing basis for declining to recognize and enforce a decision of a foreign state court (Art. 255) and arbitral award (Art. 256). Moreover, international treaties of the Republic of Uzbekistan contain various grounds for refusing the enforcement of decisions of foreign state courts (such as Minsk Convention) and foreign arbitral awards (NYC).[9] It should be noted that if there is a conflict between international treaty and national laws, international treaties prevail (those Uzbekistan is a member).

Under Art. 328 of the Tax Code of Uzbekistan, applications for the enforcement of ICA awards are classified as objects of state duty collection. Confirmation of the payment and postage must be attached to the application, unless otherwise provided by an international treaty of Uzbekistan. Such reference places responsibility for determining the need to pay the state fee on interested parties.[10] At the same time, it is not possible to independently determine the amount of the state duty due to the lack of relevant norms in the rates of the state duty, as well as information on websites of authorized bodies.[11]

3）Inappropriateness of collecting information about this category of cases

As noted above, the information systems of civil courts that allow to fill applications to courts in electronic form do not contain such type of appeal as an “application for recognition and enforcement of an arbitral award”, and a similar system implemented in economic courts, although it contains this type of appeal but classifies it as “a claim proceeding”.[12] As a result, the bank of decisions of courts in civil cases posted on the website of Supreme Court of Uzbekistan does not allow to form a list of cases on this category. Consequently, an inappropriate classification of this type of application on recognition and enforcement, the bank of decisions of economic courts incorrectly indicate them as decisions or a ruling to terminate a case.1 Considering that such information systems are aimed, among other things, at collecting complete and reliable information on the activities of state courts considering applications on recognition and enforcement, in the absence of such a category of applications or incorrect classification of such a category of cases lead to an incomplete collection of information. This situation results in the need for manual collection of information on these types of cases.[13]

In addition, if such category of applications will be separated as “an application for the recognition and enforcement of an arbitral award” and the list of documents that should be attached with an application will be clearly indicated, then it would be more convenient to fill such applications in state courts and it could be simple to categorize and collect such decisions of state courts in Uzbekistan.

4）Issues of interaction on recognition and enforcement

Art. 36 of the Law “On International Treaties of the Republic of Uzbekistan” requires monitoring the enforcement of courts decisions and arbitral awards on the territory of Uzbekistan and in other countries. The reciprocity principle requires similar monitoring in countries with which Uzbekistan does not have agreements governing the procedure for the enforcement of state court decisions and arbitral awards. The existence of an effective mechanism for interaction of the judicial system of Uzbekistan with other countries (primarily with CIS countries) can become the basis for a dialogue between judicial systems to improve legislation, thereby increase the reputation of Uzbekistan at the regional and international level. The absence or inefficiency of such a mechanism can negatively affect rights and interests of citizens and business entities of Uzbekistan in the enforcement of decisions of national courts and arbitral awards in abroad.[10]

5）Ambiguous content of the state PP

Art. 5 of NYC lists grounds for refusing to enforce an ICA award including the violation of PP of a country. However, in provisions of the current legislation of Uzbekistan, a clear definition of PP and the criteria by which a decision is considered contrary to it are not vividly defined. It should be noted that the number of refusals in recognition and enforcement is currently at a low level. Moreover, there is no such information that national courts declined the enforcement of an ICA award on this basis.[10] Nevertheless, the absence of a clear concept of “PP” in the legislative norms and criteria for determining contradiction with PP may further lead to different interpretations of the norms in judicial practice of Uzbekistan.

PP doctrine, being a substantial concept in many jurisdictions, is also among the evasive concepts given the contrary to practical application in the case law and complicated literature that is argued before many judges at different multinational levels.[14] As a notion, PP has a

vital impact on the execution of ICA awards in many adaptable ways. Following examples are the delicacy of this impact and can easily be observed at any stage of arbitration process:

At earlier stage, applicability of PP rules might be found imperative by arbitral tribunal because it might have considerable impact on their verdict.

• Secondly, if resulting award violates national PP rules, the concerned court of country which has authority over arbitration process, may deny supporting arbitration process or refuse validation of an arbitration agreement and award.

• Finally, in case of foreign award consideration, if there is contradiction with PP of concerned state, a national court may not recognize a foreign award under consideration.[15] This final stage has special significance because of critical nature of ICA awards. In case of misalignment with scope of state supervision, re-investigation for validation of an arbitrary award may be done by courts in line with conformity of mandatory rules. This can also endanger an award to be a subject to a broader scope of feasible basis for nullification or challenge.

Basic concept of PP and traditional categorization of PP rules into domestic and international rules are discussed in this chapter in detail.[16] Furthermore, applicability of various PP rules and detailed discussion about pros and cons of these rules is also provided.

The extent of PP is subject to a range of interpretations not only by courts of Uzbekistan but also by courts of various nations, as can be seen by below analysis. Whether it is possible to achieve a clear description of this term, in particular cases regarding to the enforcement of ICA awards and whether it is possible to find approval of the notion of international PP (hereinafter IPP) or not will be discussed below. Many matters are still need to be addressed in this regard. The following chapters will analyze the overall content of PP. By distinguishing the notion of foreign PP in national affairs and IPP, a difference will also be made between PP tests. This can be used in foreign treaties that would limit judicial interference to ICA awards to a minimum.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Born G B. International Commercial Arbitration (Second Edition) [M], Kluwer arbitration (10): 3394–3731. Netherlands, 2014.
2. Gallie W. Essentially Contested Concepts. Proceedings of the Aristotelian Society[M]. Oxford University Press, 1956, Volume 56. London. [2021–01–10]. https://www.jstor.org/stable/4544562?seq=1#metadata_info_tab_contents
3. Maurer G A. Public Policy Exception Under The New York Convention [M], Juris, New York 2013. [2021–01–10].
4. Karabelnikov B, Pellew D. Enforcement of International Arbitration Awards in Russia[J], ICC International Court of Arbitration Bulletin, Vol 19, No. 1. Moscow, 2008. [2021–01–10].
5. Asouzu A A. International Commercial Arbitration and African States Practice, Participation and Institutional Development[J] Cambridge Studies in International and Comparative Law, Vol. 12 No. 2. London, 2009. [2021–01–10].
6. Guedj T G. The Theory of the Lois de Police, A Functional Trend in Continental Private International Law-A Comparative Analysis with Modern American Theories[J]. The American Journal of Comparative Law, 39(4): 661. DOI:10.2307/840737. Oxford, 1991.
7. Van Den Berg A. Annulment of Awards in International Arbitration in International Arbitration in the 21st Century: Towards “Judicialization” and Uniformity? Twelfth Sokol Colloquium (R. Lillich & C. Brower, Eds.) [M]. Brussel, 1994 [2021–02–07].

8. Sammartano M R. International Arbitration Law[M], 2nd Ed. Kluwer Law International. London, 2002.
9. Mayer P. Effect of International Public Policy in International Arbitration[J]. Kluwer Arbitration, 15: 61–69. London, 2006.
10. Kuchimov U. Recognition and enforcement of arbitral awards and the practice of Uzbekistan regarding arbitral awards[J]. SSRN Electronic Journal, 2012[2020–12–05]. DOI:10.2139/ssrn.1886633.
11. Kleiman E and Pauly C. The Guide to Challenging and Enforcing Arbitration Awards[J] Global Arbitration Review, 2019 [2020–12–04].
12. Papeil A S. Conflict of Overriding Mandatory Rules in Arbitration[M]. Conflict of Laws in International Arbitration. Sellier - De Gruyter, 2012. DOI:10.1515/9783866539297.341; Barraclough A, Waincymer J. Mandatory Rules of Law in International Commercial Arbitration[J]. Melbourne Journal of International Law, 2005, 6: 205.
13. Lew J D M, Applicable Law in International Commercial Arbitration. A Study in Commercial Arbitration Awards[J]. Oceana Publications, 1978[2021–01–30].
14. Buchanan M A. Public Policy and International Commercial Arbitration[J]. American Business Law Journal, 1988, 26(3): 511–531[2021–01–30]. DOI:10.1111/j.1744-1714.1988.tb01153.x.
15. Landbrecht J, Wehowsky A. Transnational Coordination of Setting Aside and Enforcement of Arbitral Awards – A New Treaty and Approach to Reconciling the Choice of Remedies Concept, the Judgment Route, and the Approaches to Enforcing Awards Set Aside? [J]. Journal of International Arbitration Volume 37, Issue 6 (2020) pp. 679 – 719.
16. Moss G. International Commercial Arbitration - Party Autonomy and Mandatory Rules[J]. Arbitration International, Oslo Law Review, 2014, 16(3): 371–373[2020–12–06]. DOI:10.1093/arbitration/16.3.371.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

LEGAL NATURE AND SCOPE OF THE INTERNATIONAL LEGAL PERSONALITY OF UN SPECIALIZED AGENCIES IN THE FIELD OF HEALTH CARE

Khujaeva Shirinkhon
Tashkent State University of Law,
Lecturer of the Department Theory of State and Law

Abstract. The article is devoted to a comprehensive study of the international legal personality of the United Nations specialized agencies in the field of health care — primarily the World Health Organization (WHO) and the United Nations Children's Fund (UNICEF). The author conducts a comparative analysis of doctrinal positions in Russian, Uzbek, and Western international legal scholarship, with particular attention to the functional nature of legal personality, which is grounded not so much in founding documents as in international practice. Based on the analysis of international treaties, decisions of the International Court of Justice (especially the 1949 Advisory Opinion on Reparation for Injuries), multilateral agreements (such as the Framework Convention on Tobacco Control), and judicial precedents, the author concludes that these institutions possess a limited but genuine sui generis legal personality. The author proposes the following solutions: 1) enshrine a universal formula for defining the legal personality of specialized agencies at the level of international treaty law; 2)develop a mechanism of external legal accountability while preserving functional immunity; 3)strengthen institutional guarantees of independence from political and commercial pressure by expanding the application of the FENSA policy; 4)promote the harmonization of national approaches to the status of international organizations.
These proposals aim to foster a deeper understanding of the legal nature of international health organizations and enhance their capacity to address global challenges

Keywords: international legal personality, specialized agencies, WHO, immunities, privileges, FENSA, UNICEF, functional autonomy.

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ

Ходжаева Ширин
Преподаватель кафедры Теории государства и права
Ташкентского государственного юридического университета
e-mail: khujaevash2208@gmail.com

Аннотация. Статья посвящена всестороннему исследованию международной правосубъектности специализированных учреждений ООН в сфере здравоохранения — в первую очередь Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ) и Детского фонда ООН (ЮНИСЕФ). Автор проводит сравнительный анализ доктринальных позиций в российской, узбекской и западной науке международного права, уделяя особое внимание функциональной природе правосубъектности, закреплённой не столько в учредительных документах, сколько в международной практике. На основе анализа международных договоров, решений Международного суда ООН (особенно консультативного заключения 1949 года по делу о репарациях), многосторонних соглашений (например, Рамочного договора по борьбе с табаком) и судебных прецедентов автор делает вывод о признании за данными учреждениями ограниченной, но реальной правосубъектности sui generis. В качестве решений автор предлагает: 1) закрепить на уровне международного договора универсальную формулу определения правосубъектности специализированных учреждений; 2) разработать механизм внешней правовой подотчётности при сохранении функционального иммунитета; 3) усилить институциональные гарантии независимости от

политического и коммерческого давления, расширяя применение политики FENSA; 4) стимулировать унификацию подходов к статусу международных организаций в национальных правопорядках.
Эти предложения направлены на более глубокое понимание правовой природы международных организаций в сфере здравоохранения и на усиление их потенциала в решении глобальных проблем.

Ключевые слова: международная правосубъектность, специализированные учреждения, ВОЗ, иммунитеты, привилегии, FENSA, ЮНИСЕФ, функциональная автономия.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N36

Введение. Специализированные учреждения ООН в сфере здравоохранения – прежде всего Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ), а также такие структуры, как ЮНИСЕФ (Детский фонд ООН) – давно действуют на международной арене в качестве обособленных организаций. Однако до сих пор не устранена доктринальная неопределённость относительно их международной правосубъектности: ученые расходятся во мнениях, обладают ли эти учреждения полноценным статусом субъектов международного права и каков объём их прав и обязанностей. Проблема усугубляется тем, что учредительные акты специализированных учреждений обычно прямо не содержат положений о международной правосубъектности организаций. Тем не менее на практике эти структуры наделены комплексом правомочий – от заключения договоров до иммунитетов – что требует теоретического осмысления их юридической природы. В международно-правовой литературе сложилась дискуссия: одни авторы утверждают наличие у специализированных учреждений собственной международной правосубъектности, другие рассматривают их лишь как производные образования государств-участников, обладающие ограниченной правоспособностью. Подобная неопределённость в трактовке отражается и в разных национальных доктринах – российской, узбекской и зарубежной – что делает необходимым всесторонний сравнительный анализ.

Основная часть. В рамках исследования использованы методы сравнительно-правового, сравнения и системного анализа. Рассматриваются международные договоры, уставы специализированных учреждений ООН (в частности, ВОЗ и ЮНИСЕФ), консультативные заключения Международного суда ООН, судебные прецеденты национальных судов (США, Германии), а также позиции ведущих российских, узбекских и зарубежных учёных. Эмпирическую основу составляют документы и соглашения, принятые в системе ООН, включая Международные медико-санитарные правила и Рамочную конвенцию по борьбе против табака.

В российской науке международного права вопрос о правовом статусе международных организаций традиционно рассматривался через призму теории «производных субъектов». Ещё советские юристы указывали, что межправительственные организации создаются государствами и не обладают суверенитетом, а потому их правосубъектность носит производный и ограниченный характер. Тем не менее большинство исследователей признавали, что международные организации являются участниками международных отношений, наделёнными определёнными правами и обязанностями. Так, И. И. Лукашук отмечал, что международная организация, учреждённая договором государств, приобретает статус субъекта международного права постольку, поскольку ей предоставлены определённые компетенции и автономия в решении поставленных задач [1]. Е. С. Кривчикова характеризовала международные организации как “особый род субъектов

международного права” – не суверенные образования, как государства, но тем не менее обладающие собственной правовой персональностью в рамках учредительных актов[2]. В российском учебнике под редакцией Ю. М. Колосова и Э. С. Кривчиковой подчёркивается, что международные организации обладают ограниченной правосубъектностью, имеющей функциональный характер: они способны заключать соглашения, участвовать в международно-правовых отношениях и иметь привилегии и иммунитеты, но лишь в пределах компетенции, определённой государствами-учредителями[3]. А. Н. Талалаев, Л. А. Моджорян сходятся во мнении, что общие критерии субъекта права применимы и к международным организациям: наличие международных прав и обязанностей, способность участвовать в нормотворчестве и в реализации санкций международного права[4]. При этом отмечается, что объем правосубъектности организаций уступает государственному – специализированные учреждения являются “производными сложными органами” государств, как указывал ещё В. Н. Дурденевский, и наделяются лишь некоторыми чертами правоспособности[5]. Тем не менее в целом российская доктрина признаёт, что специализированные учреждения ООН – самостоятельные участники международных правоотношений, хотя и созданные государствами и функционирующие в рамках предоставленных полномочий.

Узбекская доктрина международного права во многом восприняла подходы, сформировавшиеся в советской и российской школе, хотя с развитием собственного научного сообщества наблюдается и усиление акцента на практических аспектах. Узбекские юристы подчеркивают, что после обретения независимости Узбекистан активно взаимодействует с ООН и её специализированными учреждениями, что само по себе подразумевает признание их международной правосубъектности. Так, в официальных обзорах сотрудничества отмечается, что с момента вступления в ООН Узбекистан плодотворно сотрудничает с её специализированными учреждениями по различным направлениям – от здравоохранения до образования. Практический подход узбекских специалистов проявляется в изучении того, как международные организации, в частности ВОЗ, участвуют в решении конкретных трансграничных проблем - борьба с эпидемиями, охрана окружающей среды, гуманитарные проекты. В юридической литературе Узбекистана специализированные учреждения рассматриваются как обладающие международной правосубъектностью, необходимой для эффективной работы: им присуща договорная правоспособность, иммунитеты и привилегии на территории государств, где они действуют, а также функциональная автономия при реализации своих уставных задач. Таким образом, узбекская доктрина во многом подтверждает вывод о том, что международная правосубъектность специализированных учреждений носит ограниченный (функциональный) характер, но признаётся настолько, насколько это нужно для выполнения их уставных функций. Государственная практика Узбекистана также свидетельствует о таком признании: республика присоединилась к Конвенции о привилегиях и иммунитетах специализированных учреждений 1947 г.[6], заключает соглашения о сотрудничестве с ВОЗ и другими организациями, аккредитует при них своих представителей. Всё это означает признание за специализированными учреждениями качеств самостоятельных участников международного общения, наделённых правами и иммунитетами.

Западная (зарубежная) доктрина, базирующаяся на прецедентах международного права и практике международных организаций, в основном исходит из признания международной правосубъектности специализированных учреждений, хотя и формулирует её природу несколько иначе. Классическим прологом для этого послужило Консультативное заключение Международного суда ООН по делу о репарациях 1949 г., где было прямо указано: Организация (ООН) обладает международной правосубъектностью, отличной от государств[7]. Этот вывод стал поворотным моментом: международные организации получили признание в качестве субъектов международного права, хотя их правосубъектность “иная, нежели у государств”. На базе этого в зарубежной литературе развились две концепции. Первая – функционалистская – утверждает, что организации являются “порождениями” государств (creatures of states) и могут действовать лишь в пределах узко очерченных полномочий (principle of speciality). Ярко эту точку зрения представляет, например, Ян Клабберс, отмечающий, что учредительные документы международных организаций занимают особое место в праве: государства намеренно ограничивают компетенцию создаваемых ими учреждений рамками устава, и организация не может обладать большей властью, чем ей предоставили учредители[8]. По Клабберсу, государства сохраняют контроль над своими «созданиями», однако практика показывает, что со временем некоторые организации обретают значительную самостоятельность, выходящую за рамки чисто вспомогательной роли. Вторая концепция – атрибутивная или прогрессивная – исходит из того, что современные международные организации благодаря развитию международного права получили более широкую правосубъектность, включая способность самостоятельно нести международно-правовую ответственность и участвовать в нормотворчестве. Так, американский исследователь Шон Д. Мёрфи анализировал эволюцию правового статуса организаций через призму их ответственности и иммунитетов: он отмечал, что с расширением функций организаций, особенно в гуманитарной сфере, возникает вопрос об их ответственности за международно-противоправные деяния и необходимости уточнения объёма их прав и обязанностей[9]. В целом зарубежная доктрина пришла к консенсусу, что специализированные учреждения являются субъектами международного права *sui generis*: они не обладают всей полнотой суверенных правомочий, присущих государствам, но имеют международную правосубъектность, достаточную для реализации своих мандатов. Это нашло отражение и в международно-правовых актах: например, Венская конвенция о праве договоров с участием международных организаций 1986 г. (хотя еще не вступила в силу) прямо основывается на признании, что международные организации могут заключать договоры наравне с государствами. Таким образом, зарубежные исследователи – от классиков вроде Д. Анцилотти и Л. Оппенгейма до современных авторов С. Д. Мёрфи, Ж. Альварес и др. – признают существование у специализированных учреждений международной правосубъектности, рассматривая её как производную (атрибутивную) и функционально ограниченную, но реальную.

Важнейшее проявление международной правосубъектности специализированных учреждений – их договорная правоспособность. Уже в начале 1950-х Комиссия международного права ООН констатировала, что все государства *и*

международные организации в принципе обладают правоспособностью заключать международные договоры[10]. Специальный докладчик Комиссии Дж. Браерли прямо указал: специализированные учреждения ООН обладают важнейшим элементом правосубъектности – способностью вступать в договорные отношения[11]. На практике это выражается в разнообразии соглашений, заключаемых организациями здравоохранения. Прежде всего, каждая из них имеет соглашение с ООН о взаимных отношениях (в соответствии со ст. 63 Устава ООН) – такие соглашения ВОЗ, ЮНИСЕФ и др. заключили с Экономическим и Социальным Советом ООН, что закрепило их автономный статус и координацию с ООН. Далее, специализированные учреждения заключают соглашения о сотрудничестве друг с другом и с другими международными организациями. Ещё Кривчикова в фундаментальном исследовании выделяла отдельные группы международных соглашений с участием организаций: между самими международными организациями (например, соглашения между ВОЗ и ЮНЕСКО о совместных программах), между организациями и государствами (как двусторонние соглашения о правах и иммунитетах, соглашения об открытии представительства организации в стране и т.п.)[12], а также многосторонние конвенции, разрабатываемые под эгидой международных организаций. Особого внимания заслуживает участие ВОЗ в международных договорах в сфере здравоохранения. Согласно Уставу ВОЗ (ст. 19), Всемирная организация здравоохранения уполномочена принимать конвенции по вопросам здравоохранения, которые вступают в силу для тех государств-членов, которые их ратифицируют. На этой основе был разработан Рамочный договор ВОЗ по борьбе против табака (РДБТ) – первый в истории договор, заключённый под эгидой ВОЗ. РДБТ, принятый Всемирной организацией здравоохранения в 2003 г., стал многосторонней конвенцией, к которой присоединилось более 180 государств, и продемонстрировал способность ВОЗ выступать инициатором и форумом для выработки международно-правовых норм. Хотя стороной договора являются государства, а не сама ВОЗ, организация сыграла ключевую роль в его создании, осуществляет функции депозитария и координирует последующую работу Конференции Сторон. Другой пример – Международные медико-санитарные правила (ММСП) – юридически обязательные для государств нормы, принятые ассамблеей ВОЗ в 2005 г. ММСП представляют собой своего рода подзаконный акт к Уставу ВОЗ, обязательный для всех государств-членов, и регулируют реагирование на чрезвычайные ситуации в области здравоохранения[13]. Их принятие показало, что организации здравоохранения могут устанавливать *erga omnes* обязательства для государств в рамках своего мандата. Таким образом, в сфере договорной правоспособности специализированные учреждения реализуют международную правосубъектность в полном объёме, необходимом для решения наднациональных задач: участвуют в создании многосторонних режимов, как в случае с табачным контролем, заключают соглашения с отдельными странами, например, соглашения о создании представительств ВОЗ в государствах, меморандумы о сотрудничестве в конкретных программах здравоохранения, и с иными субъектами.

Ещё одним ключевым элементом международной правосубъектности специализированных учреждений является наличие у них привилегий и иммунитетов, обеспечивающих функциональную независимость. Принятая еще в 1947 г. Конвенция о

привилегиях и иммунитетах специализированных учреждений ООН закрепила за ними статус юридического лица и ряд иммунитетов. В частности, согласно ст. II этой Конвенции, каждое специализированное учреждение обладает правоспособностью заключать контракты, приобретать и отчуждать имущество, выступать истцом и ответчиком в судах. Тем самым государства-участники признали международные организации самостоятельными носителями прав и обязанностей во внутренней правовой системе. Конвенция 1947 г. также предусматривает обширные юрисдикционные иммунитеты: имущество и активы организаций неприкосновенны и освобождаются от любого судебного вмешательства, за исключением случаев, когда сама организация явно отказывается от иммунитета. Должностные лица специализированных учреждений пользуются функциональным иммунитетом от юрисдикции в отношении своих служебных действий. Эти нормы отражают принцип функциональной необходимости: иммунитеты даны не для преимущества организации, а чтобы обеспечить независимое осуществление ею своих задач. На практике вопрос об иммунитетах неоднократно становился предметом споров и судебных разбирательств, подтверждая международную правосубъектность учреждений в судебной сфере. Например, в деле «Хантер против ООН» в суде штата Нью-Йорк (2004) рассматривался иск сотрудницы к ООН и ЮНИСЕФ по поводу трудовой дискриминации – суд отклонил иск, признав, что ЮНИСЕФ как орган ООН пользуется иммунитетом от судебного разбирательства на основании соглашения о штаб-квартире и законодательства США[14]. Аналогично, суды США долгое время исходили из практически абсолютного иммунитета международных организаций по Закону об иммунитетах международных организаций 1945 г. (IOIA). Однако в недавнем решении Верховного суда США по делу Jam v. IFC (2019) был пересмотрен подход: суд указал, что иммунитет организаций не является неограниченным – они не иммунны от судебных исков по коммерческой деятельности, по аналогии с ограниченным суверенным иммунитетом иностранных государств[15]. Хотя это решение касалось Международной финансовой корпорации (орган Группы Всемирного банка, не специализированного учреждения ООН), его принципы отражают общемировую тенденцию к “функциональному” иммунитету: организация защищена от исков, связанных с выполнением ею публичных функций, но может отвечать по обязательствам, вытекающим из коммерческих сделок или деликтов, не связанными напрямую с мандатом. Европейские суды также рассматривали вопросы иммунитета: в делах Waite and Kennedy v. Germany и Beer and Regan v. Germany было признано, что предоставление международным организациям иммунитета соответствует Конвенции о правах человека, если у заявителей есть разумная альтернатива защиты своих прав, например, внутренние механизмы разбирательства в самой организации. Эти кейсы косвенно затрагивали и учреждения ООН, хотя непосредственно касались Европейского космического агентства, закрепляя баланс между иммунитетом организаций и правом доступа к правосудию. Таким образом, судебно-арбитражная практика подтверждает: специализированные учреждения обладают собственной юридической персональностью – именно потому их могут *de jure* привлечь в суд (лишь наличие иммунитета препятствует рассмотрению дела по существу). Кроме того, международные организации могут сами быть истцами, защищая свои права. Классический пример – упомянутое дело о репарации ущерба

сотрудникам ООН (1949), когда ООН предъявила претензию государству за гибель своего эмиссара графа Фольке Бернадота. МС ООН подтвердил, что Организация вправе предъявлять такие международно-правовые требования, т.к. обладает правосубъектностью, позволяющей ей иметь международные права и обязанности и выступать с международными исками[16]. По аналогии специализированные учреждения также могли бы, в случае необходимости, предъявлять претензии или участвовать в разбирательствах, например, ВОЗ теоретически могла бы предъявить требование к какому-либо государству при нарушении соглашения о статусе ее офиса.

Особый интерес представляет вопрос о функциональной автономии специализированных учреждений ООН, тесно связанный с их правосубъектностью. Под функциональной автономией понимается способность организации самостоятельно, без вмешательства отдельных государств, решать вопросы, входящие в её исключительную компетенцию, и нести за них ответственность. Практика показывает, что в сфере охраны здоровья ВОЗ и родственные ей учреждения пользуются значительной автономией в определении глобальной повестки здравоохранения. ВОЗ самостоятельно разрабатывает и принимает международные нормы и стандарты, например, Международную классификацию болезней, рекомендации по пандемиям, которые затем де-факто принимаются государствами для руководства. ВОЗ взаимодействует не только с правительствами, но и с иными акторами – неправительственными организациями, научным сообществом, а также с бизнесом. Это ставит проблему разграничения автономии организации и влияния внешних негосударственных субъектов, прежде всего транснациональных корпораций. Известно, что в области здравоохранения интересы крупного бизнеса (фармацевтические, табачные, пищевые корпорации) могут вступать в противоречие с целями ВОЗ. Пример – противодействие табачной индустрии введению глобальных мер контроля табака: при подготовке РДБТ представители табачных компаний пытались лоббировать смягчение положений договора, но ВОЗ, опираясь на научные данные и поддержку НКО, отстояла жёсткие нормы. Чтобы защитить свою независимость, ВОЗ даже включила в Рамочный договор по табаку статью 5.3, обязывающую государства ограждать политику здравоохранения от влияния табачной промышленности. В более общем плане, в 2016 г. ВОЗ приняла Рамочную политику взаимодействия с негосударственными акторами (FENSA) – первый подобный документ в системе ООН[17]. FENSA устанавливает строгие правила вовлечения ВОЗ в сотрудничество с частным сектором, фондами, НПО и академическими институтами, чтобы предотвратить конфликт интересов и сохранить объективность рекомендаций. Этот шаг подчёркивает двойственную природу международной правосубъектности организаций: с одной стороны, они сами стали влиятельными акторами, определяя нормы и распределяя ресурсы, с другой – зависят от взаимодействия с государствами и частными партнёрами и вынуждены вырабатывать внутренние механизмы, обеспечивающие их автономию и подотчётность.

Для иллюстрации можно подробнее рассмотреть Всемирную организацию здравоохранения как ключевой пример специализированного учреждения ООН. ВОЗ была основана Уставом 1946 г., вступившей в силу в 1948 г., и сегодня объединяет 194 государства. Хотя в тексте Устава ВОЗ прямо не говорится “ВОЗ обладает

международной правосубъектностью", весь характер документа подразумевает таковую: организация имеет собственные органы - Ассамблею, Исполнительный комитет, Секретариат; бюджет, может принимать обязательные акты, вступать в соглашения с другими субъектами. ВОЗ является самостоятельной международной организацией, связанной с ООН соглашением 1948 г. Статус ВОЗ как субъекта международного права проявляется во многих плоскостях. Во-первых, ВОЗ заключает соглашения о штаб-квартире и о привилегиях и иммунитетах с государствами, на чьей территории расположены ее учреждения, например, соглашение со Швейцарией о статусе штаб-квартиры в Женеве, соглашения с странами о статусе региональных бюро – в Вашингтоне для Панамериканского регионального отделения (ПАОЗ), в Каире, Копенгагене, Браззавиле, Маниле, Нью-Дели для других регионов. Такие соглашения, по сути, двусторонние международные договоры, подтверждают юридическую самостоятельность ВОЗ: государство-хозяин признаёт ВОЗ юридическим лицом с правом владеть имуществом, К примеру, в *Соглашении 1951 г. между ВОЗ и Египтом* о размещении регионального офиса предусматривались привилегии ВОЗ, а позднее спор о его возможном перемещении стал предметом консультативного заключения МС ООН (1980) – Суд подтвердил обязанность сторон добросовестно консультироваться, признав тем самым за ВОЗ самостоятельные договорные права по отношению к государству[18]. Во-вторых, ВОЗ участвует в разработке глобальной политики через нормативные инициативы: помимо РДБТ и ММСП, под эгидой ВОЗ заключаются некоторые соглашения с промышленными ассоциациями, например, кодексы по маркировке медикаментов, не имеющие обязательной силы, но согласованные на международном уровне. ВОЗ также выступает арбитром научных стандартов, влияя на нормы национального законодательства, например, рекомендации ВОЗ по пищевым добавкам часто внедряются через Кодекс Алиментариус – комиссию ФАО/ВОЗ, чьи стандарты становятся ориентиром для мировой торговли. В-третьих, взаимодействие ВОЗ с частным сектором и транснациональными корпорациями приобретает институциональные формы: организация участвует в публично-частных партнерствах в сфере разработки вакцин и лекарств (например, Инициатива GAVI – Альянс по вакцинам, где ВОЗ – ключевой партнер наряду с фондами и фармбизнесом) и заключает соглашения о сотрудничестве с фармацевтическими компаниями в рамках программ по борьбе с тропическими болезнями, например, соглашения о снижении цен на лекарства от ВИЧ, туберкулёза). Эти отношения строятся на договорной основе (меморандумах о взаимопонимании), что вновь подтверждает договорную правоспособность ВОЗ. При этом ВОЗ старается сохранять нейтральность и руководствоваться прежде всего общественным здравоохранением, а не интересами прибыли – тому призваны служить и механизмы FENSA, и политика прозрачности, например, публичное раскрытие финансирования от частных доноров). В-четвёртых, ВОЗ демонстрирует определённую *политическую* правосубъектность в отношениях с государствами: в ходе пандемии COVID-19 организация вступала в диалог и даже конфликты с отдельными правительствами. Вспомним критику в адрес Китая по поводу задержки информации или полемику с США, вышедшими из ВОЗ в 2020 г. и затем вернувшимися. Эти события показывают, что государства воспринимают ВОЗ как самостоятельную единицу, с которой можно спорить и оказывать на неё давление, а не просто как совокупность

самих же государств. Тем самым фактически признаётся наличие у ВОЗ собственной «воли» в международных отношениях, что и составляет сущность международной правосубъектности.

Помимо ВОЗ, близкие вопросы возникают и относительно других учреждений в сфере здравоохранения. ЮНИСЕФ исторически возник как детский фонд при ООН, учреждённый резолюцией Генассамблеи, то есть не через отдельный международный договор. Тем не менее ЮНИСЕФ обладает значительной автономией: имеет Исполнительный совет, политику и программы в более чем 150 странах. Юридически ЮНИСЕФ считается вспомогательным органом ООН, а потому пользуется иммунитетом ООН и действует от ее имени. Национальные суды подтверждали, что ЮНИСЕФ не подсуден юрисдикции без согласия ООН. Однако в оперативной деятельности ЮНИСЕФ фактически выступает как самостоятельный актор: заключает соглашения с правительствами о реализации детских программ, управляет собственными бюджетами, ведет переговоры с донорами (государствами и корпорациями) о финансировании проектов [20]. Например, ЮНИСЕФ заключал соглашения с фармпроизводителями о поставке вакцин по льготным ценам для развивающихся стран – эти контракты заключаются от имени ЮНИСЕФ как юридического лица, хотя и опираются на иммунитеты ООН.

Выводы. Обобщая анализ, следует подчеркнуть: специализированные учреждения ООН в сфере охраны здоровья обладают международной правосубъектностью, которая носит функциональный и ограниченный характер, но тем не менее реальна и значима. Их правовая природа – производная от воли государств-учредителей, закреплённой в уставах и соглашениях с ООН, – определяет и объём их правоспособности. Хотя учредительные акты прямо не провозглашают их “субъектами международного права”, совокупность предоставленных прав (заключать договоры, иметь постоянные представительства государств при себе, обладать привилегиями и иммунитетами) свидетельствует, что международное сообщество фактически признает за ними этот статус. Различия в доктринальных подходах – от осторожного советского взгляда на организации как “производные органы” до современного функционального подхода – отражают эволюцию роли специализированных учреждений. В середине XX века международные административные союзы только начинали обретать самостоятельность, и многие юристы сомневались, можно ли вообще считать их юридическими лицами международного права. Но уже к концу XX века стало очевидно, что без признания собственной правосубъектности этих институтов международное сотрудничество в глобальных сферах – таких как здравоохранение – было бы невозможно. Сегодня ВОЗ, ЮНИСЕФ, а также иные организации системы ООН действуют как самостоятельные акторы, обладающие *ius contrahendi* (правом заключать соглашения), *ius standi* (правом выступать в судах и международных инстанциях) и *ius legationis* (правом устанавливать представительства и принимать аккредитацию). При этом их объем прав и обязанностей строго привязан к целям и функциям, определённым учредительными документами – то есть они имеют специальную правосубъектность (doctrine of speciality). ВОЗ, например, компетентна в вопросах здоровья, но не может выходить за эти рамки: МС ООН в 1996 г. отказал ВОЗ в даче консультативного заключения по ядерному оружию, указав, что этот вопрос лежит вне компетенции

организации. [19]Данный случай показал, что у организации нет “универсальной” правосубъектности государства, но есть правосубъектность в пределах ее уставных целей.

Уже сейчас можно утверждать, что ВОЗ и ей подобные учреждения – не просто «исполнители воли государств», но и самостоятельные участники международно-правовых отношений, наделённые правами, обязанностями, иммунитетами и ответственностью в пределах их компетенции. Их международная правосубъектность служит юридической основой для эффективной глобальной деятельности по охране здоровья, позволяя им выступать единым голосом мирового сообщества в борьбе с общими вызовами человечества.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Lukashuk I.I. Mezhdunarodnoe pravo. Obshchaja chast'. 3-e izd., pererab. i dop. Moscow, Volters Kluver Publ., 2005. P.313
2. Krivchikova E.S. Osnovy teorii prava mezhdunarodnykh organizatsij. Moscow, Nauka Publ., 1977.
3. Kolosov Ju.M., Krivchikova E.S., eds. Mezhdunarodnoe pravo. Moscow, Mezhdunarodnye otnoshenija Publ., 2000.
4. Talalaev A.N. Pravo mezhdunarodnykh dogovorov. V 3 t. Moscow, Zercalo Publ., 2011.
5. Durdenevskij V.N., ed. Mezhdunarodnaja pravosub"ektnost': nekotorye voprosy teorii. Moscow, Nauka Publ., 1971.
6. Zamudio-González, L., & Arellano-Gault, D. *International organizational anarchy: International organizations as full actors in the global arena*. Palgrave Macmillan, 2025, p.189-227. doi:org/10.1007/978-3-031-82392-3
7. Mezhdunarodnyj sud OON. Konsul'tativnoe zakljuchenie po delu o reparacijakh za ushherb, ponesjennyj na sluzhbe Organizacii Ob"edinjonnykh Nacij. 11 aprelja 1949 g. URL: https://www.icj-cij.org/case/4
8. Klabbers Ja. Vvedenie v pravo mezhdunarodnykh organizatsij. 3-e izd. Cambridge, Cambridge University Press Publ., 2015. (per. s angl. zaglavija: Introduction to International Organizations Law)
9. Murphy S.D. Public international law in a nutshell. 7th ed. St. Paul, West Academic Publishing, 2025.
10. Komissija mezhdunarodnogo prava OON. Godovoj doklad Komissii mezhdunarodnogo prava za 1950 god. Dokument A/1316. URL: https://digitallibrary.un.org/record/704679
11. Brajerli Dzh.L. Tretij doklad po pravu mezhdunarodnykh dogovorov. Dokument A/CN.4/54. Komissija mezhdunarodnogo prava OON. URL: https://legal.un.org/ilc/documentation/english/a_cn4_54.pdf
12. Krivchikova E.S. Osnovy teorii prava mezhdunarodnykh organizatsij. Moscow, Mezhdunarodnye otnoshenija Publ., 1978.
13. Vsemirnaja organizacija zdravookhranenija. Mezhdunarodnye mediko-sanitarnye pravila (2005). 3-e izd. Geneva, WHO Publ., 2005. URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789241580496
14. Matter of Hunter v. United Nations, No. 106014/03, 2004 N.Y. Slip Op. 51751(U) (N.Y. Sup. Ct. Dec. 15, 2004). URL: https://law.justia.com/cases/new-york/other-courts/2004/2004-51751.html

15. Jam v. International Finance Corp., 586 U.S. ___ (2019). URL: https://www.supremecourt.gov/opinions/18pdf/17-1011_mkhn.pdf
16. Mezhdunarodnyj sud OON. Konsul'tativnoe zakljuchenie po delu o reparacijakh za ushherb, ponesjennyj na sluzhbe Organizacii Ob"edinjonnykh Nacij. 11 aprelja 1949 g. URL: https://www.icj-cij.org/case/4
17. Vsemirnaja organizacija zdravookhranenija. Ramochnaja politika vzaimodejstvija s negosudarstvennymi aktorami (FENSA). Prinjata na 69-j sessii Vsemirnoj assamblei zdravookhranenija, rezoljucija WHA69.10. URL: https://apps.who.int/gb/bd/PDF/Framework_Engagement_non-State_Actors.pdf
18. International Court of Justice. Interpretation of the Agreement of 25 March 1951 between the WHO and Egypt, Advisory Opinion. 1980. URL: https://www.icj-cij.org/case/65
19. Mezhdunarodnyj sud OON. Zakonnost' primenenija jadernogo oruzhija gosudarstvom v uslovijakh vooruzhennogo konflikta. Konsul'tativnoe zakljuchenie ot 8 ijulja 1996 g. URL: https://www.icj-cij.org/case/93
20. Barkin, J. S. *International organization: Theories and institutions* (3rd ed.). Palgrave Macmillan, 2023, p.69-83, doi:org/10.1007/978-3-031-22559-8

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

ALGORITHMIC ACCOUNTABILITY IN THE FIELD OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: SOCIAL, LEGAL, AND ORGANIZATIONAL APPROACHES

Doniyorbek Baxtiyorovich Imomniyozov
Senior lecturer at the Department of Civil Law
Tashkent State University of Law
E-mail: d.imomniyozov@gmail.com

Abstract. This article analyzes the impact of artificial intelligence systems on social life and the issue of ensuring accountability in their operation from social, legal, and organizational perspectives. It explores mechanisms for effectively managing algorithmic accountability, the role of stakeholders, and the criteria for determining responsibility.

Keywords: artificial intelligence, algorithmic accountability, social accountability, users, algorithmic audit, regulators, transparency, technological ethics, information security, algorithm design.

SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR

Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt tizimlarining ijtimoiy hayotga ta'siri va ularning faoliyati ustidan hisobdorlikni ta'minlash masalasi ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Algoritmik javobgarlikni samarali boshqarish mexanizmlari, manfaatdor tomonlarning roli hamda mas'uliyatni aniqlash mezonlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, algoritmik javobgarlik, ijtimoiy javobgarlik, foydalanuvchilar, algoritmik audit, regulyatorlar, shaffoflik, texnologik etika, axborot xavfsizligi, algoritm loyihasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N37

Kirish

Texnologiya taraqqiyoti jamiyatning deyarli barcha sohalarida mashinalashgan o'qitish (MO) algoritmlarining keng qo'llanilishiga olib keldi (masalan, tashkilot faoliyatini avtomatlashtirish orqali qo'llab-quvvatlash). Mazkur algoritmlarning salmoqli afzalliklariga (tajribalarni individuallashtirish, unumdorlikni oshirish, qaror qabul qilish sifatini yaxshilash) qaramay, turli amaliy holatlar shuni ko'rsatdiki, bunday tizimlarga asoslangan yechimlar jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, sog'liqni saqlash tizimi [1; B.1231.] yoki moliya sohasidagi [2; B. 342] qo'llanish misollarida MO' tizimlari statistik noxolisliklarni yuzaga keltirgani yoki mavjud ijtimoiy tengsizliklarni takrorlagani orqali adolatsizlikni kuchaytirgan va ozchilik guruhlariga nisbatan diskriminatsiya qilish holatlariga sabab bo'lgan. Marketing sohasidagi boshqa misollar esa shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishiga olib kelgan bo'lib, bunda foydalanuvchilar haqidagi yashirin ma'lumotlar tahlil qilinib, ularni qo'rqituvchi darajadagi

aniqlik bilan taxmin qilish hamda bu ma’lumotlardan nishonli (targeted) reklama uchun foydalanish holatlari qayd etilgan [3; B. 107 – 111.]. MO‘ algoritmlari oddiy qoidalarga asoslangan modellar bosqichidan murakkab tizimlarga o‘tgani sari ularning salbiy oqibatlarga olib kelish ehtimoli yanada ortib bormoqda, chunki bunday algoritmlarning ishlash mantig‘i tobora shaffof bo‘lmagan holga kelmoqda va avtomatlashtirish darajasi ortmoqda. Garchi bu kabi muammolarni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha ilmiy izlanishlar keng ko‘lamda olib borilgan bo‘lsa-da [4; B. 4 – 25.], amaliyotda ko‘plab tashkilotlar hali ham o‘zlari ishlab chiqayotgan, yetkazib berayotgan yoki qo‘llayotgan MO‘ tizimlarining aksariyat hollarda ko‘zda tutilmagan salbiy natijalarini oldini olishda muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda. Shu sababli, ayrim olimlar jumladan Novelli [5], Wieringa [6] tizimlarini axloqiy jihatdan mas’uliyatli tarzda ishlab chiqish va ulardan foydalanishni ta’minlash maqsadida algoritmik javobgarlik (algorithmic accountability) masalasiga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqdalar [7; B. 598.].

Muhokamalar

Garchi algoritmik javobgarlik mashinalashgan o‘qitish tizimlarini axloqiy asosda ishlab chiqish bo‘yicha deyarli barcha qo‘llanmalar va normativ-huquqiy hujjatlarda muhim tamoyil sifatida tilga olingan bo‘lsa-da, ushbu tamoyil nimani anglatishi va uni amalda qanday ro‘yobga chiqarish mumkinligi borasida hanuzgacha sezilarli darajada noaniqlik mavjud [8; B.391.]. Buning sababi shundaki, algoritmik javobgarlik — turli savollarni qamrab oluvchi va o‘z tabiatiga ko‘ra noaniq (ambivalent) bo‘lgan tushunchadir [9; B.6.]. Mazkur savollarning aksariyati esa javobgarlikning turli shakllari mavjudligi bilan bog‘liq.

Algoritmik javobgarlikning ushbu turlarini yoritish va unga oid turli savollarni tizimlashtirish maqsadida, bizning ushbu maqolamiz axborot tizimlari va muhandislik (BISE) sohasidagi ilmiy hamjamiyatga mazkur mavzuni tanishtirishga intiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar algoritmik javobgarlikni samarali amalga oshirish va boshqarish bo‘yicha tashkilotlar hamda dasturchilar uchun zaruriy asoslarni shakllantirishi, shuningdek, normativ-huquqiy tartibga solish jarayonida qonun chiqaruvchilarga MO‘ tizimlarini oqilona tartibga solish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishi mumkin. Bundan tashqari, bu izlanishlar individlarning algoritmik javobgarlikka doir xavotir va munosabatlarini qanday boshqarishi hamda bunday tizimlar bilan o‘zaro munosabatlariga bu qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga yordam berishi mumkin.

Algoritmik javobgarlik, avvalo, Bovens [10; B.452.] va Wieringaning [11; B.9.] fikrlariga ko‘ra, mashinalashgan o‘qitish tizimlarining loyihalanishi, ulardan foydalanish va ularning natijalari yuzasidan kim asoslab berish majburiyatini oladi va kim salbiy oqibatlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi, degan savolga qaratilgan tushunchadir. Javobgarlikni aniq subyektlarga yuklash va ularning faoliyatini asoslab berishni talab qilish orqali boshqalar harakatlarini nazorat qilish va cheklash imkoniyati yuzaga keladi. Bizningcha, algoritmik javobgarlikni tashkil etish, amalda, sun’iy intellekt tizimlarining salbiy oqibatlarini boshqarish vositasi sifatida qaraladi. Bunday javobgarlikni ta’minlash ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: birinchidan, bu — korxona va tashkilotlarda ML tizimlarini joriy etishdan oldin ehtiyot choralarini ko‘rish orqali xavflarni oldini olishga qaratilgan faol (proaktiv) boshqaruv mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi; ikkinchidan esa, salbiy natijalar yuz bergan taqdirda, ushbu oqibatlar uchun javobgar bo‘lgan subyektlarga nisbatan tegishli chora-tadbirlar (masalan, iqtisodiy yoki huquqiy sanksiyalar) qo‘llanishi mumkin bo‘lgan passiv (reaktiv) yondashuvni ifodalaydi (Novelli va boshq., 2023).

Ayrim olimlar mashinalashgan o‘qitish tizimlarini axloqiy me’yorlarga muvofiq ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur bo‘lgan talablarni chuqur tahlil qilganlar. Jumladan, Feuerriegel **adolatlilik tamoyilini** [12; B.382], Lipton esa bunday tizimlarning **tushuntiriluvchan** [13; B.39] bo‘lishini zarur deb hisoblaydi. Shuningdek, Liu maxfiylikni saqlashni ustuvor tamoyil sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa [14; B. 23], Tocchetti tizimlarning mustahkamligi (ya’ni, tashqi ta’sirlarga nisbatan barqaror ishlashi) [15; B. 21] masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Bu yondashuvlar mashinalashgan qaror qabul qilish tizimlarini huquqiy va axloqiy asosda boshqarish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, fikrimizcha, algoritmik javobgarlik bu kabi talablarning o‘zi emas, balki mazkur talablarni shakllantiruvchi ehtiyojlar hamda javobgar subyektlar ushbu talablarni bajarishi uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan boshqaruv choralariga e’tiborni qaratadi.

MO‘ tizimlarining harakatlari va natijalari uchun kim javobgarlikni zimmasiga olishi kerak degan savolga javob izlayotganda, “algoritmik javobgarlik” atamasi ma’nodosh, ammo ayrim hollarda chalg‘ituvchi bo‘lishi mumkin. Chunki Bryson [16; B.281] va Martin [17; B.42] MO‘ tizimlari texnik artefaktlar (ya’ni sun’iy intellektga asoslangan obyektlar) sifatida o‘z-o‘zidan javobgarlikka tortilishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. Lekin bunday tizimlarni ishlab chiquvchi yoki ulardan foydalanuvchi tashkilotlar va shaxslar esa javobgarlikka tortilishi mumkin. Martin ta’kidlaganidek, MO‘ tizimlari qadriyatdan xoli emas, aksincha, ular o‘zida ularni ishlab chiqqan, ishlatgan va ulardan foydalangan shaxslarning me’yor va maqsadlarini mujassamlashtiradi.

Tashkilotlar MO‘ tizimlarini shunday shakllantirishlari mumkinki, ularda butun nazorat foydalanuvchilarga topshiriladi va javobgarlik ham ularga yuklanadi. Biroq amalda kompaniyalar odatda o‘zlari taqdim etayotgan tizimlar ustidan nazoratni saqlab qoladilar. Shu bois, ushbu tizimlar uchun normativ javobgarlik majburiyati aynan tashkilotlarning o‘ziga hamda ularning ushbu tizimlarni ishlab chiqayotgan va boshqarayotgan xodimlariga yuklanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Demak, agar manfaatdor tomonlar ushbu javobgarlik talablarini amalda kuch bilan ilgari sura olsalar (masalan, normativ-huquqiy me’yorlar orqali), u holda tashkilotlar o‘z MO‘ tizimlari salbiy ta’sirlarini oldini olish va tizimlarning loyihalanishi hamda qo‘llanilishini asoslab berish bo‘yicha yetarli darajada rag‘batlantirilgan bo‘ladilar.

Bovens [10; B.450.] va Wieringaning [11; B.12.] fikricha, javobgarlikni kim talab qilishi masalasiga e’tibor qaratilsa, ikki turdagi tashqi manfaatdor tomonlar mavjudligi kuzatiladi.

Birinchidan, bu — MO‘ tizimlari ta’siriga tushuvchi foydalanuvchilar va boshqa shaxslar (masalan, xizmat ko‘rsatish uchun murojaat qiluvchilar). Ushbu shaxslar individual yoki jamoaviy tarzda o‘z noroziliklarini bildirish hamda oqibatlar bo‘yicha talab qo‘yish orqali ijtimoiy javobgarlik shaklini amalga oshirishlari mumkin (masalan, ommaviy norozilik aksiyalari tarzida).

Ikkinchidan, bu — tartibga soluvchi subyektlar, ya’ni ma’muriy yoki yuridik institutlar bo‘lib, ular huquqiy nazorat mexanizmlari orqali izoh (asos) talab qilish va sanksiyalarni qo‘llash huquqiga ega bo‘ladilar.

Ushbu javobgarlik talab va mexanizmlarining amaliy oqibati sifatida, odatda kompaniyalar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan belgilangan talablar (standartlar) yuzaga keladi. Bu talablarni bajarish uchun tashkiliy va texnik choralarni qo‘llash mumkin.

Schneider tashkiliy nuqtai nazardan, kompaniyalar MO‘ tizimlari bilan shug‘ullanayotgan xodimlarining javobgarligini ta’minlash uchun turli boshqaruv vositalarini joriy etishlari mumkinligini masalan, MO tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha ichki ko‘rsatmalar ishlab chiqish va ularning bajarilishini ta’minlashni takliflaydi [18; B.38]. Shu ma’noda, algoritmik javobgarlik tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilayotgan yoki qo‘llanilayotgan MO‘ tizimlari uchun korporativ raqamli mas’uliyat strategiyasining (corporate digital responsibility strategy) muhim tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin [19; B. 692].

MO‘ tizimlari foydalanuvchilar va ushbu tizimlar ta’siriga tushuvchi boshqa shaxslarga nisbatan turli xavflarni keltirib chiqaradi. Ushbu toifaga mansub shaxslarning algoritmik qarorlar natijasida bevosita foydalanilgan yoki ularning hayotiga ta’sir ko‘rsatilgan holatlarda javobgarlikni talab qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi muhimdir. Bu esa MO‘ tizimlari imkoniyatlarini nazorat ostida ushlab turish kafolatidir. Bundan tashqari, ushbu manfaatdor tomonlar (stakeholders) MO‘ tizimlarining faoliyatini va ularning ijtimoiy ta’sirini faol baholash imkoniyatiga ega bo‘lishlari zarur.

Shin va Parkerning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, agar foydalanuvchilar mashinalashgan o‘qitish (MO‘) tizimining ishlab chiquvchilari yoki taqdimotchilari javobgarlikni ta’minlash choralarini joriy etgan deb hisoblasalar (ya’ni, foydalanuvchilarda “tizim javobgarligi” haqida ijobiy tasavvur shakllansa), unda bu foydalanuvchilarda tizimga bo‘lgan ishonch va undan qoniqish hissini kuchaytiradi [20; B.279]. Shu bilan birga, bu holat foydalanuvchilarning algoritmik tavsiyalarga rozilik bildirish va ularga rioya etish ehtimolini kuchaytiradi.

Shu bois, korporativ subyektlar MO‘ tizimlarini joriy etishda izohlanadigan (explainable) va shaffof (transparent) mexanizmlarni taqdim etmaslikka qaror qilsalar, bu foydalanuvchilarning ishonchini yo‘qotishiga hamda brend obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavf-xatarlarning ortishiga olib keladi [21; B. 272]. Ayniqsa, foydalanuvchining ushbu tizimdan qanday kontekstdagi foydalanishiga qarab — u oddiy iste’molchi bo‘ladimi yoki professional foydalanuvchimi — ularning tizim ustidan hisobdorlikni talab qilish va nazorat qilish imkoniyatlari farq qiladi. Shu holatda, foydalanuvchi huquqlarini huquqiy kafolatlash zarurati yanada dolzarb bo‘lib chiqadi.

Kellogg professional kontekstda foydalanuvchilar individual (masalan, hamkorlikdan bosh tortish) yoki jamoaviy (masalan, ish tashlash) qarshilik shakllarini namoyon qilib, MO‘ tizimlarining salbiy ta’siriga e’tibor qaratishga va kompaniyalarni o‘z ish yuritish amaliyotlarini o‘zgartirishga undashga harakat qilishlari mumkinligini ta’kidlasa [22; B. 387], Grégoire va Fisher iste’molchilar o‘z noroziliklarini bildirish va MO‘ tizimlarining mas’uliyatli faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida bir qancha usullardan foydalanishlari mumkinligi bir qator usullarda asoslaydi [23; B. 255]. Xususan, ularning fikricha mazkur usullarga quyidagilar kiradi:

- talabga asoslangan ta’sir ko‘rsatish (masalan, MO‘ xizmatlaridan foydalanishni butunlay to‘xtatish yoki muqobil platformaga o‘tish),
- reyting asosidagi mexanizmlar (masalan, salbiy reytinglar yoki baholar qoldirish orqali obro‘ga ta’sir qilish),
- diskursga asoslangan yondashuv (masalan, salbiy fikrlarni og‘zaki yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ommaga yetkazish orqali tashkilotni bosim ostiga qo‘yish). Bu usullar orqali iste’molchilar bevosita qonunchilik doirasida bo‘lmasa-da, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy fikr kuchi orqali tashkilotlarni yanada shaffof va

axloqiy tamoyillarga asoslangan tizimlar yaratishga undash imkoniga ega bo‘ladilar. Bizning nazdimizda iste’molchilar va professional foydalanuvchilar mashinaviy o‘rganish tizimlariga nisbatan mas’uliyat va hisobdorlikni ta’minlashda faol rol o‘ynashlari mumkin. Ular turli norasmiy, ammo samarali usullar – bozor talabini boshqarish, reytinglar orqali fikr bildirish va jamoaviy diskursni shakllantirish – orqali tashkilotlarga bosim o‘tkazish va ularni izohlanadigan, shaffof hamda axloqiy jihatdan maqbul tizimlarni ishlab chiqishga undash imkoniyatiga egadirlar.

Benson o‘z tadqiqotlarida jismoniy shaxslar yuqoridagi usullar yordamida tartibga solish choralarini boshlash yoki tashkilotlarga nisbatan chora ko‘rishni samarali tarzda boshlay olishsa-da, iste’molchilar va mutaxassislarning hisobdorlikni ta’minlashi yo‘lida bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi [24; B. 1816]. Masalan, ko‘plab jamoaviy yondashuvlar sezilarli ta’sirga erishish uchun ko‘p sonli foydalanuvchilarni safarbar qilishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida ko‘plab odamlar mazkur tizimdan birdek zarar ko‘rgan bo‘lishini va ular hisobdor subyektning harakatlarini baholashda umumiy standartlardan foydalanishini talab etadi. Shu bilan birga, kompaniyalar foydalanuvchilarning salbiy munosabatini yumshatish maqsadida qarshi choralarni (masalan, jamoatchilik diskursini boshqacha yoritish) ko‘rishlari mumkin

Donia, Mökander va Smuha ilmiy izlanishlar orqali huquqiy institutlar tomonidan MO‘ tizimlarini tartibga solish va boshqarishga bo‘lgan chaqiriqlar tobora kuchayib borayotganini asoslab beradilar. Garchi amaldagi qonunlar, masalan, GDPR (Ma’lumotlarni umumiy himoya qilish reglamenti), MO‘ amaliyotlarini ma’lum darajada tartibga solsa-da, kelajakda yanada keng qamrovli qonunchilik choralari joriy etilishi zarur. Shu sababli, tashkilotlar kuchaytirilgan javobgarlik (liability) talablariga tayyor bo‘lishlari kerak.

Natijalar

“Javobgarlik” atamasi ko‘pincha “hisobdorlik” (accountability) bilan birga tilga olinadi va huquqiy institutlar bilan to‘qnash kelganda harakatlarni asoslash va mumkin bo‘lgan sud sanksiyalariga doir masalalarni o‘z ichiga oladi [25; B. 231]. Huquqiy hisobdorlik MO‘ faoliyatini nazorat qiladi va zarur aralashuv choralarini amalga oshirish imkonini ta’minlaydi [26; B. 62].

Tashkilotlar uchun huquqiy hisobdorlik doirasida ikki asosiy maqsad dolzarb hisoblanadi:

birinchidan, huquqiy institutlar talab qilganida MO‘ tizimlari haqida ma’lumot taqdim etishga tayyor bo‘lish;

ikkinchidan, muvofiqlik (compliance) talablari ham boshqaruviy, ham texnik nuqtai nazardan bajarilishi zarur. MO‘ tizimlarini loyihalashda tegishli boshqaruv choralarini joriy etish va huquqiy talablarni inobatga olish ushbu maqsadlarga erishishning samarali yo‘li bo‘lishi mumkin.

Huquqiy hisobdorlikdan tashqari, korxonalar kelajakda ma’muriy institutlar tomonidan qo‘yiladigan javobgarlik talablari ham muhimroq rol o‘ynashini kutishlari mumkin [27; B. 109]. Auditorlar yoki sertifikatlashtiruvchi organlar kabi xususiy yoki davlat nazoratchilari tashkilotlarni javobgar qilish uchun turli mexanizmlarni amalga oshirishlari mumkin.

Eng ko‘p muhokama qilinadigan vositalardan biri bu algoritmik auditlardir [28; B. 564]. Algoritmik auditlar texnik jihatlarga, masalan, ishonchlilik va barqarorlikka yoki muammoli xatti-harakatlar hamda MO‘ tizimlarining jamiyatga ta’siriga qaratilishi mumkin. Jamiyatga

ta’sirni audit qilishda ko‘pincha ta’sirni baholash kabi yondashuvlar taklif qilinadi, bu MO‘ tizimlarining mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini aniqlashga xizmat qiladi [29; B. 740]. Algoritmik auditlarga o‘xshab, sertifikatlash ham tashkilotning MO‘ amaliyotlarini baholash va ularni muayyan talab va standartlarga mos keltirishda qo‘llanilishi mumkin. Bizning fikrimizcha, algoritmik auditlar va sertifikatlash jarayonlari sun’iy intellekt tizimlarining jamiyatga salbiy ta’sirini aniqlash va oldini olishda muhim nazorat vositasi sifatida qaralishi lozim. Biroq bu vositalar faqat texnik emas, balki ijtimoiy-adolat va huquqiy javobgarlik mezonlari asosida ham amalga oshirilishi zarur.

Yana bir keng tarqalgan javobgarlik mexanizmi sifatida Brundage mustaqil tashqi ishtirokchilar orqali jiddiy hodisalarni yig‘ish va hisobot berish kerakligi haqida fikrlarni ilgari suradi. U algoritmlarning kutilmagan xatti-harakatlarini anonim tarzda oshkor qilish tadqiqotchilar va amaliyotchilarga bunday holatlardan kelajakda qochish uchun o‘rganilishi mumkin bo‘lgan saboqlarni aniqlashda yordam berishini tushuntiradi.

Huquqiy javobgarlik holatlarida tashkilotlar to‘g‘ri axborot va asoslantirishlarni taqdim etishda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, bu faqat salbiy oqibatlarga olib keladi. Biroq ma’muriy javobgarlik talablari to‘g‘ri bajarilganda, MO‘ tizimlarini ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va foydalanuvchi tashkilotlar o‘z tizimlarining qonuniyligi va ishonchliligiga erishishlari mumkin [30; B. 17]. Shu bois, agar bu talablar to‘g‘ri joriy etilsa, kompaniyalar mustaqil uchinchi shaxslar tomonidan tekshiruvdan o‘tishga va bunday manfaatdor tomonlar belgilagan javobgarlik talablariga rioya qilishga ixtiyoriy ravishda qiziqish bildirishi mumkin.

Hozirda bir nechta kompaniyalar tashkilot ichidagi javobgarlik shaklini joriy qilish bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rmoqda. Mantymaki tashkilot ichidagi javobgarlikni tashkilot tomonidan MO‘ tizimlari amaliyotlarini o‘zining ichki qadriyatlari va tashqi talablar bilan moslashtirish maqsadida amalga oshiriladigan ichki boshqaruv choralari sifatida tushunilishi mumkin deb baholaydi [31; B. 125]. Bunday choralar doirasida, kompaniyalar MO‘ tizimlari bilan ishlayotgan xodimlarni ichki nazoratni ta’minlash uchun javobgar deb e’lon qilishi mumkin. MO‘ tizimlarini ishlab chiqish, ishlatish va boshqarish bilan shug‘ullanuvchi amaliyotchilar o‘rtasida javobgarlikni joriy etish, Feuerriegelning fikricha, tashkilotlarga bo‘limlar va rollar bo‘yicha mas’uliyatni monitoring qilish vazifasini yuklaydi [32; B. 381]. Haqiqatdan ham foydalanuvchilar va nazoratchilar tomonidan qo‘yiladigan javobgarlik talablari ko‘proq salbiy xatti-harakatlarning oldini olish va ularni jazolashga qaratilgan bo‘lsa, tashkilot ichidagi javobgarlikning asosiy maqsadi — bunday oqibatlarning faol oldini olishdir. Kompaniyalar ichki javobgarlik choralarini joriy etib, tashkilot ichida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar haqida xabardorlikni oshirishi, MO‘ tizimlarini uzluksiz monitoring qilib borishi va ularni ichki hamda tashqi siyosatga muvofiq ravishda takomillashtirib borishi mumkin.

Jobin hamda Mittielstandtning ishlarida hozirda aksariyat tashkilotlar o‘zlarining mashinalashgan o‘qitish tizimlarini boshqarishda tamoyillarga asoslangan yondashuvga tayanishiga oid g‘oyalar ilgari suriladi [33; B. 391]. Biroq, ushbu yondashuv ko‘pincha tanqid qilinadi, chunki etik tamoyillar va ko‘rsatmalarni amaliyotga tatbiq etishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Shunga qaramay, Schneider va Seppalla ichki siyosatni belgilash va joriy etish MO‘ tizimlarini samarali boshqarishga erishish yo‘lida strategik dastlabki qadam sifatida ko‘rilishi mumkinligi borasida fikrlarni qo‘llab-quvvatlaydi [34; B. 142]. Ushbu ko‘rsatmalarga asoslanib, kompaniyalar MO‘ tizimlarini ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish, joriy

etish va boshqarish uchun standartlashtirilgan jarayonlar va qoidalarning aniq turlarini ishlab chiqishlari va qo‘llashlari (masalan, kod yozish, hujjatlashtirish, testdan o‘tkazish va arxitektura bo‘yicha ko‘rsatmalar), keyinchalik bu ko‘rsatmalardan ichki auditlarda foydalanib, algoritmik amaliyotlar ushbu me’yorlarga mos kelishini baholash mumkin.

Bundan tashqari, ichki ta’sirni baholash usullari ham qo‘llanilishi risklarni aniqlash va ularni oldindan boshqarish imkonini beradi. Tashqi manfaatdor shaxslar tomonidan tashkil etilgan hodisalarni aniqlash tizimlariga o‘xshash tarzda, kompaniyalar muammolarni tezda hal qilish va ulardan saboq olish imkonini beruvchi ichki tizimlarni joriy etishlari mumkin. Bunday hisobdorlik choralarini joriy etish tashkilotlarga o‘zlarining MO‘ tizimlari bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy oqibatlarni anglash va ularni yumshatishga imkon beradi. Shuningdek, ular hisobdor MO‘ tizimlarini proaktiv tarzda yaratish va huquqiy talablar asosida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tashqi hisobdorlik talablari yuzaga kelganda esa, korporatsiyalar ichki boshqaruv orqali to‘plangan ma’lumotlar yordamida ushbu talablarni bajarishda qo‘llab-quvvatlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Algoritmik javobgarlik masalasi tobora dolzarb bo‘lib borayotganiga qaramay, u hali BISE (Biznes va axborot tizimlari muhandisligi) hamjamiyatida yetarlicha e’tibor qozonmagan. Turli xil talablar va mas’uliyat choralari empirik va loyihaga yo‘naltirilgan tadqiqotlar uchun turli imkoniyatlarni rag‘batlantiradi.

Yuqorida tushuntirilganidek, ijtimoiy javobgarlik foydalanuvchilar va MO‘ tizimlaridan ta’sir ko‘ruvchi shaxslarning, ushbu tizimlarni taqdim etuvchi yoki boshqaruvchi subyektlardan javobgarlik talab qilish imkoniyatiga taalluqlidir. Shu bois, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar shaxslarning javobgarlikni qanday qabul qilishi va bu qabul qilish MO‘ tizimlari bilan o‘zaro aloqalar va foydalanishga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunishga qaratilishi lozim.

Bu yerda javobgarlikka oid turli tushunchalarni ajratish mumkin, ya’ni ayrim foydalanuvchilar tizimni taqdim etayotgan tashkilot javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga tayyor yoki tayyor emas deb hisoblashlari mumkin, boshqalar esa tizim bilan o‘zaro aloqada bo‘lar ekan, ayrim natijalar yoki harakatlar uchun aynan o‘zlari javobgardirlar deb baholashlari mumkin. Har ikkala holatda ham olimlar ushbu qabul qilinishga ta’sir etuvchi individual, institutsional va tashqi muhit omillarini o‘rganishlari mumkin.

Shuningdek, javobgarlikni talab qilishda iste’molchilar va mutaxassislar qo‘llaydigan strategiyalarni o‘rganish ham muhimdir. Bu yerda asosiy e’tibor turli strategiyalarning samaradorligi va ularni amalga oshirishda duch kelinadigan muammolarga qaratilishi kerak. Ushbu sohadagi natijalar qanday omillar ta’sirida javobgarlik talablari yuzaga kelishini, shuningdek, bunday talablarning qanday yo‘sinda amalga oshirilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, algoritmik javobgarlikning insoniy xatti-harakatlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini yoritib berishga xizmat qiladi.

Algoritmik javobgarlikning inson xulq-atvoriga ta’siri. MO‘ tizimlariga oid hozirgi qonunchilik nisbatan sust. BISE tadqiqotchilari qonun chiqaruvchilarga algoritmik siyosatlarni aniqlashtirishda bir necha yo‘llar bilan ko‘mak berishlari mumkin. Avvalo, olimlar MO‘ tizimlarining uzoq muddatli oqibatlarini nazariy jihatdan o‘rganib, yuridik va ma’muriy organlarga kelajakdagi xatarlar va ehtimoliy oqibatlar borasida xulosa bera olishadi. Shu bilan birga, algoritmik javobgarlik siyosatini belgilashda asos bo‘ladigan shaxslarning qadriyatlarini tizimli ravishda aniqlash mumkin. Kelajakdagi yoki mavjud tartibotlarning samaradorligini tahlil qilish uchun empirik tadqiqotlar o‘tkazilishi mumkin. Algoritmik tartibotlarning

tashkilotlarga ta’siri nuqtai nazaridan, firmalarning yuridik va ma’muriy talablarni qanday qabul qilayotgani hamda bu MO‘ tizimlarini ishlab chiqish va taqdim etishga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilishi mumkin.

Amaliyotda mutaxassislarning tartibot va tekshiruvlarga qanday munosabatda bo‘lishi – ularni tahdid sifatida ko‘radilarmi yoki aksincha, bu jarayonni o‘z faoliyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan imkoniyat deb baholaydilarmi – bu alohida e’tibor talab qiladigan ilmiy-savol bo‘lib qolmoqda. Mäntymäki, Mittelstadt va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, tashkilot doirasida algoritmik javobgarlikni boshqarish – bu faqat nazariy axloqiy tamoyillarni ilgari surish emas, balki ushbu tamoyillarni amaliy talablar va boshqaruv mexanizmlariga samarali tarzda tatbiq etish zaruratini ham anglatadi [31; B. 122]. Ularning ta’kidlashicha, bu masalada amaliyotchilarga ko‘maklashishning eng samarali yo‘llaridan biri – kompaniya ichida axloqiy xabardorlikka asoslangan madaniyatni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni ilmiy asosda baholashdir. Shuningdek, qanday boshqaruv vositalari amaliyotchilarda o‘z ishlariga nisbatan javobgarlik hissini kuchaytirishi va bu qanday qilib texnik qarorlar hamda biznes faoliyatlariga ta’sir qilishini o‘rganish mumkin. Agar xodimlarning shubhalari bartaraf qilinsa va ular axloqiy tamoyillarga mos keladigan MO‘ tizimlarini ishlab chiqish uchun zarur resurs va salohiyat bilan ta’minlansa, ko‘plab bilim va xabardorlik bilan bog‘liq to‘siqlarni yo‘qotish mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqotchilar qaysi boshqaruv choralari xavflarni kamaytirishda eng samarali ekanini va ular korxonalar uchun qanday real biznes qiymatini yaratishini tahlil qilishlari mumkin. Shu bilan birga, javobgarlik talablariga nisbatan tashkilotlar tomonidan ko‘rilgan choralar samaradorligi o‘rganilib, amaliyotchilar uchun iqtisodiy va obro‘ga oid zararni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Ko‘pincha MO‘ tizimlarini yaratish va taqdim etishda bir nechta ishtirokchilar bo‘lganini hisobga olsak, kelgusi tadqiqotlar ushbu ishtirokchilar o‘rtasidagi taqsimlangan javobgarlik qanday tashkil etilganini va bu ularda javobgarlik hissining shakllanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganishi mumkin. Shu yo‘nalishda, boshqaruv va texnik rollar qanday ta’sirlanishi va bu rollar taqsimlangan javobgarlik talablariga qanday munosabatda bo‘lishi ham tahlil qilinishi kerak.

Garchi algoritmik javobgarlik talablarining ko‘plab sabablariga duch kelish mumkin bo‘lsa-da, MO‘ tizimlarining salbiy natijalariga eng ko‘p hissa qo‘shadigan omillardan biri bu ularning texnik loyihasidir. Tadqiqotchilar allaqachon nazariy jihatdan MO‘ tizimlarida javobgarlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan interpretatsiya (tushuntirib bera olish) talablarini muhokama qilishni boshlaganlar. Biroq bu talablarni qanday amalga oshirish va turli manfaatdor tomonlarga tashkilotlar va amaliyotchilarning biznes faoliyatini baholash imkonini beruvchi shaklga qanday keltirish kerakligi hali aniq belgilanmagan va baholanmagan. Loyihaga yo‘naltirilgan yondashuv asosida, olimlar har xil institut yoki ijtimoiy javobgarlik ehtiyojlarini qondira oladigan tushuntirish mexanizmlari va interaktiv interfeyslarni ishlab chiqish va baholashlari mumkin. MO‘ tizimlarining boshqaruvchanligi (controllability) nuqtai nazaridan, olimlar turli darajadagi avtonom tizimlar uchun javobgarlikni ta’minlovchi loyihaviy tamoyillarni ishlab chiqishlari mumkin. Bundan tashqari, MO‘ tizimlarining salbiy oqibatlariga olib keluvchi omillar va ularni bartaraf etish uchun texnik chora-tadbirlar ishlab chiqish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Bu mavjud bo‘lgan mustahkamlik (robustness), adolatlilik (fairness) va maxfiylik (privacy) bilan bog‘liq muammolarni hal etishga yordam

beradi. Yana bir istiqbolli yo‘nalish — interpretatsiya va boshqaruvchanlik usullarini amaliyotda qanday joriy qilinayotganini va bu jarayondagi muammolarni o‘rganish bo‘lishi mumkin. Texnik joriy etishdagi muammolarni tushunish orqali javobgarlikni ta’minlashga yordam beruvchi yanada samarali vositalar va metodlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, algoritmik javobgarlik — bu MO‘ tizimlari qanday tuzilgan, qanday qo‘llanilgan va qanday natijalar bergani uchun kim mas’ul ekanini aniqlashga qaratilgan huquqiy va institutsional mexanizmdir. Biroq bu faqat texnik muammo emas — u huquq, axloq, ijtimoiy adolat va davlat boshqaruvi bilan bevosita bog‘liq murakkab masaladir. Shu sababli algoritmik qarorlar ustidan javobgarlikni ta’minlashda nafaqat dasturchilar va ishlab chiquvchilar, balki foydalanuvchilar, tashkilotlar, regulyatorlar va jamiyatning o‘zi ham faol va mas’ul ishtirokchiga aylanadi. Ular o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni aniq belgilash esa algoritmlarning shaffofligi, hisobdorligi va odil ishlashini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, algoritmik javobgarlik faqat MO‘ tizimlarining ta’siri uchun kim javobgar ekanligi haqidagi savol bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, bu institutlar, tashkilotlar va shaxslar MO‘ tizimlarini qanday boshqarishi mumkinligi hamda ularni ishlab chiquvchilar va yetkazib beruvchilarning qanday qilib javobgarlik majburiyatlarini bajara olishi bilan bog‘liqdir. Garchi tadqiqotchilar interpretatsiya qilinadigan va boshqariladigan MO‘ tizimlariga erishish uchun choralarni taklif eta boshlagan bo‘lsalar-da, ularning aniq joriy qilinishi va bu tizimlar atrofidagi ekotizimga ta’siri hozircha yetarlicha o‘rganilmagan. Algoritmik javobgarlikni boshqaruv (governance) masalasi sifatida talqin qilib, unga turli nuqtai nazardan yondashish orqali bu boradagi kelajak tadqiqotlariga asos yaratiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Obermeyer Z, Powers B, Vogeli C, Mullainathan S (2019) Dissecting racial bias in an algorithm used to manage the health of populations. Sci 366(6464):447–453. https://doi.org/10.1126/ science.aax2342
2. Blattner L, Nelson S (2021) How costly is noise? Data and disparities in consumer credit. https://doi.org/10.48550/ARXIV.2105.07554
3. Mattu S, Hill K (2022) How a company you’ve never heard of sends you letters about your medical condition*. In: Martin K (ed) Ethics of data and analytics. Auerbach, pp 107–111. https://doi. org/10.1201/9781003278290-17
4. Liu B, Ding M, Shaham S, Rahayu W, Farokhi F, Lin Z (2022) When machine learning meets privacy: a survey and outlook. ACM Comput Surv 54(2):1–36. https://doi.org/10.1145/3436755
5. Novelli C, Taddeo M, Floridi L (2023) Accountability in artificial intelligence: what it is and how it works. AI Soc. https://doi.org/ 10.1007/s00146-023-01635-y
6. Wieringa M (2020) What to account for when accounting for algorithms: a systematic literature review on algorithmic accountability. In: Proceedings of the conference on fairness, accountability, and transparency. https://doi.org/10.1145/ 3351095.3372833
7. Donia J (2022) Normative logics of algorithmic accountability. In: ACM conference on fairness, accountability, and transparency, pp 598–598. https://doi.org/10.1145/3531146.3533123
8. Jobin A, Ienca M, Vayena E (2019) The global landscape of AI ethics guidelines. Nat Mach Intell 1(9):389–399. https://doi.org/10. 1038/s42256-019-0088-2

9. Poechhacker, Nikolaus & Kacianka, Severin. (2021). Algorithmic Accountability in Context. Socio-Technical Perspectives on Structural Causal Models. Frontiers in Big Data. 3. 10.3389/fdata.2020.519957.
10. Bovens M (2007) Analysing and assessing accountability: a concep tual framework. Eur Law J 13(4):447–468. https://doi.org/10. 1111/j.1468-0386.2007.00378.x
11. Wieringa, Maranke. (2020). What to account for when accounting for algorithms: a systematic literature review on algorithmic accountability. 1-18. 10.1145/3351095.3372833.
12. Feuerriegel S, Dolata M, Schwabe G (2020) Fair AI: challenges and opportunities. Bus Inf Syst Eng 62(4):379–384. https://doi.org/ 10.1007/s12599-020-00650-3
13. Lipton ZC (2018) The mythos of model interpretability. Commun ACM 61(10):36–43. https://doi.org/10.1145/3233231
14. Liu B, Ding M, Shaham S, Rahayu W, Farokhi F, Lin Z (2022) When machine learning meets privacy: a survey and outlook. ACM Comput Surv 54(2):1–36. https://doi.org/10.1145/3436755
15. Tocchetti A, Corti L, Balayn A, Yurrita M, Lippmann P, Brambilla M, Yang J (2022) A.I. robustness: a human-centered perspective on technological challenges and opportunities. https://doi.org/10. 48550/ARXIV.2210.08906
16. Bryson JJ, Diamantis ME, Grant TD (2017) Of, for, and by the people: the legal lacuna of synthetic persons. Artif Intell Law 25(3):273–291. https://doi.org/10.1007/s10506-017-9214-9
17. Martin K (2022) Algorithmic bias and corporate responsibility: how companies hide behind the false veil of the technological imperative*. In: Martin K (ed) Ethics of data and analytics. Auerbach, pp. 36–50. https://doi.org/10.1201/9781003278290-7
18. Schneider, Johannes & Abraham, Rene & Meske, Christian & Brocke, Jan vom. (2022). Artificial Intelligence Governance For Businesses. Information Systems Management. 40. 10.1080/10580530.2022.2085825.
19. Mueller B (2022) Corporate digital responsibility. Bus Inf Syst Eng 64(5):689–700. https://doi.org/10.1007/s12599-022-00760-0
20. Shin D, Park YJ (2019) Role of fairness, accountability, and transparency in algorithmic affordance. Comput Hum Behav 98:277–284. https://doi.org/10.1016/j.chb.2019.04.019
21. Buhmann A, Paßmann J, Fieseler C (2020) Managing algorithmic accountability: balancing reputational concerns, engagement strategies, and the potential of rational discourse. J Bus Ethics 163(2):265–280. https://doi.org/10.1007/s10551-019-04226-4
22. Kellogg KC, Valentine MA, Christin A (2020) Algorithms at work: the new contested terrain of control. Acad Manag Ann 14(1):366–410. https://doi.org/10.5465/annals.2018.0174
23. Gre'goire Y, Fisher RJ (2008) Customer betrayal and retaliation: when your best customers become your worst enemies. J Acad Mark Sci 36(2):247–261. https://doi.org/10.1007/s11747-007-0054-0
24. Benson A, Sojourner A, Umyarov A (2020) Can reputation discipline the gig economy? Experimental evidence from an online labor market. Manag Sci 66(5):1802–1825. https://doi.org/10.1287/ mnsc.2019.3303
25. Slota SC, Fleischmann KR, Greenberg S, Verma N, Cummings B, Li L, Shenefiel C (2021) Many hands make many fingers to point: challenges in creating accountable AI. AI Soc. https://doi.org/10. 1007/s00146-021-01302-0
26. Stahl BC (2021) Addressing ethical issues in AI. In: Stahl BC (ed) Artificial intelligence for a better future. Springer, pp 55–79. https://doi.org/10.1007/978-3-030-69978-9_5
27. Mattu S, Hill K (2022) How a company you've never heard of sends you letters about your medical condition*. In: Martin K (ed) Ethics of data and analytics. Auerbach, pp 107–111. https://doi. org/10.1201/9781003278290-17

28. Raji ID, Xu P, Honigsberg C, Ho D (2022) Outsider oversight: designing a third party audit ecosystem for AI governance. In: Proceedings of the 2022 AAAI/ACM conference on AI, ethics, and society, pp 557–571. https://doi.org/10.1145/3514094. 3534181
29. Metcalf J, Moss E, Watkins EA, Singh R, Elish MC (2021) Algorithmic impact assessments and accountability: the co construction of impacts. In: Proceedings of the 2021 ACM conference on fairness, accountability, and transparency, pp 735–746. https://doi.org/10.1145/3442188.3445935
30. Martin K, Waldman A (2022) Are algorithmic decisions legitimate? The effect of process and outcomes on perceptions of legitimacy of AI decisions. J Bus Ethics. https://doi.org/10.1007/s10551 021-05032-7
31. Ma¨ntyma¨ki M, Minkkinen M, Birkstedt T, Viljanen M (2022) Defining organizational AI governance. AI Ethics. https://doi. org/10.1007/s43681-022-00143-x
32. Feuerriegel S, Dolata M, Schwabe G (2020) Fair AI: challenges and opportunities. Bus Inf Syst Eng 62(4):379–384. https://doi.org/ 10.1007/s12599-020-00650-3
33. Jobin A, Ienca M, Vayena E (2019) The global landscape of AI ethics guidelines. Nat Mach Intell 1(9):389–399. https://doi.org/10. 1038/s42256-019-0088-2
34. Schneider J, Abraham R, Meske C, Vom Brocke J (2022) Artificial intelligence governance for businesses. Inf Syst Manag. https://doi.org/10.1080/10580530.2022.2085825

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

LEGAL AND ECONOMIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "SERVICES": FROM THE POINT OF VIEW OF CIVIL DOCTRINE

Asadov Shahriddin Fakhriddin ugli
Lecturer of private law at TSUL
Email: shahriddinasadov@gmail.com

Abstract. This article analyzes the legal and economic aspects of the concept of service from the point of view of civil doctrine. The study examined the distinguishing features of services from work, their tangible and intangible results, as well as the specifics of service contracts. The author analyzed various scientific concepts and proposed a new approach to the concept of service. The article shows the relationship between the action related to the quality of service and the result it is aimed at.

Keywords: service, civil doctrine, contract, legal services, economic theory, material result, non-material result.

XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN

Asadov Shahriddin Faxriddinovich
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Fuqarolik huquqi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat tushunchasining huquqiy va iqtisodiy jihatlari sivilistik doktrina nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda xizmatning ishlardan farqlovchi belgilari, uning moddiy va nomoddiy natijalari, shuningdek xizmat ko‘rsatish shartnomalarining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Muallif tomonidan turli ilmiy konsepsiyalar tahlil qilingan va xizmat tushunchasiga yangicha yondashuv taklif etilgan. Maqolada xizmat sifatidagi harakat va undan ko‘zlangan natija o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat, sivilistik doktrina, shartnoma, huquqiy xizmatlar, iqtisodiy nazariya, moddiy natija, nomoddiy natija.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N38

Kirish

Zamonaviy huquqshunoslikda xizmat tushunchasi muhim o‘rin egallab, fuqarolik huquqining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Biroq, xizmatning huquqiy tabiati va mazmuni bo‘yicha ilmiy adabiyotda turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, bu masalaning yetarlicha o‘rganilmaganligidan dalolat beradi [1, 2].

Xizmat tushunchasining to‘g‘ri talqin etilishi amaliy huquqni qo‘llashda, xususan, xizmat ko‘rsatish shartnomalarini tuzish va ijro etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu kategoriyaning nazariy asoslarini chuqurroq tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi [3].

Tadqiqotning maqsadi xizmat tushunchasini sivilistik doktrina nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish va uning huquqiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishdan iborat.

Xizmat tushunchasiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, bu borada ikkita asosiy yondashuv mavjud: iqtisodiy va huquqiy. Birinchi yondashuv xizmatning iqtisodiy mohiyatini, ikkinchisi esa uning huquqiy tabiatini oʻrganishga qaratilgan [4, 5].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ushbu fenomen turli davrlarda turli sivilistlar tomonidan oʻrganilgan, jumladan, T.P. Levshina, Yu.V. Romanes, L.I. va Ye.E. Shevchenkolar xizmat tushunchasining turli jihatlarini oʻrgangan [6, 7, 8]. Ularning tadqiqotlari xizmatning faoliyat bilan uzviy bogʻliqligi va nomoddiy xarakterga ega ekanligini koʻrsatadi.

V.A. Vaypan va D.I. Stepanovlarning ishlari huquqiy xizmatlar sohasiga bagʻishlangan boʻlib, ular xizmatning oʻziga xos xususiyatlarini ochib berishga hissa qoʻshgan [9, 10].

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tahliliy va sintetik usullar qoʻllanilgan. Nazariy materiallar tahlil qilingan va amaliy misollar bilan tasdiqlangan.

Muhokama

Xizmatning ishlardan farqlovchi belgilari

Sivilistik doktrinada xizmatni ta’riflashda mualliflar odatda uni ishlardan farqlovchi belgilarga tayanadilar. Eng asosiy belgi – xizmatning uni koʻrsatish boʻyicha faoliyatning oʻzi bilan uzviy bogʻliqligi hisoblanadi [13].

T.P. Levshinaning fikricha, xizmat deganda ijrochining muayyan harakatlari yoki faoliyati tushuniladi. Bu faoliyatlarning ayrimlari moddiy natija qoldirmasa, boshqalarida aniq moddiy natija yuzaga kelishi mumkin [6]. Muallif bunga misol tariqasida stomatologik yordam koʻrsatishni keltiradi – unda moddiy natija (qoʻyilgan plomba) mavjud, terapevtik davolashda esa yoʻq.

Levshinaning konsepsiyasiga koʻra, barcha xizmatlarga xos umumiy jihat mavjud: natijadan avval moddiy ifodaga ega boʻlmagan, lekin u bilan yaxlit bir butunni tashkil etuvchi harakatlar sodir etiladi. Shundan kelib chiqib, u “xizmat koʻrsatishda natijaning oʻzi emas, balki shu natijaga olib kelgan harakatning oʻzi ‘sotiladi’” degan xulosaga keladi [6].

Xizmat natijasining oʻziga xosligi

Yu.V. Romanesning fikri ham diqqatga sazovor. Uning ta’kidlashicha, “xizmat koʻrsatish umuman biror-bir natijaga olib kelmasligi ham mumkin... majburiyatning oʻziga xosligi sababli, bu natija koʻrsatilayotgan xizmat bilan toʻliq kafolatlanmaydi; ijrochi shartnomaviy xizmatlarni lozim darajada bajargan taqdirda ham, kutilgan natija yuzaga kelmasligi mumkin” [7].

Ushbu mulohazasini shakllantirar ekan, muallif muayyan sharoitlarda ijobiy natijaning yuzaga kelishi mumkinligini ham istisno etmaydi, lekin bu faqatgina “xizmatlarning sifatli ekanligidan” dalolat berishi mumkin [7].

L.I. va Ye.E. Shevchenkolarning pozitsiyasi boʻyicha, huquqiy xizmatlar koʻrsatish shartnomasining predmeti ijrochining natijasini emas, balki uning buyurtmachi topshirigʻiga koʻra amalga oshiradigan jarayonini nazarda tutadi [8]. Garchi bu jarayonda biror-bir moddiy obyekt, masalan, shartnoma loyihasi yoki da’vo arizasi yaratilishi istisno etilmasa-da.

V.A. Vaypan bu nuqtai nazarni qoʻllab-quvvatlab, advokatning haq evaziga huquqiy xizmatlar koʻrsatish shartnomasi boʻyicha majburiyatlari nafaqat muayyan harakatlarni sodir etishni (masalan, maslahat berish), balki ushbu harakatlar natijasini (huquqiy masala boʻyicha yozma xulosa, hujjat loyihasi va h.k.) buyurtmachiga taqdim etishni ham oʻz ichiga olishi mumkinligini ta’kidlaydi [9].

D.I. Stepanov ta’kidlaganidek, bunday shartnomalarda xizmatning mohiyati buyurtmachiga maslahat berishdan iborat bo‘lib, ma’lumot (maslahat) uzatilayotgan moddiy jism (qog‘oz) esa faqatgina uning shakli sifatida namoyon bo‘ladi [10].

Ko‘p hollarda axborot xizmatlarining natijasi buyurtmachining axborot tashuvchi moddiy jismni olishi bo‘lsa, auditorlik xizmatlarining natijasi – bu auditorning tekshirilayotgan firmaning moliyaviy-buxgalterlik faoliyatining ishonchliligi to‘g‘risidagi sifatli tuzilgan yozma xulosasidir [14].

M.N. Maleina ta’kidlaganidek, hatto tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi shartlariga ijobiy natija (masalan, bemorning sog‘ayishi) kiritilgan taqdirda ham, beriladigan hujjat erishilgan natijani faqat yozma ravishda mustahkamlaydi (tasdiqlaydi), lekin natijaning o‘zi moddiy ifodaga ega bo‘lmaydi, chunki u olingan bilimlar hajmidan iboratdir [11].

Ye.G. Shablovaning fikr bildirish usuli (og‘zaki yoki yozma) xizmatlarning iqtisodiy mohiyatini o‘zgartirmaydi, degan fikri ham o‘rinlidir [12].

Taqdim etilgan ilmiy konsepsiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xizmat sifatidagi harakat va bunday xizmatdan ko‘zlangan maqsad – istalgan “natija” o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Bu natija pudrat turidagi majburiyatlarga yaqinlashishi mumkin, lekin ularga aynan o‘xshash emas [15].

Bunday o‘xshashlikka qaramay, obyektda farqlar saqlanib qoladi va bu farqlar faoliyat natijasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Xizmat uchun umumiy tushuncha bu xizmat ko‘rsatuvchining “harakati” (faoliyati) bo‘lib, u xizmat oluvchi tomonidan his-tuyg‘ular, idrok, kafolatlar darajasida olinishi mumkin bo‘lgan va sifati haqida xulosa chiqarish uchun yozma ravishda ifodalanishi mumkin bo‘lgan muayyan “natijaga” olib keladi [16].

Natijalar

1. Xizmat tushunchasining huquqiy va iqtisodiy jihatlari bir-birini inkor etmay, aksincha, bir-birini to‘ldiradi va o‘zaro bog‘liqdir.

2. Xizmatning asosiy belgisi uning faoliyat bilan uzviy bog‘liqligi va nomoddiy (moddiylashmagan) xarakterga ega ekanligidir.

3. Xizmat ko‘rsatishda “natijaning o‘zi emas, balki shu natijaga olib kelgan harakatning o‘zi sotiladi”.

4. Xizmat sifatidagi harakat va undan ko‘zlangan natija o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud.

5. Xizmat – bu xizmat ko‘rsatuvchining faoliyati bo‘lib, u xizmat oluvchi tomonidan his-tuyg‘ular, idrok va kafolatlar darajasida qabul qilinadigan muayyan natijaga olib keladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга третья: Договоры о выполнении работ и оказании услуг. – М.: Статут, 2011. – 1055 с.
2. Гражданское право: Учебник. В 3 т. Т. 2 / Под ред. А.П. Сергеева. – М.: РГ-Пресс, 2010. – 880 с.
3. Комментарий к Гражданскому кодексу Российской Федерации / Под ред. О.Н. Садикова. – М.: КОНТРАКТ, 2006. – 1062 с.
4. Иоффе О.С. Обязательственное право. – М.: Юридическая литература, 1975. – 880 с.
5. Халфина Р.О. Договор в советском гражданском праве. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – 207 с.
6. Левшина Т.П. Договор возмездного оказания услуг в гражданском праве России: дис. ... канд. юрид. наук. – Томск, 2002. – 180 с.

7. Романец Ю.В. Система договоров в гражданском праве России. – М.: Норма, 2001. – 496 с.
8. Шевченко Л.И., Шевченко Е.Е. Договор оказания правовых услуг // Законодательство. – 2003. – № 11. – С. 15-22.
9. Вайпан В.А. Реализация принципа свободы договора в гражданском праве России. – М.: Юстицинформ, 2004. – 208 с.
10. Степанов Д.И. Услуги как объект гражданских прав. – М.: Статут, 2005. – 400 с.
11. Малеина М.Н. Договор об оказании медицинских услуг // Законодательство и экономика. – 2001. – № 8. – С. 23-29.
12. Шаблова Е.Г. Гражданско-правовое регулирование отношений на рынке информационных услуг: дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2002. – 195 с.
13. Санникова Л.В. Услуги в гражданском праве России. – М.: Волтерс Клувер, 2006. – 176 с.
14. Аудиторская деятельность: правовые основы / Под ред. А.Ю. Викулина. – М.: Юристъ, 2005. – 382 с.
15. Богданов Е.В. Договор подряда. – Харьков: Консум, 1999. – 240 с.
16. Суханов Е.А. Гражданское право: В 4 т. Том 3: Обязательственное право. – М.: Волтерс Клувер, 2008. – 800 с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

FEATURES OF REGULATION OF ANTIDUMPING AND COUNTERVAILING DUTIES WITHIN THE FRAMEWORK OF THE WTO AND UZBEKISTAN

Sunnatillaeva Sarvinoz
Tashkent State University of Law,
Lecturer of International Law and Human Rights Department

Abstract. In a rapidly changing global trade system, a country's accession to the World Trade Organization (WTO) plays a crucial role in shaping international economic processes. Uzbekistan is a notable example, actively pursuing WTO membership while aligning its trade policies and regulatory framework with WTO requirements. This article analyzes trade protection measures, including anti-dumping and countervailing duties, which are essential for protecting Uzbekistan's domestic market against unfair practices. The article further examines the definitions and regulations of these measures within the WTO framework and Uzbekistan's legal framework, highlighting significant differences and the implications for Uzbekistan's trade policy. Case studies from the European Union illustrate the complexities involved in implementing these protective measures, underscoring the need for Uzbekistan to adopt best practices as it progresses toward WTO membership.

Keywords: World Trade Organization, Uzbekistan, trade protection measures, anti-dumping duties, countervailing duties, international trade, regulatory framework, EU case studies.

АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА

Суннатиллаева Сарвиноз
Преподаватель Кафедры Международного права и прав человека
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В условиях быстро меняющейся глобальной торговой системы присоединение страны к Всемирной торговой организации (ВТО) играет важную роль в формировании международных экономических процессов. Узбекистан является ярким примером, активно стремящимся к членству в ВТО и приводя свои торговые политики и нормативно-правовую базу в соответствие с требованиями ВТО. В данной статье анализируются меры торговой защиты, включая антидемпинговые и компенсационные пошлины, которые необходимы для защиты внутреннего рынка Узбекистана от недобросовестных практик. Также рассматриваются определения и регламенты этих мер в рамках ВТО и законодательства Узбекистана, подчеркиваются значительные различия и их влияние на торговую политику Узбекистана. Примеры из практики Европейского Союза иллюстрируют сложности, связанные с применением этих защитных мер, подчеркивая необходимость для Узбекистана адаптировать лучшие практики на пути к членству в ВТО.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, Узбекистан, меры торговой защиты, антидемпинговые пошлины, компенсационные пошлины, международная торговля, нормативно-правовая база, практика ЕС.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N39

Введение. В условиях постоянно меняющейся глобальной торговой системы присоединение стран к Всемирной торговой организации (ВТО) становится важным фактором формирования международных экономических процессов. Одним из

примеров является Узбекистан, который активно продвигается по пути к членству в ВТО. В рамках переговоров о присоединении Узбекистан работает над приведением своей торговой политики и нормативно-правовой базы в соответствие с требованиями ВТО. В ходе этого сложного процесса регулирование мер торговой защиты является важной темой, требующей глубокого анализа.

Вместе с тем, для стран с развивающей экономикой как Узбекистан очень важно иметь инструменты для защиты своего внутреннего рынка от возможных недобросовестных практик. Применение мер торговой защиты таких как антидемпинговые и компенсационные пошлины позволит осуществить это без нарушения правил ВТО.

Анализ определений мер торговой защиты ВТО и Узбекистана. Регулирование мер торговой защиты представляет собой сложную и многогранную задачу в рамках ВТО. Эти меры, включающие антидемпинговые пошлины, компенсационные пошлины и защитные меры, направлены на защиту внутренних отраслей от недобросовестной или наносящей ущерб конкуренции со стороны иностранных производителей[1].

Антидемпинговые меры представляют собой механизм торговой защиты, применяемый странами для противодействия практике «демпинга», когда иностранные производители продают свои товары на внутреннем рынке по ценам ниже нормальной стоимости в их стране[2]. В рамках ВТО (ст. VI ГАТТ) под демпингом понимается ситуация, при которой товары одной страны поступают на рынок другой страны по цене ниже их нормальной стоимости. Нормальная стоимость определяется как сравнимая цена аналогичного товара, продаваемого на внутреннем рынке страны-экспортера при обычных условиях торговли. Если такая цена отсутствует, то цена товара для сравнения может быть наивысшей ценой аналогичного товара, экспортируемого в третью страну, или стоимостью его производства с добавлением расходов по продаже и прибыли. Демпинг осуждается в случаях, когда он причиняет или угрожает причинить материальный ущерб промышленности импортирующей страны или сдерживает её создание[3].

В случае наличия демпинга и материального ущерба промышленности, страны имеют право применять антидемпинговые пошлины для предотвращения или устранения демпинга. Пошлина взимается с товара, который был продан на рынок страны по демпинговой цене. Размер антидемпинговой пошлины не должен превышать демпинговую маржу, которая определяется как разница между нормальной стоимостью товара и ценой, по которой он был продан на рынке импортирующей страны[3].

В области регулирования мер по защите торговли в Узбекистане действует Закон Республики Узбекистан «О защитных мерах, антидемпинговых и компенсационных пошлинах» от 11 декабря 2003 года. Также имеется Положение о порядке проведения расследований в целях применения защитных мер, антидемпинговых и компенсационных пошлин, которое было утверждено постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19.05.2005 г. № 129.

Определение демпинга и установление антидемпинговых пошлин в рамках указанных законодательных актов осуществляется аналогично порядку, установленному ВТО. Однако закон Узбекистана устанавливает, что для применения

антидемпинговых мер необходимо наличие **серьезного ущерба** для отрасли экономики, в отличие от правил ВТО, где достаточно доказательства факта **ущерба.**

Определение компенсационных мер. Компенсационные меры, с другой стороны, представляют собой инструменты торговой защиты, применяемые для нейтрализации последствий субсидий, предоставляемых иностранными правительствами своим экспортерам. Эти меры призваны выравнивать конкурентные условия и защищать внутренние отрасли от недобросовестной конкуренции. Так, согласно ст. VI ГАТТ, компенсационная мера представляет собой специальную пошлину, взимаемую с целью устранения воздействия любой дотации или субсидии, предоставленной, прямо или косвенно, на изготовление, производство или экспорт какого-либо товара[3].

По правилам ВТО, в частности в рамках Соглашения о субсидиях и компенсационных мерах, выделяются два вида субсидий, которые запрещены экспортные субсидии и субсидии, обусловленные использованием отечественных товаров вместо импортных[4].

А под субсидией понимается любая финансовая помощь, предоставленная государством или государственным органом, которая обеспечивает выгоду получателю. Субсидия может включать прямое предоставление средств (например, гранты, кредиты), отказ от поступлений в бюджет (налоговые льготы), предоставление товаров или услуг по заниженной стоимости или покупку товаров по завышенной цене. Для квалификации как субсидии должны быть выполнены три условия: наличие финансового вклада, участие государственного органа и предоставление выгоды, недоступной в обычных рыночных условиях. Вместе с тем, субсидия также должна быть специфичной, то есть она должна быть предоставлена лишь определённым предприятиям, отраслям или регионам, а не доступна в широком смысле на общих условиях[4].

В законодательстве Узбекистана определение субсидии аналогично вышеуказанному порядку в соответствии с правилами ВТО. Однако, как и в случае с антидемпинговыми мерами в случае компенсационных мер по законодательству республики требуется наличие **серьезного ущерба** [5] в отличии от правил ВТО, где достаточно доказательства факта **ущерба.**

Ниже приведен анализ особенностей установления данных мер в рамках ВТО на примере практики ЕС.

Особенности установления антидемпинговых пошлин. Одним из участников ВТО, использующих активно меры торговой защиты является Европейский Союз (ЕС), который имеет хорошо разработанную систему использования антидемпинговых, компенсационных мер. Подход ЕС к мерам торговой защиты заключается в нахождении баланса между необходимостью защиты внутренних отраслей и соблюдением принципов свободной и справедливой торговли[6].

В обычных условиях для расчета демпинговой маржи в отношении рыночных экономик ЕС использует внутренние цены или стоимость производства товаров в стране-экспортере. Однако в случае с товарами, произведенных в странах с нерыночными экономиками внутренние цены часто не отражают рыночные реалии из-за сильного вмешательства государства в экономику. Поэтому для таких стран ЕС

применяет методику расчета нормальной стоимости, основанную на ценах или стоимости производства в аналогичной третьей стране с рыночной экономикой.

Ранее в рамках ЕС был установлен список стран с нерыночной экономикой, включающий, среди прочих, Узбекистан, Китай, Вьетнам и другие страны. Однако с декабря 2016 года ЕС изменил свой подход и больше не использует фиксированный список стран с нерыночной экономикой. Вместо этого ЕС рассматривает экономику каждой страны по нескольким критериям, чтобы определить, нарушается ли в этой стране рыночное ценообразование и существует ли государственное вмешательство, влияющее на цены[7].

Так, в данный момент рамках расследований ЕС рассматривает следующие факторы, которые могут свидетельствовать о нерыночной экономике:

(i) рынок, который в значительной степени обслуживается предприятиями, находящимися под собственностью, контролем или руководством властей страны-экспортёра;
(ii) участие государства в компаниях, позволяющее вмешиваться в ценообразование и расходы;
(iii) государственная политика или меры, предоставляющие преимущества местным поставщикам или иначе воздействующие на рыночные механизмы;
(iv) отсутствие, дискриминационное применение или слабое исполнение законов о банкротстве, корпоративном управлении или праве собственности;
(v) искажение расходов на оплату труда; и
(vi) (предоставление финансирования через учреждения, которые выполняют государственные задачи или иначе зависят от государства [8].

Именно данная особенность установления нормальной стоимости товаров в отношении стран с нерыночной экономикой чаще всего становится причиной споров в рамках ВТО.

Так, в деле «Европейские сообщества — Биодизель (Аргентина)», третейская группа ВТО решила, что ЕС неправильно установил нормальную стоимость биодизеля, произведенного в Аргентине. Как уже упоминалось выше, нормальная стоимость рассчитывается на основе внутренних цен на сырье в стране-экспортере. Однако в этом случае Европейская комиссия заменила аргентинские цены на сырье (соевое масло) международными рыночными ценами, заявив, что внутренние цены в Аргентине не отражают рыночные условия из-за государственного регулирования. Аргентина в ответ на это утверждала, что ЕС нарушил Антидемпинговое соглашение ВТО, так как замена внутренних цен на сырье международными ценами привела к завышению нормальной стоимости, что, в свою очередь, увеличило расчет демпинговой маржи и антидемпинговую пошлину. Аргентина также настаивала, что ЕС неправомерно скорректировал нормальную стоимость, не представив достаточных доказательств того, что внутренние цены на соевое масло в Аргентине были искажены государственными мерами[9].

По итогам рассмотрения дела, третейская группа согласилась с тем, что ЕС неправомерно заменил внутренние цены на сырье международными ценами **без достаточных доказательств** искажения аргентинских цен на соевое масло[10].

Данное дело играет важную роль в установлении антидемпинговых мер в отношении товаров, произведенных в нерыночных экономиках, в странах с сильным государственным регулированием в экономику. Государства должны четко обосновывать необходимость замены внутренних цен международными и несут бремя доказывания.

Стоит отметить, что согласно законодательству Узбекистана не предусматривается особый порядок определения нормальной стоимости товаров, произведенных в странах с нерыночной экономикой. Узбекистан также может рассмотреть специальный порядок определения нормальной стоимости товаров, произведенных в странах с государственным присутствием в отраслях экономики, и где цены соответственно не соответствуют рыночным.

Вместе с тем, экономика Узбекистана в рамках ЕС рассматривается как нерыночная и в случае возникновения дела о демпинге в отношении товаров, произведенных в Узбекистане, также может предусматриваться особый порядок ценообразования на эти товары. Изучение определения нормальной стоимости в нерыночных условиях и условия, процедура в рамках ВТО имеет прямой интерес для Узбекистана.

Особенности установления компенсационных пошлин. Как уже выше отмечалось, при определении субсидий в рамках ВТО должны быть выполнены несколько условий (наличие финансового вклада, участие государственного органа и предоставление выгоды), однако толкование данных критериев может отличаться в разных юрисдикциях. Так, в следующем деле, Панель и апелляционный орган ВТО рассматривали насколько определения данных условий ЕС соответствует правилам ВТО.

Дело Европейских сообществ — Компенсационные меры в отношении чипов динамической оперативной памяти (DRAM) из Кореи является ключевым в механизме разрешения споров ВТО. Оно касалось наложения ЕС компенсационных пошлин на импорт чипов DRAM от компании «Hynix Semiconductor», одного из крупнейших южнокорейских производителей. Дело затрагивало важные вопросы, связанные с субсидиями, компенсационными мерами и процедурами их применения в соответствии с Соглашением о субсидиях и компенсационных мерах[11].

В 2003 году ЕС ввел компенсационные пошлины на импорт чипов DRAM от компании «Hynix Semiconductor», утверждая, что компания получила недобросовестную финансовую поддержку от правительства Южной Кореи в виде субсидий, что дало ей несправедливое конкурентное преимущество на европейском рынке. Корея оспорила выводы ЕС, утверждая, что поддержка не соответствовала определению субсидий в соответствии с Соглашением о субсидиях и компенсационных мерах, а расследование Европейской комиссии и определение ущерба были ошибочными[11].

Третейская группа ВТО частично поддержала позицию ЕС, признав, что финансовая помощь, предоставленная «Hynix Semiconductor», квалифицировалась как «финансовый вклад» со стороны «государственного органа» в соответствии с

Соглашением по субсидиям и компенсационным мерам. Было установлено, что реструктуризация «Hynix Semiconductor», включавшая списание долгов, новые кредиты и обмен долгов на акции, предоставила компании финансовые преимущества, недоступные в нормальных рыночных условиях, а также была специфичной, поскольку субсидии были ограничены только «Hynix Semiconductor», а не всей полупроводниковой отрасли, что соответствовало требованиям Соглашения по субсидиям и компенсационным мерам [11].

Тем не менее, третейская группа выявила недостатки в анализе ущерба для внутренней отрасли ЕС. ЕС не смог в достаточной мере показать связь между субсидиями и ущербом для европейской отрасли чипов DRAM. Третейская группа подвергла критике ЕС за то, что он не учел другие факторы, такие как глобальные рыночные условия и конкуренция, которые могли способствовать причинению ущерба.

И ЕС, и Корея обжаловали отдельные аспекты решения группы экспертов, и Апелляционный орган в основном поддержал выводы группы, потребовав от ЕС привести свои меры в соответствие с Соглашением о субсидиях и компенсационных мерах[12].

После решения Апелляционного органа ЕС был обязан скорректировать свои компенсационные меры в соответствии с выводами ВТО. Это означало пересмотр оценки ущерба для того, чтобы убедиться, что ущерб, приписываемый субсидиям, был должным образом продемонстрирован, а также учитывать другие факторы, которые могли способствовать причинению ущерба отрасли чипов DRAM ЕС. Это дело оказало значительное влияние на подход членов ВТО к расследованиям по компенсационным пошлинам, особенно в отраслях, где распространены финансовая реструктуризация и вмешательство государства, таких как высокотехнологичные сектора, включая полупроводники.

Значимость данного дела заключается в том, что третейская группа и Апелляционный орган в рамках дела уточнили, что для признания субъектов государственными органами по Соглашению по субсидиям и компенсационным мерам они не обязательно должны быть государственными предприятиями, достаточно государственного контроля или влияния. Важным было установление, что «выгода» определяется по сравнению с рыночными условиями, и финансовая помощь «Hynix Semiconductor» предоставила преимущества, недоступные на рынке. Также было подтверждено, что субсидия является специфичной, если она ограничена определенными предприятиями, как в случае с «Hynix Semiconductor». Также было установлено, что при расследовании компетентными органами необходим тщательный анализ причинной связи между субсидией и ущербом внутренней отрасли[12].

Дело «Hynix Semiconductor», рассмотренное выше, предоставляет несколько важных выводов для Узбекистана в его стремлении привести свои меры по защите торговли в соответствие с правилами ВТО.

Так, Узбекистану при вступлении в ВТО необходимо обеспечить, чтобы его определение «государственного органа» в контексте определения субсидий соответствовало практике ВТО, где акцент делается на контроле или влиянии государства на действия организации, а не только на праве собственности. Также, при применении торговых защитных мер по субсидированным товарам необходимо

учитывать, предоставляет ли предполагаемый финансовый вклад иностранного государственного органа преимущество, недоступное в обычных рыночных условиях.

Также, в ходе расследований необходимо проводить всесторонний анализ причинно-следственной связи между субсидиями или демпинговым импортом и ущербом для национальной промышленности. Иными словами, помимо доказательств ущерба субсидий, демпинга определенной отрасли экономики, необходимо как отдельный этап анализировать связь между ущербом и данными практиками. В этих целях компетентному органу, проводящему расследование следует анализировать и другие факторы, влияющие на снижение цены в этой области.

В данном контексте необходимо пересмотреть законодательство Узбекистана, в частности, Положение о порядке проведения расследований в целях применения защитных мер, антидемпинговых и компенсационных пошлин, которое было утверждено постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19.05.2005 г. № 129. В частности, предлагается отдельно предусмотреть этап и критерии по определению причинно-следственной связи ущерба демпинга и субсидий отрасли экономики.

Также, рекомендуется включение гибких понятий при определении нормальной стоимости товаров при демпинге, субсидий, выделяемых иностранными государственными органами.

Заключение. Внедрив эти принципы в свое регулирование и практику применения мер по защите торговли, Узбекистан сможет лучше справляться с сложностями, связанными с соблюдением требований ВТО, и укрепить свои позиции в процессе присоединения к организации.

Кроме того, применение практик, основанных на судебной практике ВТО, таких как случаи «Биодизель (Аргентина)» и «DRAM из Кореи», будет способствовать формированию справедливой конкурентной среды и защите внутренних производителей от недобросовестной торговли. Узбекистану следует пересмотреть существующие нормативные акты, учитывая международные стандарты, чтобы гарантировать более эффективную защиту своей экономики и соответствие требованиям ВТО, что, в свою очередь, откроет новые возможности для интеграции в мировую торговую систему.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Key Statistics and Trends in Trade Policy 2021. (2022, June 1). United Nations. https://doi.org/10.18356/9789210013604
2. Issabekov, N., & Suchecki, A M. (2017, February 15). Analysis Of The EU Anti-dumping Policy In Terms Of The Revealed Comparative Advantages. University of Lodz Press, 19(5), 43-61. https://doi.org/10.1515/cer-2016-0037
3. Всемирная торговая организация. (1994). Генеральное соглашение по тарифам и торговле (ГАТТ), статья 6. Доступно на сайте ВТО: https://www.wto.org.
4. Всемирная торговая организация (ВТО), Соглашение о субсидиях и компенсационных мерах, 1994 г. Доступно на сайте ВТО: https://www.wto.org.
5. Ст. 16 Закона Республики Узбекистан «О защитных мерах, антидемпинговых и компенсационных пошлинах» от 11 декабря 2003 года, № 560-II. Доступно: https://lex.uz/docs/62836

6. Press corner. (2023, September 6). https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip_23_4348
7. Grieger, G. (2018). *Protection from dumped and subsidised imports*. EPRS | European Parliamentary Research Service. Available: https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2017/595905/EPRS_BRI(2017)595905_EN.pdf
8. European Parliament and Council. (2016). *Regulation (EU) 2016/1036 of the European Parliament and of the Council of 8 June 2016 on protection against dumped imports from countries not members of the European Union*. Official Journal of the European Union, L 176/21.
9. WTO, *European Communities – Measures Affecting the Importation and Marketing of Biodiesel from Argentina*, WT/DS473/AB/R, adopted 26 October 2016.
10. Хетагурова З.Х. Практика применения антидемпинговых и компенсационных мер в ЕС в контексте ВТО. *Торговая политика. Trade policy*, 2018, № 2/14. ISSN 2499-9415. С. 114-115
11. WTO, *European Communities – Countervailing Measures on Dynamic Random Access Memory Chips from Korea*, WT/DS299/AB/R, adopted 3 August 2005.
12. WTO, *European Communities – Countervailing Measures on Dynamic Random Access Memory Chips from Korea*, Panel Report, WT/DS299/R, adopted 3 August 2005, as modified by Appellate Body Report WT/DS299/AB/R.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

LEGAL REGULATION OF CONCESSIONS IN FOREIGN COUNTRIES

ANARBAYEV Eldor
Researcher of the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article comprehensively analyzes the experience of legal regulation of concessions in foreign countries. The historical stages and modern trends in the development of concession relations were studied. A comparative analysis of the models of concession regulation of such countries as Great Britain, France, Germany, Spain, Australia, and Chile was conducted. The specific approach, legislative framework, and institutional structure of each country are described in detail. The features of Romano-Germanic, Anglo-Saxon, and mixed models of legal regulation are shown. The mechanisms of state support for concession projects and financing instruments were analyzed. The article is aimed at identifying opportunities for Uzbekistan to use foreign experience.

Keywords: foreign experience, Great Britain, France, Germany, concession legislation, PFI model, state support, institutional structure, Romano-Germanic model, Anglo-Saxon model, concession projects.

KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Anarbayev Eldor
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: e.anarbaev@me.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsessiyalarni xorijiy davlatlarda huquqiy tartibga solish tajribasi keng qamrovli tahlil qilingan. Konsessiya munosabatlarini rivojlantirishning tarixiy bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari o‘rganilgan. Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Avstraliya va Chili kabi mamlakatlarning konsessiyalarni tartibga solish modellari qiyosiy tahlil qilingan. Har bir mamlakatning o‘ziga xos yondashuvi, qonunchilik bazasi va institutsional tuzilmasi batafsil yoritilgan. Roman-german, anglo-sakson va aralash huquqiy tartibga solish modellarining xususiyatlari ko‘rsatilgan. Konsessiya loyihalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyalashtirish vositalari tahlil qilingan. Maqola O‘zbekiston uchun xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy tajriba, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, konsessiya qonunchiligi, PFI modeli, davlat qo‘llab-quvvatlashi, institutsional tuzilma, roman-german modeli, anglo-sakson modeli, konsessiya loyihalari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N40

Ta’kidlash joizki, konsessiyalardan foydalanishning eng yorqin misollari Yevropada mavjud edi. Odatda xususiy foydalanish sohasiga portlar, hammomlar, pochta bo‘limlari va stansiyalar kabi infratuzilma obyektlari topshirilgan. Dunyoning qolgan mamlakatlariga kelsak, bu yerda konsessiyalar taxminan XIX asrda paydo bo‘ldi. Umuman olganda, konsessiya munosabatlarini rivojlantirishning uchta bosqichini ajratish mumkin [1]:

1. Birinchi bosqichni qirol yerlarini xususiy foydalanish va egalikka topshirish bilan tavsiflash mumkin. Vaqt doirasi – erta O‘rta asrlardan Amerikaning ochilishigacha.

2. Ikkinchi bosqich The East India Company va The Hudson’s Bay kabi kompaniyalarning faoliyati bilan tavsiflanadi. Bunday kompaniyalar keng vakolatlarga ega bo‘lib, ayniqsa mustamlakachilik hududlarini boshqarishni amalga oshirgan. Ushbu davrda konsessiya

kelishuvlari aslida iqtisodiy ekspluatatsiya shakli bo‘lib, konsessioner huquqlarining deyarli yo‘qligi bilan tavsiflangan. Mustamlakachilik qaramligidan ozod bo‘lish davrida aksariyat konsessiyalar milliylashtirish jarayoniga uchradi.

3. Uchinchi zamonaviy bosqich davlat va xususiy sektorning huquq va majburiyatlarini adolatli taqsimlashni nazarda tutuvchi shartnoma asosida konsessiya kelishuvlarini qo‘llash bilan tavsiflanadi.

Ta’kidlash joizki, zamonaviy konsessiya kelishuvi mexanizmlari birinchi marta Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya kabi Yevropa mamlakatlarida, asosan kommunal xo‘jalik sohasida, keyinchalik esa davlat va munitsipal mulkining boshqa obyektlari sohasida paydo bo‘ldi.

Aksariyat xorijiy mamlakatlarning konsessiyalarni huquqiy tartibga solishi konsessiyalar yoki konsessiya kelishuvlari haqidagi maxsus qonunlar, shuningdek davlat-xususiy sheriklik haqidagi umumiy qonunchilik va iqtisodiyotning alohida sohalarini tartibga soluvchi tarmoq qonunlari orqali amalga oshiriladi.

O.Yu. Skvortsov ta’kidlaganidek, “aksariyat rivojlangan mamlakatlarda konsessiyalarni huquqiy tartibga solishning kompleks tizimi shakllangan, u konsessiyalar yoki DXSh haqidagi umumiy qonunlarni ham, alohida tarmoqlardagi konsessiyalarni tartibga soluvchi maxsus normativ hujjatlarni ham o‘z ichiga oladi” [2].

Xorijiy mamlakatlarda konsessiyalarni huquqiy tartibga solishning turli modellari shakllangan. A.V. Nesterenko ta’kidlaganidek, “uchta asosiy modelni ajratish mumkin: roman-german (konsessiyalar haqidagi maxsus qonunlarga asoslangan), anglo-sakson (umumiy shartnoma huquqi va maxsus tarmoq hujjatlariga asoslangan) va ikkala model elementlarini uyg‘unlashtiruvchi aralash” [3].

Konsessiyalar uzoq tarixga ega Fransiyada huquqiy tartibga solish “jamoat xizmatlarini topshirish” (délégation de service public) konsepsiyasiga asoslanadi. Birinchi konsessiya kelishuvi qirol Genrix II hukmronligi davrida 1554-yilda Adam de Krapon bilan Salon-de-Provans shahri yonidagi Kro vodiysida kanal qurish uchun tuzilgan. O‘sha paytdan beri davlat hokimiyati davlat vakolatida bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun xususiy kapitalni jalb qilishni davom ettirmoqda. Parijning bosh ramzi – Eyfel minorasi ham davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari yordamida qurilgan [4]. A.Yu. Russkix ta’kidlaganidek, “Fransuz konsessiya modeli nafaqat davlat mulkidan foydalanish huquqlarini topshirishni, balki jamoat xizmatlarini ko‘rsatish vakolatlarini topshirishni ham nazarda tutadi” [5].

Zamonaviy dunyoda konsessiyalarga qiziqishning qayta tiklanishi XX asr oxirida Buyuk Britaniyada sodir bo‘ldi [6]. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish sohasidagi muhim voqealardan biri 1992-yilda “xususiy moliya tashabbusi” modelini yaratish va joriy etish bo‘ldi. Uning o‘ziga xosligi davlat tomonidan xususiy kompaniyalar taqdim etgan xizmatlarni uzoq muddatli asosda sotib olishdan iborat edi. Bunday dasturning maqsadi tadbirkorlik boshqaruv usullaridan, ayniqsa xatarlarni kamaytirish usullaridan foyda va manfaat olish edi.

Buyuk Britaniya va anglo-sakson huquqiy an’anasiga ega boshqa mamlakatlarda konsessiyalar asosan umumiy shartnoma huquqi va maxsus tarmoq hujjatlari bilan tartibga solinadi. I.I. Polyakov fikricha, “anglo-sakson modelining farqlovchi xususiyati huquqiy tartibga solishning moslashuvchanligi va standart kontrakt shakllaridan keng foydalanishdir” [7].

Umuman olganda, S.V. Maslova ta’kidlaganidek, “huquq tizimlaridagi farqlarga qaramay, aksariyat mamlakatlarda xalqaro tavsiyalar va eng yaxshi amaliyotlar ta’siri ostida

konsessiyalarni huquqiy tartibga solishni unifikatsiya va standartlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda" [8].

Xorijiy mamlakatlarda konsessiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy omillar bilan bog'liq o'z xususiyatlariga ega. Ushbu tadqiqot doirasida konsessiya mexanizmini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishgan mamlakatlarning konsessiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish tajribasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Buyuk Britaniya davlat-xususiy sheriklikni, shu jumladan konsessiyalar shaklida rivojlantirishda jahon yetakchilaridan biri hisoblanadi. Buyuk Britaniyada konsessiyalar haqida maxsus qonun mavjud emas, ammo konsessiyalarni o'z ichiga olgan DXSh sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi rivojlangan huquqiy baza mavjud. Bu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

1. 2003-yilgi Mahalliy o'zini o'zi boshqarish qonuni (Local Government Act);
2. 2015-yilgi Davlat kontraktlari qonuni (Public Contracts Act);
3. 2016-yilgi Konsessiya kontraktlari qonuni (Concession Contracts Regulations) [9].

Britaniya konsessiyalari modelining o'ziga xosligi "Xususiy moliya tashabbusi" (Private Finance Initiative, PFI) mexanizmidan foydalanish bo'lib, u infratuzilma obyektlarini qurish va ekspluatatsiya qilishni xususiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirishni, keyinchalik davlatga yoki aholiga tijorat asosida xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutadi. 2018-yilda PFI dasturi yangi model – "Xususiy moliyalashtirish 2" (Private Finance 2, PF2) bilan almashtirildi, u loyiha kompaniyalari kapitalida davlatning ko'proq ishtirokini va davlat va xususiy sektor o'rtasida xatarlarni adolatliroq taqsimlashni nazarda tutadi [10].

Buyuk Britaniyada DXSh va konsessiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun rivojlangan institutsional tuzilma yaratilgan. Asosiy institut Infratuzilma va loyihalar (Infrastructure and Projects Authority, IPA) – DXSh va konsessiya loyihalarini muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul hukumat agentligi hisoblanadi. IPA uslubiy tavsiyalar, standart kontrakt shakllarini ishlab chiqadi, loyihalarni monitoring va baholashni amalga oshiradi, davlat xizmatchilarini o'qitadi [11].

Fransiya bir necha asrlik konsessiyalardan foydalanishning boy tajribasiga ega. Fransiyada konsessiyalar asosan infratuzilmani rivojlantirish va jamoat xizmatlarini ko'rsatish uchun foydalaniladi. Fransiyada konsessiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

1. Fransiya Fuqarolik kodeksi;
2. 2016-yil 29-yanvardagi Konsessiya kontraktlari haqidagi Ordonans (Ordonnance relative aux contrats de concession);
3. 2016-yil 1-fevraldagi Konsessiya kontraktlari haqidagi Dekret (Décret relatif aux contrats de concession) [12].

Fransuz konsessiyalari modelining o'ziga xosligi konsessiyalarni ikki turga bo'lishdir:

1. Jamoat ishlarini bajarish uchun konsessiyalar (concession de travaux publics) – infratuzilma obyektlarini qurish va ekspluatatsiya qilishni nazarda tutadi;

2. Jamoat xizmatlarini ko'rsatish uchun konsessiyalar (concession de service public) – davlat nomidan aholiga xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutadi.

Fransiya qonunchiligi konsessiya kontraktlari konsessioner investitsiyalarining amortizatsiya muddatidan oshmaydigan muddatga tuzilishi kerakligini belgilaydi. Jamoat

xizmatlarini ko‘rsatishni nazarda tutuvchi konsessiyalar holatida konsessiyaning maksimal muddati 20 yil, jamoat ishlarini bajarishni nazarda tutuvchi konsessiyalar holatida – 30 yilni tashkil etadi. Biroq, alohida hollarda, investitsiyalar uzoqroq qoplanish muddatini talab qilganda, uzoqroq konsessiya muddatini belgilash mumkin [13].

Fransiyada konsessiya loyihalarini davlat qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimi yaratilgan, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Davlat kafolatlarini taqdim etish;
2. Kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash;
3. Soliq imtiyozlari;
4. Loyiha kompaniyalari kapitalida davlat ishtiroki;
5. Yer uchastkalarini imtiyozli shartlarda taqdim etish [14].

Germaniya ham konsessiyalardan foydalanishning boy tajribasiga ega. Germaniyada konsessiyalar asosan transport infratuzilmasi (avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, tunnellar), energetika, suv ta’minoti va kanalizatsiyani rivojlantirish uchun foydalaniladi. Germaniyada konsessiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

1. Germaniya Fuqarolik kodeksi;
2. 2005 yilgi Davlat-xususiy sheriklik qonuni (ÖPP-Beschleunigungsgesetz);
3. 1992 yilgi Konsessiyalar qonuni (Konzessionsabgabenverordnung);
4. 2018 yilgi Qurilish kontraktlari qonuni (Bauvertragsrecht) [15].

Nemis konsessiyalari modelining o‘ziga xosligi loyihalarning samaradorligi va tejamkorligiga urg‘u berishdir. Konsessiya kelishuvini tuzishdan oldin an’anaviy davlat moliyalashtirish usullari bilan taqqoslaganda konsessiya mexanizmidan foydalanish samaradorligining batafsil tahlili o‘tkaziladi. Konsessiya kelishuvi faqat byudjet mablag‘laridan yanada samarali foydalanishni ta’minlagan taqdirdagina tuziladi [16].

Germaniyada konsessiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish tizimi rivojlangan, u davlat va xususiy banklar, investitsiya fondlari, pensiya fondlarining ishtirokini o‘z ichiga oladi. Davlat kafolatlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlarini o‘z ichiga olgan turli qo‘llab-quvvatlash shakllarini taqdim etadi [17].

Ispaniya ham konsessiyalardan foydalanishda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ispaniyada konsessiyalar transport infratuzilmasi (avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, aeroportlar, portlar), suv ta’minoti va kanalizatsiya, energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohasida faol qo‘llaniladi. Ispaniyada konsessiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

1. 2017-yilgi Davlat sektoridagi kontraktlar qonuni (Ley de Contratos del Sector Público);
2. 2003-yilgi Jamoat ishlari uchun konsessiyalar qonuni (Ley de Concesiones de Obras Públicas);
3. 2015-yilgi Avtomobil yo‘llari qonuni (Ley de Carreteras) [18].

Ispan konsessiyalari modelining o‘ziga xosligi xizmatlar iste’molchilari manfaatlarini himoya qilishga urg‘u berishdir. Qonunchilik konsessionerlar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar sifatiga qat’iy talablarni belgilaydi va bu talablarga rioya qilish ustidan nazorat mexanizmlarini ko‘zda tutadi. Xizmatlar sifatiga qo‘yilgan talablarni buzgan taqdirda

konsessioner jarima sanksiyalariga duchor bo‘lishi mumkin, tizimli buzilishlar holatida esa – konsessiyadan mahrum qilinishi mumkin [19].

Ispaniyada konsessiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali tizimi yaratilgan, u davlat va xususiy banklar, investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalarining ishtirokini o‘z ichiga oladi. Davlat kafolatlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, loyiha kompaniyalari kapitalida ishtirok etishni o‘z ichiga olgan turli qo‘llab-quvvatlash shakllarini taqdim etadi [20].

Avstraliya konsessiyalardan foydalanishning boy tajribasiga ega, ayniqsa transport infratuzilmasi sohasida. Avstraliyada konsessiyalar avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, tunnellar, temir yo‘llar, aeroportlar, portlarni qurish va ekspluatatsiya qilish uchun foydalaniladi. Avstraliyada konsessiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish federal darajada ham, shtatlar darajasida ham amalga oshiriladi. Bu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

1. 2015-yilgi Davlat-xususiy sheriklik qonuni (Public-Private Partnerships Act);
2. 2006-yilgi Konsessiyalar qonuni (Concessions Act);
3. Shtatlarning davlat-xususiy sheriklik va konsessiyalar haqidagi qonunlari [21].

Avstraliya konsessiyalari modelining o‘ziga xosligi innovatsiyalar va xizmatlar sifatiga urg‘u berishdir. Konsessionerni tanlashda loyihaning moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda tanlov ishtirokchilari tomonidan taklif etilayotgan innovatsion yechimlar, ularning o‘xshash loyihalarni amalga oshirish tajribasi, xizmatlar sifatini oshirish imkoniyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega [22].

Avstraliyada konsessiya loyihalarini davlat qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimi yaratilgan, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Davlat kafolatlarini taqdim etish;
2. Kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash;
3. Loyiha kompaniyalari kapitalida davlat ishtiroki;
4. Yer uchastkalarini imtiyozli shartlarda taqdim etish;
5. Soliq imtiyozlari [23].

Chili konsessiyalardan foydalanishda Lotin Amerikasining eng muvaffaqiyatli mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Chilida konsessiyalar transport infratuzilmasi (avtomobil yo‘llari, aeroportlar, portlar), energetika, suv ta’minoti va kanalizatsiya, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohasida faol qo‘llaniladi. Chilida konsessiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

1. 1991-yilgi Jamoat ishlari uchun konsessiyalar qonuni (Ley de Concesiones de Obras Públicas) (2010-yildagi o‘zgartirishlar bilan);
2. 2010-yilgi Konsessiyalar haqidagi Dekret (Reglamento de Concesiones);
3. 2003-yilgi Davlat xaridlari qonuni (Ley de Compras Públicas) [24].

Chili konsessiyalari modelining o‘ziga xosligi konsessionerni tanlash tartib-taomilining shaffofligi va raqobatbardoshligiga urg‘u berishdir. Qonunchilik tanlov o‘tkazishning batafsil tartib-taomilini, jumladan oldindan saralash, texnik va moliyaviy takliflarni baholash, tanlov g‘olibi bilan muzokaralarni belgilaydi. Tanlov o‘tkazish, uning natijalari, tuzilgan konsessiya kelishuvlari haqidagi ma’lumotlar ochiq foydalanishda e’lon qilinadi [25].

Chilida konsessiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali tizimi yaratilgan, u davlat va xususiy banklar, investitsiya fondlari, pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalarining ishtirokini o‘z ichiga oladi. Davlat kafolatlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlarini o‘z ichiga olgan turli qo‘llab-quvvatlash shakllarini taqdim etadi [26].

Apriori ta’kidlaymizki, konsessiya shartnomasi, konsessiya munosabatlarini amalga oshirishning huquqiy shakli sifatida, mavjud bo‘lish huquqiga ega bo‘lishi uchun, ya’ni oddiy fuqarolik-huquqiy shartnomadan (davlat yoki munitsipal mulkni ijaraga berish shartnomasi, davlat ehtiyojlari uchun pudrat ishlari shartnomasi, davlat buyurtmasi va boshqalar) farqlanishi uchun, u ommaviy-huquqiy xarakterga ega bo‘lishi zarur. Kontinental huquqqa ega rivojlangan mamlakatlarda konsessiya munosabatlari eng keng tarqalgan konsessiya turlari – kommunal xizmatlar, umumiy foydalanishdagi transport, muhandislik tarmoqlari, jamoat ishlari, yer osti boyliklaridan foydalanish sohasida berilganda tuziladigan ommaviy-huquqiy (ma’muriy) shartnoma bilan tartibga solinadi.

Shunday qilib, xorijiy davlatlarning konsessiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish tajribasini o‘rganish O‘zbekiston Respublikasining konsessiyalar haqidagi qonunchiligini takomillashtirishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Спицына Т.А. Оценка эффективности инфраструктурных инвестиционных проектов: Автореф. дис. …. кандидата экономических наук: 08.00.10. – М., 2009. - С. 12.
2. Скворцов О.Ю. Правовое регулирование концессий: сравнительно-правовой анализ // Законодательство. – 2018. – № 10. – С. 46-58.
3. Нестеренко А.В. Модели правового регулирования концессий в зарубежных странах // Международное публичное и частное право. – 2019. – № 3. – С. 41-53.
4. Спицына Т.А. Оценка эффективности инфраструктурных инвестиционных проектов: Автореф. дис. …. кандидата экономических наук: 08.00.10. – М., 2009. - С. 13.
5. Русских А.Ю. Государственно-частное партнерство во Франции: правовые аспекты // Законодательство и экономика. – 2017. – № 6. – С. 57-68.
6. Андреева Е.С. Зарубежный опыт формирования механизмов государственно-частного партнерства и возможности его использования в России // Сборник научных трудов России «Проблемы экономики, финансов и управления производством». – М., 2010. - № 28. - С. 153-158.
7. Поляков И.И. Англосаксонская модель государственно-частного партнерства // Предпринимательское право. – 2018. – № 4. – С. 32-44.
8. Маслова С.В. Тенденции правового регулирования государственно-частного партнерства на международном и национальном уровнях // Московский журнал международного права. – 2019. – № 3. – С. 114-127.
9. Concession Contracts Regulations 2016, UK Statutory Instruments, – 2016 – No. 273.
10. HM Treasury. A New Approach to Public Private Partnerships. – London: 2018.
11. Infrastructure and Projects Authority. Annual Report on Major Projects 2023-24. – London: 2024.
12. Ordonnance n° 2016-65 du 29 janvier 2016 relative aux contrats de concession.
13. Ordonnance n° 2016-65 du 29 janvier 2016 relative aux contrats de concession.
14. Ministère de l'Économie et des Finances. Guide des bonnes pratiques en matière de contrats de concession. – Paris: 2023.
15. ÖPP-Beschleunigungsgesetz vom 1. September 2005, BGBl. I S. 2676.
16. Bundesministerium für Verkehr und digitale Infrastruktur. Handbuch für die Vergabe und Ausführung von Konzessionen. – Berlin: 2023.
17. O‘sha manba.
18. Ley 9/2017, de 8 de noviembre, de Contratos del Sector Público.

19. Ministerio de Hacienda. Guía de buenas prácticas para la concesión de obras y servicios. – Madrid, 2022.
20. O‘sha manba.
21. Public-Private Partnerships Act 2015, – No. 125, – 2015.
22. Infrastructure Australia. National PPP Guidelines. Volume 2: Practitioners' Guide. – Canberra, 2023.
23. O‘sha manba.
24. Ley de Concesiones de Obras Públicas, DFL MOP Nº 164 de 1991.
25. Ministerio de Obras Públicas. Manual de Concesiones. – Santiago, 2022.
26. O‘sha manba.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE CORPORATE OPPORTUNITY DOCTRINE: FOREIGN EXPERIENCE AND NATIONAL LEGISLATION

Ibrokhimov Azimjon Abdumumin ogli
Independent Researcher at the Department of Civil Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article discusses the doctrine of corporate opportunities and the fiduciary duties of directors in utilizing such opportunities. Within the scope of fiduciary obligations, the focus is placed on prioritizing the company's interests, avoiding conflicts of interest, and refraining from personal exploitation of corporate opportunities. The development of the "corporate opportunities doctrine" is analyzed through case law examples from the United States, the United Kingdom, Germany, and other common law jurisdictions. Although Uzbekistan's legislation is not yet fully developed in this area, recent legislative initiatives indicate an intent to incorporate this legal concept. The article highlights the possibility of holding directors civilly liable for misusing corporate opportunities, with a focus on the legal criteria of unlawfulness, fault, damage, and causation.

Keywords: corporate opportunity, fiduciary duty, duty of loyalty, director liability, fault, damage, causation, conflict of interest, common law.

KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK

Ibrohimov Azimjon Abdumumin ugli
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada korporativ imkoniyatlar doktrinasi va direktorlarning ushbu imkoniyatlardan foydalanishidagi fidutsiar majburiyatlari muhokama qilinadi. Fidutsiar majburiyatlar doirasida, ayniqsa, kompaniya manfaatlarini ustuvor qo'yish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, korporativ imkoniyatlardan shaxsiy foyda olishdan tiyilish kabi masalalar yoritilgan. Anglo-sakson huquq tizimlarida keng qo'llaniladigan "corporate opportunities doctrine"ning AQSh, Angliya, Germaniya va boshqa davlatlar sud amaliyotidagi shakllanishi misollar asosida tahlil qilinadi. O'zbekiston qonunchiligi hali bu borada to'liq rivojlanmagan bo'lsa-da, yangi qonun loyihalarida ushbu institutni joriy etishga intilish mavjud. Maqolada direktorning korporativ imkoniyatlardan shaxsiy foydalangan holatlarida fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuzaga kelishi mumkinligi, bunda huquqqa zidlik, ayb, zarar va sababiy bog'liqlik kabi shartlar asosida javobgarlik masalasi yoritiladi

Kalit so'zlar: korporativ imkoniyat, fidutsiar majburiyat, sodiqlik burchi, direktor javobgarligi, ayb, zarar, sababiy bog'liqlik, manfaatlar to'qnashuvi, anglo-sakson huquqi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N41

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi [1]", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-415-son "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[2] kabi hujjatlar bilan korporativ huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga oid vazifalar belgilangan. Bu vazifalar yuridik shaxs boshqaruv organlari, ular faoliyatiga oid tijorat tavakkalchiligi, fidutsiar majburiyatlar institutini joriy etish kabilarga ham tegishli.

Ushbu vazifalar asosida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (keyingi o‘rinlarda – FK) yangi loyihasi[3], “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xo‘jalik jamiyatlarining ijro organi, kuzatuv kengashi hamda majoritar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) mas’uliyatini oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonuni loyihasi[4] hamda “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonun loyihasida MCHJ boshqaruvida fidutsiar majburiyatlar institutiga oid qoidalar nazarda tutilmoqda.

Haqiqatan, hozirda jamiyat boshqaruv organi majburiyatlari qonunchilikda yetarlicha tartibga solinmagan. Amaldagi FKning 45-moddasida boshqaruv organi zimmasiga yuridik shaxsni uning manfaatlari yo‘lida halol va oqilona boshqarish majburiyati yuklangan[5]. Ushbu majburiyat “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonunning 42-moddasida ham umumiy tarzda tartibga solingan [6].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mazkur maqolada korporativ imkoniyatlar doktrinasi bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Anglo-sakson huquq tizimidagi (AQSh, Angliya) klassik manbalar — M. Eisenberg, S. Bainbridge, R. Clark, P. Davies, Gower va boshqalarning ishlari orqali “corporate opportunities doctrine” shakllanishi, mazmuni va sud amaliyotida qo‘llanilishi o‘rganiladi. Ular orqali direktorlarning fidutsiar majburiyatlari, xususan, sodiqlik burchi va manfaatlar to‘qnashuvi holatlaridagi xatti-harakatlariga yondashuvlar aniqlanadi. Mahalliy adabiyotlarda ushbu mavzu endilikda rivojlanayotgan bo‘lib, ayrim monografiyalar va maqolalarda fidutsiar majburiyatlar haqida umumiy fikrlar mavjud. Biroq korporativ imkoniyatlar masalasi chuqur tadqiq etilmagan. Shu bois maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Muhokama

Ushbu masala bo‘yicha korporativ huquq tizimi rivojlangan davlatlar qonunchiligiga yuzlanadigan bo‘lsak, korporativ-huquqiy munosabatlarda asosiy “aktyor”lardan bo‘lgan direktorlarning fidutsiar majburiyatlari ancha batafsil belgilanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, fidutsiar majburiyatlar asosan ikki elementli shaklda ishlab chiqiladi: sodiqlik burchi (duty of loyalty) va g‘amxo‘rlik burchi (duty of care), ba’zi hollarda uchinchi element insoflilik burchi (duty of good faith) ham ko‘rsatiladi. Shuningdek mazkur standartlarning alohida elementlari ham shakllantirilgan. Masalan, sodiqlik burchining o‘zida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, kompaniya bilan raqobatlashmaslik, maxfiy axborotlarni oshkor etmaslik, shuningdek korporativ imkoniyatlardan foydalanmaslik kabi majburiyatlar ushbu standart doirasida qonunchilikda yoki huquqiy doktrinada qayd etiladi. Ushbu maqolada ham kompaniyani boshqaruvchi shaxslar fidutsiar majburiyatlaridan bir hisoblangan korporativ imkoniyatlarni suiiste’mol qilmaslik majburiyatiga oid masalalar atroflicha muhokama qilinadi.

Natijalar

Korporativ imkoniyatlar doktrinasi (corporate opportunities doctrine) anglo-sakson huquq tizimida shakllanib, ingliz va Amerika shtatlari qonunchiligida uzoq tarixga ega[7]. Biroq, uni endi faqat umumiy huquq mamlakatlariga xos institut deb bo‘lmaydi: u Germaniyada

puxta ishlab chiqilgan, shuningdek Italiya va Fransiya huquq tizimlarida ham mavjud[8]. O‘zbekistonda ushbu institut hali to‘liq rivojlanmagan bo‘lsa-da, yuqoridagi qonun loyihalarida hisobga olinayotganligini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda korporativ imkoniyatlar institutini ifodalash uchun adabiyotlarda bir qator atamalardan foydalanish taklif etilmoqda: “qonuniy foyda olish imkoniyati“ yoki “tijorat imkoniyati”, “kompaniya imkoniyati”, “biznes imkoniyati”, “tadbirkorlik imkoniyati” va “korporativ imkoniyat”.

Tadbirkorlik imkoniyati – bu tadbirkorlik faoliyatini olib borish yoki boshqa yo‘l bilan daromad olish uchun mavjud bo‘lgan har qanday imkoniyatdir. Tadbirkorlik imkoniyatidan foydalanish natijasida olinadigan foyda, odatda, tavakkal xususiyatga ega bo‘lib, kafolatlanmaydi. Tadbirkorlik imkoniyatidan foydalanish bir marta foydali bitim tuzishni ham, uzoq vaqt davomida bir qator bitimlarni amalga oshirishni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Shuni esda tutish lozimki, tadbirkorlik imkoniyatidan foydalanish oxir-oqibat bitimlar tuzishni nazarda tutsa-da, dastlabki bosqichlarda u amaliy harakatlar (masalan, muzokaralar olib borish) orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanishni tartibga solish kompaniya va uning direktorlari o‘rtasidagi munosabatlarda ayrim tadbirkorlik imkoniyatlari jamiyatga tegishli deb hisoblanishi lozimligini nazarda tutadi. Bunday imkoniyatlar kompaniyaning korporativ imkoniyatlarini tashkil etadi[9]. Boshqacha aytganda, tadbirkorlik faoliyatini yuritish yoki boshqa yo‘l bilan foyda olish uchun mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlar orasida shundaylari borki, qonun ularni kompaniyaga tegishli deb hisoblaydi.

Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan imkoniyatlar orasida aynan jamiyatga tegishli bo‘lganlarini ajratib olish masalasi, aslida, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish muammosining bir ko‘rinishidir. D.I. Dedovning ta’kidlashicha, bunday to‘qnashuv yuz bergan holatlarda huquqning vazifasi – qarama-qarshi manfaatlardan qaysi biri huquqiy jihatdan ustuvor va himoyaga loyiq ekanini belgilashdan iboratdir [10]. Agar direktor va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda jamiyat manfaatlari ustuvor hisoblanadigan bo‘lsa, bunday imkoniyatlar jamiyatga tegishli deb qaraladi. Shu sababli, direktor bu imkoniyatdan shaxsiy maqsadlarda foydalana olmaydi va undan foydalanish huquqidan cheklanishi lozim bo‘ladi.

Tadbirkorlik imkoniyatining korporativ xarakterga ega ekanini aniqlash mezonlarini tahlil qilish alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladigan masaladir. Shu sababli, ushbu maqolada bu mavzu keng yoritilmasdan, xorijiy sud amaliyotidan ayrim misollar keltiriladi. Ushbu misollar orqali korporativ tadbirkorlik imkoniyati qanday shakllarda vujudga kelishi va ifodalanishi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin.

Kuk va Diks ishi (Cook v. Deeks)

Korporativ tadbirkorlik imkoniyatlari o‘zlashtirishga oid ishlardan biri *Cook v. Deeks* ishi hisoblanadi. Mazkur ishda *Toronto Construction Company Limited* kompaniyasining uch nafar direktori (ular bir vaqtning o‘zida kompaniya aksiyadorlari ham edi) to‘rtinchi aksiyadorni (da’vogarni) chetga surib, biznes faoliyatini o‘z manfaatlariga yo‘naltirishga harakat qilishgan. Ular Kompaniyaning asosiy mijozlaridan biri bilan muhim loyiha bo‘yicha muzokaralar olib borishgan, biroq bu muzokaralarni yashirincha yuritishgan. Maqsad mazkur loyihani Kompaniyaga emas, balki o‘zlari shu loyiha uchun tuzgan boshqa yuridik shaxsga yo‘naltirish edi. Ushbu harakat orqali ular loyiha foydasini faqat o‘zlari egallab olishga erishmoqchi bo‘lishgan. Loyiha Kompaniyaga qaytarib berilishi mumkin bo‘lmagan bosqichga yetgachgina,

ular bu haqda da’vogarga xabar berishgan. Aslida, javobgarlar kompaniyaning obro‘-e’tibori va resurslaridan foydalanib, o‘zlarining yangi biznesi uchun tadbirkorlik imkoniyatini qo‘lga kiritgan. Sud ularning bu harakatlarini kompaniya direktorlariga yuklatilgan fidutsiar majburiyatlarning buzilishi deb baholab, quyidagicha xulosa chiqargan: “Kompaniyaning faoliyati ustidan to‘liq nazoratga ega bo‘lgan shaxslar, o‘z zimmasiga yuklangan fidutsiar majburiyatlar doirasida harakat qilishlari shart bo‘lib, ular himoya qilinishi lozim bo‘lgan kompaniya manfaatlarini boshqa maqsadlar yo‘lida qurbon qilishga haqli emaslar. Bundan tashqari, ular aslida kompaniyaga tegishli bo‘lgan tadbirkorlik imkoniyatlarini o‘z shaxsiy manfaatlari yo‘lida ishlatish huquqiga ega emaslar[11].”

“Yer uchastkasi ishi” (1985).

Germaniya sud amaliyotidan 1985-yilda Germaniya Federal Oliy sudi ko‘rib chiqqan ishni keltirish mumkin. Unga ko‘ra tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan yer uchastkasi uchinchi shaxs mulkida bo‘lib, shirkat undan ijara asosida foydalanib kelgan. Shirkat ishlarini yuritish topshirilgan sherik (javobgar), ushbu yer uchastkasi sotuvga qo‘yilganini bilgach, uni o‘z rafiqasi nomiga sotib olishni tashkil etadi. Javobgarning rafiqasi dastlab shirkat bilan ijara munosabatlarini uzaytirishdan bosh tortadi. Keyin esa, ijara to‘lovi sezilarli darajada oshirilgan taqdirda, yangi ijara shartnomasini tuzishga rozi bo‘ladi. Biroq oradan ko‘p o‘tmay, javobgar shirkatdan chiqishi bilan bu shartnoma bekor qilinadi. Javobgar shirkat tarkibidan chiqqanidan so‘ng, o‘z oila a’zolari bilan birgalikda mazkur yer uchastkasida shirkat bilan raqobat qiluvchi faoliyatni boshlaydi. Shu tariqa, shirkat ishlarini yuritish topshirilgan ishtirokchi, shirkat uchun muhim bitim tuzish imkoniyatiga ega bo‘lganidan so‘ng, yer uchastkasini shirkat uchun sotib olish o‘rniga, uni o‘z rafiqasi tomonidan sotib olinishini tashkil etib, shirkatga tegishli bo‘lgan tadbirkorlik imkoniyatini o‘zlashtirib oladi. Germaniya Federal Oliy sudi ushbu ishtirokchi zimmasiga zararni qoplash majburiyatini yuklab, manfaatlariga daxldor bo‘lgan barcha masalalarda aynan shirkat manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilishi lozimligini, u shirkatga tegishli tadbirkorlik imkoniyatlaridan o‘z foydasi yo‘lida foydalanmasligi kerakligini ta’kidlaydi[12].

Yana bir sud ishida kompaniya direktori qurilish loyihasini kompaniya uchun qo‘lga kiritishga uringan, biroq bu harakat muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Shundan so‘ng mijoz ayni loyihani shaxsan uning o‘ziga taklif qilgan, direktor bu taklifni qabul qilgan, biroq bu haqdagi ma’lumotni kompaniyadan yashirgan[13].

Angliya va Germaniya huquqiy tizimlarida kompaniyaga tegishli bo‘lgan korporativ imkoniyatni o‘zlashtirish javobgarlikka sabab bo‘ladi. Shu o‘rinda, O‘zbekiston huquqida bunday harakatlar qanday baholanishi va qanday oqibatlar keltirib chiqarishiga oid savollar yuzaga keladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik (ya’ni, fuqaroviy huquqbuzarlik tarkibi) yuzaga kelishi uchun odatda to‘rtta asosiy shart ajratib ko‘rsatiladi: huquqqa zid xatti-harakat, ayb (ayblilik), zarar yetkazilishi va ushbu huquqbuzarlik (harakat yoki harakatsizlik) bilan zarar o‘rtasida sababiy bog‘liqlik mavjudligi[14]. Shunga ko‘ra, milliy qonunchilikda direktor tomonidan korporativ imkoniyatlardan foydalanish javobgarlik keltirib chiqarishi uchun ushbu foydalanish yuqorida keltirilgan belgilarga ega bo‘lishi kerak.

Huquqqa zid xatti-harakat deb odatda amaldagi obyektiv huquq normalariga zid bo‘lgan harakat (yoki harakatsizlik) nazarda tutiladi. Fuqarolik kodeksining 45-moddasida direktorning yuridik shaxs manfaatlarida insofli va oqilona harakat qilish majburiyati

belgilangan. Xuddi shunday majburiyat “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonunning 42-moddasida ham mustahkamlangan. Shu bois, direktor o‘zining insofli ish olib borish majburiyatini buzgan taqdirda, bunday xatti-harakat huquqqa zid deb e’tirof etiladi.

Fuqarolik huquqida subyektlarning insofli va oqilona ish olib borishi prezumpsiyasi amal qiladi (Fuqarolik kodeksi 9-moddasi). Biroq, adabiyotlarda bu prezumpsiya odatda direktorning korporativ imkoniyatlardan foydalanishga doir harakatlariga nisbatan tatbiq etilmasligi ko‘rsatiladi. Ya’ni masalan, direktor tomonidan uning shaxsiy manfaatlari (yoki unga aloqador shaxslar manfaatlari) bilan yuridik shaxs manfaatlari o‘rtasida ziddiyat mavjud bo‘lgan vaziyatda sodir etilgan har qanday harakatni insofli deb hisoblanmaydi. Direktor majburiyatlaridagi insofli ish olib borish majburiyati umumfuqarolik insoflilik majburiyati bilan aynan emas. Shuningdek direktorning fidutsiar majburiyatlarga zid keladigan boshqa xatti-harakatlari ham borki, ular mavjud bo‘lganida direktor harakatlari insofli emas, aksincha qonunga xilof degan taxmin amal qiladi.

Direktor tomonidan korporativ imkoniyatlardan foydalanish manfaatlar to‘qnashuvi holatini tashkil etadi. Chunki bunda direktor korporativ imkoniyatlarni o‘zlashtirish va undan o‘zi uchun foyda ko‘rishga qiziqish bildiradi, ayni paytda jamiyatda ham ushbu imkoniyatdan o‘z foydasiga foydalanishda manfaatdorlik bo‘ladi. Qayd etilishicha, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan holatda bu to‘qnashuv oshkor qilinmagan va belgilangan tartibda ma’qullanmagan bo‘lsa, u insofsiz xatti-harakat deb baholanadi. Tadbirkorlik imkoniyatidan foydalanishning manfaatlar to‘qnashuvi sharoitida sodir etilgan harakat sifatida baholanishi uchun, avvalo, ushbu imkoniyatning jamiyatga tegishli ekani aniqlanishi lozim. Aynan shu holat – ya’ni tadbirkorlik imkoniyatining korporativ tusga ega ekani – uni huquqqa zid xatti-harakat sifatida baholashda asosiy mezon hisoblanadi.

Umumiy qoida bo‘yicha, fuqaroviy-huquqiy javobgarlik (xoh shartnomaviy, xoh shartnomadan tashqari) ayb mavjud bo‘lgan taqdirdagina yuzaga keladi (Fuqarolik kodeksi 333-moddasi, 985-moddasi). Bunda huquqbuzarlik sodir etgan shaxs (zarar yetkazuvchining) aybli ekani prezumpsiya tarzida belgilanadi, javobgarlikdan ozod bo‘lish uchun shaxs aybsiz ekanligini o‘zi isbotlashi lozim. Ayni shu tamoyil — ya’ni ayb asosidagi javobgarlik — amaldagi tahrirdagi “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonun (42-m.) mazmunida ham o‘z aksini topgan. Ayb mazmuni bo‘yicha doktrinada ikki xil yondashuv mavjud: subyektiv va obyektiv ayb nazariyalari. Subyektiv yondashuvda shaxsning o‘z xatti-harakati va uning oqibatlariga nisbatan ichki munosabati ayb deb tavsiflansa, obyektiv yondashuvda shaxsning tegishli oqibat kelib chiqmasligi, huquq buzilishining oldini olish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan, odatda shunday sharoitda o‘rtacha oqilona shaxsdan kutiladigan barcha choralarni ko‘rganligi aybdorlik yoki aybsizlik masalasini hal etishda asos qilib olinadi.

Direktorning ayblilik masalasi obyektiv yondashuv bo‘yicha ko‘rib chiqilsa, unda “insofli va oqilona harakat qilganlik aybsiz xatti-harakatga tenglashtiriladi[15].” Boshqacha aytganda, agar direktor jamiyatga tegishli korporativ imkoniyatlardan foydalangan bo‘lsa, uning aybi bevosita insofsiz harakat qilganligi faktidan kelib chiqadi. Direktorning manfaatlar to‘qnashuvi holatida sodir etgan harakatlari nafaqat insofsiz ish olib borish deb baholanadi, balki uning aybliligini isbotlangan deb hisoblanishiga ham olib keladi. Ayrim holatlarda fidutsiar majburiyatlar buzilishi ayni vaqtda aybdorlikni ham belgilashi haqidagi yondashuvdan farqli ravishda aybdorlik fidutsiar majburiyatlar buzilishidan alohida isbotlanishi lozimligi ham qayd etiladi. Ba’zida sodiqlik majburiyati doirasida aybdorlikni alohida isbotlash talab etilmasligi,

aybdorlik lozim darajada g‘amxo‘rlik majburiyatida ko‘rib chiqilishi mumkinligi ham ko‘rsatiladi. Ushbu yondashuvlarga chuqurlashmagan holda aytish mumkinki, doktrinadagi ustun yondashuvga ko‘ra aybdorlik fidutsiar majburiyatlar buzilishiga singdiriladi va ayb masalasi alohida ko‘rib chiqilmaydi. Shunga ko‘ra manfaatlar to‘qnashuvi sharoitida korporativ imkoniyatdan foydalanish sodiqlik majburiyatiga zid xatti-harakat sifatida baholanib, huquqqa xilof va, ayni vaqtda, aybli xulq-atvor hisoblanadi.

Fuqarolik huquqida zarar nafaqat fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning zaruriy sharti, balki uning asosiy shakli ham hisoblanadi. Zarar deganda, huquq buzilishi oqibatida yuzaga keladigan mulkiy yo‘qotishlar va ularning puldagi bahosi tushuniladi. Zararning ikki qismdan iborat: haqiqiy zarar (ya’ni huquqi buzilgan shaxs huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlar, shuningdek, uning mol-mulkiga yetkazilgan natura ko‘rinishidagi zarar) hamda boy berilgan foyda (ya’ni huquqi buzilgan shaxs, agar uning huquqi buzilmagan bo‘lsa, fuqarolik muomalasining odatdagi sharoitlarida olishi mumkin bo‘lgan, biroq huquqi buzilishi natijasida ololmagan daromad).

Direktor jamiyatga tegishli korporativ imkoniyatlardan foydalangan hollarda, jamiyatga yetkaziladigan zarar, odatda, boy berilgan foyda shaklida yuzaga keladi. Ya’ni, agar ushbu imkoniyat jamiyat manfaatlariga yo‘naltirilganida olinishi mumkin bo‘lgan daromaddan mahrum bo‘ladi. Masalan, “Kuk – Diks” ishida kompaniyaning zarari asosiy mijoz bilan yangi loyihani amalga oshirish orqali olishi mumkin bo‘lgan, biroq ololmagan daromaddan iborat bo‘lgan. Bu daromad kompaniya ushbu loyihani amalga oshirish uchun qiladigan asosli xarajatlar chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Korporativ imkoniyatlardan foydalanish ba’zida jamiyatga haqiqiy zarar yetkazishi ham mumkin. Masalan, jamiyat ta’mirlash ishlarini amalga oshirishi kerak. Biroq direktor, jamiyat uchun ayni mos bo‘lgan, sifat parametrlari yuqori va ish bahosi esa uncha yuqori bo‘lmagan pudratchi bilan ta’mirlash ishlari bo‘yicha shartnoma tuzish o‘rniga, uni o‘zining qurilishi uchun jalb qiladi. Jamiyat esa ishlarni bunga nisbatan sezilarli noqulay shartlarda taklif qilgan boshqa pudratchi bilan shartnoma tuzishga majbur bo‘ladi va bu jamiyat uchun narxdagi farqlar ko‘rinishidagi zararga olib keladi.

Korporativ imkoniyatlardan foydalanish jamiyatga zarar yetkazganligini aniqlash, odatda, murakkab emas, biroq zarar miqdorini isbotlash qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Agar direktor imkoniyatni o‘zlashtirishdan daromad olgan bo‘lsa, Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga muvofiq, boy berilgan foyda huquqbuzar olgan daromaddan kam bo‘lmagan miqdorda undirilishi mumkin. Biroq imkoniyat direktor uchun unchalik foyda keltirmagan bo‘lsa, lekin jamiyat undan samarali foydalanib, ko‘proq daromad olish ehtimolini ko‘rsatsa, bunday vaziyatda zarar miqdorini isbotlash murakkablashadi.

Zararning miqdorini aniq belgilash imkoni bo‘lmasligi sud tomonidan zararni undirish haqidagi talabni rad etishga bo‘lmasligi kerak. Bunday holatda zararning miqdori sud tomonidan ishning barcha holatlarini hisobga olgan holda, adolat va javobgarlikning mutanosibligi tamoyillaridan kelib chiqib belgilanadi.

Korporativ imkoniyatdan foydalanish natijasida yetkazilgan zararni undirish imkoniyatiga to‘siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan yana bir qoida mavjud. Fuqarolik kodeksining 324-moddasi bo‘yicha boy berilgan foydani aniqlashda kreditor tomonidan ushbu foydani olish uchun ko‘rilgan choralar va tayyorgarliklar e’tiborga olinishi lozim. Agar jamiyat korporativ imkoniyatning o‘zidan bexabar bo‘lgan bo‘lsa, undan foyda olish uchun qanday tayyorgarliklar

ko‘rgan bo‘lishi mumkin? – degan savol tug‘iladi. Fikrimizcha, doktrinada qayd etganidek, “tayyorgarlik choralari to‘g‘risidagi qoidalarni mutlaqlashtirmaslik kerak: bir qator hollarda tayyorgarlik choralarini aniqlash zarur bo‘lmaydi”.

Shunday qilib, direktor tomonidan korporativ imkoniyatning o‘zlashtirilishi natijasida jamiyatda mulkiy-salbiy oqibatlar yuzaga kelishi tabiiy. Biroq ko‘rilgan zararning miqdorini aniqlash va uni isbotlash ko‘plab holatlarda murakkab vazifa bo‘lishi mumkin. Aytish o‘rinliki, bu murakkablik korporativ imkoniyatlar doktrinasiga emas, balki boy berilgan foydani undirish institutiga xos bo‘lgan umumiy muammolardan biridir.

FK hamda MCHJ to‘g‘risidagi qonunda boshqaruv organlari a’zolarining g‘ayriqonuniy xatti-harakati natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Shu munosabat bilan, fuqaroviy-huquqiy javobgarlikni zarar ko‘rinishida yuzaga keltirish uchun zaruriy shart — bu zarar va huquqqa zid xatti-harakat o‘rtasida sababiy bog‘liqlik mavjud bo‘lishidir. Mazkur sababiy bog‘liqlikni isbotlash da’vogar zimmasiga yuklatiladi. Sababiy bog‘liqlik masalasiga oid turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ularning har biri muayyan ustunlik va kamchiliklarga ega. Odatda, sababiy bog‘liqlik “ikki hodisa o‘rtasidagi obyektiv va konkret aloqa” sifatida ta’riflanadi, bunda birinchi hodisa: sabab ikkinchisidan oldin yuz beradi va uni keltirib chiqaradi, ikkinchi hodisa esa: oqibat birinchisining natijasi bo‘ladi. Direktorning korporativ imkoniyatlardan foydalangani uchun fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka tortilishi uchun, bu harakat jamiyatning mulkiy sohasida salbiy oqibatlarga olib kelgan sabab bo‘lishi lozim.

Jamiyatga yetkazilgan zararning miqdorini aniqlashda va sababiy bog‘liqlikni baholashda O.S. Ioffe tomonidan ilgari surilgan “imkoniyat va voqelik nazariyasi”ga tayanish mumkin[16]. Unga ko‘ra, turli holatlar noqonuniy oqibatlar yuzaga kelishiga har xil darajada ta’sir ko‘rsatadi: ba’zilar faqat abstrakt (nazariy) imkoniyatni yaratadi, boshqalari esa aniq (konkret) imkoniyatni vujudga keltiradi, ayrim holatlarda esa natijaning ro‘y berishiga bevosita sabab bo‘ladi. Agar noqonuniy xatti-harakat faqat umumiy imkoniyatni yuzaga keltirgan bo‘lsa, javobgarlik qo‘llanilmaydi. Biroq, agar u natijaning yuzaga kelishiga aniq sabab bo‘lsa yoki ehtimolni voqelikka aylantirgan bo‘lsa, unda javobgarlik uchun yetarli sababiy bog‘liqlik mavjud, deb hisoblanadi.

Direktorning korporativ tadbirkorlik imkoniyatidan o‘z foydasi uchun foydalanishi, odatda, jamiyat uchun zarar yetishi ehtimolini haqiqatga aylantiradi. Bu jamiyatning foyda olish imkoniyatidan mahrum bo‘lishiga olib keladi yoki unga zarar yetishining aniq ehtimolini yuzaga keltiradi. Masalan, Kuk Diksga qarshi ishda direktor o‘z kompaniyasini asosiy buyurtmachining yangi loyihasidan foyda olish imkoniyatidan mahrum qilgan. Natijada jamiyat boy berilgan foyda shaklida haqiqiy zarar ko‘rgan. Yana bir holatda, agar direktor jamiyat uchun emas, balki qulay bo‘lgan pudratchi bilan o‘z uyida ish bajarish uchun shartnoma tuzsa va jamiyatni boshqa, yomonroq shartlardagi pudratchi bilan ishlashga majbur qilsa, direktorning bu harakati jamiyatga zarar yetkazishning aniq sababi bo‘ladi. Bu zarar ikki pudratchining ish qiymati o‘rtasidagi farqdan iborat bo‘ladi. Agar jamiyat tanlagan ikkinchi pudratchi ishni sifatsiz bajargani natijasida ishlab chiqarish to‘xtab qolsa va qo‘shimcha zararlar yuzaga kelsa, bunday vaziyatda direktor faqat abstrakt zarar ehtimolini yaratgan hisoblanadi. Bu zararlarning haqiqatga aylanishiga esa ikkinchi pudratchining o‘zi sabab bo‘lgan bo‘lib, javobgarlik ham unga yuklatilishi lozim.

Xulosa

Yuqorida keltirilganlardan koʻrinadiki, direktorning korporativ tadbirkorlik imkoniyatidan foydalanishi holatida huquqbuzarlik tarkibining shartlari — huquqqa xiloflik, ayb, zarar va sababiy bogʻliqlik mavjud boʻlishi mumkin. Agar direktor oʻz shaxsiy manfaatlari bilan jamiyat manfaatlari toʻqnashgan holatda ushbu imkoniyatdan foydalangan boʻlsa, bu uning sodiqlik burchini buzuvchi harakati sifatida baholanadi, bunday harakat noqonuniy hisoblanadi. Shuningdek hozirgi yondashuvlarga asosan, direktorning aybi ham aynan uning sodiqlik burchini buzganligi bilan belgilanadi. Jamiyat koʻrgan zarar (odatda bu boy berilgan foyda) va direktorning harakatlari oʻrtasidagi sababiy bogʻliqlik har bir ishning aniq holatidan kelib chiqib isbotlanadi. Bu borada ayrim qiyinchiliklar boʻlishi mumkin, lekin ular direktorning bunday harakatlari oqibatida jamiyatga yetkazilgan zararni undirishga toʻsqinlik qilmasligi kerak.

Bugungi kunga kelib, milliy qonunchilik va sud amaliyoti direktorning jamiyatga tegishli tadbirkorlik imkoniyatini oʻzlashtirishini noqonuniy harakat deb baholashga asos boʻladi. Bunday harakatlar uchun direktor fuqaroviy javobgarlikka tortilishi mumkin. Sudlarda ham yuridik shaxslar boshqaruv organlari a'zolarining javobgarligiga doir huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmoyishi // URL: https://www.lex.uz/docs/-4272621;
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-415-son Qarori;
3. Oʻzbekiston Respublikasining "Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini tasdiqlash haqida"gi Qonuni loyihasi // URL: https://regulation.gov.uz/uz/d/29059 ;
4. Oʻzbekiston Respublikasi "Xoʻjalik jamiyatlarining ijro organi, kuzatuv kengashi va majoritar ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish toʻgʻrisida" Qonuni loyihasi, 30/11/2023, ID 90058 https://regulation.gov.uz/uz/d/90058
5. Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // URL: https://lex.uz/docs/-22525;
6. Oʻzbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan va qoʻshimcha mas'uliyatli jamiyatlar toʻgʻrisida"gi Qonuni, OʻRQ-310-II-son 06.12.2001 // URL: https://lex.uz/docs/-22525;
7. Corporate governance and directors' liabilities: legal, economic, and sociological analyses on corporate social responsibility / ed. by K.J. Hopt, G. Teubner. Berlin, 1985. P. 295-300.
8. The Anatomy of Corporate Law / ed. by R. Kraakman, J. Armour, P. Davies et al. Oxford, 2009. P. 165-166.
9. Clark R. Corporate Law. Boston-Toronto, 1986. C. 223-225.
10. Конфликт интересов. Дедов Д.И. – М.: Wolters Kluwer Russia, 2004. –С. 1.
11. Cook v. Deeks sud qarori (1916), [1 Appeal Cases 563]
12. Bundesgerichtshof, Urteil vom 1986, veröffentlicht in: Neue Juristische Wochenschrift (NJW), S. 584.
13. Industrial Development Consultants Ltd v. Cooley, High Court (England), 1972, reported in: [1972] 1 W.L.R. 443.
14. Гражданское право: учеб. в 3 т. Т. 1 / под ред. А.П. Сергеева. С. 963; Гражданское право: учеб. в 4 т. Т. 1. Общая часть / под ред. Е.А. Суханова.

15. Жукова Ю.Д. Соотношение противоправности и вины при нарушении руководителем хозяйственного общества требований разумности и добросовестности // Гражданское право. 2014. N 1. С. 10-13.
16. Иоффе О.С. Обязательственное право. М., 1975. С. 113-128.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

METHODS, FORMS, AND TOOLS OF TEACHING BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Kurbonov Gulomjon Gafurovich
Bukhara State Pedagogical Institute
Head of the Department of "Mathematics and Informatics",
PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor

Abstract. In the context of digital education, teaching methods—as a crucial element of the didactic system—are being updated and enriched in terms of quality and content. Advanced forms and approaches are emerging in the organization of the educational process. The author of the study identifies the key concepts related to digital didactics and substantiates methodological solutions based on existing pedagogical requirements. This article highlights the development of a digital model for distance teaching and its implementation in practice. The proposed tools correspond to the stages of the education system's development and ensure effective achievement of learning objectives.

Keywords: digital education, digital didactics, online board, virtual board, poster presentation, asynchronous interaction, synchronous interaction.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI

Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Matematika va informatika" kafedrasi mudiri,
p.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Raqamli ta’lim sharoitida didaktik tizimning muhim elementi sifatida o‘qitish metodlari sifat va mazmun jihatidan yangilanmoqda hamda boyitilmoqda. O‘quv jarayonini tashkil etishda ilg‘or shakl va yondashuvlar shakllanmoqda. Tadqiqot muallifi raqamli ta’lim didaktikasiga oid asosiy tushunchalarni aniqlab, mavjud pedagogik talablar asosida metodik yechimlarni asoslaydi. Ushbu maqolada masofaviy o‘qitishning raqamli modelini yaratish va uni amaliyotga joriy etish masalalari yoritiladi. Taklif etilgan vositalar ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlariga mos kelib, o‘quv maqsadlariga samarali erishishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, raqamli didaktika, onlayn doska, virtual doska, stendli taqdimot, asinxron o‘zaro ta’sir, sinxron o‘zaro ta’sir.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N42

Kirish. O‘qitish metodlariga doir ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning raqamli ta’limdagi tatbiqiga oid jihatlar tahlili ushbu sohada tor ixtisoslashgan ilmiy ishlanmalar yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Amaldagi adabiyotlarda ko‘proq an’anaviy yondashuvlarga tayanilgan bo‘lib, ular masofaviy ta’limdagi o‘zaro ta’sir xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu bilan birga, o‘qitish metodlari didaktik tizimning

ajralmas qismi sifatida masofaviy ta’lim sharoitida sezilarli o‘zgarishlarga uchrab, yangicha shakl va vositalar bilan boyitilmoqda. Bu jarayon faqat mustaqil faoliyatni alohida shakl sifatida ajratish bilan emas, balki raqamli muhitda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tashkil etish, o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishni ta’minlovchi vazifalarning o‘zgarishi bilan ham bevosita bog‘liqdir [1; 164-166-b.]. Maqolada raqamli ta’lim muhitida samarali o‘zaro ta’sirni yo‘lga qo‘yuvchi, o‘quv jarayonining turli bosqichlariga mos keluvchi metodlar tasnifi keltirilgan. Shuningdek, nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy tayyorgarlikni ta’minlovchi metodik yondashuvlarni uyg‘unlashtiruvchi mualliflik matritsasi ishlab chiqilib, unda raqamli ta’limning mos shakl, metod va uslublari tizimlashtirilgan.

Amaliy tadqiqotlar uchun bazaviy muassasa sifatida Buxoro davlat pedagogika institutining Amaliy matematika ta’lim yo‘nalishi tanlandi. Raqamli muhitda masofaviy o‘qitish jarayonini modellashtirish “Sonli usullar” fan dasturi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning analitik bosqichida bir qator pedagogik metodlar qo‘llanildi, xususan: didaktik modellashtirish, masofaviy ta’limni yagona pedagogik tizim sifatida talqin etish asosida ishlab chiqilgan modelni tajriba asosida sinovdan o‘tkazish hamda mazkur modelni real ta’lim sharoitida qo‘llash orqali olingan natijalarni tizimli yondashuv asosida tahlil qilish [2; 165-167-b.]. Tadqiqot vazifasi ikki asosiy yo‘nalishda belgilandi: birinchidan, tanlangan metod va yondashuvlarning amaliy jihatdan asoslanganligini ko‘rsatish; ikkinchidan esa ishlab chiqilgan tasnifga ilmiy-nazariy asos yaratish.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tamoyillariga tayangan holda raqamli ta’lim muhiti uchun mos shakl, metod va vositalarning tasnifini shakllantirishga doir tajribani tizimlashtirish va tahlil qilishdan iborat. Eksperimental tadqiqot bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Dastlab, izlanishning tushuncha-apparati ishlab chiqildi; keyingi bosqichda esa raqamli muhitda o‘qitish metodlariga xos jihatlar aniqlanib, ularning tasnifi berildi. Shundan so‘ng, raqamli ta’lim shakllari, metodlari va uslublarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi matritsa ishlab chiqildi. Keyingi bosqichda raqamli vositalarning funksional imkoniyatlari asosida ularni tavsiflash va ishlab chiqish ishlari olib borildi. Yakuniy bosqichda esa raqamli sharoitda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga ta’sir ko‘rsatadigan muhim didaktik komponentlar asoslab berildi.

Adabiyotlar tahlili.

T.N. Noskovaning izlanishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u Yu.K. Babanskiyning ilmiy yondashuvini davom ettirgan holda, raqamli ta’lim metodlarini o‘quvchining mustaqil faoliyatiga asoslangan tarzda tasniflaydi. Biz quyidagi muhim savollarga javob izlandik:

- Raqamli muhitdagi axborot resurslari orqali talabaning mustaqil o‘quv-bilim faoliyatini qanday rag‘batlantirish va motivatsiya qilish mumkin?
- Raqamli axborot texnologiyalari yordamida mustaqil ta’limiy faoliyatni qanday tashkil etish mumkin?
- Axborot resurslari vositasida o‘quv faoliyatini nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish qanday yo‘lga qo‘yilishi mumkin?

Bu yondashuv raqamli ta’limda o‘quvchi subyekti faoliyatining markaziy o‘rinni egallashini nazarda tutadi va metodik tasnifni yangi bosqichga olib chiqadi [4; 93-95-b.].

T.N. Noskova raqamli ta’lim muhitida qo‘llaniladigan metodlarni uch asosiy guruhga ajratadi: axborotli, kommunikativ va amaliy usullar [5; 125-129-b.]. Ushbu yondashuv raqamli

pedagogik muhit sharoitida o‘qitish jarayonining murakkabligini hisobga olgan holda metodlarni tizimli ravishda tahlil qilishga imkon yaratishi ma’lum bo‘ldi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ta’lim metodlari, xususan, ularning turli mezonlar asosidagi tasnifi masalasiga alohida ilmiy e’tibor qaratilgan. Sovet pedagogikasining rivojlanish davrida o‘qitish metodlarining klassik tasniflari shakllantirilgan bo‘lib, ular bir nechta asosiy yondashuvlarga tayanadi. Jumladan, bilim manbalariga asoslangan tasniflar, faoliyat tarkibiy tuzilmasi asosidagi yondashuvlar, didaktik maqsadlar mezoniga tayangan tasniflar, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xarakteriga asoslangan tasniflar pedagogik adabiyotlarda keng e’tirof etilgan [6; 78-81-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli ta’lim vositalari – bu ta’lim jarayonida foydalaniladigan turli ko‘rinishdagi elektron resurslar bo‘lib, ular raqamli muhit imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘quv maqsadlariga qisqa muddatda va yuqori samaradorlik bilan erishishni ta’minlaydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Raqamli muhitda ta’lim shakllari, metodlari va vositalarining tasnifi

Ko‘rsatkich	**Axborotga oid shakllar, metodlar va vositalar**	**Kommunikatsion shakllar, metodlar va vositalar**	**Amaliy shakllar, metodlar va vositalar**	**Qayta aloqani tashkil etish shakllari, metodlari va vositalari**
Maqsad	Internet manbalari orqali bilim olish	O‘rganilgan bilimlardan turli vaziyatlarda foydalanish bo‘yicha o‘quv kommunikatsiyasini tashkil etish	Bilim, ko‘nikma va malakalarni kasbiy muammolarni hal etishda qo‘llash	Samarali o‘quv jarayoni uchun sharoit yaratish
O‘quv vazifalari	Qayta aloqa bo‘lmagan holda o‘quv ma’lumotlarini uzatish	O‘quv ma’lumotlarini muhokama qilish	Egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni namoyon etish	O‘quv tizimini strukturaviy tuzish
Sinxron o‘zaro ta’sir	Onlayn ma’ruza, videodars	Ochiq / muammoli onlayn ma’ruza, loyihalash, workshop, chiqish, bilvosita tashabbus metodi, videokonferensiya	Onlayn doska, onlayn mahorat darslari, workshop, trening	Vebinar, ochiq sharhlar, savollarga javoblar, workshop, onlayn doska
Asinxron o‘zaro ta’sir	Forum, videolar, izohlar, konsultatsiya, diskret/interaktiv ma’ruzalar, podkast, e-mail, skrinkastlar, interaktiv video, landing, longread	Forum, raqamli iz, hamkorlik (bulut texnologiyasi), reyting, badge’lar, chatlar, ijtimoiy tarmoqlar, videofaoliyat sharhi	Forum, loyihalash, virtual doska, guruh ishlari, trenajyor, sun’iy intellekt, test, portfoliyo, vaziyatli tahlil, semantik qidiruv, interaktiv topshiriqlar	Forum, videolar, messenjerlar, shaxsiy xabarlar, geymifikatsiya, refleksiya, qayta baholash, e-mail, izohlar
Boshqa	—	Aralash haqiqat: VR / AR	—	—

1-jadvalda raqamli muhitda o‘qitish shakllari, metodlari va vositalarining tasnifi keltirilgan bo‘lib, ular o‘zaro aloqaning amalga oshirish uslubiga qarab tartiblangan.

Stend taqdimoti – bu ilmiy axborotni vizual tarzda yetkazishga xizmat qiluvchi plakat asosidagi statsionar taqdimot shaklidir. Ushbu taqdimot turi g‘oya va ma’lumotlarni mustaqil o‘quvchi tomonidan anglab olinadigan darajada aniq va tizimli shaklda taqdim etishni nazarda tutadi. Og‘zaki taqdimotdan farqli ravishda, stend materiallari asosiy mazmunni o‘zida aks ettirishi, ya’ni auditoriya vakillari tomonidan muallifning ishtirokisiz ham tushunilishi zarur. Shu bois, stend mualliflari nafaqat plakatni puxta tayyorlashlari, balki yuzaga keladigan savollarga ilmiy asoslangan javob bera olishga ham tayyor bo‘lishlari talab etiladi. Zamonaviy ilmiy konferensiyalar va anjumanlarda ushbu format keng qo‘llanilib, tadqiqotchilar o‘z ishlanmalarini taqdim etish barobarida, boshqa ishtirokchilar bilan interaktiv muloqot olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3; 87-89-b.].

Raqamli ta’lim usullarining tasnifi. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida an’anaviy o‘qitish yondashuvlari tubdan yangilanib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda yangi metodik yo‘nalishlarning shakllanishiga asos yaratmoqda. Bu esa pedagogik faoliyatda qo‘llanilayotgan usullarni sinxron va asinxron ta’lim formatlari asosida qayta ko‘rib chiqish va tizimlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, internet texnologiyalariga tayangan raqamli ta’lim muhiti o‘quv jarayonining mazmunini yangilash, ta’lim shakllari va vositalarini esa moslashuvchan hamda innovatsion asosda tashkil etishga keng imkoniyatlar yaratadi. Natijada, raqamli ta’limning o‘ziga xos talablari va sharoitlariga mos didaktik yondashuvlar shakllanib bormoqda.

Muhokama. *O‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli vositalarning salohiyati.* Zamonaviy ta’lim amaliyotida masofaviy ta’lim tizimi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim raqamli mexanizmlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur tizim sinxron, asinxron hamda gibrid shakldagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi va mavjud raqamli vositalarning didaktik salohiyatidan kompleks tarzda foydalanishga zamin yaratadi.

Masofaviy ta’lim tizimining (MTT) raqamli vosita sifatidagi imkoniyatlari quyidagicha tavsiflanadi:

- barcha foydalanuvchilar uchun yagona kirish nuqtasini ta’minlovchi platforma sifatida ishlaydi va talabalarga teng imkoniyatlar yaratadi;
- ta’limiy ma’lumotlarni uzatish, saqlash, qabul qilish hamda o‘quv faoliyatini boshqarishning integrallashgan vositasi sifatida xizmat qiladi.

O‘qituvchining MTT orqali bajarishi mumkin bo‘lgan asosiy funksional faoliyatlari quyidagilardan iborat:

- nazariy materiallarni tizimli ravishda taqdim etish;
- individual va guruh ko‘rinishidagi o‘quv faoliyatlarini rejalashtirish va tashkil etish;
- o‘quv jarayonining doimiy monitoringi va natijalarni baholashni amalga oshirish;
- o‘quvchilar bilan samarali pedagogik muloqotni yo‘lga qo‘yish, xususan, xabar almashinuvi va maslahat shaklidagi shaxsiy ko‘mak orqali ularni qo‘llab-quvvatlash.

Vebinar – bu ta’limiy mashg‘ulotlarni real vaqt rejimida tashkil etishga mo‘ljallangan sinxron raqamli platforma bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv muloqotni ta’minlaydi. Vebinarlar zamonaviy ta’lim jarayonida sinxron aloqaga asoslangan darslarni tashkil etishning samarali vositasi sifatida faol qo‘llanilmoqda [1; 167-169-b.].

Vebinar platformalarining asosiy funksional imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ o‘quv sessiyalarini rejalashtirish va o‘tkazish;

- ✓ interaktiv onlayn doskalardan foydalanish;
- ✓ ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini yig‘ish va tahlil qilish;
- ✓ testlar, so‘rovnomalar va mini-quizlar orqali bilimni baholash;
- ✓ onlayn seminarlar hamda raqamli amaliy mashg‘ulotlarni (workshoplar) tashkil etish.

O‘qituvchi vebinarlar orqali quyidagi pedagogik faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin:

- nazariy materiallarni tushunarli va izchil tarzda sharhlash;
- ta’limiy axborotni yetkazish hamda uning o‘zlashtirilishini boshqarish;
- auditoriya bilan muntazam aloqani yo‘lga qo‘yish va teskari fikr olish;
- bilim va ko‘nikmalarni baholash, muhokamalar o‘tkazish;
- kichik guruhlar bilan ishlash orqali tajriba almashuvini rivojlantirish.

Messendjerlar — ta’lim jarayonida ishtirokchilar o‘rtasida tezkor va samarali axborot almashinuvini ta’minlovchi zamonaviy raqamli vositalardan biridir. Ushbu platformalar mobil va qulay kommunikatsiya imkoniyatlari orqali o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani real vaqt rejimida tashkil etishga xizmat qiladi.

Messendjerlarning asosiy funksional imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- ❖ tezkor teskari aloqani yo‘lga qo‘yish va muloqotni jonlashtirish;
- ❖ qisqa vaqt ichida auditoriyani ma’lumot bilan ta’minlash;
- ❖ matn, rasm, video va boshqa formatdagi fayllarni yuborish;
- ❖ qisqa videoxabarlar orqali vizual muloqotni amalga oshirish;
- ❖ zaruriy ma’lumotlarni tez yig‘ish va dastlabki qayta ishlash;
- ❖ mobil qurilmalar orqali istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati;
- ❖ sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan xizmatlardan foydalanish (masalan, avtomatik javoblar, tahlil modullari va boshqalar).

O‘qituvchining messendjer orqali bajarishi mumkin bo‘lgan asosiy vazifalari:

- ➢ o‘quvchilarni dolzarb axborot bilan tezkor ta’minlash;
- ➢ qisqa vaqt ichida o‘quvchilardan kerakli ma’lumotlarni yig‘ish;
- ➢ qisqa videoxabarlar orqali o‘quvchilarga tushuntirish yoki eslatmalar berish.

Elektron pochta — ta’limiy axborot almashinuvini izchil va rasmiy yo‘lga qo‘yish imkonini beruvchi raqamli kommunikatsiya vositasi bo‘lib, zamonaviy ta’lim jarayonida muhim axborot kanali sifatida keng qo‘llaniladi [1; 169-170-b.].

Elektron pochtaning imkoniyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- muloqot jarayonini yagona izchil zanjir shaklida yuritish;
- turli hujjat va materiallarni raqamli arxivda saqlash imkoniyati;
- e’lon, eslatma yoki topshiriq kabi ommaviy xabarlarni keng auditoriyaga yetkazish.

O‘qituvchining elektron pochta orqali amalga oshirishi mumkin bo‘lgan faoliyatlari:

- ▪ o‘quvchilardan teskari aloqa olib, individual javoblar berish;
- ▪ to‘plangan ma’lumotlarni tizimli tartibda saqlash va hujjatlashtirish;
- ▪ talaba yoki guruhlar bilan manzilli aloqani yo‘lga qo‘yish;
- ▪ o‘quv jarayonining barcha bosqichlarini hujjatlar asosida qayd etish;
- ▪ “nuqtadan nuqtaga” prinsipida, ya’ni har bir o‘quvchi bilan mustaqil yozma muloqotni yuritish.

Natijalar. Amaliy matematika ta’lim yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan tadqiqot davomida raqamli ta’lim muhiti asosida masofaviy o‘qitishning yaxlit pedagogik modeli tajriba

tariqasida qo‘llanildi. Jarayon davomida ta’lim amaliyotiga moslashtirilgan holda yangi tushuncha-apparat shakllanib, tizimlashtirildi. Raqamli ta’lim vositalari va metodlariga oid jarayonlarni chuqur tahlil qilish asosida muallif tomonidan quyidagi ilmiy talqinlar ishlab chiqildi:

Virtual doska – asinxron formatda birgalikda ishlash imkonini beruvchi raqamli platforma.

Onlayn doska – sinxron rejimda hamkorlikda faoliyat yuritishga xizmat qiluvchi raqamli vosita.

Mitap (uchrashuv) – muayyan mavzu doirasida joyida yoki onlayn shaklda tashkil etiladigan ixtisoslashgan muhokama formati.

Raqamli ta’lim metodlari – o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida ta’limiy vazifalarni hal qilish orqali nazariy yoki amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan raqamli vositalar asosidagi o‘zaro ta’sir mexanizmi.

Metodlar tasnifi – o‘qitish uslublarining umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash orqali ularni samarali guruhlarga ajratish tizimi, bu esa ularni maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llash imkonini beradi.

Matritsa – elementlar to‘plamini tartiblangan holda ifodalovchi to‘rtburchak shaklidagi jadval ko‘rinishidagi strukturaviy model bo‘lib, unda o‘zaro ta’sir shakllari, metodlar va ta’lim tashkiloti shakllari o‘zaro bog‘lanadi. Satr va ustunlar soni matritsaning o‘lchamini aniqlaydi. Ushbu tuzilma ta’limiy komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida ta’lim metodlarini yangi mezonlar asosida tasniflashga imkon beruvchi nazariy model ishlab chiqildi. Ushbu klassifikatsiya tizimining markaziy mezoni sifatida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning tashkil etilish xususiyatlari tanlandi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ta’lim metodlari o‘zaro muloqot shakllariga ko‘ra guruhlanib, har bir guruh uchun aniq didaktik maqsadlar belgilandi. Shuningdek, har bir metodlar to‘plami doirasida o‘quv jarayonida amalga oshiriladigan asosiy pedagogik vazifalar aniqlab berildi. Ularning amaliy tatbiqi uchun esa sinxron (bir vaqtda) va asinxron (turli vaqtda) ta’lim formatlariga mos usullar tanlab olindi.

Bu yondashuv raqamli muhitda ta’limni tashkil etish jarayonida metodik tanlovni tizimlashtirishga, o‘quv jarayonini samarali loyihalashga va individual yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar negizida masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etishning shakl va usullarini ishlab chiqish hamda ularni tizimlashtirish bo‘yicha qo‘yilgan ilmiy-metodik vazifalar muvaffaqiyatli yechim topdi. Tadqiqot doirasida masofaviy ta’limni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi turli modellar asosida optimal ta’lim shakllari, metodlar va raqamli vositalar tavsiflandi. Taklif etilgan yondashuvlar, eng avvalo, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun qulay, o‘quv jarayonining maqsadlariga erishishni ta’minlovchi, shuningdek, raqamli muhitning texnik va didaktik imkoniyatlariga mos keluvchi yechimlar sifatida namoyon bo‘ldi. Shunday qilib, raqamli ta’lim sharoitlarida masofaviy o‘qitishni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari amaliy jihatdan asoslab berildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л., Шитова В.А. Методы цифрового обучения: классификация, средства и инструменты, матрица согласования // Вестник Томского государственного университета. 2024. № 501. С. 164–172. doi: 10.17223/15617793/501/19.
2. Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л. Дидактика цифровой эпохи: некоторые аспекты развития // Вестник Томского государственного университета. 2023. № 490. С. 160–168. doi: 10.17223/15617793/490/18.
3. Вайндорф-Сысоева М.Е., Панькина Е.В. Специфика учебно-педагогического взаимодействия в цифровой образовательной среде // Профессиональное образование в России и за рубежом. 2021. № 2 (42). С. 86–92.
4. Носкова Т.Н. Вызовы века: педагогика сетевой среды. СПб. : Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2013. 112 с.
5. Носкова Т.Н. Дидактика цифровой среды. СПб. : Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2020. 382с.
6. Образцов П.И. Основы профессиональной дидактики : учеб. пособие. М. : Вузовский учебник ; ИНФРА-М, 2016. 288 с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL FOUNDATIONS OF TRANSFORMATIONAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND THEIR CONNECTION WITH THE COMPETENT APPROACH

Safarova Nigora Nasilloyevna
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs
Department of General Education Sciences

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of transformational educational technologies and reveals their connection with the competency-based approach. Transformative education serves the formation of such competencies as changing the thinking paradigm of the student, in-depth learning based on reflection, as well as independent decision-making in real-life situations. Combining a competency-based approach with transformational educational technologies is an important tool for improving the quality and effectiveness of education. The study used methods of conceptual analysis, comparison, and theoretical modeling.

Keywords: transformative education, competency-based approach, reflection, pedagogical technologies, innovative learning.

TRANSFOMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI

Safarova Nigora Nasilloyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
IIV Buxoro akademik litseyi
"Umumta'lim fanlar" kafedrasi boshlig'i
Email: safarovanigora2211@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada transformativ ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari tahlil qilinadi va ularning kompetentlik yondashuvi bilan qanday bog'liq ekani ochib beriladi. Transformativ ta'lim o'quvchining fikrlash paradigmasini o'zgartirish, refleksiya asosida chuqur o'rganish, shuningdek, real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kompetentlik yondashuvi bilan transformativ ta'lim texnologiyalarining uyg'unligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotda konseptual tahlil, taqqoslash, nazariy modellashtirish usullari qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: transformativ ta'lim, kompetentlik yondashuvi, refleksiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N43

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va kreativ shaxs sifatida shakllantirishga intilmoqda. XXI asrda ta'limning asosiy vazifalaridan biri — inson kapitalini rivojlantirish, shaxsning innovatsion salohiyatini ochish va uni global muhitda raqobatbardosh etib tarbiyalashdir. Bu esa nafaqat o'quv dasturlarini yangilashni, balki pedagogik yondashuvlarning o'zgarishini ham taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan

qaraganda, transformativ ta’lim konsepsiyasi zamonaviy ta’lim falsafasida alohida o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Transformativ ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quvchining tafakkur paradigmasini o‘zgartirish, uning mavjud bilimlarini qayta ko‘rib chiqishga undash, shuningdek, refleksiya orqali yangicha dunyoqarash shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayondir [1; 5-b]. Bu konsepsiya ilk bor Jek Mezirov tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u transformativ o‘rganishning asosiy komponenti sifatida **shaxsiy tajriba asosidagi reflektiv tahlil**ni ilgari surgan. O‘quvchi muayyan bilim yoki hodisani o‘zining ilgari shakllangan tushunchalari bilan solishtirib, muqobil yondashuvlar va qarashlarni shakllantiradi. Bu jarayon esa chuqur o‘rganish va intellektual o‘sishga xizmat qiladi.

Transformativ ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarga chuqur o‘rganish, o‘z-o‘zini baholash, mustaqil qaror qabul qilish, muloqotga kirishish va ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi yuqori darajadagi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [2; 43–45-b]. Shuningdek, bu yondashuv o‘quvchining o‘quv jarayonida passiv ishtirokchidan faol subyektga aylanishiga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’limdagi konstruktivistik tamoyillarga hamohangdir.

Transformativ yondashuv kompetentlik yondashuvi bilan uzviy bog‘liqdir, chunki har ikki konsepsiya shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga tayanadi. Kompetentlik yondashuvi ta’lim jarayonida faqat bilimni emas, balki uning amaliy qo‘llanilishini, o‘zaro aloqalar, madaniy muloqot, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni ham nazarda tutadi [3; 26–27-b]. Transformativ ta’lim bu kabi kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay muhit va pedagogik sharoit yaratadi. Ayniqsa, u o‘quvchining **o‘zini anglash, mustaqil tanlov qilish, tanqidiy baholash** kabi yuqori darajadagi metako‘nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Shu jihatdan, transformativ ta’lim va kompetentlik yondashuvining uyg‘unlashuvi – bugungi ta’limda kerakli bilim, ko‘nikma va munosabatlar integratsiyasiga erishishning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada aynan shu ikki yondashuvning nazariy asoslari, o‘zaro uyg‘unlik mezonlari va ta’lim amaliyotidagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi.

Hozirgi davrda oliy ta’lim jarayoni faqat bilim berishga emas, balki talabani mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qila oladigan, zamonaviy raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga qaratilmoqda. Shu bois transformativ ta’lim konsepsiyasi va kompetentlik yondashuvi oliy ta’lim muhitida alohida ahamiyat kasb etmoqda [1; 6–8-b].

Adabiyotlar tahlili.

Ushbu tadqiqot transformativ ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o‘rganish va ularni kompetentlik yondashuvi bilan bog‘lash bo‘yicha tizimli ilmiy izlanishdir. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanib amalga oshirildi:

- **Konseptual tahlil** – transformativ o‘rganish nazariyasi, shaxsiy o‘zgarishlar orqali o‘rganish (Mezirov modeli), refleksiya, kritikal tafakkur hamda kompetentlik yondashuvining nazariy asoslari puxta o‘rganildi. Bu bosqichda J. Mezirov, P. Freyre, D. Kolb, J. Brookfield kabi olimlarning asarlari tahlil qilindi. Ularning ilmiy qarashlari asosida transformativ yondashuvning asosiy komponentlari, bosqichlari va shart-sharoitlari aniqlab olindi [1; 6–10-b].
- **Komparativ tahlil (taqqoslash metodi)** – an’anaviy va transformativ ta’lim texnologiyalari o‘rtasidagi farqlar, ularning didaktik imkoniyatlari, o‘quvchi shaxsiga ta’siri, kompetensiya shakllanishidagi roli jihatdan qiyosiy tahlil qilindi. Transformativ ta’lim subyektga yo‘naltirilgan, reflektiv, interaktiv va tajriba asosida shakllanuvchi

texnologiya sifatida baholandi, an’anaviy yondashuv esa ko‘proq bilimni yetkazishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflandi.

- **Nazariy modellashtirish** – olingan ilmiy dalillar asosida transformativ ta’lim va kompetentlik yondashuvining integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Bu model o‘quvchi shaxsining rivojlanish bosqichlari, o‘rganish jarayonining reflektiv strukturasi, va o‘qituvchining metodik funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Modellashtirish orqali transformativ-kompetentlikli ta’lim muhiti qanday shakllanishi mumkinligi ko‘rsatildi.
- **Empirik dalillarga tayangan holda tahlil** – mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari asosida transformativ yondashuvning amaliy natijalari, o‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyatiga ta’siri o‘rganildi. Jumladan, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari, zamonaviy pedagogik tajriba almashinuvi materiallari asos bo‘lib xizmat qildi [4; 45–47-b].

Ushbu metodik yondashuvlar birgalikda transformativ ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, amaliy qo‘llanilish holatlarini ko‘rsatish va ularni kompetentlik yondashuvi bilan bog‘liq holda tizimlashtirish imkonini berdi.

Transformativ ta’lim texnologiyasi Mezirov (1997) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u o‘rganuvchining tajriba asosidagi o‘zgarishi va reflektiv tafakkur orqali yangi dunyoqarash shakllanishiga urg‘u beradi. Oliy ta’lim muhitida bu yondashuv talabalarni mustaqil izlanishga, tanqidiy fikrlashga va ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi [2; 9–10-b]. Shuningdek, kompetentlik yondashuvi oliy ta’limda chiqish profillari (exit profile), malaka mezonlari va kasbiy tayyorgarlikning barqaror modeli sifatida qaralmoqda [3; 45-b]. Talabaning bilim, ko‘nikma va munosabatlarini bir butunlikda rivojlantirishda bu yondashuv asosiy vosita hisoblanadi [4; 48–50-b]. Taylor, Freire, Kolb, va boshqa olimlar fikricha, oliy ta’limda transformativ o‘rganishni qo‘llash orqali talabaning ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari yanada chuqur shakllanadi [5; 12-b].

Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim muhitida transformativ ta’lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi integratsiyasi quyidagi asosiy metodlar orqali o‘rganildi: konseptual tahlil, nazariy modellashtirish, empirik tahlil hamda komparativ yondashuv. Tahlillar Slippery Rock universitetida amalga oshirilgan transformativ hamkorlik darslari, Yevropa universitetlaridagi kompetensiyaga asoslangan dasturlar tahliliga asoslandi [6; 39–42-b].

Muhokama.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, transformativ ta’lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o‘rtasida bevosita metodik va maqsadga yo‘naltirilgan uyg‘unlik mavjud. Ikkala yondashuv ham o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘rganish jarayonining faol, mas’uliyatli ishtirokchisi sifatida ko‘radi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Transformativ ta’limda o‘z-o‘zini anglash, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash jarayonlari markaziy o‘rinni egallaydi, bu esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mas’uliyatni oshirish va mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon yaratadi [2; 45-b]. Shuningdek, transformatsiyalash jarayoni nafaqat o‘quvchi, balki o‘qituvchilar faoliyatida ham sezilarli o‘zgarishlarni talab qiladi. O‘qituvchilar ta’lim mazmuni va shaklini yangilash, pedagogik yondashuvlarni moslashtirish, shuningdek, o‘quvchini baholash va rag‘batlantirishda shaxsiylashtirilgan yondashuvni qo‘llashga majbur bo‘ladilar. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga olib keladi, yangi metod

va texnologiyalarni o‘zlashtirishni talab qiladi. O‘qituvchi endi nafaqat ma’lumot beruvchi, balki o‘quv jarayonini boshqaruvchi va mentor sifatida faoliyat yuritadi [4; 47-b].

Transformativ yondashuv orqali o‘quvchilarni faqat akademik bilimlar bilan cheklab qolmay, balki ularni ijtimoiy, kommunikativ, axborot, madaniy va fuqarolik kompetensiyalar bilan qurollantirish mumkin. Bu kompetensiyalar zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli va faol fuqarolik pozitsiyasini egallash uchun zarurdir. Shu bois, transformativ ta’lim ijtimoiy integratsiya, madaniyatlararo muloqot va axborot asrida samarali faoliyat ko‘rsatish qobiliyatlarini shakllantiradi [5; 46–48-b]. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, transformativ ta’lim texnologiyalarining kompetentlik yondashuvi bilan uyg‘unligi ta’lim jarayonini zamonaviy talablar darajasiga ko‘taradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi hamda shaxsning professional va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur yondashuvlarni birlashtirib, ta’lim siyosati va amaliyotiga joriy etish ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim muhitida transformativ ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalar real loyihalarda faol ishtirok etishadi, o‘z bilim va ko‘nikmalarini ijtimoiy kontekstda sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar. Shuningdek, talabalarning raqamli va kommunikativ kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlanadi [7; 51-b]. Olib borilgan tahlillar transformativ ta’lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o‘rtasida chuqur metodologik va maqsadga yo‘naltirilgan uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, **oliy ta’lim tizimida** transformativ yondashuvlar o‘quv jarayonining mazmuni va shaklini yangilashda, talabalarni kasbiy, ijtimoiy va axborot-kommunikativ jihatdan rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Transformativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarni faqat an’anaviy bilim oluvchilar emas, balki o‘z o‘rganish jarayonining subyekti sifatida faol ishtirok etuvchilar darajasiga olib chiqadi. Bu yondashuvda talabaning mavjud bilim va tajribasi tanqidiy tahlil qilinadi, yangi mazmunga ega tajriba bilan qayta interpretatsiya qilinadi, natijada talabaning **fikrlash, anglash va harakat qilish strategiyasi** transformatsiyaga uchraydi [1; 8–9-b].

Kompetentlik yondashuvi esa oliy ta’limda **“bilim + ko‘nikma + munosabat”** uchlik asosida o‘quvchining natijaviy faoliyatini baholashni ta’minlaydi. Bu komponentlar transformativ ta’lim modelida to‘liq ifodalanadi, chunki unda o‘quvchi mustaqil qaror qabul qilish, o‘zini baholash, ijtimoiy mas’uliyatli yondashuv asosida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3; 45–47-b].

Muhokamali asoslardan biri — transformativ ta’limning **interaktiv metodlar orqali kompetensiyani shakllantirishdagi roli**. Jumladan, loyiha asosida o‘qitish, rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar, reflektiv esselar va guruhiy bahs-munozaralar orqali talabalar nazariy bilimlarini real hayotiy kontekstda tatbiq etishni o‘rganadilar. Bu yondashuv Mezirov, Kolb va Freire tomonidan ilgari surilgan tajriba asosida o‘rganish (experiential learning) tamoyillariga tayanadi [2; 46-b; 4; 27–28-b].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, transformativ ta’lim modeli **raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda ham** samarali hisoblanadi. Masalan, raqamli platformalarda muammoli topshiriqlarni bajarish, onlayn hamkorlik va raqamli refleksiya vositalaridan foydalanish orqali talabalar o‘zlarining digital literacy darajasini sezilarli darajada oshirishmoqda [5; 50–51-b]. Bu esa bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’limning

amaliy yo‘nalishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, transformativ ta’lim texnologiyalarini amalga oshirishda **pedagoglarning professional tayyorgarligi muhim omil** sifatida ajralib turadi. O‘qituvchi nafaqat bilim yetkazuvchi, balki murabbiy, yo‘naltiruvchi va refleksiyani rag‘batlantiruvchi subyektga aylanishi zarur. Bu esa o‘qituvchilarning o‘zlarida ham tanqidiy tafakkur, refleksiya va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni chuqur egallashni talab etadi [4; 47-b].

Yevropa oliy ta’lim makonidagi tajribalar (masalan, Germaniya, Finlyandiya, Estoniya OTMlarida) transformativ o‘rganish elementlari asosida shakllangan kompetentlik modelining muvaffaqiyatli ishlashini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston oliy ta’limida ham mazkur modelni bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi ko‘zga tashlanadi. Bu nafaqat o‘quv dasturlarining sifatini oshiradi, balki bitiruvchilarning mehnat bozoriga tayyorgarlik darajasini ham yaxshilaydi [5; 46–48-b]

Natijalar.

Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar natijasida transformativ ta’lim texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari, kompetentlik yondashuvi bilan bog‘liqligi hamda ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo‘ldi:

- ✓ **Birinchidan**, transformativ ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchining avvalgi bilim va tajribasi tahlil qilinib, u yangicha nazar bilan ko‘rib chiqiladi. Bu jarayon o‘quvchining o‘z fikrlarini qayta baholashi, mavjud dunyoqarashini tanqidiy ko‘z bilan tahlil qilishi hamda yangi bilimlar asosida yangi nuqtai nazarni shakllantirishiga olib keladi [1; 9-b]. Aynan mana shu ichki kognitiv o‘zgarishlar orqali o‘quvchilarda **refleksiya, tanqidiy fikrlash, muqobil qaror qabul qilish**, va **shaxsiy rivojlanishga intilish** kabi metakompetensiyalar rivojlanadi [3; 29–30-b]. Bu kompetensiyalar bugungi ta’limda raqobatbardosh, ijtimoiy faollikka ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.
- ✓ **Ikkinchidan**, transformativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonlari o‘quvchilarni o‘z bilimlarini real hayotda amaliy qo‘llashga undaydi. Jumladan, **muammoli vaziyatlar, loyihaviy metodlar, rolli o‘yinlar, mustaqil izlanish topshiriqlari** orqali o‘quvchi o‘rganilgan bilimni faqat yodlab olish emas, balki uni hayotiy kontekstda tatbiq etishni mashq qiladi [2; 46-b]. Bu esa nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki shaxsning funksional savodxonligini oshiradi va kasbiy ixtisoslashuv uchun asos yaratadi. Shuningdek, transformativ o‘qitish jarayonlarida o‘quvchi o‘zining qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos faoliyatni amalga oshirish orqali ta’limga nisbatan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.
- ✓ **Uchinchidan**, kompetentlik yondashuvi ta’limda faqat bilim darajasini emas, balki **bilim, ko‘nikma va munosabatlar (BKM)** triadasini bir butunlikda rivojlantirish va baholashga yo‘naltirilgan. Transformativ ta’lim texnologiyalari esa aynan ushbu uchlikning har bir komponentini faol tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, refleksiya orqali bilimlar mustahkamlanadi, interaktiv faoliyatlar orqali ko‘nikmalar shakllanadi, mustaqil tahlil va baholash esa o‘quvchining munosabatini o‘zgartiradi [4; 48–49-b]. Bu holat o‘quvchini o‘zi uchun muhim bo‘lgan ma’lumotni mustaqil izlab topish, uni qayta ishlash va hayotga tatbiq etish qobiliyatini oshiradi.

Umuman olganda, transformativ ta’lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o‘zaro integratsiyalashganda ta’lim jarayoni yanada mazmunli, samarali va shaxsga

yo‘naltirilgan shaklga ega bo‘ladi. Bu yondashuv o‘quvchining faqatgina bilim oluvchidan faol ishtirokchi, o‘z rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan subyektga aylanishini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, transformativ yondashuv bilan kompetentlik yondashuvining birlashtirilgan modeli talabaning tanqidiy fikrlash, o‘zini baholash, axborotdan foydalana olish va jamoaviy ishlash kompetensiyalarini samarali rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida transformativ ta’lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o‘zaro uyg‘unlashgan holda talabaning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani quyidagi natijalar orqali aniqlandi:

1. Refleksiya va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi

Transformativ metodlardan foydalangan holda tashkil etilgan darslarda talabalar **avvalgi bilim va tajribalarini qayta tahlil qilish**, ularni yangi ma’noda idrok etish, muammoli vaziyatlarga nisbatan **mustaqil yondashuvni shakllantirish** imkoniga ega bo‘lishdi. Bu ularning reflektiv fikrlash darajasini oshirdi va o‘zini baholashga bo‘lgan e’tibor kuchaydi [2; 45–46-b].

2. Real kontekstda o‘rganish orqali kompetensiyalarni shakllantirish

Loyiha asosida o‘qitish, rolli o‘yinlar, amaliy topshiriqlar va interaktiv muhokamalar orqali talabalar o‘z bilimlarini real hayotiy kontekstda qo‘llashga o‘rgandilar. Bu esa **kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni amaliyotda rivojlantirish**ga xizmat qildi [3; 47-b].

3. Ta’lim subyektlari o‘rtasida faol muloqot vujudga keldi

Transformativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limda talabalar faqat tinglovchi emas, balki muhokama, izlanish, taklif kiritish, bahslashish orqali faol ishtirokchi sifatida qatnashdilar. Bu ular orasida **ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirdi va dars jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan formatga olib keldi [4; 48–49-b].

4. Axborot va raqamli kompetensiyalar rivojlandi

Transformativ o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar (taqdimotlar, onlayn muhokamalar, raqamli topshiriqlar) keng qo‘llanilgani sababli talabalar **axborot bilan ishlash, texnologiyadan oqilona foydalanish va digital refleksiya yuritish** ko‘nikmalarini o‘zlashtira boshladilar [5; 50-b].

5. O‘qituvchi rolining o‘zgarishi

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, transformativ yondashuv o‘qituvchini passiv bilim yetkazuvchidan faol yo‘naltiruvchi, maslahatchi va hamkor roliga o‘tkazadi. Bu esa o‘qituvchining ham kasbiy kompetensiyasini oshiradi, dars jarayonini muammoli, ijodiy va reflektiv tusga keltiradi [1; 9–10-b].

Xulosa.

Transformativ ta’lim texnologiyalari kompetentlik yondashuvining nazariy va amaliy asoslari bilan to‘liq uyg‘unlashadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonidagi passiv qabul qiluvchilikdan chiqib, mustaqil, tanqidiy fikrlaydigan, ijodiy yondashadigan va real hayotdagi murakkab vaziyatlarga tayyor bo‘lgan shaxslar sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Transformativ ta’lim jarayoni o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini chuqurlashtiradi, ularni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga yo‘naltiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida transformativ yondashuvni samarali tatbiq etish uchun bir nechta muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Jumladan, o‘qituvchilarni tayyorlash va

ularni qayta tayyorlash dasturlariga innovatsion pedagogik metod va texnologiyalarni kiritish, transformativ ta’lim konsepsiyasining nazariy asoslarini chuqur o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yangi yondashuvlarning amaliy jihatlari, xususan, interaktiv darslar, loyihaviy ishlar, muammoli vaziyatlar va reflektiv mashg‘ulotlarni o‘quv jarayoniga kiritish, o‘qituvchilar tomonidan sinovdan o‘tkazilishi va samaradorligi baholanib borilishi lozim. Shuningdek, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda transformativ yondashuvning kompetentlik yondashuvi bilan uyg‘unligini hisobga olgan holda, ta’limning mazmuni va shaklini doimiy ravishda yangilab borish muhimdir. Bu esa nafaqat o‘quvchilarning, balki o‘qituvchilarning ham kasbiy o‘sishiga va ta’lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Natijada, transformativ ta’lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvini birlashtirgan holda zamonaviy ta’limni tashkil etish nafaqat ta’lim jarayonini samarali qilish, balki o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, mazkur yondashuvlarni ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida, xususan, o‘qituvchilarni tayyorlash va rivojlantirish jarayonlarida keng joriy etish zarur.

Oliy ta’limda transformativ ta’lim texnologiyalarini joriy etish nafaqat talabani mustaqil shaxs sifatida shakllantiradi, balki universitetlar uchun raqobatbardosh o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga ham xizmat qiladi. Mazkur yondashuv asosida darslar tashkil etilishi, o‘qituvchilar malakasini oshirish, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, transformativ ta’lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o‘zaro metodologik va amaliy jihatdan uyg‘unlashgan bo‘lib, zamonaviy oliy ta’limda talab qilinadigan shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Har ikki yondashuv o‘quvchini faollashtirish, reflektiv tafakkurni rivojlantirish, real hayotdagi muammolarni mustaqil hal qilishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Transformativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim faoliyati talabalarni o‘z bilim va ko‘nikmalarini ijtimoiy, madaniy, raqamli va fuqarolik kontekstida qo‘llashga o‘rgatadi. Bu esa kompetentlik yondashuvining asosiy maqsadlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Ayniqsa, talabaning mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash, tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini anglash kabi kompetensiyalarini shakllantirishda transformativ metodlar samarali ekani isbotlandi. Shuningdek, transformativ ta’lim texnologiyalarini oliy ta’limga tatbiq etish o‘qituvchidan yangicha metodik yondashuv, pedagogik refleksiya va motivatsion muhit yaratishni talab qiladi. Bu pedagogning kasbiy kompetensiyasini ham transformatsiyalaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Freire, P. (1970). *Pedagogy of the Oppressed*. New York: Continuum.
2. Inglhart, R. (1997). Постмодерн: меняющиеся ценности и изменяющиеся общества // *Полис*, №4, С. 6–32.
3. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.
4. Mezirow, J. (1997). *Transformative Learning: Theory to Practice*. *New Directions for Adult and Continuing Education*, 74, 5–12.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori. (2018). *“Ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*.
6. Turaev, R., Karimova, D. (2022). Kompetentlik yondashuvi asosida ta’limni modernizatsiyalash. *Ta’lim innovatsiyalari*, 3(2), 45–50.

7. Yusupov, M. (2021). *Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik yondashuvlar*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti. – 120 b.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

MECHANISMS FOR IMPLEMENTING A STUDENT-CENTERED APPROACH IN HIGHER EDUCATION

Muxammadjonov Muslimbek Muxsinjon ogli
Lecturer at the Department of Education
e-mail: muslimbekmuxsinvich@gmail.com

Abstract. This article analyzes the mechanisms for implementing a student-centered approach in higher education. As part of the study, the results of the questionnaire were analyzed, and the main indicators between the control and experimental groups were identified. In particular, in the Experimental Group, the educational process was organized based on the following principles: the curricula were redeveloped on a modular basis and enriched with practical tasks, lessons were organized based on the case method, problem situations, role-playing games and a project approach, and formative assessment, self-assessment and peer assessment criteria were included as assessment tools.

Keywords: centered approach, case method, problem situations, role-playing games.

OLIY TA’LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI

Muxammadjonov Muslimbek Muxsinjon o‘g‘li
Ta’lim kafedrasi o‘qtuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limda talaba markazli yondashuvni joriy etish mehanizimlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida so‘rovnoma natijalari tahlil qilinib, asosiy nazorat va tajriba guruhlari orasidagi ko‘rsatgichlar aniqlangan. Jumladan, Tajriba guruhida o‘quv jarayoni quyidagi prinsiplarga asoslangan holda tashkil etilgan: o‘quv dasturlari modul asosida qayta ishlab chiqilgan va amaliy topshiriqlar bilan boyitilgan, keys metodi, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar va loyihaviy yondashuv asosida darslar tashkil etilgan, baholash vositalari sifatida formatif baholash, o‘z-o‘zini va tengdosh baholash mezonlari kiritilgan.

Kalit so‘zlar: markazli yondashuv, keys metodi, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N44

KIRISH

Oliy ta’lim tizimi barcha bo’g’imlarga xodimlarni yetkazib bergani uchun mamlakat rivojlanishida eng muhim omil hisoblanadi. Ta’lim tizimini doimiy rivojlantirib borish xalqaro raqobat bardoshlikning asosiy talablaridan hisoblanadi. Uning ishlash mexanizmlarini doimiy tadqiq etib borish, mexanizmlarni farqlash ularning ta’sir doirasini o‘lchash juda ham muhim hisoblanadi. O‘zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik sharoitlarda ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini, balki butun jamiyatning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

“Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri – **yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va**

umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz”[1] deb ta’kidladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev.

Va shu o‘rinda ijtimoiy omillar, iqtisodiy resurslar, madaniy qadriyatlar va texnologik innovatsiyalarning ta’lim tizimidagi o‘zaro ta’siri uning samaradorligini belgilovchi muhim omillarni tashkil etadi. Misol uchun, ijtimoiy sharoitlar va oila holati o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantiradi, iqtisodiy resurslar ta’lim tizimining infratuzilmasi va o‘qituvchilarning malakali tayyorgarligiga ta’sir qiladi, madaniy qadriyatlar ta’lim mazmunini va metodologiyasini shakllantiradi, texnologik yutuqlar esa ta’lim jarayonining interaktiv va global imkoniyatlarini yaratadi.

Ta’lim tizimida talaba markazli yondashuv mexanizmi ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda tadqiq qilingan va o‘z natijasini berib kelmoqda. Ushbu mexanzimni chuqurroq o‘rganish va o‘z milliy qadriyatlarimizni hisobga olgan holga transformatsiya qilish oliy ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim qadamlardan hisoblanadi. Shu sabablar bilan bu maqolada talaba markazli ta’lim mexanizmlarini amaliyot bilan bog‘lash zamirida takliflar beramiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda amalga oshirilgan. Ushbu adabiyotlar tahlilida, ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillarni yoritishga qaratilgan muhim asarlar va ilmiy maqolalar keltiriladi. Tahlilning maqsadi – mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish va ta’lim tizimini yaxshilashga qaratilgan usullarni aniqlashdir.

N.K.Yo‘ldoshev, G.E.Zaxidovning “Menejment” darsligining kirish qismidayoq mualliflar ta’lim va boshqaruvning zamonaviy talablarga mos bo‘lishi, mehnat jamoalari, tashkilotlar, va ayniqsa boshqaruv tizimining samaradorligini ta’minlashda menejment yondashuvlarining ahamiyatini alohida urg‘u bilan ta’kidlaydi. Kitobda boshqaruv tizimini qayta shakllantirish, kasb egasi sifatidagi menejerlarni tayyorlash va boshqaruvda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish zarurati ta’lim tizimi nuqtai nazaridan asoslab berilgan.

Darslikning birinchi boblarida menejment nazariyasining rivojlanish bosqichlari, shu jumladan AQSh, Yevropa, Yaponiya va boshqa davlatlardagi boshqaruv modellarining shakllanishi yoritiladi. Ayniqsa, Amerika modeli, yapon modeli va g‘arbiy Yevropa modellari bilan bog‘liq qismlar ta’lim boshqaruvida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali yondashuvlar haqida boy ma’lumot beradi. Masalan, yapon menejmenti modelida insoniy resurslar, umrbod yollash, motivatsiya, sifat nazorati va jamoaviy qaror qabul qilish orqali sifatni oshirishga e’tibor qaratiladi. Bu yondashuvlar oliy ta’lim tizimiga ko‘chirilganda, professor-o‘qituvchilar tarkibining barqarorligi, jamoaviy muhokama madaniyati, ilmiy sifat ustidan ichki nazorat kabi mexanizmlar rivojlanadi.

Darslikda Amerikacha menejmentga oid modellar, jumladan, strategik rejalashtirish, korporativ boshqaruv, mehnat unumdorligini oshirish va xodimlar bilan bevosita muloqot mexanizmlari asosida boshqaruv samaradorligini ta’minlash masalalari keng yoritilgan. Aynan bu bo‘limlarda mualliflar boshqaruvda shaffoflik, qaror qabul qilishda ishtirokchilik, natijaga yo‘naltirilganlik prinsiplarini ilgari suradi. Ular hozirgi O‘zbekiston oliy ta’limida joriy etilayotgan kredit-modul tizimi va o‘quv rejalari erkinligini metodik jihatdan tushunishga asos beradi.

Darslikda “Insoniy resurslar menejmenti”, “Sifat menejmenti”, “Moliyaviy menejment”, “Innovatsion menejment” kabi alohida boblarda ko‘rsatilgan yondashuvlar ta’lim sifati va uning strategik boshqaruvi uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, innovatsion menejment bo‘limida yangi texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv texnikalarini zamonaviylashtirish, raqamli texnologiyalarni boshqaruvga tatbiq qilish kabi yo‘nalishlar ilgari surilgan bo‘lib, bu jihatlar oliy ta’limni raqamlashtirish va zamonaviy ta’lim platformalarini tatbiq etish bilan bevosita bog‘liqdir.

Mualliflar menejment tizimining asosiy shakllari, boshqaruv usullari va ularni takomillashtirish yo‘llarini bayon etar ekanlar, zamonaviy rahbar shaxsiga bo‘lgan talablar, o‘zini o‘zi boshqarish, liderlik, vaziyatli yondashuv, tizimli fikrlash va o‘zgarishlarni boshqarish bo‘yicha yondashuvlarga alohida e’tibor qaratgan. Bu, o‘z navbatida, OTMlar rahbariyatining sifat menejmentiga nisbatan yondashuvini ilmiy asoslash uchun puxta nazariy zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, “Menejment” darsligi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha zamonaviy boshqaruv tamoyillari, samarali rahbarlik uslublari, insoniy resurslarni boshqarish, motivatsiya va islohotlarni tizimli yondashuvlar asosida olib borish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasini beradi. Dissertatsiyaviy tadqiqotda bu manba strategik menejment, ichki sifat monitoringi, innovatsion va insoniy omillarga asoslangan ta’lim yondashuvlarini asoslash uchun muhim ilmiy asoslarga ega[2].

Ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlili ta’lim sohasining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik jihatlaridan qamrab olishini ko‘rsatadi. Har bir omil alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri ta’lim tizimining samaradorligini shakllantiradi. Kelajakda ta’lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish uchun bu omillarni sinxron ravishda boshqarish zarur. Adabiyotlar tahlili, ayniqsa, ta’lim siyosati, moliyaviy yordam, madaniy qadriyatlar va texnologiyalarni optimallashtirish yo‘nalishlarini belgilashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishda tizimli tahlil metodologiyasi qo‘llanilgan. Tizimli tahlil metodologiyasi — bu muammoning turli tomonlarini o‘rganish va ularni bir-biri bilan bog‘liq holda tahlil qilishga asoslangan ilmiy usuldir. Ta’lim tizimi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, undagi har bir omil o‘zaro aloqada bo‘lib, tizimning samarali ishlashiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu maqolada quyidagi metodlar qo‘llanilgan:

Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, taqqoslash, statistik va kontent tahlil metodlari, shuningdek, empirik kuzatuv va so‘rovnomalar asosida axborotlar to‘plash usullari qo‘llaniladi

NATIJALAR

Mazkur maqolada ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan mexanizm —talaba markazli yondashuvni joriy etish — eksperiment shaklida sinovdan o‘tkazildi. Eksperiment 2024–2025 o‘quv yili davomida Qo‘qon universiteti oliy ta’lim muassasasining bakalavriat bosqichi 1-kurs talabalari ishtirokida 3 oy mobaynida amalga oshirildi. Tadqiqotga 40 tadan iborat bo‘lgan ikkita guruh olindi: nazorat guruhi (an’anaviy yondashuv bilan ta’lim olganlar) va tajriba guruhi (taklif etilgan mexanizmlar asosida ta’lim olganlar).

Tajriba guruhida o‘quv jarayoni quyidagi prinsiplarga asoslangan holda tashkil etildi:

– o‘quv dasturlari modul asosida qayta ishlab chiqildi va amaliy topshiriqlar bilan boyitildi;

– keys metodi, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar va loyihaviy yondashuv asosida darslar tashkil etildi;

– baholash vositalari sifatida formativ baholash, o‘z-o‘zini va tengdosh baholash mezonlari kiritildi;

– darslarda o‘qituvchi faqat yo‘naltiruvchi rolida ishtirok etdi, asosiy faoliyat talabalarga yuklatildi;

– har bir talaba o‘z mustaqil o‘quv yo‘lini shakllantirdi.

Eksperimentdan oldin va keyin ishtirokchilarning bilim darajasi, kasbiy kompetensiyalari, motivatsiyasi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va o‘rganishga bo‘lgan qoniqish darajasi aniqlash uchun testlar, so‘rovnomalar, kuzatuvlar va intervyular o‘tkazildi. Natijalarning tahlili quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Tajriba guruhi o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 18 foizga yuqori natijaga erishdi.
2. Kasbiy kompetensiyalar (analitik fikrlash, jamoaviy ishlash, muammolarni hal qilish) bo‘yicha tajriba guruhidagi talabalar o‘rtacha 20 foiz yuqori baholandi.
3. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari, vaqtni boshqarish va mas’uliyat sezish darajasi sezilarli darajada kuchaydi.
4. So‘rovnomalar natijasida talabalarning 85 foizi taqdim etilgan yangi yondashuvlardan mamnunligini bildirib, o‘zlashtirish jarayonining mazmunliroq va amaliyotga yaqinroq bo‘lganini ta’kidladi.
5. O‘qituvchilar ham dars jarayonining samaradorligi oshganini, talabalarda tashabbus va ijodkorlik kuchayganini qayd etdilar.

Ushbu eksperiment shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha taklif etilgan mexanizmlar amalda sinab ko‘rilganda, ular nafaqat nazariy jihatdan, balki real ta’lim samaradorligi nuqtai nazaridan ham ijobiy natija beradi. Ayniqsa, talaba markazli yondashuv asosida tashkil etilgan darslar bilim olishdan ko‘ra faol ishtirok, tanqidiy tahlil va amaliy natijaga yo‘naltirilganligi sababli talabalar uchun samaraliroq muhit yaratdi. Amaliyotga yaqinlashtirilgan topshiriqlar esa talabaning soha bo‘yicha real muammolarni anglash va ularni tahlil qilish ko‘nikmasini kuchaytirdi.

Eksperimental natijalar, shuningdek, o‘qituvchilarning professional yondashuvini ham yangilanishga undadi. Dars mazmuni va shaklining o‘zgarishi pedagogdan faqat fanni o‘qitishni emas, balki ta’lim menejmentini, zamonaviy texnologiyalarni va psixologik yondashuvlarni ham o‘zlashtirishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.



4-diagramma

Yuqoridagi diagramma tajriba guruhida o‘tkazilgan eksperiment natijalarini aks ettiradi. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba o‘tkazilgandan so‘ng barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilgan:

- Bilim darajasi 65% dan 85% ga,
- Kasbiy kompetensiya 60% dan 80% ga,
- Mustaqil fikrlash 58% dan 78% ga,
- O‘zlashtirish sur’ati 62% dan 82% ga,
- O‘qitishdan qoniqish 55% dan 79% ga oshgan.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan yangi ta’lim yondashuvlari – talaba markazli metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, faol o‘rgatish va samarali baholash tizimlari – o‘quvchilarning bilim sifati, motivatsiyasi va kasbiy tayyorgarligini ancha oshirgan. Demak, tajriba yondashuvi ta’lim sifatini oshirishda real natijadorlikka erishishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, eksperiment davomida sinovdan o‘tkazilgan mexanizmlar — o‘quv mazmunining amaliyotga yaqinlashtirilishi va talaba markazli yondashuvning joriy etilishi — oliy ta’limda ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bu mexanizmlarni tizimli ravishda butun OTMlar miqyosida joriy etish, ularni normativ hujjatlar bilan mustahkamlash va raqamli monitoring tizimi orqali kuzatib borish ta’lim islohotlarining keyingi bosqichi bo‘lishi zarur.



5-diagramma

Yuqoridagi diagrammada nazorat guruhida tajriba o‘tkazilishidan oldin va keyin olingan natijalar taqqoslanmoqda. Diagrammadan ko‘rinib turibdi, natijalar o‘rtasida faqat minimal o‘sishlar kuzatilgan:

- Bilim darajasi 65% dan 68% ga,
- Kasbiy kompetensiya 60% dan 62% ga,
- Mustaqil fikrlash 58% dan 59% ga,
- O‘zlashtirish sur’ati 62% dan 64% ga,
- O‘qitishdan qoniqish 55% dan 57% ga ko‘tarilgan.

Bu ko‘rsatkichlar nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish metodlari qo‘llangani tufayli natijalar deyarli o‘zgarmaganini anglatadi. O‘sish juda sust, ya’ni 1–3% oralig‘ida bo‘lgan. Bu esa tajriba guruhi natijalari bilan taqqoslaganda taklif etilgan yangi mexanizmlarning samaradorligi va ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Diagramma maqoladagi nazariy takliflar amalda ham ishonchli asosga ega ekanini dalillaydi.



6-diagramma

Yuqoridagi diagramma tajriba guruhi va nazorat guruhining tajriba oldi va keyingi natijalarini birgalikda taqqoslab koʻrsatadi. Diagrammadagi ustunlar orqali har bir koʻrsatkich boʻyicha ikki guruh oʻrtasidagi rivojlanish farqi aniq koʻzga tashlanadi:

1. Bilim darajasi:

- Tajriba guruhi: 65% → **85%** (20% oʻsish)
- Nazorat guruhi: 65% → **68%** (3% oʻsish)

Yaqqol farq mavjud; metodik yangilanishlar samarali boʻlgan.

2. Kasbiy kompetensiya:

- Tajriba guruhi: 60% → **80%**
- Nazorat guruhi: 60% → **62%**

Amaliy va faol metodlar orqali tajriba guruhida sezilarli ijobiy natija qayd etilgan.

3. Mustaqil fikrlash:

- Tajriba guruhi: 58% → **78%**
- Nazorat guruhi: 58% → **59%**

Mustaqil fikrlash boʻyicha faqat tajriba guruhi talabalari rivojlangan, bu interaktiv usullar ta’sirini isbotlaydi.

4. Oʻzlashtirish sur’ati:

- Tajriba guruhi: 62% → **82%**
- Nazorat guruhi: 62% → **64%**

Tajriba guruhida oʻzlashtirish tezlashgan, nazorat guruhida esa deyarli oʻzgarmagan.

5. Oʻqitishdan qoniqish:

- Tajriba guruhi: 55% → **79%**
- Nazorat guruhi: 55% → **57%**

Qoniqish darajasidagi farq tajriba guruhi foydasiga juda sezilarli.

Ushbu diagramma tajriba guruhi uchun ishlab chiqilgan ta’lim mexanizmlari — jumladan, talaba markazli yondashuv, interaktiv metodlar, formativ baholash va amaliy topshiriqlarga asoslangan oʻqitish samaradorligini isbotlab bermoqda. Nazorat guruhida esa klassik yondashuvlar saqlanib qolganligi sababli rivojlanish deyarli kuzatilmagan. Natijada, tajriba asosida ishlab chiqilgan metodik yangiliklar ilmiy asoslangan, amaliy natijador va ta’lim sifatini oshiruvchi mexanizmlar sifatida yuqori baholanishi mumkin.

Eksperiment orqali olingan ijobiy natijalar shuni ko’rsatadiki, faqat shaklan emas, balki mazmunan yangilangan ta’lim tizimi orqali raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

4-jadval

Eksperiment natijalari taqqoslanma jadvali

Koʻrsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Orasidagi farqi
Oʻzlashtirish darajasi (%)	68.0	86.0	17.0
Kasbiy kompetensiyalar bahosi (10 ballik)	6.5	8.3	1.8
Mustaqil oʻrganish koʻnikmalari (10 ballik)	6.2	8.5	2.3
Ta’lim jarayonidan qoniqish (%)	59.0	85.0	26
Oʻqituvchilar bahosi (subyektiv, 10 ballik)	6.8	8.9	2.1

MUHOKAMA

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilib, ularning nazariy va amaliy asoslari tizimli yoritildi. Avvalo, o‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash mexanizmlarining dolzarbligi asoslab berildi. Bu yo‘nalishda dual ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish, sanoat hamkorlik markazlari, ish beruvchilar bilan bevosita aloqalar, mentorlik tizimi va startapga yo‘naltirilgan yondashuvlar taklif qilinib, ularning ta’lim jarayonida qo‘llanishi orqali o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligi, kompetensiyasi va mehnat bozoriga tayyorligi sezilarli oshishi mumkinligi ko‘rsatildi.

Shuningdek, talaba markazli yondashuvni joriy etish orqali o‘qitish emas, balki o‘rganish jarayoniga e’tibor qaratish, o‘quv rejalari moslashuvchanligini ta’minlash, mustaqil ta’lim va reflektiv baholash vositalarini kengaytirish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga doir aniq takliflar ilgari surildi. Bu yondashuv doirasida talabaning faol subyekt sifatida shakllanishi, motivatsiyasi va javobgarligi ortishi asoslangan holda yoritildi.

XULOSA

Ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish muammosi zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar, xalqaro tajriba va milliy ta’lim siyosati asosida har tomonlama o‘rganildi. Tadqiqot davomida ta’lim sifati tushunchasi, uning indikatorlari, baholash mezonlari, unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, mavjud muammolar, shuningdek, takomillashuv yo‘nalishlari nazariy va amaliy asosda tahlil qilindi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ilgari surilgan taklif va mexanizmlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli, kompetensiyaga asoslangan, talaba markazli va amaliyot bilan uzviy bog‘langan yondashuvlardan iborat bo‘lib, ular O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda nazariy va amaliy jihatdan mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Takliflar asosida ishlab chiqilgan metodik va tashkiliy choralar ta’lim jarayonining real sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularni OTMlar miqyosida tatbiq qilish milliy ta’lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

TAKLIFLARI

Ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydigan omillarni hisobga olgan holda, quyidagi takliflarni kiritish mumkin.

1.Talaba markazli yondashuv asosida o‘qitish strategiyalarini joriy etish. O‘qituvchilarni talaba markazli metodikalarga o‘rgatish bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslari tizimli tashkil etilishi kerak. O‘qitish jarayonida tanlovli fanlar ulushi kengaytirilib, talabaning individual o‘quv trayektoriyasi shakllantirilishi lozim. O‘quv jarayoniga formativ baholash, refleksiya, portfoliolar va o‘z-o‘zini baholash elementlari joriy etilishi tavsiya etiladi.

1. Oila va Ijtimoiy Sharoitlarning ta’lim oluvchilarga salbiy ta’sirini kamaytirish hamda ijobiy ta’sirini oshirish maqsadida. Ota-onalar bilan uchrashuvlar va treninglar o‘tkazish, ularga ta’limning bolaga va jamiyatga ta’sirini, bilimsizlikning oqibatlarini chuqur tushuntirish foydali bo‘ladi.

2. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish. Har bir OTMda kamida bitta ishlab chiqarish korxonasi yoki xizmat ko‘rsatish sohasi bilan uzluksiz hamkorlikda faoliyat yuritadigan “amaliyot markazi” tashkil etilishi zarur. Dual ta’lim modeli asosida haftaning ma’lum kunlarini talabalarning ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ajratish, bu vaqtni o‘quv yuklamasidan ajratilgan mustaqil ta’lim soatlari bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Ish

beruvchilar bilan hamkorlikda o‘quv rejalari va fan dasturlarini tahlil qilish va yangilab borish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi kerak.

3. Raqamli texnologiyalarni baholash va boshqaruvga integratsiyalash. Elektron ta’lim portallari, raqamli darsliklar, video darslar, sun’iy intellekt asosida baholash platformalarining soni va sifati oshirilishi zarur. Har bir fakultetda “Raqamli ta’lim texnologiyalari koordinatori” lavozimi joriy etilib, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muntazam yo‘lga qo‘yilishi lozim. Baholash natijalarining tahliliy algoritmlar asosida vizualizatsiyasi, avtomatik tahlili va tavsiyalar ishlab beruvchi tizimlar yaratilishi tavsiya etiladi.

4. O‘qituvchilar va rahbar xodimlar uchun sifat menejmenti bo‘yicha doimiy o‘quvlar. Har bir OTMda “Ichki sifat nazorati bo‘limi” faoliyati kuchaytirilib, u xalqaro sifat menejmenti standartlariga asoslangan holda ishlashi lozim. Sifatni boshqarish, indikatorlar asosida strategik rejalashtirish va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchi va dekanat xodimlari uchun amaliy seminar-treninglar yo‘lga qo‘yilishi kerak.

5. O‘qituvchilarning faoliyati samaradorligini baholash tizimini yangilash. Faoliyat baholovchi tizimlarda dars sifati, ilmiy faoliyat, pedagogik yondashuv, talaba fikri, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari, raqamli kompetensiyalar va innovatsion tashabbus kabi mezonlar asosida kompleks baholash tizimi ishlab chiqilishi kerak. Baholash natijalari asosida moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish mexanizmlari kuchaytirilishi lozim.

Umumiy olganda yuqoridagi takliflar ta’lim jarayonini ma’lum bir darajada samaradorligini oshiradi hamda ta’lim oluvchilarga ta’lim olish jarayonini qulaylashtiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh.M.Mirziyoev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.-Toshkent: O‘zbekiton, 2016.- 56b.
2. N.K Yo‘ldoshev, G.E.Zaxidov. “Menejment” darslik -Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashiryoti, 2018.-392 b.
3. G. Bozorova, G Ulug‘berdiyeva, Artiqova A. ““Ommaviy madaniyat” ning salbiy ta’siri va uning oldini olish yo‘llari” maqola.
4. X.T.Tashmetov “global yutuqlardan foydalanishda milliy g‘oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari” maqola.
5. U.Z.Shamanova “Ta’lim qonunchiligidagi islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati” maqola.
6. S.F. Salaydinova va A.S. Isxakova “Ta’lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari” maqola.
7. X.F. Sadikova va A.S. Isakova “Oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilariini moddiy rag‘batlantirishning samaradorligini oshirish masalalari” maqola.
8. N.R. Aliev A.T. Yuldashev “Ta’lim xizmatlari marketingining o‘ziga xos xususiyatlar” maqola.
9. X.T.Tashmetov “Global yutuqlardan foydalanishda milliy g‘oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari” maqola.
10. X.X.Muratov “Elektron ta’lim resurslari va multimediali elektron o‘qitish vositalari orqali ta’lim muhitining rivojlanishi” maqola.
11. M.Sh.Yusupova “Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni o‘qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari” maqola.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN

Khabibullaeva Dilshoda
Independent researcher

Abstract. This study explores the pragmatic and instructional functions of code-switching in Uzbek-English classrooms. The research uses classroom observation and transcription analysis and identifies key functions. Findings reveal that code-switching strategically supports comprehension, classroom interaction, and language development. The result of this research is expected to be useful for teachers in the field of language to understand the functions and the effectiveness of code switching in the classroom. The study concludes that purposeful code-switching helps improve English language teaching in Uzbek classrooms.

Keywords: code-switching, communicative competence, pragmatic function, instructional function, classroom communication, lesson content.

O‘ZBEKISTONDA INGLIZ TILINI O‘QITISH DARSLARIDA KOD ALMASHTIRISHNING FUNKSIYALARI

Xabibullayeva Dilshoda
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot o‘zbek-ingliz sinflarida kod almashtirishning pragmatik va o‘qitish funksiyalarini o‘rganadi. Tadqiqot sinfda kuzatish va transkripsiya tahlilidan foydalanadi va asosiy funksiyalarni aniqlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kod almashtirish strategik jihatdan tushunish, sinfdagi o‘zaro ta’sir va tilni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu tadqiqot natijasi til sohasidagi o‘qituvchilar uchun dars jarayonida kod almashtirishning funksiyalari va samaradorligini tushunish uchun foydali bo‘lishi kutilgan. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, maqsadli kod almashtirish o‘zbek sinflarida ingliz tilini o‘qitishni yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: kod almashtirish, kommunikativ kompetensiya, pragmatik funksiya, o‘qitish funksiyasi, sinfdagi muloqot, dars mazmuni.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N45

INTRODUCTION

In recent years, the demand for effective English language instruction has significantly increased across Uzbekistan due to educational reforms, internationalization, and the growing importance of English in academic and professional contexts. As English becomes a key component of national curricula, educators face growing pressure to deliver instruction that is both comprehensible and engaging to learners whose first language is Uzbek. One strategy frequently employed in local classrooms is code-switching—the intentional alternation between English and Uzbek during instruction.

The topicality of this issue stems from the current shift in educational practices in multilingual societies like Uzbekistan, where teachers must balance the promotion of English proficiency with the need to ensure classroom communication and understanding. In such

environments, code-switching serves not only as a communicative bridge but also as a pedagogical tool that reflects broader sociolinguistic dynamics. Understanding how code-switching functions within Uzbek-English classrooms is particularly relevant as policymakers and educators seek to enhance language education quality while respecting learners' linguistic backgrounds.

Bilingualism is the ability to use two languages or to have "native like control of two languages". [1, 56] Code switching – the alternating use of two (or more) languages – is a natural occurrence in the speech of bilingual individuals. [9, 68]

In ELT classrooms, code switching comes into use either in the teachers' or the students' discourse. [10, 1] This observation aligns with the dynamics of multilingual classrooms, where code-switching serves as a practical tool for facilitating interaction and comprehension. Its presence often reflects a strategic approach to managing bilingual resources effectively.

To promote communicative competence, learners must get practice in communicative exchanges in the classroom. [5, 217] This underscores the significance of interaction in language acquisition, and highlights how incorporating both L1 and L2 during exchanges can enhance communicative competence when appropriately managed.

Sert (2005) identified several pedagogical functions of code-switching in English language classrooms, such as topic switching, affective functions, and translation for clarification. Similarly, Ferguson (2003) discussed the strategic use of code-switching to support comprehension and classroom management. While code-switching is widely used in Uzbek classrooms, there are still relatively few studies that look closely at how and why teachers switch between Uzbek and English during lessons. Some researchers, such as Murodova (2024), have examined bilingualism and classroom language use in general. Others, like Saydazimova and Rustamov (2025), explored how code-switching supports learning in English lessons. These studies show that switching between languages can help learners stay engaged and understand difficult concepts. However, many of these works rely on teacher interviews or general observations. In contrast, this article looks directly at real classroom language and identifies practical functions of code-switching based on classroom transcriptions. This kind of practical, classroom-focused insight is still quite limited in Uzbekistan, and the goal here is to help teachers use code-switching more effectively.

MATERIALS

The primary material for this study consisted of a recorded English lesson conducted in an Uzbek secondary school. The classroom session lasted approximately 45 minutes and involved a group of 11th-grade students with intermediate-level proficiency in English. The teacher, a qualified EFL instructor with over 10 years of experience, conducted the lesson using a communicative approach, with occasional use of Uzbek for instructional and pragmatic purposes.

The session was audio-recorded with the consent of the teacher and students, and later transcribed for analysis. The transcription included all teacher utterances where code-switching between English and Uzbek occurred. A simple coding scheme was developed to categorize the pragmatic and instructional functions of code-switching found in the transcript.

METHODS

This study employed a qualitative case study approach to explore the pragmatic functions and instructional purposes of code-switching in an English as a Foreign Language

(EFL) classroom in Uzbekistan. A single classroom session was selected to allow for an in-depth analysis of language use in a real teaching environment. The class was observed and audio-recorded, and the recording was transcribed for detailed examination.

The data were analyzed using qualitative content analysis, focusing on instances of code-switching in the teacher's speech. The identified functions were informed by previous research on code-switching (e.g., Sert, 2005; Ferguson, 2003) and adapted to the local classroom context.

To ensure reliability, the transcript was reviewed multiple times and instances of code-switching were coded independently and then cross-checked for consistency. Selected examples were then presented and discussed in the results section to illustrate how code-switching contributed to effective classroom communication and instruction.

RESULTS AND DISCUSSION

The analysis of the classroom transcript revealed multiple instances of code-switching employed by the teacher to fulfill various communicative and pedagogical roles. These functions helped maintain effective communication and interpersonal interaction, and directly supported teaching and learning processes.

The findings align with earlier studies (e.g., Sert, 2005; Ferguson, 2003), which argue that code-switching, when used strategically, can greatly enhance classroom interaction and learning outcomes.

Below is a detailed account of each function observed:

E1: T: *We use the Present Perfect to talk about actions that started in the past but have a result now.* ***Demak,*** *Present Perfect –* ***bu o'tmishda boshlangan, lekin natijasi hozirgacha yetib kelgan ishlar uchun ishlatiladi.*** *For example, "She has lost her keys."* ***Bu degani — u kalitlarini yo'qotgan****. She lost them before, but now she can't get into her house —* ***shuning uchun hozirgi holatga ta'siri bor.***

[We use the Present Perfect to talk about actions that started in the past but have a result now. That means the Present Perfect is used for actions that began in the past but still have an effect on the present. For example, "She has lost her keys." This means she lost her keys earlier, but now she can't get into her house — so it has an impact on the current situation.]

In this example, the teacher switches between English and Uzbek to enhance *students' understanding* of the Present Perfect tense. Code-switching is used to translate key statements to align the meanings in two different languages (i.e. Uzbek and English), so that the students in the interaction could gain a better understanding of the words or phrases spoken by the teacher, and offer further explanation to explain the earlier information given in English, thus the explanation is preceded in Uzbek. By doing so, the teacher ensures that learners can grasp not only the literal meaning of the sentences but also their grammatical function and contextual usage. This strategic blending of languages serves to bridge any potential comprehension gaps and make the concept more accessible to all students.

E2: T: *For example, "I have eaten" —* ***ya'ni, men ovqat yeb bo'ldim****, and I'm still full now. Why don't we just say "I ate"?* ***Chunki*** *"I have eaten"* ***holatga hozirgi ta'sirni bildiradi,*** *unlike "I ate."* ***Farqini tushundingizmi,*** *or shall I explain again?*

[For example, "I have eaten" — this means I've finished eating, and I'm still full now. Why don't we just say "I ate"? Because "I have eaten" shows the present result of the past action, unlike "I ate." Did you get the difference, or should I explain it again?]

When the teacher was using English as the base language and a student posed a question in Uzbek instead of English, the teacher responded by switching codes in her answer and also posed a follow-up question. This example shows that although the teacher began in English, she switched to Uzbek while a*sking a question*, demonstrating that code-switching served the purpose of question formulation.

The function of *checking understanding*, whether from English to Uzbek or vice versa, was used to review content already taught. The teacher employed it to evaluate students' grasp of the material discussed in class, using it as a tool to measure how well the students understood the lesson content.

E3: T: *Look at this sentence: "She has broken her leg." Now listen — has broken.* ***Bu yerda*** *"has broken"* ***juda muhim, aynan hozirgi holatini tushunish uchun****. What can you tell about her situation now?* ***Nima deb o'ylaysiz, hozir u yura oladimi?*** *And here's a new word: fracture — it's similar to break, but a bit more medical. "Fracture"* ***bu "sindirish" degani, lekin odatda kasalxonada ishlatiladi.***

[Look at this sentence: "She has broken her leg." Now listen — has broken. This part is very important to understand her current situation. What can you say about her condition now? Do you think she can walk? And here's a new word: fracture — it's similar to break, but a bit more medical. Fracture means "to break," but it's usually used in hospital or medical contexts.]

In this instance, the teacher focused on *emphasizing* certain aspects of the English language. Important messages can be reinforced or highlighted when they are transmitted in the L1 [6, 68]. To ensure the learners fully grasped specific linguistic features tied to the lesson content, the teacher resorted to code-switching. This likely occurred because the concepts were theoretical in nature, prompting the teacher to shift into Uzbek for better clarity and shared understanding.

Moreover, the teacher occasionally used code-switching to *make inferences*. While the explanation of the lesson was mostly in English, she switched to Uzbek during summary or concluding remarks. In this case, the purpose of code-switching was to help students understand inferences or key takeaways.

Another observed function was *vocabulary development*. The teacher used code-switching during vocabulary discussions. When English words were introduced, they were often translated or interpreted in Uzbek to help students build their vocabulary and enhance understanding.

E4 T: *Now, let's look at your answers for the worksheet. In number three, you wrote "He has finished his homework," right?* ***Yaxshi, nima uchun*** *Present Perfect* ***ishlatdingiz?*** *Group B, do you agree with this answer? Why or why not?* ***Siz nima deb o'ylaysiz, bu jumla to'g'rimi? Nima uchun?***

[Now, let's look at your answers for the worksheet. In number three, you wrote, "He has finished his homework," right? Good. Why did you use the Present Perfect? Group B, do you agree with this answer? Why or why not? What do you think — is this sentence correct? Why?]

In E4, the teacher code-switches to guide and maintain a *classroom discussion* about student responses. The Uzbek phrases are used to:

- Encourage students to justify their grammatical choices,
- Invite peer evaluation and collaborative reasoning,

- Create a supportive space for all students — especially lower-proficiency learners — to participate.

This type of code-switching facilitates deeper reflection and classroom dialogue, making the grammatical focus more interactive and student-centered.

E5: T: *Good job, Aziza. You said "I have visited Tashkent twice." Everyone, let's repeat that sentence together: I have visited Tashkent twice.* ***Barchangiz birga takrorlang!*** *And group three — please stop whispering, I need everyone focused now.* ***Uchinchi guruh, iltimos, jim bo'ling, hammangiz diqqat qiling.***

[See? Aziza used "have" and "visited" correctly. Everyone repeat together! Group three, please be quiet and pay attention.]

In E5, the teacher pragmatically uses code-switching to *manage the class*.

A quick switch to Uzbek is used to redirect off-task students (Group 3), maintaining a focused learning environment without disrupting the flow of the lesson. This excerpt demonstrates how code-switching not only supports language learning but also reinforces classroom discipline and instructional rhythm.

The next one is *clarification*, which was used by both the teacher and students to clarify or confirm explanations, information, questions, or statements. This helps prevent misunderstandings regarding the intended meaning in English. Code-switching becomes a tool for the teacher to make her message clearer, prompting her to switch into Uzbek to ensure her previous utterances in English are fully understood.

Also, *giving feedback* was observed when using code-switching. This occurred when the teacher asked students to share their thoughts about the lesson. In this context, code-switching helped assess how well students had understood the material, identify areas they had mastered, and highlight aspects needing improvement. It made the feedback exchange more effective and meaningful for both the teacher and the students.

Another function was related to *recall or memory*. The teacher often reminded students about previously covered material, assigned tasks, classroom rules, or responsibilities they might have overlooked or forgotten. During these reminders, code-switching frequently took place.

The final function identified was for *entertainment and general interaction*. Instances from the data showed that the teacher and students sometimes used code-switching to lighten the mood, reduce classroom tension, or simply connect with one another in a more relaxed way. Humorous exchanges or casual remarks were often made in Uzbek, as it felt more natural and comfortable for such moments.

Interestingly, certain functions such as *reiteration* and emphasizing a language element show a blend of pragmatic and instructional value. When the teacher repeated key concepts in both English and Uzbek, it not only reinforced understanding but also confirmed to the students that the information was important. Moreover, the use of code-switching during *vocabulary development* highlights how translation can be used judiciously—not as a crutch, but as a gateway to deeper semantic understanding. This mirrors the findings of Cook (2001), who supports the use of the L1 as a valuable classroom resource rather than a hindrance.

Additionally, entertainment and humor in the teacher's L1 served to create a relaxed atmosphere and strengthen teacher-student rapport. Although this may appear minor, its impact on classroom dynamics should not be underestimated, especially in cultures where

formal teacher authority is strong. Code-switching in these moments humanizes the teacher and can increase student motivation and willingness to engage.

However, it is important to note that while code-switching offers significant benefits, its effectiveness largely depends on how and when it is used. Over-reliance on Uzbek could potentially reduce students' exposure to English and delay the development of L2 fluency. As such, teacher awareness and reflection are essential. Educators must balance the supportive role of code-switching with opportunities for English immersion, gradually reducing reliance on L1 as learners gain confidence and proficiency.

CONCLUSION

This study has examined the pragmatic and instructional functions of code-switching in an Uzbek EFL classroom, revealing its multifaceted role in facilitating both communication and learning. The analysis identified numerous functions, each serving to support student comprehension and engagement. These functions were found to help manage classroom interaction and build rapport, enhance the delivery and understanding of language content.

The findings affirm that code-switching, when applied thoughtfully and strategically, can be an effective pedagogical resource in bilingual educational settings. By drawing on students' L1 (Uzbek), teachers can scaffold difficult concepts, maintain classroom control, and foster a more inclusive and supportive environment for language learning.

However, the study also underscores the need for balance. While code-switching provides valuable support, excessive use may limit learners' exposure to English and hinder the development of L2 fluency. Therefore, it is essential that teachers remain aware of their language choices, continuously reflecting on how code-switching serves their pedagogical intentions and the learners' needs.

In conclusion, code-switching should not be viewed as a sign of instructional weakness but rather as a strategic resource that, when used purposefully, enriches the teaching and learning experience in EFL classrooms. Continued professional development and further research are recommended to help teachers refine their use of this practice and to explore its long-term effects on language acquisition in multilingual contexts such as Uzbekistan.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Bloomfield, L. (1935). *Language.* London: Allen & Unwin.
2. Cook, V. (2001). *Using the first language in the classroom*. Canadian Modern Language Review, 57(3), 402–423. https://doi.org/10.3138/cmlr.57.3.402
3. Ferguson, G. (2003). *Classroom code-switching in post-colonial contexts: Functions, attitudes and policies.* AILA Review, 16(1), 38–51. https://doi.org/10.1075/aila.16.05fer
4. Halliday, M. A. K. (1973). *Explorations in the functions of language*. Edward Arnold.
5. Hancock, M. (1997). *Behind classroom code-switching: Layering and language choice in L2 learner interaction*. TESOL Quarterly, 31(2), 217-235.
6. Macaro, E. (2001). *Analysing student teachers' code-switching in foreign language classrooms: Theories and decision making*. The Modern Language Journal, 85(4), 531–548. https://doi.org/10.1111/0026-7902.00124
7. Murodova, N. I. (2024). *Linguistic, social, and educational implications of code switching and code mixing in Uzbekistan*. International Journal of Artificial Intelligence, 4(8), –36. https://doi.org/10.5281/zenodo.---
8. Saydazimova, D., & Rustamov, F. (2025). *The role of code-switching in Uzbek-English bilingual classrooms*. ZDIF, 4 (13), 63–65. https://doi.org/10.5281/zenodo.15589856
9. Sebba, M., Mahootian, S., & Jonsson, C. (Eds.). (2012). New York: Routledge.

10. Sert, O. (2005). *The functions of code-switching in ELT classrooms*. The Internet TESL Journal, XI (8). Retrieved june 23rd, 2012, from http://iteslj.org/Articles/Sert CodeSwitching.html

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE COMPETENCIES THROUGH AN INNOVATIVE APPROACH

Berdiyorova Nilufar
Independent researcher at the International Nordic University,
Lecturer at the Department of Psychology and Preschool Education

Abstract. This article explores contemporary strategies for cultivating students' creative competencies through the implementation of innovative educational technologies. In today's academic environment, creativity is increasingly recognized not only as a tool to enhance instructional efficiency but also as a central pillar in students' personal and professional development. The author provides a critical analysis of instructional models such as integrated learning, problem-based teaching, and project-oriented methods, highlighting their role in fostering divergent thinking and creative initiative. The study aims to substantiate the pedagogical effectiveness of innovation-driven approaches in systematically enhancing creative capacity among university students.

Keywords: Creative competencies, innovative approach, educational technologies, problem-based learning, integration, modern pedagogy.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi
Xalqaro Nordik Universiteti mustaqil izlanuvchisi,
" Psixologiya va maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi
Email: n.berdiyorova@nordicuniversity.org

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali talabalar ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish, shu bilan bir qatorda ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta'limda ijodkorlik nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi vosita, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Muallif zamonaviy metodlar, xususan, integrallashgan yondashuv, muammoli ta'lim va loyihalash asosidagi o'qitish texnologiyalarini tahlil qilib, ularning talabalar fikrlash doirasini kengaytirishdagi amaliy natijalarini yoritadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori — ijodiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishda innovatsion yondashuvning samaradorligini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: jodiy kompetensiya, innovatsion yondashuv, ta'lim texnologiyalari, muammoli o'qitish, integratsiya, zamonaviy pedagogika.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N46

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimi nafaqat bilim beribgina qolmay, balki inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi kompleks tizimga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida ijodiy fikrlash salohiyati yetakchi o'ringa chiqmoqda. An'anaviy o'qitish shakllari bilan cheklanib qolish bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy muhitining tez o'zgaruvchan talablari oldida yetarli samara bermayapti. Shu bois, ta'lim mazmunini yangilash, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, xususan, innovatsion metodlar orqali ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyati tobora ortib

bormoqda. Bugungi pedagogik jarayonda ijodkorlik – faqat estetik sohalargagina xos bo‘lgan atribut emas, balki har qanday kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat omili sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa o‘qituvchi zimmasiga yangi pedagogik yechimlar, moslashuvchan texnologiyalar va didaktik yondashuvlarni izlab topish majburiyatini yuklaydi. Ayniqsa, yuqori ta’lim muassasalarida talabalarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish orqali ularning kasbiy raqobatbardoshligini oshirish – dolzarb vazifa sanaladi. Mazkur maqolada innovatsion yondashuv asosida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarining nazariy asoslari va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Tadqiqotning bosh maqsadi – talabalarda ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi, ularni yangicha tafakkur va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltiruvchi ta’limiy mexanizmlarni aniqlash va takomillashtirishdan iborat.[1-3:2b]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XXI asrda ta’lim tizimi nafaqat bilim berish vositasi, balki inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi kompleks tizimga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida ijodiy fikrlash salohiyati yetakchi o‘ringa chiqmoqda. An’anaviy o‘qitish shakllari bilan cheklanib qolish bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy muhitining tez o‘zgaruvchan talablari oldida yetarli samara bermayapti.[14:2b] Shu bois, ta’lim mazmunini yangilash, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, xususan, innovatsion metodlar orqali ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Bugungi pedagogik jarayonda ijodkorlik – faqat estetik sohalargagina xos bo‘lgan atribut emas, balki har qanday kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat omili sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa o‘qituvchi zimmasiga yangi pedagogik yechimlar, moslashuvchan texnologiyalar va didaktik yondashuvlarni izlab topish majburiyatini yuklaydi. Ayniqsa, yuqori ta’lim muassasalarida talabalarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish orqali ularning kasbiy raqobatbardoshligini oshirish – dolzarb vazifa sanaladi. Mazkur maqolada innovatsion yondashuv asosida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarining nazariy asoslari va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Tadqiqotning bosh maqsadi – talabalarda ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi, ularni yangicha tafakkur va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltiruvchi ta’limiy mexanizmlarni aniqlash va takomillashtirishdan iborat.Koreya olimi Jung (2022) o‘z izlanishlari yakunida ijodiy kompetensiyani “21-asr ko‘nikmalarining asosiy drayveri” deb ataydi va uni STEAM ta’limi bilan bog‘laydi.Natijada esa juda yaxshi modelni yaratadi.[10:3b]OECDning 2021 yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, ijodiy fikrlash xalqaro PISA baholash tizimiga qo‘shilgan va endilikda global kompetensiyalar orasida hisoblanadi.[13:3-1b]

Tadqiqotda **kombinatsiyalashgan yondashuv (mixed methods)** qo‘llanildi, ya’ni sifat va miqdoriy tahlil vositalari uyg‘unlashtirildi. Bunday yondashuv tanlanishiga sabab, ijodiy kompetensiyani faqat statistik indikatorlar bilan emas, balki kontekstual, shaxsiy, va psixologik omillar orqali baholash zarurati bo‘ldi. Avvalo, o‘rganilayotgan subyektlar sifatida 3-bosqich pedagogika yo‘nalishidagi talabalar tanlab olindi.[15-16;1-3b] Ularning ijodiy faoliyatini baholashda Torrance ijodiy fikrlash testlarining lokal moslashtirilgan versiyasi hamda muammoli topshiriqlar asosida yaratilgan diagnostik materiallar ishlatildi. Tadqiqotda nazariy asos sifatida Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi (1978) va konstruktivistik ta’lim modeli (Bruner, 1996) xizmat qildi. [4: 1-3 b]Bu yondashuv asosida talabaning o‘zlashtirish darajasi faqat mavjud bilimga emas, balki qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhitga va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatiga ham bog‘liq ekanligi nazarda tutiladi. Empirik bosqichda talabalar ikki guruhga bo‘lindi: tajriba guruhi innovatsion metodlar bilan – ya’ni

integratsiyalashgan, muammoli, hamkorlikka asoslangan topshiriqlar orqali mashg‘ulotlarda qatnashdi; nazorat guruhi esa an’anaviy ma’ruza va seminar shaklida ta’lim oldi. [Har ikki guruh natijalari sifatli va miqdoriy jihatdan solishtirilib, ta’sir darajasi aniqlashtirildi.Anderson va Krathwohl 2020 yilda taklif qilgan kognitiv domen taksonomiyasida “yaratish” bosqichi ijodiy kompetensiyaning cho‘qqisi sifatida baholanadi. Bu bosqichga erishish o‘quvchining mustaqil va innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.Ma’lumotlar tahlili **SPSS** dasturi orqali amalga oshirildi, shuningdek, o‘quvchilarning reflektiv yozuvlari va yarim strukturaviy intervyular orqali sifatli tahlil komponentlari ham qo‘llanildi.[2:3-5b]

Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, integratsiyalashgan, muammoli va loyihalashga asoslangan o‘qitish uslublari talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning analitik fikrlash, muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilish va original yechimlar taklif eta olish salohiyatini ham rivojlantirgan. Tajriba guruhi bilan ishlash jarayonida aniqlanganki, ijodiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari — masalan, tafakkur moslashuvchanligi, erkin fikr yuritish, emotsional-intellektual sezuvchanlik kabi ko‘rsatkichlar — darslar mazmuni innovatsion metodlar asosida tashkil etilganda sezilarli darajada oshgan. Bu holat, pedagogik interaktivlikning yuqori bo‘lishi, talabalarni o‘quv jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rishga asoslangan metodlarning samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bundan tashqari, talabalar bilan olib borilgan yarimstrukturaviy suhbatlar ham shuni ko‘rsatdiki, o‘z bilimlarini real hayotiy kontekstlarda qo‘llay olishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ularni mustaqil fikrlashga undagan va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirgan. Shu bilan birga, mashg‘ulotlarda hamkorlikda ishlashga asoslangan topshiriqlar orqali talabalarda ijtimoiy muomala, jamoaviy fikrlash va o‘z nuqtai nazarini asoslab bera olish kabi ko‘nikmalar shakllangan. Nazorat guruhi ko‘rsatkichlari esa nisbatan passiv yondashuv natijasi bo‘lib, ijodiy tafakkur o‘sish dinamikasida yetarlicha siljish qayd etilmadi. Bu holat an’anaviy o‘qitishning cheklangan didaktik imkoniyatlari va talabaning faolligini rag‘batlantira olmasligi bilan bog‘liq deb baholandi. Ushbu kuzatuvlar xalqaro pedagogik tajribalar bilan hamohang bo‘lib, masalan, Amabile (1996) tomonidan ilgari surilgan ichki motivatsiya va ijodiy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlarni tasdiqlaydi. Shuningdek, De Bono (1985) ta’kidlaganidek, lateral fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar o‘quvchilarning noan’anaviy yondashuvlarini kuchaytiradi, bu esa aynan innovatsion o‘quv modellarida faol qo‘llaniladi.[5:4b] Shunday qilib, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali ijodiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish nafaqat nazariy, balki amaliy asosga ham ega ekani isbotlandi. Bu yondashuvning afzalligi — u talabani shunchaki bilim oluvchi emas, balki bilimni yaratishga qodir faol ishtirokchiga aylantiradi.Xuddi shunday holatni Lee va Kim 2023 yil o‘z tadqiqotlarida qayd etadilar – ularning fikricha, ijodiy fikrlash nafaqat individual, balki hamkorlikdagi vazifalarda kuchliroq namoyon bo‘ladi, ayniqsa xozirgi rivojlangan raqamli muhitda.[11:4-5b]

Natijalar. Tadqiqot doirasida olib borilgan eksperimental faoliyat natijalari quyidagicha muhim empirik asoslarni aniqlashga imkon berdi:

1. Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning ijodiy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirgan. Xususan, tajriba guruhidagi talabalar test va diagnostika mezonlari asosida o‘lchangan natijalarda yuqori ko‘rsatkichlarga ega

bo‘ldilar. Bu ularning divergent tafakkur, original yondashuv va noan’anaviy muammolarni hal qilish qobiliyatining faollashganidan dalolat beradi.[6:4b]

2. Faol va interaktiv metodlardan foydalanilgan mashg‘ulotlar talabalarda mustaqil fikr yuritish, muammoga turli nuqtai nazardan yondashish, va ijtimoiy kommunikatsiya malakalarini shakllantirishga yordam berdi. Bu holat o‘quv jarayonining subyektivlashtirilgan shaklda tashkil etilishi ijodiy rivojlanishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.
3. Nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish shakllarining afzalliklari kamroq kuzatildi: bu guruh talabalarida ijodiy kompetensiyalar rivojlanish sur’atida barqarorlik bo‘lsa-da, o‘sish dinamikasi past bo‘ldi. Bu esa passiv qabul qilishga asoslangan o‘quv modellari ijodiy faollikni rag‘batlantirishda yetarli emasligini isbotlaydi.
4. Sifatli tahlil vositalari orqali to‘plangan ma’lumotlar (talabalar fikrlari, intervyular, reflektiv yozuvlar) eksperiment natijalarini yanada chuqurlashtirdi va talabalar tajribasining ichki psixologik jihatlarini ochib berdi.[7-8:4-5b]

Bu natijalar ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion metodlar samaradorligini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham asoslab berdi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlil va empirik natijalar asosida quyidagi umumlashmalar chiqarildi:

1) Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish — bu tasodifiy yoki epizodik faoliyat emas, balki tizimli va maqsadli tashkil etiladigan ta’limiy jarayondir. Unda pedagogik metodlar va o‘quv muhitining uyg‘unligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.
2) Innovatsion yondashuvlar, ayniqsa integratsiyalashgan, muammoli va loyihalash asosidagi o‘qitish texnologiyalari, talabalar tafakkurini erkinlashtirish, intellektual mustaqillikni shakllantirish va kasbiy kreativlikni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.[9:5b]
3) An’anaviy ta’lim shakllarining imkoniyatlari chegaralangan, ayniqsa bugungi kunda o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda faqat bilim bilan cheklanib qolish emas, balki faol qaror qabul qiluvchi, yangilikka ochiq, kreativ fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash muhimdir.
4) Kelgusida ushbu tadqiqot doirasida aniqlangan metodik yondashuvlar asosida maxsus o‘quv modullari va kompetensiyaviy treninglar ishlab chiqish, ularni pedagogik amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.
5) Shuningdek, pedagoglar malakasini oshirish tizimida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalariga bag‘ishlangan maxsus kurslar joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.[12:5b]

Umuman olganda, ijodiy kompetensiyani shakllantirishda innovatsion yondashuvlar nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyatda raqobatbardosh, mas’uliyatli va tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. **Amabile, T. M.** (1996). *Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity* (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780429501234
2. **Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R.** (2020). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives*. Longman.
3. **Berdiyorova, N. B.** (2025, June). Innovatsion yondashuv asosida talabalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati. In *Международная конференция образования, исследований и инноваций* (Vol. 1, No. 1, pp. 5–14).
4. **Bruner, J. S.** (1996). *The Culture of Education*. Harvard University Press.

5. **De Bono, E.** (1985). *Six Thinking Hats*. Little, Brown and Company.
6. **Freire, P.** (1970). *Pedagogy of the Oppressed*. Herder and Herder.
7. **Guilford, J. P.** (1967). *The Nature of Human Intelligence*. McGraw-Hill.
8. **Johnson, D. L.** (1974). College students' scores on Torrance's Tests of Creative Thinking. *Psychological Reports, 35*(1), 65–66. https://doi.org/10.2466/pr0.1974.35.1.65
9. **Jo‘rayev, X.** (2021). Integrallashgan yondashuv asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirish. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2*(2), 63–70.
10. **Jung, H. Y.** (2022). Creative competencies in higher education: STEAM-based instructional design. *Korean Journal of Educational Innovation, 28*(1), 44–59. https://doi.org/10.5399/kjei.2022.28.1.44
11. **Lee, S., & Kim, J.** (2023). Enhancing student creativity through digital collaborative tasks in university classrooms. *Asia-Pacific Journal of Educational Research, 35*(2), 112–127. https://doi.org/10.1080/02188791.2023.2301974
12. **Nazarov, O. T.** (2019). Innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali talabalar mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish. *O‘zbekiston pedagogik jurnali, 3*(4), 45–52.
13. **OECD.** (2021). *OECD Learning Compass 2030: A framework for future-ready education*. OECD Publishing. https://www.oecd.org/education/2030-project/
14. **Sawyer, R. K.** (2022). *The Creative Classroom: Innovative Teaching for 21st-Century Learners*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781108785292
15. **Torrance, E. P.** (1974). *Torrance Tests of Creative Thinking: Norms–Technical Manual*. Scholastic Testing Service.
16. **Vygotsky, L. S.** (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

MODERN EDUCATIONAL REQUIREMENTS AND DIRECTIONS IN TRAINING FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS

Hamidov Sherali Shirinovich
Bukhara State Pedagogical Institute
Lecturer at the Department of Mathematics and Informatics

Abstract. This article analyzes the preparation of future computer science teachers in accordance with modern educational requirements. The study is based on empirical data collected through surveys, interviews, and lesson observations, revealing current issues in the field. Special attention is given to the use of digital technologies, the level of pedagogical readiness, and the implementation of innovative teaching methods. The results show that the integration of modern methodologies into the teaching process remains limited, and there is a notable methodological gap between students and instructors. The article also examines the barriers that hinder the adoption of contemporary approaches in the classroom. Based on the findings, the paper suggests enhancing practical training, improving technical infrastructure, and increasing methodological support as key recommendations.

Keywords: future computer science teachers, modern education, innovative methods, digital pedagogy, ICT, project-based learning, gamification, pedagogical training, lesson observation, methodological gap.

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA’LIM TALABLARI VA YO‘NALISHLARI

Hamidov Sherali Shirinovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: hamidovsherali1985@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy ta’lim talablari va yondashuvlarining qo‘llanilishi o‘rganildi. Tadqiqot davomida so‘rovnoma, suhbatlar, dars kuzatuvlari orqali to‘plangan empirik ma’lumotlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalar zamonaviy metodlar haqida ma’lumotga ega bo‘lsalar-da, ularni mustaqil qo‘llashda muammolarga duch kelishmoqda. O‘qituvchilarning metodik yondashuvlaridagi farqlar, infratuzilmaning yetarli emasligi hamda raqamli pedagogik ko‘nikmalarning pastligi bu muammolarning asosiy sabablari sifatida ko‘rsatildi. Maqola informatika ta’limida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini asoslaydi va amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak informatika o‘qituvchilari, zamonaviy ta’lim, innovatsion metodlar, raqamli pedagogika, AKT, loyiha asosidagi ta’lim, gamifikatsiya, pedagogik tayyorgarlik, dars kuzatuvi, metodik tafovut.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N47

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida yangilanishlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va sifatni oshirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, informatika fanining umumta’lim tizimidagi o‘rni tobora ortib, bu sohada yetuk mutaxassis, innovatsion fikrlovchi va raqamli texnologiyalarni puxta egallagan pedagoglarni tayyorlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini

zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlash – bu nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, shuningdek, raqamli savodxonlikni shakllantirishga qodir shaxslarni yetishtirishni anglatadi.

XXI asr o‘qituvchisi, ayniqsa informatika fanidan saboq beradigan pedagog nafaqat o‘z fani bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta bilishi, ularni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qila olishi kerak. Zero, zamonaviy ta’lim jarayoni – bu bir tomonlama ma’lumot uzatish emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv, innovatsion va refleksiv munosabatlar majmui hisoblanadi. Shu bois, informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik, texnologik va kasbiy kompetensiyalarni birgalikda shakllantirish muhim ahamiyatga ega [1].

Ta’limning raqamli transformatsiyasi davrida informatika o‘qituvchisi o‘z fanini an’anaviy yondashuvlardan tashqari zamonaviy metodlar – loyiha asosidagi o‘qitish (PBL), masalani yechishga yo‘naltirilgan o‘qitish (problem-based learning), teskari sinf (flipped classroom), gamifikatsiya (o‘yinlashtirish), STEAM yondashuvi va boshqa ilg‘or texnologiyalar asosida olib borishi talab etiladi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi.

Shuningdek, davlatimiz tomonidan ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, “Yangi O‘zbekiston – Yangi ta’lim” shiori ostida qabul qilinayotgan strategiyalar, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi, informatika fani o‘quv dasturlarining yangilanishi, o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflardan boshlab dasturlashga oid ko‘nikmalarni egallashi, o‘rta va oliy ta’lim tizimida zamonaviy AKT muhitining shakllanishi ushbu fan o‘qituvchisi zimmasiga yanada kengroq mas’uliyat yuklaydi.

Mamlakatimizda informatika o‘qituvchilarini tayyorlaydigan pedagogik oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa – bo‘lajak pedagogni zamonaviy ta’lim mezonlari asosida shakllantirish, unga metodik va texnik jihatdan raqobatbardosh bo‘lishga tayyorlikni singdirishdir [2]. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi tayyorlash tizimining mazmunan yangilanishini, o‘quv dasturlarining zamonaviy ta’lim talablariga moslashtirilishini, amaliyotga yo‘naltirilgan va integratsiyalashgan o‘quv jarayonini joriy etishni taqozo etadi.

Ushbu maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy ta’lim talablari, xalqaro tendensiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, AKT vositalaridan foydalanish samaradorligi va zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilayotgan asosiy pedagogik va texnologik talablar tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion metodlar va o‘qituvchini zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil bo‘lgan yo‘nalishlar yoritib beriladi.

Mavzuga doir manbalar tahlili. Bo’lajak informatika o’qituvchilarini tayyorlashga oid tadqiqotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili ushbu yo’nalishda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotganini ko’rsatadi. Ushbu bo’limda yurtimizdagi va xorijdagi dolzarb ilmiy manbalar, konseptual hujjatlar hamda zamonaviy metodik qo’llanmalarning mazmuni tahlil qilinadi.

Birinchi navbatda, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmoni ta’limda raqamlashtirishni jadallashtirish, zamonaviy AKT vositalaridan samarali foydalanish va zamonaviy o’qituvchi profilini shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. Ushbu strategiyada o’qituvchilar, xususan informatika yo’nalishidagi kadrlar

tayyorlashning sifatini oshirish, ularni ilg’or texnologiyalar asosida qayta tayyorlash mexanizmlari belgilangan [3]. Bu esa bo‘lajak informatika o‘qituvchilariga bo‘lgan talablarni tubdan o‘zgartirdi.

Ta’limda AKTdan foydalanish bo‘yicha xalqaro mezonlar esa UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “ICT Competency Framework for Teachers” (2021) hujjatida batafsil yoritilgan. Unda informatika o‘qituvchilarining uch asosiy kompetensiya guruhi — texnologik, pedagogik va kasbiy kompetensiyalar — bo‘yicha rivojlanishi zarurligi ta’kidlangan. Bu hujjatda o‘qituvchi nafaqat AKTni ishlata olishi, balki o‘quvchilarning o‘zlari ham bu texnologiyalar yordamida yangi bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishiga rahbarlik qilishi lozimligi ta’kidlangan.

Milliy miqyosda mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham e’tiborga molikdir. Jumladan, Qodirova N.ning “Raqamli pedagogika asoslari” nomli qo‘llanmasida raqamli ta’lim muhitini tashkil etish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida masofaviy va gibrid shakldagi o‘zaro ta’sir mexanizmlari, elektron platformalarda darsni loyihalash tamoyillari batafsil yoritilgan. Muallif informatika o‘qituvchisining raqamli madaniyatini shakllantirish, sun’iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar asosida dars jarayonlarini boyitish zarurligini asoslab bergan.

Adabiyotlar tahlili. Talimov A. tomonidan olib borilgan “STEAM yondashuvi asosida informatika o‘qituvchilarini tayyorlash” nomli maqolada esa, informatika fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasi orqali o‘quvchilarda kompleks fikrlashni rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan. Muallifning fikricha, STEAM yondashuvi informatika darslarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash, o‘quvchilarda texnologik tafakkurni shakllantirish, ijodiy va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, G‘ulomova D. tomonidan yozilgan “Kasbiy ta’limda axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikasi” nomli monografiyada informatika fanini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish, o‘quv dasturlarini loyihalash, modul asosidagi o‘qitish tizimini joriy etishning afzalliklari bayon etilgan [4]. Bu ishlar orqali bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi mustahkamlanadi.

Xorijiy tajribani tahlil qilar ekanmiz, AQSh, Janubiy Koreya, Estoniya kabi davlatlarda informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda “lifelong learning” (umrbod ta’lim), “computational thinking” (hisoblash tafakkuri) va “digital pedagogy” (raqamli pedagogika) konsepsiyalariga asoslanilgan dasturlar joriy etilgan. Masalan, Estoniya maktablarida 1-sinfdan boshlab kodlash darslari olib boriladi va o‘qituvchilar maxsus “Code School” platformasida doimiy tayyorlov kurslaridan o‘tib turadilar.

O‘zbekistonda esa HEMIS, ZiyoNet, UzEdu, Bilimlar Akademiyasi platformalari orqali bo‘lajak o‘qituvchilar uchun onlayn resurslar yaratilmoqda. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud elektron resurslardan to‘liq va samarali foydalanish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlik yetarli bo‘lishi lozim. Shu sababli, mavjud ilmiy va amaliy manbalar ta’lim muassasalari tomonidan o‘quv dasturlariga chuqur integratsiya qilinishi lozim [5].

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini zamonaviy ta’lim talablari asosida tayyorlash uchun milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish, AKT asoslarini chuqur o‘zlashtirish, pedagogik yondashuvlarni innovatsion texnologiyalar bilan birgalikda qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Yuqorida tahlil qilingan manbalar ushbu yo‘nalishda samarali faoliyat yurituvchi o‘qituvchini tayyorlashga oid aniq ilmiy va amaliy asoslarni taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy ta’lim talablari va yo‘nalishlarini aniqlash, ularning amaliyotga joriy etilish darajasini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlariga xos metodologik asoslar, empirik va nazariy usullar uyg‘unlikda qo‘llanildi [6].

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy ta’lim talablariga muvofiq kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini o‘rganish, mavjud tajriba va metodik yondashuvlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini aniqlash va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Informatika o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni aniqlash;

Oliy ta’lim muassasalarida informatika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini o‘rganish;

AKT vositalari va raqamli pedagogika elementlarining o‘quv jarayonidagi o‘rnini tahlil qilish;

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilari o‘rtasida so‘rovnoma va suhbatlar asosida ularning zamonaviy yondashuvlarga tayyorgarlik darajasini aniqlash;

Olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti va obyekti

Tadqiqotning predmeti — informatika yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarni tayyorlash jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlar, vositalar va yondashuvlardir.

Tadqiqotning obyekti — pedagogik oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak informatika o‘qituvchilaridir (jumladan, bakalavriat yo‘nalishidagi talabalar, o‘qituvchilar, uslubchilar va metodistlar).

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi metodlardan kompleks foydalanildi:

1. Nazariy tahlil

Pedagogika, psixologiya, ta’lim texnologiyalari, informatika metodikasi bo‘yicha mavjud adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari, strategik dasturlar (masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, “Taraqqiyot strategiyasi – 2026”) va xalqaro tajribalar tahlil qilindi.

2. Empirik metodlar.

So‘rovnoma: 3 ta oliy ta’lim muassasasining (TATU, TDPU, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti) informatika yo‘nalishida tahsil olayotgan 120 nafar 3–4-bosqich talabasi o‘rtasida onlayn so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma Google Forms platformasida tashkil etildi. So‘rovnoma informatika o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan zamonaviy kompetensiyalar [7], AKT vositalaridan foydalanish darajasi va metodik yondashuvlar haqidagi bilimlar darajasini aniqlashga qaratilgan edi.

Suhbat: 6 nafar tajribali professor-o‘qituvchilar bilan chuqurlashtirilgan yarim strukturali intervyular o‘tkazildi. Suhbatlar orqali amaliyotda uchrayotgan muammolar, mavjud imkoniyatlar va zamonaviy texnologiyalarni o‘qitishdagi real to‘siqlar aniqlashtirildi.

Kuzatuv: 10 ta real dars mashg‘ulotida (2 tasi masofaviy, 8 tasi auditoriyada) ishtirok etilib, informatika o‘qituvchilarining amaliy faoliyati bevosita tahlil qilindi. E’tibor dars jarayonida AKT vositalaridan foydalanish, o‘quvchilarning faolligi, metodik yondashuvlar (loyiha asosida o‘qitish, o‘yinlashtirish) kabi omillarga qaratildi.

3. Matematik-statistik tahlil.

Olingan so‘rovnoma natijalari Microsoft Excel va SPSS dasturlari yordamida statistik tahlil qilindi. O‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar: zamonaviy metodlar haqidagi xabardorlik (%), AKTdan foydalanish tezligi, darsda innovatsion vositalarni qo‘llash chastotasi va boshqalar. Bu tahlil metodik yondashuvlarning qamrovi va samaradorligi bo‘yicha obyektiv xulosa chiqarishga imkon berdi.

4. Tadqiqotning yangiligi va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda informatika o‘qituvchisini zamonaviy ta’lim kompetensiyalari asosida tayyorlashning ko‘p bosqichli modeli ishlab chiqilgan, real statistik ma’lumotlar asosida amaliy takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv rejalari va dasturlariga raqamli pedagogika, STEAM yondashuvi, gamifikatsiya va masofaviy ta’lim elementlarini integratsiyalash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Xulosa o‘rnida. Tadqiqotning metodologiyasi har tomonlama asoslangan bo‘lib, nazariy, empirik va statistik metodlarning uyg‘unligida olib borildi. Bu yondashuv informatika o‘qituvchilari tayyorlashda mavjud real holatni aniqlash, mavjud muammolarni ochish va ularni bartaraf etish yo‘llarini asoslash imkonini berdi. Olingan natijalar esa soha uchun dolzarb metodik, tashkiliy va innovatsion takliflarni ishlab chiqish imkonini yaratdi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan nazariy tahlillar, so‘rovnoma, suhbat va dars kuzatuvlari asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashdagi holat va mavjud muammolar aniqlandi. Ushbu bo‘limda to‘plangan empirik ma’lumotlar asosida asosiy tahlil va natijalar bayon etiladi.

Avvalo, so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 68 foizi zamonaviy ta’limda informatika o‘qituvchisining roli yuqori ekanligini tan oladi. Biroq, ularning faqat 42 foizi o‘zlarini raqamli texnologiyalardan mustaqil va samarali foydalana oladigan darajada deb hisoblaydi. Bu holat AKT bo‘yicha nazariy bilimlar yetarli bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish borasida muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, talabalar o‘rtasida “Qanday zamonaviy metodlardan foydalangansiz?” degan savolga quyidagi javoblar qayd etildi: 50% – loyiha asosidagi ta’lim (Project-Based Learning), 28% – o‘yinlashtirish (Gamification), 14% – teskari sinf (Flipped Classroom), 8% – hech biridan. Bu natijalar ko‘rsatadiki, innovatsion metodlar hali barcha talabalarga to‘liq yetib bormagan, ularning amaliyotga tatbiq etilishi esa cheklangan.

O‘tkazilgan yarim strukturali suhbatlar natijasida esa professor-o‘qituvchilar zamonaviy ta’lim yondashuvlariga o‘tish jarayonida uchrayotgan asosiy to‘siqlarni quyidagicha sanab o‘tdilar:

* zamonaviy metodikalarga oid qo‘llanmalar va darsliklarning yetarli emasligi;

* infratuzilmaning (kompyuter, internet, raqamli taxta va h.k.) yetarli darajada ta’minlanmaganligi;

* talabalar o‘rtasida raqamli madaniyat va o‘zini o‘zi o‘rgatish ko‘nikmalarining sustligi.

Bundan tashqari, 10 ta dars kuzatuvi davomida aniqlangan natijalar ham muhim ahamiyatga ega. 6 ta auditoriya mashg‘ulotida o‘qituvchilar asosan an’anaviy ta’lim usullaridan foydalanishgani, 4 ta darsda esa interaktiv metodlardan (prezentatsiya, video dars, test platformalari) qisman foydalanilganligi kuzatildi. Faqat 2 darsda loyiha asosidagi ishlanmalar

ko‘rinishida zamonaviy yondashuvlar qo‘llangan. Bu esa o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida metodik tafovut mavjudligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, kuzatuvlar davomida dars samaradorligini baholash mezonlariga asoslanib, quyidagi kuzatishlar qayd etildi:

AKT vositalaridan faol foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi 25–30% ga yuqori bo‘lgan;

Gamifikatsiya elementlari mavjud darslarda talabalar ishtiroki va fikr bildirishlari ancha ko‘p bo‘lgan;

An’anaviy darslarda esa talabalar faolligi past, passiv tinglovchilik holati ustunlik qilgan.

Umumlashtirilgan holda aytganda, informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilimlar yetarli bo‘lsa-da, zamonaviy metodlar va raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Talabalar zamonaviy metodlarni eshitgan, ba’zilar tajriba o‘tkazgan bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi bu yondashuvlarni mustaqil qo‘llay olmaydi. Bunga, asosan, amaliy mashg‘ulotlarning kamligi, texnik bazaning cheklanganligi va metodik yordamning sustligi sabab bo‘lmoqda.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining nazariy bilimlari yetarli bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalar, ayniqsa zamonaviy ta’lim metodlari va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish borasida muammolar mavjud. So‘rovnomalar, suhbatlar va dars kuzatuvlari natijalariga ko‘ra, ko‘plab talabalar innovatsion yondashuvlar haqida xabardor bo‘lsa-da, ularni dars jarayonida mustaqil qo‘llay olish darajasi past. Bu holat o‘quv jarayonida amaliy mashg‘ulotlarning yetarli emasligi, texnik infratuzilmaning zaifligi hamda metodik ko‘makning sustligi bilan bog‘liq.

Professor-o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar va dars kuzatuvlari ham ta’lim tizimida an’anaviy usullar ustunligini ko‘rsatmoqda. AKT vositalari, gamifikatsiya va loyiha asosidagi yondashuvlar kam hollarda qo‘llanilmoqda, bu esa talabalarning faolligi va motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy informatika o‘qituvchisini tayyorlashda amaliy yondashuvlarni kuchaytirish, innovatsion metodlarni joriy etish va infratuzilmani takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov, I.A. (2012). *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
2. Turdiyev, M., & Alimova, D. (2021). Zamonaviy ta’lim metodlari va ularning samaradorligi. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 3(2), 45–52.
3. Qodirov, A. (2020). AKT vositalaridan foydalanish samaradorligi: ta’limda integratsiyalashuv. *Informatika va ta’lim*, 1(1), 23–29.
4. Hasanov, B. (2019). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
5. UNESCO (2020). *ICT in Education: A Critical Review*. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
6. Tashkent State Pedagogical University. (2022). *Zamonaviy informatika o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha metodik tavsiyalar*. Toshkent: TSPU nashriyoti.
7. Jonboboyev, S. (2023). Oliy ta’limda raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. *Raqamli ta’lim jurnali*, 5(4), 30–36.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL BASIS OF MANAGEMENT OF EDUCATION QUALITY CONTROL MECHANISMS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Sattoriy Shohruh Abdijabbor ogli
NamDU independent researcher,
database manager of the NamDU "Registrar's Office" department

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the place, functional role, and evolution of education quality control mechanisms within the context of digital transformation. The author evaluates the degree of integration of modern tools in the management of the educational process, including real-time monitoring, digital indicator systems, and learning analytics technologies. Based on a comparative analysis of advanced international practices and the national context, the study substantiates the positioning of digital quality control as a strategic component of education management systems.

Keywords: digital transformation, education quality, control mechanisms, digital indicators, management system.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sattoriy Shohruh Abdijabbor o’gli
NamDU mustaqil izlanuvchisi,
NamDU “Registrator ofisi” bo‘limining ma’lumotlar bazasi bo‘limi menejeri

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarining boshqaruv tizimidagi o‘rni, funksional roli va evolyutsiyasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif ta’lim jarayonini boshqarishda real vaqt monitoringi, raqamli indikatorlar tizimi va learning analytics kabi zamonaviy vositalarning integratsiyalashuv darajasini baholaydi. Ilg‘or xorijiy tajribalar va milliy holatning taqqoslamali tahlili asosida, raqamli sifat nazorati boshqaruv tizimining strategik elementi sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, ta’lim sifati, nazorat mexanizmlari, raqamli indikatorlar, boshqaruv tizimi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N48

KIRISH

XXI asrda ta’lim tizimi dunyo bo‘yicha jadal o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Bu o‘zgarishlarning asosiy drayverlaridan biri bu raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida shakllanayotgan yangi boshqaruv mexanizmlaridir. Raqamli transformatsiya nafaqat o‘quv jarayonining shakli va mazmuniga, balki ta’lim sifati monitoringi, baholash indikatorlari, hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur jarayonlar ta’lim sifatini ta’minlashga doir yondashuvlarni tubdan o‘zgartirmoqda va an’anaviy nazorat shakllarini zamonaviy, raqamli yondashuvlar bilan almashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Ta’limni raqamlashtirish konsepsiyasi”, shuningdek, oliy ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan qonun hujjatlari asosida raqamli transformatsiya faol amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud amaliyotda

raqamli nazorat vositalarining tizimli joriy qilinishi, ularning metodologik asoslarini ishlab chiqish, axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, indikatorlar majmuasini shakllantirish va ularning boshqaruvga ta’siri yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Bu esa, ta’lim sifatini doimiy va obyektiv nazorat qilishni ta’minlashda muammolar keltirib chiqarmoqda.

Raqamli transformatsiya ta’lim tizimidagi barcha bo‘g‘inlarga ta’sir etgani holda, ayniqsa sifat nazorati tizimi uchun yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Masalan, raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida o‘quvchilarning bilim darajasini kuzatish, sun’iy intellekt yordamida test natijalarini tahlil qilish, raqamli portfellarga asoslangan baholash tizimlarini qo‘llash bugungi kunda ilg‘or mamlakatlarda asosiy nazorat vositalariga aylangan. Shunday sharoitda, ushbu mexanizmlarni boshqarish tizimining nazariy asoslarini aniqlash, ularni integratsion model sifatida ishlab chiqish, hamda milliy ta’lim tizimiga moslashtirish masalalari dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta’lim sifatining nazariy asoslari o‘z rivojlanishida bir nechta paradigmal bosqichlarni bosib o‘tgan. Dastlabki nazariyalar, xususan, klassik sifat menejmenti maktabi vakili J. M. Juran tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar sifatsiz mahsulotlar sonini kamaytirishga qaratilgan bo‘lsa [1], ta’lim tizimida bu yondashuv ta’lim xizmatlarining barqarorligi va standartlarga mosligi bilan ifodalanadi. Juran nazariyasining mohiyatida “oldini olish” yondashuvi yotadi — bu ta’lim sifatini nazorat qilish tizimining preventiv va monitoring xususiyatini belgilovchi tamoyildir.

Keyingi bosqichda Harvey va Grin [2] tomonidan taklif etilgan besh o‘lchovli yondashuv ta’lim sifatini baholashda muhim burilish yasadi. Ayniqsa, “transformatsiya” yondashuvi raqamli davr uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u talaba yoki o‘quvchi shaxsida yuz berayotgan ijtimoiy, madaniy va kognitiv o‘zgarishlarni markazga qo‘yadi. Bu yondashuvda sifat bu jarayon emas, balki shaxsning o‘sishi va rivojlanishidir.

Zamonaviy yondashuvlarda sifatni o‘lchash faqat natijaviy indikatorlarga emas, balki ta’lim jarayonining muhitiga, texnologik vositalar ishtirokiga va ta’lim beruvchining raqamli kompetensiyasiga ham bog‘liqdir [3]. Berliner [4] sifatni ko‘proq tizimli yondashuv orqali izohlaydi: u ta’lim tizimining kirish (resurslar), jarayon (pedagogik faoliyat) va chiqish (natijalar) elementlarini o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqadi. Bu tizimli yondashuv, ayniqsa raqamli ta’lim muhitini modellashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari nazariyasi o‘zining rivojlanishida an’anaviy “tekshiruv” (inspection-based), baholash (assessment-based) va so‘nggi yillarda paydo bo‘lgan “monitoring-based” yondashuvlar orqali diversifikatsiyalashgan. Har bir yondashuv o‘ziga xos indikatorlar tizimini shakllantiradi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan “Education at a Glance” tizimi [5] 2000-yillardan buyon indikatorlarni makro, mezzo va mikro darajalarga ajratgan holda ishlab chiqmoqda. Bu yondashuv ta’lim sifatini nazorat qilishda faqat yakuniy natijalarni emas, balki jarayonning o‘zini metodikalar, darsliklar, o‘quvchi faolligi va raqamli vositalardan foydalanish darajasini baholashni taklif qiladi.

Yangi indikatorlar, xususan, o‘quvchining onlayn ishtirok ko‘rsatkichlari, raqamli portfeli, individual o‘sish dinamikasi va AKT kompetensiyalari kabi parametrlar nafaqat sifatni aniqlashga, balki u asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ham xizmat qiladi [6]. Ta’lim

sifatining zamonaviy monitoring mexanizmlari zamirida “data-driven decision-making” (ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv) prinsipi yotadi [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarini boshqarish masalasi — murakkab, ko‘p komponentli va ko‘p darajali tizim bo‘lib, u ta’lim siyosati, texnologik imkoniyatlar, pedagogik metodologiya va boshqaruv madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu tizimda faqat texnologik vositalarni joriy etishning o‘zi yetarli bo‘lmay, ular orqali shakllanadigan yangi boshqaruv paradigmasi, raqamli madaniyat, qaror qabul qilishda ma’lumotga asoslangan yondashuv va uzluksiz monitoring tizimlari bilan uyg‘unlikda ishlashi zarur.

1-jadval. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarining evolyutsiyasi

Bosqich	Nazorat mexanizmining xususiyatlari	Transformatsion o‘zgarishlar ta’siri
An’anaviy bosqich	Ta’lim sifati muntazam tekshiruvlar, reja asosida o‘tkaziladigan attestatsiyalar, hujjatlar asosidagi baholash orqali nazorat qilinadi. Subyektivlik yuqori bo‘ladi.	Raqamli vositalar mavjud emas. Nazorat o‘qituvchilarning subyektiv fikriga bog‘liq bo‘lib, shaffoflik va tahliliy xulosa chiqarish imkoni cheklangan.
Raqamlashtirishning boshlang‘ich bosqichi	Elektron kundalik, masofaviy testlar, elektron baholash tizimlari joriy etiladi. Yagona ma’lumotlar bazasi paydo bo‘ladi.	Ma’lumotlar avtomatlashtiriladi, lekin tizimlar bir-biri bilan integratsiyalashmagan. Nazoratda axborotdan foydalanish boshlansa-da, qarorlar hali ham inson subyektivligiga tayanadi.
Raqamli transformatsiya bosqichi	Real vaqt rejimida baholash, o‘quvchilarning onlayn faoliyati, sun’iy intellekt orqali tahlil, elektron portfel va kompetensiyaviy yondashuvlar joriy etiladi.	Nazorat mexanizmlari boshqaruv tizimiga to‘liq ulanadi. O‘qituvchilar faoliyati va ta’lim sifati doimiy ravishda raqamli indikatorlar asosida tahlil qilinadi. Qarorlar ma’lumotlarga asoslanadi va monitoring moslashtirilgan shaklda amalga oshiriladi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi jadval asosida shuni ta’kidlash joizki, ta’lim sifatini nazorat qilish evolyutsiyasi uch asosiy bosqich orqali kechadi: an’anaviy, raqamlashtirish, va transformatsion. An’anaviy bosqichda sifat nazorati ko‘proq inson resurslariga tayanadi va nazorat qilish shaffof bo‘lmaydi. Raqamlashtirish bosqichida elektronlashtirilgan vositalar yordamida monitoring yuzaga chiqadi, ammo bu vositalar ko‘p hollarda uzviy tizimga aylantirilmagan bo‘ladi. Raqamli transformatsiya bosqichida esa nazorat tizimi boshqaruvning markaziy elementi sifatida shakllanadi, ma’lumotlar oqimi orqali boshqaruv qarorlari qabul qilinadi, bu esa samaradorlik va shaffoflikni oshiradi. Shu tariqa, raqamli transformatsiya nafaqat texnologik, balki konseptual o‘zgarishni anglatadi.

2-jadval. Ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarini boshqaruv tizimiga integratsiyalashuv darajalari

Integratsiya darajasi	Tashkiliy va boshqaruv xususiyatlari	Raqamli monitoring tizimining funksional roli
Past darajadagi integratsiya	Nazorat qilish bo‘linmalari va boshqaruv organlari o‘rtasida axborot almashinuvi minimal darajada. Nazorat faqat yillik hisobotlarga asoslanadi.	Monitoring yillik shaklda amalga oshiriladi. Real vaqt ma’lumotlari mavjud emas. Qarorlar sekin va retrospektiv tarzda qabul qilinadi.
O‘rta darajadagi integratsiya	Boshqaruv organlari va nazorat tizimlari o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjud, lekin u avtomatlashtirilmagan. Tizimlar alohida ishlaydi.	Raqamli tizimlar mavjud, ammo ularning roli yordamchi. Monitoring natijalari boshqaruvga kechikib yetib boradi. Qarorlar yarim avtomatik bo‘ladi.
Yuqori darajadagi integratsiya	Nazorat tizimi boshqaruv jarayoniga avtomatik ulanadi. Ma’lumotlar oqimi markazlashtirilgan holda boshqariladi.	Monitoring tizimi strategik qarorlarni ishlab chiqishda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Qarorlar tezkor, moslashuvchan va aniqlikka asoslangan holda shakllanadi. Sun’iy intellekt tahlilchilari jalb qilinadi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

2-jadval tahlilidan ko‘rinadiki, ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarining boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi samarali ta’lim boshqaruvini ta’minlashda muhim omildir. Past darajadagi integratsiyada qarorlar asosan byurokratik yo‘l bilan, subyektivlik asosida qabul qilinadi. O‘rta darajada texnologik vositalar joriy etilgan bo‘lsa-da, boshqaruv va monitoring orasidagi bo‘shliq mavjud bo‘lib qoladi. Yuqori integratsiya darajasida esa raqamli tahlil, real vaqt ma’lumotlari, va sun’iy intellekt vositalari asosida boshqaruv holati vujudga keladi. Bu esa qaror qabul qilishni shaffof, tezkor va natijaviy qiladi. Integratsiyaning bu darajasi ta’lim sifatining doimiy oshishini ta’minlovchi zaruriy omil sifatida qaraladi.

TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarini boshqarish bo‘yicha quyidagi kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Birinchi navbatda, normativ-huquqiy va institutsional darajada ta’lim sifatini raqamli mezonlar asosida baholash va monitoring qilishni tartibga soluvchi milliy standartlar, indikatorlar klassifikatori va metodik reglamentlar ishlab chiqilishi zarur. Bu hujjatlar ta’lim tizimidagi barcha ishtirokchilar uchun yagona mezon va texnologik vositalar asosida ishlaydigan monitoring tizimlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sifat nazoratining boshqaruv jarayoni bilan uzviy integratsiyalashuvi uchun yagona raqamli boshqaruv platformasi ishlab chiqilishi va barcha ta’lim muassasalari faoliyatini u orqali real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratilishi lozim.

Texnologik darajada esa, real vaqt monitoringi, learning analytics tizimlari, raqamli portfellarning avtomatik tahlili va sun’iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan baholash algoritmlarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali faqatgina yakuniy natijalarni emas, balki o‘quv faoliyati davomiyligidagi sifat ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda aniqlash, solishtirish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, raqamli kompetensiyaga ega

bo‘lgan o‘qituvchilar shtatini shakllantirish uchun uzluksiz o‘qitish, qayta tayyorlash va sertifikatlashtirish tizimi yaratilishi kerak.

Strategik boshqaruv nuqtai nazaridan esa, data-driven yondashuvga asoslangan boshqaruv modeli, ta’lim jarayonida dastlabdan raqamli indikatorlar asosida loyihalash yondashuvi, shuningdek, ta’lim sifatining raqamli reyting tizimini joriy qilish orqali ichki va tashqi monitoring mexanizmlari kuchaytirilishi lozim. Bu tizim shaffoflikni ta’minlab, ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi va ta’lim sifati doimiy oshib borishiga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari endilikda alohida faoliyat turi emas, balki boshqaruv tizimining tarkibiy va strategik elementi sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot natijalari ta’lim sifati monitoringining evolyutsiyasi an’anaviy tekshiruv usullaridan to sun’iy intellektga asoslangan real vaqt tahlil vositalarigacha yetaklab kelayotganini ko‘rsatadi. Biroq, ko‘plab ta’lim tizimlarida bu transformatsiyaning institutsional va texnologik darajadagi uzviy integratsiyasi hali ham sust amalga oshmoqda.

Boshqaruv tizimining samaradorligi raqamli sifat indikatorlari asosida tahlil qilingan axborotlar bilan boyitilmasa, ta’limdagi islohotlar faqat formal xarakterda qoladi. Shu sababli, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun monitoring tizimini raqamlashtirishdan tashqari, ularni real boshqaruv qarorlariga bog‘lovchi integratsion model ishlab chiqish muhimdir. Shuningdek, milliy ta’lim tizimining raqamli muhitga mos moslashuvi uchun standartlashtirilgan indikatorlar, boshqaruv jarayoniga ulanadigan axborot tizimlari va raqamli kompetensiyalarga ega subyektlar faol ishtiroki ta’minlanishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Juran J. M. *Juran on Quality by Design: The New Steps for Planning Quality into Goods and Services* // Free Press. – 1992. – P. 1–350.
2. Harvey L., Green D. Defining quality // *Assessment & Evaluation in Higher Education*. – 1993. – Vol. 18, No. 1. – P. 9–34.
3. Guri-Rosenblit S. *Digital Technologies in Higher Education: Sweeping Expectations and Actual Effects* // Nova Science Publishers. – 2009. – P. 1–184.
4. Berliner D. C. The near impossibility of testing for teacher quality // *Journal of Teacher Education*. – 2005. – Vol. 56, No. 3. – P. 205–213.
5. OECD. *Education at a Glance 2020: OECD Indicators* // OECD Publishing. – 2020. – P. 1–450.
6. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives* // UNESCO Publishing. – 2017. – P. 1–62.
7. Selwyn N. *Education and Technology: Key Issues and Debates* // Bloomsbury Academic. – 2016. – P. 1–224.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF THE COMMUNICATION PROCESS IN THE DEVELOPMENT OF CULTURE OF COMMUNICATION IN STUDENTS

Tajieva Nodira Yusupjanovna
Doctoral student of Urgench State University

Abstract. This article discusses the directions of developing students' communication culture, its characteristics, types, and historical development. The importance of communication processes in the implementation of communication culture has been scientifically analyzed. The terms "communication" and "social communication" are also explained, and their functions are described. Pedagogically characterized are the requirements for observing certain moral norms in the process of communication. The elements and features of communication are considered. The distinctive features of the terms "communication" and "communication" are explained.

Keywords: Communication, communication, speech, communication, social communication, pedagogical culture, pedagogical process.

TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI

Tajiyeva Nodira Yusupjanovna
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nodira.tajiyeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda muomala madaniyatini rivojlantirishning yo‘nalishlari, uning xususiyatlari, turlari, tarixiy taraqqiyoti haqida fikr yuritiladi. Muomala madaniyatini amalga oshirishning kommunikatsiya jarayonlarining ahamiyati ilmiy tahlil qilgan. Shuningdek, “kommunikatsiya” va “ijtimoiy kommunikatsiya” atamalari izohlangan, ularning funksiyalari tavsiflangan. Muomala jarayonida muayyan axloqiy me’yorlarga amal qilish talablari pedagogik jihatdan tavsiflangan. Kommunikatsiyaning elementlari, xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. “Kommunikatsiya” va “muloqot” atamalarining farqli belgilari izohlangan.

Kalit so‘zlar: muomala, muloqot, nutq, kommunikatsiya, ijtimoiy kommunikatsiya, pedagogik madaniyat, pedagogik jarayon.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N49

Kirish. Ilmiy manbalarda muomala, muloqot, ijtimoiy kommunikatsiya tushunchalarining ilmiy talqini keng bayon etilgan. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, birinchidan, “kommunikatsiya” va “ijtimoiy kommunikatsiya” tushunchalari kamdan kam holatlarda bir xil o‘xshash ma’nolarga ega. Ikkinchidan, turli manbalarda “muomala-muloqot” va “kommunikatsiya”ning bir biriga zid nuqtai nazarlarga egaligi haqidagi fikrlar bayon qilingan. Bir guruh mutaxassislar ularni to‘liq holda o‘zaro tenglashtirgan bo‘lsalar, ikkinchi guruhga mansub tadqiqotchilar kommunikatsiya tushunchasi ostida birgina aloqa yo‘nalishi, uchinchi tomondan esa ularni sinonim sifatida talqin etgan holda kommunikatsiya yoki muomala-muloqot atamasi qo‘llaniladi. Biz izlanishlarimiz davomida “kommunikatsiya”, “muomala-muloqot”, “ijtimoiy kommunikatsiya” tushunchalarini oydinlashtirish hamda ularni

tizimlashtirgan holda muomala madaniyati tarkibiga kiradigan tushunchalarni oydinlashtirishga harakat qildik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Muloqot ikki subyekt orasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, u muomala madaniyati talablari asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham muloqot o‘ziga xos tarkibiy qismlari orasida kommunikatsiyani ham mujassamlashtiradi. Bu ma’noda esa muloqot kommunikatsiyaga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. M.A.Vasilik esa kommunikatsiyaning invarianti (o‘zgarmas) sifatida axborot tushunchasini ko‘rsatadi. Muloqot ham axborot xarakteriga egaligi psixologlar tomonidan qayta qayta ta’kidlangan. Shuning uchun ham kommunikatsiya va muloqot tushunchalarini axborot tushunchasi bilan aloqadorlikda anglash va talqin etish mumkin. Chunki axborot ham insonlar orasida almashinadi. Bu jarayonda shaxslararo muloqot amalga oshadi. Shu ma’noda olib qaraladigan bo‘lsa muloqot keng ma’noga ega bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. ushbu o‘rinda ham kommunikatsiya va ijtimoiy kommunikatsiya atamalariga murojaat qilinadi. Chunki ushbu atamalar bir birini to‘ldiradi. Shunga ko‘ra moddiy va ma’naviy borliqdagi barcha munosabatlar kommunikatsiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. chunki ushbu munosabatlar axborot, muloqot, va munosabatlar bilan bog‘liqdir. Ushbu o‘rinda kommunikatsiya tushunchasi muloqot tushunchasiga nisbatan keng ekanligini e’tirof etish lozim. Shunga ko‘ra mutaxassislar kommunikatsiya atamasining muloqot atamasidan keng ekanligi, ijtimoiy kommunikatsiya esa nisbatan top ma’noga ega bo‘lgan tushuncha ekanligini asoslashga muvaffaq bo‘lganlar.

Tadqiqotimizning metodlari va uslublari. Ilmiy tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, pedagogik-psixologik hodisalarning tizimli tahlili va natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Bizning fikrimizcha “Kommunikatsiya” va “ijtimoiy kommunikatsiya” tushunchalari lotin tilidan kirib kelgan bo‘lib, umumiy tarzda muloqot tushunchasi bilan bog‘langan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “kommunikatsiya” so‘zi uch ma’noda qo‘llanilgan. **Kommunikatsiya** – 1. Transport, aloqa yo‘llari va shahar xo‘jaligi er osti tarmoqlari va undagi inshootlar. 2. Kibernetikada: informatsiya (axborot)larni almashish jarayoni. 3. Fikr almashuv, aloqa. [1]

Pedagogika ensiklopediyasida esa **kommunikatsiya** – pedagogikada axborotlarni almashish jarayoni; fikr almashuv, aloqa. Ijtimoiy nuqtai nazardan yondashiladigan kommunikatsiya guruh, tashkilot yoki ta’lim muassasasi ichidagi, butun jamoa ichidagi alohida shaxslar o‘rtasida axborot almashish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bunday turdagi kommunikatsiya, asosan, tabiiy til yordamida amalga oshiriladi. Yakka kommunikatsiyada inson axborotni aniqlashi va idrok etishi (o‘zlashtirishi) katta ahamiyatga ega. Guruh yoki tashkilot ichidagi kommunikatsiya uchun shu guruh yoki tashkilot a’zolari orasida munosabatlarning taqsimlanishi, qabul qilingan kommunikatsiya qoidalarining xususiyatlari ahamiyatli.

Kommunikatsiyaning elementlarini o‘zida ifodalagan chizmalar unda 3 ta ishtirokchi bo‘lishini taqozo etadi.

1. Axborotlarni taqdim etuvchi subyekt, ya’ni kommunikator.
2. Axborotlar taqdim etadigan muloqot obyekti, ya’ni xabarlar.
3. Axborotni qabul qiluvchi subyekt

Ko‘rinib turibdiki kommunikatsiya subyektlar orasidagi o‘zaro munosabatni ifodalab, mazkur munosabat ayrim obyektlarga ham aloqador. A.V.Sokolov tomonidan

kommunikatsiyaning 4 turi ajratilgan: moddiy kommunikatsiya, genetik xarakterdagi kommunikatsiya, psixik kommunikatsiya, ijtimoiy kommunikatsiya. [2]

Psixologik kommunikatsiya – kommunikatsiyaning to‘rtinchi tipiga xosdir, chunki har qanday muloqot ijtimoiy xarakterga ega. Shuningdek ilmiy manbalarda kommunikatsiyaning texnik hamda biologik yo‘nalishlari hisobga olinmagan. Aksariyat mutaxassislar “kommunikatsiya” bilan “ijtimoiy kommunikatsiya” tushunchalarini o‘zaro tenglashtirgan holda tadqiq qilganlar. Bu holat ayniqsa ijtimoiy hamda ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda keng ko‘lamda namoyon bo‘ladi. Muloqot jarayonlarini o‘rganishda xorijlik tadqiqotchilar “kommunikatsiya” atamasini keng qo‘llamoqdalar.

Bugungi kunda “kommunikatsiya” atamasi o‘quv-metodik manbalar, jumladan, ta’lim davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklarida keng qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv hamda ilmiy manbalarda “muloqot” atamasi qo‘llanilmoqda. Aksariyat mutaxassislar “kommunikatsiya” atamasi muloqot so‘zi ifodalagan tushunchalarni qamrab oladimi? degan savolga javob izlamoqdalar. Har ikkala atama uchun umumiy bo‘lgan jihat ularning o‘zaro axborot almashishi va ularni taqdim etish ma’nosini anglatishidadir. Shu ma’noda har ikkala tushuncha ham insoning nutq faoliyati bilan bog‘lanib axborotlarni taqdim etishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlidir.

“Kommunikatsiya” va “muloqot” atamalarining farqli belgilari esa ularning ma’nosi kengligi va torligi bilan belgilanadi. Kommunikatsiya va muloqot tushunchalari turli fanlarning tadqiqot obyekti bo‘lib, shuning uchun ham ushbu tushunchalarning turli yo‘nalishlariga ustuvorlik beriladi. Turli tumanlik va qarama qarshiliklarning mavjudligi ushbu atamalarni tahlil qilishda qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Shuning uchun ham ushbu atamalardan har biriga aniqlik kiritish ehtiyoji kuchaymoqda. Ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda ijtimoiy psixologiyada mazkur zaruriyat tobora kuchaymoqda.

Ushbu atamalarning har biriga aniqlik kiritish uchun birinchi navbatdan “kommunikatsiya” va “ijtimoiy kommunikatsiya” atamalarini tenglashtirish g‘oyasidan voz kechish kerak. Shaxslararo kommunikatsiya atamasi haqida fikr yuritilganda “ijtimoiy kommunikatsiya” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq. Chunki aksariyat manbalarda mazkur atama shunchaki kommunikatsiya so‘zi sifatida qo‘llanilmoqda. Ushbu o‘rinda nafaqat “kommunikatsiya” hamda “muloqot” atamasining mazmun mohiyatini, balki “muloqot” hamda “ijtimoiy kommunikatsiya” atamasining mazmun mohiyati bilan muvofiqlashtirish talab etiladi. Ushbu o‘rinda quyidagilar nazarda tutiladi: “kommunikatsiya” tushunchasini keng ma’noda ham, tor ma’noda ham izohlash maqsadga muvofiq emas. Chunki bu noaniqliklarni vujudga keltiradi.

Kommunikatsiya atamasini keng ko‘lamda qo‘llash maqsadga muvofiq. U tor ma’noda “ijtimoiy kommunikatsiya” atamasi sifatida anglashilib, muayyan darajada oydinlashtirishni talab qiladi. Biz quyida mutaxassislarning kommunikatsiya va muloqot tushunchalarining ilmiy talqiniga oid yondashuvlarini psixologik nuqtai nazardan tahlillarga harakat qilamiz.

Dastlabki yondashuv ushbu atamalarning tayanch kategoriyalarini aniqlashga bo‘lgan urinishlarini o‘z ichiga oladi. Kommunikatsiyaning qanday tushuncha ekanligini aniqlashga oid nuqta nazarlar bilan bir qatorda, muloqotning asosiy tushuncha sifatida talqin etishga oid nuqtai nazarlar ham mavjud. L.V.Volodina ham O.K.Karpuxinlarning tadqiqotlarida kommunikatsiya atamasining 3 ta ma’noga egaligi ko‘rsatilgan: a) har qanday moddiy hamda ma’naviy olamning aloqa vositalari; b) axborotlarni insondan insonga taqdim etishga

yo‘naltirilgan muloqot, bu o‘z navbatida shaxslararo kommunikatsiya sifatida baholanadi; v) jamiyatda shaxslararo muloqot va o‘zaro axborot almashinish, bu o‘z navbatida ijtimoiy kommunikatsiya sifatida anglashiladi.[3] Shunga ko‘ra kommunikatsiya muloqot bilan bir qatorda moddiy va ma’naviy olamning barcha vositalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham kommunikatsiya muloqotga nisbatan keng tushuncha hisoblanadi. uning muloqot bilan bog‘liq jihati axborotlarni taqdim etish imkoniyatiga egaligidadir. Shaxslararo muloqot kommunikatsiyaning turli tuman funksiyalaridan biri hisoblanadi. shaxslararo muloqot muomala madaniyatini o‘z ichiga oladi.

Kommunikatsiya axborot almashinish, axborot oqimi bo‘lib, xabarlar manbai ekanligi bilan xarakterlanadi. Mana shu o‘ziga xoslik uning natijasini aniqlashga imkon beradi. Agar axborot manbalari tabiiy va sun’iy xarakterga ega bo‘lsa, shaxslararo muloqot subyekt sifatida kommunikatsiyaning turli tuman ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi, ko‘rinib turibdiki kommunikatsiya muloqotdan ko‘ra keng ko‘lamli tushuncha ekan.

Ikkinchi yondashuv esa “kommunikatsiya” va “muloqot” tushunchalarining bir biridan farqlash, ya’ni ajratishga yo‘naltirilgan. M.S.Kaganning tadqiqotlarida mazkur yo‘nalishdagi nuqtai nazar o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra uning ta’biricha kommunikatsiya va muloqot ikki xil munosabat orqali farqlanadi. Birinchidan, muloqot amaliy, moddiy va ma’naviy, axborotli va amaliy-ma’naviy xarakterga ega. Kommunikatsiya esa to‘laqonli axborot jarayonidir. Ikkinchidan, ular tizimlarning o‘zaro munosabatga kirishishi orqali farqlanadi. Kommunikatsiya doirasida subyekt-obyekt aloqalari mavjud. Bu jarayonda subyekt muayyan axborotlarni taqdim etadi, ular sirasiga bilimlar, g‘oyalar, axborotlar, daliliy ma’lumotlar, ko‘rsatmalarni kiritish mumkin. Obyekt esa axborotlarni passiv qabul qilib oluvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Obyekt axborotlarni qabul qilib oladi, sifatli o‘zlashtiradi va unga mos tarzda harakatlarni bajaradi. Shuning uchun ham Kaganning fikriga ko‘ra kommunikatsiya bir yo‘nalishli hodisa hisoblanadi. bunda axborot faqat bir yo‘nalishda uzatiladi, shuning uchun ham kim yoki nima qabul qilib olishi katta ahamiyatga ega emas, qabul qiluvchi inson, texnika yoki boshqa mavjudot bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi.

Kommunikatsiya jarayoni monolog, muloqot jarayoni esa dialog xarakteriga ega. Shuning uchun ham dialog suhbatdoshlardan muomala odobiga ega bo‘lishni talab etadi. Shunga ko‘ra muloqot subyekt-subyekt, kommunikatsiya esa subyekt-obyekt xarakteriga ega. Ushbu nuqtai nazardan yondashganda bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi orasidagi dialog munosabatlariga tayyorlash uchun ularda muomala madaniyati ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega.

Ijtimoiy kommunikatsiya va muloqot orasidagi munosabatlarning tahlili ham bizning tadqiqotimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Pedagogika hamda psixologiyaga oid manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, “ijtimoiy kommunikatsiya” va “muloqot” tushunchalari orasida ham o‘zaro aloqadorlik va farqli jihatlari ham mavjud. Ushbu yo‘nalishdagi birinchi yondashuv doirasida har ikkala tushuncha o‘zaro tenglashtiriladi. Ushbu yondashuv tarafdorlari sifatida L.S.Vigotskiy, A.A.Leontev, O.A.Gulevich kabi psixologlarni ko‘rsatish mumkin.

Axborot almashinish muammosini tadqiq qilgan mutaxassislar, ijtimoiy kommunikatsiya jamiyatdagi axborot almashinish faoliyatidan iboratligi, muloqot esa jamiyatdagi axborot almashinishning verbal darajasini ifodalashini ta’kidlaganlar. T.G.Grusheviskaya muloqotni shaxslararo birgalikdagi harakat sifatida baholagan bo‘lsa,

ijtimoiy kommunikatsiyani shaxslararo hamda ommaviy tarzdagi birgalikdagi harakat ekanligini koʻrsatadi. Har ikkala holatda ham muomala madaniyat yetakchi oʻrin egallaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu yoʻnalishda izlanishlarni amalga oshirgan barcha mutaxassislar ijtimoiy kommunikatsiyani muloqotdan keskin farqlaydilar. Shu bilan bir qatorda kommunikatsiya bilan muloqot tushunchalari orasidagi munosabatda qarama qarshiliklar mavjudligi olimlar tomonidan koʻrsatib oʻtilgan. Ular asosiy tushuncha sifatida muloqotni, ikkinchi darajadagi tushuncha sifatida kommunikatsiyani belgilaydilar. Bu taniqli psixologlar B.F.Lomov, A.A.Bodalev, B.D.Parigin, G.M. Andreyevlarning qarashlarida oʻz ifodasini topgan.

G.M.Andreyev oʻz tadqiqotlarida muloqotning uch jihatlarini ajratib koʻrsatgan:

1. Kommunikativ. Bu jarayonda muloqotga kirishuvchi shaxslar orasida axborot almashinish faoliyati amalga oshadi.

2. Interaktiv. Bunda ham muloqotga kirishuvchi shaxslar orasida birgalikdagi harakatni tashkil etishga qaratilgan faoliyat amalga oshiriladi.

3. Perseptiv. Muloqotdoshlarning bir birlarini idrok etish va bilish jarayoni amalga oshirilib, ushbu yoʻnalishda oʻzaro bir birini tushunish koʻnikmalari shakllanadi.

B.D.Parigin esa muloqotning ichki hamda tashqi jihatdan muloqotning strukturasini aniqlashga harakat qilgan.

Ular tomonidan taqdim etilgan muloqotning ijtimoiy-psixologik modeli oʻzida yagona asosga koʻra muloqotni tabaqalashtirishga yoʻnaltirilgan. Shunga koʻra muloqotning ichki mazmunga asoslangan jihati kommunikativ jarayon sifatida shaxsning emotsional jihati va axborot almashinishini aloqadorlikda ifodalaydi. Uning tashqi jihati muloqotning xulq-atvorga asoslangan yoʻnalishini oʻzaro ta'sir asosida amalga oshirishga qaratilgan. Bu muloqot jarayoni subyektlarining birgalikdagi harakatlari va bir birlariga boʻlgan munosabatlarini oʻz ichiga oladi. Xuddi mana shu harakat va munosabatlar muomala madaniyatining koʻrsatkichi sifatida namoyon boʻladi. Shu bilan bir qatorda kommunikatsiya kabi interaksiya (oʻzaro ta'sir) ham shakl va mazmun jihatidan oʻrganiladi. Shunga koʻra kommunikatsiya interaksiyadan farqli tarzda muloqotning mazmun bilan bogʻliq jihatini ifodalaydi.

B.F.Lomov tomonidan muloqotning 3 ta funksiyasi ajratib koʻrsatilgan: axborotli-kommunikativ, regulyativ-kommunikativ, affektiv-kommunikativ funksiyalari.[4] V.N.Panferov esa muloqot jarayonida shaxsning funksiyalarini tasniflashga muvaffaq boʻlgan. Bu jarayonda asosning oʻziga xos koʻrinishlari sifatida shaxsning ruhiy, ijtimoiy psixologik va shaxsning ijtimoiy oʻziga xosligi birgalikdagi faoliyat subyekti sifatida muloqot jarayonining 6 ta funksiyasi ajratib koʻrsatilgan. Ular: kommunikativ, axborotlarni taqdim etuvchilik, kognitiv, hissiy, konnativ (intilishlarning rivojlanishi), kreativ funksiyalar. U muammoning ichki mantigʻini oʻrganish zarurligini ta'kidlab, bu inson tomondan amalga oshirishini koʻrsatadi.

Mualliflarning turlicha yondashuvlariga qaramasdan muloqotning tarkibi va funksiyasini aniqlashda ularning muloqotning ijtimoiy kommunikatsiyaga nisbatan keng qamrovli ekanligi haqidagi qarashlari barcha yondashuvlarni asosini tashkil etadi. Ijtimoiy kommunikatsiya esa muloqotning xususiy jihatlaridan biri ekanligi aksariyat tadqiqotlarda nazariy jihatdan asoslangan.

Ijtimoiy hamda shaxslararo kommunikatsiya oʻzining koʻlami va mazmun mohiyatiga ega. Bu tizimda muomala madaniyati muhim tarkibiy qism sifatida muloqotning mazmun mohiyati va axloqiy, madaniy jihatlarini oʻzida mujassamlashtiradi. Shaxslararo

kommunikatsiya va ijtimoiy kommunikatsiya qaysi jihatlari bilan bir biriga muvofiq kelishi haqida fikr yuritilganda L.V.Volodina va O.K.Karpuxinalarning tadqiqotlarida shaxslararo va ijtimoiy kommunikatsiya turlicha ko‘rinishlarga egaligini asoslanganligini ta’kidlash lozim. Birinchisi axborotlar ayni bir shaxsdan ikkinchisiga yo‘naltiriladi va uzatiladi. Ikkinchi holatda esa jamiyatdagi axborot almashinish haqida fikr yuritiladi. Ko‘rinib turibdiki, mutaxassislar tomonidan asoslangan tasniflar turlicha ko‘rinishdagi ijtimoiy xarakterga ega.

Xulosa. Ijtimoiy kommunikatsiya ayni paytda shaxslararo kommunikatsiya hisoblanadi. Barcha mutaxassislar ijtimoiy kommunikatsiyani bevosita shaxslararo birgalikdagi harakat sifatida baholaydilar, uning natijasida muloqot jarayoni subyektlarining birgalikdagi kechinmalari, bir birlariga ko‘rsatadigan ta’sirlari va bir birlarini tushunishlari amalga oshadi. Bu muloqot jarayoni subyektlarining egallagan mavqelari bilan bog‘liq holda milliy, ijtimoiy, yosh, darajalari, ijtimoiy holatlari, ma’lumotlari bilan bog‘liq holda ularning muomala madaniyatini belgilaydi. Chunki muloqot ham ijtimoiy kommunikatsiya ham shaxslararo birgalikdagi harakatni ifodalaydi. Bu jarayonda muomala madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J.II N-M. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 672 b.
2. A.V.Sokolov Ijtimoiy aloqaning umumiy nazariyasi: Darslik. Sankt-Peterburg: Mixaylov V.A. nashriyoti, 2002 yil.
3. Володина Л. В. Геобрендинг как репутационная технология // Брендинг как коммуникативная технология XXI века. Материалы II Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. под ред. А. Д. Кривоносова. 2016. С. 78-82.
4. Ломов Б. Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. М.: Наука, 1984. 444 с.
5. Jo‘rayev T.T., Halimov S.G`. Nutq madaniyati. O‘quv qo‘llanma.[matn]–Samarqand: Samarqand: Tibbiyot ko‘zgusi, 2021. - 108 b.
6. Rasuluv R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati // O‘quv qo‘llanma. Toshkent - 2015. – 115 b.
7. Safarova R.G. Social-emotional education as an innovative pedagogical henomenon. Journal of learning on History and Social Sciences. e-ISSN: 3031-7347. JLHSS, Vol. 2, No. 2, February 2025. Page 105-110.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI

Sharofutdinova Ra'nokhon Shavkatovna
Associate Professor of Fergana State University, PhD

Abstract. The process of preparing blind and visually impaired students for social life studying in special educational institutions of the "Nurli Maskan" type is analyzed. The main attention is paid to the content, forms and effectiveness of correctional and pedagogical work carried out in these institutions. The research studies the processes of students entering into social relations, adapting to independent life, and acquiring communicative skills, and methodological approaches and practical activities in this regard are highlighted on the basis of comparative analysis. Also, the scientific work substantiates the importance of correctional and pedagogical measures in the formation of independent thinking, personal initiative and life goals in students based on statistical data and observations. The results of the research serve as a scientific and practical basis for improving pedagogical strategies aimed at social adaptation in the special education system.

Keywords: correctional and pedagogical work, "Nurli Maskan", blind students, visually impaired, social adaptation, special education, communication skills, preparation for independent life, social integration, adaptation.

"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI

Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna
Farg'ona davlat universiteti dotsenti v/b, (PhD).
Email: ranoxon3511@gmail.com

Annotatsiya. "Nurli maskan" tipidagi maxsus ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlanish jarayoni tahlil etiladi. Asosiy e'tibor ushbu muassasalarda olib borilayotgan korreksion-pedagogik ishlarning mazmuni, shakllari va samaradorligiga qaratilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning ijtimoiy-munosabatga kirishish, mustaqil hayotga moslashish, kommunikativ ko'nikmalarni egallash jarayonlari o'rganilib, bu boradagi metodik yondashuvlar va amaliy faoliyatlar taqqoslama tahlil asosida yoritilgan. Shuningdek, ilmiy ishda korreksion-pedagogik choralarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy tashabbus va hayotiy maqsadlarni shakllantirishdagi ahamiyati statistik ma'lumotlar va kuzatuvlar asosida asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maxsus ta'lim tizimida ijtimoiy adaptatsiyaga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni takomillashtirish uchun ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: korreksion-pedagogik ishlar, "Nurli maskan", ko'zi ojiz o'quvchilar, zaif ko'ruvchilar, ijtimoiy moslashuv, maxsus ta'lim, kommunikativ ko'nikmalar, mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy integratsiya, adaptatsiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N50

Kirish. Jamiyatda har bir insonning ijtimoiy faolligi, mehnatga layoqati va mustaqil yashash ko'nikmalarining shakllanishi ularning ta'lim-tarbiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, ko'rishida nuqsoni bo'lgan, jumladan, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarning

ijtimoiy hayotga tayyorlanishi o‘ziga xos yondashuvni, maxsus metodikani va korreksion-pedagogik faoliyatni talab etadi. Bunday bolalar uchun mo‘ljallangan “Nurli maskan” kabi maxsus ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta olishiga zamin yaratish maqsadini ko‘zlaydi [1, 45-b.].

Bugungi kunda maxsus pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri — bu ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni ijtimoiy moslashuvga tayyorlash, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash, atrof-muhit bilan to‘laqonli muloqotga kirisha olishlarini ta’minlashdan iboratdir. Shuning uchun “Nurli maskan” tipidagi ta’lim muassasalarida olib borilayotgan korreksion-pedagogik ishlarning mazmunini, ularning tashkiliy-metodik jihatlarini chuqur o‘rganish, mavjud tajribalarni tahlil qilish va samaradorligini baholash ilmiy-ijtimoiy ahamiyatga egadir. Mazkur tadqiqotda aynan ana shu yo‘nalishdagi faoliyatlarning bugungi holati, qo‘llanilayotgan metodlar, ularning samaradorlik darajasi va o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishida tutgan o‘rni aniqlanadi. Tadqiqot natijalari asosida “Nurli maskan”larda ta’lim olayotgan bolalar uchun yanada mukammal, amaliyotga yo‘naltirilgan, ijtimoiy integratsiyani ta’minlovchi pedagogik modellarni ishlab chiqish imkoniyatlari ochiladi [2, 93-b.].

Adabiyotlar tahlili. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishi masalasi maxsus pedagogika, defektologiya, tiflopedagogika va ijtimoiy psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida yotadi. Mazkur masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, xususan, E.S. Bugrimenkova, V.G. Petrov, L.I. Solovyova, S.N. Mironova, E.N. Kutepova kabi xorijiy olimlarning asarlarida korreksion pedagogika jarayonlarining mazmuni va metodik asoslari keng yoritilgan [1, 3, 4]. Ular ijtimoiy adaptatsiyaning psixologik-pedagogik omillari, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bosqichlari va maxsus ehtiyojli bolalarda mustaqil hayot ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy asoslarni ishlab chiqqanlar.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda maxsus ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta’minlash bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Z.A. Xolmatova, D.E. Jo‘rayev, I.T. Toshxo‘jayev, M. Nuraliyeva kabi pedagog-olimlarning ilmiy ishlari korreksion-pedagogik faoliyatni lokal sharoitlarda qo‘llash, metodik tizimlarni yaratish va baholash mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan [5, 6, 7].

Tahlil qilingan adabiyotlar ko‘rsatadiki, korreksion-pedagogik ishlar nafaqat bilim berish, balki ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda shaxsiy faollik, ijtimoiy motivatsiya, hissiy barqarorlik va o‘z-o‘zini boshqarish singari hayotiy muhim ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, “Nurli maskan” ta’lim muassasalaridagi ishlar bugungi pedagogik nazariya va amaliyot asosida, ammo o‘ziga xos sharoit va ehtiyojlar hisobga olingan holda olib borilishi lozim [8].

Ko‘plab manbalarda o‘quvchilarning ijtimoiy tayyorgarligi ko‘proq nazariy yondashuvlarda tahlil qilinib, amaliy monitoring, metodik tajriba asosidagi natijalar yetarli darajada yoritilmagan [9]. Bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu bois, mavjud ilmiy asoslar va tajribalarni jamlab, ularga tayanib “Nurli maskan” tipidagi muassasalarda olib borilayotgan ishlarni o‘rganish orqali ilmiy-amaliy jihatdan samarali tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Muhokama. Tadqiqot davomida “Nurli maskan” tipidagi ta’lim muassasalarida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishiga xizmat qiluvchi korreksion-

pedagogik ishlarning amaliy holati chuqur tahlil qilindi. Muhokama jarayonida quyidagi asosiy jihatlar alohida e’tiborga olindi:

Birinchidan, korreksion-pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi — o‘quvchining shaxs sifatida mustaqil yashash, mehnat qilish, muloqotga kirishish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir [1, 2]. “Nurli maskan” muassasalarida bu boradagi ishlar tizimli amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, mavjud pedagogik yondashuvlar ayrim hollarda umumiy andozalarga tayanadi, shaxsga yo‘naltirilgan individual yondashuv yetarli darajada chuqurlashtirilmagan [3].

Ikkinchidan, o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishida kommunikativ kompetensiyaning o‘rni beqiyosdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu kompetensiya faqat dars jarayonida emas, balki ijtimoiy-maishiy hayotga moslashtirilgan maxsus mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali shakllantirilganda yuqori natijaga erishiladi [4]. Ko‘pgina “Nurli maskan” muassasalarida bunday faoliyatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning muntazamligi va metodik asoslanganligi turlicha [5].

Uchinchidan, pedagog va tiflopedagoglar tomonidan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar samaradorligi bevosita ularning malakasiga, psixologik tayyorgarligiga va innovatsion metodlardan foydalana olish qobiliyatiga bog‘liq [6]. Tadqiqotda ishtirok etgan ayrim muassasalarda bu jihat yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda esa an’anaviy uslublar hukmronligi kuzatildi.

To‘rtinchidan, ota-onalar bilan olib borilayotgan hamkorlik darajasi ham ijtimoiy tayyorlov sifatiga ta’sir etuvchi muhim omildir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishida oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan taqdirda, ularning adaptatsiyasi va shaxsiy o‘sishi tezroq kechadi [7]. Afsuski, ayrim muassasalarda ota-onalar bilan ishlash faqat ma’lumot yetkazish bilan cheklanib, amaliy ishtirok deyarli kuzatilmaydi.

Yakuniy muhokama sifatida aytish mumkinki, “Nurli maskan” tipidagi muassasalarda olib borilayotgan korreksion-pedagogik ishlar ijobiy natija bermoqda, biroq ularni yanada tizimlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, innovatsion usullarni tatbiq qilish va oilaviy hamkorlikni mustahkamlash orqali ijtimoiy tayyorlov sifatini yanada oshirish mumkin. Mazkur yo‘nalishdagi faoliyatlar jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish va imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni to‘laqonli fuqarolik hayotiga tayyorlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi [8, 9].

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot va tahlillar asosida “Nurli maskan” tipidagi maxsus ta’lim muassasalarida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishiga qaratilgan korreksion-pedagogik ishlar quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi:

Korreksion-pedagogik ishlarning tizimliligi – Aksariyat muassasalarda o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar muntazam olib borilmoqda. Bu esa o‘quvchilarda jamiyatga integratsiyalashish ehtiyojini uyg‘otmoqda.

Metodik yondashuvlarning xilma-xilligi – Darsdan tashqari faoliyatlarda rolli o‘yinlar, hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, sensorli va taktil mashqlar, ovozli muhitga moslashish bo‘yicha mashg‘ulotlar qo‘llanilib, ijtimoiy-hayotiy tajriba orttirishga xizmat qilmoqda.

O‘quvchilarda ijtimoiy faollikning oshgani – Korreksion ishlarga muntazam jalb etilgan o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, muomala qilishga, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul

qilishga moyillik koʻrsatayotgani kuzatildi. Bu esa ularning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir koʻrsatmoqda.

Kadrlar salohiyati va metodik tayyorgarlikning ahamiyati – Malakali tiflopedagoglar va psixologlarning faol ishtiroki mavjud muassasalarda oʻquvchilar ijtimoiy faoliyatga tezroq moslashayotgani aniqlandi. Bu esa kadrlar malakasining asosiy omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Oila-maktab hamkorligining kuchsizligi ayrim hollarda toʻsiq boʻlmoqda – Ota-onalar bilan yetarlicha ishlanmagan hollarda oʻquvchilarning ijtimoiy tayyorgarligi sust kechayotgani, oʻziga ishonch pastligi va tashabbuskorlik darajasi cheklangani qayd etildi.

Monitoring va baholash mexanizmlarining takomillashuvga muhtojligi – Korreksion-pedagogik ishlarning natijadorligini aniqlashda yagona, aniq mezonlar va diagnostik vositalarning yetarli emasligi samaradorlikni baholashda subyektiv yondashuvlarga olib kelmoqda.

Umuman olganda, “Nurli maskan” ta’lim muassasalarida olib borilayotgan korreksion-pedagogik ishlar ijobiy dinamikaga ega boʻlib, ijtimoiy tayyorlov sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq bu yoʻnalishda tizimlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish orqali faoliyat samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Xulosa. “Nurli maskan” tipidagi maxsus ta’lim muassasalarida koʻzi ojiz va zaif koʻruvchi oʻquvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishini ta’minlovchi korreksion-pedagogik ishlarning oʻrganilishi asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Korreksion-pedagogik ishlar ijtimoiy tayyorlovning negizi sifatida — Oʻquvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, muloqotga kirishish va shaxsiy mas’uliyat kabi ijtimoiy koʻnikmalar aynan tizimli va maqsadli korreksion faoliyat orqali shakllanadi. Bu faoliyat ijtimoiy moslashuv va jamiyatga integratsiyalashuvda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Amaliyotga yoʻnaltirilgan metodikalar yuqori samaradorlik koʻrsatmoqda — Ijtimoiy rollar, hayotiy vaziyatlar modellashtirilgan mashgʻulotlar, koʻzi ojiz bolalarga moslashtirilgan didaktik oʻyinlar orqali oʻquvchilarning real hayotga tayyorgarligi kuchaymoqda.

Oʻqituvchi va tiflopedagoglarning professional tayyorgarligi hal qiluvchi omildir — Malakali mutaxassislar mavjud boʻlgan muassasalarda oʻquvchilarning shaxsiy oʻsishi va ijtimoiy faolligi yuqori darajada kuzatildi. Bu esa pedagog kadrlar malakasini oshirishni strategik vazifa sifatida belgilaydi.

Ota-onalar bilan samarali hamkorlik zarur — Oila va maktab oʻrtasidagi muntazam hamkorlik bolalarda ijtimoiy faollik, oʻziga ishonch va emotsional barqarorlikni kuchaytiradi. Shu bois, korreksion-pedagogik jarayonda ota-onalarni faol ishtirok etishga yoʻnaltirish kerak.

Monitoring tizimlari va diagnostika vositalarini takomillashtirish lozim — Korreksion faoliyat natijadorligini baholashda yagona va aniq mezonlarning mavjud emasligi amaliy ishlar samaradorligini toʻliq ochib bera olmayapti. Shu sababli diagnostika metodlarini ishlab chiqish va joriy etish dolzarbdir.

Muassasalarda innovatsion yondashuvlar yetarli emas — Texnologik vositalar, multimodal oʻquv materiallari va moslashtirilgan raqamli resurslar yetarli darajada joriy etilmagani zamonaviy ta’lim standartlariga toʻliq javob bermaydi. Bu yoʻnalishda modernizatsiya ishlari jadallashtirilishi lozim.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, “Nurli maskan” ta’lim muassasalarida olib borilayotgan korreksion-pedagogik ishlar orqali ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun zarur poydevor yaratilmoqda. Biroq bu faoliyatni ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion yo‘nalishda yanada boyitish orqali mazkur ta’lim tizimining real natijadorligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Soliyev, A., & Toshpo‘latova, S. (2020). *Maxsus pedagogikaning nazariy asoslari*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Abduqodirov, M. (2021). *Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari*. Samarqand: Ixtisoslashtirilgan pedagogika nashriyoti.
3. Бугрименкова Е.С. *Коррекционная педагогика: теория и практика*. – Москва: Академкнига, 2017.
4. Петров В.Г. *Тифлопедагогика в системе специального образования*. – Санкт-Петербург: Речь, 2018.
5. Соловьёва Л.И. *Социальная адаптация детей с нарушением зрения*. – Москва: Владос, 2016.
6. Миронова С.Н., Кутепова Е.Н. *Методика коррекционной работы с детьми с ограниченными возможностями здоровья*. – Екатеринбург: УрФУ, 2019.
7. Xolmatova Z.A. *Maxsus pedagogika: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Fan, 2020.
8. Jo‘rayev D.E. *Korrektsion pedagogik faoliyatda metodik yondashuvlar*. – Farg‘ona: Ilm ziyo, 2021.
9. Toshxo‘jayev I.T., Nuraliyeva M. *Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash metodikasi*. – Samarqand: Barkamol, 2022.
10. Abduqodirov M. *“Nurli maskan” ta’lim muassasalari faoliyati tahlili*. – Toshkent: Ta’lim, 2023.
11. Xasanova D.M. *Maxsus ta’limda ijtimoiy moslashuv: tahlil va istiqbollar*. – Andijon: Ilmiy markaz, 2022.
12. Soliyev A., Toshpo‘latova S. *Maxsus pedagogikaning nazariy asoslari*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
13. Bugrimenkova E.S. *Psikhologo-pedagogicheskie osnovy sotsializatsii detey s OVZ*. — Moskva: Akademkniga, 2018.
14. Jo‘rayev D.E. *Korrektsion pedagogik yondashuvlar*. — Farg‘ona: Ilm ziyo, 2021.
15. Solovyova L.I. *Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi*. — Moskva: Vlados, 2019.
16. Mironova S.N. *Modelirovanie sotsialno-bytovykh situatsiy v spetsialnom obrazovanii*. — Sankt-Peterburg: Rech’, 2020.
17. Toshxo‘jayev I.T., Nuraliyeva M. *Maxsus ehtiyojli bolalarni o‘qitishda innovatsiyalar*. — Samarqand: Barkamol, 2022.
18. Xasanova D.M. *Ota-onalar bilan samarali hamkorlik metodlari*. — Andijon: Ta’lim, 2022.
19. Abduqodirov M. *“Nurli maskan” muassasalarida ijtimoiy integratsiya*. — Toshkent: Ijtimoiy rivojlanish markazi, 2023.
20. Xolmatova Z.A. *Ijtimoiy moslashuv va inklyuziya nazariyalari*. — Toshkent: Fan, 2024.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 8 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT"

Karimov Akramjon Zaynobidinovich
Tashkent State University of Law,
Acting Professor of the Department of General Educational Disciplines and Culture,
PhD in Physics and Mathematics, Associate Professor
e-mail: vomiraka@yandex.ru

Abstract. The article discusses the capabilities of some decision support systems, the study of which within the framework of the academic discipline "Information Technologies in Management" strengthens students' knowledge and skills in alternative methods and means of decision making.

Keywords: decision support system, "QM for Windows", MPriority, SPSS, MiniTab, expert system, neural network technology.

"BOSHQARISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" O'QUV FANINING "QARORLAR QABUL QILISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMLARI" MODULI BO'YICHA AMALIY DARSLAR MAZMUNIGA OID

Karimov Akramjon Zaynobidinovich
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasi
professori v.b., f.-m.f.n., dotsent

Annotatsiya. Maqolada qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimlaridan ayrimlarining imkoniyatlari ko'rib chiqilgan, ularni "Boshqaruvda axborot texnologiyalari" o'quv fani doirasida o'rganish talabalarning qaror qabul qilishning muqobil usullari va vositalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi, "QM for Windows", MPriority, SPSS, MiniTab, ekspert tizimi, neyrotarmoq texnologiyasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N51

Introduction

The academic discipline "Information Technologies in Management" naturally contains topics aimed at forming, enriching and strengthening the professional competence of the future specialist. In addition, the main subjects of most areas of education that train specialists in the field of management include the discipline "Information Technologies in Management" and, in our opinion, the inclusion of the topic "Decision Support Systems" in this discipline is appropriate, based on the requirements of the fast-paced modern era.

If the academic discipline "Decision Support Systems", included in the profile "Design and Development of Artificial Intelligence Systems" of the main professional educational

program in the specialty "Information Systems and Technologies" [1], is intended for specialists in this particular field, then within the framework of the academic discipline taught to students of the social and humanitarian direction, the topic "Decision Support Systems (DSS)" is designed to provide students of the initial year of the bachelor's degree with an approximate minimum of knowledge and skills at the user level.

The decision-making process is a unique intellectual analytical process that requires the necessary knowledge, experience and abilities of the decision maker (DM) or the decision-making group. Experience and intuition may not always be equally effective in decision-making. Analytical methods, especially software tools created on the basis of these methods – computer decision-making systems, can effectively help decision makers in difficult and complex situations that require decision-making.

Methods and literature review

The methodological basis of this article is a review and analysis of domestic and foreign sources devoted to the issues of teaching DSS. Both academic publications and normative and methodological materials were studied, including the working programs of universities, as well as the results of the introduction of practice-oriented approaches into the educational process.

A literature review showed that DSS training is most often implemented using case methods, simulation models, the use of specialized software, and students' project activities. Considerable attention is paid to developing systemic thinking skills, modeling decision-making processes, and analyzing criteria for the effectiveness of choice.

In foreign practice, the emphasis is on integrating DSS with other components of management information systems, including ERP and BI systems. At the same time, online platforms and environments for visual modeling are actively used, which allows students to master both theoretical aspects and practical tools.

The methodological approach presented in this article, which consists in the implementation of the module "Decision Support Systems" in the academic discipline "Information Technologies in Management", was formed on the basis of the experience of teaching this discipline, as well as the synthesis of the above-mentioned practices with their adaptation to the conditions of domestic higher education. At the same time, the main attention is paid to the development of students' competencies in the field of analysis of management tasks, the choice of rational solutions based on criteria, as well as the development of digital tools that implement the functions of the DSS.

This methodological study is based on a selective review of current decision support systems that can be used in the educational process when studying the discipline "Information Technologies in Management". The brief review we have presented does not claim to be complete and is of a guiding nature when forming the content of practical classes.

Discussion. DSS studied in practical classes

Below we briefly discuss the capabilities of some decision support software tools.

Program «QM for Windows». This program has separate modules aimed at solving many types of practical problems, each of which serves to achieve an optimal solution based on quantitative methods. For example, the software module of this system, called "Project Management", is effectively used in planning large projects. It pays attention to the optimal distribution of time, labor and financial resources. This module is a tool for optimal project management.

Also, the "Linear Programming" module of the "QM for Windows" program is created on the basis of the linear programming method, helps to come to the correct and most effective specific solution for linear programming problems, in particular, the optimal organization of production, ensuring a given coverage, distribution of financial resources, food rations, when preparing various pharmaceutical or chemical mixtures and solutions.

In addition, many modules of the QM for Windows program, such as Assignment, Decision Analysis, Forecasting, Game Theory, Transportation, allow you to come to a certain conclusion when making decisions on various types of issues.

MPriority Program.The hierarchy analysis method and the MPriority program created on its basis can be effectively used in decision-making by indicating the most effective option from alternative solutions, according to the definition of criteria priorities in multi-criteria problems.

It is noteworthy that the only author of the analytic hierarchy process is the American scientist Thomas Saaty [2].

The MPriority program assumes that decision makers have the ability to distinguish between alternative solutions and subjective criteria for their evaluation, correctly set criteria priorities, and compare their aspects that correspond to the criteria from descriptions of alternative solutions. Consequently, the significance of applying the hierarchy process analysis method to multi-criteria problem solving is also emphasized by the fact that it takes into account not only quantitative indicators, but also the mental and spiritual-psychological characteristics of the decision maker.

One of the advantages of the MPriority program is that the program interface is simple and intuitive. After entering the basic data into the program, an analytical process takes place with the participation of the program user. The user does not need special mathematical training. MPriority allows the user or decision maker to choose the most effective solution among alternative solutions, taking into account the priorities of the criteria.

Programs "SPSS" and "MiniTab". It is possible to forecast the activity of the system by quantitatively assessing the course of activity in the sample based on multifactorial correlation-regression analysis. Effective automated software tools for correlation-regression analysis have been created, which are now decision support systems. These include the programs "SPSS" ("Statistical Package for the Social Sciences") and "MiniTab". These systems are capable of determining correlations of processes in the social, economic, political and other spheres, showing their quantitative and graphical expression, assessing the density of dependence, automatically calculating statistical values, building a regression model, showing the values of forecasting intervals, and are also capable of predicting the future of processes of a certain type through time series analysis.

Expert systems. These systems, which are considered automated intelligent information systems based on a knowledge base in a specific area, are among the most modern software tools that support decision making. Their mathematical support consists mainly of Boolean algebra and the rules and procedures of formal logic. However, recently, due to the rapid development of neural network technologies, hybrid intelligent tools such as neural networks with deep learning and equipped with fuzzy logic have become the basis of modern intelligent systems.

The capabilities of the original expert systems are manifested in decision-making by representatives of a professional network differentiated in different spheres on issues related to a similar sphere, or in obtaining information related to the same similar sphere for which the knowledge base of the expert system is formulated. If classical expert systems are distinguished by the ability to recommend a specific solution based on a knowledge base on complex issues, then in the work [3] “a stable tendency was identified towards building DSS based on integrated neural network approaches, which is practically possible and economically feasible, since it allows obtaining distributed and trainable DSS, stable over time and able to adapt to a changing corporate IT landscape.” Indeed, by today, expert systems are becoming fundamentally trainable, capable of accumulating knowledge in the process of functioning, analyzing and generalizing the results of experts' actions. “In fact, expert systems are gradually acquiring cognitive abilities associated with cognition, forecasting and human-like methods of decision-making.”[4].

Results and conclusion

The organization of practical sessions on Decision Support Systems (DSS) within the academic course "Information Technologies in Management" involved developing a comprehensive teaching and methodological package. This was implemented using software tools such as "QM for Windows," "MPriority," and "MiniTab." Student engagement and enthusiasm in completing practical tasks using these programs indicate the success and appropriateness of integrating this topic into the core curriculum during the early years of the bachelor's program. While this topic serves mainly as an introduction for students, it effectively draws their attention to modern digital tools for analysis, decision-making, and management. More detailed study and proficiency in DSS can be pursued in advanced courses covering statistical analysis, system analysis, management, and decision-making techniques. Therefore, dedicating only a minimal number of hours to SPSS and expert systems is sufficient, considering that these areas might require knowledge from other related disciplines and additional training, which can be delivered through seminars as part of the "Information Technologies in Management" course.

In summary, it is important to recognize that students may one day become managers. Therefore, they should understand that a modern manager—regardless of the management field—must possess key leadership skills such as systematic thinking, proficiency in contemporary analytical decision-making methods, and familiarity with decision support software. These competencies are essential for making accurate and effective decisions.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Azhmukhamedov, I. M. Working program of the discipline SPPR [Electronic resource]: curriculum. - Astrakhan: ASU named after V. N. Tatishchev, 2022. - 24 p. Access mode:https://asu-edu.ru/images/File/Sistemi-podderzhki-prinyatiya-resheniy.pdf (in Russian)
2. Saaty, Thomas L. Relative Measurement and its Generalization in Decision Making: Why Pairwise Comparisons are Central in Mathematics for the Measurement of Intangible Factors - The Analytic Hierarchy/Network Process (англ.) // RACSAM (Review of the Royal Spanish Academy of Sciences, Series A, Mathematics): journal. – 2008. – June (vol. 102, no. 2). –P. 251–318.

3. Demidovsky, A. V. Integrated neurosymbolic decision support systems: problems and prospects / A. V. Demidovsky, A. V. Babkin // Business Informatics. - 2021. - Vol. 15. - No. 3. - P. 7-23. DOI: 10.17323/2587-814X.2021.3.7.23. (in Russian)
4. Analysis of the Features of Constructing Expert Systems / A. V. Rechinsky [et al.] // Bulletin of Tula State University. Technical Sciences. - 2023. - Issue. 4. - P. 199-205. DOI: 10.24412/2071-6168-2023-4-199-205. (in Russian)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).